TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

# XIDIR DERYAYEV

95



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

# XIDIR DERYAYEV






"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT – 2022

UO'K 821.512.164-3
KBK 84(5Tur)
X 47

**Tahrir hay'ati:**

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

**Ishchi guruh:**

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Bahodir Karim, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

**To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:**

**Abdulla Ulug'ov**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8721-2-7

©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

## TARIXIY DAVR KO'ZGUSI

Turkman adabiyotining yorqin namoyandasi Xidir Deryayev ijodi XX asr turkman adabiyotida alohida o'rin tutadi. Uning asarlarida davr ijtimoiy voqeligi milliy turmush kundalik hodisalari asosida aks ettiriladi. Adibning xalq hayoti yorqin gavdalantirilgan asarlari o'quvchilar e'tiborini qozonib keladi. Ular turli bahs-munozaralar, e'tirof va inkorlarga sabab bo'ladi. Yozuvchining asarlarida XX asr sho'ro adabiyotiga xos ko'pgina xususiyatlar bo'rtib ko'rinib turadi. Ularda xalq hayoti, oddiy odamlar bilan amaldorlar, mulkdor boylar, manfaatparast dindorlar o'rtasidagi muomala-munosabat haqqoniy ifodalangan.

O'z asarlari bilan ming-minglab kitobxonlar e'tiborini qozongan Xidir Deryayev 1905-yilda Turkmanistonning Mari viloyatidagi Egriguzar qishlog'ida tug'ilgan. U 1987-yilda 82 yoshida Ashxobod shahrida vafot etgan. Xidir Deryayevga 1967-yilda "Turkmaniston xalq yozuvchisi" unvoni berilgan. U 1969-yilda Turkmaniston Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi etib saylangan. Xidir Deryayev 1926-yilda Toshkentdagi maorif institutini, 1931-yilda esa O'rta Osiyo davlat universitetini o'qib tamomlagan. Ashxobod pedagogika institutida o'qituvchi (1931-yil), kafedra mudiri (1938-yil) bo'lib ishlagan, turkman mumtoz adabiyotini tadqiq etish va nashr qilishda faol qatnashgan. U birinchi turkman tili darsligi muallifidir. Xidir Deryayev ham aksariyat qalamkashlar singari ijodini she'r yozishdan boshlagan. Uning ilk kitobi "Kuyla, dutorim" deb nomlangan. Unda she'rlar jamlangan. Shundan keyin uning "Amudaryo" (1928-yil), "O'kinchmi yo maslahat" (1929-yil) dostonlari bosilib chiqqan. "Amudaryo" dostonida Turkmanistondagi suv muammosi to'g'risida so'z yuritilgan. "O'kinchmi yo maslahat"da esa odob-axloq mavzusi yoritilgan. Xidir Deryayevning "Bo'ron" romani (1974-yil), "Orzu" dostoni

bosilib chiqqan. U "Mehri" (1964-yil), "Xo'janafas" (1969-yil) dramalarini yozgan.

Xidir Deryayevning "Qonli panja" asari (1937-yil) turkman adabiyotidagi dastlabki realistik roman sifatida e'tirof qilinadi. Yozuvchi ushbu asarini qayta ishlab, unga ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi qismlarni qo'shgan va ko'p tarmoqli sujetdan iborat ushbu asarini "Qismat" deb nomlagan. 1960–1971-yillarda yaratilgan "Qismat" romanida XX asr birinchi choragidagi turkman xalqi hayoti bevosita turmushidan olingan voqealar asosida ta'sirchan aks ettirilgan. Shu bois mazkur asar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otgan. Chunki unda bebosh odamlar ko'paygan, adolatsizlik avj olgan, mazlumlar "Qayerga borib, kimga arz qilayin?" deb zor qaqshagan, "Faqat kuchlilar yashashga haqli" degan changalzor qonuni hukm surgan mudhish zamon manzarasi chizib berilgan. Romanni mutolaa qilgan kitobxon "Qismat" dagi Berdi, Uzukjamol singari qahramonlarning "Toleying ters kelsa, bir somon parchasi ham boshingni yoradi" degan nolasini eshitib, iztirobga tushadi, Bekmurodboy, Omonmurod, Saidahmad eshon kabi personajlar xatti-harakatidan barcha zamonda ham manfaatparastlar fe'l-atvorida xudbinlik, zo'ravonlik, riyokorlik, fisq-fasodga moyillik kuchli bo'lishini anglab yetadi. "Qismat"da ijtimoiy tarixiy davr manzarasi turli tabaqa vakillarining o'zaro aloqasi, oilalardagi ahvol va sevgi-muhabbat munosabatlarini ko'rsatish orqali gavdalantiriladi, Berdi, Uzukjamolning samimiy sevgisi misolida oddiy odamlarning ishq-muhabbat yo'lidagi matonati, jasorati madh etiladi. Muallif Murod og'a, uning xotini O'raz xola, dugonasi O'g'ilniyoz xola kabi personajlar obrazida oddiy odamlarning turmush tarzi, orzu-umidlarini, ularning dunyoqarashidagi o'zgarishlar jarayonini ifoda qiladi. Asarda Uzukjamolning qalb dunyosi, sevgi-muhabbati xuddi xalq dostonlaridek yorqin romantik bo'yoqlarda tasvirlanadi. Xidir Deryayev sevishganlar obrazini yaratishda ham, boshqa personajlar qiyofasini gavdalantirishda ham Abdulla Qodiriyga taassub qilgan. U "O'tkan kunlar" romani mullifini o'ziga ustoz deb bilgan. Xidir Deryayev bu xususda fikr bildirib: "Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani menda bir umrga unutilmas taassurot qoldirgan va ilhom bag'ishlagan. Shundan keyin menda

turkman xalqining o'tmishi to'g'risida roman yozish ishtiyoqi tug'ildi. Katta niyat bilan "Qismat" romanim ustida ish boshladim" deb ta'kidlagan. Haqiqatan ham "O'tkan kunlar" romani "Qismat" asarining paydo bo'lishiga samarali ta'sir ko'rsatgan, mashhur o'zbek adibining asari ulug' turkman yozuvchisining romani uchun o'ziga xos andoza vazifasini bajargan. Xidir Deryayevning mazkur asarini o'qigan o'quvchi ayni holatni, albatta, payqaydi. "O'tkan kunlar" romanining "Qismat"ga barakali ta'siri, ayniqsa, undagi Uzukjamol, Berdi kabi oddiy xalq vakillari obrazida, Bekmurod, Omonmurod, Saidahmad eshon, Subhon xasis kabi yuqori tabaqa namoyandalari qiyofasi, xatti-harakati tasvirlangan o'rinlarda yaqqol seziladi. "O'tkan kunlar" romanida Otabek, Kumush obrazi jismoniy barkamollik, ma'naviy yetuklik timsoli sifatida gavdalantirilganidek, "Qismat"da ham Uzukjamol, Berdi siymosi matonat, jasorat ramzi sifatida taqdim qilinadi.

Sujeti keng tarmoqli "Qismat"da barcha voqealar Uzukjamol bilan Berdi taqdiriga kelib tutashadi. Asarda ijtimoiy tarixiy davr manzarasi ana shu ikki obraz orqali ochib beriladi. Muallif o'z maqsadini yoshlarning sevgi-muhabbati bilan bog'liq mojarolarni qalamga olish asosida ifodalaydi. Roman sujeti dramatik voqealardan tashkil topgani uchun o'quvchini sira zeriktirmaydi. Keskin to'qnashuvlardan iborat voqealar Berdi va Uzukjamolning baxtli hayotiga tajovuz qilgan kuchlarning o'zaro manfaatdorlikka asoslangan g'ayriinsoniy xatti-harakatlari sujetga dramatik tus berib, asar badiiy to'qimasiga singishib ketadi. "Qismat"da turkman o'lkasi tabiati tasviri asar qahramonlarining holati, kayfiyatiga muvofiq ravishda aks ettiriladi. Bahor, yoz, kuz va qish fasli manzaralari, Qoraqum cho'li, qishloq, shahar ko'chalari, odamlarning uy-joyi ko'rinishi, personajlarning ichki kechinmalarini ifoda qilishda o'ziga xos vosita, muhim fon vazifasini bajaradi. Masalan: "Bahor har yerga o'zgacha bir go'zallik olib keladi. Bog'larda daraxtlar turli-tuman rangga kirib gullaganda yaylovlar qizg'aldoqlar bilan bezanadi. Ko'z ilg'amas yashil kengliklarda faqat bahor paytidagina esadigan mayin, nafis, xushbo'y shabada o'ynaydi. Keng o'tloqning balandroq bir joyida o'tirgan cho'pon yigit Berdi yoyilib yurgan suruviga o'ychan nazar tash-

laydi" deyiladi. Romanda qishloq, shahar ko'chalari, boylar, kambag'allarning hovli-joyi ko'rinishi ham shu tarzda sodda ifodalanadi. Ular o'ziga xos belgi, alomatlariga ko'ra qahramonlarning dunyoqarashi, xarakteri xususiyatlarini ochishga xizmat qiladi. Ayni chog'da ular bundan bir asr avvalgi tarixiy davr ijtimoiy hayotini tasavvur qilish imkonini beradi. Berdi va Uzukjamolni qurshagan muhit, ularga qarshi turgan kuchlar harakat qilayotgan maydon tasviridan "Qismat" tarixiy mavzudagi roman ekanligi, undagi personajlarning hayotda aniq prototipi bo'lganligi oydinlashadi. "Qismat"dagi: "Bozorda gadoy ko'p edi. Murod og'a faqirona kiyingan bo'lsa ham, har qadamda gadoylar uning yo'lini to'sib, xayr so'rashar edi. Cho'ntagida mayda chaqasi yo'qligidan xijolat bo'lib, janda kiygan odamning ko'pligidan hayratlanib borayotgan Murod og'a bir joyda ozg'in dehqonning cho'ntagiga qo'l solayotgan kissavurni ko'rib qoldi" kabi o'rinlar G'afur G'ulomning mashhur qissasi boshlanish qismini yodga soladi. Ulardan Xidir Deryayevning romanida ham xuddi "Shum bola" asaridagi singari XX asr avvalidagi ijtimoiy voqelik obyekt qilib olingani ayonlashadi. "Shum bola" qissasida: "Bozorda sanqib yurgan biz daydi bolalar uchun quvonchli ermaklardan biri bozor, mahalla, ko'cha-ko'y jinnilari edi. O'sha yillarda Toshkentda shunaqa ham jinni ko'p ediki, sanab sanog'iga yetolmaysiz: Malla jini, Karim jinni, Mayramxon, Xol parang jip-jinni, Tojixon, Juft kaptar, Olim jinni, Eshon oyi, Ovoz jinni va boshqalar... Otalarimizning o'ziga ish topilmaganda, bizga ish qayda deysiz. Erta-kech ko'cha changitib, hammaning joniga tegib, kampirlardan qarg'ish eshitib, o'spirinlardan kaltak yeb, sandiroqlab yuradigan uvindixo'r bekorchi bolalarmiz... Ne ko'z bilan ko'ray, mana, ishonmasangiz, Omon ham guvoh. O'rtada bizga qo'shni bo'lgan Qug'urmoch mahallalik mashhur Sulton o'g'ri turar edi. Bu gal u kissavur sifatida emas, balki pul o'g'irlatgan jabrdiydada bechora sifatida kosibsimon yuvoshgina bir yigitning yoqasidan ushlagan holda, ko'ziga yosh olib turar edi" deyiladi (G'ulom G'. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2003. — 352-b. — 158-b.).

"Qismat" romanining o'ziga xos jihati shundaki, muallif unda obyekt qilib olingan ijtimoiy davr uchun xarakterli obrazlar yaratadi. Xidir Deryayev ushbu asarida ma'rifatsizlik, jaholat hukm surgan zamonda "Faqat kuchlilar yashashga haqli" degan changalzor qonunini o'z aqidasi qilib olgan odamlar behad bebosh bo'lib ketishi, bunday muhitda adolatsizlik avjiga chiqib, mazlumlar, jabrdiydalar ko'payishini hayotiy voqealar misolida ko'rsatib beradi. Bekmurodboy, uning ukasi Omonmurodga o'xshagan kimsalar johilligi tufayli zolim, zo'ravonga aylanishi va boshqalarning insoniy haq-huquqini toptashi, ulardan, ayniqsa, Uzukjamol, Berdi singari oddiy odamlar ko'p jabr ko'rishiga o'quvchini ishontiradi. Turkman adibining mahorati shundaki, u ma'rifatdan bebahralik din mohiyatini anglamaslikka olib kelishi, kishilarni ma'naviy majruh qilib qo'yishi, odamlar dunyoqarashi torligi tufayli nima halol, nima harom ekanini farqlay olmasligi, zo'ravon, mushtumzo'r kimsalar ko'payib, aholining aksariyat qismi qashshoqlashib ketishini diqqat markaziga qo'yadi. Bekmurodboy, Omonmurod kabi zo'ravonlar, Saidahmad eshon, Subhon xasis, archin Mamat singari nafs bandalari aldoqchilik, qalloblikni kasb qilib olishi, ochko'z kimsalar shaxsiy huzur-halovatini el-yurt manfaati, din ahkomlaridan ustun qo'yishi, ular odamgarchilik, adolat, haqiqat degan tushunchalarga bepisand qarashini ishonarli voqealar asosida fosh etadi. Adib Uzukjamol, Berdi bilan Omonmurod, Bekmurodboy o'rtasidagi keskin, murosasiz ziddiyatni ko'rsatish orqali zulm, zo'ravonlik xuddi o'ziga o'xshagan hodisaga yo'l ochishini yoritadi. Insonning haq-huquqlari toptalgan muhitda qonunlar oyoq osti bo'lib qolishi, adolatsizlikka toqat qilolmagan jabrdiyda odamlar "Tog'ning boshi qorsiz bo'lmas, yigitning boshi jangsiz bo'lmas" degan maqol to'qib, zolimlarga qarshi kurashga otlanishi, xunrezlikning har qanday ko'rinishi esa g'oyat xunuk hodisa ekaniga e'tiborni jalb etadi. Yozuvchi Bekmurodboy va uning tarafdorlari xatti-harakatini ko'rsatish orqali o'quvchiga zo'ravonlikka asoslangan xonadonda osoyishtalik, xotirjamlik bo'lmasligi, zulm, albatta, qasd olish, xunrezlikni keltirib chiqarishi to'g'risida saboq berishga erishadi. U XX asr dastlabki choragidagi turmush kartinasini chizish, o'sha davr kishilarining dunyoqarashi, turmush

Omonmurod pichog'ini qinidan olib, darchadan hatlab kirdi. — Agar joning sabil qolgan bo'lsa, mana, mana! — deb Uzukni ikki-uch tepdi, keyin boshiga pichoqning sopi bilan urdi. Uzukning boshidagi yashil baxmalda qonli dog' qorayib ko'rindi. Uzuk yana behush bo'lib qoldi. Bekmurodboyning xotini: "Bo'ldi, Omonmurod, bas, o'ldirib qo'yasan!" — dedi-da, Uzukni quchoqlab oldi. Boshqa ayollar o'zlarini chetga olib jim turishardi. Omonmurod hansirab darchadan chiqdi-da, boyagi joyiga borib o'tirdi. Bekmurodboyning xotini Uzukning peshonasiga sirqib tushgan qonni artdi, uni hushiga keltirish uchun yuziga suv sepdi. Uzuk ko'zini xiyol ochdi, alahsib, madorsiz tovush bilan: "Oyijon! — dedi. — Xudo bormikan? Bor bo'lsa... bular shu... shuncha zulm qilganda... qanday qapab turadi?.. Bular nega... zavol ko'rmaydi?.. Oyijon, o'limimni... o'limimga roziman!.." deb qalamga olinadi.

Uzukjamol va Berdining sevgi-muhabbati mojarolari, Bekmurodboy, Omonmurod, Saidahmad eshon xonadonidagi ayollar ahvoli tasviridan millatning madaniy darajasi, muayyan zamon va makondagi ijtimoiy hayot manzarasi avvalo xotin-qizlarga munosabat masalasi bilan bevosita bog'liqligi oydinlashadi. Turkman adibi mazkur romanida "Xotin-qizlar insoniy haq-huquqlarining toptalishi — millat tanazzulining asosi" degan g'oyani ilgari suradi. Yozuvchi Uzukjamol va Berdining azob-uqubatga to'la hayot yo'lini shu maqsadda yoritadi, zulm va zo'ravonlik bir-biriga bog'liq adolatsizliklarga yo'l ochishi, qasoskorlik va xunrezlikni keltirib chiqarishiga diqqatni qaratadi. Xidir Deryayev ayni asarida manfaatparast dindorlar, zo'ravon amaldorlar, mulkdor boylarning boshqalarni tahqirlashi, xo'rlashi, qonunsiz xatti-harakatlarida ko'makchi, yordamchiga aylanishi, bu esa ijtimoiy turmushdagi fojialarning chuqur ildiz otishiga olib kelishi, odamlarning hayotga qarashi, dinga e'tiqod qilishi, o'zaro munosabati, ma'naviy-axloqiy turmushiga salbiy ta'sir o'tkazishini sujet voqealari ichiga singdirib yuboradi. Muallif "Qismat"da Saidahmad eshon, Qovoq shayx, Enaquti, Cherkez eshon va boshqa personajlarning turmush tarzi orqali din ahkomlaridan o'zining g'arazli maqsadlarida foydalanadigan manfaatparast kimsalarni fosh etadi. Xidir Deryayev o'zining ustozi sanagan ulug' o'zbek adibi Abdulla Qodiriy ham

"O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlarida zolim hukmdorlar din ulamolariga tayangan holda, xalqqa jabr-zulm o'tkazgani, xotin-qizlarni asoratga solganini chuqur achinish va iztirobga to'lib ifoda qiladi.

"Qismat"da Bekmurodboy, Subhon xasis, archin Mamat obrazlarida harom luqma, boylikka o'chlik kishini ma'naviy-axloqiy tubanlashtirib, ochko'z, zo'ravonga aylantirib qo'yishi, zolimlarning g'olibona xatti-harakatlari ta'sirida odamlar ongida "Amaldorlar, puldorlar bechora odamlarni xohlaganicha xo'rlayveradi. Bunga chidash, toqat qilishdan o'zga chora yo'q. Zamona hamisha zo'rniki!" degan g'ayriinsoniy tushuncha tug'ilishi urg'ulanadi. Subhon xasis Bekmurodboyga: "Men ukangizga shu qizni olib beraman dedimmi, bir so'zimni ikki qilmayman" deb aytadi. U Uzukjamolga yoki uning ota-onasiga hech qanday qarindosh emasligi, birovning qizi ustidan shunday hukm chiqarishga haqi yo'qligini aslo xayoliga ham keltirmaydi. Aksincha Bekmurodboyga: "Ota-onasi yaxshilikcha rozi bo'lmadimi, endi boshqa yo'lini o'ylaylik. Ota-onasini ko'zini moshday ochib qo'yaylik" deb qizni zo'rlik bilan tortib olib ketish kerakligi to'g'risida yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Birovlarga zo'ravonlik qilib, harom-harish yo'llar bilan ko'p mol-davlat orttirgan Bekmurodboy bilan Subhon xasis o'zaro suhbatlarida Uzukjamolning "Qizimiz hali yosh. Uni uzatolmaymiz" deb e'tiroz bildirgan ota-onasi to'g'risida: "Bunaqa cho'ponlarni jarga tashlab yuborsangiz ham kam... Itning bo'yniga gavhar taqsang, it ham yig'laydi, gavhar ham... Qurbaqa ot bo'laman deb temirchiga borsa, temirchi uning oyog'ini taqalab o'tirmaydi, bir urib o'ldiradi-qo'yadi" deb bepisand gapiradi. Romanda zulm, zo'ravonlik kuchaygan, insoniy mehr-oqibatga putur yetgan chirkin zamonning bebosh odamlari behad haddidan oshgani ularning muloqoti orqali shu tarzda gavdalantiriladi.

Albatta, barcha sho'ro davri odamlari faoliyati singari Xidir Deryayev ijodi ham o'sha zamon mafkurasi talablari bilan uzviy bog'liq ravishda kechganki, bundan ko'z yumib bo'lmaydi. Ayni holat esa Muxtor Avezov, Oybek, Abdulla Qahhor singari mashhur adiblar asarlarida ham mavjudligi, buning uchun esa ularni aslo aybdor etib bo'lmasligini hamma yaxshi biladi. "Qismat"da Bek-

murodboy, Omonmurod, Subhon xasis, archin Mamat, Saidahmad eshon, Qovoq shayx, Enaquti obrazlari qora bo'yoqlarda gavdalantirilib, ular insoniylikdan tamoman mahrum tuban kimsalarning mujassami sifatida taqdim qilinadi. Lekin ularning o'z maqsadiga erishish yo'lidagi xatti-harakati turmush voqeligiga muvofiq holda ishonarli ko'rsatiladiki, bu jihatdan muallifga aslo e'tiroz bildirib bo'lmaydi. Yozuvchi ular timsolida ma'rifatdan bebahralik, ma'naviy kamolotga erishish uchun intilmaslik har qanday kishining insonga berilgan hayot mazmunini anglash, idrok etishiga to'sqinlik qilib, dunyoqarashini toraytirib qo'yishi, natijada, odam xudbin, manfaatparast, shafqatsiz, yovuz bo'lib qolishini ta'kidlaydi. Xidir Deryayev turmushda barcha zamonda ko'p kuzatiladigan bu hodisani o'tmish voqeligini badiiy aks ettirish asosida ochib beradi. U dunyoqarashi, maqsad va intilishlari turlicha personajlar o'rtasidagi keskin to'qnashuvlarni juda jonli va ta'sirchan tasvirlaydi. Albatta, "Qismat" matnida turmush voqeligini aks ettirishda personajlarning xatti-harakati, ichki kechinmalarini qalamga olishda badiiy tasvirlashdan ko'ra tavsiflash, bayon qilish ustun turadi. Xidir Deryayev romanining ayni xususiyati, ayniqsa, qozoq adibi Muxtor Avezovning "Abay", "Abay yo'li", ozarbayjon yozuvchisi Muhammad Said O'rdubodiyning "Qilich va qalam" asarlari bilan qiyoslaganda yaqqol bilinadi. Lekin bu "Qismat"ning ko'pgina sahifalarida davrning ijtimoiy turmushi haqiqati o'z aksini topgani, personajlar portreti, voqealar kechadigan manzil-makonlar ko'rinishi, tabiat manzaralari kartinasi san'atkorlik bilan chizilganini inkor qilmaydi.

Odamlar keskin tarzda boy va kambag'alga ajralgan, kishilar o'rtasida moddiy tafovut haddan tashqari kuchayib ketgan ziddiyatlarga to'la o'tmish zamon voqeligi obyekt qilib olingan "Qismat"da personajlar portreti: "Uzuk — o'n olti yoshli, baland bo'yli, bug'doyrang yuzli, xushmuomala qiz" deya tavsiflansa, Omonmurodning ko'rinishi, xatti-harakati: "Oldinda qisiq ko'zli, burni katta, kalta soqolli, oyoq-qo'li uzun bir kishi kelmoqda edi. Uning juni uzun turkmancha qora telpagi tasmaga bog'lanib, bo'ynining orqasiga tushirib qo'yilgan. Yangi qizil to'ni ustidan bog'langan sariq ipak belbog'i va poshnasi baland xrom etigi uning

badavlat odamlardan ekanini ko'rsatib turardi... Ayollar o'zlarini ichkariga oldilar. Uzuk dahshatli bir xatarni sezganday bo'g'inlari bo'shashib, devor tagiga o'tirib qoldi. Qisiq ko'zli kishi Bekmurodboyning ukasi Omonmurod edi. U eshikdan kirgach, ko'zlarini suzib ayollarga bir-bir qarab chiqdi. So'ng qashqir tezligi bilan Uzukka tashlandi-da, uni qo'liga ko'tarib oldi" tarzida ifodalanadi. Bekmurodboyning ko'rinishi: "Ot dupuri Uzukning ashulasiga xalaqit berdi. Qiz eshikdan tashqariga qaradi-yu, hovliga bashang kiyingan bir otliq kirib kelayotganini ko'rib, yuragi negadir "shuv" etib ketdi. Peshanasi qashqa, dumi va yollari qora to'riq ot suvdan chiqqanday yiltillab turar, otliqning egnida yangi piyozi chakmon, boshida uzun yungli turkmancha cho'girma, oyog'ida mashhadiy gulli etik, qora soqoli yaxshilab tarashlangan, yuzi qip-qizil" tarzida sodda va oddiygina qilib chiziladi. Uning hamtovoqlaridan biri Subhon xasis esa: "Qalin soqoli ko'pdan beri taroq ko'rmay chigal bo'lib ketgan, qoshlari o'siq bu odamning boyligi behisob. Lekin o'zi jag'i yirtilgan eski kalish kiyib yuradi. Egnidagi bo'z ko'ylagi kirlanib, eskirib ketgan" deb tanishtiriladi. Asar asosiy qahramonlaridan biri Uzukjamolning otasining holati to'g'risida: "Oftob ufqqa engashgan sari yakkam-dukkam o't o'sgan qum tepalarning soyalari uzayib borar edi. Odam yashaydigan joylardan o'nlab chaqirim uzoqdagi shu qum tepalar orasida bir suruv qo'y yoyilib o'tlayapti. Egri tayog'ini yelkasiga tashlagan moshguruch soqolli, baland bo'yli, qotma cho'pon damba-dam qo'lini peshonasiga soyabon qilib, kun chiqish tomondagi qum tepalar ortiga tikiladi. Uning ko'zlari bezovta. Osmon bulutsiz, yer ham osuda. Qo'ylar xotirjam yoyilib yuribti. Egasi bilan izma-iz yurgan ulkan bo'ynoq it ham "miq" etmaydi. Ammo keksa cho'pon Murod og'aning ko'ngli juda notinch" deyilib, u murosasiz to'qnashuvlar maydoniga olib kiriladi. "Qismat"da hikoya, qissa, roman matni asosini tashkil etadigan tabiat manzarasi tasviri, personajlar portreti kabi badiiy ifoda vositalari sujet unsurlari bilan shu tarzda o'zaro uyg'unlashib ketadi.

"Qismat"da Bekmurodboy va uning ukalari Omonmurod, Chori, qishloq boyi Subhon xasis xatti-harakatlarida o'zini boshqalardan ustun qo'yish, o'zgalarni itoat ettirish, bo'ysundirishga odatlanish

kishining diydasini qotirib, berahm, shafqatsiz, zolim qilib qo'yishi ko'rsatiladi. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanida bu haqiqatni: "Qo'rg'on ustida yasov tortgan qahramonlar qo'l bog'lab, ikki bukilgansimon ta'zim bilan Azizbekni ilgariga o'tkaza boshladilar. Azizbek ularga qarshi oltin sopli qamchinini ko'kragiga ko'ndalang qo'yib, boshi bilan javob ishorasi berib, oldinlar edi. Shu kezda boshlar uyumi (odamlarning kesilgan boshlari uyumi! — A.U.) yonida turgan qo'rg'on begisi otidan yerga tushib, jilovini qovushtirilgan qo'llari orasiga oldi. Boshlar uyumi (naqadar dahshatli, naqadar ayanchli, naqadar xunuk! — A.U.) bilan Azizbek orasi qirq-ellik ot odimi qolgan edi. Azizbek qahramonlarning salomlariga javob qaytarishni ham unutib, ko'zini kesik boshlarga tikdi. Azizbekning orqasidagi sarkarda va sipohlar ham bu dahshat uyumini egarga qiyshiq o'tirib, tomosha qilar edilar" tarzida ifodalaydi.

Romanda muallif hayotda zolim, zo'ravon, talonchi, ochko'z, yovuz, hiylagar, makkor kimsalarni ko'p ko'rgani yaqqol bilinadi. Yozuvchi XX asr birinchi choragi badiiy solnomasi deyish mumkin bo'lgan mazkur romanida Bekmurodboy, Omonmurod, Chori, Subhon xasis, archin Mamat, Saidahmad eshon, Enaquti, Qovoq shayx kabi personajlar qiyofasida boshqalarga zulm qiladigan ma'naviy tuban kimsalarga xos sifat va belgilarni mujassamlashtiradi. Ular maqsad-muddaosiga erishish uchun do'q, dag'dag'a, mushtumzo'rlik, aldash, firibgarlik singari barcha iflos vositalarni ustomonlik bilan ishga solishi, o'zining chirkin olamini turli usullar bilan yashirishga tirishishini ko'rsatib beradi. "Qismat"dagi ayni personajlar ma'rifat nurlari xira tortgan zulmat zamon uchun xarakterli kimsalar obrazi sifatida tasavvurda jonlanadi. Adib bu obrazlarda ma'naviy majruh kimsalarning hayoti tarziga aylangan zo'ravonlik, zolimlik, shafqatsizlik, aldamchilik, firibgarlik, qalloblik, fahshni fosh qiladi. "Faqat kuchlilar yashashga haqli" degan aqidaga amal qiladigan kishilar qalbida vijdon, odamgarchilik, vafo kabi ezgu hissiyotlar so'nib bitishi, ular din ahkomlari, davlat qonunlarini ham o'zining shaxsiy manfaati, huzur-halovatini ko'zlab, talqin qilishini ta'kidlaydi. Bekmurodboy, Omonmurod, Subhon xasis, Saidahmad eshon, Enaquti, Qovoq shayx, archin

Mamat tanazzul hukm surgan zulmat zamonning butun bir ijtimoiy toifasi turmush tarzini, ma'naviy-axloqiy qiyofasini ochib beruvchi obraz sifatida taassurot qoldiradi. Ular o'zining tashqi ko'rinishi, yuz-ko'zi, ovozi, ot-ulovi, muomala tarzini odamlarga ta'sir ko'rsatish vositasiga aylantira oladi, qachon do'q urib qo'rqitish, qamchi ko'tarish, qachon din ahkomlarini ko'ndalang qilishni yaxshi biladi. Romanda manfaatparast, shuhratparast, zo'ravon, qallob kimsalarning niqobi ochib tashlanib, ularning haqiqiy basharasi turmush bag'ridan olingan voqealar orqali ta'sirchan tarzda ko'rsatiladi. Muallif o'tgan asr avvalidagi ijtimoiy turmush kartinasini chizar ekan, kishilarga jabr-zulm qilinishi, xotin-qizlarning haq-huquqi toptalishini keskin qoralaydi. U halol mehnat qilib, kun kechiradigan, zolim, zo'ravon kimsalar zulmidan ezilsa-da, odamgarchiligini yo'qotmagan Uzukjamol, Berdi, Murod og'a, O'raz xola kabi personajlariga mehr-muhabbat bilan qaraydi.

Sujeti markazida sevgi-muhabbat mavzusi turgan, turli tabaqa vakillari oilaviy hayoti quyuq bo'yoqlarda chizilgan, voqealari personajlar o'rtasidagi keskin to'qnashuvlarga asoslangan, qahramonlari xuddi Abdulla Qodiriy, Oybek, Muxtor Avezov, Muhammad Sad O'rdubodiy asarlaridagi singari musbat obrazlar va manfiy obrazlar sifatida ikki turkumga ayrilgan "Qismat" romanida bundan yuz yil avvalgi ijtimoiy-tarixiy davr voqeligi shu tarzda o'ziga xos ijodkorona mahorat bilan aks ettirilgan.

**Abdulla Ulug'ov,**
*filologiya fanlari nomzodi*

# BIRINCHI KITOB

## GILAM
## TO'QUVCHI QIZ

Baland muzliklar etagidan kelayotgan Murg'ob daryosi o'z manbaidan bir necha yuz chaqirim uzoqlashgach, ulkan, bahaybat qoya toshlar qurshoviga tushib qoladi. Daryo go'zal istiqbol sari shoshiladi, biroq uchurimli tog'lar uning yo'lini to'sib, toshlarga bosh urishga majbur qiladi. Bezovta to'lqinlar bilan metin toshlar to'qnashuvi ulug'vor guvillab sado beradi. Tosh ungurlar daryoni yutib yuborganday, Murg'ob goho ko'rinmay qoladi. Biroq daryo qoya toshlar orasidan qilichday yiltirab chiqadi-da, shimol tomonga yo'l oladi. Shu uchurimli qoyalar orqada qolgach, daryoni bir ko'prik kesib o'tadi. To'rli tomondan daryoga qarab kelgan yo'llar va so'qmoqlar ko'prikka kelib birlashadi-yu, undan nari o'tgach, yana har tarafga taralib ketadi. Bu yo'llardan biri ancha joygacha ariq bo'ylab boradi, goh ulkan daraxtlar orasiga kirib ko'rinmay ketadi, goh kichik-kichik ko'priklardan egilib-buralib o'tadi, so'ng chorvador, g'allakor bir qishloqning qator tushgan uylariga yondashadi.

Bag'ri keng erlarga joylashgan bu qishloqning eng badavlat odami — Subhonboy. Shuning uchun buni "Subhonboylarning qishlog'i" deyishadi. Uylardan chetroqdagi yantoq g'aramlari atrofiga mollar o'tolmaydigan xandaqlar qazib qo'yilgan.

Qishloqdan narida — ko'z ilg'amas keng yaylovlarda qo'y-echkilar, qoramollar yoyilib yuradi. Subhonboyning qora quloq tuyalari kuni bo'yi yantoqzorlardan chiqmaydi: ba'zilari uzun bo'ynilarini cho'zib, yantoqlarning qirmizi gulini chilpib eyishadi, to'yganlari haykalday qotib sukut saqlaydi, ba'zilari o'tloqqa cho'kkalab yotib, kavsh qaytaradi. Bu qishloq bilan qo'shni qishloq oralig'idagi sug'oriladigan ekinlar, dov-daraxtlar bor. Goho ekinzordagi dehqonlarning:

— Ha-a-a-av! Molingni egasi, qarasang-chi, ekinni payhon qilyapti! — degan hayqirig'i quloqqa chalinadi. Uylardan esa ot dupuriga o'xshash bosinqi tovush eshitiladi: ayollar gilam to'qishyapti.

Qishloqning narigi chetida ko'rimsizgina bir uy bor. Bu uyda gilam to'qiyotgan qizning tarog'i boshqalarnikidan kuchliroq sado beradi. Tong otganda ko'p ayollar zarb bilan urilgan shu taroqning sasidan uyg'onishadi.

— Uzuk bugun ham bizdan erta turibdi-ya! Balo-da! — deyishadi.

Go'zalligi va mehnatsevarligi bilan butun qishloqning havasini keltiradigan Uzuk — o'n olti yoshli, baland bo'yli, bug'doyrang yuzli, xushmuomala qiz. Uning otasi Murod og'a o'ttiz yildan beri Subhonboyning qo'yini boqib, biri ikki bo'lmagan kambag'al odam. Shuni bilgan ba'zi badavlat kishilar: "O'zi nima-yu, qizi nima bo'lardi,— deb burunlarini jiyirishadi. — Sho'rpeshona g'arib odam-da". Haqiqatan, Murod og'aning aka-ukasi yo'q. Qizi bo'yi yetgan sari uni bir o'y tashvishga soladi. Yolg'iz o'zi qo'y boqib yurganda "Ishqilib, zavol ko'rmasin-da, — deydi. — Juda ko'zga yaqin qiz. Bu zamonda do'stdan ko'p dushman. Men bir kimsasiz g'arib odamman... Biron kori hol bo'lmasdan durustroq kishiga uzatsam, bearmon o'tarmidim..."

Murod og'aning o'zi bilan o'zi gaplashib yurganini sezgan yosh-yalanglar birda-yarim hazil ham qilishadi:

"Kecha yaylovga chiquvdim, bir soyda uch-to'rt kishi rosa gap talashayotganini eshitib qoldim. "Kimlar ekan bular?" deb yaqinroq borsam, Murod og'aning bir o'zi... o'zi bilan bahslashib o'tirgan ekan!" deyishadi. Odamlar kulishadi-yu, ammo Murod og'aning dardini xotini O'raz xoladan boshqa hech kim bilmaydi. Uzuk ham qarsillatib gilam to'qish bilan ovora. To'qigan gilamiga tushgan har gul unga kelajakda bir sevinch keltiradiganday, Uzuk ertangi kundan faqat shodlik va baxt kutadi.

## KO'CH KELARMI YO GO'ZAL?

Bahor har yerga o'zgacha bir go'zallik olib keladi. Bog'larda daraxtlar turli-tuman rangga kirib gullaganda yaylovlar qizg'aldoqlar bilan bezanadi. Ko'z ilg'amas yashil kengliklarda faqat ba-

hor paytidagina esadigan mayin, nafis, xushbo'y shabada o'ynaydi. Keng o'tloqning balandroq bir joyida o'tirgan cho'pon yigit Berdi yoyilib yurgan suruviga o'ychan nazar tashlaydi. Qo'ylarning hammasi yerdan bosh ko'tarmay o'tlab yuradi, faqat qo'zichoqlar onalarining atrofida sakrab, chopib o'ynashadi.

Berdi qamishdan yasalgan sivizg'asini chaladi-yu, birdan ashula boshlaydi:

*Bu-unda mening-ey,*
*Bu-u-unda mening-ey,*
*O'z dilbarima-a ko'rinmas-ey!*

Quvonchli bir o'y xayolidan o'tadi: "Erta-indin Subhon xasis hamma sog'uvchilarni yaylovga ko'chirib chiqarar. Shu sog'uvchilar bilan Uzuklar ham kelishar. Qishloqda ko'rganimga necha oy bo'ldi?.. Ko'zlarining chaqnashidan... Mayli borga o'xshaydi... Kelsa, yaylovda xoli topib bir gaplashsam... Agar ko'ngli bo'lsa.. Dunyodagi eng baxtiyor yigit men bo'larmidim!.. To'rt yildan beri Subhon xasisning qo'yini boqaman. Uzuk hozir o'n oltida. Yana ikki yil cho'ponlik qilsam, o'n sakkizga kiradi.

Uzuk "xo'p" desa, olti yillik ish haqimni shundan olsam-u, otasining qo'liga bersam. "Buni oling, desam, ota-onam yo'q, yetimchaman, sizlarga farzand bo'layin, desam.

Qolgan gapni sovchilar tushuntirsa. To'y bo'lsa... Uzuk oq bilaklari bilan sekin bo'ynimdan quchsa... Oh!"

Berdi o'z xayolidan o'zi hayajonlanib ketdi. Eng baland tepalikni tanlab, o'shanga chiqdi-yu, qishloq yo'liga sabrsizlik bilan tikildi.

Ammo tekis yaylovda qo'y suruvlaridan bo'lak hech narsa ko'rinmas edi. Berdi qaysi bir ashuladan esida qolgan so'zlarga Uzukning nomini qo'shib:

*Kel, gulim, kel, kel, yorim,*
*Kel, Uzuk jonim, keel!*

— deb iltijo ham qilib ko'rdi. Yo'q, bugun yaylovga hech kim kelmadi. Ertasi kuni tushda qo'y-qo'zilar qo'tonda yotib dam

olayotganda Berdi Uzuklarning qo'rasi uchun yaxshiroq joy tanlab, o'choq yasadi. Chodir o'rnatiladigan yog'ochlar uchun chuqurchalar qazidi. Bu ish bilan bo'lib, ko'ch ortilgan tuya karvoni yaqinlashib qolganini ancha kech ko'rdi.

Yuragi o'ynab, karvonga qarab yugurdi.

Ammo Uzukka yaqinlashganda va qizning hayo bilan boqqan quvonchli ko'zlarini ko'rganda odob saqlash kerakligi esiga tushdi. Avval Uzukning onasi bilan, so'ng yoshi ulug'roq boshqa ayollar bilan so'rashdi. Uzukka esa bir og'iz: "Eson-omon yuribsanmi, Uzukjamol?" dedi, xolos. Qalbini to'ldirgan sevinch va hayajonni Uzukning o'n to'rt yashar ukasi Turdi bilan ko'rishayotganda bildirib qo'ydi. Uni quchoqlab: "Keldingmi-a, akasi jonidan, keldingmi-a!" deb, baquvvat qo'llari bilan dast ko'tarib oldi, havoda bir-ikki aylantirib, yana yerga qo'ydi.

Uzuk bu erkalatishning o'ziga atalganini sezganidan Berdiga sho'x bir nazar tashladi-da, sekin jilmayib qo'ydi.

Hozir shu jilmayishning o'zi ham Berdini baxtiyor qilar edi. U birpasda Uzuklarning chodirlarini o'rnatib berdi. O'raz xola qozonini Berdi yasagan o'choqqa osgan edi, xuddi o'lchanganday to'g'ri keldi.

— Voy, qo'ling dard ko'rmasin, Berdijon, o'choqni qozonimga loyiq qilib yasabsan,— dedi kampir.

— Men bu qozoningizni yaxshi bilaman-da, O'razsulton xola,— dedi Berdi.— Bu qozondan qancha shirin ovqatlar yeganmiz!

Berdi ishlab charchamas, hammaga yaxshilik qilgisi, hammani quvnoq ko'rgisi kelar edi. Shuning uchun Uzuklar yoniga tushgan boshqa oilalarga ham chodir o'rnatishda yordamlashdi. Ayollardan biri uni Uzukning oldida duo qilib:

— Berdijon, ilohim kam bo'lma, Xudo senga chiroyli xotin bersin,— dedi.

Bu gapni Uzukning onasi ham eshitdi-yu:

— Ilohim shunday bo'lsin, pariday qizni olgin, bolam,— dedi.

Berdi kishi bilmas Uzukka ko'z tashladi. Uzuk uyalinqirab yerga qarab turar edi. Berdi ichida: "Menga qara, Uzuk,— dedi,— Xudo menga pari bermasa ham mayli, ota-onang seni bersa bas, o'zing paridan ham go'zalsan!"

Berdi qo'ylarini haydab ketgandan keyin qo'shni ayollar Uzuklarnikiga choy ichishga to'planishdi. Shunda hammalari Berdini maqtab ketishdi. Uzuk choydish qaynatish, choy damlash bilan band bo'lsa ham ayollarning Berdi haqidagi so'zlarini bitta qoldirmay eshitar edi. Berdini maqtashganda qizning qalbi shodlik va iftixor tuyg'ulari bilan to'lib toshardi...

* * *

Murg'ob daryosiming bahorgi toshqinlari Qorachungul yaylovlarida tiniq ko'llar qoldirgan. Qo'y-qo'zilar shu ko'llardan suv ichadi, atrofdagi ko'm-ko'k o'tloqlarda yoyilib, saraton kirguncha rosa semiradi. Sovliqlarning yelinlari sutga to'lib tirsillaydi, uch-to'rt oylik qo'zilar esa barra o'tlar bilan to'yib qoladi. Mana shu paytda qo'y sog'ish boshlanadi. Yaylovga ko'chib chiqqan har bir oila ellik-oltmishtadan sovliq oladi. Har kuni tushda va kechqurun sovliqlar ko'kalga qator qilib ko'kanlanib, birma-bir sog'ib chiqiladi.

Berdi sovliqlardan ajratilgan qo'zilarni boqadigan bo'ldi va Turdini o'ziga yordamchi qilib oldi. U doim Uzukning yaqinida bo'lishga intilar, xoliroq payt topib, u bilan bir gaplashgisi kelar edi. Qo'ylar sog'ishga haydab keltirilganda Berdi sovliqlarni Uzuk bilan birga ko'kanlar edi. Odatda, cho'pon yigitlar qo'y sog'ishni yaxshi bilishadi. Uzuklarning chodiri oldiga qator qilib ko'kanlangan sovliqlarning bir qismini Berdi sog'ar edi. Yoshlik hayosi tufaylimi yoki ayollar Berdini odobli yigit deb maqtaganlari yolg'on chiqmasin uchunmi, har holda, u qo'y sog'imida ham odatni buzmaslikka tirishar edi. Odatga binoan bir qator sovliqlarni ikki odam sog'adigan bo'lsa, sog'im qatorning ikki chetidan boshlanardi. U vaqtlarda uzoq yaylovlarda chelak kam bo'lar, sut og'zi katta suvqovoqlarga sog'ilar edi. Uzuk bilan Berdi bittadan qovoqni tizzalariga qisib, sovliqlar qatorining ikki chetidan ish boshlashdi va bir-birlariga asta-sekin yaqinlashib kelishar edi. Faqat o'rtadagi ikki sovliqni ikkovi yonma-yon o'tirib sog'ar, butun sog'im davomida Berdi mana shu daqiqalarni orziqib kutar edi. Xuddi shu daqiqalarda Berdi Uzukning iffat bilan nafas olganini eshitar, goho ularning yelkalari bir-biriga sekin tegib ketar edi.

Berdi "o'rtadagi ikki sovliqning suti hech tamom bo'lmasa ekan" der, ammo Uzukning chaqqon qo'llari ishni tez bitirib qo'yar, qovoq ham sutga to'lib qolar edi. Shunda Berdi Uzukning qovog'idagi sutni chodir oldidagi qozonga eltib bo'shatib kelmoqchi bo'lar edi. Biroq Uzuk uni ishga solib, o'zi qarab turishdan iymanar va qo'lidagi qovog'ini bermas edi. Ochiq joy bo'lgani uchun ular hammaning ko'zi oldida turishar, ikkovi ham odamlarga erish ko'rinadigan biror ish qilishdan o'zlarini tiyishar edi...

Qo'yning suti seryog' bo'ladi. Qatiqni yonliq deb ataladigan charm kuvda pishib, qisman yog'ini olishadi. Keyin bir necha kun suvini oqizib qo'yib, suzma qilishadi.

Uzuk kelganlaridan beri shu suzmadan to'qqiz qozon qurut pishirganini Berdiga aytdi.

— Ketguncha yana bir qozon qurut pishirar edim-u, o'tinimiz tamom bo'lib qoldi, — dedi.

Berdi kechasi sahrodan saksovul ko'tarib keldi-da, hech kimga bildirmasdan Uzuklarning o'chog'i yoniga qo'yib ketdi.

Uzuk ertalab turib, buni kim qilganini sezdi, "voy" o'lmasam, Berdi akamni rosa qiynab qo'yibman-ku", deb ichida o'zini urishdi. Lekin tushda qo'y sog'ayotganlarida Berdi o'zining qilgan ishidan mamnun ekanini, vujudidan yigitlik kuchi yog'ilib turganini, o'tin ko'tarib kelish uni ortiqcha qiynamaganini sezdi. Shundan keyin Uzukning qalbida ham ajib bir sevinch, g'ayrat mavj ura boshladi. U kuv pishar ekan, yonliqdagi qatiq dengiz to'lqinlari kabi jo'sh urib ko'pirar edi. Uzuk birpasda ikki yonliq qatiqni pishib, yog'ini oldi. Oyisi uning haddan tashqari ishtiyoq bilan ishlayotganini ko'rdi-yu:

— Ha, bolam, bugun muncha g'ayrating zo'r? — dedi.

— Oyi, bugun yana bir qozon qurut pishiraylik.

— O'tining tamom bo'lgan edi-ku.

— O'choqning oldidagi o'tinni ko'rmadingizmi? Berdi akam olib kelibti. Bizga shuncha ko'maklashdi. Bugun pishiradigan qurutimni Berdi akamga qoldirib ketamizmi-a, oyi?

— Buni yaxshi o'ylabsan, qizim. Men hozir borib, o'choqqa o't yoqay bo'lmasa...

Uzuk kuni bilan qozon qaynatib, suzmani qiyomiga keltirdi. Keyin ona-bola qozonni o'choqdan olishdi. Uzuk maxsus yog'och

kapgir bilan quyuq suzmani pishitishga tushdi. U bu gal qurutni alohida bir hafsala bilan tayyorlar, shunaqa paytda aytiladigan ashulani past, mayin tovush bilan kuylar edi:

*"To'lish, to'lish, to'lish, qurutim,*
*To'lishmasang bo'lish, qurutim!*
*Endi qaytib pishitmayin,*
*Yana olovga qo'ymayin,*
*To'lish, qurutim, to'lish, qurutim,*
*To'lishmasang bo'lish, qurutim!"*

Shu payt o'choq boshiga Berdi kelib qoldi:

— Horma, Uzuk!

— Bor bo'ling...

— Quruting qalay bo'lyapti?

— Bilmadim. Istasangiz tatib ko'ring.

Bir chetda Turdi yog'och qoshiq bilan suzmadan yeb o'tirgan edi. U Berdiga bitta qoshiq uzatdi. Berdi qozondagi suzmadan olib tatib ko'rdi-yu:

— Asal bo'lib ketibdi-ku, Uzuk, — dedi. — Mol egasiga o'xshaydi, deganlari rost ekanda.

Uzuk ukasi tomonga uyalib, ko'z tashladi. Turdi suzma yeyish bilan ovora edi. Uzuk hayo bilan yaltillagan ko'zlarini Berdidan yashirib:

— Shirin bo'lsa bu qozondagi suzmaning qurutini sizga berib ketamiz, biz ketgandan keyin yeb yurasiz, — dedi.

Berdi bu gapdan minnatdor bo'lib bir narsa demoqchi, Uzukning qurutidan ham diydori shirinligini, agar ketsa, uni juda sog'inishini aytmoqchi edi, lekin Turdidan uyalib aytolmadi.

* * *

Qo'y sog'ish mavsumi ham tugay deb qoldi. Yaylovga ko'chib chiqqanlar erta-indin ovulga qaytmoqchi bo'lishganda kechasi mayin, iliq yomg'ir yog'ib o'tdi. Ertasi kuni qiz-juvonlar somsaga solinadigan o'tlardan termoqchi bo'lishib, yaylovning uzoq joylariga chiqishdi.

Somsabop o'tlar siyrak ekan, nariroqqa borganda har kim har yoqqa tarqalib ketdi. Uzuk bir tepalikning ortida boshqalardan ajralib qoldi. Xaltachasini somsabop o'tlar bilan to'ldirdi-da, keyin rang-barang dala gullaridan terishga tushdi.

Uzoqda qo'zi boqib yurgan Berdi Uzukni zimdan kuzatar edi. Uning xoli joyda gul terayotganini ko'rib, ortidan bordi. Berdi shoshilmay sekin borar edi-yu, lekin hayajondan yuragi dukullab urar, go'yo o'n chaqirim joydan yugurib kelayotgandan tez-tez nafas olar edi.

O'tlar shitirlaganidan kimdir kelayotganini sezgan Uzuk orqaga o'girilib Berdini ko'rdi. Shunda qizning yuzi lovillab qizardi. Ko'zlarida shodlik uchqunladi. Uzuk xafa bo'lar deb qo'rqib kelayotgan Berdi qizning ko'zlaridagi quvonchni ko'rib, o'zini tutib oldi.

— Juda g'alati gullar teribsan...

— Yaxshimi?

Berdi bunaqa gullarni har kuni ko'radi. Lekin bularning shunchalik chiroyliligini endi Uzukning qo'lida ko'rganda his qildi. Bu hisdan o'zi ham taajjublanib:

— Yaylovda ham shunday ajoyib gullar o'sar ekan-a,— dedi.

— Ajoyib bo'lsa, mang, oling.

Berdi Uzukning qo'lidan guldastani olar ekan:

— O'zingga kerakdir, — dedi.

— Menga kerak bo'lsa, yana teraman.

Berdi qo'lidagi guldastaga tikilib turib:

— Yaxshi-yu, lekin bularning orasida men istagan bir gul yo'q-da,— dedi.

— Qanaqa gul ekan u? Shu yaylovda bormi?

— Bor.

— Qani ko'rsating-chi?

Berdi Uzukning o'zini ko'rsatdi.

Uzuk bu so'z o'yinidan shodlanib kulimsiradi, so'ng uyalib, yerga qararkan:

— Qo'ying-e, odamni aldadingiz, — dedi. — Men rostakam gul debman.

— Uzuk, sendan bir narsani so'rasam... javob berasanmi?

Uzuk Berdining ovozidan g'alati bir hayajon sezib, boshini ko'tarib qaradi. So'ng yana yerga qarab, bir lahza taraddudlanib turdi.

— So'rayinmi?— dedi yana Berdi.

— Nima ekan u? So'rang...

— So'rasam, Uzuk, agar ota-onang seni menga bersa, sen rozi bo'larmiding?

Uzuk shu gapni kutib yurganday va endi buni eshitganidan quvonganday Berdiga sho'x bir nazar tashladi.

— Ota-onam bersa, men qanday yo'q deyman? Qiz bolaning ixtiyori o'zida emas-ku.

Uzuk ataylab Berdiga noaniq javob bergan edi, yigit uning tegishayotganini sezmay, tashvish bilan so'radi:

— Yo'q, men sening ko'nglingga qaramoqchiman, Uzuk. Agar sen yo'q demasang... Yo'q demaysanmi?..

Uzuk kulimsirab:

— Yo'q,— dedi.

Bu uning "yo'q demayman" deganimi yoki aksinchami ekanini Berdi bilolmay qoldi. Shu payt tepalikning ortidan bir ayol:

— Uzuku-uv!— deb chaqirib qoldi. Berdi Uzukka:

— Mayli, bor, yana .. gap-so'z qilishmasin,— dedi-yu, o'zi bir jilg'ani panalab qo'zilarining oldiga qaytib ketdi.

Kun bo'yi Berdi hayajonini bosolmay yurdi. Bir ko'ngli: "Uzuk ham seni yaxshi ko'radi, ota-onasi beraman desa, qiz rozi" deydi. Yana bir ko'ngli: "Hali aniq emas, qiz paysalga solganida bir gap bor" deydi. Anig'ini qanday bilish mumkin? Berdi o'ylab-o'ylab, O'g'ilniyoz xolaning oldiga bormoqchi bo'ldi. Berdiga qarindoshchiligi bo'lgan bu kampir Uzukning oyisi bilan qalin o'rtoq. Ularning hamma sirlarini biladi.

Berdi kun qaytganda O'g'ilniyoz xolaning chodiri oldiga keldi. Kampir oftobda qurigan qurutlarini yig'ib, to'rvaga joylayotgan ekan. Berdi unga ko'maklashib, qurut to'la og'ir to'rvani ichkariga ko'tarib kirdi.

— Ay, umring uzoq bo'lsin, Berdijon.

— O'g'ilniyoz xola, bu yil qurutni ko'p qilganga o'xshaysiz-a?

— Kuchim yetganicha qildim-da, o‘g‘lim. Ishqilib, har kimniki o‘ziga buyursin. Bu yil qurutni hammadan ko‘p qilganlar — Uzuklar bo‘ldi. Sen ularga rosa ko‘maklashding-ku, Berdijon. O‘razsulton ham nuqul seni duo qiladi. “Tani joni sog‘ bo‘lsin, Berdiday yaxshi yigit yo‘q” deb maqtaydi. Murod og‘a ham seni yaxshi ko‘rib qolibdi.

— Shu rostmi, O‘g‘ilniyoz xola? Men sizdan bir narsani bilmoqchi bo‘lib keluvdim...

Berdi o‘ylagan gapini so‘rashga tili bormay taraddudlanib qoldi. Ammo O‘g‘ilniyoz xola gap nimadaligini allaqachon sezgan edi.

— Voy, Berdijon, hamma tortinsa ham, sen tortinmay ayta ber. Menga aytmasang, kimga aytasan? Hech kiming yo‘q-ku sening. “Yetim bola o‘z kindigini o‘zi kesadi”, deyishadi. Nimani so‘ramoqchisan? Ayt, tortinma...

— Siz menga bir narsani bilib bersangiz... Men Murod og‘aga o‘g‘il bo‘lsam deyman... Umr bo‘yi shularning xizmatini qilsam...

— Berdijon, sening niyatingni men tushunib turibman. Ko‘ngling to‘q bo‘lsin, Xudo xohlasa, niyatingga yetasan. Bir yigit bo‘lsa, senchalik bo‘lar-da. Yaqinda biz O‘razsulton, Murod og‘a — uchovimiz o‘tirib, shu to‘g‘rida rosa gaplashdik. Men ularga aytdim. Bu zamonda nima ko‘p, zo‘ravon ko‘p. Uzuk juda ko‘zga yaqin qiz. Bitta-yarimta cholmi, cho‘loqmi, davlatiga tayanib, qizni zo‘rlik bilan olsa, Murod og‘aday g‘arib odamning qo‘lidan nima keladi? Undan ko‘ra Berdini kuyov qila qolinglar, dedim. Uzuk ikkovi bir-biriga juda munosib, dedim.

Berdi ham kuyov, ham o‘g‘il bo‘ladi, dedim. Sizlardan boshqa hech kimi yo‘q, dedim.

— Ular nima deyishdi?

— Ular ham shuni o‘ylab yurishgan ekan. O‘razsulton xolang: “Uzuk hali yoshroq, yana bir yil-yarim yil kutsin” dedi. Endi sen bu gaplarni og‘zingdan chiqarma-yu, tayyorgarligingni ko‘rib yuraver.

— Rahmat, xolajon. Siz mening ko‘nglimda katta bir chiroq yoqqanday bo‘ldingiz. Endi yana bir narsani ayting. Bu gaplardan Uzukning xabari bormikan?

— Biz gapirishayotganda Uzuk chodirning tashqarisida xamir yoyib o‘tirgan edi. Hammasini eshitgan bo‘lsa kerak. Ovqat ko‘tarib

kirganda qarasam, yuzlari yonib turibdi. Shodligini bildirmaslikka tirishadi. "Ha, shayton qiz, ko'ngling Berdida ekan-a!" dedim ichimda.

Berdi zavq bilan kulib qo'ydi. Bugun uning hayotidagi eng baxtiyor kunlardan biri edi. Kechqurun har galgiday o'rtadagi ikki qo'yni Uzuk bilan yonma-yon o'tirib sog'ayotganda Berdi shivirlab so'radi:

— Uzuk, ikkovimiz to'g'rimizdagi gaplarni chini bilan eshitganmiding?

— Qanaqa gaplar?

— O'g'ilniyoz xola bilan ota-onang bizning to'g'rimizda gaplashgan ekan-ku.

— Nima deb gaplashgan ekan?

— Seni menga berishmoqchi ekan-ku.

Uzuk bir lahza jim qoldi.

— Eshitganmiding?— shivirladi Berdi.

— Rostimni aytsam, eshitgan edim.

— Dalada gul terib yurganingda nega yashirding? — deb Berdi Uzukning elkasini yelkasiga sekin urib qo'ydi.

Uzuk ham elkasi bilan Berdini astagina itardi-yu:

— Uyaldim-da, — dedi.

— O'zing rozimisan axir?

— Ha. Lekin ular yana bir yil kutamiz, deyishdi-ku.

— Bir yilmi, ikki yilmi, qancha desanglar men shuncha kutaman, Uzuk. Ishqilib, sen ham... kutsang bo'ldi.

— Men ham kutaman, — shivirladi Uzuk.

## ASAL BOR JOYDA PASHSHA HAM BO'LADI

Tun butun borliqni qoraqurumday qoplab olgan. Osmonda hisobsiz yulduzlar miltirab tursa-da, yer yuzidagi qorong'ilikni yengolmas edi. Tong bo'zardi-yu, sharqdan bosh ko'targan shafaq yerdan tunni, osmondan yulduzlarni quva boshladi.

Yengilgina kiyingan Uzuk tong salqinida qunishib, qip-qizil shafaqqa birpas qarab turdi, so'ng qamish bilan yopilgan uychaga

kirdi. U yaylovga ketganda hali bitmagan gilamini shu uychada qoldirgan edi. Hozir o'rmagini yana to'g'rilab, gilamning tayyor qismini ochib ko'rdi. Bungacha oftob ham chiqdi-yu, uning nurlari Uzukning yuzida va gilamning gullarida jilvalandi.

Gilamning bo'yog'i bilan junini Subhonboy beradi, chunki Murod og'aga o'xshagan kambag'al odamlar qimmatbaho bo'yoq va junga pul topisholmaydi. Gilam tayyor bo'lgandan keyin yarmi boyniki, yarmi to'qiganniki hisoblanadi. Biroq gilamni o'rtasidan kesib bo'ladimi?

Boyning xotini shuni bahona qilib, to'quvchini avraydi, mehnat haqqiga ozgina pul beradi-yu, gilamni o'z qizlariga sep qilib olib qo'yadi. Uzuk hozir shuni o'ylagandi, to'qiyotgan gilamiga juda ichi achidi. Qani edi, shu gilamni o'ziga sep qilsa, Berdi bilan turmush qurganlarida o'zi tushgan uyga to'shab o'tirsa! Berdi buning har gulidan o'ziga atalgan bir mehr topmasmidi?

"Oyimga aytaman, Subhonboyning juni bilan bo'yog'i uchun boshqa gilam to'qib berarmiz,— dedi Uzuk o'zicha,— bu gilamni o'zimiz olamiz. Otam ham yo'q demas". Uzuk ota-onasini ko'ndira olishiga ishondi-yu, gilamni avvalgidan ham zo'r hafsala bilan to'qiy boshladi. Gilamga tushayotgan har yangi gul uning shavq-zavqini bir daraja yuqori ko'tarar, u past tovush bilan ashula aytib ishlar edi:

*Boring, ayting yorima,*
*Darmon topsin jonima.*
*Darmonining nafi yo'q.*
*O'zi kelsin yonima.*
*G'ayri, g'ayri boqarman,*
*Gilam taroq qoqarman,*
*Men yorimni ko'rganda*
*Erib-erib oqarman...*

Ot dupuri Uzukning ashulasiga xalaqit berdi. Qiz eshikdan tashqariga qaradi-yu, hovliga bashang kiyingan bir otliq kirib kelayotganini ko'rib, yuragi negadir "shuv" etib ketdi. Peshanasi qashqa, dumi va yollari qora to'riq ot suvdan chiqqanday yiltillab

turar, otliqning egnida yangi piyozi chakmon, boshida uzun yungli turkmancha cho'girma, oyog'ida mashhadiy gulli etik, qora soqoli yaxshilab tarashlangan, yuzi qip-qizil. Uydan chiqqan O'raz xoladan:

— Murodning uyi shumi?— deb so'radi.

— Ha, shu, keling,— dedi O'raz xola hayron bo'lib.

Kutilmagan mehmon otini bog'lashga qoziq qidirgan bo'lib atrofiga qaradi. O'raz xola odatga binoan mulozimat qilib:

— Tushavering, — dedi. So'ng bostirmada bir ish qilayotgan o'g'ilchasini chaqirdi: — Turdijon, mehmonning otini ol!

Turdi kelib, otning jilovidan ushladi.

— Tushing, men bog'lab qo'yaman.

— Ot asovroq, men o'zim bog'layman, sen qoziqni ko'rsat,— deb mehmon otdan tushdi.

— Ot bog'laydigan qozig'imiz yo'q. Kapaning orqasiga o't-kazib, daraxtga bog'lay qolamiz.

Mehmon otini Turdi ko'rsatgan joyga bog'ladi, so'ng O'raz xolaning taklifi bilan uyga kirdi, ammo o'tiradigan joy tanlab bir lahza turib qoldi. Uy juda kichkina, undagi buyumlar ozoda bo'lsa ham, yupun edi. Tunukalari ko'chib tushgan eski bir sandiq ustida uch-to'rtta ko'rpa. Yerga to'shalgan kigiz ham yirtiq-yamoq. Pati to'kilib ketgan eski gilamcha mehmonga sal durustroq ko'rindi. Mehmon gilamcha ustiga o'tirar ekan, uning buklanib qolgan bir chetini qamchisining sopi bilan to'g'rilab qo'ydi.

O'raz xola mehmonga "Xush kelibsiz" dedi-yu, lekin kimligini, nima ish bilan kelganini so'ramadi, bu — taomilga to'g'ri kelmas edi. Mehmonning qimmatbaho kiyimlari, o'zini tutishi, o'tirishi uning badavlat odam ekanidan darak berar, qandaydir zarur ishi bo'lmasa, bunaqa yupun kulbada o'tirishni o'ziga ep ko'rmasligi bilinib turar edi.

O'raz xola choydish tagiga o't yoqar ekan, Turdiga shivirladi:

— Uyda bu odam bilan gaplashadigan erkak yo'q, tez bor, Subhon xasisni chaqirib kel.

O'raz xola uchiga tunuka qoplangan eski choynakni arta boshladi. Mehmon o'tirgan uy darchasidan ro'paradagi uychaning ochiq eshigi va gilam to'qiyotgan Uzukning yuzi yarim-yorti ko'rinar edi.

"Maqtaganlaricha bor ekana,— dedi mehmon ichida.— Chindam yuzining shu yarmi ham yarim bo'lgan oyga o'xshaydi".

Hovlidan Subhonboyning yo'talgan tovushi eshitildi. U otliqning shu yoqqa o'tganini ko'rib va uning oddiy kishi emasligini sezib, o'zi shoshilib kelayotgan ekan, Turdi qarshisidan chiqib qoldi.

Qalin soqoli ko'pdan beri taroq ko'rmay chigal bo'lib ketgan, qoshlari o'siq bu odamning boyligi behisob. Lekin o'zi jag'i yirtilgan eski kalish kiyib yuradi. Egnidagi bo'z ko'ylagi kirlanib, eskirib ketgan. Uning yemay-kiymay boy bo'lganini hamma biladi, shuning uchun odamlar orqasidan "Subhon xasis" deb ataydi.

Subhonboy mehmonga quyuq salom berishga hozirlanib, dahlizga kirdi-yu, lekin oyog'idagi kalishning bir poyi ostonadan narida tushib qoldi.

— Hey, palakat-ey,— deb orqasiga qaytib, kalishini oyog'iga ilib yana kirdi:— Assalomu alaykum!

Bu orada mehmon o'rnidan turgan edi, Subhonboy bilan ostona oldiga kelib ko'rishdi. Keyin ikkovi yuzma-yuz o'tirishdi. Bu yerlarning odatiga binoan eng hurmatli odam avval so'rashishi kerak edi. Mehmon Subhonboyning hurmatini qilib:

— So'rashing, Subhon og'a,— dedi.

Subhon og'a so'rashish sharafini mehmonga qoldirmoqchi bo'lib:

— Siz boshlang,— dedi.

— Yo'q, sizdan bo'lsin.

Shundan keyin Subhonboy:

— Eson-omonlikmi?— deb so'rasha boshladi.

Turkman odatiga binoan, hurmatli mehmonlarning har biriga alohida choynak piyola qo'yilishi kerak edi, O'raz xola dasturxon yozgach, mehmon bilan Subhonboyning oldiga ikki choynak choy, ikkita piyola qo'ydi. Subhonboy choyni piyolaga quyib qaradi, keyin hidlab ko'rdi.

— O'razsulton, choying qoramidi? Ko'k choylaring bo'lmasa, bizdan olsalaring bo'lmaydimi? Bor, Turdi, biznikidan ko'k choy olib kel...

Turdi xovliga chiqqanda oyisi ham orqasidan chiqdi-yu, "borma!" degan ishorani qildi. Chunki boynikiga bir narsa deb borishsa,

xotini tilanchiga qaraganday qarar edi. O'raz xola shuni bilgani uchun ba'zan noni bo'lmay och o'tirganda ham Subhon xasisnikiga qarz so'rab bormas edi.

Mehmon kelish maqsadini Subhonboyga bildirmas edi. U gapni uzoqdan boshlab:

— Subhon og'a, tuyalarnigiz hali ham Xivaga qatnab turibdimi?— deb so'radi.

— Qatnayapti-yu, Bekmurodboy, lekin ish sust. Karvonning ketganiga ancha kun bo'ldi. Uch kundan beri ko'zim yo'lda, qulog'im tuyaning qo'ng'irog'ida. Nasib bo'lsa, bugun-erta kelib qolar.

— Ha, kelishadi. Yuklari nima — to'nmi?

— Bizniki shu to'n-da. O'zingiz bilasiz...

— Nazarimda, hozir to'nning bozori chaqqon emas...

— E, Bekmurodboy, ishning ko'zini bilgan odamga to'nning bozori chaqqon. Bizning shogirdlarimiz ishning ko'zini bilishmaydi. "Savdoda otangni ayama", degan maqolga amal qilishmaydi. Savdo bo'lgandan keyin savdolashish kerak, tutilgan joyidan uzish kerak. Shogirdlarim bo'lsa, og'zidagini oldirib qo'yadi. O'zim yonlarida turmasam, topganimdan ayrilaman. Oldi-berdi qiyin ishda. E, hozirgi zamonning odamlari kezi kelganda meni ham aldab ketadi. Bir kun deng, do'konda o'tiruvdik, yag'rindor, istarasi issiq bir yigit kelib, to'n oldi. Narxni yaxshi qo'ydi-yu, lekin pulini sanab berayotganda bir so'm yetmadi. Men "Pulini but qilib keling, keyin olib ketasiz" demoqchi edim, qo'shni do'kondagilar oraga tushdi. "Shunday yigitga ishonmaysizmi, bir so'm pulingizni yeb ketarmidi, to'nni beravering, bir so'mingizni keyin olasiz", deyishdi. Men ham laqqa tushib "mayli" debman-u to'nni berib yuboribman-da. Shunga mana, bir oy bo'ldi. Hali olib keladi-da o'sha bir so'mni. O'zi ham shundan beri bozorga tushmaydimi, ertadan kechgacha poylayman, hech ko'rinmaydi. Lekin, Bekmurodboy, siz u yigitni bilasiz, o'zi siz tomonlardan ekan.

— Kim degan?

— Otasining oti Derriboymi, Garriboymi...

— Ha, bo'ldi, bilaman...

— Baraka toping, Bekmurodboy, bilsangiz, shu qarzimni undirib bering,— deli Subhonboy o'tirgan joyida tipirchilab.

Paxtakor dehqonlarga oldindan qarz berib, bo'nak tarqatadigan, hosil yetilganda qarzini ikki-uch baravar foydasi bilan undiradigan va paxtafurush armani bilan birga savdo qilib, o'n ming so'mlab daromad oladigan Bekmurodboy uchun Subhon xasisning bir so'm pulni shuncha gap qilishi haddan ortiq bachkanalik edi. Shuning uchun Bekmurodboyning ensasi qotib:

— He, bu ish biz uchun cho't emas, bir og'iz aytsak, qarzingizni darrov keltirib beradi,— dedi.— Subhon ota, men bu yerga boshqa ish bilan kelgan edim...

— Ha, ha, ayting, ish bo'lsa jonimiz bilan.

— Uy egasi yo'q ekan, kayvonisini chaqirasizmi?..

— Xo'p, xo'p... Ho', O'razsulton! Qani, beri kel-chi.

O'raz xola mehmonning oldiga kirib o'tirishdan iymanib, ostonadan nariga cho'nqaydi, uzun yengi bilan og'zini to'sib, gapga quloq soldi.

— Subhon og'a, — dedi mehmon.— Murod og'alarning bo'yi yetgan qizlari bor ekan... Bizning ukamiz bor... Qarindosh bo'lsak degan niyatdamiz.

O'raz xola yerga qarab jim bo'lib qoldi. Subhonboy bu gapdan negadir quvonib:

— Juda yaxshi niyat, — dedi. — Qani, O'razsulton, endi suyunchi beradigan bo'lding. Shunday badavlat odamlar sen bilan qarindosh bo'lmoqchi. Juda soz!

O'raz xola shunday obro'li joydan odam kelganini o'ylab, bir lahza qizidan faxrlanib oldi. Ammo boylarning xotini bitta bo'lmasligini, ularnikiga tushgan kambag'al farzandlari ko'pincha g'am-kulfat bilan o'tib ketishi esiga tushdi, mehnatkash yigit Berdi ko'z oldiga keldi.

— Mehmon og'a, bizning hali eshik ochadigan vaqtimiz bo'lgani yo'q. Qizimiz yosh, — deb gap boshladi O'raz xola.

Subhonboy uning so'zini og'zidan oldi:

— O'n oltiga kirsa, yosh bo'ladimi? Ayni uzatadigan payti-ku. Sen bu gapni qo'y, O'razsulton... Albatta, qizi borning nozi bor... Boshqa talablaring bo'lsa, ayt... Lekin yo'q dema. Qiz bolani uyda ko'p ushlab o'tirish hikmatdan emas. Kapalakka o'xshab, qanot chiqarib uchadigan bo'lsa, baloga qolasan...

O‘raz xola Subhonboyga gap topib berolmasligini sezdi-da:

— Men ayol kishiman, ko‘nglimdagi gapimni aytdim,— dedi.— Qizimiz hali uzatadigan bo‘lgan emas. Otasi bor. Otasi bilan gaplashsalaringiz bo‘lar edi... Undan ham yaxshisi, mehmon og‘a boshqa ochiq eshikka borsalar bo‘lar edi... Biz hali qizimiz bo‘yi yetdi deb eshik ochganimiz yo‘q.

— Bu gapni qo‘y! — dedi Subhonboy g‘ijinib.

Bekmurodboy uning g‘azabi kelayotganini sezdi-da:

— Mayli, o‘zingizni bosing,— dedi.— Ayol kishi-da, endi...

— Bo‘pti, qolgan gapni Murodning o‘zi bilan gaplashamiz, Bekmurodboy. Murod qo‘y boqib yuribdi. Men bugunoq odam yuborib, chaqirtiraman.

O‘raz xola o‘rnidan turdi.

— Xo‘p, ruxsat beringiz, men ketay,— deb Bekmurodboy ham o‘rnidan turdi.

— Xush ko‘rdik,— dedi O‘raz xola.

— Yaxshi qoling.

Bekmurodboy otini yechdi. Subhonboy uni to qishloqdan chiqquncha kuzatib bordi.

— Subhon og‘a,— dedi qishloq chetida Bekmurodboy otini to‘xtatib,— aslida men ishni xomroq qilibman-da. Avval ularnikiga bormay, siznikiga tushsam bo‘lar ekan. Maslahatni bir joyga qo‘yib, keyin borsak, yaxshi bo‘larmidi?.

— E yo‘q, ularnikiga borganingiz ham yaxshi bo‘ldi. Ularga o‘z hurmatingizni bildirdingiz, minnatdor bo‘lishlari kerak. Ularning uyiga umr bo‘yi sizdaqa badavlat martabali odam kelib tushgan emas.

— Onasi ancha o‘jar xotinga o‘xshadi... Lekin siz oraga tushgandan keyin sal yumshadiku-ya.

— Bo‘lmasa-chi! — dedi Subhonboy maqtovdan erib. — Hali erini chaqirib, gaplashaman. Keyin xotini ipakday mayin bo‘lib qoladi.

— Ishqilib, butun umid sizdan, Subhon og‘a. Shu ish bitsa, biz ham axir sizdan qarzdor bo‘lib qolmasmiz...

— Ha, albatta, biz bir-birimizni suyamasak, kim suyaydi?

— Bo'lmasa... Men yana kelaymi? Yo bozorda uchrashamizmi?
— Bozorda uchrashganimiz ma'qul.
— Xo'p, ko'rishguncha xayr.

## SIRLI CHAQIRIQ

Oftob ufqqa engashgan sari yakkam-dukkam o't o'sgan qumtepalarning soyalari uzayib borar edi. Odam yashaydigan joylardan o'nlab chaqirim uzoqdagi shu qumtepalar orasida bir suruv qo'y yoyilib o'tlayapti. Egri tayog'ini yelkasiga tashlagan moshguruch soqolli, baland bo'yli, qotma cho'pon damba-dam qo'lini peshonasiga soyabon qilib, kun chiqish tomondagi qum tepalar ortiga tikiladi. Uning ko'zlari bezovta. Osmon bulutsiz, yer ham osuda. Qo'ylar xotirjam yoyilib yuribdi. Egasi bilan izma-iz yurgan ulkan bo'ynoq it ham "miq" etmaydi.Ammo keksa cho'pon — Murod og'aning ko'ngli juda notinch. Shu suruvni Murod og'a bilan birga boqadigan Berdi o'tgan kuni qishloqqa un-pun olib kelgani ketgan.

Kecha tushgacha qaytishi kerak edi. Mana, bugun yana bir kun o'tdi — hech daragi yo'q. Kecha kechqurun qum bo'roni bo'lgan edi. Berdi qumlar tagida qolib ketdimi? Bu ko'chma qumlar har kuni o'zgarib turadi, shuning uchun odamning adashib ketishi hech gap emas. Berdi kechagi bo'ronda adashib qolgan bo'lsa, bugun kun issiq edi, suvsizlikdan yiqilib qoldimi? Bu yerda na bir hovuch un bor, na bir tishlam non. Qo'yning qatig'i-yu, quruti bilan necha kun yashash mumkin?

Mana, kun ham botib ketdi. Berdidan hamon darak yo'q. Murod og'a cho'liq bola Esonni ovulga yuboray desa, hali endi o'n olti yoshga kirgan o'smir Qoraqumda yo'qolib ketishi mumkin. Uni suruvda qoldirib o'zi ketay desa, yana bo'lmaydi! — olti yuzdan ortiq qo'y-qo'zini cho'liq bir o'zi eplay olmaydi. Murod og'a noiloj qolib, Subhon xasisni so'ka boshladi: uying kuygur, ziqna, qo'ylarim ko'proq semirsin deb, ularni Qoraqum sahrosining odam oyog'i kam tekkan uzoq joylariga jo'nashga majbur qildi. Berdiga nima bo'ldiykin? Murod og'a bu yigitni o'z farzan-

diday yaxshi ko'radi. Berdidan xavotirlanib, o'zini qo'yadigan joy topolmaydi...

Qosh qorayganda birdan kuchuklar qattiq hurib, kun chiqish tomonga chopib ketishdi, Murod og'a ularning ketidan yugurdi. Shunda kuchuklar tomondan:

— Yo'lbars! Ajdar! Tanimadilaringmi?— degan ovoz eshitildi.

Kuchuklar Berdini tanib, jim bo'lib qolishdi. Murod og'a quvonganidan bo'g'in-bo'g'inlari bo'shashib, tayog'iga suyanib to'xtaldi. Berdi yaqinroq kelganda:

— E, bormisan?— dedi. So'ng uning sekin kelayotganini ko'rib, koyib ketdi: — Biz senga bir gap bo'ldimi deb xavotir olib o'ldik. Sen sal tezroq yuray ham demaysan!

— Achchig'lanmang, Murod og'a, tezroq boray deb, eshakni qattiq haydab, charchatib qo'yibman. Harom o'lgir qumda sudralib zo'rg'a kelyapti.

— Nima bo'ldi o'zi? Kecha keladigan eding...

— Subhon xasis kuttirib qo'ydi-da. O'zi shaharga ketgan ekan. "Berdi meni kutib tursin, zarur gapim bor", deb tayinlab ketibdi. Bir kun kutsam bo'ladimi! Bir vaqt shahardan qovoq-tumshug'i osilib qaytib keldi. Nima gapi bor ekan desam, sizni chaqirtirmoqchi ekan. "Shu bir og'iz gap uchun meni bir kun qaratib qo'ymay, uydagilaringizga tayinlab ketsangiz bo'lar edi-ku" dedim-u baloga qoldim. "Mahmadanasan, ana undaysan, mana bundaysan", deb urishib ketdi.

— Meni nega chaqirtiradi? Nima ishi bor ekan, so'ramadingmi?

— E, undan gap so'rab bo'ladimi? "Borib ayt, ertaga ertaroq yetib kelsin, agar tong otguncha yetib kelmasa, men bozorga ketaman, bozorga borsin", dedi.

— Xo'jayin bo'lgandan keyin xo'jayinlik qilar ekan-da. Taqdir o'lsin meni shunday odamga mute qilmay... Hozir jo'namasam, ertalabgacha yetib borolmasman.

Kechadan beri bir tishlam ham non yeganim yo'q...

— Xurjunni qarang, non olib kelganman.

Murod og'a xurjundagi nondan bittasini olib, choyidishning tagida qolgan iliq choyga botirib edi-da, eshakka mindi.

— Eson qani?— dedi Berdi.

— Bir cho'loq qo'y suruvdan qolib ketgan ekan, o'shani qidirib yuribdi. Berdijon, sahroda bu yil bo'ri ko'p, ehtiyot bo'linglar. Birorta qo'y-qo'zini oldirib qo'ysalaring, bu to'ng'iz xo'jayindan osonlikcha qutulolmaymiz.

— Bilaman, Murod og'a. Siz xotirjam bo'ling. Xo'p, yaxshi borib keling.

Murod og'a eshakni "xix-xix"lab, qorong'ilikka singib borar ekan, Berdi uning orqasidan termilib qarab qoldi. Subhonboy Murod og'ani yaxshi niyat bilan chaqirmaganini Berdi sezgan edi, cholni diqqat qilmaslik uchun aytmadi...

Berdi gulxan yoqdi. Cho'loq qo'yni yetaklab, Eson ham yetib keldi. Xomush o'tirgan Berdi bilan salomlashib:

— E, sen Murod og'ani rosa qo'rqitding-ku! - dedi. — Menku uncha qo'rqqanim yo'q. Uzukjoning bilan ko'rishib, qishloqdan qaytging kelmay qolganini bilgan edim.

Eson tegajoqlik qilib, Berdining xomushligini tarqatmoqchi bo'lardi. Biroq Berdi gulxanning chetini kosov bilan kovlab, xayol surib o'tirardi.

— Eson, do'stim, ko'nglim negadir juda g'ash. Uzuklarnikiga badavlat bir otliq kelib ketganmish. Subhonboy uni qishloqning narigi yog'igacha kuzatib qo'yganmish. "Uzukka sovchi kelgan, Subhon xasis oraga tushyapti", degan mish-mishlar yuribdi.

— Uzukning o'zidan so'ray qolmadingmi?

— O'zini xoli uchratolmadim. Uzoqdan bir-ikki marta ko'rdim. G'amgin ko'rindi. Shu tortinchoqligimiz ham yomon-da, Eson. Dadil borib hol-ahvol so'rashsam bo'lmasmidi? Odamlar gap qiladi, uyatga qoladi, deb oldiga borishga yuragim betlamadi. Endi afsus qilib, o'zimni so'kaman... Axir shunday paytda balki mening biror yordamim tegarmidi?..

— Sening qo'lingdan nima ham kelar edi, Berdi. Ota-onasi bor. Murod og'a seni yaxshi ko'radi.

— Shunday-ku, lekin Murod og'a ham bechora bir odam-da. Subhonboy qistovga olsa, yo'q deyolmasa kerak...

Eson nima deyishini bilmay jim qoldi. Berdi og'ir tin olib, "uh" tortib qo'ydi.

* * *

Murod og'a kechasi bilan eshagini qistab haydasa ham ovulga kun yoyilganda zo'rg'a yetib keldi. Yo'l bo'yi xayoli ming xil ko'chalarga kirib chiqdi. Subhonboy uning haqida yomon bir gap eshitganmi? Chaqirib, siquvga olmoqchimi? Uy ichi tinchmikin? Biror kori-hol bo'lmaganmikan? Shu o'y bilan hovliga yaqinlashdi. Gilam to'qiyotgan Uzuk otasini hammadan oldin ko'rdi-yu, quvonib hovliga chiqdi. Narigi uydagi oyisiga:

— Dadam keldilar! — dedi-da, o'zi otasiga peshvoz chiqdi.

— Tinchmisan, qizim? Hamma eson-omonmi?

— Shukur. Yaxshi keldingizmi, dada?

Tomning orqasidan Turdi yugurib chiqdi:

— Dada! Dadajon! — deb Murod og'aning quchog'iga otildi. Bu orada ichkaridan O'raz xola ham sevinib chiqib keldi.

Murod og'a najot keltirganday uydagilar hammasi undan quvonishar, ulardagi shodlik Murod og'aning ko'nglini g'ubordan tozalar edi.

Turdi otasi minib kelgan eshakni uyning orqasiga bog'lash uchun yetaklab ketdi. Murod og'a bilan O'raz xola uyga kirishdi. Uzuk har galgiday ularning oldiga kirib, gaplariga quloq solib o'tirishni istar edi-yu, lekin hozir bundan iymanar edi. O'raz xola sovchi kelib ketganini qizidan yashirib yurgan bo'lsa ham, Uzuk o'z taqdirini hal qiladigan gaplar bo'layotganini sezar edi.

Bu gaplar ba'zan uni o'rgimchak to'riday o'rab olayotganga o'xshar, yopishqoq narsa badaniga tegib ketganday jirkanar, yomon bir baxtsizlikni oldindan sezganday ta'bi kir bo'lib yurar edi. Balki otasi uni shu yomon ahvoldan qutqarar? Uzuk dahlizda choy qaynatar ekan, ota-onasining gaplarini bitta qo'ymay eshitishga tirishar edi.

— Bu Subhon xasis meni nega chaqirdi ekan, xotin? Kechasi bilan yuz xil xayolga borib, boshim tars yorilguday bo'ldi. Yaxshilikmikin?

— Subhon xasisdan yaxshilik chiqarmidi! Qizingizni bir oshnasiga berib, shundan ham foydalanib qolmoqchi.

Dahlizda Uzuk bu gapni eshitib, hang-mang bo'ldi-yu, qo'lidagi choy xaltani yerga tushirib yubordi. O'tgan kuni kelgan otliqning kimligini Uzuk endi bildi.

— Basharasi sovuq odam ekan, men qizimiz yosh, uzatmaymiz, boshqa joydan kelin qidiring, dedim.

Uzuk endi nafasini rostlab, oyisidan minnatdor bo'lib qo'ydi-yu, xaltani yerdan olib, choy damlay boshladi.

Uyda Murod og'a bu kutilmagan xabardan shoshilib:

— Kim ekan o'zi? Subhonboyning qanaqa oshnasi ekan?— derdi.

— Paxtafurush boylardan. Qishloqlari bizdan ancha uzoq ekan. O'razmuhammadning xotini bor-ku, O'g'iljereng degan. O'sha xotin shularning qishlog'idan, keyin menga hammasini aytib berdi. Bular o'zi to'rt og'ayni emish. Hammasi badavlat emish-u lekin qamchisidan qon tomadigan berahm kishilar emish. Uzukni o'rtanchalariga olib berishmoqchi emish.

— Uylanmagan yigitgami?

— Qayoqda! O'rta yoshli kishi emish. Xotini bor emish, bola bo'lmasmish. Bola bo'ladimi, yo'qmi, mening nima ishim bor? Men endi bitta-yu bitta qizimni xotin ustiga berib, kundoshlik o'tida yondiraymi? Kambag'al bo'lsa ham, o'ziga munosib kuyov topilib qolar. Ular ham o'zlariga munosib boylarning qizlariga sovchi qo'ysin. Ot aylanib, qozig'ini topar, suv aylanib arig'ini. Bekmurodboy ot bo'lsa, o'z qozig'ini topsin, suv bo'lsa o'z arig'ini topsin. Men qizimni o'z ovulimdan boshqa joyga bermayman. Agar Subhonboy qistayversa, siz bo'sh kelmang. Unaqa urishib, janjallashib ham o'tirmang. "Qizimiz hali yosh, bo'y yetgani yo'q, biz hali uzatmaymiz" deyavering. Subhonboy sizni avraydi, bilaman. Agar o'shalarni juda yaxshi ko'rib qolgan bo'lsa, Subhonboyning o'zida bir emas, ikkita bo'yi yetgan qiz bor. Bittasini bera qolsin!

— Hoy, xotin, sal og'zingga qarab gapir... Devorning ham qulog'i bor. Boy eshitsa, baloga qolamiz.

— Eshitsa, eshitaversin!.. Nega oraga tushadi? Birovning bolasiga zomin bo'lmasin!..

— Bo'ldi, xotin, ko'p shovqin solma. Men ham qizimizni yomon odamlarga bermoqchi emasman. Lekin bu boylar bilan urishsak, shu kunimiz ham ko'plik qilib qoladi.

— Urishmang, dedim-ku. Yotig'i bilan gaplashing.

— Xo'p, men Subhonboynikiga boray-chi bo'lmasa...

Subhonboy ertalab bozorga ketgan ekan. "Murod kelsa, bozorga borsin", deb tayinlab ketibdi.

Murod og'a uyiga qaytib kelar ekan, "e Xudo-yey, kambag'allik-ku menga bergan zo'r jazoying edi, endi yana bu tashvishni boshimga solganing nimasi?" deb zorlandi o'zicha.

Bozorga borish uchun bir tanga-yarim tanga pul kerak edi. Biroq O'raz xolada ham pul qolmagan ekan.

— Tuzimiz tamom bo'lgan,— dedi O'raz xola.— Ertalab bozorga ketganlardan tuzga pul berib yuboray dedim, bir tiyin ham topolmadim. Subhonboyning qo'yini boqib yuribsiz. O'shandan so'rasangiz, biroz pul bermasmikan?

— E, xotin-ey, men o'zim boyning oldiga nima ish bilan ketayotibman-u qanday pul so'rayman? Agar unga "xo'p" desam, pul so'rasam bo'lar edi...

Uzuk bu gaplarni eshitib turar edi. Uning sochiga taqilgan bezaklar orasida bir-ikkita kumush tanga bilan, bir qiron eroncha tilla pul ham bor edi. To'yga borganda hamma qizlar taqinchoqlarini taqib chiqqanda Uzuk o'zining mana shu qironini taqib borar, shu bilan ko'ngli sal ko'tarilib yurar edi. Hozir bu yolg'iz bezak ham uning ko'ziga ko'rinmadi. Qironni sochidan yechib olmoqchi bo'lgan edi, tuguni qattiq ekan, yechilmadi.

Uzuk qironni shartta uzdi-yu, otasiga keltirib berdi:

— Mang, dada... Yaxshi borib keling...

Murod og'a qironni olayotib, qizining ko'zlari yoshlanganini ko'rdi. Uning "yaxshi borib keling" degan so'zlarida qanday iltijo, qanday o'tinch borligi ham sezilib turardi...

## KO'RGILIKMI?

Haftaning ikki kuni bozor bo'lar edi. Dushanba bozori "katta bozor", payshanba bozori — "qisqa bozor" deyilar edi. Bugun katta bozor bo'lgani uchun Marining ko'chalari ot-aravaga, odamga, qo'y, echki va eshakka to'lib ketgan. Goho xaloyiqning orasidan boyvachchalar ot choptirib o'tar edi. Otining yuganlari kumush bilan bezangan, savsar telpak kiygan bir yigit qop ko'tarib kelayot-

gan o'rta yashar dehqonni yiqitib o'tdi. Ot tuyog'idan ko'tarilgan chang orasida bir kishi eshagidan tushib, yiqilgan odamni yerdan ko'tardi-yu, otliqning orqasidan:

— Quturganlar-ey! — deb qo'ydi.

— Pul quturtiradi-da, — dedi yiqilgan odam yukini yerdan ko'tarib. — Bo'lmasa, bu yigitning otasi ham bizga o'xshagan kambag'al edi.

— Ayozga o'xshab, chorig'ini uyining burchagiga osib ketmagan ekan-da, — dedi Murod og'a.

— E, hozir endi unaqa Ayozlar yo'q.

O'ziga o'xshagan odamlar bilan shu tarzda hangomalashib, Murod og'a bozorga kirib borganini bilmay qoldi. Eshagini bir chetga bog'lab, qizi bergan tillani beliga mahkam tugib, Subhonboyning do'konini qidirib ketdi.

Bozorda gadoy ko'p edi. Murod og'a faqirona kiyingan bo'lsa ham, har qadamda gadoylar uning yo'lini to'sib, xayr so'rashar edi. Cho'ntagida mayda chaqasi yo'qligidan xijolat bo'lib, janda kiygan odamning ko'pligidan hayratlanib borayotgan Murod og'a bir joyda ozg'in dehqonning cho'ntagiga qo'l solayotgan kissavurni ko'rib qoldi. Kissavurning qo'lidan mahkam ushlab:

— To'xta, insofsiz! — dedi. — Sen ham kambag'alni shilasan-a! O'g'irlik qilmay turolmasang, boylarning cho'ntagiga tushmaysanmi!

Kissavur yigit dehqonning cho'ntagiga qo'l solganidan tonib turib oldi.

Shu yerda bir dallol haligi dehqonga qari eshakni maqtab sotmoqda edi. U eshakning biqiniga kishi bilmas xilla urar, xira ko'zlaridan yosh oqib turgan darmonsiz eshak xillaning og'rig'idan bezovta bo'lar, bosh silkitar, shunda dallol:

— Ko'rdingizmi, otday gijinglagisi bor!.. — derdi. — Bu eshak sizday dehqonga xizmat qilib charchamaydi. Juda zo'r eshak! Ishonavering! Men oppoq soqolim bilan sizni aldaymanmi? Sizga rahmim kelib, besh tumanga beraman deyapman. Suv tekin, pulingiz o'zingiz bilan ketadi!

Dehqon axiri besh tuman berib, qari eshakni yetaklab ketdi. Shunda kissavur Murod og'aga qarab:

— Ko‘rdingizmi?— dedi.— Boya bu mo‘ysafid dallol xuddi shu eshakni uch tumanga olganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rgan edim. Birpasda kambag‘al odamning ikki tumanini avrab oldi. Bu o‘g‘irlik emasmi? Nega uni ushlab bermaysiz, og‘a?

Murod og‘a bozor oralab borar ekan: “Odamlarda insof qolmaganga o‘xshaydi, — dedi o‘zicha. — Shu mo‘ysafid imonini ikki tumanga sotib, bir bechora dehqonni aldasa... Ilgari bunaqa emasmidi yo men sezmasmidim?

Bu bozorga kelganimga necha yil bo‘ldi? Uzuk ikki yashar edi, kelib sovg‘a-salom olib ketgan edim... Shunga darrov o‘n to‘rt yil bo‘libdi-ya! yo‘q, unda insofsizlik bu qadar avj olmagan edi. Hozir har qadamda bir aldamchilik... Oxir zamon yaqinmikan? Ishqilib, yomonlarning kasofatiga qolmaylik-da. Shu yolg‘iz qizim buzilib ketayotgan dunyoning jabrini tortmasin-da!”

Murod og‘a to‘n bozorini qidirib topdi. Subhonboy do‘konining oldida bir yigitga yangi to‘nni kiydirib:

— Qara, tolasi ipakday tovlanadi, jiyagi asl ipak,— deb maqtar edi.

Murod og‘aning salomiga do‘kon oldida turgan odamlardan bir-ikkitasi alik oldi. Subhonboy esa savdo bilan band edi:

— Narxini arzon qildim. Endi bir tiyin ham kamiga bermayman.

— Yarim tanga tushing, juda qimmat-da!— dedi to‘n kiygan yigit.

Boshqalar uning tarafini olishdi. Ammo Subhonboy aytganini qilib, oyog‘ini tirab oldi, bir tiyin ham tushmadi.

— Boring-e, yarim tanga ortiq ketsa, shu bilan kambag‘al bo‘lib qolmasman,— dedi yigit Subhonboyga to‘nning pulini sanab berarkan.

— Ha-a, barakalla ishqilib, bu to‘n yaxshi kuningga yarasin, to‘ylarda kiygin,— dedi Subhonboy.— Menday keksa odamning duosi puldan yuqori turadi, yigit. Ota-bobolarimiz “oltin olma, duo ol!” degan.

— Lekin o‘zingiz duoni ham pulga sotyapsiz-ku, og‘a,— deb kuldi yigit. Subhonboy pulni olgandan keyin yigitning so‘nggi gapiga quloq ham solmadi. Do‘konda unga yordam berib o‘tirgan ukasiga qarab:

— Savdoda mana shunaqa qattiq turish kerak,— dedi.— Tomatoma ko'l bo'ladi, tommay qolsa cho'l bo'ladi. Tushundingmi? Qani, endi bu yog'ini o'zing eplashtirib tur.

Shundan keyin Subhonboy Murod og'aga yuzlandi:

— Qani, yur-chi, — deb, uni choyxona tomonga boshlab ketdi.

"Bu xasis menga choy quyib bermoqchimi?" dedi Murod og'a o'zicha hayron bo'lib.

Biroq Subhonboy uni choyxonaning ortidagi xoliroq joyga boshlab bordi-da, keksa baqaterakka yelkasini tirab cho'nqaydi.

— Qani, o'tir-chi,— deb yonidan Murod og'aga joy ko'rsatdi. Murod og'a uning chap tomoniga o'tib, xurjunini tagiga qo'yib o'tirdi.

— Xo'sh, qishloqqa bordingmi? Gap nimadaligini xotiningdan eshitgandirsan ?

Murod og'a qaltis gapni birinchi bo'lib boshlagisi kelmadi.

— Aniq bir gap eshitganim yo'q,— dedi.— Bozorga kelsin, degan ekansiz, keldim.

— Xo'sh, anig'ini eshitmagan bo'lsang, men ayta qolay. Qizingning baxti ochiladigan bo'lib turibdi. Yaxshi bir joydan odam chiqdi. Xotining "ixtiyor erimda" degan edi. Haqiqatan, sen otasan, Murod, oila boshlig'isan. Payti kelganda men senga aytib qo'yay. Cho'ponlarimning orasida sen eng yaxshilaridansan. Yigirma yildan beri mening qo'yimni boqasan. Halol ishlayapsan. Men senga bir yaxshilik qilishni o'ylab yurgan edim. "Shu kambag'alning yelkasi ham bir oftob ko'rsin", der edim. Shuning ustiga Bekmurodboy ukasiga munosib qiz qidirib yurganini eshitib qoldim. Bunaqa ishda oraga tushish oson emas, o'zing bilasan. U — katta bir boy. Sandiq-sandiq oltinlari bor. Sen — o'zimiz bilgan faqir-u bechorasan. Bekmurodboy shuni o'ylab, biroz ikkilandi. Lekin men sen bilan qizingni rosa maqtadim. "Mayli, men sizga ishonaman. Murod sizning tarbiyangizni olgan bo'lsa, shu odam bilan quda bo'laman", dedi. Tushundingmi?

Murod og'a Subhonboydan umrida bunday maqtov eshitmagan, uni bunchalik shirinsuxan bo'la oladi, deb o'ylamagan edi. Hozir boyning gapi uni ancha elitib qo'ydi. U yerga qarab, "tushundim" degan ma'noda bosh irg'adi.

— Tushungan bo'lsang, juda soz, kelasi hafta uyingga to'y boradi. Ungacha xotiningga ham bor gapini tushuntirib qo'y. Ikkilanma, Murod! Hozir sening omading kelib turibdi. Mahkam ushlamasang qochadi ketadi. "Davlatlidan davlat yog'ar, davlatsizdan — mehnat yog'ar", degan maqol bor. Boshingdan davlat yog'iladi. Qizing, xotining ipak kiyadi, ipak! Borib tushuntir! Murod og'a xotiniga bu gapni qanday tushuntirishni ko'z oldiga keltirdi-yu, birdan O'raz xolaning: "Yolg'iz qizimizni kundosh ustiga beramizmi?" degan so'zlarini esladi. Taraddud bilan yo'talib:

— Subhon og'a, menga shunchalik qayishganingiz uchun rahmat,— dedi.— Lekin qizimiz hali yosh. Bekmurodboyning ukasi o'rta yashar kishi ekan. Xotini bor ekan. Kundoshlik...

— E, xotini bo'lsa, nima qilibdi? O'zing insof bilan ayt. Xotini bo'lmasa, shundan boy odamlar senday cho'ponning qiziga sovchi yuborarmidi?

— Rost, men bir bechora odamman. Lekin bizga ham o'z tengimiz topilib qolar. Ular ham o'zlariga munosib joydan kelin qilisha qolsin, Subhon og'a.

— Senga bu gapni xotining o'rgatib yuborganmi deyman-da! Hey, Murod, sen xotinning gapiga kirma. Xotinning sochi uzun, aqli kalta bo'ladi! Bekmurodboy mol-u dunyoning yuziga qaraydigan odam emas. Og'zingga siqqan qalinni so'rasang, beradi. Sen ham badavlat odam bo'lib qolasan...

— Subhon og'a, gap mol-u dunyoda emas. Umrimizning ko'pi ketib, ozi qoldi. Kambag'allikka ham o'rganib ketganmiz. Norasida qizimizni kundosh ustiga berib orttirgan davlatimiz bizga qanday tatiydi?

— Yana kundosh deydi-ya! Sen turgan ovulning yoshullisi menmanmi? Nega sen mening gapimga ishonmaysan? Xotini bo'lsa ham, bola tug'maydigan xotin ekan. Bildingmi? Sening qizing bir yil o'tmay o'g'il tug'ib bersa, o'sha uyning yolg'iz bekasi bo'lib oladi. Keyin u yigitga katta xotinining nima keragi bor? Qo'yib yuboradi, qizing kundoshdan ham qutuladi.

— Shunday bo'ladimi, yo'qmi, kim biladi, Subhon og'a. Kuyov bo'laman degan yigit qamchisidan qon tomadigan badjahl odam deyishadi...

— Kim aytadi shuni? Sen xotinlarning gapini dasturxon qilib yuripsanmi? Maslahatching ayol bo'lsa, qilgan ishing ziyon bo'ladi. Sen menday odamga ishonmaysan-u xotiningga ishonasanmi?

— Siz bizning yoshullimizsiz, Subhon og'a, sizga ishonaman. Lekin qizimizning onasi ham, axir, bir parcha etdan odam qilgan, shu bolani kichikligidan boqib o'stirgan...

— Iye, hali qizingni faqat xotining boqqanmi? Menchi?! Yigirma yildan beri kimning nonini yeb yuribsanlar? Men senlarni odam deb, shuncha zarur ishlarimni tashlab, qizlaringni yaxshi joyga beray desam, endi meni Bekmurodboyning oldida sharmanda qilmoqchimisanlar? "Subhonboy o'zining cho'ponini ham to'g'ri yo'lga sololmadi, obro'si yo'q ekan, uni hech kim pisand qilmas ekan", deb gap qilishsinmi meni? Shuncha yil tuzimni yeb endi tuzlig'imga tupurmoqchimisanlar?!

Subhonboyning joni chiqib gapirayotganini ko'rgan Murod og'a birdan dovdirab qoldi.

— Men sizni xafa qilmoqchi emasman, Subhon og'a... Men sizga...

— So'zimni bir pulga olmaganing xafa qilmaganingmi?!

— Xo'p, unday bo'lsa... Mayli, yana o'ylashib ko'raylik...

— O'ylashib ko'rish bundan ortiq bo'lmaydi. Mening senga tushuntirmagan gapim qolmadi!.. Endi kelasi hafta uyingga fotihaga odam boradi... Tayyorgarligingni ko'raver...

Murod og'a bu gal "yo'q" deyolmadi.

— Bo'lmasa, gap shu,— deb Subhonboy do'koniga qarab ketdi.

Murod og'a bo'shashib, shovqin-suronli rastalar oldidan o'tar ekan, xotini tuz tayinlab yuborgani, bolalariga bozorlik olmoqchi bo'lgani esiga tushdi. Yonini paypaslab, haligi qironni qo'liga oldi. Tanganing teshigida Uzuk bog'lagan ipning kichik bir parchasi hali ham tugun bo'lib turar edi. Murod og'a belidagi pichog'ini qinidan olib, tugunchani kesib tashlar ekan, qizining yoshli ko'zlari, umid bilan "yaxshi borib keling, dada", degani esiga tushdi. Ertalab sahrodan uyiga kelganda qizi ham, xotini ham undan najot kutganday quvonganlari ko'z oldidan o'tdi. Endi bugun borib ularni nima bilan quvontira oladi? Bozorlik bilanmi? Shunday shum xabarga qo'shib olib boradigan bozorligi kimga tatiydi?

Murod og'a-ku, uyidan "rozilik bermayman" deb chiqqan edi. Nima bo'lib Subhonboyga yon berib qo'ydi? Kelasi hafta fotihaga odam borsa... Rad qilib bo'ladimi? Nega hozir ochiq-oydin "yo'q" demadi? Uning indamaganini Subhonboy alomati rizo deb o'yladi-ku. O'raz xola rost aytadi, Murod og'a juda bo'sh. Bilib turib, o'z qizini kundosh ustiga bersa... Subhonboyning avrashiga laqqa tushib, do'qidan qo'rqib, shunday qilsa... Bunga Berdi nima deydi? Uzukning ko'ziga qaysi yuz bilan ko'rinadi? "Eyyy, ko'rgilik,— dedi ichida Murod og'a.— Ko'rgilikmi? Yo'q, ayb o'zimda. Hozir borib, shu aybimni yuvmasam, umrbod dog'da qolaman!"

Murod og'a tez-tez yurib, Subhonboyning do'koni oldiga qaytib keldi.

— Subhon og'a, beri keling,— deb uni tashqariga chaqirib oldi. Men yana o'ylab ko'rdim. Men qizimizni kundosh ustiga bermayman.

— A?! Jinni bo'ldingmi? Boya gapni tamomlagan edik-ku!

— Yo'q, so'rasalar ayting. Ota-onasi rozi emas, deng.

Murod og'a shunday dedi-yu, ortiga burilib, odamlar orasiga kirib ketdi.

Subhonboy uning ketidan so'kinganicha qoldi.

* * *

Murod og'a shom qorong'isida uyiga qaytdi. Xotini u keltirgan bozorliklarga ham qaramay, nima bo'lganini so'radi. Murod og'a "uh!" tortib:

— Endi Subhonboydan baloga qoldik,— dedi. — Uzuk, qizim, sen chiqib yumushingni qil... Men "yo'q" deb keldim, xotin. Subhonboy juda xafa bo'lib qoldi.

— Battar bo'lsin! Aralashib nima qilar edi!

— Endi bu boylar qasd qilsa, qo'lidan har balo keladi.

O'raz xola ham shuni o'ylab, noma'lum bir xavfdan yuragi uvushdi.

— Men bir narsani o'ylab keldim,— dedi Murod og'a.— O'zimiz-ku, bir yil-yarim yil o'tkazib, Uzukni Berdiga uzatmoqchi edik. Endi shuni tezlatish kerak. Boshi bog'liq bo'lsa, tinchroq yuramiz.

— Baribir bu ish ham Subhon xasisning roziligisiz bo'lmaydi. Berdi — uning cho'poni. Haq bermasa, to'yni nima bilan qilasiz?

— Ana shu yog'i chatoq. Men bugun borib, Berdini yuboray. O'g'ilniyoz xolasini ishga solsin. O'g'ilniyoz ancha gapga chechan xotin. Birga kirib, Subhonboy bilan gaplashinglar.

Rozi bo'lsa durust, bo'lmasa, qarz-qurz olib, fotiha to'ylarini bir amallab o'tkazib qo'yarmiz. Berdi yaxshi yigit, yonimizga kiradi. Subhon xasis bizni sig'dirmasa, boshqa yoqqa ko'chib ham ketarmiz. Bolalar omon bo'lsa, bir kunimiz o'tar...

— Mayli, bo'lmasa ovqat-povqatingizni yeng. Kecha tuni bilan uxlamagan edingiz. Bugun tunni yana yo'lda o'tkazasizmi?

— Nima qilay? Bu ishlarni bir yoqlik qilmaguncha bizga tinchlik yo'q...

## ZAMONA ZO'RNIKI

Bozor qaytish payti. Subhonboy devorlariga to'nlar osilgan, ichiga qavat-qavat to'n taxlab qo'yilgan do'konda cho'girmasini tizzasining tagiga qistirib, och qolgan tovuqday hurpayib o'tiribdi. Bugun savdo sust bo'ldi, sotmoqchi bo'lgan to'nlarining yarmini ham pullay olmadi. Ustiga ustak, Murod uning so'zini yerda qoldirgani alam qildi... Subhonboy bo'z ko'ylagining kir bilan terdan qotib ketgan yoqasini tortib, bo'ynini bo'shatibroq qo'ydi.

Shu payt do'konning oldiga bir kishi kelib:

— Assalomu alaykum,— deb to'xtadi. Subhonboy salom bergan kishining yuziga qaradi-yu, shoshilib o'rnidan turdi:

— E, e, Bekmurodboy, va alaykum assalom! Qani, keling, ichkariga kiring.

— Yo'q. Subhon og'a, sog' bo'ling, vaqtim ziqroq,— deb Bekmurodboy Subhon og'aga sabrsizlik bilan ko'z tashladi.

— E, kiring-da endi, bir piyola choy ichib ketasiz.

Bekmurodboy istar-istamas do'konga kirar ekan:

— Mayli bo'lmasa, ishqilib, sog' bo'ling,— deb qo'ydi. — Qalay, suyunchi beraymi? Murod kelgandir.

Subhonboy sovub qolgan choyni piyolaga shoshilmay quydi-da, Bekmurodboyga uzatdi. Yana bir lahza jim qolgach:

— He, bu bizning ishimiz qursin,— dedi.— "Itning bo'yniga gavhar taqsang, it ham yig'laydi, gavhar ham", deganday bo'lyapti. Gapni tushunmagan odamdan mol yaxshi, deb ota-bobolarimiz to'g'ri aytgan...

Gapning cho'zilayotganidan betoqat bo'lgan Bekmurodboy:

— Lo'ndasini ayting, javobi nima bo'ldi?— deb uning so'zini kesdi.

— E, "Qizim yosh, unday, bunday", deb bahona ko'rsatyapti. Ko'ndirolmaganimdan keyin mening ham jahlim chiqdi. O'zi mening qo'yimni boqadi. "Tur jo'na, toshingni ter!" deb so'kib yubordim.

— Undan chiqdi, ishimiz bitmas ekan-da?

— Nega bitmas ekan? Bitadi. Bitishi o'zimizga bog'liq, Bekmurodboy. Ota-onasi yaxshilikcha rozi bo'lmadimi, endi boshqa yo'lini o'ylaylik. Murodning ko'zini moshday ochib qo'yaylik. Ahmoq, menday odamning yuziga oyoq qo'ydi-ya. Bunaqa cho'ponlarni jarga tashlab yuborsangiz ham oz.

— To'g'ri,— dedi Bekmurodboy.— Qurbaqa ot bo'laman deb temirchiga borsa, temirchi uning oyog'ini taqalab o'tirmaydi, bir urib o'ldiradi-qo'yadi.

— Ha, otangizga rahmat. Men ukangizga shu qizni olib beraman dedimmi, bir so'zimni ikki qilmayman. Bu qizga qalinni oz to'laysiz deganmidim? Endi qalinsiz olasiz. Meni rozi qilsangiz, bo'ldi. Bu ishga ketgan xarajat bevaga ham ketadi. Ukangiz-ku, onasi o'pmagan go'zalni oladi.

— Bu yog'ini o'zingiz bilasiz, Subhon og'a. Lekin men sizni rozi qilaman. O'sha siz ko'rgan uloqchi otim bor-ku? O'shani yuz qo'yga olaman degan odamlar bo'ldi. Lekin men sotmayman. Tarozining bir pallasiga otni qo'ysa-yu, ikkinchi pallasiga o'shancha oltin qo'ysa ham sotmayman. Lekin sizga tekinga beraman. Ishimni to'g'rilasangiz, bo'ldi.

— To'g'rilaymiz.

— Lekin hidi chiqmasligi kerak. Odamlarni bilasiz... To'polon bo'lib ketmasin.

— Hech kimga bildirmaymiz.

— Xo'p, endi haligi siz kecha aytgan yer... Uni ham sizga olib beraman. Olloquli degan yetim bolaga otasidan shu uch tanob yer qolgan ekan. Lekin yerga amakisi ekin ekar ekan. Yetim bolani "uylantirib qo'yaman", deb yurgan ekan. Men u bolani chaqirtirib kelib gaplashdim. "Amaking seni laqillatib yuribdi, qariganingcha uylanolmaysan, undan ko'ra, men o'zim yeringni sotib, boshingni ikkita qilib qo'yaman", dedim. Bolaning o'zi ham amakisidan noroziroq ekan. Yon beradiganga o'xshab turibdi.

— Amakisi sotdirmasa kerak-da. Tirikchiligi shu yerning orqasidan ekan, yopishib olsa kerak.

— Yopishganiga qaraymizmi, Subhon og'a?

— Yaxshi bo'lar edi-da. Ko'rib turibsiz, mening do'konim bor. Savdo shaharda bo'ladi. O'sha yer shaharga juda yaqin.

— Bo'pti, siz bu ishni to'g'rilang, men yerni sizga arzon-garovga olib beraman.

— Qiz sizniki dedim-ku. Lekin o'zi ham qizmisan qiz-da. Bizning qishloqda hali bunaqasi bo'lgan emas. Yoshi o'n oltida-yu, lekin rosa yetilgan. Omonmurod ukangizning baxti bor ekanda. Shu husni, shu aqli, shu qaddi qomatiga yana gilam to'qishini ko'rsangiz. Har to'qigan gilamiga bitta tulpor ot beradi-ya... Lekin bu qizni qanday qilib qo'lga kiritamiz deb o'ylaysiz, boy?

Kutilmagan savoldan hayron bo'lgan Bekmurodboy bir qoshini ko'tarib:

— Bu yog'ini siz bilasiz-da endi, Subhon og'a, — dedi.

— Biz bilsak, bunday: otasi to'g'rilikcha ko'nmadimi, endi yigitlaringizni ishga soling. Otlarning baquvvatini tanlang. Qizning otasi kecha-yu kunduz qumda qo'y boqadi. Uyda onasining bir o'zi. Uylari ham qishloqning chetida. Omonmurod ukangiz yigitlari bilan sekin keladi-yu, otga o'ngarib, "hayt!" deb jo'naydi. Qiz avval yig'lab-siqtasa kerak, keyin badavlat joyga tushganini ko'rsa, o'zi ham Xudoga shukur qiladi.

— Qishlog'ingizda to'polon bo'lib ketsa-chi?

— Bu yog'ini menga qo'yib bering.

— Albatta, siz qishloqning eng badavlat, eng zo‘r odamisiz. Bosdi-bosdi qila olasiz. Yaxshi o‘ylabsiz, Subhon og‘a, men ham sizdan shunday xo‘roz gap kutib turgan edim.

— Ishqilib, siz xursand bo‘lsangiz bo‘ldi.

— E, sizni ham xursand qilish — bizga tan, Subhon og‘a. Tog‘ tog‘ga suyanmaydi, odam odamga suyanadi. Odam odamga hamma vaqt kerak bo‘ladi.

— Albatta, albatta.

— Bo‘lmasa, gap shu, Subhon og‘a. Kelasi bozor kuni qishloqda erkaklar yo‘q paytini poylab, Omonmurod ikki-uchta yigiti bilan sekin boradi. Agar qishloqda erkaklar bo‘lsa, qon to‘kilishi mumkin. Shuning uchun siz bir yo‘lini topib, hammasini har qayoqqa ish bilan yuboring.

— Buni yaxshi aytdingiz, Bekmurodboy. Qon to‘kilsa, ish chigallashadi. Qishlog‘imizning yigitlari juda oriyatli... He, mayli, kunduz kuni bo‘ladi-ku. Ko‘pi bozorga, dalaga ketadi. Bir-ikkitasi qolsa biron yoqqa ish bilan jo‘nataman.

— Bo‘lmasa, gap shu, Subhon og‘a.

— Xo‘sh, sog‘ bo‘ling.

* * *

Ertasi kuni Subhonboy ovulga borsa, Berdi yuribdi. Ko‘rinishidan juda xursand. Subhonboy uni oldiga chaqirib:

— Ha, yana nega kelding? — dedi.

Berdi uyalinqirab yerga qaradi-yu:

— Nozik bir ish bilan keldim, boy og‘a, — dedi. — O‘g‘ilniyoz xolamlar sizga uchrab, hammasini aytmoqchilar. Keyin men ham kirib, sizdan ul-bul so‘rayman...

Berdining iymanib kulimsirashida, ko‘zlarining chaqnab turishida baxtiyorlikdan darak beruvchi bir belgi borga o‘xshar edi. “Ob-bo, Murod isliqi-ey, buni ichkuyov qilib, qizining boshini tezroq bog‘lab qo‘ymoqchiga o‘xshaydi-ku. Ko‘ramiz!”

Subhonboy Berdiga ataylab qattiq gapirmadi.

— Mayli, ishing bo‘lsa, kechroq kirarsan,— dedi.

Tushga yaqin O‘raz xola bilan O‘g‘ilniyoz xola Subhonboyning uyiga borishdi. Subhon xasis o‘tgan kuni pishirlgan ovqatlarning

sarqiti isrof bo'lmasin deb, ilitma ovqatni yegan, endi kigiz ustida qorni dam bo'lib yotgan edi. Xotinlar undan hayiqib ostona oldida to'xtashdi-yu, qo'rqa-pisa salom berishdi.

Subhonboy alik olib o'rnidan turib o'tirdi. Xotinlar ostonadan o'tib, poygohda unga yarim o'girilgan holda o'tirishdi.

— Xo'sh, tinchlikmi, O'razsulton? — dedi Subhonboy.

— Shukur, tinchlik. Biz bir ish bilan kelgan edik.

— Qanaqa ish?

— Biz Uzukning dadasi bilan maslahatlashdik. O'g'ilniyoz opa ham shu maslahatga bosh qo'shdi. Uzukni Berdiga uzatsak deymiz.

— Heh, qizimiz yosh, hali erga bermaymiz, deb yurgan edilaring-ku?

— Rost... Asli maqsadimiz yana bir yil-yarim yil kutish edi. Lekin... Sizday yoshulli: "Qizlaring bo'yi yetibdi, uzatinglar", dedingiz. Shundan keyin...

"Og'zimdan chiqqanini yoqamga yopishtirayotibdi-ku!" dedi Subhonboy ichida.

— Bo'yi yetishga yetgan. Men nima ham deyman? Ixtiyor o'zlaringda. Ota-onasi nima desa, shu bo'ladi...

— To'g'ri-yu, endi siz qishlog'imizning o'tag'asi bo'lganingiz uchun, roziligingizni olmoqchimiz-da.

— Menga baribir. Men senlarning foydalaringni o'ylab, Bekmurodboyning ukasiga bera qolinglar, degan edim. Katta qalin olib, ancha badavlat bo'lib qolar edilaring...

— To'g'ri-yu, Subhon og'a, lekin hech kim qizini sotib boy bo'lgan emas... Qizimiz kambag'alga tegsa ham, o'zidan tinchisa, bizga shu yetadi.

— Xo'p, bo'pti. Ehtimol, senlarning tutgan yo'llaring to'g'riroqdir...

Subhonboydan bunday osonlikcha rozilik olishini kutmagan ayollar bir-birlariga quvonch bilan qarab qo'yishdi. So'ng O'g'ilniyoz xola Berdi haqida gap ochdi.

— O'zingiz bilasiz, Subhon og'a, Berdining ota-onasi yo'q. Men uning uzoq bir qarindoshiman. Uylanish oson emas. Berdi to'rt yildan beri qo'yingizni boqadi...Shunga yordamingizni ayamasangiz...

— Mayli, mana, biz un-punini ko'taramiz, to'yga bitta qo'y ham beramiz...

— Rahmat, Subhon og'a. Berdi sahroda yurib, to'yga tayyorgarlik ko'rolmaydi. Unga bir oymi, qirq kunmi javob bersangiz...

— Buni ham o'ylab ko'ramiz. O'zi mening oldimga kelsin, maslahatlashamiz.

O'g'ilniyoz xola bilan O'raz xola umrlarida Subhonboydan bunchalik mamnun bo'lmagan edilar. O'raz xola uyiga qanot chiqarib uchguday bo'lib bordi. Uzukni quchoqlab, o'pib:

— Qizim, bir Xudo deganing bor ekan, Subhonboy ipakday mayin bo'lib qolibdi! — dedi.

Subhonboy Bekmurod bilan kelasi bozor kuniga belgilagan ishni puxta o'tkazish va har qanday shubhadan xoli bo'lish uchun Berdi bilan ham juda muloyim gaplashdi.

— Sen yaxshi cho'ponsan, senga bir oy, qirq kun javob beradigan bo'lsam, o'rningga o'zingday durust odam topib qo'yishim kerak, chunki hozir ayni qo'y semiradigan payt,— dedi. — Qo'y yaxshi semirmasa, qishdan yaxshi chiqmaydi, to'g'rimi ?

— To'g'ri, to'g'ri...

— Shuning uchun sen hafta-o'n kun sabr qil. Yana bir bozor o'tsin. Kelasi haftaning o'rtalarigacha men o'rningga odam topaman-u o'zim olib borib qo'yib kelaman...

Berdi, albatta, rozi bo'ldi.

* * *

Oradan olti kun o'tdi. Uzuk sovchi balosidan qutulganiga suyunib yurar, Berdi erta-indin sahrodan qaytishini, oldinda uni yana shodlik kutayotganini o'ylasa, yuragi hapqirib-hapqirib qo'yardi. Bugun — bozor kuni.

Uzuk uch oydan beri to'qiyotgan gilamini shu bugun bitiradigan. Bu ham uning sevinchiga sevinch qo'shardi.

Tashqarida kuz, dala ishlari bitgan, qishloqning ko'pchilik erkaklari bozorga ketishgan. Bozorga faqat biror narsa sotmoqchi yoki olmoqchi bo'lganlargina emas, shunchaki dam olib, sayr-u tomosha qilib, dunyo yangiliklaridan eshitib kelmoqchi bo'lganlar ham ketishgan.

Qishloqda qolgan uch-to'rtta erkakning ba'zisi o'tin terish uchun saksovulzorlarga jo'nashgan, ba'zilarini Subhonboy sahrodagi suruvlarga ish bilan yuborgan. Qishloqda keksalar, ayollar va bolalargina qolgan.

Uzuk gilamning so'nggi parchasini to'qir ekan, o'rmakdan goh chopib kelayotgan otning dupuriga, goh qochayotgai hurkak qo'yning tuyoq tovushlariga o'xshash sadolar eshitilardi. Mana, gilamga tushgan so'nggi gul ham bitdi.

O'rmak qilichi arqoq o'rish orasida so'ngi marta sayr qilib qaytdi. Uzuk quvonib, o'rindan turdi-yu, hovli sahniga chiqib:

— Oyi! — dedi. — O'g'ilniyoz xola! Kelinglar, gilamimni kesib beringlar!

Bitgan gilamni o'rmakdan kesib olish — kayvonilarga munosib qutlug' ish. Uzukning onasi bilan O'g'ilniyoz xola gilam turgan uyga kirishar ekan, suyuna-suyuna:

— Voy, aylanay sendan!

— Bitiribsanda-a!

— Zap gilam bo'libdi-da! — deyishardi.

Uzuk gilam patlarini kesgan pichoqchasini oyisiga uzatib:

— Mana, — dedi.

Bitgan kemani suvga tushirishdan oldin uning lentasini kesish qanday sharafli bo'lsa, kampir uchun bu ham shunday ish edi. O'raz xola pichoqni O'g'ilniyoz xolaga uzatdi. "Siz mendan kattasiz, siz kesing!" dedi. "Yo'q, siz Uzukning onasisiz", "Yo'q, siz qirqing!" Ancha tortishuv bo'ldi: nihoyat, O'g'ilniyoz xola pichoqni oldi-yu:

— Bismillohi rahmoni rahim, — deb gilam ustiga tantanali bir qiyofada egildi.

Ular bu ish bilan andarmon bo'lib, qishloqqa uch kishi ot choptirib kirib kelganini, qishloq itlari begona otliqlarga hurib, to'sto'polon ko'targanini sezmadilar.

O'g'ilniyoz xola gilamning o'rishidan qolgan qisqagina jun iplarini bir-bir kesar edi. Bu iplar uch oydan beri Uzukning qo'llari ostida dutorning torlariday sado bergan edi. Endi ularning kesilayotganini ko'rgan Uzuk allanimaday ayrilayotganday, aziz narsasi bilan vidolashayotganday bir lahza xomush bo'lib turdi.

So'ng juda katta bir ishi bitganini, ko'pdan beri kutgan daqiqalariga yetishganini esladi-yu, ko'ngli yana ravshan bo'lib ketdi. Shu qirqilayotgan iplar bilan birga, uni qiynagan juda ko'p chigal o'ylar, azoblar ham qirqilib yo'q bo'layotganday xushnud kulimsiradi. O'g'ilniyoz xola o'rmakdan bo'shagan gilamni bo'yi baravar yuqoriga ko'tardi-da, uning o'n bir xil rang berib tovlanishidan zavqlanib ketdi.

— Qani endi to'qigan gilamlaringning hammasi o'zingga qolsa, to'yingga...

O'g'ilniyoz xolaning gapi og'zida qoldi. Hovliga tasir-tusur kirib kelgan otliqlar otlaridan sakrab-sakrab tushdilar.

— Voy, bu nima, bu kim?— deb ayollar eshikdan qarashgan edi, haligi uch yigit darhol ularga tomon intilishdi. Oldinda qisiq ko'zli, burni katta, kalta soqolli, oyoq-qo'li uzun bir kishi kelmoqda edi. Uning juni uzun turkmancha qora telpagi tasmaga bog'lanib, bo'ynining orqasiga tushirib qo'yilgan. Yangi qizil to'ni ustidan bog'langan sariq ipak belbog'i va poshnasi baland xrom etigi uning badavlat odamlardan ekanini ko'rsatib turardi.

Ayollar o'zlarini ichkariga oldilar. Uzuk dahshatli bir xatarni sezganday bo'g'inlari bo'shashib, devor tagiga o'tirib qoldi. Qisiq ko'zli kishi Bekmurodboyning ukasi Omonmurod edi. U eshikdan kirgach, ko'zlarini suzib ayollarga bir-bir qarab chiqdi. So'ng qashqir tezligi bilan Uzukka tashlandi-da, uni qo'liga ko'tarib oldi.

— Hoy, sen kimsan? Tegma qizimga, Xudoning g'azabiga yo'liqqur!

— Qo'yvor!.. Qo'yvor!!— deb Uzuk yigitning qo'lidan chiqib ketmoqchi bo'lib tipirchilar, lekin bo'shay olmas edi.

O'raz xola o'rmak qilichni oldi-yu, Omonmurodning yuziga qulochkashlab urdi. Omonmurod gandiraklab ketdi, peshanasidan qon sirqib chiqdi. Shunda ham qo'lidagi qizni qo'yib yubormadi.

Ikkinchi yigit yordamga yetib keldi. O'raz xolaning qo'lidagi o'rmak qilichini bir siltab tortib oldi-da, ayolning o'zini bir urib yerga yiqitdi.

O'g'ilniyoz xola qo'lida pichoq borligini endi esladi.

Omonmurodga pinchoq urib, Uzukni bo'shatib olish maqsadida qo'lini ko'tardi. Ammo ip kesadigan pichoqcha umrida birovga

pichoq urmagan ayolning qo'lida hech nima qilolmay qoldi. Omonmurodning choponini sal kesib ketdi, xolos. Yigitlardan biri O'g'ilniyoz xolanning pichoq ushlagan qo'lini shunday qayirdiki, qo'l qirsillab, suyagi chiqib ketgani ham eshitildi. Bu ayol ham behol bo'lib yiqilgach, uch yigit hamon tipirchilayotgan Uzukning oyoq-qo'llarini bog'lab, og'ziga ro'molini tiqishdi. So'ng Omonmurod otiga minib, uni o'ngarib oldi, qolgan yigitlar ham tezda otlandilar.

Bu orada O'g'ilniyoz xola bilan O'raz xola dod solib, hovliga chiqishgan edi. Dod ovoziga ayollar, bolalar chopib kela boshlashdi. Kimdir qishloq chetiga chopib chiqib, shudgor qilayotgan uch-to'rtta erkaklarga xabar berdi.

O'raz xola yomon yiqilgan ekan, hovliga chiqqanda ko'zi tinib, yana behush bo'lib qoldi. Birovlar Uzukni o'ngarib ketmoqchi bo'layotgan qaroqchilarga qarasa, birovlarning xayoli behush yotgan O'raz xolada edi.

— Bechora kampirni o'ldirib qo'yishibdi.

— Suv sepinglar.

— E, nega angrayib turibsanlar!— deb qichqirdi O'g'ilniyoz xola.— Qaroqchilarni ushlanglar. Uzukni qutqaringlar. Dod! Kim bor!!

Uzukning ukasi Turdi suvga ketgan edi. Shovqinni eshitib, chelaklarini tashlab chopib keldi. O'g'ilniyoz xola unga:

— Chop bozorga! — dedi. — Erkaklarga xabar ber! Uzukni o'g'irlab, ayollarni o'ldirib ketdi de! Chop tezroq!

Shu orada qaroqchilar qutulib ketishlari ham mumkin edi. Ammo eshakday eshakday keladigan bo'ribosar itlar ularning yo'lini to'sib, jon-jahdlari bilan hurishar, darvozadan chiqmoqchi bo'lgan otlarning o'mroviga, boshiga hamla qilishar edi. Otlar hurkib orqaga tisarilar, ustma-ust urilgan qamchilar zarbidan oldinga jilishganda, itlar yana ularning tumshuqlarini uzib olguday bo'lib sapchishar edi.

Turdi opasi Uzukni otga o'ngarilgan, oyoq-qo'li bog'langan holda ko'rdi-yu, O'g'ilniyoz xolaning gapi ham qulog'iga kirmadi. Ikki sakrashda oldingi otning yoliga yetib bordi. Goh otning jiloviga, goh otliqning uzangisiga yopishib:.

— Opamni qo'yvor! — deb baqirardi. — Amaki, bu nima qilganing! Opajon! Opam!

Uzuk Omonmurodning changalidan qutulmoqchi bo'lib talpinar, uzun sochlari yerda sudralib, goho otning oyog'i tagida qolar edi. Og'zi bog'langan Uzuk bo'g'iq ingrardi.

Ayollar, bolalar qichqirar, itlar qattiq hurishdan bo'g'ilib, ovozlari chiqmay qolar, shunda ham otlarga hamla qilishar edi. Otlar asabiy pishqirib, osmonga sakrar, orqaga tisarilar, ammo qurshovdan chiqib ketolmas edi.

Chang-to'polonda Turdi opasining azobdan o'zgarib ketgan yuzini ko'rdi. So'ng bir sakrab, Uzukka yopishdi-da uni jon-jahdi bilan o'ziga qarab tortdi. Yo Omonmurod ot bilan andarmon bo'lib qizni bo'shroq ushlagan ekanmi yoki otning silkinishi yordam berdimi, Uzuk yumshoq yerga yiqilib tushdi. Ot hurkib orqaga tisarildi, itlar Uzukni taniganday o'zlarini chetga olishdi.

Turdi opasini mahkam quchoqlab:

— Opamga tegmanglar — derdi. — Opam...

Uzuk bo'g'iq tovush bilan:

— Qo'l-oyog'imni bo'shat, qo'limni... — dedi.

Ammo sarosimaga tushgan bola opasining so'zlarini yaxshi eshitmas, uning qo'l-oyog'i bog'langanligini ham sezmas, nuqul:

— Opamga tegmanglar! — deb uni mahkam quchoqlab turar edi. Nazarida, opasini quchog'idan bir lahza bo'shatsa, yana olib qochib ketishadiganday bo'lar edi.

Bu orada ayollar to'piga oltmish yoshlardagi bir mo'ysafid ham kelib qo'shilgan edi. Chol oldinga chiqib:

— Eshshakdan tarqagan haromilar! — deb, otliq yigitlarning birini hassasi bilan ura ketdi. Omonmurod buni ko'rdi-yu, cholni qamchilashga tushdi. Shunda ayollar ham unga hamla qilishdi. Baland bo'yli bir xotin uzun xoda bilan Omonmurodning yelkasiga tushirdi.

Bolalar otliqlarga tosh otar edi. To's-to'polonda Uzuk bilan Turdi otlarning oyog'i tagida qolib ketishi mumkin edi. O'g'ilniyoz xola lat yegan qo'lini osiltirib Uzuk tomonga chopdi:

— Voy, odamlar! Uzukning qo'l-oyog'ini bo'shatinglar! Odamlar!..

O‘g‘ilniyoz xola Uzukka yetib ulgurolmadi. Yigitlardan eng baquvvati qichqirib otiga qamchi bosdi-da, chopib borayotgan ot ustidan engashib, chapdastlik bilan Uzukni yerdan ilib ketdi. Turdi opasini qo‘yib yubormay, otning orqasidan sudralib borar edi.

Cholning hassasi, ayollarning kaltagi, bolalar otgan toshlar otlarga ham tegib, ularni ham quturtirib yuborgan edi. Omonmurodning oti Uzukka yopishib osilib borayotgan Turdini yelkasidan tishlab olib otib yubordi. Bolaning choponi elkadan yirtilib ketdi, yirtiq tagidan qon ko‘rindi. Turdi yiqilgan joyida qoldi. Kaltak zarbidan g‘azablangan otlar endi oldindagi itlarning hamlasiga ham qaramay qurshovni yorib chiqdilar. Otliqlar qishloqdan uchib chiqib, ko‘prikka qarab ot qo‘yishdi. So‘yillar, panshaxalar bilan qurollangan ayollar ularni quvib borib, yarim yo‘lda qolib ketishdi.

Dala tomondan to‘rt kishi otliqlarning yo‘lini to‘smoqchi bo‘lib qiyalab chopib kelishardi. Ammo otlar quyunday uchib borar edi, piyodalar yetib kelisholmadi. Piyodalarning birida ov miltig‘i bor ekan, otliqlarning ketidan o‘q otdi — tegmadi. Yana otishga boshqalar yo‘l bermadi — qizga tegib ketishi mumkin edi.

Bu orada O‘razsulton xola hushiga kelgan edi, ayollardan bir-ikkitasi uni uyiga kiritib yotqizishdi. Bechora ona gangib qolgan, aqlidan ozgandan ming‘illab motam kuyini aytardi:

*Asil parchaning a’losi*
*Oyoq osti bo‘ldimi?*
*Asil chinnining kosasi*
*Itlarga yaloq bo‘ldimi?*

O‘g‘ilniyoz xola qaroqchilar qutulib ketganini ko‘rib, ho‘ngrab yig‘lab yubordi. Keyin qonga belanib yotgan Turdining oldiga kelib, uning yelkasini bog‘lashga kirishdi. U ko‘z yoshini arta-arta:

— Uzuk opangdan ayrilding-a, bolam! — dedi.— Shuncha odam turibdi, bittasi borib oyoq-qo‘lini yechsa-chi!

— To‘s-to‘polonda odamlar gangib qoldi-da, O‘g‘il xola! — dedi ayollardan biri.

— Bu yer yutkurlar bozor kunini tanlab, erkaklar, otlar yo'qligini bilib kelishgan-da.

— Ot nega yo'q deysiz? — dedi uchinchi bir xotin.— Archinning bostirmasida beshta ot qantarig'liq turibdi-ku.

O'g'ilniyoz xola sakrab o'rnidan turdi. Otliqlarni quvib yetolmay qishloqqa qaytib kelgan erkaklarga qarab:

— Hoy, yigitlar, tezroq bo'linglar, archinning otini olib, ketidan quvinglar! — dedi.

Besh-olti kishi bo'lib, archinning uyiga borishdi. Yo'l-yo'lakay archinning otlarini maqtashib ketishdi:

— Bersa, quvib yetadi.

— Ha, aytgandek, o'tgan poygada ikkitasi sovrin olgan.

Archinning o'zi bozorga ketgan edi. Uning sersavlat xotini bilan yoshgina kelini to'polonga aralashishni o'zlariga ep ko'rmay, voqeani uzoqdan tomosha qilib turishgan edi. Iltimos bilan borganlar gap nimadaligini aytib berganlaridan keyin archinning xotini qoshini chimirib, birpas o'ylanib turdi. So'ng qovog'ini solib dedi:

— Otlarimiz egarloqsiz. Egarlanguncha ular ketadi-qoladi. Hech kim quvib yetolmaydi.

Archinda otboqar bo'lib ishlaydigan yigit gapga aralashdi:

— Men uchtasini egarlab, taxt qilib turibman, opajon, — dedi. — Bunday paytda jim qarab turib bo'ladimi? Uchta yaxshi ot tayyor...

Archinning xotini uni urishib ketdi:

— Kim senga egarlagin dedi? Sen nega aralashasan? Mamat og'a kelsin, shu o'zboshimchaliging uchun ko'zingni o'ydiraman. Otlardan darrov egarini ol! Bo'lmasa, egarni oldirib o'zingga urdiraman!

Yigit darhol bekaning buyrug'ini bajarishga kirishdi. Archinning xotini odamlarga qarab:

— Mendan ot so'ramanglar, — dedi. — Mamat og'adan boshqa odam otlarni birovga berolmaydi. Ko'pkariga boqilayotgan otlarni birov yomon minib oqsatib qo'ysa, yo urish-janjal bo'lib, o'q tegsa keyin men baloga qolaman.

Odamlar bo'shashib uy-uyiga tarqashar ekan, ayollarning:

— Ilohim shu otlar egasiga buyurmasin!

— Shunday kunda agar ish bermasa, otxonadan chiqa olmay harom o'lsin! — degan qarg'ishlari eshitilar edi.

## DAHSHATLI TUN

Oq matoga o'ralgan va otga o'ngarilgan Uzuk behush edi. Uni o'g'irlagan otliqlar yo'lsiz pastqam joylar bilan yurib, qosh qoraygunchа ot choptirib borishdi. Qora terga botgan otlar charchab, hansirab qoldi. Shunda otliqlar ularning jilovini tortishdi. Otlar qadamlab yurishga o'tdi. Uzuk hamon hushiga kelmas edi.

— Endi buni qayerga olib boramiz? — dedi hovlida Uzukni yerdan ilib olib ketgan Sapar ismli yigit.

Omonmurod peshonasidagi qontalash g'urrani ushlab ko'rdi-yu:

— Qayerga bo'lar edi, uyga-da, — dedi.

— O'zing bilasan, Omonmurod. Lekin men sening o'rningda bo'lsam, uyga olib bormas edim...

— Nega? — talmovsirab so'radi Omonmurod,

— Uyda xotining bor. "Ustimga kundosh olib kelding!" deb shovqin ko'taradi. Tojsulton opani bilamiz-ku. O'zi katta boyning qizi, juda balanddan keladi.

— Balanddan kelsa, hovurini bosib qo'yish qiyinmi? Janjal qiladigan kekirdagini yulib olarman...

— Ha, bu sening qo'lingdan keladi.

Qovus nomli uchinchi yigit gapga aralashdi:

— Bugun bo'lmasa, erta-indin baribir o'sha uyga olib boradi-ku. Tuyaga mingan odam egarning ortiga bekinolmaydi. Tojsulton opa janjal ko'tarsa, Omonmurodning uyida tayoq ko'p, och biqninga bitta ursa, mana bu kelinimizning onasiday oyog'ini cho'zib jim bo'ladi qoladi... Ha-ha-ha!

— To'g'ri aytasan, Qovusjon, — dedi Omonmurod ham kulib.

— Lekin Bekmurod og'a nima degan edi? — e'tiroz qildi Sapar.— Bayramboynikiga tushinglar demaganmidi?

— E, Bayramboyniki bilan Omonmurodning uyi yaqin, orasi zo'rg'a bir chaqirim keladi,— dedi Qovus.–Tojsulton opa eshitmaydi deysanmi? O'zi bir-ikki kundan beri gumonsirab yurgan edi...

— Ha, la'nati, toziday hid oladi, — dedi Omonmurod.

Qovusga bu gap nasha qilib, xaxolab kuldi. Sapar jiddiy turib:

— Keyin kularsan, Qovus. — dedi. — Hozir durustroq o'ylab ko'rish kerak. Bir ovulning qizini o'g'ilab kelyapmiz. Bizni ko'p

odam ko'rdi. Balki taniganlar ham bordir. Omonmurod uyiga borib yotsa, yarim kechada bostirib kelib qolishsa nima qiladi? Undan ko'ra Bayramboynikiga tushaylik. Bir gap bo'lsa yigitlari ko'p, bizga qo'shilib, himoya qilishadi. Agar ular bostirib kelmasa, Bayramboy, martabali odam, oraga tushib, yaxshilikcha bosti-bosti qilish mumkin.

— Mayli,— dedi Omonmurod Saparga, — buguncha bizga o'sha ovuldagi janjal-to'polon ham yetadi... Hayda, Bayramboynikiga...

* * *

Bayramboy bilan Bekmurodboy ko'pdan beri bordi-keldi qiladi, ularning xotinlari ham bir-birlarini yaxshi bilishadi. Bugungi ishning hidini chiqarmaslik uchun Bekmurodboy oshnasi bilan oldindan gaplashib, bitta uyni Uzuk va Omonmurod uchun tayyorlatib qo'ygan edi. Bekmurodboy o'zining katta xotinini ertalab Bayramboynikiga shu ish bilan yuborgan edi. Bekmurodboyning katta xotini — qirq besh yoshlarga borgan muloyim tabiatli ayol— eri bilan qaynisi qilayotgan ishni ich-ichidan yoqtirmasdi, lekin u Bekmurodboy buyurgan ishni so'zsiz bajarib o'rgangan edi, shuning uchun Omonmurodni o'lja bilan kutar edi.

Xuftonga yaqin hovlida ot dupuri va kuchuklarning hurganini eshitib, Bekmurodboyning xotini darrov tashqariga chiqdi. Omonmurod uni ko'rdi-yu, chehrasi sal ochildi.

— Mana, kelinoyi... Olib kiring.

Bekmurodboyning xotini oyoq-qo'li bog'langan, oq matoga o'ralgan Uzukni baquvvat qo'llari bilan ko'tarib oldi-yu, uydan tushgan yorug'da yigitlarning yuziga qarab:

— Qaroqchilarga o'xshab hamma yoqlaring qon, boringlar, yuvininglar, — dedi.

O'zi Uzukni oldindan tayyorlab qo'yilgan uyga ko'tarib kirib, ko'rpacha ustiga yotqizdi, oyoq-qo'lini yechib, yuzini, peshonasini ho'l doka bilan artdi.

Yo'lda bir-ikki marta marta hushiga kelib, yana hushidan ketgan Uzukning qovoqlari shishib ketgan, boshida ro'moli yo'q, ko'ylagidan terlagan otning hidi kelardi.

Bekmurodboyning xotini ho'l dokani uning peshonasiga qo'yib, labiga suv tomizdi. Uzuk asta-sekin ko'zini ochdi.

Notanish uyning shifti... Notanish ayolning yuzi... Qayerga kelib qoldi?.. Boyagi dahshatli yigitlar qani?.. Ular odammidi yoki afsonalardagi devlarmidi?.. Birov uni devlardan qutqarib, shu yerga olib keldimikan?...

Uzuk sekin boshini ko'tardi.

— Qimirlama, kelinchak, damingni ol, — deb Bekmurodboyning xotini uning ro'molsiz boshiga katta bir yashil duxobani tashlab qo'ydi.

"Kelinchak? Uzuk kelinchak bo'lib qoldimi?"

Shu payt ostonada peshonasini bog'lagan Omonmurod ko'rindi... Boyagi badbashara qora dev! Uzuk bor ovozi bilan qichqirmoqchi, "Oyijon!" deb onasini yordamga chaqirmoqchi, turib qochmoqchi bo'lar, ammo og'irlashib ketgan gavdasi unga itoat qilmas edi. Tovushi ham eshitilar-eshitilmas darajada zaif chiqdi.

Bekmurodboyning xotini uning yana hushidan ketishini istamadi-yu, Omonmurodga, "Chiqib tur!" ishorasini qildi. O'zi Uzukka yaxshi gapirib, biroz qatiq ichirdi. Keyin dasturxon yozib, non qo'ydi, sho'rva olib keldi.

Uzuk biroz o'ziga kelib, o'rnidan turib o'tirdi. Boshi g'uvillar edi. Bayramboyning qizlari va kichik xotini damba-dam uyga kirib-chiqishar, Uzukka qarab-qarab, o'zaro nimadir deb pichirlashar, ba'zan kulishar edi. Uzuk buning hammasini tushida ko'rayotganday bo'lar edi...

Birdan eshikning har ikki tabaqasi sharaqlab ochildi-yu, shohi ko'ylak kiygan, qo'liga tilla bilaguzuklar taqqan baland bo'yli ozg'in xotin ko'rindi. U ostonada turib, ichkaridagilarga g'azabli nazar tashladi. Bu — Omonmurodning xotini Tojsulton edi. Eri bugun bir qizni nikohlab olmoqchi ekanini kimdandir eshitib, qo'shni ovuldan bu yerga kelgan edi.

Tojsultonning avzoyi bejoligini sezgan uy bekasi uni muloyimlik bilan ichkariga taklif qildi:

— Kiring, opajon, to'rga o'ting...

— Kirmayman uyingga! — dedi Tojsulton lablari pir-pir uchib. — Uy emas bu, qo'shmachilar makoni!

Uzuk Tojsultonga qo'rquv aralash hayrat bilan qarab turar edi. Tojsulton bugun nikohlanmoqchi bo'lgan qiz shu ekanini payqadi-da, etagini lippasiga qistirib, Uzukka hamla qildi:

— Hali senmisan birovning eriga tegadigan! — deb Uzukni sochidan ushlab, tepkilashga tushdi.

"Bu kim? Uzuk kimning eriga tegibdi?". Gangib qolgan bechora qiz hech narsaga tushunmas edi. Kaltak zarbidan ingrab:

— Qo'yvor! — dedi. Ammo Tojsulton uning to'g'ri kelgan joyiga tushirar edi...

Bayramboyning xotini bilan qizlari ularni ajratish o'rniga qo'rqib qochib ketishdi.

Bir vaqt Bekmurodboyning xotini yugurib keldi:

— Hoy, Tojsulton, uyat bo'ladi, bas, birovning uyida-ya!..

Boshqa ayollar ham qaytib kelib, Uzukni Tojsultonning qo'lidan zo'rg'a qutqarib olishdi.

Tojsulton eshik oldida turib, Uzukka telbalarcha baqirar edi:

— Yo'qol bu yerdan! Gum bo'l! Ersiragan bo'lsang, boshqa er topilmadimi? Yo'qol!..

Uzuk bu gaplarni eshitmas, u kaltak zarbidan yana behush bo'lib qolgan edi.

Bekmurodboyning xotini Tojsultonni uydan olib chiqib ketishga tirishar:

— Bu bechora mungli qizda nima ayb bor? — derdi. — O'zingni bos, Tojsulton! Begona qishloqda sharmanda bo'lmaylik...

— Bu qizda ayb bo'lmasa, hammasini o'zlaring qilgan ekansanlarda?!— qichqirardi Tojsulton.— Qo'shmachilar! Hamma balo senda! — deb Tojsulton Bekmurodboyning xotiniga yopishdi. — Ko'zingni o'yib olaman! Meni ahmoq qilib, o'zlari bu yerda boshqa xotin olib berishmoqchi! Qaysi ovuldan, bu qiz? Hoy, mochag'ar, qayerdansan, ayt? Hozir borib ovulingga xabar beraman!

Tashqarida shu vaqtgacha indamay turgan Omonmurod, so'nggi gapni eshitib qo'rqib ketdi. Pichog'ining sopidan ushlab uyga chopib kirdi:

— Qoningni ichaman, manjalaqi!

Omonmurod pichog'ini jahl bilan qinidan sug'urar ekan, o'tkir tig' kumush bilan bezalgan qinni kesib ketdi. Tojsulton erining

hech balodan qaytmasligini bilar, uning fe'lidan qo'rqar edi-yu, lekin hozir uning ko'ziga o'lim ham ko'rinmay qoldi. Farzandsizlik dog'i, ustiga-ustak kundoshlik balosi uni telbaga o'xshatib qo'ygan edi. Tojsulton yoqasini ochib:

— Ur pichog'ingni! — dedi. — O'ldir meni! — Ammo ko'ngli: "Katta boyning qizisan, Omonmurod seni o'ldirishdan qo'rqadi, o'ldirsa o'zi ham tirik qolmaydi, deb turardi. — Uyingni qonga belayman! Shu pichoqni menga urmasang, erkak demayman seni! Ur!

Omonmurod uni tepib yubordi. Tojsulton burchakka borib yiqildi, boshi devorga urildi:

— Voy, onajon! Meni qanday jahannamga tashlading, onajon! Voydod!

Shuning ustiga Uzukni Omonmurodga yashirincha nikohlab berish uchun chaqirilgan mulla sallasining peshini osiltirib kirib keldi-yu:

— Assalomu alaykum!.. — dedi.

Mulla alik o'rniga Tojsultonning so'kishlarini eshitdi:

— Sen ham shularga bo'lishasanmi, imonsiz mulla? Mullaliging boshingdan qolsin! Yo'qol! Gumdon bo'l!!

— Hay-hay-hay, kelin, taqdirga tan bering, sizdan farzand ko'rmagani uchun Omonmurodning boshqa xotin olishi joiz! — deb, mulla ham Tojsultonning yarasiga tuz sepdi.

Tojsulton, ko'zlari chaqchayib, o'rnidan sakrab turdi:

— Farzand bo'lmasligiga erim aybdor! Yomonligidan pushti kuyib ketgan buning! Umrbod befarzand o'tadi!

Tojsulton Omonmurodning eng og'riydigan joyini topib urgan edi. Endi Omonmurod ham jinnilarcha baqirib, devorda osig'liq turgan qamchini oldi-yu, Tojsultonni savalashga tushdi:

— Yolg'on!! Mana shu o'tirgan qizdan bir yil o'tmay o'g'il ko'raman! Sen alamingdan yonib o'lasan, manjalaqi! O'lasan!! O'lasan!! O'lasan!!

Yuzlari qamchi izlaridan qonagan Tojsultonni undan zo'rg'a ajratib olib ketishdi. Tojsulton hovlida ham ancha vaqtgacha dod-faryod qilib, butun ovulni boshiga ko'tardi. Shuning ustiga kelib qolgan Bekmurodboy yigitlarga buyurib uning oyoq-qo'lini bog'latdi, og'ziga latta tiqtirib, bo'sh uylardan biriga qamatib qo'ydi.

Bu janjallarning guvohi bo'lgan Uzuk hamon dahshatli bir tush ko'rayotganday yarim behush ahvolda g'ujanak bo'lib o'tirardi. Bekmurodboyning xotini avvaldan tayyorlangan kelinchaklik kiyimlarini unga kiydirar ekan, Uzuk qarshilik qilmas, badanidagi karaxtlikdan ruhida ham og'ir bir loqaydlik paydo bo'lgan, ko'zlari hamma narsaga befarq qarar edi. Faqat nikoh marosimi boshlanganida Uzuk sal hushini yig'ib, taqdiri hal bo'layotganini fahmlaganday bo'ldi. Darchaning naryog'ida kuyovlardek kiyingan Omonmurod cho'kkalab o'tiribdi.

Uning yonida notanish bir odam, qarshisida mulla. Uyning ichida — darchaga yaqin joyda Bayramboyning kichik xotini, kelini, qizi va Bekmurodboyning xotini Uzukni o'rtaga olib o'tirishibdi. Mulla allaqaysi surani o'qib bo'lgach, qoidaga binoan Uzukka murojaat qildi:

— Nikoh vakolatini kimga berasiz? Ayting!

Uzukni qurshab olgan ayollar shivillashdi:

— Vakolatni Quliboyga beraman, de! Ayt, Quliboyga!

Uzuk indamadi. Naryoqdan imom, berigi yoqdan ayollar Uzukni uvvallo qistashdi, ammo javob olisholmadi.

Hozir Uzukning xayoli boshqa yoqda edi. Uzoq yaylovda Berdining hayajonlanib aytgan gaplari... O'zining javobi... Shunday bir nikoh marosimi Berdi bilan bo'lishi kerak emasmidi?.. Qani u sevimli yigiti?.. Bayramboyning kichik xotini:

— Gungmisan?— deb turtdi Uzukni.

"Balki Berdi uni qutqarishga kelayotgandir?

— Gapir! — deb Uzukin yana turtishdi. — Shuncha odam sening gapingga mahtal bo'lib o'tiribdi. Uyalmaysanmi?

— Nimadan uyalay? — deb Uzuk bu dargohda birinchi marta og'iz ochib gapirdi: — Meni ko'rib-bilib o'tga tashlashga sizlar nega uyalmaysizlar?

— Voy, aylanay, — deb Bekmurodboyning xotini uni avrashga tushdi,— hamma ham shunaqa qilib erga tegadi. Biz ham vaqtida xohlab rozilik berganimiz yo'q, yig'lab rozilik berganmiz. Ayol kishining qismati shu-da. Xo'p deya qol! Quliboyga vakolatimni berdim, degin! Ayt, aylanay, ayta qol!..

— Aytmayman, opa, o'zingizni ham, meni ham qiynamang! Jonimni olsa ham rozi bo'lmayman!

— Voy, muncha qoqbosh qizsan!— deb Bekmurodboyning xotini uni itarib tashladi. — Omonmurod, buning jonimni olsa ham rozi bo'lmayman deydi-ku!

— Shundaymi hali?!— Omonmurod pichog'ini qinidan olib, darchadan hatlab kirdi.— Agar joning sabil qolgan bo'lsa, mana, mana!— deb Uzukni ikki-uch tepdi, keyin boshiga pichoqning sopi bilan urdi. Uzukning boshidagi yashil baxmalda qonli dog' qorayib ko'rindi. Uzuk yana behush bo'lib qoldi.

Bekmurodboyning xotini:

— Bo'ldi, Omonmurod, bas, o'ldirib qo'yasan! — dedi-da, Uzukni quchoqlab oldi. Boshqa ayollar o'zlarini chetga olib jim turishardi.

Omonmurod hansirab darchadan chiqdi-da, boyagi joyiga borib o'tirdi. Bekmurodboyning xotini Uzukning peshonasiga sirqib tushgan qonni artdi, uni hushiga keltirish uchun yuziga suv sepdi. Uzuk ko'zini xiyol ochdi, alahsib, madorsiz tovush bilan:

— Oyijon!— dedi. — Xudo bormikan? Bor bo'lsa... bular shu... shuncha zulm qilganda... qanday qapab turadi?.. Bular nega... zavol ko'rmaydi?.. Oyijon, o'limimni... o'limimga roziman!..

So'nggi so'zlarini u shivirlab, eshitilar-eshitilmas qilib aytdi. Bekmurodboyning xotini mullaga qarab:

— Roziman deyapti! — dedi.— Quliboyga vakolatini berishga rozi!

Boshqa ayollar bu qiynoqdan tezroq qutulish uchun: — Biz ham eshitdik: rozi, rozi! — deyishdi.

Mulla apil-tapil nikoh o'qidi. Ko'p o'tmay bu uyda Uzuk bilan Omonmurodni yolg'iz qoldirishdi.

Oh, bu tunning dahshati... Hozir shu daqiqalarda qayerdadir o'yin-kulgi bordir... Kimlardir bir-biriga sevgi izhor qilib, o'zini baxtiyor sezayotgandir...

Omonmurod Uzuk yotgan to'shakka kirganda topib aytgan birdan-bir "shirin" gapi shu bo'ldi:

— Bir yil ichida menga o'g'il tug'ib berasan. O'zimday botir, senday chiroyli o'g'il...

— Tegma menga!.. Sen odam emassan!.. Badbashara dev...

Biqiniga kelib tushgan to'qmoqday musht Uzukni yana behush qilib qo'ydi. Hushiga kelganda yonida bir kimsa xurrak otmoqda edi... Qon simirib to'ygan kanaday maza qilib uxlayotgan maxluq. Uzuk turib ketay desa, majoli yo'q... Butun vujudi toptalgan, bulg'angan...

"Dunyoda soflik ham bordir-ku,— derdi Uzuk o'ziga o'zi.— Dunyoda go'zallik ham bordir-ku. Nega men hammasidan mahrum bo'ldim? Berdi... Men endi uning nomini tilga olishga ham loyiq emasman... Yordam beradigan, qutqaradigan hech kimim bo'lmasa, shuncha kaltaklardan o'lib keta qolsam bo'lmasmidi? Nega muncha jonim qattiq ekan mening?!"

## BO'RI BO'RILIGINI QILADI

Uzoq sahroda qo'y boqib yurgan Berdi bilan Murod og'a Uzukning ahvolidan butunlay bexabar edi. Bozordan ovulga qaytgan odamlar voqeani eshitib, to'g'ri Subhonboyning uyiga borishdi. Subhonboy odamlarning darg'azab bo'layotganini ko'rib, yuziga qayg'uli tus berdi, qaltiragan ovoz bilan:

— Odamlar, hammamizning boshimizga og'ir kulfat tushdi,— dedi.— Hammamiz malomatga qoldik. Ota-bobolarimiz ham bunday og'ir falokatni ko'rmagan bo'lsa kerak. Bu bechora kambag'alning qizini kuppa-kunduz kuni tortib olib ketishsa... bunga... chidab bo'ladimi? Men shu qishloqning yoshullisi bo'lsam, mening ham obroyimni to'kib ketibdi o'sha qaroqchilar! Endi men qaysi yuz bilan shaharga boraman? Qaysi yuz bilan do'kon ochib savdo qilaman?

— Subhon og'a! — dedi eshik oldida turgan yigitlardan biri. — Hozir gap savdo-sotiq to'g'risida borayotgani yo'q-ku. Bechora qizni tezroq qutqarish kerak.

— Onasini chaqiringlar bo'lmasa, maslahatlashaylik.

— Subhon og'a, maslahat qilib, gapni cho'zib o'tiradigan payt emas!— dedi o'sha yigit. — Mana, odamlar ko'ribdi, katta yo'ldan ot choptirib o'tishayotganda Bekmurodboyning ukasini tanishibdi.

— Tanigan bo'lsa, nega mahkam ushlamabdi?— dedi Subhonboy so'nggi gapdan quti uchib.

— Eshak minib ketayotgan odam otliqlarni qanday ushlaydi?

— Bo'lmasa, ertaroq xabar bersin edi...

— Gap sotib o'tirishning vaqti emas, Subhon og'a. Bor otlarni egarlaylig-u yigitlarni to'plab bostirib boraylik...

— Qon to'kilsa, men baloga qolaman.

— Nima qilish kerak bo'lmasa?

Subhon og'a ataylab gapni chuvalashtirmoqda edi.

Shuning ustiga sersoqol, savlatli bir odam qora yo'rg'a otda odamlar to'planib turgan hovliga kirib keldi.

Bu — Bekmurodboyning oshnasi Bayramboy edi. Subhonboy uni tanib uyiga olib kirdi, to'rga o'tqazdi. Qishloqning obro'li odamlaridan ham besh-o'ntasi ichkariga taklif qilindi. Bularning orasida moshguruch soqolli, baland bo'yli archin Mamat ham bor edi. Lekin u haligacha gapga aralashmay sukut saqlar edi. Bayramboy hamma bilan ko'rishib, salomlashib bo'lgach, fotihaga qo'l ko'tardi. Keyin bir lahza yerga ko'z tikib, jim o'tirdi-yu:

— Men qishlog'ingizga qiyin bir ish bilan keldim, Subhonboy,— dedi.— Qishlog'ingizning o'tag'asilari shu yerda ekan, yaxshi bo'ldi...

— Qulog'imiz sizda, Bayramboy...

— Boshlaringizga kulfat tushganini sezib turibman... Men ham bu voqeani eshitib juda xafa bo'ldim.

Bekmurodboy ukasining qilib qo'ygan ishidan bexabar ekan. Biz u odam bilan ko'p yillardan beri bir-birimizning tuzimizni ichamiz. Shu odam iltimos qilib qo'ymadi. "Borib bizning arzimizni ularga ayting, ularning javobini bilib bering", dedi. Albatta, yomon ish bo'lgan, juda yomon ish bo'lgan. Lekin "tuf" degan tupukni qaytib og'izga olib bo'lmaydi, makruh bo'ladi...

Qizga Omonmurod mahram bo'lib qolgan. Qur'onda ham ayol er kishiga mahram bo'lsa, uni shu erkakka berish majburiy ekan...

— O'g'ri nimaniki o'g'irlasa, o'shaniki bo'lib ketaverar ekanda! — dedi o'tirganlardan biri norozi tovush bilan.

— Sen shoshma, gapni oxirigacha eshit,— deb Subhonboy uni boshqa so'zlatmadi.

— To‘g‘ri-yu, lekin, — deb Bayramboy muloyimlik bilan davom etdi, — mol o‘g‘irlash, buyum o‘g‘irlash boshqa. Qiz olib qochish boshqa. Qiz bola yigitning mahriga tushgandan keyin... g‘isht qolipidan ko‘chadi...

— To‘g‘ri,–deb qo‘ydi Subhonboy.

— Shuning uchun, — dedi Bayramboy, — endi ikki urug‘ning bir-biri bilan urishib, dushmanlashib yurishidan foyda yo‘q. Bekmurodboy ukasining gunohini tan olyapti. “Qancha qalin so‘rasalar beraylik”, deyapti. Faqat ishni yaxshilik yo‘li bilan bitirishni istayapti. Men qarz gapni aytdim. Endi bu yog‘ini o‘zlaringiz bilasizlar.

O‘tirgan odamlar bir lahza jim qolishdi. Subhonboy butun vujudi bilan Bayramboyning tarafini olgisi kelsa ham, Bekmurodboy bilan til biriktirganini odamlarga bildirib qo‘yishdan qo‘rqib, indamas edi.

Bir necha kishi archin Mamatga qaradi. Yigitligida eng o‘tkir qilichboz, chavandozlardan bo‘lgan archin ellik yoshlarga borgan bo‘lsa ham, hali baquvvat edi, ejasini kerib, odamlarga burgut qarash qilib o‘tirar edi.

— Qizning ota-onasi bor, o‘shalardan so‘rash kerak,— dedi archin.

— E, otasi uzoqda, qo‘yda,— dedi Subhonboy.— Onasi kasal... O‘rnidan turolmaydi...

Darchaga yaqin o‘tirgan bir kishi tashqariga qarab:

— Iye, ana O‘raz xolaning o‘zi kelyapti,— deb qoldi.

Uzuk ketgan tomondan Subhonboynikiga odam kelganini eshitgan O‘raz xola kasalligiga ham qaramay o‘rnidan turgan, hozir uni ikkita xotin qo‘ltig‘idan suyab kelar edi. O‘raz xola eshikdan kirayotib, to‘rdagi notanish odamni ko‘rdi-yu, yig‘lab so‘radi:

— Mening bolaginam qayerda? Uzukjonimning ahvoli nima bo‘ldi?!

— Qizingiz eson-omon, kayvoni, xavotirlanmang,— dedi Bayramboy.

— Yig‘lama, O‘razsulton, o‘zingni bekorga ezaverma,— dedi Subhonboy va Bayramboyning kimligini, nima ish bilan kelganini tushuntirdi.— Biz o‘zimiz sendan maslahat so‘ramoqchi bo‘lib turgan edik, O‘razsulton. Endi g‘isht qolipdan ko‘chgan...

— Menga qizim kerak, — deb O'raz xola yana ko'ziga yosh oldi. — Agar sizlar bizga qayishsalaringiz, qizimni qutqarib beringlar! Kelgan mehmonga mening boshqa gapim yo'q... Qizimni topib berishsin!..

Subhonboy archin Mamatga yordam so'raganday qilib qaradi. Ammo archin qo'lidagi nosqovog'iga qarab, ataylab indamay o'tirar edi.

— O'razsulton, sen yana ayolligingga boryapsan, — dedi Subhonboy.— Qizing qaytib kelgani bilan, ilgarigi Uzuk bo'lib qaytib kelolmaydi, bevaga o'xshab qaytadi. Undan ko'ra Bayramboy aytgan maslahatni o'ylab ko'rgin... Mana, ko'pchilik nima deydi, bunga quloq solgin...

— To'g'rida, burgaga achchiq qilib, ko'rpani kuydirish to'g'ri bo'lmaydi,— dedi uyda o'tirgan chollardan biri.

— Ha, Bayramboyning so'zlarini yaxshilab o'ylab ko'rish kerak,— dedi yana bir kishi. O'raz xola yum-yum yig'lar:

— Mening zorim bor, zo'rim yo'q, rahmlaring kelsa, qizimni qutqarib beringlar! — derdi.

Hovlidan bu gapni eshitgan yigitlardan biri:

— Onaning ko'ngliga qarash kerak, yoshullilar! — dedi.

— Ha, ona rozi — Xudo rozi, degan gap bor!

Bayramboy gap chigallashayotganidan betoqat bo'lib Subhonboyga qaradi:

— Men ketay, bo'lmasa, yana o'zlaringiz maslahatlashib ko'rarsizlar.

— Mayli, biz qariyalar bilan maslahatlashib, javobini sizlarga aytamiz,— dedi Subhonboy. — Xudo xohlasa, yaxshilikcha bir yo'l toparmiz.

— Ha, yaxshilikcha bitirish kerak ishni,— dedi mo'ysafidlardan biri.

Bayramboy o'rnidan turar ekan, yuzi ko'z yoshidan ho'l bo'lgan O'raz xolaga qarab dedi:

— O'zingizni bosing, kayvoni, qizingiz yomon joyga tushgan emas.

— Mening unaqa bo'yni yo'g'onlarga beradigan qizim yo'q!— dedi O'raz xola.— U dunyo-yu, bu dunyo rozi bo'lmayman, to o'lgunimcha qarg'ayman. Xudo ularning ham jazosini berar axir!

— Ey, yana gapni maydalashtirding-da,— deb jerkidi Subhonboy. — Muncha o'jarlik qilma, O'razsulton...

— Taqdiri shu ekan qizingning...

Uydagi odamlarning bu gaplari archin Mamatning g'ashiga tegdi. U:

— Mehmon, shoshmay turing,— deb ketishga chog'lanayotgan Bayramboyni to'xtatdi. So'ng O'raz xolaga tasalli bermoqchi bo'lgan hamqishloqlariga yuzlanib davom etdi: — Ho'kizning shoxiga ursa, tuyog'i zirqiraydi, deyishar edi. Bu gap yolg'onga o'xshab qoldi. Sizlarning shoxlaringizga urish ham gapmi — shoxlaringizni sindirib ketibdi-ku, yana "yaxshilikcha kelishaylik" deysizlar-a! Shu bechora Murod og'a o'ttiz yildan beri birortalaringga yomonlik qilganmidi? Kambag'al bo'lsa ham, hammalaringning og'ir kunlaringga yarab kelar edi-ku. Endi bu bechoraning boshiga kulfat tushganda o'zlaringni chetga olasizlarmi? Sizlarda oriyat bormi? Sizlar turkmanmisizlar, yo'qmi? Bugun qo'shnimizning qizini o'g'irlab ketishsa, indamasak, ertaga birortangizning xotiningizni bulg'ab ketishadi. O'shanda ham indamay o'tiraveramizmi?

Archin baland ovoz bilan gapirmoqda edi. Uning so'zlaridan uydagi yoshullilar uyalib, jim o'tirishar, hovlida qolgan yigitlar:

— Yashang, Mamat og'a, zardasi bor odamning gapini aytdingiz!

— Bopladingiz!— deyishardi.

Archin Bayramboyga yuzlandi:

— Yoshulli, siz ularning taklifini bizga kelib aytdingiz, endi bizning javobimizni ularga borib ayting. Ular qiladiganini qilishdi. Endi biz ham qarab turmaymiz, qo'limizdan kelganini qilamiz!

Archin shunday deb o'rnidan turdi-da, etagini qoqib, uydan chiqib ketdi.

Subhonboy vaysab qoldi:

— Sening oriyating shunchalik zo'r bo'lsa, ko'chirib olib ket Murodni xotin-potini bilan! Arzimagan cho'pon tufayli boshim g'alvadan chiqmay qoldi-ya! Bayramboy, siz hamma gapni o'z qulog'ingiz bilan eshitdingiz, men bularni yomon yo'ldan qaytarmoqchi bo'ldim... Qo'limdan kelgan hamma ishni qildim. Bekmurodboyga hammasini ayting...

Tashqarida ovulning yigitlari archin Mamatni qurshab olishdi:

— Yaxshi javob berdingiz, Mamat og'a!

— Qonni suv bilan yuvadilar. Lekin nomusga dog' tushsa, qon bilan yuvadilar!

— Jazosini berish kerak bo'rilarning!

— Oti borlar darrov otlanib, yarog'i borlar, yarog'lanib chiqsin. O'raz xolaning uyi oldida to'planib, o'sha yerdan jo'naymiz!

— Shoshmanglar, shoshmanglar! — deb archin qo'lini ko'targan edi, hamma jim bo'ldi.— Darrov otishadigan-u chopishadigan bo'lmanglar. Hozir otlanib, yarog'lanib borsak, ular ham shay bo'lib turganining ustidan chiqamiz. Bir odamni qutqaramiz deb, boshqalarni qurbon beraylikmi? Bu yoqda oq poshshoning mahkamalari bor, amaldorlari bor. Senlar nega o'zboshimchalik qildilaring deb, yoqamizdan tutadi-ku? Meni bu yerga bekorga oqsoqol qilib, archin tayinlab qo'yibdimi? Men har biringizning boshingiz uchun javobgarman!

— To'g'ri, to'g'ri, — dedi boya Subhonboyning uyiga kirib o'tirgan chollardan biri.

— Nima qilaylik bo'lmasa, archin og'a? — dedi otlanib chiqishni taklif qilgan yigit.

— Oq poshshoning amaldorlari orasida mening tanishlarim bor,— dedi archin.— Hammalaringning nomlaringdan o'shalarga borib arz qilaman. Ana unda qizni biz qonun yo'li bilan qutqarib olamiz...

— Ha, archin Mamatning shaharda obro'si katta, — dedi o'sha chol.— Gapiga quloq solishadi.

— Mahkamalarda ish bitirguncha... Ehe, Uzuk Omonmurodnikida qariydi,— dedi haligi yigit. Birovlar archinning fikrini ma'qulladi, birovlar hafsalasi pir bo'lib indamadi. Odamlar uy-uylariga tarqab ketishdi.

* * *

Kechasi yotar mahalda O'raz xola yana Uzukni eslab, o'zi bilan o'zi gapirishib, yig'lab o'tirganida tashqaridan kimningdir qadam tovushi eshitildi. Birov eshikni sekin itardi. Ichidan zanjirlangan eshik ochilmadi.

— Kimsiz?— dedi O'raz xola o'rnidan turib eshik oldiga kelarkan.

— Men... Oching,— tashqaridan erkak kishining ovozi eshitildi. O'raz xolaga bu ovoz tanishdek tuyuldi.

Eshik ochilgach, baland bo'yli kishi ichkariga kirdi:

— Bir o'zingizmisiz?

Bu — archin Mamat edi. O'raz xola uni tanib:

— Keling, archin,— dedi.— Turdi ham uyda.

— Uxlab yotibdimi?

O'raz xola to'rda — kigiz ustida g'ujanak bo'lib yotgan o'g'liga qarab qo'ydi. Yuzida ko'z yoshining izlari bor. Turdi oyisining Uzukni yo'qlab aytgan gaplarini eshitib yotib, yig'lab-yig'lab uxlab qolgan edi.

— Yuring, uyg'otib yubormaylik, gap bor,— deb archin Mamat O'raz xolani tashqariga boshlab chiqdi.

O'raz xola ostona oldida yotgan bir narsaga turtinib ketdi, keyin devorni ushlab to'xtadi:

— Ko'zim ham xiralashib qolyapti! Oh, Uzukjon, seni qutqarib ololmasam, ko'r bo'lib o'laman, bolam!

— Yana ko'z yoshimi? Qo'ying, endi, O'razsulton, ko'z yoshidan hech kim foyda ko'rgan emas.

— Nima qilay, ko'z yoshimni to'kib alamdan chiqaman...

— E, mard bo'lish kerak. Men sizni bir erkakcha bardoshi bor kuchli ayol deb yurar edim...

— Peshanam sho'r ekan-da. Ko'zimning oq-u korasidan ayrilib o'tiribman. Men ko'rgan kunni Xudoy taolo hech bir musulmonning boshiga solmasin!

— Rost, peshonaga yozilgani bo'ladi. Boshingizga og'ir kun tushdi. Lekin "buni Xudo qildi" deb qo'l qovushtirib, yig'lab o'tiraverish ham to'g'ri emas. "Xudoga ishon-u ammo eshagingni mahkamroq tushovla, bo'lmasa yo'qolib qoladi", degan gapni eshitmaganmisiz?

— Men nima qilay bo'lmasa, archin Mamat? Men sizdan minnatdorman. Boya kelgan odamga boplab javob berdingiz. Lekin yigitlar otlanmoqchi bo'lganda siz ham ularni qaytardingiz... Nega unday qildingiz?

— Men avval siz bilan gapni bir joyga qo'yib olmoqchi bo'ldim. Subhon xasisning kimligini endi bilib olgandirsiz?

— Ilohim yorilib o'lsin bu meshqorin. Nuqul o'sha Bekmurodboyning tarafini oladi. "Rozilik bermasang mening ovulimdan ko'chasan", deydi. "Ko'chmasang ertaga uyingga o't qo'yaman", deydi. Qizimdan ayrildim. Endi uyimdan ham ayrilsam, bo'ynimga to'rva osib, gadoylik qilishim qoladi.

— Gadoylik qilmaysiz, qo'rqmang. Men borman. Subhon xasis Bekmurodboyga bunchalik yon bosayotganining sababini tushuning, deyapman. Bular avvaldan til biriktirgan bo'lishlari kerak. Til biriktirmasa, narigilar kuppa-kunduz kuni bostirib kelib, Subhonboyning ovulidagi qizni zo'rlik bilan olib ketisholmas edi.

Bu fikr O'raz xolaning xayoliga endi keldi. G'azabi qaynab:

— Nahotki, u boy shunchalik nomard bo'lsa?! — dedi. — Men hozir borib, uning soqolini yondiraman!! Qizimni o'g'irlatgan bo'lsa, o'zi topib bersin!!

— Shovqin solmang, hali buni isbot qilishimiz kerak. Ovulingizning yoshullisi ayg'oqchi chiqib o'tirsa. Naryoqda Bekmurodboy — qo'li uzun odam, amaldorlardan oshnasi ko'p, shaylanib tursa. Shuning ustiga men yigitlar bilan qurollanib borsam, qon to'kilsa, bitta-yarimta odam o'lsa... Keyin bular bizni qamatib, o'zlari qutulib ketmaydimi? Mana shuning uchun men yigitlarni qaytardim. Qonun yo'li bilan bularning sharmandasini chiqarsak, keyin qizingizni qutqarish ham oson bo'ladi.

— Men bu yog'ini o'ylamabman, archinjon. Ilohim qo'l-oyog'ingiz dard ko'rmasin, ishingizga kushoyish bersin. Shu ishga o'zingiz bosh bo'ling. Qizimning taqdirini sizning qo'lingizga berdim. Ham otasi bo'ling, ham og'asi, ishqilib, qutqaring... Yaxshiligingiz Xudodan qaytsin!

"Qizimning taqdirini sizning qo'lingizga berdim" degan so'zlar archin Mamatning yashirin niyatiga to'g'ri kelib turar edi. Uzukni u anchadan beri ko'z ostiga olib yurar, ammo ikki xotini borligi, to'ng'ich o'g'lini uylantirganligi, kelini Uzuk tengi ekanligi, o'zi unchalik katta boy emasligi, nihoyat, qizning ota-onasini bilganligi tufayli og'iz ocholmay yurar edi. Endi og'iz ochish payti kelganga o'xshardi.

Archim Mamat birpas sukut saqlagach:

— Juda qiyin ishga bel bog'layotibmiz, — dedi. — Dushmanlarimiz yutib chiqish uchun pulni ayamaydi, boy odamlar. Bizga ulardan ham ko'p sarf-xarajat qilishga to'g'ri keladi...

— Uyimda pulga arzirlik nimaiki narsa bo'lsa, hammasini sarflang. Uzuk to'qigan yangigina gilam turibdi. Uni ham oling...

— E, O'razsulton, bitta gilamcha nima bo'ladi, urvog'iga ham yetmaydi. Bu shunday qiyin ishki, men uchun bu ishdan ko'ra to'qqiz o'g'ilni uylantirish arzonroq tushadi.

Lekin turkmanlarda "nomusga qolguncha, xonumoning kuysin", degan gap bor. Agar siz mening gapimga kirsangiz, oriyat yo'lida men butun mol-dunyomni sarflayman...

— Shu qizimning qutulishi uchun siz nimaiki desangiz, men xo'p deyman.

— Bo'lmasa, munday,— deb archin Mamat shartini aytdi:— Subhon xasis sizga "ko'chasan" debdi. Hozircha mening yonimga ko'chib o'tinglar. Qizingizni qutqarib kelsak, yonimdan unga bitta uycha solib beraman. Siz bilan Murod og'a keksa odamlarsiz, bizga qarashib, borimizni baham ko'rib yuraverasizlar...

O'raz xola archinning xotinini ko'z oldiga keltirdi. Uzukni qutqarish uchun ot so'rab borishganda bermagan bu xotin O'raz xolalar sig'indi bo'lib borishsa nimalar qilarkin? Archin "Uzukka uy solib beraman", degani, "unga uylanaman" degani emasmi? Yomg'irdan qutulib, qorga tutilmaydimi bechora qiz?

— Nega o'ylanib qoldingiz? — dedi archin Mamat.— Yo gapim to'g'ri kelmadimi?

— Men bir ayol odamman. Erim bilan ham maslahatlashsak bo'lar edi-da.

— Murod og'a xabar topib, sahrodan qaytguncha qancha vaqt o'tadi? Ungacha Bekmurodboylar qarab turadimi? Yara gazaklamasdan oldin unga malham qo'yish kerak. Vaqt o'tmasin. Bunaqa ishni tez bitirish kerak. Agar boyagi gapingizda tursangiz, men ertaga azonlab turib, bor-budimni olaman-u shaharga arzga jo'nayman...

— Qaysi gapimda?

— "Qizimnimg taqdirini sizga topshiraman", dedingiz-ku.

O'raz xola bu so'zlarni boshqa ma'noda aytgan edi.

Ammo archinga "siz noto'g'ri tushunibsiz" deyish — uning shartini rad etish bo'lar edi. Hozir birdan-bir umid shu odamdan bo'lgach, bu umiddan ham ayrilish — o'limdan og'ir. "Mayli, qizim shu ovulga qaytib kelsin, bir bag'rimga bosay, keyin yana taqdirda borini ko'rarmiz", dedi O'raz xola ichida. "Olmani osmonga ot, yerga tushguncha bir gap bo'lar", degan maqol uning esiga tushdi.

O'raz xola ataylab archinning gapini aniqlab o'tirmadi. O'z gapining boyagi ma'nosida tushunib:

— Shundan degan bo'lsam, o'sha gapimda turaman, — dedi.— Sizga omad bersin, qizimni qutqarib keling...

— Xo'p, bo'lmasa, men ketdim...

Archin Mamat uyiga yetguncha o'n olti yoshli Uzukning visolini orzu qilib bordi. U qiz bir marta tegirmonga tushib chiqqandan keyin, ancha qobil-mo'min bo'lib qolsa kerak. Archinga "Otam tengisan", deb ta'na qilolmas. Go'zal husni bor, buning ustiga, ishchan, chevar...

Bugun archin kichik xotinning uyida tunaydigan kun edi. Kichik xotini to'shakni solib, chiroqni pastlatib qo'yib, yarim kechagacha kutdi, archindan darak bo'lmadi.

"Yana o'sha yalmog'iz avrab o'z oldiga olib kirib ketibdimi?— deb katta kundoshidan shubhalandi. — Kecha uning navbati edi, borib yotgan edi-ku. Mening navbatimni ham o'ziniki qilib olibdi-da". Archinning kichik xotini sekin turib, qarshidagi uyning eshigi oldiga bordi. Archinning katta xotini shu uyda yotardi. Agar archin uning oldida yotgan bo'lsa, eshik ichidan zanjirlangan bo'lishi kerak. Archinning kichik xotini eshikni sekin itardi. Eshik ochilib ketdi... Demak, archin bu yerda emas...

Archin bugun prujinali karavot qo'yilgan uchinchi bo'lmaga kirib yotardi— yosh qalliq to'g'risidagi xayol va ertangi qiyin ishlarning o'yi bilan bo'lib bugun xotinlarining yoniga kirgisi kelmadi. Har ikki xotini, xususan, ularning kundoshlik vajidan erta-yu kech janjal qilishlari archinning me'dasiga tekkan edi. "Qo'sh xotinlikning qulog'i tinchimas,— degan gap uning esiga tushdi.— Yaxshisi, xotinni uchta qilish kerak. Ikkitasi bir-biri bilan urishganda, uchinchisi hamma vaqt xursand bo'ladi, sen shunisi bilan

xursandchilik qilaverasan. Buni ko'rgan narigi ikki xotin ham bir-biri bilan tez yarashadi, chunki ikkovi ham alamzada bo'ladi". "Shu gap qanchalik rost ekan — bir sinab ko'ramiz-da", o'ylandi archin yana Uzukni ko'z oldiga keltirib.

U O'razxolaga "butun bor-budimni shu ishga sarflayman", degani bilan, sarf-xarajatni ko'pchilikning ustiga ortmoqchi edi. Hozir Uzuk vajidan zardasi qaynab yurgan odamlar ko'p. Ertalab archin butun hamqishloqlarini o'z uyiga chaqirdi, dasturxon yozib, ko'k choy damlab, hammasining izzat-hurmatini joyiga qo'ygach:

— Odamlar,— dedi.— Agar men sizlarni chaqirmasam, boshqa biror joyga to'planib, o'zlaring chora qidirgan bo'lar edinglar. Nomusga qoldik hammamiz. Qarab turadigan payt emas. Men kecha Bayramboyga ko'pchilikning dilidagi javobni berdim. Endi biz so'zimizda turishimiz kerak. Avval qonun yo'li bilan harakat qilib ko'raylik. Yorug'lik chiqmasa, keyin qurolni ham ishga solamiz. O'zlaringiz bilasizlar, qonun yo'li — pul bilan, mol bilan ochiladi. Mana, men, bir otning pulini shu ishga ajratdim. Lekin bu yetmaydi. Endi sizlar ham biror narsa qo'shasizlarmi yo chetda turasizlarmi?

— Chetda turib bo'ladimi?

— Biz ham baholi qudrat qarashamiz!— degan ovozlar eishtildi.— Ovulning eng boy odami — Subhonboy, u ham biror narsa chiqarsin-da,— dedi yigitlardan biri.

— Subhonboyning kechagi gapini eshitmadingmi?— dedi archin.— Subhonboy och baytalga o'xshaydi. To'rvaga arpa solib chaqirsang, keladi, bo'lmasa yo'q.

— To'g'ri. Subhonboyga yalinib yurguncha, o'zimiz pul to'playlik...

— Qancha pul kerak o'zi, Mamatboy? — dedi mo'ysafidlardan biri.

— Juda ko'p kerak, yoshulli. Hozirgi zamonda qo'lingizda bir narsangiz bo'lmasa, it ham yuzingizga qaramaydi. Mahkamalarda amaldor ko'p. Odamlardan kamida ming tuman to'plash kerak. Yetmasa, ariq-zovur qazish uchun dehqonlardan to'plangan ikki yarim ming pulni ham shunga sarflaymiz.

Odamlar o'ylashib, kengashib, oxiri bu fikrga qo'shilishdi.

— Bo'lmasa, — dedi archin. — Men bugun shaharga borib, atbekat bilan gaplashaman. Hoziroq uy-uylaringga borib, kimda qancha pul bo'lsa, menga to'plab beringlar. Sovg'ani quyuqroq qilib borishim kerak...

## BOY BOYGA BOQAR

Uch paxsali devor bilan o'ralgan mevazor bog'ning o'rtasida tunuka tomli, oynaband ayvonli oq uy ko'zga tashlanadi. Archin darvoza oldida otidan tushdi-da, hovliga otini yetaklab kirdi. Ichkaridan chiqqan xizmatkor yigitga salom berib:

— Rahim dival[1]* uydamilar?— dedi.

— Uydalar, kelavering,— deb yigit uning qo'lidan otning jilovini oldi.

Archin ikki ko'zi to'la gilam xurjunni egardan oldi-yu, ayvonning zinapoyasidan yuqoriga ko'tarildi.

Katta oynaband shkaf qo'yilgan uyda, baxmal ko'rpacha ustida kalta oq soqolli semiz bir kishi par yostiqqa yonboshlab yotar, yoshgina bir juvon uning oyog'ini uqalar edi. Archin yo'talib, ruxsat so'rab uyga kirar ekan, juvon qilayotgan ishidan uyalganday sapchib o'rnidan turdi, ko'kragiga va sochiga taqilgan oltin-kumush bezaklarini shiqirlatib, o'choq boshiga qarab ketdi. Archin uy egasi bilan ko'rishib, hol-ahvol so'rashguncha juvon choynakni olgani uyga kirdi-da, oynaband shkaf oldidan o'tayotib, ko'zgudagi o'z aksiga bir qarab qo'ydi. Archin xurjunidan yangi shohi belboqqa o'ralgan sovg'a-salomlarini olib:

— Kelin, mana bu sizlarga,— deb uzatdi.

Juvon shohi belboqqa o'ralgan narsani olayotganda ohu ko'zlari chaqnab ketdi. Keyin u mehmonning oldiga dasturxon yozib, shiravor, non, choynak, piyola keltirib qo'ydi.

— Dival og'a, tumovlabsiz deb eshitdik, tuzalib qoldingizmi?.. — dedi archin.

---

[1] **Dival** — chor mustamlakachilari tomonidan tayinlanadigan va ularga tobe bo'lgan mahalliy sudya *(tarj.)*

— Harqalay, ikki kundan beri durustman. Lekin hali ham a'zoyi badanim qaqshaydi, etim uvushadi.

Dival Rahim barra po'stinni yelkasiga oldi.

— Hozir o'zi shunaqa bir tumov tarqalgan,— dedi archin.— Ikki-uch kun qiynaydi-yu, keyin ko'tarilib ketadi.

— Lekin meni yomon qiynadi. "Tumovdan qo'rqishimni bilib yopishadimi?

— E, tumovdan qo'rqmaydigan odam bo'lmaydi, dival og'a...

— Shundaymikin?..

— Ha, mana biz ham...

Archin xushomad qilayotganini sezib, dival gapni boshqa yoqqa burdi:

— Shahardan kelyapsizmi?

— Ha. Shaharga sizni yo'qlab borgan edim...

— O'ch-to'rt kundan beri shaharga tushganim yo'q. Nima gaplar bor?

— O'z tashvishim bilan bo'lib, shahardagi gaplarni uncha eshitolganim ham yo'q.

— Nima tashvish?..

— E, bu bo'yni yo'g'on Bekmurodboyning ukalari bizning ovuldagi bir bechoraning qizini olib qochib ketishgan,— deb archin voqeani aytib berdi.

— Paxtafurush Bekmurodboymi?.. O'zi bilan tanish emasman-u lekin juda bebosh odam deb eshitganman. Yaxshi ish bo'lmabdi-da.

— Ha, men siz bilan shu to'g'rida bir maslahatlashgani kelgan edim. Yo'l-yo'riq ko'rsatsangiz...

— Yo'l-yo'riq shuki, shaharda Semen degan bir advokat bor. Pulni ko'p oladi, lekin arizani boplab yozadi...

— Arizani yozdirdim, dival og'a. Bitta atbekat topdim, yigirma tumanga yaxshilab yozib berdi.

— Shoshilibsiz-da. Men aytgan advokat Peterburgda, oq poshshoning huzurida ishlagan, obro'li odam. Uning shu ishga qo'l urganini bilsa, amaldorlar ham ko'proq e'tibor berar edi.

— Bu yog'ini bilmabmiz-da, dival og'a. Endi butun umidimiz sizdan. Arizani pristavga beray, deb borgan edim, arzga kelganlar ko'p ekan, qabul qilmadi. Arizani kotibiga berib keldim. Endi...

Mana shu xurjunni sizga tashlab ketsam, dival og'a. Ichida to'rt yuz tuman pul, yana boshqa mayda-chuydalari bor. Pristavgami, tilmochgami, boshqasigami — qaysisiga nima lozim bo'lsa, shundan bersangiz-u bizning ishimizni to'g'rilasangiz... Qolganiga yana qarzdormiz...

Archin gilam xurjunni divalga yaqinroq surib qo'ydi. Dival yuziga qalqib chiqqan shodlikni sezdirmaslik uchun peshonasini silab qo'ydi-da, xotinini chaqirib:

— Buni olib qo'y,— dedi.

Haligi juvon sochiga taqilgan oltin, kumush bezaklar orasidan bitta kalit topdi-yu, to'rdagi katta sandiqni ochdi. So'ng gilam xurjunni sandiq to'la "sovg'a-salomlar"ning yoniga solib qo'ydi.

Divalning ruhi ko'tarilib:

— Ey, xotin, ovqat-povqat qilsang-chi mehmonga,-dedi.

— Yo'g'-e, ovqatga unnab ovora bo'lmasinlar, men hozir ketaman,— dedi archin o'rnidan qo'zg'almoqchi bo'lib.

— O'tiring, o'tiravering,— dedi dival.— Bugun biznikida mehmon bo'lasiz. Ertaga shu yerdan shaharga tushamiz. Men sizni pristavning huzuriga boshlab boraman, keyin balki uning uyiga ham birga borarmiz...

Mamat archinning vaqti chog' bo'lib:

— Xo'p, dival og'a, xo'p, siz nima desangiz — shu. Qol desangiz, qolaveramiz...— dedi.

* * *

Tumanlar o'z kuchini ko'rsatdi. Oradan besh-olti kun o'tgach, Marv sudida Uzukning ishi ko'riladigan bo'ldi.

Murg'ob daryosining qirg'og'idan boshlangan katta ko'chaga kungurador cherkov oldidan chapga qarab ketgan kichikroq bir ko'cha kelib taqaladi. Shu ko'chadan besh yuz qadamcha yurilsa, odam bo'yi keladigan, yog'och devor bilan o'ralgan katta hovli uchraydi. Hozir hovlida archin Mamat boshliq bir necha yuz kishi to'p bo'lib turar:

"Agar sudlar qizni qaytarib bermaydigan bo'lsa, tortib olib ketamiz!" degan so'zlar eshitilar edi. Hovli tashqarisiga Bekmurodboyning tarafdorlari to'planishgan edi. Ular: "Agar qizga qo'l

cho'zadigan bo'lishsa, hammasini bitta qoldirmay qirib tashlaymiz!" deb turishar edi. Shu ikki to'pni bir-biri bilan yarashtirish sudyalarning qo'lidan keladimi yoki qilichlar yalang'ochlanib, miltiqlar otiladimi — hademay ma'lum bo'lishi kerak.

Sud bo'layotgan katta zalda ham odamlar ikki to'da bo'lib o'tirishardi. Zalning bir tomoniga qizning hamqishloqlari, ikkinchi tomoniga Omonmurodning yaqinlari joylashgan. Qizning hamqishloqlari orasida — oldingi skameykada boshiga eski bir yopinchiq yopingan, qaddi musibat bilan egilgan keksa ayol o'tiribdi. Bu — O'raz xola. Tashqariga izvosh kelib to'xtadi. Sal o'tmay: "Kelishdi... Qizimni olib kelishdi!" degan so'zlar eshitildi. Ko'cha eshigi ochildi. Bir erkak kishi oldinda, ko'k baxmal yopinchiqqa o'rangan kelinchakni bilagidan ushlab olgan kampir esa orqada — sud stoliga qarab o'tishdi. Oldinda o'tirgan O'raz xola sakrab o'rnidan turdi-da:

— Voy, bolam, bolajonim!— deb kirganlarga tomon intildi. Ammo orada turgan soqchi yigit uning yo'lini to'sdi.

— Mumkin emas!

Onasining tovushidan Uzukning a'zoyi badani titrab ketdi. U qayerda va kimlar orasida ekanini ham unutib, yuzini ochdi-yu:

— Onajon! Ona! — dedi.

Ammo zal to'la erkaklarni ko'rib, ko'ziga bir narsa qadalganday sarosimaga tushdi.

— Yuzingni yop, behayo!— shivirladi uni qo'lidan ushlab kelayotgan kampir.

Asrlar davomida ayollarning qon-qoniga singdirilgan odat — yuzini begona erkaklardan yashirish odati Uzukka bexato ta'sir ko'rsatdi. Uzuk darhol yuzini yopinchig'i bilan bekitib oldi. Farzandini sog'ingan onaga o'n to'rt kunlik oyday ko'ringan bu yuz bir onda bulut ostiga yashiringanday bo'ldi. O'raz xola "oh" tortib, joyiga qaytib o'tirdi.

To'rdagi maxsus eshikdan sudyalar chiqishdi. Ular stol yoniga o'tirishganidan keyin pristav Rahim divalga qarab, ruschalab:

— Sen o'z tilingda so'roq qil, — dedi.— Menga tilmoch tarjima qilib turadi.

Rahim dival savlat bilan yo'talib, oldidagi qog'ozlarni varaqlab ko'rdi-da:

— Omongeldining o'g'li Omonmurod, tur o'rningdan, javob ber! — dedi.

Oldingi qatordagi Omonmurod shoshilmay o'rnidan turdi.

— Sen, — davom etdi Rahim dival, — Murodning qizi Uzukni zo'ravonlik bilan olib qochib ketdingmi yoki qiz sening uyingga o'z ixtiyori bilan bordimi? Ogohlantiraman: faqat rost gapni aytasan.

Omonmurod qisiq ko'zlarini qalin qovoqlari orasiga yashirib, istar-istamas javob berdi:

— Men qizni olib qochganim yo'q. O'zi men bilan ketishga rozi bo'ldi.

Uzukning hamqishloqlari:

— Yolg'on!

— Olib qochganini o'z ko'zimiz bilan ko'rganmiz! — deb shovqin solishdi. Sudya stolni taqillatib ularni jim qilgach, yana Omonmurodga yuzlandi:

— Qiz o'zi rozilik bergan bo'lsa, seni ilgari ko'rganmidi?

— Yo'q, oramizda odam bor edi.

— Kim?

— Otini aytolmayman.

— Erkakmi, ayol?

— Ayol kishi.

— Yoshmi, qarimi?

— Qari.

— Nega otini aytmaysan? Biz guvohlikka chaqirishimiz kerak.

— Otini aytmaslikka so'z berganman. Boshda menga shunday shart qo'ygan.

— Xo'sh, bu qiz seni azaldan bilgan bo'lsa, qizning yoshi nechada?

— Bu hozir qiz emas, xotin.

— Men sendan buni so'raganim yo'q. Yoshini so'radim.

— Aniq bilmayman. O'zining aytishicha, yoshi o'n sakkizda.

— Sen uni zo'rlik bilan nikohlab oldingmi yoki o'zi rozi bo'ldimi?

— O'zi rozi bo'lgan. Guvohlar bor.

— Demak, shu qiz sening xotining bo'lishga rozimi?

— Ishonmasangiz, o'zidan so'rang.

— Mayli, Omongeldi o'g'li Omonmurod, sen o'tir. Murod qizi Uzuk! O'rningizdan turib, yaqinroq keling! Qani ayting-chi, bu odamning gaplari rostmi? O'z ixtiyoringiz bilan qochganmisiz? Siz uning xotini bo'lishga rozimisiz? Hech qo'rqmasdan rostini ayting, sud sizni himoya qiladi.

Odamlardan uyalgan Uzuk joyidan qimirlamay o'tirar, og'iz ochib gapirishga jur'at etolmas edi. Uning o'rniga kampir javob berdi:

— Roziman deyapti. O'z ixtiyorim bilan qochdim, deyapti.

Pristav tilmochga buyurdi:

— Ayting, qizning o'zi javob bersin.

Tilmoch o'rnidan turib, Uzukka buyurdi:

— Qani, turing, savolga javob bering, sud voqeani o'z og'zingizdan eshitmaguncha qaror chiqarolmaydi.

Uzuk o'rnidan turib, qo'rqa-pisa sudyalar stoliga yaqinlashdi.

— Omonmurodning gapi rostmi, siz o'z ixtiyoringiz bilan qochganmisiz?— dedi Rahim dival.

Yuzini yopinchiq bilan yashirgan Uzuk bosh irg'ab "ha" deganday qildi.

— Demak, Omonmurodga xotin bo'lib, uning uyida yashashga rozimisiz?

Uzuk endi asabiy bosh silkidi. Sudya jiddiy turib dedi:

— Siz ochig'ini ayting, ovoz chiqarib gapiring, taqdiringiz hal bo'lyapti. Qani, javob bering...

Sudya savolini yana takrorladi. Ammo Uzukdan sado chiqmas edi. O'raz xola ortiq chiday olmadi. Yig'lab o'rnidan turdi-yu:

— Uzukjon, qizim, sen uyalib gapirmayapsan! — dedi. — Men seni xayoli qilib tarbiyalaganman! Uyatchan qilib o'stirganman! Seni odamlarning oldida uyatga qoldirayotganlar boshqalar. Sen boshingdagi baxmalga o'z ixtiyoring bilan o'ranganing yo'q! Olib tashla uni! Yashmog'[1]ingni og'zingdan ol, bolam! So'yla, bolam, rostini aytib ber!

Uzukka onasining gapi dalda berdi. Yoping'ichining bir cheti titrab ochildi. Qo'rqqanidan qaltiragan past tovushi eshitildi:

---

[1] **Yashmoq** — ayollarning bo'ynini, og'zini yashirib turadigan maxsus parda *(tarj)*.

— Men qo'rqaman... Agar rostini aytsam o'ldiradilar...

— Qo'rqma, seni sud himoya qiladi, senga hech kim qo'l tekkizolmaydi,— dedi Rahim dival.

Pristav Uzuk aytgan so'zlarning tarjimasini tilmochdan eshitib, Omonmurodga tahdid bilan tikildi.

Aslida, pristavga Omonmurod ham, Uzuk ham yetti yot begona odamlar edi. Ularning hech biriga pristavning ichi achimas edi. Biroq Rahim dival unga qiz tomondan kelgan bir necha yuz tumanni kiritib bergandi. Pristav shundan keyin haqiqatni yoqlashga so'z bergan, endi bu so'zining ustidan chiqishni istar edi.

— Bu — podsho hazratlarining sudi, — dedi pristav va Uzukka yuzlandi:— Sen qo'rqmay gapir, sen imperator a'lo hazratlarining himoyasidasan!

Uzuk sudlarga iltijo qildi:

— Meni bularning qo'liga qaytarib bermangizlar. Bu odam aytgan gapning hammasi yolg'on! Meni zo'rlik bilan olib qochishdi. Ungacha men bu odamning dunyoda bor-yo'qligini bilgan emasman. Yolg'on hammasi! Men o'n olti yoshdaman. Men rozi bo'lgan emasman! Urib, behush qilib, nikoh o'qitgan... Men o'limimga roziman, lekin buning xotini bo'lishga rozi emasman... Meni onamning qo'liga qaytarib bering! Meni bularga bermang!

Bu so'zlar davomida O'raz xola o'rnidan turib, Uzuk tomonga talpinar, sudyalarga qo'l cho'zib, nimadir demoqchi bo'lar edi.

— Xo'sh, kampir, siz nima demoqchisiz?— so'radi Rahim dival.

— Qizimni bulardan qaytarib olib bering! Mening gapim — shu!

— Xo'p, o'tiring, gapingizni e'tiborga olamiz. Endi sud hay'ati maslahat qilgani ketadi.

Sud ichkaridan tez chiqdi va hukmni e'lon qildi: nikoh qizning roziligisiz bo'lganligi uchun Murod qizi Uzuk Omongeldi o'g'li Omonmurodning nikohidan chiqarilsin va ota-onasining huzuriga qaytarilsin.

Bu hukmdan Uzukning hamqishloqlari quvonib, gurillab o'rinlaridan turayotganda Bekmurodboyning keskin ovozi eshitildi:

— Janob sudyalar, sizlar nohaq qaror chiqaribsizlar. Qarorlaringiz musulmom diniga xilof, shariatga xilof! Uzuk shariat qonuni bilan Omonmurodning nikohiga o'tgan. Eri "uch taloq" demaguncha uni erinikidan olib kelishga hech kimning haqqi yo'q. Agar uni bizdan tortib olmoqchi bo'lsalar, qo'lda qurol bilan o'z nomusimizni himoya qilamiz!

Skameykani g'ichirlatib, archin Mamat o'rnidan sakrab turdi. Oviga tashlanmoqchi bo'lgan qoplonday oldinga intilib:

— Qirg'in qilmoqchi bo'lsang, chiq tashqariga! — dedi.

— Sen ham chiq! — dedi Bekmurodboy.

Pristav mushti bilan stolni qarsillatib urdi:

— Qirg'in qiladiganlarni Sibirga haydayman! O'zboshimchalik qilishga haqqing yo'q! Zo'rlik bilan o'qilgan nikoh bekor qilinadi! Agar sen bu sudning hukmidan norozi bo'lsang, bizdan yuqoridagi sudga arz qil! Lekin qon to'kilishiga sabab bo'lsang, katorgaga ketasan! Bekmurodboy pristavga xiyol yon bergan kabi ovozini pasaytirib dedi:

— Agar yuqoridagi sudyalarga arz qilish mumkin bo'lsa, arz qilamiz. Lekin shu arzimiz yuqorida ko'rilguncha qizni ota-onasiga qaytarib bermasliklaringizni so'raymiz. Chunki qaytarib bersalaringiz, albatta, qirg'in bo'ladi, qon to'kiladi.

— Lekin sizlarga ham qaytarmaymiz! — dedi Rahim dival.

— Mayli, bizga qaytarmasalaringiz, bunga faqat bir shart bilan rozi bo'lamiz: qiz biznikida turmasin, ularnikida ham. Xolis, beg'araz bir odamnikida tursin. Agar shu shartimga ko'nmasalaringiz, Sibirmi, undan narimi — nima bo'lganda ham qilichlarni ishga solamiz!

G'alaba qo'ldan ketib qolishi mumkinligini sezgan archin Mamat:

— Qilich solishmoqchi bo'lsang, chiq tashqariga! — dedi yana.

Ammo pristav endi uni urishib ketdi. Qizni ota-onasiga qaytarish yoki qaytarmaslik to'g'risida uzoq va qizg'in bahs bo'ldi-yu, oxirida Uzukni ikki tomon uchun ham betaraf hisoblangan Saidahmad eshonnikiga eltib qo'yish lozim topildi.

## TASHI YALTIROQ, ICHI QALTIROQ

Uzuk Saidahmad eshonning kichik xotini O'g'ilnozikning yonida turadigan bo'ldi. Yoshi elliklardan oshgan bo'lsa ham, hali juda bardam ko'rinadigan Saidahmad eshon "ko'p xotin olish payg'ambarimizning buyrug'i" dep, ikki xotinni ustalik bilan o'ziga bo'ysundirib olgan edi. Atrof qishloqlarda uni nafasi o'tkir eshon deb hisoblaydigan, unga murid tutingan odamlar ko'p edi. Uning uyiga sovg'a-salom uzilmay kelib turardi. Odamlarning eshondan qo'rqishi, unga astoydil ishonib sig'inishi uning xotinlariga ham ta'sir ko'rsatar edi.

Eshon xotinlarini urib-so'kmas, ammo gunoh, ayb, do'zax, duo to'g'risidagi xilma-xil gaplar, rivoyatlar bilan qo'rqitib, gah desa, qo'lga qo'nadigan qilib olgan edi. Qaysi xotini kelgan-ketganlar bilan yaxshi muomala qilsa, odobni joyiga qo'ysa, eshon o'shanga iliqroq muomala qilar, kechasi o'shaning uyiga kirib yotar edi. Buni bilgan xotinlari eshonning ko'nglini ovlashda bir-biridan o'zishga harakat qilar, kundoshlarga xos raqobat ularning ich-etini kemirar edi. Kundoshlik raqobatining bu turi eshonga juda yoqar, u har ikkala xotinida ham unga itoatkorlik, dindorlik, taqvodorlik tuyg'ularini qo'llab-quvvatlar edi. Xotinlaridagi dindorlik va itoatkorlik Uzukka ham ta'sir qilishi uchun Saidahmad eshon so'nggi kunlarda ularning uchovini bir joyga yig'ib, nasihat qiladigan bo'ldi:

— Ayol kishining ikki egasi bor. Biri — Allohu taolo! Ikkinchisi — er. Erni norozi qilgan ayol — Xudoni norozi qilgan bo'ladi. Musulmon ayolga itoatkorlik, kamtarlik yarashadi. Zangi otaning xotinlari Anbar onadan ibrat olinglar. Hazrati Zangi ota — butun chorvadorlarning piri — daladan mol boqib qaytayotganlarida Anbar ona yo'llariga chiqib kutib olar ekanlar. Bir qo'llarida non, bir qo'llarida tayoq bo'lar ekan. Zangi otaga qarab: "Och qolgan bo'lsangiz, mana, non, uraman desangiz, mana, tayoq", der ekanlar. Anbar ona erlarini shunchalik hurmat qilar ekanlarki, kaltak yesalar ham, "nega urasiz?" demas ekanlar.

Kecha Bekmurodboy Saidahmad eshonga bir emas, ikkita semiz ho'kizni "xayr-saxovat" uchun haydab keltirib bergan, "shu juvon-

ni ota-onasidan sovutib, Omonmurodga "isitib" bersangiz, yana Xudo yo'liga ataganlarimiz bor, olib kelamiz", degan edi. Shundan beri eshonning tili nihoyatda biyronlashib qoldi. Uzukni o'zining ikki xotini bilan birga qarshisiga o'tqazib qo'yib, diniy hikoyalar aytib ketdi:

— Bir kuni payg'ambarimiz ikki aka-ukaning uyiga mehmonga boribdilar. Xudoning qudrati bilan kichik ukasining soch-soqoli oppoq oqarib ketgan emish-u katta akasi undan yosh ko'rinarmish, soch-soqoli qop-qora emish. Payg'ambarimiz buning sirini bilolmay hayron bo'libdilar. Shunda katta aka xotinini chaqiribdi: "Chayladagi tarvuzlardan bitta yaxshirog'ini tanlab kel", deb buyuribdi. Xotin borib, tarvuz olib kelgan ekan, eri: "Bu bo'lmaydi, boshqa yaxshirog'i bor, o'shani olib kel", debdi. Xotin yana borib, bir tarvuzni olib kelgan ekan, eri yana qaytaribdi. Xotin ham lommim demay, ozorlanmay erining aytganini qilaveribdi, yetti marta chaylaga tarvuzga borib kelibdi. Shunda payg'ambarimiz o'rinlaridan turibdilar-u o'zlari chaylaga boribdilar. Qarasalar, bittagina tarvo'z turganmish. Ayol erini shunchalik hurmat qilar ekanki, yetti marta ovora bo'lsa ham eriga, "Axir tarvuz bitta-ku, men qanday tanlayman!" demagan. Shundan keyin akasi ukasiga qarabdi. "Sening chaylangda tarvuz ko'proq, xotiningga ayt", debdi. Ukasi xotinini chaqirib, chayladagi tarvuzlardan bittasini tanlab olib kelishni buyuribdi. Xotini qosh-qovoq qilib chiqib ketibdi-yu bitta xom tarvuzni olib kelib, erining oldiga "to'q" etkazib qo'yibdi. Eri: "Boshqa yaxshirog'ini olib kel" degan ekan, xotini urishib ketibdi: "Men qaysi bir ishni qilay, bir chayla tarvuzning orasidan yaxshisini qanday topay, o'zing bekor o'tiribsan", deb birpasda erining ta'bini xufton qilibdi. Payg'ambarimiz shundan bilibdilarki, ukasi yosh bo'lsa ham xotini yomonligidan soch-soqoli tez oqargan, akasi katta bo'lsa ham, xotini yaxshiligidan soqoli qopqora turgan. Payg'ambarimiz aytibdilarki: "Erini xursand qilgan ayolning joyi — jannatda, eriga ozor bergan ayolning joyi — do'zaxda".

Bu-ku bitta tarvuz tufayli bo'lgan gap. Agar bugungi ba'zi ayollarning qilgan ayblarini payg'ambarimiz ko'rsa, nima der edilar?! Qiyomat yaqin! Odamlarda gunoh ko'p! Xudoyo o'zing rahm qil bandalaringga!

Saidahmad eshonning xotinlari qiyomatdan, do'zax azobidan qo'rqadigan taqvodor ayollar bo'lganliklari uchun bunaqa hikoyalarga so'zsiz ishonar edilar. Ularning ta'sirida Uzuk ham oxiratni, do'zax azoblarini ko'p o'ylaydigan bo'lib qoldi. So'nggi ikki-uch hafta ichida ming qiynoqlarni boshdan kechirgan, kaltak zarbidan ko'p martalar hushini yo'qotgan Uzuk kechalari yomon uxlaydigan, bosinqirab, qichqirib uyg'onadigan bo'lib qolgan edi.

Buning ustiga, eshon do'zaxdagi ilonlarni, chayonlarni, jahannam olovlarini, qilichning tig'iday o'tkir, qildan ingichka Sirot ko'prikdan o'tishning qiyinligini, oyog'idan va boshqa joylaridan osib qo'yiladigan gunohkorlarni shunday batafsil, shunday qo'rqinchli qilib aytib berar ediki, buning hammasi kecha-yu kunduz Uzukning ko'z oldidan ketmas edi. Eshonning xotinlari esa jinlar, ajinalar, alvastilar haqida ko'p gapirishardi. Uzuk vahimalar qurshoviga tushib qolgan, har qadamda uni bir dahshat kutayotgandan bo'lar, kechalari uxlay olmay chiqar, kunduzlari durust ovqat yemas, borgan sayin ozib, yuzlari sarg'ayib borar edi. Oxiri u allaqanday tutqanoq kasaliga yo'liqdi, kechalari alahlaydigan, o'zidan o'zi qo'rqib qichqiradigan va shaytonlaydigan bo'lib qoldi. Bir kun kechasi eshon katta xotininikida yotganda kichik xotini O'g'ilnozik dod solib kirib keldi:

— Tezroq yuring! Uzuk shaytonlab yotibdi! O'lib qoladi!

Eshon xotinining ortidan hovliqib bordi. Xiragina chiroq yorug'ida behush yotgan Uzukning yoniga kelib cho'kkaladi-da, O'g'ilnozikka buyurdi;

— Mening hujramda "Qur'on" bor. Darrov o'shani olib kel!

Eshon chiroqning piligini ko'tardi-yu, sovuq kaftini Uzukning peshonasiga qo'ydi. Tutqanoq tutib o'tgan, qizning labiga, yonoqlariga nafis qizillik yugurmoqda edi. Uzuk alahsirab, o'zini har yoqqa otganda ko'ylagining yoqasi ochilib ketgan ekan. O'g'ilnozik ham shoshilinchda buni payqamagan ekan. Uzukning ochiq yoqasidan sal-pal ko'rinib turgan nafis ko'kragi eshonni bezovta qilib qo'ydi. Ayni vaqtda Uzuk sekin ko'zini ochdi.

Shunda uning Mashhad olusiday yirik qora ko'zlari go'yo olmos qilich bo'ldi-yu, eshonning boshidan tovonigacha kesib o'tganday tuyuldi. "Bu meni xoli joyda ko'rmoqchidir?— dedi o'zicha eshon.

Uning o'zi to'g'risida fikri baland edi.— Ataylab o'zini kasalga solgan-u meni chaqirtirgan! Axir er ko'rgan xotinda, qo'msaydi." Shu fikr bilan eshon kaftini Uzukning peshonasidan oldi-da, sekin uning ko'kragini siladi:

— Kelin, qalaysiz? Meni so'ragan ekansiz...

Uzuk ko'zlarini katta ochib indamay turardi: soqoli tarashlangan bu odam kim? Uzuk qayerda yotibdi? Uzukning indamaganidan dadillangan eshon endi uning qo'yniga kira boshladi... Uzuk uni tanidi, qayerda yotganini ham esladi. Majolsiz ahvolda qarshilik qilar ekan, uyda ikkovlaridan boshqa hech kim yo'qligini endi sezdi. Eshon hansirab, to'shini uning to'shiga qo'ymoqchi bo'lar edi. Uzukdagi hayrat (u mo'tabar eshondan bunday qiliqni hech kutmagan edi!) cheksiz bir g'azabga aylandi. G'azab esa unga kuch berdi. Uzuk bir siltanib, o'zini chetga oldi-da, eshonning yuziga chang soldi... Eshon og'riq zarbidan bir ingradi, so'ng orqaga tisarildi. "Qur'on"ni bag'riga bosib kelayotgan O'g'ilnozik ostonada turib, buning hammasini ko'rgan edi...

Eshonning tirnalgan yuzida, ko'zining bir chetida qon ko'rindi. U yarasi bitguncha o'zini kasalga solib, bir necha kun hujrasidan chiqmay yotdi.

O'g'ilnozik ham Uzuk kabi eshonning bu qadar razilligini endi bildi, undan avvalgiday qo'rqmaydigan, uning so'zlariga ilgariday ishonmaydigan bo'lib qoldi.

Shunday kasal paytida ham o'z nomusini qattiq himoya qila olgan Uzukka nisbatan O'g'ilnozikda alohida bir hurmat paydo bo'ldi.

* * *

Ammo eshonni tabarruk zot deb bilib, undan najot istab, uzoq-yaqinlardan keluvchilar ko'p edi. Bularning orasida Uzukning onasi O'raz xola bilan bizga ma'lum O'g'ilniyoz xola ham bor edi. Sudda qizini qutqarib olib ketolmagan O'raz xola yana bir necha kun kasal bo'lib yotib qoldi. Dugonasi O'g'ilniyoz xola unga qarashib, bir haftada oyoqqa turg'azdi. Mana hozir ikkovlari ikki eshakka minib, ertalabdan beri yo'l yurib, changga botib, nihoyat, Saidahmad eshonning dargohiga yaqinlashishdi.

Jabrdiyda qizini ko'radigan daqiqalar yaqinlashayotganidan hayajonlangan O'raz xola eshonning machiti oldidagi azon aytiladigan minoraga qarab:

— Sadag'ang bo'lay Saidahmad eshonning dargohlari keng,— deb qo'ydi.

— Hazrati eshonning minoralari ham osmoni falakka chiqib, bulutlarga tegay deb turibdi,— dedi O'g'ilniyoz xola.— Ziyoratga kelganlarni qarang, keti uzilmaydi. Vah-vah, qudratingdan o'rgilay, eshon. Uzukjamolimizning dardiga davo topib bersalar koshki!

— Qafasga tushgan qushchamizni yorug'liqqa chiqararmikinlar, Saidahmad pirimiz — Xudo xohlasa aytganimiz keladi! Ikki keksa ayol shu umid bilan machitni aylanib o'tishdi-da, maxsus saroyga kirishdi. Bu yerda ziyoratga keluvchi ayollarni Enaquti ismli, o'rta yashar, qop-qora oqsoch xotin qarshi olmoqda edi. Enaquti ikkala kampir bilan ko'rishib, eshaklarini bog'laydigan joy ko'rsatdi, xurjunlarini olib, boshqa ziyoratchi ayollarning yoniga boshlab keldi.

O'tirganlar hammasi eshonning qabul qilishini kutib o'tirar edi. Tishlari tushib ketgan bir kampir O'g'ilniyoz xolaga qarab:

— Kelinim bilan ertalabdan beri kutib o'tiribmiz,— dedi.

— Oyday kelinингiz bor ekan, ko'z tegmasin.

Kampir "uh" tortib dedi:

— Ko'z tegdimi, ins-u jins tegdimi, shunday chiroyli kelin birdan kasalmand bo'lib qoldi. Chorlarga borib keldi-yu, boshi aylanadigan, ko'ziga har narsa ko'rinadigan bo'lib qoldi. Sababini Saidahmad eshon o'zlari topdilar. Chorlarga borganda qo'y so'yishgan ekan. Kelinim qo'yning qoni turgan chuqurdan hatlab o'tgan ekan. Shunda bunga ins-u jins tekkan ekan — eshon buva aytdilar. Bir-ikki marta olib keldim, eshon buva dam soldilar, hozir sal durust bo'ldi. Lekin kasali hali ham biroz bor.

— Eshon buvaga tavallo qilsalaring, ko'rmaganday bo'lib ketadi.

— Men qizchamni olib keluvdim,— dedi o'rta yashar bir ayol.— Ko'z og'riq bo'ldi-yu, shundan beri ko'zi yaxshi ko'rmaydigan bo'lib qoldi.

— Bu ham ins-u jinsdan bo'lgan,— dedi Enaquti.— Men bilaman, qizchaning ko'ziga shayton yashiringan. Xola, siz eshon

og‘aning qadami tekkan tuproqdan olib qizingizning ko‘ziga qo‘ying— tuzalib ketadi. Karomatlari zo‘r eshonimning!

— Ha, rost!— deb eshonning katta xotini gap boshladi.— Men o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Bultur bir juvonga doyalik qilgan edim... Bola tug‘ilgandan keyin qo‘limga olib qarasam — odam bolasiga o‘xshamaydi. Ko‘zi bitta, qulog‘i ham bitta. Mana, Enaquti ham bor edi. Bunga ko‘rsatuvdim, ura qochdi. Keyin men ham bolani tashlab, eshon to‘ramga qarab chopdim. Orqamdan dev quvib kelayotganday bo‘ladi. Jonim halqumimga keladi. Tizzam qaltiraydi. Shu ahvolda to‘ramning oldilariga kelsam, hovlida tasbehlarini o‘girib turgan ekanlar.

“To‘ram, to‘ram!” deyman-u boshqa hech narsani aytolmayman. “O‘zingni bos, nima bo‘lgani menga ayon”, dedilar.

Karomatlarini qarang-a? Ko‘rmasalar ham shunaqa bola tug‘ilgani u kishiga ayon bo‘lgan ekan. “Ota-onasi vaqtida duoyi fotiha o‘qitmagan, bolalarini pari o‘g‘irlab ketgan, o‘rniga shaytonning bolasini tashlab ketgan”, dedilar.

Enaquti:

— Rost, rost, eshonimga hammasi ma’lum bo‘lgan!— der ediyu, ichida kular edi, chunki shunaqa bola tug‘ilganini eshonga Enaquti oldinroq kelib xabar bergan edi. U bolani darrov ko‘mib tashlanglar, bo‘lmasa, shaytonning kasofati hammaga uradi, dedi.

Ayollardan bir dahshatga tushib:

— Tiriklayin ko‘mdilaringmi? — dedi.

— Nega tiriklayin ko‘mar ekanmiz?— dedi Enaquti.— Men avval u shaytonbachchani bo‘yinchasidan bo‘g‘ib o‘ldirdim. Keyin ko‘mdik...

— Xudoyo tavba-yey!

— Xudoyo o‘zing asra-yey!— deyishib, bir qancha ayol birdan yoqalarini ushlashdi.

Eshonoyim erining karomatini ko‘rsatadigan boshqa hikoyalarga o‘tdi. Ammo O‘raz xola unga quloq solmay, ko‘zlari alang-jalang bo‘lib, eshikdan tashqariga qarardi. O‘g‘ilniyoz xola ham eshonoyimdan Uzukni ko‘rishga ruxsat so‘ramoqchi bo‘lib, payt poylar, ammo eshonoyim bilan Enaquti hech kimga navbat bermay eshonni maqtaganlari maqtagan edi.

Hovli sahnidan ko'k baxmal kamzul kiyib o'tgan xipcha bel juvon O'raz xolaga juda tanish ko'rindi.

— O'g'ilniyoz!— deb O'raz xola eshonoyimning gapini bo'lib xitob qildi.— Qarang, qarang! Uzukjamol yuribdi!! Ho'-o' hovlining narigi chetida bir juvon bilan ketayotibdi! Turing, chaqiraylik!

— Uzukmi, boshqami, kim biladi?!

— Ko'k baxmal kamzulidan tanimadingizmi?

— Baxmal kamzul kiyganlar ozmi?

So'zi og'zida qolgan eshonoyim:

— Qaysi Uzuk? Talash bo'layotgan kelinchakmi?— deb so'radi.— Sizlar kimi bo'lasizlar?

— Onasi bo'laman, otinoyi! Ilohim baraka toping!.. Qizimni sog'inib keldim... Bir ko'rib ketay! Bir bag'rimga bosay bolajonginamni!

Eshonoyi Enaqutiga buyurdi:

— To'ramga borib ayt, Uzukning oyisi kelibdi, qizini ko'rmoqchi ekan, de.

* * *

Saidahmad eshon yuzidagi tirnoq izlari bitay deb qolgan, ammo u hali ham o'zini kasalga solib, hujrasidan chiqmay o'tirar edi. Uning xizmatkorlari orasida erkak kishilar bo'lsa ham, eshon hazratlarining hujrasiga vaqt-bevaqt kirib chiqadigan odam bitta shu Enaquti edi. Chunki xizmatkorlari orasida eshonga eng sodiq, eng og'zi mahkami va har qanday yomon ishga ko'z yumib ketoladigani ham shu Enaquti edi. Ko'mirday qop-qora, baqaloq Enaquti doim eshonning oldiga kirishdan oldin eshik tirqishidan mo'ralab qarar edi. Ba'zan eshonning uyatli ishlarini eshik tirqishidan tomosha qilar, so'ng piriga malol kelmaydigan paytini topib kirar edi.

Enaquti hozir eshik tirqishidan qapaca, Saidahmad eshon hujrasining narigi tomonidagi panjara orqali hovliga mo'ralab qarab turibdi. Enaquti "Hovlida kim bor ekan?" deb, devorning chetiga o'tib qarasa, Uzuk o'tib ketayotgan ekan. "Ha, pirimiz ham bo'sh kelmaydi!" dedi Enaquti ichida, so'ng yana hujra eshigining oldiga qaytdi. "Tirqishdan mo'ralaydigan bitta menmi desam, pirim ham

mo‘ralar ekan, demak, bu uyat emas”, dedi Enaquti o‘zicha va eshikni ochib, ichkariga kirdi:

— Assalomu alaykum, pirim!

— Va alaykum assalom. Kel, Enaquti. Omonmisan?..

Eshonning hujrasida hamisha joynamoz yozig‘liq turar edi. Eshon joynamoz chetiga borib, cho‘kka tushdi-da:

— Nima gaping bor, Enaquti?— deb so‘radi.

— Pirim, Uzukjamolning onasi qizini ko‘rishga kelibdi.

Eshonning ko‘zlari alang-jalang bo‘ldi, ammo o‘zini osoyishta tutishga tirishib, soqolini sekin siladi-yu:

— Ko‘rishga kelgan bo‘lsa, mening oldimga kirsin,–dedi.

— Pirim, nahotki uni siz onasiga ko‘rsatsangiz? Axir...

Eshon Enaqutining nimadan xavotirlanayotganini sezdi. Maqsad — Uzukning oyoq-qo‘lini ipsiz bog‘lab, Bekmurodboylarga qaytarib berish edi, eshon ikkita ho‘kiz sovg‘a olgan, yana katta in’omlar kutadi. Qizning onasi esa buning hammasini yo‘qqa chiqarishi mumkin...

— Ishing bo‘lmasin, Enaquti, bor, qizning onasini boshlab kel.

Enaquti O‘raz xolani boshlab kelayotganda O‘g‘ilniyoz xola ham ularga ergashdi. Enaquti unga:

— Siz qoling, — degan edi, O‘g‘ilniyoz xola: — Hoy, nega qolar ekanman, men ham eshon og‘aning muborak yuzlarini ko‘ray, karomatlaridan bahramand bo‘lay! — dedi.

Bu so‘zlar Enaqutini yumshatdi.

— Mayli, unday bo‘lsa, yuring.

Kampirlar joynamoz ustida cho‘kka tushib, tasbehini o‘girib o‘tirgan ulkan sallali, oq yuzli, sersavlat eshonni ko‘rib hujra ichiga kirishga tortindilar. Salom berib, ostonadan beriga cho‘nqayib o‘tirishdi. Eshon ular bilan so‘rashdi, nihoyat:

— Kelib yaxshi qilibsiz, kayvoni,— dedi O‘raz xolaga. — Qizingiz bir-ikki kun yuragi qisilib, yomon ahvolga tushdi. Keyin men duo yozib berdim. Shuni ezib ichgandan beri tuzalib ketdi. Hozir xush-u xursand yuribdi.

— Ilohim baraka toping, eshon og‘a, qizimga yordam beribsiz...

Eshon O‘raz xolani aldab-suldab qaytarib yubormoqchi bo‘lgani uchun biroz maqtab qo‘yishni lozim topdi:

— Yaxshi qiz o'stirgan ekansizlar...

— Qizimiz yaxshi edi-yu, baxti ochilmadi-da, eshon og'a.

— Otingiz nima, kayvoni?— dedi eshon.

— O'razsulton!

— Gap munday, O'razsulton. Qizingizning baxti ochilganmi, ochilmaganmi, buni biz, bandalar bilmaymiz. Buni Xudoyi taolo biladi.

— Shunday-ku, eshon og'a, lekin o'zingiz ko'rib turibsiz, qizimizga yomon odamlarning qo'li tegdi...

— Bekmurodboylarni aytasizmi? Ular yomon odamlar emas edi. Ular yaxshilikcha sovchi bo'lib borgan ekan. Ko'nmabsizlar. Keyin oriyatga berilib shunday qilishgan ekan...

— Bilmadim, eshon og'a, agar ularda oriyat bo'lsa, birovning qizini o'g'irlab olib ketishdan or qilmasmidi?

— To'g'ri, ularning qilgan ishini men yaxshi demayman, — yon berdi eshon. — Oxiratda ular buning jazosini tortadi. Lekin endi bo'lar ish bo'lgan... Ilojingiz qancha? Nima bo'lganda ham, qizingiz badavlat oilaga tushdi...

— Davlatlari qursin, xotin ustiga tushdi, kundoshlik balosini ayting, eshon og'a.

— Xotin ustiga xotin olish ilgaridan qolgan odat, O'razsulton. Bu — yomon odat emas. Yomon odat bo'lganda Muhammad alayhissalomning o'zlari to'rt xotin olmas edilar. Ko'p xotin olishga shariat ruxsat bergan. Bunga qarshi bo'lsangiz — shariatga qarshi bo'lasiz, tushundingizmi?

Eshonga gap topib berib bo'lmasligini sezgan O'g'ilniyoz xola dugonasini sekin turtdi:

— Gapni ko'paytirib nima qilasiz, Uzukni ko'rsating, deng!

Kampirlar yo'llari uzoq ekanini aytishib, Uzukni tezroq ko'rsatishni eshondan iltimos qildilar.

Eshon tasbehini o'girib, ancha vaqt sukut saqlab turdi. So'ng boyagiday muloyim tovush bilan dedi:

— Ona uchun farzanddan azizi yo'q. Men buni bilaman. Ona-bolani bir-biriga qo'shib qo'yishni istayman. Lekin ilojim yo'q... Kuni kecha Bekmurodboy tomondan ham odamlar kelishdi. Qizingizni nikoh qilib olgan Omonmurod keldi.

"Uzukjamolni bizga ko'rsating" deyishdi. Men ko'rsatmadim. Chunki sudda shunday qapor qilingan. Men va'da berganman. Ora ochiq qilinmaguncha ikki tomonga barobar, ikki tomonga xolis bo'laman, deganman. Kecha ularga ko'rsatmagan qizni bugun sizlarga ko'rsatsam, va'damni buzgan bo'laman. Keyin sud ham, Bekmurodboylar ham menga da'vogar bo'ladi. Shuning uchun...

— Eshon og'a, bo'lmasa, qizni shu yerga chaqirtiring, — dedi O'g'ilniyoz xola. — O'zingizning oldingizda ko'rishaylik.

— Men qizni hujramga kiritishga haqqim yo'q.

Eshon "gap tamom" deganday bir kitobni ochib o'qishga kirishdi.

O'raz xola unga iltimos bilan qo'l cho'zdi:

— Hazrati eshon, sizning ham o'g'il-qizlaringiz bordir. Siz ham shularni umid bilan o'stirgansiz. Menga rahm qiling. Ruxsat bering, qizimni bir ko'rib ketay!

— Sizga Xudo rahm qiladi — dedi eshon kitobdan bosh ko'tarmay. — Besh-o'n kundan keyin ajrim bo'ladi. Ana shunda qizingizni istagangizcha ko'rasiz. Men hozir ruxsat berolmayman.

O'raz xola yig'lab yubordi:

— Men qanday qora kunlarga qoldim, e, Xudo! O'z farzandim shu hovlida yuradi. Men ko'rishga kelib, ko'rolmasam, bu qanday azob?

Eshon vaziyatni yumshatish uchun O'raz xolaga ko'rpachani tagiga taxlab qo'yilgan kichik qog'ozni uzatdi:

— Ezib iching, ko'ngligizdagi xavfni ketkazadi, endi uyingizga boring.

O'raz xola eshonning yuziga qaramay, yon taraflama o'tirgani uchun eshon uzatgan qog'ozni aniq ko'rmadi. U beixtiyor qo'lini ostonadan nariga cho'zib, buklangan qog'ozchani oldi. So'ng:

— Men o'zimni o'ylayotganim yo'q, eshon og'a, qizimni o'ylayapman! — dedi. — Agar mening shu zorimni tog' eshitsa ham rahmi kelar edi! Tosh eshitsa ham yumshar edi! Men qizimni yo'qlab keldim! Qizimni nega ko'rsatmaysiz! Menga sizning "ezib ichkingiz" kerak emas, qizim kerak! Oling bu qog'ozingizni!

Eshon g'azablanib o'rnidan turdi, qo'lidagi "Qur'on"ni boshi barobar ko'tarib dedi:

— Hoy, kampir. Tavba de! Bu ezib ichkiga kalomulloning so'zlari yozilgan. Sen shu so'zlarni yerga tashlading! Ol yerdan darrov! Bo'lmasa, seni kalomullo uradi, bu kuningdan battar bo'lasan!

Mo'tabar eshonning bundan g'azablanib gapirishi va ziyoratga kelganlarning unga qattiq gap qaytarishi juda kamdan-kam bo'ladigan hodisa edi. Shuning uchun eshonning kichik xotini O'g'ilnozik erining hujrasi oldiga kelib, hamma gaplarga quloq solib turar edi. O'raz xola eshonning qo'lidagi "Qur'on"ni ko'rdi-yu, hozir uni kalomullo uradiganday qo'rqib, yoqasini ushladi.

— Tavba qildim, bad qildim! Xudoyo o'zing kechirgin men bandangni! Men "Qur'on"ga shak keltirganim yo'q. Men jigarbandimni — qizimni sog'inib keldim. Eshon og'a, "joni og'rigan odam Tangrisini qarg'ar", deydilar. Siz mening jonimni og'ritib, shu ko'yga soldingiz. Qizimni ko'rsating, men sizga tavallo qilaman!

— Sen kofirning ishini qilding! Ko'rmaysan qizingni! Ket bu dargohdan!

O'g'ilnozik eshondan yorug'lik chiqmasligiga amin bo'lgach, Uzukni qidirib topishga, onasi kelganini, uni ko'rmoqchi bo'layotganini aytishga ketdi. O'raz xola alamidan hamma narsani unutib:

— Yer-u ko'kni yaratgan qudratli Xudo! — deb qichqirdi. — Mening ahvolimga kofirning ham rahmi kelar edi! Bu eshonning rahmi kelmasa, buz bu dunyoni, Xudo! Bu uy, bu joylarning hammasini yemir, yakson qil! Mayli, mening o'ligim shu hujraning tagida qolsin! Bu eshonning o'ligi ham qolsin shu yerda! Kim insofni unutgan bo'lsa, sening g'azabingga uchrasin, Xudo!

Eshon endi qo'rqib ketdi. Enaqutiga qarab, buyruq berdi.

— Bu kampir aqldan ozganga o'xshaydi. Tezroq olib ket! Odam chaqir. Oyoq-qo'lini bog'lasin. Haydanglar buni.

Enaquti O'raz xolaga yopishdi. Shunda O'g'ilniyoz xola bo'sag'a oldida yotgan otashkurakni oldi.

— Qo'lingni tort, it! — deb Enaqutining qo'liga bir soldi.

Enaquti baqirib:

— Jinni kampirni tutinglar! — dedi. — Hoy, kim bor! Tentak kampirni ushla!

— Jinnixonaga olib boringlar! — deb baqirdi eshon ham. O'g'ilniyoz xola eshonga otashkurakni o'qtalib:

— Qani shuni jinnixonaga yuborib ko'ring-chi! — dedi. — Sizning o'zingizni jinnixonaga eltib qamaydigan o'g'illarim bor mening! "Eshonim, eshonim" deganga kerilib ketyapsizmi?! Siylasam eshonimsiz, siylamasam eshagimdan battarsiz!

Bu orada xizmatkor yigitlardan biri chopib keldi-yu, O'raz xolani hujraning oldidan itara-itara hovli sahniga olib chiqdi. O'g'ilniyoz xola dugonasini himoya qilib, yigitning yelkasiga otashkurak bilan bir urdi.

Shunda yigit otashkurakni uning qo'lidan tortib oldi-da, kampirning o'zini urishiga chog'landi. Eshonnikiga ziyoratga kelgan chollardan biri yigitning qo'lini ushlab qoldi.

— Onang tengi kampirga qo'l ko'tarishdan uyalmaysanmi? Bor, ishingni qil!

— Pirim buyurdilar!..

— E, piringning ham sadag'asi ketay,— dedi mo'ysafid. Onabolani ko'rishgani qo'ymabdi-ya. Shu ham gap bo'ldi-yu... Bor, kampirlarga tegma!

Yigit otashkurak tekkan yelkasini uqalab bir chetga chiqdi. Voqeani ko'rgan ayollardan biri uni masxara qilib:

— Rosa kuchi bor ekan-a,— dedi. — Qari kampirdan zo'r keldi-a! Obbo pahlavon-e! Kampirning otashkuragini qo'lidan tortib oldi-ya! Obbo botir-e!

Ayollarning kulgisi yigitni kelgan joyiga qaytib ketishga majbur qildi.

Shu payt yoqimli tanish ovozdan O'raz xolaning vujudi titrab ketdi.

— Oyijon! Oyi! Oyijon — deb Uzuk chopib kelib onasini quchoqlab oldi.

O'raz xola yuzini qizining yuziga qo'yib, yig'lab yubordi:

— Uzukjon!.. Bolam...

— Yig'lamang, oyi, o'zingizni bosing!

Uzuk shunday der edi-yu, lekin o'zining ham ko'zlaridan to'xtovsiz yosh kelar, ona-bolaning bir-biriga tegib turgan yonoqlaridan ko'z yoshlari qo'shilib oqar edi.

— Qanday ko'rgilik ekan bu, bolam! Men kimga borib arz qilay endi? Qayoqqa borsam, ishim o'ngidan kelmaydi...

Atrofdagi odamlar ona-bolaga jim qarab turishar, ba'zilar ularga xalaqit bermaslik uchun o'zlarini chetga olishar edi. Faqat qopqora Enaquti egasiga sodiq itday ularning atrofidan ketmas edi. Uzuk hovlidagi erkaklardan yuzini bekitishni ham unutgan, onasini yupatmoqchi bo'lib:

— Endi siz hech kimga borib yalinmang,— derdi.— Subhon xasisi ham, archin Mamati ham, sudi ham — hammasi bir go'r. Hammasi o'z foydasini biladi... Ularga bir tiyin ham bermangizlar, bekor ketadi.

— Bo'lmasa, nima qilaylik, Uzukjon?.. Seni zo'rlik bilan olib ketishaversinmi, bo'lmasa? Ayt, bolam!

Enaquti ayg'oqchiday ularning og'zini poylar, eshonga zarari tegadigan biror so'z aytilsa, ona-bolani darhol bir-biridan ajratishga tayyor turar edi. O'g'ilniyoz xola ona-bolani ataylab Enaqutidan to'sib oldi.

— Otamlar qalay?— so'radi Uzuk pichirlab.— Nega hech ko'rinmaydilar?

— Otang sho'rlik hali bexabar yurgan bo'lsa kerak. Uying kuygur Subhon xasis otang bilan Berdini tupkaning tagiga yuborgan ekan. Na birov boradi, na birov keladi. Qayerdaliklarini hech kim bilmaydi. Subhon xasis xabar yubordim degan edi, keyin bilsam bizni aldagan ekan.

— Ataylab shunday qilayotgandir. Bugun borib O'g'ilniyoz xolaning o'g'illariga ayting, birortasi borib xabar bersin.

— Xo'p, bolam, xo'p!

— Yuzing ochiq, hovli to'la erkak. Uyalmaysanmi? — dedi, Enaquti Uzukka. — Bo'l tezroq, ichkariga kir!

— Oyijon, otamga, ukamga salom ayting... Agar Berdini ko'rsangiz... unga ham salom deng. Ayting, mendan xafa bo'lmasin... Endi yana ko'rishamizmi, yo'qmi, Xudo biladi... Ishqilib, sog' bo'linglar...

## EGALIK HUJRA

Uzuk hovli sahnida oyisi bilan quchoqlashib turganida uning go'zal yuzini Saidahmad eshonning o'g'li Cherkez[1] ham ko'rgan edi. Ikki qishloq orasida talash bo'layotgan, o'n olti yoshida boshiga shuncha savdo tushgan Uzuk bu dargohga kelganidan beri Cherkezni qiziqtirib yurar edi. Bugun Cherkez uning yuzini yaqindan ko'rdi-yu, ko'ziga boshqa hech nima ko'rinmaydigan bo'lib qoldi.

Yo'q, Cherkez Omonmurodlarga o'xshab ayol kishiga molday qo'pol muomala qilmaydi. Cherkez Saidahmad eshonning yolg'iz o'g'li bo'lgani uchun, otasi pulini ayamay uni shahar madrasalarida o'qitgan. Cherkezning ismi sodda bo'lsa ham, uning o'zi ayollarning qalbi juda murakkab, juda nozik bo'lishini biladi. U shaharlik ulfatlari bilan ko'p suhbatlarda bo'lgan, oshiq-ma'shuqlar haqida ko'pgina kitoblar o'qigan. To'g'ri, Cherkez juda yoshligida otasining ko'ngli uchun ishq-muhabbatsiz uylangan. Otasi undan pulni ayamas edi. Cherkez haftalab, oylab shaharda kayf-safo qilib yursa ham, otasi indamas, "faqat gap-so'z bo'lma,— derdi.— O'yin-kulgingni kishilarga bildirmay panada qil, mashhur eshonning o'g'lisan, senga bir gap bo'lsa, muridlarimning mendan ixlosi qaytadi, shuning uchun ko'cha-ko'yda sallani, uzun to'nni kanda qilma, soqolning har tuki orasida bitta farishta o'tiradi, shuning uchun soqol-mo'ylovingni o'stirib, salobatli bo'lib yur".

Cherkez yigirma besh yoshlarida uyidagi xotinidan sovub, shahardagi xonimlarga ishqibozlik qilib yurganini otasi eshitib qoldi. Shundan keyin eshon shaharlik bir kosibning o'n olti yoshli ko'hlikkina qizini unga ikkinchi xotin qilib olib berdi. Cherkez bu xotinini ham birinchi marta to'y kechasi ko'rgan edi — ko'p o'tmay undan ham soviy boshladi. U kitoblarda tasvirlangan Farhodlar, Majnunlar kabi o'z Shirinini topishni, o'z Laylosiga oshiq bo'lib uylanishni istardi.

---

[1] **Cherkez** — sahroda o'sadigan joni qattiq bir sho'ra o'tning nomi. Bu ism oddiy xalq orasida ko'p uchraydi. Saidahmad avvalgi ikki o'g'liga payg'ambarlarning nomini bergan edi. Ular o'lib ketgach "Ulug' nomlarni ko'tarisholmadi" deb o'yladi-yu, bu o'g'liga Cherkez deb oddiy ism qo'ydi.

Falakning gardishi bilan Saidahmad eshonning dargohiga kelib qolgan Uzuk Cherkezga orzu qilingan Shirindek va Laylidek ko'rina boshladi.

Cherkez Enaqutining pulga o'chligini bilar edi. Cho'ntagida dasta-dasta pul olib yuradigan Cherkez Enaqutiga besh so'm-o'n so'm pul bersa, u istagan buyrug'ini bajarib kelar edi. Enaquti Uzuk to'g'risida nimaiki bilsa, hammasini Cherkezga kelib aytib turar edi. Qiz otasinikidan qanday o'g'irlangani, qirq besh yashar Omonmurodga o'z roziligisiz qanday nikohlangani, hozir uning bu sassiq erga qanday ko'ngilsiz ekani, Uzuk o'ziga munosib yigitga ko'ngli borligi— hammasi Cherkezga ma'lum edi. O'sha munosib yigit uning o'zi bo'lmoqchi edi.

Cherkez bugun ertalab turib oynadagi o'z aksiga uzoq vaqt qarab turdi. Qosh-ko'zi joyida. Peshonasini tirishtirib ko'rdi — yomon emas. Faqat kindigiga tushib turgan soqoli uni juda xunuk va keksa ko'rsatadi. Cherkez ko'pdan beri soqoldan bezgan. Shaharda soqolini oldirib, chiroyli mo'ylov qo'yib yuradigan boybachchalar necha yillardan beri uning havasini keltiradi. O'ttiz yashar yigit ellik yoshli cholga o'xshab soqol qo'yib yursa... Uzukday go'zal qizga yoqarmidi? Yo'q, soqoldan bugunoq voz kechish kerak. Enaquti shu bugun uni Uzuk bilan uchrashtirmoqchi. Demak, bugun soqol olinishi shart. Cherkez uzun qora soqoliga sovun surkab oyna oldida unga ustara solar ekan, "otamdan baloga qolaman-ku", deb o'yladi. Ammo "Xosiyatli hamro" degan doston esiga tushdi: dostonda bir go'zal ayol: "Ering soqoli olingan silliq yigit bo'lsa", der edi. "Otam juda qo'ymasa, yana o'stirarman", dedi Cherkez... "Bir tutam soqoldan ayrilib, Uzukjamolday yorga yetishsak, yomon bo'lmas". U soqolini olib bo'lgach, yuzi juda ochilib ketganini oynada ko'rib, "durustsan-ku, mulla Cherkez!" deb qo'ydi. Faqat o'siq mo'ylovi lablariga soya solib turar edi. "Mo'ylovni ham olsammikin?.. To'xta, kichik xotinimdan bir so'ray-chi..."

— Hoy, beri kel!

Cherkezning kichik xotini soqolidan ayrilib tamoman o'zgarib ketgan erini ko'rdi-yu, hang-mang bo'lib qoldi:

— Voy, tavba!.. Sizga nima bo'ldi?

— Beriroq kel. Menga bir narsani ayt...

— Otangiz ko'rsa nima deydilar?

— Ishing bo'lmasin. Javobini o'zim beraman. Sen menga rostini ayt: ayollarga erkakning mo'ylovi yoqadimi yoki yo'qmi? Ayyorlik qilmay, to'g'risini gapir!

— He, nima, mo'ylovingizni ham olib tashlaysizmi? Undan ko'ra biror oy bir yoqqa keting, otangiz bilmasdan, soqolingizni o'stirib qayting.

— Yo'q, shoshma!— deb Cherkez xotinini belidan olib o'ziga tortdi.— Sen avval menga aytchi: ayollar mo'ylovni suyadimi?

— Qo'yvoring... Sutim toshib ketadi.

— Toshsa, toshaversin. Aytmasang, qo'yib yubormayman.

— Mayli, bo'lmasa aytaymi? Soqol-mo'ylov yoqadi... Endi qo'yvoring.

— Nega yoqadi?.. Aytmasang, qo'yvormayman!

Xotini nima deyishini bilmay birpas o'ylanib turdi-da:

— Erkak kishining soqol-mo'ylovi bo'lmasa... qorong'ida to'shakka kirganda erkakligini bilib bo'ladimi?

— Faqat shumi?

— Bu ham... keyin... Birga yotganda erkakning soqol-mo'ylovi xotinning bo'ynini qitiqlaydi.

— Qitiqlagani yoqadimi?

— Ha, yoqadi,— deb kuldi xotini va uning qo'lidan chiqib, oshxonaga qarab chopib ketdi.

Cherkez hozircha mo'ylovini olish fikridan qaytdi. Uzukni ko'rgan damlarini, uning to'g'risida eshitganlarini eslab ketdi. "Nomi ham shunday chiroyli... Uzukjamol!.. Jabr-u jafolarga uchragan go'zal... Men uni shu kulfatlardan qutqarsam. Keyin u menga mehr qo'ysa..."

Cherkez hali umrida bunday shirin xayollarga bormagan edi. Shu kunlarda nuqul oshiq-ma'shuqlar to'g'risidagi g'azallar esiga tushar, o'zida ham tab'i nazm paydo bo'lib, she'r yozar edi. Hozir so'nggi she'rini yostig'ining tagidan olib, yodlashga tushdi — agar Uzukjamol bilan uchrashsa, qog'ozga qaramay yoddan aytib bermoqchi bo'ldi.

Shu payt eshik ochildi-yu, Enaquti yoni bilan yurib, salom berib kirib keldi.

— Kel, Qutiboy, men senga she'r o'qib beraman. Eshit!

*Ko'zlaring yulduzday, yuzlaring oyday,*
*Noz bilan yurishing yoqadi moyday.*
*Sochlaring sollanar majnuntol yanglig',*
*Ovozing yoqimli sharqiroq soyday.*
*Qo'sh qora xolingga bo'libman shaydo,*
*"Visolga yetay!" deb qilurman nido.*
*Men seni bag'rimga bosgim keladi,*
*Sen uchun jonimni aylayman fido!*

Cherkez g'azalini o'qib bo'lguncha Enaquti chap yengi bilan og'zini bekitib, kulimsirab turdi. So'ng:

— Voy, mulla Cherkez, shunday yaxshi baytni o'zingiz yozdingizmi?— dedi.

— Bo'lmasa, kim yozar edi! Bu dargohda mendan boshqa she'rni biladigan odam bormi? Uzukjamolning ishqi meni shoir qiladiganga o'xshab qoldi.

Enaquti eshonga nima yoqishini qanchalik yaxshi bilsa, Cherkezni nima bilan eritishni ham shunday yaxshi bilar edi. U o'z baxtidan shikoyat qilaversa, Cherkezning rahmi kelib, in'omni ko'proq berar edi.

Hozir Enaquti "uh" tortib:

— Xudo bizga baxt bermagan ekan-da,— dedi...— Biz ham qiz edik, yosh edik... Lekin hech kim bizga atab bayt yozmadi. O'zimizga o'xshagan bitta qishloqiga tegib, mana, umrimiz o'tib ham ketdi. Kichkinaligimda yumaloqqina, semizgina qizcha ekanman. "Qutichaga o'xshaydi, Enaquti" deb laqab qo'yishgan ekan. Boshqa joylarga borsak, odamlar laqabimizni unutarmikan, deb pirimning dargohlariga keldik. Bu yerda ham, mana, Enaquti, Qutiboy bo'lib yuribmiz.

Cherkez bu gaplarga qotib-qotib kuldi.

— Xo'sh, Qutiboy, bu dargohga kelganing yomon bo'ldimi? Qizingni o'stirib, erga berding. Mol-hol orttirding. Men sening sandig'ingni ko'rganman. Ichi to'la bisot!

— Voy, aylanay sizdan, men Xudoga ming qatla shukur qilaman dargohlaringizda yurganimdan. Lekin menga ham bir yigit oshiq bo'lib, g'azal yozmaganidan armon qilaman-da.

— Armon qilasan. Birovga yigitlar oshiq bo'lsa, birovga pul, mol-dunyo oshiq bo'ladi. Sen pul yig'. Ma, mana buni olib qo'y.

Cherkez cho'ntagidan bir dasta pul olib, bir qismini sanamasdan Enaqutining oldiga tashladi.

— Aylanay, Cherkezjon, Xudo sizni butun qilib yaratgan-da. Sizga ham husn bergan, ham aql bergan, ham davlat. Uzukjamol dedingiz. Uning husniga men ham qoyilman. Ikki qishloq odami shu qizni deb shuncha to'polon ko'tarib yurgani bejiz emas. Chiroylilikka chiroyli. Lekin aqli unchalik emas ekan.

Cherkez bu gapdan norozi bo'lib:

— Xo'sh?— dedi.

— Agar men uning o'rnida bo'lsam, sizday chiroyli, sizday badavlat yigitning ko'nglini ovlar edim.

— Endi unga ham qiyin-da,— dedi Cherkez o'ychan holda.— Boshiga savdo tushgan... gap munday, Qutiboy. Sen Uzukjamol bo'lmasang ham meni xursand qilish qo'lingdan keladi.

— Jonim bilan!

— Ho' chetdagi "egalik" hujra bor-ku. O'sha joyda Uzukjamol bilan meni bir uchrashtirasan.

Arvoh va ins-u jinsning makoni deb e'lon qilingan chetki hujrada qanaqa xufiya ishlar bo'lishini Enaquti yaxshi bilar edi, shuning uchun biroz ikkilandi.

— Qanday bo'larkin, Cherkezjon? Qiz Omonmurodga nikoh qilingan. Birovning xotini... Shariat-tariqat...

— E, u yog'iga ishing bo'lmasin! Omonmurodning bu qizni zo'rlik bilan olib qochgani qaysi shariatga to'g'ri keladi? Men Uzukjamolni nikohlab bergan mulla bilan gaplashdim. Qizni urib, behush qilib nikoh o'qitishibdi. Qiz nikohga rozi emas ekan! "Qur'on"da ham aytilganki, qizning yoki yigitning roziligisiz o'qilgan nikoh nikoh o'rniga o'tmaydi. Tushundingmi?

— Tushundim-u lekin Bekmurodboylar juda yomon odamlar-da. Pullari ko'p, boy, har balo qo'llaridan keladi. Uzukjamolni ulardan tortib olish oson emas.

— Sen Bekmurodboyni bizdan boyroq deb o'ylaysanmi? Hey, Enaquti ahmoqsan! Mana, pul! Mana, pul!

Cherkez temir sandiqni ochib, dasta-dasta pullarni ko'rsatdi. Saidahmad eshon butun pullarini yolg'iz o'g'liga ishonib berib qo'ygan, "ko'p o'qigan, shaharda ko'p yurgan, hisob-kitobni yaxshi biladi", deb sarf-xarajatlarini ham unga topshirgan edi. Enaquti eshonlarning davlati kattaligini bilar edi-yu, lekin bunchalik ko'p pulni umrida birinchi ko'rib, ko'zlari o'ynab ketdi.

— Bekmurodboylar puldor bo'lgani bilan, savodsiz, omi odamlar, pulning nimalarga qodir ekanini hali yaxshi bilishmaydi. Buni men bilaman! Pul — o'lgan odamni tiriltiradi, tirik odamni esa o'ldiradi! Pul bor joyda yolg'on rost, rost yolg'on bo'lib ketaveradi. Agar puldor odam istasa, sen o'z ering bilan yotgan bo'lsang ham, odamlar seni "o'ynashi bilan yotibdi" deb, tuhmat bilan o'ldirtirishi mumkin. Mabodo ering: "Yopdam beringlar, mening xotinimni o'ldirishdi", deb dodlasa, pulning kuchi bilan ering ham yolg'onchiga chiqadi, "bu birovning xotini bilan o'ynashib yotgan", degan gap bilan qamaladi. Haqiqat, imon, vijdon, or-nomus — hammasi pul bor joyda — kuchli, pul yo'q joyda — ojiz!

— Rost, Cherkezjon, agar mening ham bir sandiq pulim bo'lsa edi, bir emas, o'nta yigit menga atab boyagidaqa bayt yozar edi!

— Ha, ana endi o'zingga kelding, Qutiboy. Bekmurodboyning davlatidan zo'r davlatimiz bor. Haq biz tomonda. Endi agar Uzukjamol ham biz tomonga o'tsa, menga ko'ngil bersa, ana unda, shubhasiz, g'alaba bizniki bo'ladi.

— Nima, siz unga uylanmoqchimisiz?

— Rozi bo'lsa, albatta, uylanaman. Sen shuni Uzukjamolga ayt. Men unga yomon niyat bilan yaqinlashmoqchi emasman. Omonmurodni xohlamasligi menga ma'lum. Men shu bugun kechasi Uzukjamol bilan uchrashishim kerak.

— Xo'p, men uni bugun kechasi xamirdan qil sug'urganday olib chiqaman.

— Unda mukofotning kattasini kechasi olasan, — deb Cherkez temir sandiqni qulfladi.

Enaquti pulga to'la bu sandiqqa yana bir ko'z tashlab, labini yalab qo'ydi-yu: — Oy chiqqanda "egalik" hujrada kuting, — deb chiqib ketdi.

Oy chiqqanda qishloq uyquga ketgan, Saidahmad eshonning hovlisi ham jim-jit bo'lib qolgan edi. Faqat bir uyda O'g'ilnozik bilan Uzuk chiroqni pastlatib qo'yib, dardlashib o'tirishar, "egalik" hujrada esa ipak kiyimlar kiygan Cherkez visol daqiqalarini kutar edi. Enaquti O'g'ilnozikning biror yoqqa ketishini, Uzuk yolg'iz qolishini uzoq kutdi. U Uzukni rost gap bilan "egalik" hujraga boshlab borolmasligiga ko'zi yetar, shuning uchun yolg'on gap to'qib qo'ygan edi. Nihoyat, O'g'ilnozik o'z uyiga chiqib ketdi-yu, xonachada yolg'iz qolgan Uzuk chiroqni o'chirdi. Shundan keyin Enaquti sekin uning eshigini ochib kirdi.

— O'g'ilnozik? Sizmisiz? — dedi to'shak orasiga kirayotgan Uzuk.

— Sekin gapir, men Enaqutiman. Tur, tezroq kiyin.

— Nima gap?

— Seni yigiting kutib turibdi.

— Qaysi yigitim?

— Oyingga aytib yuborgan eding-ku. O'sha kelibdi.

— Voy, rostdanmi? Berdi kelibdimi?

— Ha, tez bo'l...

— Hozir... hozir...

Uzuk apil-tapil kiyinib, hovliga chiqdi. Enaquti unga tirqishidan yorug tushib turgan chetki hujrani ko'rsatdi. Uzuk hovli sahnidan o'tib, hujraga kirar ekan, Enaquti ham ketidan yetib bordi. Uzuk hujrada bashang kiyinib o'tirgan silliq yuzli Cherkezni ko'rdi-yu, qo'rqib orqaga qaytdi va eshikka intildi. Ammo bu orada Enaquti eshikni ichidan qulflashga ulgurgan edi.

— Qo'rqmang, Uzukjamol,— deb Cherkez o'rnidan turdi. — Bu yerda hech kim sizni xafa qilmaydi. Men sizga yaxshilik qilmoqchiman!

Uzuk unga qaramay Enaqutini eshik oldidan nari itardi:

— Och, men bu yerdan ketaman! Yaxshilik qiladigan odam kechasi aldab olib kelib, uyga qamab gaplashmaydi!

Enaqutining aldamchiligidan bexabar Cherkez:

— Men sizni aldagan emasman,— dedi. — Ohuday hurkak bo'lganingiz uchun eshik hozircha yopiq turadi. Endi menga bir qarang, Uzukjamol. Eng go'zal qiz ham sizchalik bo'lar. Men ham, balki, bir yigitchalik bordirman. Menga bir qarang, iltimos!

Uzuk devorga qarab turib:

— Yo tavba, bu eshonlarning dargohimi yo zindonmi?— dedi. Qismatim meni yana qanday baloga duchor qilyapti?

— Baloga emas, baxtga duchor qilyapti! — kulib dedi Cherkez.

— Rost-da, axir!— deb uning so'zini quvvatladi Enaquti pang' ovoz bilan.— Cherkezjon seni hamma balolardan qutqarib olmoqchi! Boshingga baxt qushi qo'nadi.

— Yolg'on, sen aldamchining hamma gaping yolg'on!— dedi Uzuk.

— Ishonmasang, o'zing bilasan,— dedi Enaquti.— Erta-indin Bekmurodboylar seni Ashxobodga sudga olib boradi. Kofirlarning oldida yuzingni ochib hammaga tomosha bo'lasan.

— Mayli! Dunyoning narigi chetiga olib borsalar ham boraman, lekin endi aldamchilarga yon bermayman! Och eshikni!

So'nggi oyda tortgan azob-uqubatlari Uzukni bir necha yosh ulg'aytirib qo'ygan, u endi berahm dunyoning yomon odamlari qarshisida ojiza bo'lib o'tirishni istamas edi. Uning g'azab bilan yongan yirik-yirik ko'zlari, shunday paytda yanada latofatli ko'ringan yuzi Cherkezni mahliyo qilib qo'ydi.

— Shoshmang, Uzukjamol, sizga ikki og'iz gapim bor, — dedi u, tovushini biroz pasaytirib. — Agar ketaman desangiz, ixtiyor o'zingizda. Ishoning, men sizni xafa qilmoqchi emasman.

Cherkezning so'zlaridan ham ko'ra ovozidagi hayajon Uzukni biroz yumshatdi. Beixtiyor uning ko'zlaridan yosh oqa boshladi. Uzuk buni ko'rsatmaslik uchun yuzini o'girib, ro'moli bilan bekitib oldi.

— Yuzingizni mendan bekitmang. Sizning ajoyib ko'nglingiz yuzingizdan ko'rinib turibdi...

— Ko'ngil dasturxon emas, har kimning oldiga yozilavermaydi...

— Mayli, undoq bo'lsa gapiring. Ovozingiz menga bulbulning nolasidek ta'sir qiladi, sevgilim Uzukjamol!

— Men sizning sevgilingiz emasman. Suygan xotinlaringiz uyingizda o'tiribdi.

— Men xotinlarimni suyib olganim yo'q, Uzukjamol. Siz ham Omonmurodga o'z ixtiyoringiz bilan nikohlanmagansiz-ku. Odatlarimiz qursin, qadim zamonlardan beri suyishganlar bir-birlari bilan topisholmay o'tgan. Tohir-Zuhroni eshitgandirsiz? Shohsanam bilan G'aribning tarixini bilarsiz? Tohir sevgi tufayli daryoda oqdi. Zulayxo sevgi deb o'tda kuydi, G'arib sevgi deb yetti yil elidan ajradi. Shohabbos sevgi dardini tortib aytgan ekan:

*Shoabbos deydi: kulmadim,*
*Azaldan nechun o'lmadim,*
*Oshiqlik qadrin bilmadim –*
*To boshimga tushmaguncha.*

Cherkez oshiq-ma'shuqlar haqida o'qigan narsalarini aytib berar ekan, Uzukning xayoli Berdiga ketdi. Agar ularni bir-birlaridan ayirmasalar, hozir qanday baxtiyor turmush qurishlari mumkin edi! Bundan ikki oygina oldin yaylovda Uzuk qanday mas'ud damlarni boshdan kechirgan edi! Gulday toza, gulday nafis edi. Endi bu gulni uzib, oyoq ostiga tashladilar. Toptadilar, yana toptamoqchi bo'ladilar... Nahotki ayol kishining taqdiri doim shunaqa bo'lsa? Zuhra, Shohsanam, Layli... hammasi baxtsiz... Shularni o'ylar ekan, Uzukning ko'zlaridan yum-yum yosh oqar, ammo buni hech kimga ko'rsatmas edi.

— Siz mening so'zlarimni tinglayotibsizmi, yo'qmi, Uzukjamol?

Uzuk indamas edi. Bundan dadillangan Cherkez kelib, uning belidan quchmoqchi bo'ldi. Shunda Uzuk egilib, oyog'idagi nag'alli kavushining bir poyini qo'liga oldi-da bir siltanib Cherkezning qo'lidan chiqdi:

— Gapingiz bo'lsa menga qo'l cho'zmay gapiring. Jonimdan to'yib yuribman. Yana qo'l cho'zsangiz, kavushning nag'ali bilan boshingizni yoraman!..

— Xo'p, xo'p, siz nomusli ayolsiz, bilaman... Gapim shuki, men ham sizga o'xshagan o'z baxtini topolmay yurgan oshiqman. Ko'rib turibsiz, men Omonmurod ham emasman, archin Mamat

ham emasman. Faqat o'shalarnikiga o'xshash uzun soqolim bor edi. Bugun siz tufayli shu soqolimni ham olib tashladim. Yoshim ham sizga munosib, ko'nglim ham... Men sizni yaxshi ko'rib qoldim. Endi siz rozi bo'lsangiz, nikohimga o'ting. Sakkiz qanotli katta oq uy sizniki bo'ladi. Bisotimda nima bo'lsa, hammasiga o'zingiz beka bo'lasiz. Siz Omonmurodga tegishni istamaganingizni biladigan guvohlar bor. Shuning uchun avvalgi nikohingiz bekor bo'ladi. Sizni hech kim hech qaysi sudga olib borib ovora qilolmaydi. Pul bilan bitadigan ishni pul bilan bitiramiz, haqiqat yo'li bilan bitadiganini haqqoniylik bilan bitiramiz.

Cherkez hozir o'zi aytayotgan gaplarni qila olishiga mutlaqo ishonar edi. Ammo Uzuk bu dargohga kelganidan beri eshon ham, uning o'g'li ham sodda odamlarni laqillatib yurganini sezar, Cherkez shu minutda samimiy bo'lsa ham, ertaga o'z so'zidan qaytishi hech gap emasligini bilar edi.

— Nega indamaysiz? — dedi Cherkez. — Agar mening xotinlarim borligi sizni ikkilantirayotgan bo'lsa... avvalambor ular juda yuvosh xotinlar, sizga yomonlik qilishmaydi... Bordi-yu, yomonlik qilishsa, ikkovini ham uch taloq qo'yaman. Siz ham qutulasiz, men ham... Xo'sh, qani, men sizning javobingizga mahtalman...

Uzuk bunday gaplarni umrida birinchi marta eshitishi edi, nima deyishini bilmay qoldi. Eshikka orqasi bilan suyanib turgan Enaquti:

— Xo'p desang-chi, Uzukjamol! — dedi. — Bira to'la hamma kulfatdan qutulasan! Xo'p de!

— Uzukjamol, ayting yoki yana biror armoningiz bormi? -dedi Cherkez.

— Armonim shuki, kim menga yaxshilik qilmoqchi bo'lsa, xotinlikka olib yaxshilik qilaman, deydi. Birorta xolis yaxshilik qiladigan odam yo'q ekanmi bu dunyoda? Hech kim mening ko'nglimni so'ramaydi. Axir men ham odamman-ku. Mening ham...

Uzuk "ko'ngil bergan yigitim bor" demoqchi ekanini sezgan Enaquti darhol uning so'zini bo'ldi:

— Bilamiz seni! Bir cho'ponning qizisan-da. Jon demaysanmi?

Bu so'zlar Enaqutining ablahligini, Uzukni bu yerga aldab olib kelganini eslatdi-yu, Uzukning g'azabini keltirdi:

— Men cho‘ponning qizi bo‘lsam, sen juda usta qo‘shmachi ekansan. Uyda qizing bor ekan. Jon deydigan bo‘lsang, qizingni olib kelib, bu odamga qo‘shib qo‘y!

— Voy, tiling qursin. Qo‘y-e, shu yerdan ketganim bo‘lsin-e!..

Enaquti Uzukni Cherkezning oldida yakka qoldirmoqchi bo‘layotgani sezilib turardi. Uzuk uni yelkasidan tutib:

— Yolg‘iz ketmaysan bu yerdan, — dedi.— Birga keldingmi, endi birga ketasan!

Cherkez Uzukning sezgirligidan va Enaqutini boplaganidan zavqlanganday jilmayib yana unga tikilib qoldi. Shunda Enaquti:

— Cherkezjon, bizni bu yerda ko‘p tutma, — dedi. — El bor — ko‘z bor, birov ko‘rib qolsa, yaxshi emas. Biz yaxshilikcha ketaylik.

— Mayli, mening takliflarimni o‘ylab ko‘ring,— dedi Cherkez Uzukka. — Hozir rozi bo‘lmasangiz, keyin tushunib rozi bo‘larsiz. Xayr, boring!

* * *

O‘g‘ilnozik Uzukning qayoqqa yo‘qolganini bilolmay uyning o‘rtasida hayron bo‘lib turar edi. Yig‘lamsirab kirib kelgan Uzukni ko‘rib:

— Voy, o‘rtoqjon, sizga nima bo‘ldi? — dedi. — Qayerda edingiz?

Uzuk to‘shagi ustiga o‘tirdi-da, yig‘lab yubordi. Boshiga tushgan savdolar uning xo‘rligini keltirar edi.

— Nima bo‘ldi axir, Uzukjon? Ayting, yig‘lashni qo‘ying. Mening ham ko‘nglim yarimta. Mening ham dog‘-hasratim ko‘p. Siz yig‘layversangiz, mening ham dardlarim yangilanadi. Qo‘ying, jon o‘rtoqjon...

— Nima qilay, O‘g‘ilnozik! Yig‘lamayin deb o‘zimni shuncha tutsam ham bo‘lmayapti. Xo‘rligim keladi. Axir men ham bir odamning aziz farzandi edim... Mening gunohim nima? Menda ham orzu-havas bor edi... Nega hammasi yakson bo‘ldi? Qani mendagi soflik?.. Mening nimam qoldi? Meni it oldiga tashlanadigan eski sanach[1]ga o‘xshatib qo‘yishdi. Duch kelgan it bu sanachni tishlab qochay deydi...

[1] **Sanach** — mol terisidan qilingan xalta. Unga go‘sht, yog‘ yoki un solinadi.

Uzuk shunday deb, O'g'ilnozikka hozir bo'lib o'tgan voqeani aytib berdi.

— Voy dinini yutganlar-ey! — deb O'g'ilnozik yoqasini ushladi. — Bular o'sha chetki hujrani "egalik" hujra, unda arvoh bor, jin bor, deb odamlarni jo'rttaga cho'chitar ekanlar-da. Hech kim bormaydigan bu joyda buzuqchilik qilishar ekan-da. Men endi bildim, o'rtoqjon. Odamlar bularni "azizlar, pirlar" deb yosh-yosh kelinchaklarni olib kelishadi. Bu imonsizlar... Voy tavba-ye! Ikki yil burun chiroyli bir juvonni onasi boshlab keldi. "Erga berganimizdan beri tutqanoq tutib, hushidan ketadigan bo'lib qoldi", dedi. Eshon darrov. "Bunga shayton tekkan, tuzatamiz", dedi. Shayton tegmoq qayoqda! Keyin bilsam, eri shaytondan ham battar shilpiq, bukri odam ekan. Qiz bechora o'shandan bezib kasal bo'lib qolgan ekan. Eshon haligi qizning yolg'iz o'zini o'sha "egalik" hujraga kiritib qo'ydi. Bir-ikki marta o'sha yerdan Cherkezning chiqqanini ko'rib qoldim... Endi bilsam, bunaqa ishlari bor ekan-da. Juvon ham ikki oyda tuzalib, oyday bo'lib jo'nab ketdi.

Bu yil yana eridan bezib, tutqaloq tutadigan bo'lgan ekan, o'sha hujraga kelib yana ikki oy turib, tuzalib ketdi.

— Xudodan qo'rqmaydimi bular?!-dedi Uzukning aqli lol bo'lib.

— Yo'q, bular Xudodan ham, payg'ambardan ham qo'rqishmaydi, boshqalarni qo'rqitishadi, — dedi O'g'ilnozik. — Sen kelguncha men ko'p narsani bilmas ekanman. Endi ko'zim ochilyapti. Agar Cherkez eshon ishq-muhabbatga shunchalik ishonsa, otasi mening muhabbatimni toptab tashlaganda nega indamadi ekan?.. Eh, o'rtoqjon, men ham senga o'xshash baxti qaro ayolman... Yoshligimda ota-onam o'lib ketgan. Shu eshonning katta xotini meni asrab olgan. Kichikligimdan eshonoyimning xizmatini qilganman. Keyin meni maktabga, o'qishga bergan. Zehnim tez ekan, o'qishni ham yaxshi eplar edim, uy ishini ko'p qilar edim. Eshon meni ko'p maqtar edi. Uning shu hovlisida Bayram degan bir yigit ishlar edi. U ham yoshligida maktabda o'qigan, xat-savodli yigit edi. Men o'n besh-o'n olti yoshlarga borganimda shu yigit ikkovimiz bir-birimizni yaxshi ko'rib qoldik. Xat yozishadigan bo'ldik. U xatini darvozaxonaga belgili bir joyga qo'yib ketar edi, men ham

javobimni o'sha yerga qo'yar edim. Bayram menga sovchi yubordi. Lekin eshon bermadi. Shundan keyin ko'p yig'ladim. Bayram menga: "Bu yerdan qochib ketaylik", deb xat yozdi. Oxiri men Bayram bilan bu yerdan qochib ketishga rozi bo'ldim. Javob xat yozib, haligi joyga eltib qo'ydim... Ilohim yer yutsin shu ayg'oqchi Enaqutini! Bizning xat yozishimizni sezib yurgan ekan. Oxirgi xatimizni olibdi-yu, eshonga eltib beribdi. Birpasda Bayram, yuzi qora bo'lib, bu dargohdan haydaldi.

Ertasiga to'y tayyorgarligi boshlandi-yu, bir haftadan keyin meni eshon o'ziga nikohlab oldi... Men bu noinsof eshonning uyida o'z qiziday o'sgan edim... Ana endi uch yildan beri qafasga tushgan qushday... o'zing ko'rib turibsan...

— Bayramga nima bo'ldi ekan, bilmadingmi?

— Bu yerdan bosh olib chiqib ketganicha qaytib kelmagan emish. Bilmadim, bechoraning taqdiri nima bo'ldi?..

— Taqdir, qismat degan narsa bor ekan-da, a, O'g'ilnozik?

— Bor ekan, Uzukjamol, bor ekan! "Toleying ters kelsa, bir somon parchasi ham boshingni yoradi", degan so'zlar bejiz emas ekan. Nima qilay, o'rtoqjon? Men endi taqdirimga tan berganman. Ko'nikishdan boshqa ilojim yo'q.

Uzuk so'nggi so'zlar ustida uzoq vaqt o'ylab, uyqusi kelmay yotdi. U ham ko'niksinmi? Nahotki hech umid bo'lmasa? Nahotki taqdirga tan berib, Omonmurodga yoki Cherkezga bo'yin egsa? Axir uning sevgilisi — Berdisi bor-ku...

## QOZONIGA YARASHA QOPQOG'I

Mari vokzalidan chiqib, kun chiqish tomonga bir ikki yuz qadam yurilsa yashil darvozali hovli ichidagi ikki qavatli chiroyli uy ko'zga tashlanadi. Uning yuqori qavatidagi ikkita xonasi alohida hafsala bilan naqshlangan, ko'chaga qaragan boloxonasida cho'girmalarini boshlaridan olib, choy ichib, chaqchaqlashib o'tirgan turkmanlarni ko'rish mumkin. Bugun to'rt xizmatkor ayol sahni yarim tanob keladigan hovlining ichi-tashini supurib,

tozalashdi. Keyin butun hovliga kaftday ochiq joy qoldirmay gilam to'shab chiqishdi. Uyga va boloxonaga chiqiladigan zinapoyalarga gilam xurjun uchun to'qilgan ensiz gilamlarni to'shab, popuklarini pastga osiltirib qo'yishdi. Yuqori qavatdagi ikkita naqshinkor uyga boshdan-oyoq gilam to'shashib, eng chiroyli gilamlarni devorlaga shunday jipslab osishdiki, barmoqday ham bo'sh joy qolmadi.

Bu tayyorgarliklar Bekmurodboyning shaharlik tatar xotini Xonim boshchiligida qilinmoqda edi.

Xonimning ismi boshqa bo'lsa ham, Bekmurodboyga tekkandan beri o'z ismi unutilgan, hamma uni "Xonim" deydi. Bekmurodboy qishloqqa chiqqanida narigi ikki xotini bilan bo'lsa, shaharga tushganda Xonim bilan bo'ladi. So'nggi paytlarda Bekmurodboy qishloqqa kam borar, besh kun-o'n kunlab shaharda qolib ketar, bundan xursand bo'lgan Xonim uning aytganini bajo keltirib, ko'nglini olishga intilar edi.

Ikki kundan beri davom etayotgan tayyorgarliklar, nihoyat, tugadi. Xonim xizmatkor ayollarga javob berdi-da, o'zi eng qimmatbaho kiyimlarini kiyib, zeb-ziynatlarini taqishga kirishdi.

Kechga yaqin ikkita muhtasham fayton yashil darvoza oldiga kelib to'xtadi. Oldingi faytondan, olti yashar qizchasini qo'liga olib, bir polkovnik tushib keldi.

Bu Mari uyezdining hokimi edi. U qizchasini yerga qo'ydi. Oftob botayotgan bo'lsa ham, ipak zontigini qo'lidan qo'ymay kelayotgan xushbichim xotiniga qo'l cho'zib, uning faytondan tushishiga yordamlashdi. Orqadagi faytondan o'n ikki yashar qizcha va o'n to'rt yashar bola sakrab tushdi. Bu — hokimning bolalari edi.

Uyezd hokimining Bekmurodboynikiga g'ayri rasmiy vizit bilan kelishiga vositachi bo'lgan semiz armani Avanes ham keyingi faytondan shoshilib tushdi-yu, darhol darvoza tomonga yo'naldi. Ammo u darvozaga yetib borguncha bo'lmay ichkaridan Bekmurodboy chiqdi va darvozaning har ikki tabaqasini ochib yubordi. Botayotgan oftob nurida hovlini to'ldirib, yal-yal yonayotgan gilamlar mehmonlarga: "Marhamat, bizning eng go'zal gullarimiz sizlarning tovonlaringizga munosib!" deyayotganga o'xshardi.

Avanes goh turkmancha, goh o'rischa gapirib, mezbon va mehmonlarni bir-birlariga taqdim etdi:

— Polkovnik boyar xonimi bilan, — dedi Bekmurodboyga. So'ng hokim va uning xotniga qarab, armancha talaffuz bilan davom etdi:— Bekmuradbay — adin iz sami izvestni chalavek uyezda. On na moy zavod xlapok postavlayet, moy luchshi kunak... Smatri, ego dvor kakaya[1]!..

— Ax, kak prelestno![2] — dedi hokimning xotini.

Bekmurodboy Yevropacha odobga binoan avval xonim bilan ko'rishdi:

— Xush ko'rdik, palkovnik boyar xonimi, — dedi. So'ng polkovnikning o'zi va bolalari bilan ko'rishib chiqdi-da, hammalarini ichkariga taklif qildi.

Bu orada Xonim ham pardozini bitirgan edi. Mehmonlarni hovli sahnida kutib oldi.

Polkovnik bilan xotini qo'ltiqlashib, hovlidagi gilamlarni birbir bosib o'tishdi. Polkovnik gilam taniydigan odam edi. Etigiga qadalgan shpori rang-barang patlar ustidan eshitilar-eshitilmas shaqirlab borar ekan, qaysisi taka gilami, qaysisi pendi, qaysisi yovmud gilami ekanini bexato aytar, ularning bir-biridan farqini xotninga tushuntirar edi. Bolachalar ham gilamlar ko'rgazmasiga kelgan odamlarday ota-onalariga ergashib, hovlini aylanishardi.

G'ira-shira qorong'ilik tushganda uyda chiroqlar parpirab yondi. Mehmonlar ikkinchi qavatdagi naqshinkor mehmonxonaga chiqdilar. Bekmurodboyning ishorasi bilan Avanes uy egasining ishongan kishisi vazifasini o'tay boshladi: anvoyi mevalar, taomlar va konyaklar qo'yilgan ulkan ziyofat stolining to'riga polkovnikni, uning bir yoniga xotinini, ikkinchi yoniga esa Bekmurodboyning Xonimini o'tkazdi. Bekmurodboy polkovnikning yonidan joy oldi. Qolgan o'rinlarga bolalar o'tirishdi.

Xizmatkor ayollar tovushsiz yurib, oshxonadan taom tashir edilar. Polkovnikning xotini shu vaqtgacha gilamlarning go'zalligini va gilam to'quvchilarning san'atini maqtagan bo'lsa, endi birbiridan yaxshi taomlarni maqtab ketdi. Bugun shaharning eng yax-

---

[1] Bekmurodboy, uyezdning eng mashhur odamlaridan biri. U mening zavodimga paxta yetkazib beradi. Mening eng yaxshi oshnam...Qara, hovlisi qanday yaxshi.

[2] Ah, qanday go'zal!

shi oshpazini chaqirtirgan Bekmurodboy mo'ylovini burab, xotini bilan bir ko'z urishtirib oldi: Xonim ham mehmonlarga qanaqa ovqatlar yoqishini bilib, oshpazga yaxshi buyurtmalar bergan edi.

Avanes kosaguli bo'lib:

— Kamu kakoy napitka dusha trebuyet[1]? — dedi. Erkaklarga konyak, ayollarga vino quygach davom etdi:

— Pervi tost dayom xazayin doma![2]

Bekmurodboy qadahni qo'liga olib o'rnidan turdi. U turkmancha gapirar ekan, Xonim mehmonlarga ba'zi bir joylarini silliqlab tarjima qilib berdi:

— Men aziz mehmonlarimizning sog'lig'i uchun, janobi polkovnik, uning go'zal xotini, ajoyib bolalari doimo bugungiday shod-xurram bo'lishlari uchun, barchamizga g'amxo'rlik qilayotgan, bizga shunday baxtiyor hayot bergan oq poshshoning salomatligi uchun qadah ko'tarishlarnigizni so'rayman.

Oq poshsho deganda hammalari o'rinlaridan turdilar, qadahlarini urishtirib, tikka turib ichdilar. Birpas o'tgandan keyin Avanes polkovnikning xotninga so'z berdi.

Polkovnikning xotini gapni ko'paytirib o'tirmadi:

— Men mana shu kompaniyamizning shon-shuhrati uchun ichaman! — dedi.

Uchinchi qadahni uyezd hokimi ko'tardi. U qadahidagi qimmatbaho konyakni chiroq yorug'iga solib, oltinday tovlanishiga bir qarab oldi-da:

— Men hammamizning do'stimiz bo'lgan Avanes uchun ichishni taklif qilaman, — dedi. Uning so'zlarini Xonim Bekmurodboyga tarjima qilib turar edi: — Avanesning do'sti Bekmurodboy bugun bizning ham do'stimiz bo'lib qoldi, bu kishi uchun qadah ko'taraman. Do'stlar, sizlarga savdo ishlarida katta muvaffaqiyat tilayman!

Uning so'zlariga hamma qarsak chaldi.

Shunday keyin alyor aytmay ichishdi. Hokimning xotini ko'p ichib ancha sarxush bo'lib qoldi. Polkovnik Bekmurodboyga va uning Xonimiga gap uqtirayotganini ko'rib, hokimning xotini

[1] Kimning ko'ngli qanaqa ichimlikni xush ko'radi?

[2] Birinchi tostni uy egasiga beramiz.

Avanesning yoniga o'tdi. Avanesning yelkasiga qo'lini qo'yib, yuzini yuziga yaqinlashtirib:

— Muhtaram Avanes, siz bilan biz Marining eng mashhur odamlarimiz, to'g'rimi? — dedi. — Biz siz bilan yaqin munosabatda bo'lmasak, kim bilan bo'lamiz? To'g'rimi? Axir biz eng yaqin do'stlarmiz, to'g'rimi?

Avanes hokimdan iymanib so'z qotmas edi. Ammo hokim xotiniga e'tibor bermas, Bekmurodboyga nasihatomo'z gapirar, uning so'zlarini Xonim eriga tarjima qilib berib o'tirar edi:

— Siz bilan bizning dushmanimiz bitta: bu — revolutsiya gidrasi! — derdi hokim. — Men o'z uyezdimda shu gidraning urug'ini quritmagunimcha qo'ymayman! Eshitdingizmi, Bekmurodboy, siz ham jandarmeriyaga xizmat qilishingiz kerak. Siz jandarmeriyaga suyaning, biz bilan aloqani mustahkamlang. Yana shuni bilingki, oq poshshoga qarshi targ'ibot yurituvchilar shahar ishchilarining orasidan chiqyapti. Shuning uchun turkmanlar ulardan uzoq yursin. Umuman, men turkman fuqarosi shaharda yashamasligining, ishchi bo'lmasligining chorasini ko'ryapman!

Hokim bilan sirdosh bo'lib borayotganlaridan quvongan Bekmurodboy:

— Sizlar mening suyangan tog'imsiz, — dedi. — Nima chora ko'rsangiz, men hammasini qo'llab-quvvatlayman. Men oq poshshoga doim sodiqman, chunki mana shu badavlat, xotirjam hayotni bizga oq poshsho berdi. Oq poshshoga qarshi boradigan odam — mening birinchi dushmanim. Mening sakson besh yoshli onam bor. Shu onam har kuni besh vaqt namoziga oq poshshoning nomini qo'shib o'qiydi, oq poshshoga uzoq umr, xotirjamlik tilaydi. Agar siz aytgandaqa yomon inqilobchilar turkmanlarning orasida bo'lsa, men undaylarning oyoq-qo'lini bog'lab, jandarmeriyaga topshirishga hamma vaqt tayyorman.

— Shunday bo'lsin! — dedi polkovnik.

Tun allamahal bo'lib qoldi. Polkovnikning bolalari sarxush odamlar orasida zerikib, bezovtalanishar edi. Oxiri mehmonlar ketmoqchi bo'lishdi. Shunda Bekmurodboy qo'shni xonaning eshigini ochdi-yu:

— Bo'lmasa, bu uyni ham bir ko'ringizlar, — dedi. Bu uydagi gilamlar narigilaridan ham chiroyliroq edi. Polkovnikning xotini bir esnab olib:

— Ah, qanday chiroyli! — deb qo'ydi.

Xonim bu uydagi shifonerni ochdi-yu, o'sha zamonaning eng yaxshi matolaridan tiqilgan uchta katta-kichik paltoni olib, hokimning o'g'il-qizlariga kiydirdi.

Polkovnik va xotini bir ovozdan:

— Qo'yinglar, ovora bo'lmanglar, — deb noz qilishdi.

Ammo Avanes ularga bu — turkman odatiga ko'ra aziz mehmonlarga beriladigan sarpo ekanini, agar olishmasa, mezbonlar qattiq xafa bo'lishini tushuntirdi.

Shundan keyin Xonim qimmatbaho qorako'ldan tikilgan yangi zaifona manto keltirdi. Bekmurodboy mantoni xotinining qo'lidan oldi-da:

— Mana bu — aziz hokimimizning umr yo'ldoshlariga,- dedi. — Avanes, siz kiydirib qo'ying, men bu kishiga kiydirishga botinolmayman.

Polkovnikning xotini endi astoydil xijolat bo'lib, xiyol qizarib ketdi.

— Yo'q, yo'q, rahmat...

— Avval bir kiyib ko'ring, aziz mehmon!..

Oltinday tovlanayotgan qorako'l manto xonimga o'lchab tikilganday to'g'ri keldi.

— Ah, qanday go'zal! — dedi xonim yenglariga qarab.

So'ng eriga yuzlandi-yu: — Mayli, keyin pulini to'larmiz, — dedi va beixtiyor cho'ntagiga qo'l soldi. Mantoning o'ng cho'ntagida bir dasta yangi qog'oz pul shitirlab turar edi. Xonim hamma narsaga tushunganday bo'lib, "pulini to'laymiz" degan gapni boshqa aytmadi.

Darvoza oldida uchta fayton ularga muntazir edi. Mezbonlardan benihoya xursand bo'lgan mehmonlar oldingi ikki faytonga joylashishdi. Uchinchi faytonga chiqqan Bekmurodboy ukasi Omonmurod bilan birga ularni uylarigacha kuzatib qo'yishdi. Qaytishda Omonmurod akasidan norozi bo'lib:

— Sovg'ani juda katta berdingiz, — dedi. — Buncha pul-u buyumga bir emas, ikkita qiz olsa bo'lar edi.

Bekmurodboy ukasining yelkasiga qoqib:

— Sen hali yoshsan, ko'p narsani tushunmaysan, uka, — dedi. — Men bu pullar-u mollarga sen uchun xotin sotib olganim yo'q, o'zim uchun uyezd hokimini sotib oldim. Hali bu hokimga bizning ko'p ishimiz tushadi. Bugungi xarajatlar bir yil o'tmay o'n hissa bo'lib qaytadi. Suyanganing tog' bo'lsa, yuraging po'latdan bo'ladi. Men endi hech kimdan tap tortmayman, uka!

Oradan ikki kun o'tgandan keyin Bekmurodboy Mari sudining hukmidan norozi bo'lib yozilgan arizasini hokimga eltib berdi. Oradan bir kun o'tkazib, Bekmurodboy yana hokimning huzuriga kirgan edi, hokim o'rnidan turib, uni kresloga o'tkazdi:

— Ishingiz to'g'rilanadi, muhtaram boy, hech tashvish chekmang, — dedi.

— Anchadan beri cho'zilyapti, tezroq qutulsam edi, hokim janoblari...

— Erta o'tib indin ukangizni g'alaba bilan tabriklasangiz bo'ladi.

— Rahmat, palkovnik janoblari, rahmat!

## IT TEKKAN BILAN DARYO HAROM BO'LMAYDI

Kechasi O'raz xola bo'shab qolgan kulbasida yolg'iz o'zi urchuq yigirib o'tirgan edi, kimdir eshikni ochdi. Baland bo'yini egib eshikdan kirgan yigit — Berdi edi. Berdi hali hech gapdan xabarsiz. Faqat Subhon xasis va'da qilgan cho'pon boravermaganidan so'ng uning o'zi kelgan edi. U hali ham to'y orzusi bilan yurar, "ichkarida Uzuk bo'lsa kerak", degan xayol bilan, iymanib o'ng'aysizlanar, ayni vaqtda quvonch bilan kulimsirar edi:

— Assalomu alaykum, O'raz xola!

— Berdi?! — O'raz xola allanarsadan qo'rqqanday sakrab o'rnidan turdi. — Murod og'ang qani? Murod og'ang nega kelmaydi?!

— Qo'yda boshqa odam yo'q... Tinchlikmi o'zi, O'raz xola? Uzuk qani?

— Voy, aylanay Berdijon! — deb O'raz hola yig'lab yubordi. — Uyimiz huvillab qoldi... Qizginamdan judo bo'ldim...

— A?! — deb Berdi eshikka suyanganicha taxta bo'lib qoldi.- Uzukka nima bo'ldi? Qazo qildimi?

— Qazo qilsa ham bir sari edi... Tortib olib ketishdi! O'g'irlab olib ketishdi! Sharmandayi sharmisor qilishdi!

Berdining qo'rquvdan bo'shashgan gavdasi endi g'azab bilan tarang tortildi:

— Kim o'g'irladi?.. Kim?!

— Bekmurodboyning ukalari!..

— Qaysi qishloqdan ? Uzuk hozir qayerda?

O'raz xola voqeani bir boshidan aytib berar ekan, Berdi o'zini qo'yadigan joy topolmay, goh kigiz ustiga o'tirib, yelkasini devorga tirar, goh o'rnidan turib ketar edi.

— O'zingni bos, Berdijon! — dedi O'raz xola hikoyasini tamomlab. — Sen bilan bizga o'xshagan kambag'allarning qo'lidan hech ish kelmas ekan. Zamona boyniki ekan.

Archin Mamat ham shuncha harakat qilib ko'rdi. Sud ham bo'ldi. Bari bekor... "Xolis odam, pir" deb, bolaginamni eshonning qo'liga berishdi. Imonsiz eshon ham boyning tarafini oladi. Men boruvdim, Uzuk bilan ko'rishgani qo'ymadi...

— Mayli! — deb Berdi sapchib o'rnidan turdi va belidagi pichog'ini nari surib qo'ydi. — Ular bu ishga pulini tiksa, men jonimni tikaman!

— Berdijon, yosh umring bekorga nobud bo'lib ketmasin...

— Menga oq yo'l tilang, xola. Men avval Uzukni bir ko'rishim kerak.

O'raz xola Berdini qaytara olmagach, eshonning qishlog'iga qanday borilishini tushuntirdi, belbog'iga non, qurut tugib berdi.

— Uzukjonni ko'rsang, salom degin, o'zingni ehtiyot qilgin! — deb tayinlab qoldi.

Berdi bugun azonlab Qoraqumdan piyoda chiqqan, kuni bo'yi yo'l yurgan, lekin Uzukni ko'rish umidi unga charchaganini sezdirmagan edi. Endi yana tuni bilan uxlamay yo'l yurib borar ekan, ulardan o'ch olish, Uzukni qutqarish istagi unga charchaganini bildirmas edi. Ancha joygacha u Bekmurodboy bilan Omonmurod-

ni o'ldirishini o'ylab bordi. Ammo tong otganda charchagani bilindimi, yo hovuri sal bosildimi, harqalay, bir narsani o'ylab qoldi: "Ular to'rt og'ayni bo'lsa, men bitta-ikkitasini o'ldirib, qo'lga tushib, qamalsam yoki o'lib ketsam, Uzukni kim qutqaradi? Odatga binoan Uzukni tirik qolgan qayni yoki qaynag'alaridan biri xotin qilib oladi — qo'yadi... Yo'q, nima bo'lsa ham men avval Uzukni ko'rishim kerak. Uzuk bilan maslahatlashishim kerak".

Berdi Saidahmad eshonning dargohini odamlardan so'rab-so'rab peshindan kechroq topib keldi. Ziyoratga kelgan odam ko'p. Uylar, hujralar, ichki-tashqi hovlilar ichidan Uzukni topish oson emas edi. Berdiga uni hech kim chaqirib bermaydi, Uzukni onasiga ko'rsatmagan eshon, Berdiga ko'rsatarmidi? Eng yaxshisi, ziyoratga kelgan kishi bo'lib, shu yerda bir-ikki kun yurish kerak. Keyin bir yo'li topilib qolar.

Berdi eshagiga to'qim urayotgan bir choldan:

— Ota, bu yerda bir-ikki kun turish uchun... kimdan ruxsat olish kerak? — dedi.

— Eshondan-da... Ho' ånavi qora xotin bor-ku. Past bo'yli, yumyumaloq. Ana o'shanga aytsang, eshonning oldiga boshlab boradi.

Berdi mo'ysafidning aytganini qilib, Enaqutining yordami bilan eshonning hujrasiga bordi.

— Salom alaykum, — deb hujra ostonasidan ichkariga qadam qo'ydi. Eshon yaxshi ko'rgan ovqatini yeb, ta'bi ancha ochilib o'tirgan edi.

— Vaalaykum assalom, — dedi. — O'g'lim, o'zingdan kattani ko'rganda qo'l qovushtirib, ta'zim bilan: "Assalomu alaykum", deyish kerak. Sen hujraga chap oyog'ing bilan kirding. Bir joyga kirsang doim o'ng oyog'ing bilan kir.

— Xo'p, eshon og'a,— dedi Berdi qo'l qovushtirib. — Men yetim o'sganman, aqlimni tanigandan beri dalada qo'y boqaman. Maktab ko'rgan emasman. Menga hech kim odob o'rgatgan emas... Shuning uchun...

— Qani, o'tir-chi.

Berdi chordona qurib o'tirgan edi, eshon:

— Cho'kkalab o'tir,— dedi.— Yigit kishi mo'ysafid odamning oldida cho'kkalab o'tirishi kerak.

Berdi darhol o'rnidan turib, boshqatdan cho'kkalab o'tirdi.

— Xo'sh, nima arzing bor?

— Mazam yo'q, eshon og'a. Bir-ikki kundan beri tutqaloq tutadi, ko'nglim ayniydi... Ko'zimga har xil yomon narsalar ko'rinadi. Sizdan shifo tilab keldim...

— Dangasa emasmisan?

— Mening suyagim mehnatda qotgan, eshon og'a... Nima xizmat buyursangiz tayyorman.

— Bo'lmasa, o'tin-po'tin yorib, uch-to'rt kun xizmatimizni qilib tur. Men senga duo yozib beraman. Tuzalib ketasan.

— Xo'p, qanday xizmat bo'lsa, men tayyor.

Eshonning topshirig'i bilan Enaquti Berdini oshxonaning qarshisida turgan to'nka oldiga olib borib, uni yorishni buyurdi. Berdi hovlida borayotganda ham, o'tin yorayotganda ham atrofga alang-jalang ko'z tashlar, Uzukni ko'rish istagi tobora kuchayib, yuragini iztirobga solar edi. Ammo ko'pchilik ayollari ichkari hovlidan chiqmaydigan, chiqqanlari ham yopinchiqqa o'ranib, yuzini yashiradigan bu dargohda Berdining istagi amalga oshishi juda mushkul edi. "Balki Uzukni o'zi meni tanib qolar?— o'ylardi Berdi.— Buning uchun ayollarning ko'zlariga ko'proq ko'rinishim kerak". U o'tinni yorib bo'lgach, hovlining u chetidan bu chetigacha ikki marta o'tdi. Bir hujradan ikkita ayol chiqdi. Birining yuzi oq harir parda bilan to'silgan — otinoyim bo'lsa kerak. Qadam olishidan va nozik gavdasidan yoshgina juvonligi bilinib turgan ikkinchi ayol yuzini yopinchoq bilan bekitib olgan. Uning baland bo'yimi, yurishimi, nimasidir Uzukka o'xshab ketdi. Berdi yuragi "shig'" etib, qadamini sekinlatdi. Ammo ayollar unga e'tibor bermay o'tib ketishdi. Ularning ketidan borish ham, ularga ko'p qarab turish ham xunuk ko'rinishini bilgan Berdi, oyoqlari bo'shashib, darvozaga qarab ketdi.

Shu payt o'z hujrasining tuynugidan hovliga qarab turgan Uzuk uni ko'rib qoldi. Tuynukning panjarasiga yuzini tirab:

— Berdijon... — deb shivirladi. Ammo baland ovoz bilan chaqirishga yuragi betlamadi. Nima qilish mumkin? Berdi boshini ham qilib darvozaga qarab borar ekan, Uzukning nazarida u qaytib kelmaydigan bo'lib ketayotganday tuyuldi. Uzuk Berdining

ketidan chopib chiqsa... U kuni oyisi bilan ko'rishganda shunchalik malomatga qolgan edi, sevgan yigiti bilan ochiqchasiga uchrashsa osmon o'pirilib boshiga tushmaydimi? "Qurib ketsin bu dunyo!" dedi Uzuk oh tortib. Hovlida o'ynab yurgan bir bola uning oh tortganini eshitib, o'girilib qaradi.

— Hoy, bolajon, beri kel! — deb chaqirdi uni Uzuk. — Kel, parvarda beraman... Ma, etagingni tut! Bolacha tuynukning oldiga kelib, etagini tutgan edi, Uzuk tuynukdan bir siqim parvarda tashladi. So'ng ovozini pasaytirib dedi:

— Hu, ana u darvozaga qarab ketayotgan amakini ko'rdingmi? O'sha kishiga borib ayt... — Uzuk "bu yoqqa kelsin" demoqchi edi, ammo bu fikridan qaytdi.— Borib ayt, ketmay tursin. Darvozaning oldida turib tursin. Xo'pmi? Ketmay tursin... Xo'pmi?.. Chop!

Bola chopib ketdi. Uzuk shoshilib eshikni ochdi-yu, ichkari hovliga chiqdi, ko'zlari bilan O'g'ilnozikni qidirdi. Ammo hozir bu atrofda O'g'ilnozik yo'q edi.

Eshonoyimning oldidan chiqib ketayotgan Enaquti ko'rindi. Uzuk tavakkal qilib, Enaqutini o'zi turgan hujraga boshlab kirdi. Bilagidan kumush bilaguzugini olib:

— Mang, qizingiz bor ekan, sovg'a qiling, — dedi.

Enaquti, ko'zlari ochko'zlik bilan yaltirab, bilaguzukni darrov oldi. Uzuk uni tuynukning oldiga boshlab keldi-yu, hovlining bir chetida turgan Berdini ko'rsatdi:

— Bugun men o'sha yigit bilan uchrashishim kerak. Otaonam meni shu yigitga bermoqchi edi. Biz bir-birimizni yaxshi ko'rar edik. Taqdirimiz qo'shilmagan ekan... Men uni oxirgi marta ko'rmoqchiman. Vidolashmoqchiman. Agar o'sha chetki hujrada men shu yigit bilan uchrasholsam... Sizga bo'ynimdagi marjonlarimni, hamma zeb-u ziynatlarimni beraman...

Enaquti boshini qashlab, xunuk tovush bilan kuldi-da:

— Bo'pti,— dedi,— bugun kechasi "egalik" hujrada yigiting bilan ko'rishasan.

Bola: "Ketmay turing ekan" degach, Berdining yuragi orziqib, ichkaridan Uzuk chiqishini kutib turgan edi, Uzukning o'rniga badbashara Enaquti keldi-da:

— Berdi senmisan? — dedi.

— Ha, — dedi Berdi qo'lga tushayotganday yuragi uvushib.

— Sen bo'lsang, hu ana u chetki hujraga qara... Ko'rdingmi?.. Kechasi el yotganda o'sha hujraga kel.

— U yerda nima qilaman?

— Ishing bo'lmasin. Xursand bo'lasan, yigit, men aytganday qil.

Enaquti bir tirjayib qo'ydi-yu, qaytib ketdi. Bu orada Uzukning oldiga O'g'ilnozik kirgan edi. Uzuk unga bo'lgan voqeaning hammasini aytib berdi.

— Enaqutiga sir berganing yaxshi bo'lmapti-da, — dedi O'g'ilnozik. — Bu yalmog'iz seni aldab turib, tutib berishdan ham toymaydi.

— Nima qilay, O'g'ilnozik opa, shoshilib qoldim. Berdi ketib qoladi, deb qo'rqdim.

— Bo'lmasa, sen bugun Enaquti aytgan joyga borma. Qorong'ida men o'zim borib, yigitingga sekin aytaman. Ertaga kechasi keladi.

Yana bir kunlik intizorlik har qancha og'ir bo'lsa ham, Uzuk bu taklifga rozi bo'ldi.

Ertasi kuni el yotganda Uzuk yuragini hovuchlab o'sha hujraga bordi. Berdi hech kimning e'tiborini tortmaslik uchun hujraning chirog'imi yoqmagan edi. Deraza xizmatini o'taydigan panjaradan oy yorug'i tushib turardi.

Uzuk hujraga kirishi bilan Berdi o'rnidan turib, unga tomon yurdi. Shunda oy yorug'i uning yuziga tushdi-yu, Uzuk uni tanib:

— Berdi!.. Berdijon!.. — deb shivirladi. Berdi uning yelkalaridan quchib:

— Uzuk, seni ko'radigan kun ham bormi, Uzuk! — dedi.

Uzuk yig'lab yubordi:

— Peshonamizga shunday ko'rgiliklar bitilgan ekan... Iloj yo'q!..

— Sen ko'nikib ketmoqchimisan, Uzuk? Taqdirga tan berganing uchun yig'layapsanmi?

— Kuchim ko'zimga yetsa nima qilay!..

— Bilaman, ablahlar seni juda ko'p qiynagan. O'lmasam, hammasidan o'ch olaman!.. Lekin avval men seni qutqarmoqchiman, Uzuk...

— Qanday qilib?

— Qochamiz bu yerdan. Axalda[1] mening tog'am bor...

— Berdijon, siz meni qo'ying. Mening baxtim qaro ekan. Taqdiringizni mening taqdirimga bog'lamang.

— Nahot sen shu yerda qolishni istasang?

— Istamayman!.. Istamayman... Lekin men endi tamom bo'lganman... Kuyib bitganman...

Berdi uning aytmoqchi bo'lgan gapiga tushunmadi:

— Nega tamom bo'lar ekansan, Uzuk? Hali sening o'n gulingdan bir guling ochilgani yo'q!

— Oh, qani edi shunday bo'lsa!.. Qani edi o'sha yaylovda gul terib yurgan paytlarimdagiday sof bo'lsam!.. O'shanda men sizga munosib qiz edim, Berdijon... Hozir men... sizni oxirgi marta bir ko'ray deb keldim... Vidolashay deb keldim...

— Yo'q, men seni olib ketaman!

— Men ketolmayman... Men baxtsiz ekanman. Endi siz baxtli bo'ling... Baxtiyor damlaringizda meni ham eslang... Mang, mana shu uzukni onam mening qo'limga taqib qo'ygan edi. Endi bu sizga mendan yodgorlik bo'lsin...

— Sen nega bunday deyapsan, Uzuk? Axir men seni qutqarish uchun keldim-ku!..

— Meni qutqarganingiz bilan... endi men sizga munosib emasman!— Uzuk dahshatli tunni eslab, o'kirib yig'lab yubordi. Ovozi tashqariga qattiq eshitilmasin uchun yuzini Berdining yelkasiga bosdi.— Meni rasvo qildi bular!.. Menga it tegdi, Berdijon...

Berdi voqeani endi tushunib, a'zoyi badani qaltirab ketdi. Uzuk buni sezib, o'zini undan nari tortdi.

— Men hozir borib, senga qo'l tekkizgan itni o'ldirib kelaman!— Berdi hansirab gapirardi,— Omonmurod deb atalgan itning qoni bilan yuvaman... senga tekkan dog'ni. Meni kut, Uzuk, men hozir ketib, bir-ikki kunda kelaman...

Berdi eshikka yo'nalgan edi, Uzuk undan umrbod judo bo'lishi mumkinligini sezib:

— Ketmang! — dedi. — Siz ularning bittasini o'ldirsangiz, qolganlari sizni o'ldiradi.

— Men uchun sensiz yashagandan o'lgan yaxshi!..

[1] **Axal** — Ashxobod tomonlardagi bir rayon *(tarj.)*

— Unday demang, Berdijon... men siz uchun jonimni ham beraman... Lekin o'zim endi sizga munosib emasman...

— Yana shunday deysan-a, Uzuk! Nega mening o'rtangan yuragimni battar o'rtaysan? Axir it tekkan bilan daryo harom bo'lmaydi-ku!.. Sen men uchun hamisha o'sha yaylovdagi Uzuksan. Men faqat ko'nglingdagi dog'ni yuvish uchun o'sha itni o'ldirmoqchiman...

Berdi bu dargohdan yolg'iz chiqib ketsa, qasd olishning payiga tushishi aniq edi. Shuning uchun Uzuk uni ketmaslikka unday boshladi:

— Qolgan umrim — sizniki. Bir kunim qolgan bo'lsa ham siz bilan birga o'tkazaman. Mayli, qismatimni yana bir sinab ko'ray. Bu yerdan qutulishning yo'lini ayting!

— Hoziroq chiqib ketamiz!

— Yo'q, bu ahvolda biz borolmaymiz. Qo'lga tushamiz. Siz birpas meni kutib turing...

Uzuk sekin hujradan chiqdi, devorning soyasidan yurib, o'z hujrasiga bordi... Bu yerda O'g'ilnozik chiroqni pastlatib qo'yib, uni kutib o'tirar edi.

— Qalay, ko'rishdilaringmi?

— Ha, opajon, ko'rishdik... Men siz bilan xayrlashishga keldim. Berdi bilan birga ketmoqchiman.

— Qo'rqmaysanmi?

— Nima bo'lganda ham... Shu hayvonga xotin bo'lishdan yomonroq bo'lmas... O'ligim qumlarda qolib ketsa ham mayli, kalxatlar ko'zimni cho'qisa ham mayli, ishqilib, Bekmurodboylarning qonli panjasidan qutulsam bas...

— Sen mendan dadil ekansan... Mard ekansan... Baxtli bo'l, Uzuk!.. Men endi shu qari eshonning dargohida umr o'tkazaman...

— Qo'limdan kelsa, sizni ham qutqarar edim...

— Hozircha men seni qutqarishga ko'maklashaman. Senga endi ochig'ini aytay: eshon meni senga qorovul qilib qo'yibdi. Kecha-yu kunduz men senga ko'z-quloq bo'lishim kerak. Bir voqea bo'lsa, eshonga darrov xabar berishim kerak... Men indamayman. So'rasa "betob" deyman. Bir-ikki kungacha sening bor-yo'qligimgmi hech kim bilmaydi. Ungacha manzilingga yetib olasan.

— Rahmat, opajon. Lekin... agar siz aytganingizday qilsangiz, keyin baloga qolmasmikansiz?

— Senga havasim keladi, Uzukjamol. O'z tenging bilan topishib, yuz o'limni bo'yningga olib ketyapsan. Sen uchun boshimga toshlar yog'ilsa ham chidayman.

Uzuk qandaydir sharpa sezganday bo'lib, atrofga quloq soldi. Yo'q, hamma yoq jimjit.

— Hozir chiqib ketaversak bo'larmikin? — dedi Uzuk O'g'ilnozikka.

Shu ahvoldami?.. Eshon dargohidan kechasi-yu kunduzi odam arimaydi. Odamlar bunga o'rganib qolgan, "Kimsan, qayoqqa boryapsan?" demaydi. Lekin tun yarmidan oqqanda bir yigit bir ayolni boshlab chiqsa, odamlar gumonsiraydi... Shuning uchun men senga ham erkakcha kiyim topib beraman.

O'g'ilnozik birpasda ikki juft erkakcha kiyim topib keldi:

— Eshonning o'zi yomon bo'lsa ham, kiyimlari yaxshilikka buyursin,— dedi. Uzuk oyog'iga qora etik, egniga qizil to'n kiydi. Sochini boshiga yig'ib, ustidan katta oq cho'girma telpakni kiyib oldi. To'n ancha keng edi, beliga belbog' bog'lab xipchalashtirdi.

— Qalay, yigitga o'xshaymanmi?..

— Ha, ehtiyot bo'l, birorta qiz oshiq bo'lib qolmasin... Xo'p, xayr. Uzuk, oq yo'l! Ilohim zavol ko'rmanglar! Baxtli bo'linglar!..

O'g'ilnozikning ko'zidan yosh chiqib ketdi. Uzuk uni og'ushiga olib, quchoqlashib xayrlashdi-da, yana boyagiday ehtiyotlik bilan yurib, Berdining oldiga qaytdi. Nega erkakcha kiyinganini unga tushuntirdi-da:

— Siz ham eshonning mana bu yangi to'nlarini kiyib oling,— dedi.

Berdi kiyim almashtirib bo'lgan ham ediki, hujraning eshigi sekin ochildi-yu, qo'lida fonus bilan Enaquti kirib keldi.

— Yo'l bo'lsin, oshiq-ma'shuqlar?— dedi u bo'sh qo'li bilan bitlagan boshimi qashib.— E, sen ham yigit bo'lay debsan-da? Obbo, erkakcha kiyimlarni senga kim topib berdi? Haa, eshon og'aning to'nlari-ku... O'g'irlikka ham o'tibsanlarda!.. Meni bitta bilaguzuk bilan aldab qochmoqchi ekansanda... Yo'q, Enaqutini aldash qo'lingdan kelmaydi. Bizdan osonlikcha qutulolmaysan!

Bekmurodboydan xabar keldi. Ertalab xotini bilan faytonda kelib seni olib ketishmoqchi! Sen hammani ahmoq qilib, bu yigit bilan qochmoqchimiding?.. Yo'o'q!

Berdi indamay eshikka yaqinlashdi: agar Enaquti qaytib chiqmoqchi yoki odam chaqirmoqchi bo'lsa, Berdi un tomog'idan bo'g'ib jim qilishga tayyor edi. Uzuk esa Enaqutiga yalindi:

— Xolajon, men sizga aytgan edim, bu yigit — mening qallig'im. Boshimizga shunday og'ir kunlar tushdi. Hammasiga chidadik... Axir siz ham Xudojo'y kayvonisiz... Xudoga qarab ayting: bizda nima ayb? Bizni nega bu ahvolga solishadi? Sizning ham qizingiz bor... Siz ham onasiz.

Berdining g'azabidan Enaqutini ochko'zlik qutqardi. U Uzukning sochiga taqilgan oltin tangalarni ko'rsatib:

— Shulardan oltitasini berasan,— dedi. — Mening qizimda bunaqasi yo'q.

— Jonim bilan, xolajon. Mang, oltitasi emas, o'ntasi sizniki.

Enaquti tangalarni olib, chiroq yorug'iga solib ko'rdi-da, xirildoq tovush bilan kuldi:

— O'nta ekan... Qochib ketadigan bo'libsan-da, Uzukjamol! Ammo yigiting durust... Cherkez eshonning yuztasi bu yigitning oldidan o'taversin... Ketadigan bo'lsang, mening o'zimga ham birorta...

— Hozir!— deb Uzuk tugunchasini titkilab, ustiga kumush suvi yugurtirilgan kamzulini oldi.— Mang, bu sizga.

Enaquti kamzulni o'rab, qo'ltig'iga qisdi-yu:

— Ketadigan bo'lsalaring tezroq jo'nanglar, eshon sahar palla uyg'onadi,— dedi.— Iye, piyoda ketmoqchimisanlar?

Uzuk yana tugunchakni ochib, chiroyli bir buxorcha ro'mol oldi-yu, Enaqutiga uzatdi:

— Buni ham oling, xolajon,— dedi.— Ilohim baraka toping. Bizga ikkita ot kerak...

Enaquti ro'molni indamay oldi-yu, cho'ntagidan bitta kalit olib Uzukka berdi:

— Otxonada Cherkez eshon bilan Bekmurodboyning otlari turibdi... Egarlari oxurning chetida... Tezroq jo'nanglar.

Berdi bilan Uzuk eshonning hovlisidan otlanib chiqishdi-da, Qoraqum sahrosiga tomon yo'l olishdi.

## ENAQUTINING ENG ZO‘R “O‘YINI”

Enaquti Uzukdan olgan o‘ljasini qo‘ltiqlab, uyiga kelganida, eri va har ikkala qizi uxlab qolishgan edi.

Enaquti bundan xursand bo‘ldi, chunki keltirgan narsalarini sandiqqa solayotganini uydagilarning hech biriga ko‘rsatgisi kelmas edi. U sochiga taqilgan kalitni topib, qorong‘ida sandiqning qulfini paypaslanib ochayotganida katta qizi uyg‘onib qoldi.

— Oyi, gugurt kerakmi? Mang, chiroqni yoqing!

— Jim yot, gugurting boshingda qolsin!

Sandiqqa jaranglab ochiladigan qulf qo‘yilgan, bir vaqtlar Enaqutining o‘zi shuni istagan edi. Chunki u vaqtda bisoti hali yo‘q hisobi edi. Ammo hozir sandiq qimmatbaho narsalarga to‘lib borayotibdi. Shuning uchun Enaquti qulfning jaranglashini istamaydi.

Ammo u kalitni har qancha ehtiyotlik bilan buraganda ham qulf juda qoidasini keltirib jaranglaydi. Enaquti shivirlab uni qarg‘aydi:

— Ilohim ovozing o‘chsin, Xudoyo yer yutsin shu jarang-jurunglaringni!

Enaqutining joni ham, imoni ham go‘yo shu sandiqda edi. Shuning uchun sandiqning kalitini o‘g‘irlatib qo‘yishdan qo‘rqar, uni sochbog‘iga bog‘lab, bir necha joyidan tugar, kechasi yostig‘ining tagiga qo‘yib yotar edi.

Bugun uning anchagacha uyqusi kelmadi. Uzukdan yulgan o‘ljasi endi unga ozday tuyular edi. “Ahmoq bo‘lmasam, hamma narsasini olib, ship-shiydam qilib jo‘natmaymanmi!..” So‘ragan narsamni bermay iloji yo‘q edi-ku. Ha, mengina o‘lay-a, shunga farosatim yetmabdi-ya!”

Enaquti tushida ham Uzukni ko‘rib chiqdi: Uzuk undan qo‘rqib, yalinar emish, bir quchoq shohi ipak ko‘ylaklarni olib kelib, Enaqutining oyog‘i tagiga tashlagan emish. Enaquti bu qimmatbaho narsalarni endi yig‘ishtirib olib ketmoqchi bo‘layotganda birdan kichkina qizi uyg‘otib yubordi.

Uyquga to‘ymagan Enaquti qizini qarg‘ab, uch-to‘rt oyday beri yuvilmay kigizga o‘xshab ketgan sochini qashib o‘rnidan turdi.

O'choq boshiga borib, kulni kovlab, bir-ikkita cho'g' topdi-da, chilimning sarxonasiga soldi. Cho'g' ustiga Kattaqo'rg'on tamakisidan qo'yib, chilimning suvini qurillatib tortishga tushdi. Tamaki o'tkir ekanmi, yoki Enaquti charchab darmoni ketib qolgani uchunmi, ko'zlari ola-kula bo'lib, yotib qoldi. Buni katta qizi ko'rib, qo'rqib ketdi va otasini chaqirdi. Enaqutining cho'loq eri bir oyoqda hakkalab yurib, uning boshiga bordi, so'ng qiziga qarab:

— Onang battar bo'lsin, qizim! — dedi. — Tong sahardan yarim kechagacha eshonning xizmatini qiladi. Uyga kelsa mana bu sandiq bilan chilimdan boshqa narsani bilmaydi. Yana bu pirga qo'l bergan taqvodor xotin emish!

Enaquti o'ziga kelib, joyidan turib o'tirdi va yana qichigan boshini qashidi. Qizi ham otasining tarafini olib:

— Oyi, siz o'sha eshonlarni deb muncha o'lib-tirilmasangiz ham bo'lar,— dedi.— Sochingizni yuvishga vaqt topolmaysiz-a. Qarang, qo'lingiz bo'sh qoldi deguncha boshingizni qashiysiz. Turing, men suv ilitay, boshingizni yuving...

Enaquti eshikdan tashqariga qarab:

— Voy, tong otib qolibdi-ku,— dedi.— Men tezroq boray...

U shoshilib o'rnidan turar ekan, eri kinoya bilan:

— Ha, tezroq yugur, eshon buvaga tahorat suvi ilitib ber!— dedi.

— Sening ishing bo'lmasin, cho'loq!— dedi Enaquti birdan g'azablanib.— Bolalarni men boqyapman, men kiyintiryapman!

— Kerak emas bunaqa boqishingiz!— deb, katta qizi yana otasining tarafini oldi. Enaquti unga qarshi so'z topib berolmay, jahl bilan uyidan chiqdi, eshonlarnikiga borar ekan, tongdan xuftongacha tinmasligi, boshini yuvishga vaqt topolmasligi o'ziga ham alam qildi, "Shuncha urinib topganimga bir sandiq to'lmaydi,— o'ylandi u va Cherkez eshonning uyida pulga to'lib turgan po'lat sandiqni ko'z oldiga keltirdi:— Eshon ham, o'g'li ham hech ish qilmaydi-yu, davlatlari yer-u ko'kka sig'maydi. Xotinlari bor, kelinlari bor, hammasi oyog'ini uzatib yotadi, men sho'rlik sahar turib, tahoratga suv ilitib berishim kerak... Hali bu Uzukning qochganini, ikkita ot yo'qolganini eshitishsa, yana men baloga qolaman... Undan ko'ra... ota-bolani bir-biriga qarshi gij-gijlab, o'zim chetda turganim yaxshi emasmi?"

Enaquti shu fikr bilan Cherkez eshonning hujrasiga tomon burildi. Uzuk bilan yana uchrashish umidida yurgan Cherkez bugun soqol-mo'ylovini yana bir tarashlab qirgan, hozir chirog'i yoniq hujrada shiftga tikilib, oshiqlarcha xayol surib yotar edi.

Enaquti ostonada ko'ringan zahoti Cherkez biron xushxabar eshitish umidi bilan darrov o'rnidan turdi.

— Assalomu alaykum Cherkezjon... Shu bugun meni bir qarg'a qag'illab uyg'otdi... Xudoyo o'zing asra, deb o'rnimdan turdim. Uzuk kecha yon berganday bo'luvdi, "mayli, Cherkez eshon bilan yana bir gaplashaylik" degan edi. Hozir shuni aytay deb oldiga kirsam, uyida yo'q... qochib ketibdi!

— Qochib ketibdi?! Bir o'zimi?..

— Kecha bir yigit yurgan edi. Bugun o'sha ham ko'rinmay qoldi. Birga qochganga o'xshaydi. Otxonada ikkita ot yo'q!

— Obbo! — deb Cherkez kafti bilan peshonasiga urdi. Agar Enaquti bo'lmaganda, Cherkez alamidan yig'lab yuborishi mumkin edi. — Yaxshi ko'rgan yigiti bor ekan-da. Bizni umrbod dog'da qoldirib ketibdi-da! Men uni sevganim bilan, uning o'z sevgilisi bo'lsa, qo'limdan nima ham keladi?! Agar Uzuk otga minib qochib ketayotganini hozir ko'rib qolsam ham, men uning yo'lini to'solmas edim. Negaki, qalbim unga asir bo'lgan! Men yalangoyoq, yalangbosh holda uning ketidan dunyoning u boshigacha ergashar edim... Hayhot, baxt qushimdan ayrilibman!

Enaquti Cherkezdan bunaqa gaplarni hech kutmagan edi. "Chini bilan savdoyi bo'lib qolayotibdimi?" deb o'yladi.

— "Baxt qushim" deganingiz sizning tirnog'ingizga arzimaydi, Cherkezjon. Arzisa, bunday qilmas edi!

— Yo'q, men unga arzimayman. Enaquti. Sen bilmaysan: Uzukjamolday qizni men umrim bino bo'lib ko'rganim yo'q. Bundagi husn, bundagi sadoqat, bundagi latofat, bundagi mardlik kamdan-kam ayolda bo'ladi. Men uni yana bir ko'rish orzusi bilan yonaman! Mening qalbimda Uzuk yoqib ketgan muhabbat olovi bir umr o'chmaydi!..

"Shundaymikin? — o'ylandi Enaquti. — Hozir ko'ramiz!"

— Rost, Uzukni ko'rgan odam oshiq bo'lmay turolmas edi. Pirimiz — sizning otangiz juda ulug' eshon. Lekin shu kishi ham Uzukka oshiq bo'lib qoldilar-da.

Cherkez bu gapga ishonmadi. Enaquti eshonning yuzida Uzukning tirnog'idan qanday izlar qolganini va buning sababini aytib berdi. Eshon yuzini bog'lab hujrasidan chiqmay yotganini Cherkez ham ko'rgan edi. Buning boisini endi bildi-yu, iflos bir narsani chaynab yutganday jirkanib:

— Nahotki shunday bo'lsa! — dedi. — Hozirgina mening yuragimda yonib turgan sof muhabbatga sen iflos bir suvni sepding-u, ishq olovini o'chirding. Enaquti, sen menda o'z otamga qarshi nafrat uyg'otding. Hozir men sendan ham nafratlanaman, o'zimdan ham! Sen shu voqeani bilgan bo'lsang, qanday qilib Uzuk bilan mening oramda qo'shmachilik qilib yurding? Ham otasini, ham o'g'lini bir juvonga qo'shish... bu qanday dahshat! Yo'qol bu yerdan, yalmog'iz!

Enaquti bu yerdan chiqdi-yu, to'g'ri Saidahmad eshonning hujrasiga kirdi. Eshon kalish-mahsisini kiyib, bomdod namozini o'qish uchun machitga ketmoqchi bo'lib turar edi. Enaquti birdan uning oyog'i tagiga yiqildi:

— Qurboningiz bo'lay, pirim! Gunohimni kechiring. Men osiy banda bugun tahoratingizga suv ilitib berolmadim! Mening gunohimdan o'ting, pirim!

Enaquti yuzini eshonning mahsisiga ishqar edi.

— Tup, gunohingdan kechdim! — dedi eshon. Ammo Enaquti eshonning mahsili oyog'iga mahkamroq yopishib, yig'lab yubordi:

— Pirim, kech qolganimning sababini aytishga ruxsat bering!

— Ayt, ruxsat.

— Qurboningiz bo'lay, pirim, mening uyqumdan halovat ketdi. Xotirim jam emas, yordam bering! Uch kundan beri men sizning qarshingizda gunohkorman, bir sirni sizdan yashirib yuribman. Agar shu yomon sirni sizdan yashirsam, u dunyo-yu bu dunyom kuyib ketadi...

— Qanaqa sir? Qani, so'zla...

— Pirim, aytishga tilim bormaydi...

— Tilingni tezroq qimirlat...

— Xo'p... O'g'lingiz... pushti kamaringizdan bo'lgan yolg'iz farzandingiz yomon yo'lga kirib ketayotibdi!..

— A?

— Ha, mulla Cherkez bu yerda turgan Uzukka oshiq bo'lib qolib, soqol-mo'ylovini tag-tugi bilan qirib tashladi...

— Qachon?!

— Uch kun bo'ldi. Uch kundan beri, sizga ko'rinmaydi, machitga bormaydi. Ko'cha-kuyda uni ko'rganlar: "Eshonimizning o'g'illari dindan qaytibdi, otalari nega indamaydi?" deyishadi...

Eshon bu gaplardan dahshatga kelib:

— Oxir zamon! Qiyomat!— deb qichqirdi. Hassasiga ikki qo'llab suyanib, butun vujudi qaqshab og'riyotgandek to'lg'andi. Enaquti uni suyab qolmoqchi bo'lib qo'ltig'iga kirdi:

— Voy, ko'zim ko'r bo'lsin, shunday ishlarni ko'rguncha!— dedi. Eshon murdaday oqarib ketgan, nuqul:

— Qiyomat! Oxir zamon!— der edi.

Enaquti ko'zlarini ola-kula qilib, o'layotgan buzoq qiyofasiga kirdi. Qiyomat qoyim o'z komiga eshonni tortganmi yoki undan ham oldin Enaqutini tortganmi — bilish qiyin edi. Eshon hujradan chiqib supachaning chetiga o'tirdi-da, ancha vaqt sukut qildi. Enaquti alam bilan yig'lar, ko'zlarini ola-kula qilib, hushidan ketayotganday bo'lar edi. Eshon unga bir qaragan edi, kayfi uchib, eti jimirlab ketdi:

— O'zingni bos...

— Madad bering, pirim!..

— Xudo senga madad bersin! Allohu taolo qo'llab-quvvatlasin, sen bizning sodiq muridimizsan. O'z piring bilan bir tan-u bir jon ekanliging shubhasiz, o'zingni bos...

Enaquti endi sal o'ziga kelganday bo'ldi:

— Buyuring pirim! O'l desangiz o'lay, tiril desangiz tirilay!

— Hozir machitga bor. So'fi meni kutmay namozni boshlayversin. Menda machitga borishga mador ham yo'q, jur'at ham! O'g'lim shunday qilgan bo'lsa, odamlar buni bilsa, men ularning ko'ziga qaysi yuz bilan ko'rinaman?.. Namozdan keyin o'tog'asilardan besh-olti kishini mening hujramga taklif qil. — Eshon o'ylanib turib, ularning hammasini nomma-nom aytdi. —

Keyin Cherkezni ham chaqirasan. Bekmurodboy bilan keyin... nonushtani birga qilamiz.

— Xo'p bo'ladi, pirim!

Oradan bir soat o'tar-o'tmas Enaquti eshonning buyrug'ini aytganiday qilib bajardi. Rangi-quti o'chgan Saidahmad eshon to'rda bo'shashib o'tirar, uning qarshisidagi besh-oltita mo'ysafid nima bo'lishini kutar edi. Yuzi tarashlangan Cherkez o'zini beparvo ko'rsatishga tirishib, goh devorga, goh shiftga ko'z tashlab qo'yardi.

— Sizlar qishlog'imizning obro'li odamlari sizlar,— deb gap boshladi eshon,— Bu dunyoda har kim o'z nomini, o'z or-nomusini pok tutishga harakat qiladi. Lekin sizdan bir gunoh sodir bo'lsa, uni bandalaridan yashirganingiz bilan Xudodan yashirolmaysiz. Men Xudodan yashirolmaydigan sirimni sizlardan yashirmoqchi emasman. Men zo'r orzu-umidlar bilan shu yolg'iz o'g'ilni o'stirdim, o'qitdim, voyaga etkazdim. "Dono bo'libdi", deb quvondim. Lekin endi bilsam, ilm-u donish buni buzib qo'yibdi. O'g'lim meni Xudoning oldida ham, bandalarining oldida ham sharmanda qildi. Haq yo'lini yo'qotib, shaytonning yo'liga kirdi. Qariganda meni malomatga qoldirib, soqol-mo'ylovini qirib, — Eshon "oshiqlik ko'yiga tushibdi" demoqchi edi, ammo o'zi ham bir marta shu ko'yga tushganini eslab, aytishga yuragi betlamadi...— shaytonday silliq bo'lib o'tiribdi. Men o'g'limni bu ahvolda ko'rgandan ko'ra o'lib ketganim yaxshiroq edi! Endi mening unga qaraydigan ko'zim yo'q, unga aytadigan so'zim yo'q! Odamlar, menga madad beringlar!

Oraga uzoq jimlik cho'kdi. Nihoyat, qishloqning eng badavlat mo'ysafidlaridan biri tomoq qirib, gap boshladi:

— Eshon og'a, sizga yordamimiz tegsa, jon deymiz. O'g'lingiz haqiqatan dono yigit. Yomon odam emas. Yaxshi maslahat bersak, balki yana to'g'ri yo'lni topib olar.

— Ha, yoshlikda odam gunoh qilganini bilmay qoladi,— dedi yana bir mo'ysafid.— Lekin yaxshi ish bo'lmabdi-da. Ha, axir soqolning har mo'yida bitta farishta bo'larmish. Shuncha farishtani birdan qirib tashlabdilar...

— Qani o'zlari aytsinlar, nega shunday qilgan ekanlar?

Hamma Cherkezga qaradi. Cherkez bir lahza o'ylanib turib:

— Sababini sizlarga aytolmayman,— dedi.— Buni bir Xudo biladi-yu, bir o'zim bilaman. Lekin soqolni olayotganimda har mo'yida bitta farishta borligini unutganim yo'q,— Cherkez bu so'zlarni aytayotib kinoyali kulimsiradi.— Gap shundaki, farishtalar har mo'yning tagida o'tiradi. Soqolni ustara bilan sekin olsangiz, farishtalarga ozor yetmaydi. Shuning uchun soqol yana o'saveradi. Ammo ba'zi odamlar yosh ko'rinmoqchi bo'lib soqoliga tushgan oqni mo'ychinak bilan yulib tashlaydi, ana unda farishtalar oyoq osti bo'lib ketadi!

Shunday deb, Cherkez otasi tomonga ma'noli, bir nazar tashlab qo'ydi. Saidahmad eshon soqoliga tushgan oqni mo'ychinak bilan terganlarini eslab, ko'zlarini yerga tikdi. So'ng o'g'li tavba qilish o'rniga otasiga kinoya qilayotgani eshondagi uyatni g'azabga aylantirdi.

— Sen buzuqsan! Sen behayosan!.. Shaharlarda yurib uyatni yo'qotgansan!

Eshon "buzuqsan" deb o'g'lining Uzukka oshiq bo'lib yurganini nazarda tutmoqda edi. Cherkez buni sezdi-yu, bugun ertalab Enaquti aytib bergan voqeani esladi. Eshonning yuziga tikilib qaragan kishi Uzukning changalidan qolgan izni ko'rishi mumkin. Cherkez otasining yuzidagi o'sha izga ataylab tikilib turib:

— Haqiqiy behayo kim? — dedi. — Shaharda emas, hujrada o'tirib buzilganlar ham bor!

O'g'lining gapi tagdor ekanini sezgan eshon qaltirab ketdi:

— Sen tavba qilasanmi, yo'qmi?!

— Nima gunohim uchun tavba qilay? Odam o'ldiribmanmi yo birovning mol-dunyosini o'g'irlabmanmi?

— Otangizni xafa qilmang, gunohingizni bo'yningizga olib, tavba qila qoling,— dedi mo'ysafidlardan biri Cherkezga.

Boshqalar ham eshonning tarafini oldi. Bu Cherkezning g'ashiga tegdi.

— Mendan kattaroq gunoh qilganlar bor, o'shalar tavba qilsin!— dedi u.— Agar otam menga: "Hujrada o'tirasan, odamlardan sovg'a-salom olib, "ezib ichki" yozib berasan, umring shu bilan o'tadi" desalar, bunga rozi emasman. Chunki "ezib ichki"ning

siyohi odamlarning kasalini battar qiladi. Kasalni tuzatish o'rniga battar qilayotgan mullalar mensiz ham oz emas!

— Odamlar, bu dinidan qaytganning gapini eshittilaringmi? Endi men buni "o'g'lim" deyolmayman. Aytinglar, ketsin bu dargohdan!

— Bo'pti, shaharga borib, o'zimga yarasha bitta uychani olib yashayveraman!

— Yo'qol! Ko'zimga ko'rinma!

Eshik ortidan bu gaplarning hammasini yashiriqcha eshitib turgan Enaquti "ota-bola ikkovini ham bopladim!" dedi-yu, eshonoyimning oldiga yugurdi. Eshonoyimga o'g'li Cherkez soqol-mo'ylovini olib tashlaganini, otasi buni bilib, boshqa mo'ysafidlarni chaqirib, Cherkezni quvib yuborganini go'yo zo'r qayg'u va alam bilan aytib berdi.

— Voy, sho'rim! Yolg'iz o'g'ildan ayrildimmi hali?..— deb, eshonoyim dod solib yig'lashga tushdi. Enaquti unga qo'shilib yig'lagan bo'ldi. Ko'ziga sekin tupuk surtib, ho'l qildi. So'ng u yerdan chiqib, O'g'ilnozikning hujrasiga tomon yo'l oldi.

Hozir Enaquti o'zini eshonlar dargohining hokimi mutlaqidek sezar, hammani boplashga qodir ekanidan faxrlanib qo'yar edi.

O'g'ilnozik choy damlayotgan edi. Enaquti salobat bilan eshikdan kirar ekan, unga salom ham bermadi. Uzukni qochirgani sababli boshi baloga qolishi mumkinligini sezib turgan O'g'ilnozik uning avzoyini ko'rib yuragi po'killab qoldi.

— Kiring, opa, choy damladim, birga ichamiz,— deb Enaqutiga manzirat qildi. Enaquti tahdidli tovush bilan:

— Men sendaqa xotinning qo'lidan choy ichmayman!— dedi.

"Hammasidan xabardor bo'libdi!" degan o'y O'g'ilnozikning bo'g'inlarini bo'shashtirib yubordi.

— Ha, nega daming ichingga tushib ketdi? Hech narsani bilmaganday choy ichib o'tiribsan. Qochirgan odamlaring nariroqqa borib olsin deyapsanmi? Eshonning tabarruk kiyimlarini kimlarga berding?!

O'g'ilnozik tamoman qo'lga tushganini his qilib, yuzini qo'llari bilan yashirdi-da:

— Voy!— dedi, boshqa so'z topolmadi.

O'g'ilnozik sarosimaga tushgan sari Enaquti ko'krak kerib, dimog'idan eshakqurt yog'ilar edi. U O'g'ilnozikning qo'lini yuzidan olib tashladi-yu:

— Javob ber! — dedi.

— Voy, dardingizni olay opajon, meni o'ldirsangiz ham, o'tga tashlasangiz ham o'zingiz bilasiz. Menga rahmingiz kelsin! Yorug' kun ko'rmadim. Boshqalar yorug' kun ko'rsin, deb shunday qildim. Endi men sizning qulingizman. Nima desangiz qilay. Mana, sandig'imning kaliti — ichida nimaiki bo'lsa hammasi sizniki!..Oling!..

Enaquti indamay yerga qarab turardi. Uning yumshaganini sezgan O'g'ilnozik:

— Qani, opajon, o'tiring,— deb dasturxon oldiga ko'rpacha to'shadi. Enaquti o'tirdi. O'g'ilnozikning qo'lidan bir piyola choy ichdi-da:

— Qani, haligi kalitni ber-chi,— dedi.

O'g'ilnozik sandig'ining kalitini darhol unga berdi:

— Agar sen mening aytganimdan chiqmasang, — dedi Enaquti,— men hech narsani bilmayman. Tuya ko'rdingmi, yo'q. Tushundingmi?

— Tushundim, opajon, tushundim.

* * *

Enaquti O'g'ilnozikning sandig'idan kerakli narsalarni kechasi hovli tinchiganda olib ketadigan bo'ldi-yu, kalitni sochbog'iga bog'lab qo'ydi. Endi Uzukning qochganini eshonga ma'lum qilish qolgan edi. Enaquti eshonning hujrasi oldiga kelib, odatdagiday tirqishdan mo'ralab qaradi. Ichkarida oq markizetdan to'n kiygan savlatli Bekmurodboy o'tirardi. Yana uch-to'rtta notanish kishi bor. Bekmurodboy kissasidan pul to'la charm hamyonini olar ekan:

— Eshon og'a, biz kelinimizni olib ketgani keldik, — dedi. — Uyezd hokimi qog'oz qilib berdi. Endi Omonmurod yangasi bilan faytonda kelib, uni uyga olib ketadi. Men shaharga tushadiganman.

— Oq poshsho qo'ygan hokim buyurgan bo'lsa, jonim bilan,— dedi eshon boyning hamyoniga o'g'rincha bir nazar tashlab.

"Pulini olsin, keyin kirarman!"— dedi tirqishdan mo'ralayotgan Enaquti ichida.

Bekmurodboy hamyonidan olib, uzatgan pullarni eshon endi cho'ntagiga solgan ediki, hujraning eshigi taraqlab ochildi-yu, Enaquti dod solib kirib keldi.

— Pirim! Sharmanda bo'ldik, pirim! — deb eshonning oyog'iga yiqildi.

Eshonning kayfi uchib, uni sochidan tortdi:

— Yana nima falokat bo'ldi? Ayt tezroq!

— Dod, malomatga qoldik! Bekmurodboyning kelini qochib ketibdi! O'ynashib yurgan yigiti bilan qochibdi!

Cherkez eshon bilan Bekmurodboyning otlarini minib qochishibdi!

Bu so'zlarning har biri Bekmurodboyning boshiga bir kaltak bo'lib urilar edi. Shuncha dovlashib, shuncha xarajatlar qilib qo'lga kiritgan kelini o'ynashi bilan qochsa! Yana Bekmurodboyning otini minib qochsa! Buning uyatiga qanday chidash mumkin? Bekmurodboyning ko'zlari yirtqich hayvonning ko'zidek qizarib, yonib ketdi.

Eshon sarosimaga tushib, zaif tovush bilan:

— Yo Ollo! Yo Ollo! Qanday kunlarga qoldim! — dedi.

— Bas qiling, eshon! — dedi Bekmurodboy g'azab bilan. — Sizga ishonib topshirgan omonatimizni qo'ldan chiqaribsiz, endi yig'lab-siqtashning foydasi yo'q. Odamlaringizga ayting, qishloq kishilaridan so'rashsin: qochganlarni ko'rgan odamlar bordir.

— Xo'p, xo'p, hozir buyuraman, — dedi eshon.

Enaquti eshonning buyrug'i bilan qishloqni aylanib, qochqinlarni so'roqlab chiqdi. Bu orada eshon o'zining otlaridan birini Bekmurodboyga egarlatib bergan, hujrada o'tirgan mo'ysafidlar uni kuzatib chiqishgan edi.

— Oxir zamonning alomati bu, — derdi eshon.

— Bu alomatni qon bilan yuvish kerak, — dedi Bekmurodboy. — Birovning kelinini olib qochgan haromining qoni bilan yuvaman bu malomatni.

— Kelin ham endi kelin bo'lmaydi, — dedi mo'ysafidlardan biri. — Boshqalarga kasri tegmasin uchun qo'lga tushgan joyida tiriklay ko'mish kerak.

— Tiriklay ko'mish oz! — dedi Bekmurodboy. — Men uning boshiga shunday kunlarni solamanki, yuz marta o'lish bundan afzalroq bo'ladi!

— Har qancha jazolasangiz haqqingiz bor, albatta, — dedi mo'ysafidlardan biri. — Lekin qishloqda uni ko'rgan-bilganlar gap-so'z qilishadi-da.

— Gap-so'z bilan mening ishim yo'q. Gap-so'z qiladiganlar avval menday mavqega yetsin! Mening tirnog'imga teng kelmaydiganlar gapirib ko'rsin-chi, nima bo'larkin! Mening mushtumimda olov muzga, muz olovga aylanadi! Buni biladiganlar oz emas. Siz u kelinni o'ldirish kerak deysiz. O'ldirish nima? Chumolini oyog'im bilan sal bossam — o'ladi. Men unga o'limdan beshbattar jazo topaman. Zindonda chiritaman! Ko'z yoshi, dard-u alam bilan o'tadi. Tengdoshlari o'ynab-kulganda uning qismati yig'i bo'ladi!

Darvozadan Enaquti kirib keldi va qochqinlarni hech kim ko'rmaganini aytdi.

— Mayli, boshqa so'roqlab yurmanglar, — deb Bekmurodboy otga mindi. — Men ularni qayerdan topishimni o'zim bilaman. Yerga kirsa, qulog'idan, osmonga chiqsa, oyog'idan tortib tushirishga qudratim yetadi!

## QOCHGAN HAM XUDO DEYDI, QUVGAN HAM

Tun. Tejen atroflaridagi yaylovlarning u yer-bu yerida cho'ponlar yoqqan gulxanlar miltillab turadi. Ismi kasbiga mos tushgan Cho'pon og'a qo'shda o'z cho'liqlari bilan choy ichib o'tirar, tosh o'choqda sho'rva bilqillab qaynar edi. Atrof jimjit.

Birdan itlar hurishib, kun chiqish tomonga chopib ketishdi. Cho'pon og'a o'sha tomonga o'girilib qaradi-yu, ikkita otliq yigitni ko'rdi. Bo'ribosarlar otlarga shunday sapchishar ediki, otliqlarning birortasini yiqitishlari ehtimoldan uzoq emas edi.

— Mergen, tur, qara!

Yoshi kattaroq cho'liq chopib borayotib:

— Oqboy! Yovbosar! — deb itlarning nomlarini aytib chaqirdi: — Tokurboy, beri kel! Oqboy!

Otliqlar qo'shga yaqinlashib salom berishdi. Ikkovi ham boy oilaning yigitlariga xos oq telpak, xrom etik, qizil ipak chopon kiyishgan. Otlari ham, egar-jabduqlari ham boyvachchalarga mos.

Cho'pon og'aning ishorasi bilan cho'liqlar ularning otlarini bir chetdagi qoziqqa bog'lab kelishdi.

— Mehmonlar, bizning uyimiz — mana shu ochiq yaylov, — dedi Cho'pon og'a. — Gulxan yoniga kelinglar, borimizni baham ko'ramiz. Qani, mana bu kigizning ustiga o'tiringlar.

Yigitlar u ko'rsatgan joyga o'tirib, fotiha uchun qo'l ko'tardilar. Fotihadan keyin Cho'pon og'a ularga:

— Xush kelibsizlar, — dedi.

Yigitlarning kattarog'i:

— Xushbaxtchilik bo'lsin, — deb qo'ydi. Yoshi undan kichikroq, ammo o'zi juda kelishgan ikkinchi yigit gapirmay jim o'tirar, cho'pon og'aning savollariga ko'proq kattasi javob berar edi.

— Cho'ponning qo'shiga mehmon kam keladi, — dedi cho'pon og'a. — Yaylovda odam ko'rmaysan. Odamga zor bo'lasan kishi. Qani, Mergen, sho'rvang pishgan bo'lsa, suz. Mehmonlar uzoq yo'ldan kelganga o'xshaydi.

Ovqatdan keyin cho'pon og'a mehmonlarga qapab:

— Yo'l bo'lsin? — dedi.

— Axalga bormoqchimiz.

— Maridan chiqdilaringmi?

Yigit xiyol ikkilanib:

— Ha, — dedi.

Cho'pon og'a boshqa savol berishdan o'zini tutdi:

— Mehmonlar, charchaganga o'xshaysizlar... Mergen, bularga oq kigizni to'shab ber...

Mehmonlar haqiqatan charchagan ekanlar, sal o'tmay uxlab qolishdi. Cho'pon og'a odatiga binoan tong otar-otmas turdi-yu, cho'liqlarni uyg'otib, suruv bilan jo'natdi.

O‘zi qo‘shga qaytib kelganda kun yorishib qolgan edi. Mehmonlar hamon uyquda. Yoshroq yigitchaning boshi oldida qora ilon kulcha bo‘lib yotibdi. Cho‘pon og‘a tayog‘ini oldi-yu, ilonni o‘ldirmoqchi bo‘lib, sekin yigitchaning boshiga yaqinlashdi. Durustroq qarasa, ilon deb o‘ylagani soch o‘rimi ekan. Yigitcha asli qiz ekan-u, erkakcha kiyinib, uzun sochini telpagi tagiga yig‘ib qo‘ygan ekan, kechasi uyqu bilan “siri” ochilganini sezmabdi.

Cho‘pon og‘a:

— Tavba!— deb yoqasini ushladi.

Shunda Uzuk uyg‘onib ketdi. Cho‘pon og‘a uni xijolat qilmaslik uchun o‘choq boshiga borib, choy qo‘ya boshladi.

Uzuk boshi ochilib qolganini sezib qo‘rqib ketdi va darhol Berdini uyg‘otdi.

— Voy, sharmanda bo‘ldim! Turing! Boshim ochilib qolibdi... Cho‘pon og‘a ko‘rdi hammasini!

— Qo‘rqma, yomon odamga o‘xshamaydi. Men o‘zim gaplashib tushuntirib qo‘yaman. Telpagingni kiy!..

Nonushta paytida cho‘pon og‘a Berdining otini so‘radi. Keyin:

— Boshlaringga biron kulfat tushdimi, nega bunaqa qilib yuribsizlar?— deb so‘radi.

Shunda Berdi bo‘lgan voqeaning hammasini aytib berdi. U hikoyasini tugatgandan keyin cho‘pon og‘a Uzukka otalarcha mehr bilan ko‘z tashlab:

— Balli qizim, yigit kishining dadilligi bor ekan senda, ilohim zavol ko‘rmagin,— dedi.— Quturgan boylarni boplapsizlar. Agar buni kechasi aytganlaringda haligacha to‘y qilar ekanmiz! Endi bugun shu yerda qolinglar. Mening sherigim bor. Qishloqdan un-pun olib kelishga ketgan. Shu kelsa, bo‘g‘irsoq pishiramiz... Choydan ich, qizim!

Uzuk Berdiga: “Tezroq ketganimiz yaxshi emasmi?” deganday qilib qaradi. Shunda Berdi o‘ylanib turib:

— Bugun uxlab qolibmiz, kun yorishib ketibdi,— dedi.— Kunduz kuni yurishimiz to‘g‘ri emas. Bizni qidirib yurishgandir. Kechgacha qolsak qolaylik.

Bu fikr hammaga ma’qul bo‘ldi. Qishloqqa ketgan cho‘pon tushga yaqin qaytib keldi. Bo‘g‘irsoq pishirishib, go‘sht qovu-

rishib, kechgacha yaxshigina ziyofat tayyorlashdi. Suruv qo'tonga qaytgandan keyin cho'liqlar sivizg'a chalishdi.

Anchagacha o'yin-kulgi bo'ldi. Kuni bilan Bekmurodboyning odamlari hid olib kelib qolishidan xavotirlangan Berdi kechki ziyofat paytida buning hammasini unutdi.

Ammo umrida ko'p narsani ko'rgan cho'pon og'a xavf-xatarni unutmagan edi. Chunki qishloqqa borib kelgan sherigi ikkita otliqni ko'rgan, ular: "Sheriklarimizni yo'qotdik, bizga o'xshagan ikkita otliqni ko'rmadilaringizmi?" deb so'rab yurar edi.

Qorong'i tushgandan keyin cho'pon og'a Berdi bilan Uzukka oq yo'l tilab, fotiha berdi:

— Xudo sizlarga yor bo'lsin, jabrdiyda yoshlar ekansizlar, ilohim qo'sha qaringlar, bizning kichkina ziyofatimiz to'y bo'lmasa ham, to'y o'rnida ko'ringlar, safarlaring bexatar bo'lsin, manzillaringga eson-omon yetinglar, omin, Allohu akbar!

Hamma "omin!" deb, o'rnidan turdi. Mehmonlar egarlab, taxt qilib qo'yilgan otlariga minishdi. Cho'pon og'a Berdiga kechasi qaysi yulduzlarga qarab yo'l yurishni tushuntirdi:

— Ertaga ertalab bir taqirdan o'tganlaringdan keyin Dushak degan joyga etasizlar. Undan narida temiryo'l bor. Temiryo'lning o'ng tomoni bilan ketaveringlar. Temiryo'ldan uzoq ketmay, uni yoqalab boraversalaring, indinga ertalab Axalga yetib olasizlar.

— Rahmat, otajon!

— Oq yo'l! Xayr!

— Xo'sh!

Cho'ponlar ularni kuzatib ancha vaqt gaplashib o'tirdilar. Keyin uyquga ketdilar. Tun yarmidan oshganda Cho'pon og'a kuchuklarning qattiq hurishidan uyg'onib ketdi.

Uzoqda qo'shga qarab kelayotgan ikkita otliq ko'rindi. "Bechora Berdilar yo'lni topolmay qaytib kelyaptimi?" deb o'yladi, Cho'pon og'a otliqlarga peshvoz chiqarkan.

Otliqlar til uchida salomlashishdi-yu, bu yerga kelgan ikkita otliqni so'rashdi.

"Qayoqdan eshitishibdi ekan? Yolg'on gapirsam, otlarning izidan biladi!"

— Ha, kelishuvdi.

— Yosh yigitlarmi?

— Ha.

— Qachon ketishdi?

Cho'pon og'a endi rostini aytgisi kelmadi:

— Tushdan keyin ketishuvdi.

— Obbo, ancha bo'libdi-ku.

— Qani tushinglar, mehmonlar, otlaring charchaganga o'xshaydi, dam olingilar.

Bu bilan cho'pon og'a "baribir quvib yetolmaysizlar" demoqchi edi. Yigitlardan biri buni sezgandan g'ashi kelib:

— Qayoqqa ketishdi?— dedi.

— So'ragan edim, aniq aytishmadi.

— Qaysi tomonga ketishganini so'rayapman?

Cho'pon og'a Berdilar ketgan tomonga qarama-qarshi tarafni ko'rsatib:

— Mana shu tomonga, — dedi. — Bilmadim, Chashginga borishmoqchimikan?

— Qani, yur tezroq,— dedi otliq yigit sherigiga. — Chashginga borib tunashgan bo'lsa, hozir yetib boramiz! Hayda!

Ular otlarga qamchi urib qorong'ilikka singib ketishdi. Cho'pon og'a o'zicha kulib qoldi.

* * *

Bekmurodboy o'zining naqshinkor uyida ukasi Omonmurod, sodiq yigitlari Sapar, Qovus va boshqalar bilan gaplashib o'tirishardi. Hammalarining yuzlari tund. Ayniqsa, yigitlar juda charchagan — uch kundan beri otdan tushmay, Mari bilan Bayramalining atrofini titkilab chiqishdi, ammo Berdilarni topisholmadi.

— La'natilarni yer yutib yubordimi yo shamol osmonga uchirib ketdimi, bilmay qoldim,— dedi Omonmurod.

— E, o'zlaring bo'shsanlar!— dedi Bekmurodboy. — Durustroq so'roqlasalaring, iziga tezroq tushar edilaring.

— Bundan ortiq qanchalik so'roqlash kerak? Bozorga borib "xotin yo'qotdik" deb jar solib bo'lmasa!

— He, izini ham topgan edik!— dedi ko'zi g'ilay Sapar.— Bir cho'ponning qo'shiga tushib, keyin Chashginga qarab ketgan ekan. Chashginga ketlaridan borib bir kecha-yu, bir kunduz qidirdik...

— Ular Chashginga ketgan emas,— dedi Bekmurodboy.— Men Subhonboy bilan uchrashib, kalavaning uchini topganga o'xshab turibman. Bizning yalangoyoq kelinimizni Berdi degan bir cho'pon olmoqchi bo'lib yurgan ekan. Bundan besh-to'rt kun oldin shu cho'pon suruvni tashlab, Saidahmad eshonning oldiga kelgan ekan. Bir kun turib, ertasiga gum bo'libdi. O'sha kuni kechasi bizning kelin ham gum bo'lgan. Demak...

Omonmurod tishlarini g'ijirlatib:

— Nahotki sassiq bir cho'pon bilan qochgan bo'lsa!-dedi.— Bunaqa sharmanda bo'lganimdan o'lganim yaxshi edi.

— O'lgandan o'ldirgan yaxshi,— dedi Bekmurodboy.— Subhonboyning aytishicha, u bola Axalga qochgan.

— Axalga?

— Ha, opasi Axaldan ekan, o'sha yoqda tog'alari bor ekan.

— Unday bo'lsa, poyezdga tushib borsak ham bo'ladi,— dedi Sapar.

— Yo'q, Qovus, Omonmurod uchovlaring otliq jo'naysanlar,— dedi Bekmurodboy.— yo'l-yo'lakay so'roqlab borasanlar. Axalga borsa, Dushak, Tejenni bosib o'tadi. Agar hali yo'lda bo'lsa, tutgan joylaringda yigitini itday qilib o'ldiringlar... Lekin buni hech kim bilmasligi kerak, bo'lmasa, oq poshshoning mahkamalari ko'p...

— Qanjiqni ham tiriklay yerga ko'maman!— dedi Omonmurod.

— Yo'q, unisini tirik olib kelib menga topshirasanlar, uni nima qilishimni o'zim bilaman. Uni yuz marta o'lgandan battar qilaman dedimmi, aytganim bo'ladi. So'zimning ustidan chiqmasam, "tuf" degan tupugimni qaytib og'zimga olganday bo'laman.

— Birortamiz Axalga poyezdda borsak bo'lar edi-da,— dedi Sapar.

— Poyezdda men o'zim Valiboy bilan birga boraman, — Bekmurodboy charm hamyonini olib, undan bitta qog'oz chiqardi: — mana bu qog'ozni senlar ham ko'rib qo'yinglar. Mening oshnam polkovnikka yozdirib, muhrini bosib berdi. Bir ishkallik chiqsa, Axalning uyezd hokimiga ko'rsatamiz. Agar unda ham bo'lmasa, o'sha yerli polkovnikka sim qoqamiz, Ashxobod bilan gaplashib, hamma ishimizni to'g'rilab beradi. Qani, vaqtni o'tkazmasdan otlaninglar. Valiboy, biz ham yo'lga tayyorlanaylik...

## HAR KIM O'Z KO'MOCHIGA KUL TORTADI

Shaharga ko'p tushib turadigan archin Mamat Bekmurodboy zo'r chiqqanini, uyezd hokimi Uzukni unga xatlab berganini, ammo qiz uni ham dog'da qoldirib qochganini ko'p odamdan oldin eshitdi. Uyiga qaytgandan keyin qishloqning eng obro'li mo'ysafidlaridan to'rt kishini chaqirib, tovuq palov bilan ziyofat qildi, ko'k choy damlatib olib kelib qo'ydi, so'ng gap ochdi:

— Xo'sh, o'tog'asilar, Murodning qizini qutqarish uchun men qanchalik yugurganimni bilarsizlar, — dedi. — Sudda qizni Bekmurodboydan tortib olib, eshonnikiga jo'nattirdik...

— Ha, katta ish qildingiz, archin Mamat...

— Rahmat sizga...

— Lekin bu katta ishga qanchalik katta pul ketganini bilmaysizlar. Pristavga, advokatga, divalga... hammasi bo'lib bir ming-u yigirma tuman pulimiz ketdi...

Aslida besh yuz yigirma tuman ketgan, besh yuzini archin o'ziga "xizmat haqi" deb olgan, ammo buni hech kimga aytmas edi.

— Endi bu yog'ini eshitingizlar,— davom etdi archin.— Bekmurodboy uyezd hokimiga biznikidan ham katta pullar berib, sudning qarorini bekor qildiribdi.

Agar biz Ashxobodga arz qiladigan bo'lsak... avvalgidan besh barobar ko'p pul ketadi. Nima qilamiz? "Mol-u dunyo ketsa ham, or-nomus ketmasin", deymizmi yoki...

Mo'ysafidlar o'ylanib qolishdi. Nihoyat, ulardan biri:

— Tavakkal,— dedi.— Eldan yiqqan pulimizdan yana ikki ming besh yuz tuman qolgan edi. Bu yetmasa, yana yig'amiz.

— Ha, mol-u dunyo ketsa ketsin, or-nomus ketmasin! — dedi yana bir o'tog'asi.

Archin Mamat miyig'ida kuldi-yu:

— Sizlar yaxshi odamsizlar, lekin u qiz hammamizni boplab ketibdi,— dedi.

— Qanaqasiga?

— E, so'ramang. Eshonnikida bir yigit bilan topishibdi. Ikkovi ikkita otga minibdi-yu, bir kechada g'oyib bo'lishibdi. Bek-

murodboy ahmoq bo'lib uch kundan beri qidirarmish, hech joydan topolmasmish!

O'tirganlardan biri beixtiyor:

— He, boplabdi, he, otasiga rahmat! — deb kulib yubordi.

Soqolini tishlab o'ylanib o'tirgan yana bir odam:

— Men ham qoyilman! — dedi. — O'sha qizni ko'rsam, telpagimni olib oyog'iga tashlayman[1].

— Yigit kim ekan?

— Boylardan bo'lsa kerak. Kambag'al odamning qo'lidan bunaqa ish kelarmidi?

— Kambag'al bilan qochib qiz ham ahmoq emasdir!

— Ha, albatta, — dedi archin Mamat.

U yigitning Berdi ekanini payqardi-yu, ammo o'tog'asilarga bu to'g'rida og'iz ochmas edi. Aks holda, ular hammasi qizga qarshi bo'lib qolishi, undan ixloslari qaytishi, so'ng, archin hozir amalga oshirmoqchi bo'lgan reja o'tmasligi mumkin edi.

— Agar qiz, — dedi archin Mamat, — boy odam bilan qochgan bo'lsa, Bekmurodboy hech narsa qilolmaydi. Chunki ikki tomon barobar pul to'kkandan keyin, gapni qizning ixtiyori hal qiladi. Agar qiz "men palonchi bilan turishga rozi emasman, ko'nglim palonchida" desa, rus amaldorlari bu gapni inobatga oladi.

— Unday bo'lsa, bizga ish qolmabdida!

— Ha, ishimizning chigalini qizning o'zi yechib qo'yibdi, — dedi archin Mamat. — Endi men sizlardan maslahat so'ramoqchiman. Shu qizni qutqarish uchun eldan yiqqan pulimizdan ikki yarim ming tumani turibdi. Shuni odamlarga tarqatamizmi, yoki?..

Oraga jimlik cho'kdi. Bir necha kishi bezovtalanib, qimirlab qo'ydi. Ikki ming besh yuz tuman naqd puldan voz kechish qiyin edi.

— Hey, archin Mamat, o'zing nima deysan?

— Sizlar nima desalaringiz — shu.

— Odamlar rozi bo'lib bergan pulni tarqatish nima kerak?

— Bo'lishib olamizmi?

— Ey, archin-e, o'zing shunday demoqchisan-ku, nega aytmayapsan! Tuyaga minganda egarining ortiga yashirinib bo'ladimi?

[1] Turkmanlar birovga tan berganda, qoyil bo'lganda boshidagi telpagini olib uning oldiga qo'yishadi.

Hammalari kulib yuborishdi.

— Xo'p, bo'lib olamiz! Mana, pul...

Qishloqning kambag'allari o'zlariga o'xshash bir bechoraga yordam berish uchun to'plagan pulni besh badavlat o'tog'asi bo'lishib olishdi-yu, xursand bo'lib uy-uylariga tarqashdi.

## AXALDA

Kech kuz. Tog'larga qor tushgan. Tog' etagidagi g'allakor, bog'dor qishloqlarda hosil yig'ib olingan. Bekorchilikda ba'zan yoshi katta odamlar ham yosh-yalanglarga qo'shilib, oshiq o'ynashadi. Qishloq etagidagi tepalikning kun chiqish tomonida oshiq o'ynayotgan besh kishidan biri:

— Bugun dovim yurmayapti, bor-e, o'ynamayman! — deb, kula-kula davradan chiqdi. Uning o'rniga sersoqol bir kishi kirar ekan:

— Nurmuhammad og'a, qariganda sizga oshiq o'ynashni kim qo'yibdi! — deb hazillashdi.

Nurmuhammad og'a siyrak qop-qora soqol-mo'ylovini silab kuldi-yu:

— Qarigan deb seni aytsa bo'ladi, — dedi.— Soqoling otning to'rvasiday keladi.

Davradagilar ham kulishdi. Yoshi elliklarga borgan bo'lsa ham, o'zini hali juda bardam sezadigan Nurmuhammad og'a baland tepalikning uchiga chiqib ketdi.

O'sha yerda turib, ko'kragini to'ldirib-to'ldirib nafas oldi-da, atrofga zavq bilan tikildi. Havo benihoya tiniq, uzoq-uzoqlar kaft-da turganday aniq ko'rinadi. Mayin shabada esadi. Tog' etagini kattagina bir qishloq quchib yotadi. Kun chiqish tomondagi tekis-likning bir chetidan o'tib borayotgan poyezd elas-elas ko'zga chalinadi. O'sha tomondan jadallab kelayotgan ikki otliq katta yo'ldan chiqib, tog' etagidagi qishloqqa tomon burildi. Yo'l Nur-muhammad og'a turgan tepalikning yonidan o'tar, shuning uchun otliqlar tobora yaqinlashib kelar edi.

"Ancha bashang kiyinishgan, — dedi Nurmuhammad og'a o'zicha.— Kimnikiga kelishayotgan ekan?.. Iye, ana u oldindagi-

si... Berdiga o'xshaydimi? Jiyanim Berdi!.. Rahmatli singlimdan qolgan yodgorlik..."

Nurmuhammad og'a tepalikdan yo'l bo'yiga chopib tushdi. Bu orada Berdi ham uni ko'rgan va tanigan edi. Otdan tushib, tog'asi bilan quchoqlashib ko'rishdi.

Yigitchasiga kiyingan Uzuk ham otdan tushib, erkakchasiga qo'l berib ko'rishdi. Nurmuhammad og'a uni tanimay boshdan-oyoq bir tikilib qaradi-yu: "Shunaqa chiroyli yigit ham bo'lar ekan-a!" deb, taajjublanib qo'ydi. So'ng mehmonlarni uyiga boshlab bordi. Bir pasda qarindosh-urug'lar, xotinlar, bolalar to'planib, "Berdi kelibdi! Berdi kelibdi!" deyishib, kelganlar bilan ko'rishishga, so'rashishga tushdilar. Berdining ona tomonidan bobosi bo'lgan yetmish besh yashar chol nevarasini quchoqlab:

— Onangga o'xshaysan, bolam, umring o'xshamasin! — deb yig'lab yubordi.— Go'zal hozir tirik bo'lganda seni ko'rib, qanchalik suyunar edi!

— Yig'lamang, bobo, esonchilik bo'lsin, qani o'tiring!

Mezbonlar Uzukni ham yigit kishi deb o'ylashar, erkaklar u bilan erkakcha ko'rishishar, ayollar undan iymanib tortinishar edi. Hozir erkaklar alohida xonaga kirib o'tirishadi. Uzuk ularning orasida o'zini qanday tutadi? U shuni o'ylab bezovtalandi-yu, Berdini sekin turtib, o'ziga qaratdi. Ko'zlari bilan: "Bir ilojini qiling!" demoqchi bo'ldi. Berdi ko'zini qisib:

"Qo'rqma, hammasi o'z o'rniga tushadi", deganday kulimsiradi.

Shu paytda Nurmuhammad og'aning qirq besh yoshlar chamasidagi baland bo'yli xotini ichkari uydan turib:

— Voy, aylanayin Berdijon!— deb chiqdi.— Otliq keldingmi-ya? Sahrodan o'tib keldilaringmi-ya!

— Ha, otliq kelishibdi!— dedi Nurmuhammad og'a.

— Sababini keyin aytaman, tog'a. Xo'sh, xolajon, bola-chaqa eson-omonmi?

— Xudoga shukur! Xush kelibsan, Berdijon!.. Go'zal rahmatli bor paytida har yili bir marta kelar edinglar. Rahmatli o'lgandan beri, mana, endi yo'qlab kelibsan.

So'rashib bo'lganlaridan keyin:

— O‘g‘ilnur xola,— dedi Berdi sekin.— Mening sherigim bilan hovliga chiqing. Sizga aytadigan gapi bor.

— Xo‘p, xo‘p... Qani, yigit, yuring...

“Yigit” hovliga chiqib, O‘g‘ilnur xola bilan yolg‘iz qolgandan keyin mayin tovush bilan so‘radi:

— Bu uylarning qaysisi sizniki?

— O‘rtadagisi...

— Chetkisi-chi?

— Kichik ovsinimniki...

— Bo‘lmasa, o‘sha yerga kirsak maylimi?

O‘g‘ilnur xola “yigit”ning ovozi ingichkaligidan bir taajjublansa, gapidan ikki taajjublandi. Shunday bo‘lsa ham:

— Mayli, qani yuring,— deb uni chetki uyga boshlab kirdi.

Uzuk uyalib kulimsiradi-yu:

— Lekin qo‘rqmaysiz,— dedi mezbonga va boshidan telpagini oldi. Ikki o‘rim uzun sochi yelkasiga sirg‘alib tushdi. Uyning bir chetida yoshi o‘n oltilarga borgan semiz yuzli qiz o‘tirgan edi, taajjublanib o‘rnidan turib ketdi. O‘g‘ilnur xola sarosima bo‘lib qo‘lini og‘ziga qo‘ydi-yu:

— Voy!— dedi.

— Qo‘rqmang dedim-ku... Qani, qizcha, mening etigimni tortib yubor. Uch kundan beri yechganim yo‘q, oyog‘imga yopishib ketgandir.

Semiz yuzli qizcha hali ham hayron bo‘lib, joyidan qimir etolmas edi.

— Kel, o‘zim tortaman,— dedi O‘g‘ilnur xola.— Bu qizcha etik tortadigan bo‘lgani yo‘q. Bunga sakson tuya oltin, yetmish qavat to‘n olib, erga bersak, keyin etik tortadigan bo‘ladi.

Uzuk erkakcha kiyimlarini yechib tashlagach, ko‘kraklari bo‘rtgan gulgun ko‘ylakda chehrasi yanada ochilib ketdi. O‘g‘ilnur xola uning husnidan zavqlanib:

— Voy, aylanay sendan!— dedi.— Berdining bir boshi ikkita bo‘lgan ekan-a! Ro‘moling yo‘qmi?— dedi.

Uzuk ro‘molini Enaquti poraga olib qolganini eslab kuldi-yu:

— Ro‘molni tulkiga oldirdik,— dedi.

O‘g‘ilnur xola yangi po‘ta[1] topib, Uzukning boshiga kiydirdi, ustidan pushti rang baxmal yopinchoq tashladi. Haligi qizcha Uzukning ayol kishi ekanligiga endi ishonib:

— Iye, siz yigit emasmisiz?— dedi.

Shunda Uzuk qah-qah urib kulib yubordi. Bu uning o‘z qishlog‘idan o‘g‘irlanib ketgandan keyingi birinchi quvnoq qah-qahasi edi.

Bu orada Berdi ham tog‘asini bir chetga chaqirib, voqeani boshdan-oyoq aytib bergan edi. Nurmuhammad og‘a jiyanining ishini ma’qullab:

— To‘g‘ri qilibsan,— dedi.— Endi oxiri baxayr bo‘lsin... Qaysi boy kelin qilib olgan deding?

— Bekmurodboy...

— Paxtafurushmi? O-o, uning sovuniga kir yuvmagan ma’qul edi...

— Nima qilay, tog‘a, yetim bola o‘z kindigini o‘zi kesadi, degan gap bo‘ldi-da.

— Mayli, bo‘lar ish bo‘pti. Endi bu yog‘i bizga tan, jiyanim.

O‘g‘ilnur xola hovliga chiqib, Berdini ko‘rgani kelgan qarindoshlariga:

— Berdijon qallig‘i bilan kelgan ekan, — deb xabar berdi. — Boylar zo‘ravonlik qilib, qallig‘ini tortib olmoqchi bo‘lishganda, hammasini ahmoq qilib, yigitchasiga kiyintirib olib qochib kelibdi.

Agar Berdi birovning qizini ota-ona roziligisiz olib qochib kelganda el-yurt uyat qilishi turgan gap edi. Lekin bular zamona zo‘rlariga chap berib qochib kelgan qalliqlar bo‘lgani uchun xolis kishilarning hammasi ularga xayrixoh edi. Qiz-juvonlar yopirilib Uzuk o‘tirgan xonaga kirdilar, hammalari uni o‘rtaga olib, biri “opa” deb, biri “singlim” deb, yaxshi gapirib, ancha vaqt chaqchaqlashib o‘tirdilar.

Nurmuhammad og‘anikiga Mari tomonlardan jiyani qallig‘ini olib qochib kelgani qishloqda yashin tezligida ovoza bo‘lib ketdi. Bu ovoza hademay Bekmurodboy va uning odamlariga ham yetib

[1] **Po‘ta** — turkman ayollari ro‘mol tagidan kiyadigan baland bosh kiyimi. Bizda Surxondaryo oblastining ayollari kiyishgan. (tarj.)

borishi mumkin. Oyni etak bilan yopib bo'lmaganday, Berdilarning kelganini qishloq ahlidan yashirib bo'lmas edi.

— Endi birdan bir chora, — dedi Nurmuhammad og'a, — to'yni tezlatish. Bugun yaqin-yiroqlarga xabar beraylig-u ertaga to'yni boshlaylik. Men o'zim hozir borib, mullaga aytib qo'yaman, ertaga boshqa yoqqa ketib qolmasin.

Nurmuhammad og'a bir ukasiga suruvdagi qo'ylardan ikkitasini olib kelib so'yishni buyurdi, ikkinchi ukasi yana bir yigitni to'yga odam aytishga yubordi. Xotin-xalaj non yopish, bo'g'irsoq pishirish, uylar va hovlilarini supurib-sidirish bilan ovora bo'ldi.

— Nurmuhammad og'anikida to'y bo'larmish, to'y! — degan yangi ovoza to'rt tarafga tarqalib ketdi.

* * *

Maridan poyezdda yo'lga chiqqan Bekmurodboylar Axalga Berdilar bilan orqama-orqa yetib kelgan edi.

Berdilarni qo'lga tushirishga ishonchi komil bo'lgan Bekmurodboy poyezdda ancha ta'bi ochilib, hamrohlari bilan chaqchaqlashib keldi. Qoraqumning eng katta chorvador boyi bo'lgan Sarbozboy Bekmurodboyga qarindosh edi. Yo'lda Bekmurodboy uni o'ziga hamroh qilib oldi.

O'n minglab qo'yi va behisob puli bo'lsa ham, o'zi g'irt omi Sarbozboy yo'l bo'yi hamrohlariga kulgi bo'lib keldi. Poyezd tezroq yursa Sarbozboy:

— Hozir izidan chiqib ketadi, — deb qo'rqar va kupe eshigining tutqichidan mahkam ushlab olar edi.

— Qo'rqmang, g'ildiragi izdan chiqmaydigan qilib ishlangan!

— E, kim biladi, izi ham juda ensiz ekan, ikki enlik yo keladi, yo kelmaydi, bunaqa tez yursa chiqib ketishi hech gap emas.

— Eshikni qo'yvoring. Tutqichidan ushlamasangiz yiqilib ketmas!

— Ushlamasam bo'lmaydi,— derdi Sarbozboy jiddiy.— Ot ham qattiq chopganda yolidan ushlaysiz-ku.

Bekmurodboy bilan Valiboy qah-qah urib kulishardi. Stansiyada poyezddan tushib fayton yolladilar. Uzun burni, shopday mo'ylovi va talaffuzidan ozarbayjon ekanligi bilinib turgan izvosh-

chiga Bekmurodboy kattagina pul va'da qildi, stansiyadan o'n besh chaqirim naridagi bir qishloqning nomini aytdi.

— Bilamiz u qishloqni.

— O'sha qishloqlik Avazmamatni ham bilasizmi?

— Bilamiz.

— E, bo'lmasa, tezroq haydang, ishimiz o'ngidan kelyapti!..

Fayton qishloq yo'lidan tog' tomonga uchib borar, qorli cho'qqilardan esgan sovuq izg'irin yuzni achishtirar edi. Izvoshchi qamchisini boshi ustida aylantirar, sag'risi moylanganday yaltirab turgan otlar burunlaridan bug' chiqarib, uchib borishar edi.

— Vah-vah, jonim!— deb izvoshchi ulardan zavqlanib qo'yar edi. Biroz yurganlaridan keyin u orqaga o'girilib:

— Yarim soatga galmay Avazmamednikina yedejekmiz,— dedi.

Bekmurodboy uning ozarbayjoncha talaffuziga taqlid qilib:

— Cho'q yaxshi, mo'ylovli xon, senday o'g'lana yarim soat ham ko'pdir,— dedi.

Izvoshchi uning taqlidida masxara ohangi borligini sezib, g'ashi keldi:

— Hay, ko'ppaklar! — deb achchig'idan otlariga qamchi bosdi.

Fayton ichida o'tirganlar esa poyezdda tugamagan hazil-mutoyibalarini davom ettirishdi. Sarbozboy tog'lar tepasida to'planayotgan bulutlarga qarab, bolalarcha bir soddalik bilan dedi:

— Cho'lga yomg'ir yoqqanda bulutlar tog'da o'tiradi, deyishar edi, shu rostmikan, Bekmurodboy?

Sarbozboyning davlati Bekmurodboynikidan ham katta edi. Bekmurodboy buni bilar, qarindoshiga biroz hasad ko'zi bilan qarar, uning soddaligidan kulib, "ovsarsan" deganday masxara qilib, alamdan chiqar edi.

— Ha, rost, — dedi Bekmurodboy va Valiboyga zimdan ko'z qisib qo'yib, davom etdi:— Bolaligingizda eshitmaganmisiz? Bulutlar daryodan suv ichib, osmonda yoyilib yuradi-yu, kechasi tog'larga suyanib uxlaydi.

Sarbozboy tog'larga tiralib turgan bulutlarga qarab, bu gapga chindan ishondi.

— "Mo'jiza ko'raman desang, toqqa chiq" deganlari rost ekan-da.

Bekmurodboy bilan Valiboy rosa kulishdi. Ammo Sarbozboy o'zining kulgi bo'layotganini sezmas edi. Bekmurodboyning xushomadgo'yi bo'lgan Valiboy bir parda yuqori oldi:

— Sarbozboy, ovchilar shu bulutlardan ushlab bersa, sotib olarmidingiz?

Sarbozboy bu taklifga astoydil qiziqib:

— Qayerda sotar ekan?— dedi.

— Akarida men o'z ko'zim bilan ko'rdim. Odamlar sotib olib, uyiga qamab qo'yadi. Shiftda oppoq bo'lib osilib turadi-yu, kerak bo'lganda yomg'ir bo'lib yog'iladi.

— Men ham shu bulutdan bittasini olay, qimmat emasmikan? — dedi Sarbozboy.

Bekmurodboy endi o'zini tutolmay, sillasi qurigancha kuldi. Valiboy ham unga qo'shilib xaxolar edi.

— Mayli, kulinglar, biz qumda yurgan sodda odammiz, xafa bo'lmaymiz.

— Soddalik ham evi bilan-da, Sarbozboy! Davlatingiz zo'r, hadeb qumda yuravermay, u yoq-bu yoqqa boring, ko'zingiz ochiladi. "Ko'p yashagan dono emas, ko'p ko'rgan dono", deydilar.

— Otda uzoqqa borib bo'lmasa, — dedi Sarbozboy, — poyezdga minay desam, qo'rqaman.

— Nega?

— Bugun kechasi ko'rdilaring-ku. Shaqir-shaqir, shaqa-shaq qilib, mast tuyaday bo'kirib chopaversa, esxonam chiqib ketadi. Kunduz shunday chopsa ham bir sari edi. Kechasi qorong'ida ko'zi ko'rmay surinib ketsa nima bo'ladi? "Hoy, sekinroq yur!" deb bo'lmasa. Oldingi o'txonasi ham bir baloga o'xshaydi... Odam qo'rqadi...

Bekmurodboy bilan Valiboy yana maza qilib kulishdi. Bu orada fayton ham ular aytgan qishloqqa yetib keldi-yu, Avazmamat degan kishining uyi oldida to'xtadi.

Bekmurodboylar izvoshchiga pul berib, yerga tushguncha ichkaridan baland bo'yli, o'rta yashar, nuroniy bir kishi chiqib keldi.

— E, Avazmamatboy, assalomu alaykum!

— Vaalaykum assalom, Sarbozboy! E, Bekmurodboy! Valiboy! Xush ko'rdik! Shu bugun o'ng ko'zim uchib turgan edi-ya! Bir

quvonsam kerak degan edim. Ataylab uydan chiqmay o'tirgan edim. Yaxshi qilgan ekanman-da. Qani, ichkariga marhamat!

Avazmamat mehmonlarga atab eng semiz bo'rdoqi qo'yini so'ydirdi. Bu uyezdda Bekmurodboydan ham Sarbozboyning e'tibori zo'rroq edi, chunki unday katta boy yo'q edi.

Shuni bilgan Bekmurodboy ataylab qarindoshini birga olib kelgan edi.

Ziyofatga qishloqning o'tog'asilari, eshoni, mullasi, amaldori — hammasi chaqirildi. Sho'rva ichilib, go'sht yeyilgach, qishloq ahli turib ketdi-yu, Sarbozboyning imosi bilan Avazmamat eshonni va mulla O'roz degan oxunni olib qoldi. Shundan keyin Bekmurodboy o'zining bu yerga nima ish bilan kelganini aytib berdi. Uning hikoyasiga binoan hamma ayb — qochib ketgan qiz bilan yigitda-yu, Omonmurod ham, Bekmurodboyning o'zi ham musichaday begunoh va jabrdiyda odamlar.

— Yo Ollo, hozirgi yoshlar buzilib ketyapti!— deb qo'ydi eshon.

— Juda xunuk ish bo'libdi-ku! — dedi uy egasi ham.

Faqat mulla O'roz tomoq qirib qo'ydi-yu, indamay o'tiraverdi. Bugun kunduz qo'shni qishloqlik Nurmuhammad kelib, unga voqeani aytib bergan, yigit bilan qizning begunohligiga, boylar zo'ravonlik qilganiga uni ishontirgan, shundan keyin mulla O'roz ertaga kechasi borib, nikoh o'qishga so'z bergan edi.

Bekmurodboy bu qishloqdami, qo'shni qishloqdami, yigitning Nurmuhammad ismli tog'asi borligini aytdi.

— Ha, bor, — dedi Avazmamat, — qo'shni qishloqda Nurmuhammad ismli o'ziga to'q, obro'li odam bor. Uning bir singlisi Mari tomondagi qishloqqa tushgan deb eshitganmiz.

— Xuddi ana shu ayoldan qolgan Berdi ismli bola bizning kelinimizni olib qochgan! Bular yo shu tog'asinikiga kelgan, yo ularni yer yutib yuborgan— ikkovidan biri.

— Kelgan bo'lsa, bilish qiyin emas. Bizning bir qizimiz o'sha qishloqqa tushgan.

— Juda yaxshi, agar ular Nurmuhammadnikiga yetib bormagan bo'lsa, — dedi Bekmurodboy, — yo'llarga odam qo'yganman, qo'lga tushirishadi. Unda ishimiz oson ko'chadi. Endi, eshon og'a,

siz shariatga qarab, bir narsani ayting: ukamning xotinini yo'ldan urib ketgan yigit qo'lga tushsa nima jazo berish kerak?

— Toshbo'ron qilib o'ldirish kerak!..

— Juda soz. Kelinni qaytarib olishga ham haqqimiz bormi?

— Haqqingiz bor, lekin ukangiz uni boshqatdan nikohlab, halollab olishi kerak...

Eshon bilan mulla O'rozning orasida raqobat bor edi. Bir chekkasi shuning uchun mulla O'roz Berdilarning yetib kelganini bilsa ham, o'zini bilmaganga solib, o'tirar edi. Odatda, bu atrofdagi hamma nikohlarni eshonning o'zi o'qir, bundan tushadigan daromad ham eshondan ortmas, mulla O'roz doim quruq qolar edi. Ertangi nikoh uchun Nurmuhammad bir qo'y va'da qilgan, mulla O'roz shundan mahrum bo'lishni istamas edi.

— Bekmurodboy, — dedi mulla O'roz, — o'lgan eshakning taqasi sizga nimaga kerak? Sharmanda bo'lgan xotinni ukangiz uch taloq qo'yib, qutula qolsa bo'lmaydimi?

— Uning javobini berib yuborish, baliqni suvga tashlash bilan bab-barobar, — dedi eshon.— Boshqa yoshlarga ham ibrat bo'ladigan jazo berish kerak.

— Unga qanday jazo berishni men o'ylab qo'yibman,— dedi Bekmurodboy. — Sizlardan iltimos shuki, qochqinlar Nurmuhammadnikiga kelgan-kelmaganligini bilib bersalaringiz.

— Xo'p, bu yog'i menga tan, — dedi choy quyayotgan Avazmamat. — Bizning to'ng'ich qizimiz o'sha qishloqqa tushgan.

Uch-to'rt kundan beri biznikida yurgan edi, ertaga uyiga qaytadi. O'shanga tayinlab yuboraman, hammasini bilib beradi. Bekmurodboy bu ishni ertaga qoldirishni istamas edi-yu, ammo bugun kechasi mezbonlarni ovora qilib, uzoqdagi qishloqqa odam yubortirishga haddi sig'madi.

* * *

Nurmuhammad og'aning hovlisida kuni bo'yi non yopildi, ikkita qo'y so'yilib, doshqozonlar osildi. Kechki payt hovlining ikki joyiga gulxan yoqildi. Chetki uyda qiz-juvonlar Uzukni o'rab olishib, sochlarini tarab, zo'r hafsala bilan yasantirishdi. Boshqa bir xonada to'yga munosib libos kiygan Berdi kuyov jo'ralari bilan

choy ichib o'tirar edi. Uzuk bilan Berdi bir-birlarini ko'rmasalar ham, atroflarida bo'layotgan to'y taraddudi ularning hozir bir hovlida ekanliklarini eslatib turardi, ko'pdan beri orzu qilib yurgan kunlari nihoyat yaqin kelganini his qilishib, ikkovi ham o'zlarini baxtiyor sezar edilar.

Hovlidagi eng katta uyga qishloqning mo'ysafidlari va o'tog'asilari yig'ildi. Bularning orasida nikoh o'qishga taklif qilingan mulla O'roz ham bor edi. To'y tantanasi va ziyofatini boshlashdan oldin nikoh o'qilishi kerak edi. Nurmuhammad og'a yig'ilganlarga moy torttirdi. So'ng mullani nikoh o'qish uchun narigi uyga boshlab chiqmoqchi bo'layotganda tashqaridan shoshilib kirgan bir yigit uning qulog'iga shivirladi.

— Sizni chaqirishyapti!

— Kim?

— Besh-oltita otliq odam.

Nurmuhammad og'aning yuragi "shuv" etib ketdi.

Ammo hamqishloqlariga hech narsani sezdirmay tashqariga chiqdi. Bashang kiyingan oltita otliq darvoza oldida otlardan tushib, uy egasini kutib turishar edi.

Nurmuhammad og'a ulardan uchtasini tanidi — sallasi savatday keladigan eshon, qo'shni qishloqlik Avazmamat, ko'zlari bo'rinikiga o'xshash Bekmurodboy. Sarbozboy bilan Valiboy mezbonga notanish edi. Shunday bo'lsa ham Nurmuhammad og'a ularning hammasi bilan ko'rishib chiqdi, yigitlarga aytib otlarini bog'lattirdi va o'zlarini uyga boshlab kirib, to'rdan joy ko'rsatdi.

Kelgan mehmonlar qishloq ahli bilan naridan-beri so'rashdilar. Odatga binoan kelganlar to'y egalarini muborakbod qilishlari kerak edi. Ammo Nurmuhammad og'ani tabriklashga na eshonning tili boradi, na Avazmamatning. Bekmurodboy-ku, to'y bo'layoganini sezib, Nurmuhammad og'ani ko'zi bilan yeb qo'ygudek bo'lib qarar edi. Oraga tushgan sovuq sukunatni eshon buzdi.

— Bizga Maridan mo'tabar mehmonlar kelishdi, — deb Bekmurodboy bilan Valiboyni o'tirganlarga dabdaba bilan tanitdi. So'ng Sarbozboyni ham bolaxonador so'zlar bilan ta'rifladi-da, davom etdi: — Mehmonlarning kelishiga makruh bir ish sabab bo'lgan.

Bu ishni aytishga bandasining tili bormaydi, ammo ochig'ini aytmay ilojimiz yo'q... Sezishimiz-cha, bu yerda hozir nikoh to'yi bo'lmoqchi, shundaymi?

— Shunday,— dedi Nurmuhammad og'a.

— Yigit kim?

— Mening jiyanim.

— Maridan qochib kelganmi?

Nurmuhammad og'a "ha" desa, o'tirgan xaloyiqning oldida kuyovning obro'si to'kilishini sezdi:

— Bo'yni yo'g'onlar uni qochishga majbur qilgan,— dedi.

— Jiyaningizning o'zi bo'yni yo'g'on emasmi?— deb Valiboy gapga qo'shildi.— Birovga nikohlab berilgan xotinni yo'ldan ozdirib, Maridan Axalga olib qochib kelish — bo'yni yo'g'onlik bundan ortiq bo'ladimi?!

To'yga kelganlarning orasida voqeaning bu tomonini bilmaydiganlar ham bor edi. Bular:

— Uh!— deb yuborishdi.

Eshon, Valiboy va Bekmurodboy uchalasi xaloyiq oldida Nurmuhammadning obro'sini to'kib, to'yni buzmoqchi, odamlarni o'zlariga og'dirib olmoqchi edilar. Shuning uchun eshon darhol Valiboyning fikrini davom ettirdi.

— Bo'yni yo'g'onlik deyish oz! Shariatda buni shahvat deydi! Zino deydi! Buzuqlik deydi! Dindan qaytish bundan ortiq bo'lmaydi! Qishin-yozin sahroda qo'y boqib yurib, yovvoyi bo'riga aylanib ketgan bir cho'pon Bekmurodboyday obro'li odamning kelinini olib qochib kelsa-yu, bu yerda shuncha mo'ysafidlar uning ishini ma'qullab, birovning jufti halolini shu haromiga to'y-tomosha bilan olib bersa, bu qaysi darvozaga sig'adi?!

Burchakda o'girgan bir kishi:

— E, hali, shunaqamidi?— deb qoldi.

Nikoh o'qishga kelgan mulla O'roz ham o'tirgan joyida bezovtalanar edi.

— Mulla O'roz, siz bu yerda nima qilib o'tiribsiz? — dedi eshon.

— To'yga aytishdi. Yo'q deya olmadim...

— Nikoh o'qimoqchimidingiz?

— Ha, bu yog'idan bexabar edim...

— Kecha Avazmamatboynikida eshitgan edingiz-ku!

— To'g'ri-yu, lekin menga voqeani boshqacha tushuntirishgan edi... Kechirasiz, taqsir, men o'zim bilmay gunoh ishga bel bog'lagan ekanman... Tavba qildim!..

Mulla O'roz qo'lini ko'ksiga qo'yib, o'rnidan turdi-da, yoni bilan yurib chiqib ketdi. To'y buzilishi mumkin edi.

Nurmuhammad og'a qaddini rostlab, eshonga tik qaradi:

— Siz shariatga qarab ish qiling, taqsir!

— Bu nima deganingiz?

— Ikki tomonga ham baravar qarang!

— Baravar qaramay nima qilibman?

— Siz boylarning arzini eshitibsiz. Boqea qanaqa bo'lganini bizdan ham bir so'rang!

— Ha, to'g'ri,— dedi kimdir qo'rqa-pisa.

Bekmurodboy shu vaqtgacha gapga aralashmay o'tirardi, chunki eshon bilan Valiboy rejani yaxshi amalga oshirmoqda edi. Endi hamma sir oshkora bo'lsa, tashabbus qo'ldan ketishi mumkinga o'xshab qoldi. Shuning uchun Bekmurodboy:

— Gapni ko'paytirishga vaqtimiz yo'q,— dedi.— Bu qishloqning yoshullisi kim?

Davradagilar uy egasiga qaradi. Nurmuhammad og'a Bekmurodboyga ko'z tashlab:

— Men desam ham bo'ladi,— dedi.

— Siz bo'lsangiz,— unga ko'z olaytirib dedi boy,— qochqinlarni uyingizdan jo'nating!

— Nega?

— Dinidan qaytgan haromini qishloqning yoshullisi o'z uyida ushlab turishga haqli emas!

— Avvalambor, ular siz aytgandaqa buzuq yoshlar emas, men buni yaxshi bilaman, chunki yigit — mening jiyanim. Bordi-yu, jiyanim emas, begona bo'lganda ham, shu jabrdiydalar kalxatdan qochgan musichaday mening dargohimga himoya istab kelsa, men bularni aziz mehmon, deb bilar edim. Bizning taomilimizni yaxshi bilasizlar: kelgan mehmonga ket deyish mumkin emas. O'z ixtiyorlari bilan kelgan, o'z ixtiyorlari bilan ketishadi!

Qishloq ahli Nurmuhammad og'aning gaplarini zo'r e'tibor bilan tinglar edi. Eshon o'z so'zini o'tkazishi oson emasligini sezib, endi muloyimroq ohangda gapirdi:

— Odamlar, aytinglar-chi, birov nikoh qilib olgan xotinga boshqa bir erkak mahrammi, nomahrammi?

— Albatta, nomahram,— dedi bir mo'ysafid.

— Demak, Bekmurodboyning keliniga Nurmuhammad ham, uning jiyani ham nomahram. Bu juvonni nomahram bir kishi o'z uyida olib turishga nima haqqi bor?

Odamlar indamas edi.

— Mutlaqo haqqi yo'q! — dedi Valiboy.

Nurmuhammad og'a shariatu tariqat ilmida eshonga bas kelolmasligini sezar edi-yu, ammo haqiqat bobida undan yengilishini istamas edi. Agar yengilsa, to'y, albatta, buziladi, undan hamqishloqlarining ixlosi qaytadi. U holda Bekmurodboyning g'olib chiqishi oson bo'ladi, bu yerdan panoh topgan ikki yosh ham to'y ko'rmay o'lib ketadi. Nurmuhammad og'a mana shuning uchun kelganlarni fosh qilishga, kim haqligini qishloq ahliga oshkora ko'rsatishga tirishar edi. Chunki hozirgi og'ir ahvolda uning qishloq ahlidan boshqa suyanadigan hech kimi yo'q edi.

— Xo'p, — deb Nurmuhammad og'a eshon bilan Valiboyga yon bermoqchiga o'xshab so'radi: — Agar men ikki yoshni uyimdan jo'natsam-u, nariroqqa borganda ularning qoni to'kilsa, siz o'tirgan odamlarning oldida ularning xunini to'laysizmi, taqsir?

Eshon tezda javob topolmadi. Valiboy uni o'ng'aysiz ahvoldan qutqarishga urinib dedi:

— El orasida qoni to'kilayotgan odam ozmi? Eshon og'a hammasining xunini to'layversa, nima bo'ladi? Bu behuda gap!

— Behuda gap emas, boy og'a! Men bilib gapiryapman. Jiyanimni ko'ra-bila turib, qonxo'r odamlarning qo'liga topshirsam, ana unda behuda ish bo'lar edi. Sizlar ham el-yurt orasida yuradigan kishilarsiz, hadeb qonsiragan jallodga yon bosaversalaringiz, obro'laringizga putur yetadi.

— Shama qilmay gapiring, Nurmuhammad, bu yerda siz aytgan jallodlar yo'q!

— Men avliyo bo'lmasam ham, pichog'idan qon tomgan jallod oramizda o'tirganini ko'rib turibman!

— Gapni boshqa yoqqa burmay, o'zingiz makruh ishga bosh bo'layotganingizni ayting! — dedi eshon. — Siz birovning nikohidagi juvonni o'z jnyaningizga nikohlab bermoqchi bo'lib to'y qilyapsiz, mulla chaqirgansiz... Odamlar, aytinglar-chi, nikohdagi xotinni yana boshqa bir kishiga nikohlatish shariatga to'g'ri keladimi?

— Odamlar, men ham sizlarga o'xshagan savodsiz odamman,— dedi Nurmuhammad og'a. — Shariatning yo'l-yo'riqlarini eshon og'achilik yaxshi bilmayman, lekin men ham musulmonman, imonni, insofni tan olaman. O'zlaring aytinglar-chi, bir bechora cho'pon ne azoblar bilan qiz o'stirsa, shu qizini o'zlariga o'xshagan bechora bir yigitga uzatmoqchi bo'lib, orzu-havas bilan yursa-yu, birdan Bekmurodboy kalxat bo'lib uchib borsa-da, qizni olib qochib ketsa, zo'rlik bilan ukasiga nikohlab bersa — shu ish musulmonchilikka to'g'ri keladimi? Naryoqda ota-ona zor-zor yig'lasa, bu yoqda qiz zo'ravonlarning dastidan dod desa — imoni bor odam bunga qanday chidaydi? Insofi bor odam qanday qarab turadi? Shunday paytda nahotki shariat Bekmurodboyni yoqlasa? Men unday shariatni tan olmayman! Biz bilgan shariat beva-bechoraga jabr qilinmasin, deydi. Bular qizga qilgan jabr-zulmni eshitsangiz, sochingiz tikka bo'lib ketadi. Qiz nikoh o'qish paytida rozilik bermagan ekan, urib, qonga belab, behush qilib rozilik olishibdi! Ishonmasalaring, ayollardan guvoh tanlanglar, hozir borib, qizning badanida qolgan kaltak izlarini ko'rsin! Noinsof mullalar shuni o'z ko'zi bilan ko'rib turgan bo'lsa ham nikoh o'qibdi... Eshon og'a, men sizni unaqa mullalarga o'xshatmoqchi emasman. Lekin qiz nikohga rozi bo'lmasa, bunday nikoh shariatga to'g'ri keladimi?

Eshon sukut saqlar edi. Davrada o'tirganlardan biri:

— Bunaqa nikoh shariatga to'g'ri kelmaydi, — dedi. — Agar qiz rozilik bermagan bo'lsa-yu, hozir...

— Rozilik bergan, men o'zim eshitganman! — dedi Bekmurodboy.

— Ishonmasalaring, yuringlar, hozir qiz bilan yigitning oldiga chiqib, o'zlaridan so'raylik,— dedi Nurmuhammad og'a.

— Hozir yo'ldan ozgan qiz rost gapni aytmaydi! — dedi Bekmurodboy. — O'z aybini yopish uchun yolg'on gapiradi. Mening ukamga nikoh o'qilganda vakolatini Quliboyga bergan edi. Buni eshitgan guvohlar bor...

— Axir uni urib, boshini yorib olgan rozilik rozilikka kiradimi? — dedi Nurmuhammad og'a.

— Siz ko'rmagan narsangizni aytyapsiz, — dedi eshon unga — Bekmurodboy esa o'z ko'zi bilan ko'rib, o'z qulog'i bilan eshitgan narsasini aytyapti. Qiz bir marta nikoh bo'lgan. Endi bu nikohni qiz buzolmaydi. Qiz: "Nikoh vakolatini falonchiga berdim", dedimi, tamom. Endi eri uch taloq qo'ymaguncha nikoh buzilmaydi.

— Shoshmang! — dedi Nurmuhammad og'a. — Siz salla o'rab, ola chopon kiyib yurgan eshonsiz. Siz shariatning nomidan gapiryapsiz. Agar men, deylik, mulla bo'lsam, eshon og'a, misol uchun, kuyov bo'lsalar-u, boy og'a, misol uchun, kelin bo'lsalar... Boy og'a: "Vakolatimni palonchiga berdim" desalar, bu gapni o'n marta, yuz marta takrorlasalar shu bilan nikoh shariatga to'g'ri keladimi? Kalomulloda: "Ikki tomon ham o'z og'zi bilan rozilik bergandagina nikoh haqiqiy bo'ladi", deyilmaganmi?

Eshon bu so'zlarning haqligini sezib, indamay o'tirardi.

— "Vakolatimni falonchiga berdim", degan gap hech narsani hal qilmaydi, — davom etdi Nurmuhammad og'a: — Ota-bobolarimiz aytib kelgan bir maqol bor; "Agar zo'r bo'lsang, jun qoziqni ham yerga kirgizib yuborasan". Bu bilan aytmoqchimanki, nikoh paytida o'tirgan guvohlar qizning o'z og'zi bilan nikohga rozilik berganini eshitmagan bo'lsa, "vakolatni palonchiga berdim" degan gapning nima kuchi bor? Javob bering, eshon og'a, "shariatda sharm yo'q" deydilar. Nikoh o'qiganda har ikki tomon o'z og'zi bilan rozilik berishi kerakmi, yo'qmi?

— Ha, eshon og'a, ochig'ini ayting, — deyishdi davradagilar ham.

— Albatta, axir, bu yerda bir odamning taqdiri hal bo'lyapti.

— Rost, biz ham bilib qo'yaylik. Qiz o'z og'zi bilan rozilik berishi kerakmi yoki vakili orqalimi?

Oxun Bekmurodboyga: "Nima qilamiz, yolg'on gapirsak, qo'lga tushamiz, rost gapirsak, yutqizamiz?" deganday qilib qara-

di. Bekmurodboy gapning chuvalashganidan g'azablanib, qo'lidagi qamchining sopini g'ijimladi.

— Albatta, qiz o'z og'zi bilan rozilik bergani to'g'riroq, — dedi eshon, — lekin...

— "Lekini" yo'q,— deb Nurmuhammad og'a uning so'zini ilib ketdi. — Demak, nikoh ikki tomonning oshkora roziligi bilan haqiqiy nikoh bo'ladi — "Qur'on" shunday deydi. To'g'rimi, eshon og'a?

— To'g'ri...

— Odamlar, sizlar nima deysizlar?

— Ha, to'g'risi shu!

— Ikki tomon ham rozi bo'lmasa, bekor!

— Bekmurodboyning uyida o'qilgan nikohda bir tomon o'z og'zi bilan rozilik bermagan ekan. Mana, endi, eshon og'a, mening uyimda o'sha qiz bilan yigitning roziliklarini so'rab ko'ring-chi? Agar o'z og'izlari bilan rozilik bersalar nikoh o'qing, bo'lmasa o'qimang! Qani, yuring, mana shuncha odam guvoh!

Eshon o'rnidan qo'zg'almas, ammo xaloyiqdan uyalib, ko'zini yerdan olmas edi. Bekmurodboy unga ko'maklashmoqchi bo'lib, gapni boshqa yoqqa burdi.

— Nikoh halol odamga o'qiladi, sizning jiyaningiz haromxo'r, o'g'ri! Bular ikkita otni egar-jabdug'i bilan o'g'irlab kelgan. Shu otlardan biri — meniki!..

— Obbo! — dedi uyda o'tirganlardan biri, — bu yog'i chatoq bo'lgan ekan-ku.

Nurmuhammad og'a kulimsirab dedi:

— Bekmurodboy, boshda sizlar shu qizni o'g'irlamaganlaringizda otlaringiz ham joyida turgan bo'lardi. Hozir ham otlarga hech gap bo'lgani yo'q. Men ertagayoq ularni qaytarib yubormoqchi bo'lib turgan edim. Mana, otlaringizni ko'ringizlar. Boshqa ot topib ber, desalaringiz topib beramiz. Agar egar-jabdug'i yeyilgan bo'lsa yoki shuncha mingani uchun kira so'rasangiz uni ham beramiz!

Kimdir "piq" etib kuldi.

— Siz juda gapga chechan ekansiz,— dedi eshon unga. Otning tovonini to'layman deganingiz to'g'ri...

— O'ylab qarasangiz, mening hech bir gapimda noto'g'rilik yo'q, eshon og'a!

— Maqtanmang, siz shariatni sal-pal bilsangiz ham tariqatni mutlaqo bilmaysiz.

— Tariqatni ham sal-pal bilaman!

— Bilsangiz, tariqat nima?

— Xudo oldida vijdonimga xilof ish qilmasam, tariqatga to'g'ri kelaveradi.

— Sizning vijdoningiz el-yurtning vijdoniga to'g'ri kelmasa-chi?

— To'g'ri keladi! Mana, shu yerda o'tirgan odamlar aytsin. Men bir-biriga ko'ngil bergan shu ikkita jabrdiydani qanotim ostiga olib, to'g'ri qilyapmanmi, yo'qmi? Bekmurodboy bilan ukasi bir kambag'al bechoraning qizini o'g'irlab ketib, shariatga xilof ish qilibdi. Men shularni o'z roziliklariga qarab, to'y qilib, nikoh o'qitsam, tariqatga to'g'ri keladimi, yo'qmi? Qani xaloyiq, aytinglarchi, kim haq?

— Siz haqsiz!

— Eshon og'a, nikohni o'qing, gap cho'zilmasin!

— Ha, shu bechoralarni nikohdan o'tkazing!

— Men bu nikohni o'qiyolmayman, — deb eshon o'rnidan qo'zg'aldi.

— O'qimasangiz, o'qimang! — dedi Nurmuhammad og'a. — Halol odamlarning birortasiga o'qitarmiz bu nikohni!

— Lekin pushaymon bo'lasiz! — deb Bekmurodboy ham sapchib o'rnidan turdi. — Hurmatni bilmaydigan odam ekansizlar. Eshon og'aga o'xshagan mo'tabar odamlar oraga tushganda birbiridan xun so'rab yurgan dushmanlar ham yarashar edi. Sizlar yaxshilikni bilmadilaring. Endi oq poshshoning mahkamasi ko'zlaringni moshday ochib qo'yadi! Qani, eshon og'a, yuring ketaylik!

Olti otliq chiqib ketdi, ammo to'yga deb kelganlarning hammasi qoldi.

* * *

Nurmuhammad og'a to'yda xizmat qilayotgan ukalarini va xotinini chaqirib:

— Bekmurodboylar kelib ketganini Berdi bilan Uzukka bildirmanglar, — deb tayinladi. — Bechoralar hech bo'lmasa, to'y kechasini bexavotir o'tkazishsin.

Qishloqning eng halol mo'ysafidlaridan biri nikoh o'qidi. Dutor chaladigan mashshoq ham, ovozi yaxshi ashulachi ham, qiziqchilik qilib hammani kuldiradigan odam ham topildi. To'y xursandchiligi yarim kechagacha davom etdi.

Oy botganda Uzuk bilan Berdi chetki uyda yonma-yon yotishardi. Boshiga tushgan xo'rliklar Uzukning xayolidan uzoqlashgan edi.

U qorong'ilikka tikilib, mayin va baxtiyor tovush bilan gapirdi:

— Hozir mening nazarimda tun emas — eng yorug' kun...

— Tunimizni kunduzday yorug' qiladigan odamlar bor ekan-a, Uzuk.

— Shu odamlarning birinchisi o'zingizsiz...

— Yo'q, men tog'amni aytmoqchi edim.

— Tog'angiz ham, ho' kechasi cho'lda uchragan cho'pon ham.

— Eshonning kichik xotini O'g'ilnozik ham...

— Ishqilib, siz meni yo'qlab keldingiz-u tunlarim kunduzga aylandi.

— Cen bo'lmasang menga ham yorug' kun yo'q edi, Uzuk.

— Ilohim, shu yorug' kunlarimiz zavol ko'rmasin!

Hovlida qadam tovushlari eshitildi. Nurmuhammad og'a to'y tashvishi bilan xo'p charchagan bo'lsa ham, hali uxlamagan edi. Bekmurodboyning tahdidi uning xayolidan nari ketmas, Berdilarni qanday qilib butunlay qutqarib olishni o'ylar edi. "Jiyanim haq ekaniga qishlog'imdagi odamlarni ishontirdim,— derdi Nurmuhammad og'a o'zicha. — Endi oq poshshoning mahkamalarini qanday ishontirsam ekan? Marida sud bo'lganda dival bilan pristav Uzukni yoqlagan ekan-ku. Axaldagi pristavga voqeani tushuntirilsa bo'lmasmikan? "Lekin kattaroq sovg'a-salom bilan borilmasa quloqlariga gap kirmaydi. Pulimning bari to'yga ketdi. Endi kimdan qarz olsam ekan? Pristav bilan divalga kim orqali pul berib, arz qilsam ekan?"

Nurmuhammad og'a sahar palla bir mizg'ib oldi-da, ertalab shu to'g'rilarda maslahatlashish va qarzga pul topish uchun yor-birodarlarining uylariga ketdi.

Ertalab Axalga o'z ishi bilan borgan bir odam tush payti ot choptirib keldi-yu, Nurmuhammad og'ani chaqirdi. Uning o'rniga O'g'ilnur xola darvoza oldiga chiqdi.

— Ehtiyot bo'linglar, — dedi otliq. — Men Axalda Bekmurodboylarni ko'rdim. Pristavdan bir dasta soldat olib bu yoqqa bostirib kelmoqchi bo'lib turishibdi.

— Rostdanmi?!

— Ha, men o'z ko'zim bilan ko'rdim.

O'g'ilnur xola sarosimaga tushib:

— Voy, dadang qani?— dedi o'g'liga.— Shunday paytda dadang qayoqqa ketdi?.. Chop, topib kel!

Bekmurodboylar bostirib kelayotganini Nurmuhammad og'aning otasi ham eshitdi-yu, ayollardan battar vahimaga tushdi:

— Berdi qani? Berdiga aytinglar, darrov otlansin! Ketsin bu balodan nari! Otlar qani! Qizimdan qolgan yolg'izgina yodgorlik bu bola! Men uni o'zim qumga olib qochib ketaman!

Cholning vahimasi ayollarga ta'sir qildi, hammasi oyog'i kuygan tovuqday u yoqdan-bu yoqqa yugurishib, Berdini chaqirishdi. Berdi hovliga chiqib, Bekmurodboylar kelayotganini eshitdi-da, ko'zlari qahr bilan chaqnadi.

— Hid olishibdi-da, ko'ppaklar... Mayli, ajali yetgan bo'lsa, kelsin!

— Sen nimalar deyapsan, chirog'im? — dedi Berdining bobosi.— Bekmurodboy oq poshshoning askarlarini boshlab kelayotgan emish. Vaqtning borida qochib qol, Berdijon!

— Ha, ularga bas kelolmaysan!— deb O'g'ilnur xola ham uni qochishga unday boshladi.

Uzuk ichkarida o'tirgan bo'lsa ham, ochiq deraza orqali shum xabarni eshitdi, rangidan qoni qochib, devorga majolsiz suyanib qoldi. Hovlidagilar uni unutishgan, Berdiga nuqul tezroq qochish kerakligini uqtirishar edi.

— Bo'ldi, muncha qoch deyavermanglar!— jerkib tashladi Berdi ularni.— Men baribir qochmayman.

— Jinnimisan? O'zingni o'limga tutib berasanmi?

— Bitta o'lim bo'lsa, hammaning boshida bor. O'limdan hech kim qochib qutulolmaydi. O'sha it Bekmurodboy bilan ukasi kelayotgan bo'lsa, juda yaxshi. Men ularning qoni bilan bir qora dog'ni yuvaman. Keyin qamoqmi, Sibirmi, nimaiki bo'lsa, qismatimdan ko'raman.

— Qismating yomon keldi sening, bolam! — deb bobosi yig'lab yubordi. — Bir kungina yaxshi kun ko'rar-ko'rmas, dushmanlaringning qo'liga tushasanmi? Undan ko'ra ket bu yerdan tezroq!

— Bobojon, men Uzukni qanday tashlab ketaman, bu yog'ini o'ylaysizmi, yo'qmi? Men uni Mariday joydan olib kelay-da, endi xatarli paytda tashlab qochaymi? Nahotki sizlar meni shunchalik nomard deb o'ylasalaringiz? Men oxirgi tomchi qonim qolguncha Uzukni himoya qilaman!

Ichkarida turib bu so'zlarni eshitgan Uzukning ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi. Ayollardan biri Uzukning oldiga kirdi-da:

— Kelin, chiqing, Berdiga o'zingiz ayting, tezroq qochsin, — dedi. — Bo'lmasa, siz tufayli juvonmarg bo'lib ketadi. Nahotki siz uning umriga zomin bo'lishni istasangiz?

"Siz tufayli juvonmarg bo'ladi... Umriga zomin bo'lasiz?.." degan so'zlar Uzukni chayon bo'lib chaqar edi.

Uzuk buning alamiga chiday olmaganidan titrab, dahlizga chiqdi. Shu payt hovlidan kirgan Berdi unga ro'para bo'ldi. Uzuk yoshli ko'zlarini unga tikib:

— Tezroq keting bu yerdan! — dedi. — Xayr!..

— Men seni tashlab ketolmayman!

— Taqdiringizni mening qora taqdirimga bog'lamang degan edim-ku. Hali ham bo'lsa keting!

— Sen o'ylamay gapiryapsan, Uzuk! Kir ichkariga! Kir. Tog'am menga hadya qilgan naganni topib ber.

Uzuk tokchaning yuqorisiga bo'y cho'zib, lattaga o'rog'li naganni olar ekan, ko'chadagi bolalardan biri:

— Ana, askarlar tepadan tushib kelyapti! — deb qichqirdi.

Uzuk yana Bekmurodboy bilan Omonmurodning changaliga tushishi mumkinligini sezib, a'zoyi badani titray boshladi. Titroq qo'llari bilan naganni Berdiga uzatar ekan:

— Agar meni tashlab ketolmasangiz... Shu to'pponchaning bitta o'qini mendan ayamang, — dedi. — Yana Omonmurodga xotin bo'lguncha sizning qo'lingizda o'lganim yaxshi. O'tinaman sizdan, oting! Men ularning qo'liga tirik tushmayin... Oting meni!

— Jinni bo'lma, Uzuk! Bu o'qlarni men sening jallodlaringga otaman! Ulardan qasd olmasam, ikkovimiz ham alamdan

chiqmaymiz! Mard bo'l, Uzuk, boshingga qanday kulfat tushsa ham o'limni bo'yningga olma! Xayr! Kel, xayrlashaylik!

U Uzukni bag'riga bosib, bir lahza jim qoldi.

Ko'chada bir talay otlarning tuyoq tovushlari, faytonlarning shaqir-shuquri eshitildi. Shu payt hovlining orqa tomonidan Nurmuhammad og'a ham yetib keldi. U qaltirar edi. Berdini ko'rib:

— Jiyanim, sen ichkariga kir, xotiningni himoya qil,— dedi.— "Tog'ning boshi qorsiz bo'lmas, yigitning boshi jangsiz" deydilar. Agar men omon bo'lsam, hech kim sizlarga qo'l tekkizolmaydi. Ko'cha eshigini berkitdilaringmi? Berdi, ichkariga kirib, uy eshigini ham bekitib olinglar!.. Attang, dushmanlar bir kunda shuncha askarni boshlab kelishiga ertaroq aqlimiz yetmagan ekan. Bo'lmasam biz ham bir ilojini topar edik. Berdi ichkariga kirishni istamay tog'asining yonida turar edi:

— Kir, eshikni ichidan bekit!— deb tog'asi uni zo'rlab dahlizga kirgizdi.— Hali senga ham navbat keladi. Agar men yiqilsam, unda ichkaridan chiqasan.

Otliq politsiyachilar devordan bo'y cho'zib, hovliga ko'z tashlashdi. Bekmurodboy Axaldagi politsiya boshlig'ini ergashtirib kelgan edi. Sarbozboy, Valiboy, Omonmurod, uning yigitlari Sapar va Qovus hammasi birga kelgan edi. Ular Uzukni olib ketish uchun bir emas, ikkita izvosh yollashgan edi. Politsiya boshlig'i askarlarini darvoza oldida to'xtatib:

— Zaryajat!— deb buyruq berdi.

Zatvorlar shaq-shuq qilib, miltiqlar o'qlangani eshitildi. Politsiya boshlig'i — sariq mo'ylovli, o'rta yashar semiz kishi uzangiga oyog'ini tirab, devor orqali hovliga murojaat qildi.

— Nurmuhammad Qarli!

— Men!

Politsiya boshlig'i ruschalab:

— Mehmonlaringni olib chiq!— deb buyurdi.

Nurmuhammad og'a ruschani uncha-muncha bilsa ham, turkmanchalab javob berdi.

— Bizning odatimizga binoan, mehmon otadan ham aziz bo'ladi. Men ularni olib chiqolmayman.

Politsiya boshlig'iga bu so'zlarni tarjima qilib berishgan edi, u achchig'idan qip-qizarib:

— Bema'ni odatlar! Kuch bilan olib chiqinglar! — deb buyruq berdi.

Nurmuhammad og'a qo'lini orqasiga qilib turardi. Uning o'ng qo'lida sopi oq fil suyagidan ishlangan o'tkir pichoq yiltillab ko'rinardi. Nurmuhammad og'aning ikki yonida ukalari, qarindoshlari himoyaga shay bo'lib turishardi. Bekmurodboy devor orqali buni ko'rdi-yu:

— O'jarlik nimaga kerak, oq poshshoning odami buyurganidan keyin olib chiqingda ularni! — dedi. — Baribir hozir eshikni buzib kirib olib chiqamiz!

— Qani, eshikni buzib kiring-chi, nimaning tig'iga duchor bo'lar ekansiz! — dedi Nurmuhammad og'a.

Bekmurodboy Sapar bilan Kovusga:

— Buzib kiringlar! — deb buyurdi.

Ikki yigit darhol otdan tushib, yelkalari bilan ko'cha eshigini uch-to'rt marta qattiq itarishgan edi, zulfini uzilib ketdi. Sapar zapti bilan hovliga otilib kirdi.

Shunda Nurmuhammad og'a uning biqiniga pichoq urdi. Sapar ingrab yerga yiqildi. Shu payt Sarbozboy bilan politsiya boshlig'i so'kinishib, Nurmuhammad og'aga to'pponcha otishdi. Uy eshigini ochib hovliga chiqqan Berdi tog'asining o'q yeb yiqilganini ko'rdi-yu, to'pponcha otgan Sarbozboyni Bekmurodboy deb gumon qildi — u Bekmurodboyni tanimas, Sarbozboyni ham hozir birinchi marta ko'rmoqda edi. Berdi nagandan Sarbozboyga qarab ikki marta o'q otdi. Bu o'qlardan biri nishonga tegdi-yu, Sarbozboy otdan gursillab yiqildi.

Hovliga soldatlarni boshlab kirgan politsiya boshlig'i Berdiga o'q otdi. U mergan ekan, birinchi o'q bilanoq Berdini yiqitdi. Berdining qo'lidan uchib tushgan naganni politsiyachidan biri ilib oldi. Bosh aybdor shu ekanligini sezgan politsiyachilar o'q yeb yiqilgan Berdini darhol izvoshga tomon sudrab ketishdi.

Nurmuhammad og'aning aka-ukalari qo'llaridagi pichoq va tayoqlarni ishga solishib, politsiyachilar bilan olishar, ularni Uzuk

o'tirgan uyga yaqin keltirmaslikka tirishar edilar. O'g'ilnur xola ham uzun so'yil bilan duch kelgan politsiyachini urar edi.

Shu payt ichkaridan Uzukning o'zi yugurib chiqdi. To'polonda Berdiga nima bo'lganini bilolmay qoldi-yu, qoniga belanib yotgan Nurmuhammad og'ani ko'rdi.

— Tog'ajon, ayb menda, men tufayli siz shu ko'yga tushdingiz!

— Ayb senda emas, kelin! Ayb mana bu qonxo'rlarda! Berdi qani? Berdi!..

Uzuk ham Berdini topish umidida sapchib o'rnidan turdi.

Bu orada Omonmurodning unga ko'zi tushdi. Tishlarini yirtqichlarcha g'ijirlatib, izvoshchiga buyurdi:

— Mana shu ayolni faytoningda olib ketasan! Bo'l tezroq!

Mo'ylovi uzun ozarbayjon izvoshchi bu qirg'inning aybdorlari kimlar ekanini sezib turar edi.

— Yo'q, men sizlarday zo'ravonlarga xizmat qilmayman! — dedi-yu, otlariga qamchi urib, faytonni bo'sh haydab ketdi.

Bekmurodboy ikkinchi izvoshchini chaqirdi. U esa:

— E, menga nima, pulni ko'proq bersalaringiz menga baribir! — dedi.

— Og'zingga siqqanini olasan! — dedi Omonmurod. — Darvozaga yaqinroq bur!

Uzuk Berdidan xavotir olib o'zini butunlay unutgan edi. Omonmurod odamlar orasidan pusib borib, Uzukning ortidan quchoqlab oldi-da, faytonga olib chiqdi.

Fayton shitob bilan qo'zg'aldi. Uzuk uchib borayotgan faytondan yerga sakrab tushmoqchi bo'lib talpinar edi. Omonmurod bir o'zi uni eplay olmay qoldi. Shunda fayton bilan yonma-yon ot choptirib kelayotgan Qovus egardan faytonga sakrab o'tdi-da, Uzukning oyoq-qo'lini bog'lashga yordamlashdi...

Nurmuhammad og'aning hovlisida politsiyachilar odamlarni qamchilashar, miltiq va naganlarning orqasi bilan urishar, otalarining qora qonga belanayotganini ko'rgan bolalar chirqirab yig'lashar edi.

Yelkasidan o'q yegan Nurmuhammad og'a endigi qarshilik behudaligini sezib, devorga suyanib o'rnidan ko'tarildi.

— Inilarim, hamqishloqlarim, bolalarga rahm qilinglar. Qishlog'imizda yetim-yesir ko'paymasin. Bas qilinglar, inilarim! Bu-

gun bularga omad kelgan bo'lsa, erta-indin bizning ko'kragimizga ham shamol tegib qolar.

Nurmuhammad og'a holdan ketib yana yerga yiqildi. Ur-sur asta-sekin bosildi. Orqadan yana bir qancha izvosh yetib kelgan edi. Ulardan biriga behush yotgan Sapar bilan yengil yaralangan Sarbozboyni solishdi.

Ikkinchi izvoshga yarador bo'lsalar ham, yaralaridan oldin qo'l-oyoqlari bog'langan Berdi va Nurmuhammad og'a chiqarildi.

Politsiyaga qurolli qarshilik ko'rsatganlardan to'rttasini Berdilar bilan birga qamoqxonaga piyoda haydab ketishdi.

Xatarli ishlarni birovlarning qo'li bilan qilib, suvdan quruq chiqib o'rgangan Bekmurodboy esa ukasi bilan birga omon-eson uyiga jo'nadi.

## O'G'ILLARIGA MUNOSIB ONA

Bekmurodboyning sakson besh yoshli onasi Qo'nish boybicha so'nggi kunlarda ikki narsadan xavotirda edi. Biri: o'sha oyoq-yalang cho'ponning qizini izlab, Axalga ketgan o'g'illari omon kelarmikan? Ikkinchisi: o'g'illari u sayoq juvonni o'sha yoqda bir yoqlik qilib kelisharmikan yoki bu yoqqa olib kelib, yana qari onalarining tinchini buzisharmikan, degan o'y uni bezovta qilardi.

Qo'nish boybichaning to'rt o'g'li bor. Har biri kamida ikkitadan xotin olgan. Kechqurun kelinlar bu dargohning eng erka boybichasi bo'lgan Qo'nish kampirning atrofida girdikapalak bo'ladi. Biri choy qaynatib keladi, biri bu choyni piyolaga quyib qaynanaga uzatadi, biri qaynananing peshanasi terlaganini ko'rsa toza ro'molcha beradi. Qo'nish boybicha ularning birortasini suymay qolsa-yu, o'g'illariga yomonlasa o'sha kelin uchun qora kunlar boshlanadi. Shuning uchun kelinlar undan balodan qo'rqqanday qo'rqishadi. Turkman odatiga binoan kelinlar uni kenja o'g'li Chorining nomi bilan ataydilar.

— Chorining onasi, ko'p bezovta bo'lmang, — deb Bekmurodboyning katta xotini unga tasalli beradi. — O'gillaringiz eson-omon kelishadi..

— Boshida mendan bemaslahat qilishdi-da shu ishni, — deydi Qo'nish boybicha kichik kelini quygan choydan bir ho'plab.

— Rost aytasiz, Chorining onasi!

— Ha, axir, kelib-kelib qayoqdagi bir cho'ponning qiziga xushtor bo'lishadimi? Mendan so'rashsa-ku, kerak emas der edim.

— Qurg'urning ta'rifi zo'r edi-da. O'g'illaringiz ham juda botirlik qilishdi!

— Botirlik qilamiz deyishsa, men undan yaxshi qiz topib berar edim. Xo'p, ana, olib qochib kelishdi. Keyin bu juvon o'lgurning o'zi qochib ketdi. Endi uning orqasidan quvib, Axalga borib nima qiladi? Boshqa qiz qurib ketganmi? Sharmanda bo'lgan kelinni yana uyga qaytarib olib kelib nima qiladi?

— Olib kelishmaydi, Chorining onasi. Omonmurod sizning oldingizda aytdi-ku.. Yerga tirikʃayin ko'mamiz dedi-ku.

— Ishqilib, olib kelishmasin-da,— dedi Qo'nish boybicha.— Mening undaqa kelinni ko'rarga ko'zim yo'q. U shu hovlida men bilan birga turadigan bo'lsa, besh vaqt namozim harom bo'ladi.

— He, qorasi o'chsin!— dedi Bekmurodboyning xotini yana qaynanasining gapini ma'qullab. Qo'nish boybicha o'rtancha kelini bergan ro'molcha bilan terlagan peshonasini artdi-yu:

— Yo'q, u kasofat kelinni olib kelishadi,— dedi.— Senlar mening o'g'illarimni endi bilyapsanlar. Men ularning fe'lini kichikligidan bilaman. Omonmurod qizishib ketsa "unday qilaman, bunday qilaman" deb og'ziga kelganini aytaveradi. Keyin sal sovuganda aytgan narsasining ko'pini qilmaydi. Bekmurodjon unday emas. Ancha-munchaga qizishmaydi. Lekin "palon narsani qilaman", dedimi, aytganini qilmaguncha qo'ymaydi. "O'sha shallaqini o'ldirmayman, lekin o'lgandan battar qilaman", degan edi. Mana, ko'rasanlar, aytganini qilib, buzuq kelinni shu hovliga olib keladi. Keyin men qayoqqa qochaman? U bilan bir hovlida qanday turaman?

— Chorining onasi, duo qiling, ketganlar omon qaytsin. Nar-yog'i bir gap bo'lar.

— Ilohim eson-omon kelishsin. Lekin besh kunlik umrim qoldimi, yo'qmi, shuni tinchgina o'tkazay. Qayoqdagi bir cho'ponning qizi halovatimni buzib o'tiribdi. Menga shunisi alam qiladi!

Hovlidan fayton tovushi eshitildi. Kelinlardan biri sakrab turib, darchadan hovliga qaradi-yu:

— Voy, ana, olib kelishibdi! — dedi.

— O'tir joyingga! — g'azablanib dedi Qo'nish boybicha.

Darchadan qaragan kelin joyiga qaytib o'tirguncha bo'lmay eshik taraqlab ochildi-yu, ostonada Omonmurodning chang bosgan basharasi ko'rindi. Ko'zlarida g'oliblarga xos g'urur ifodasi bor. U oyisi bilan so'rashar ekan, kelinlar joylaridan qimir etmas va og'iz ochib so'z qotmas edilar — qaynona hukmi bunga yo'l bermas edi.

— Hamma eson-omon qaytdimi, bolam?

— Ha, yaxshi, — dedi Omonmurod. U Saparning o'lim to'shagida yotganini, Sarbozboyning yaralanganini kelinlar oldida aytgisi kelmadi. — Akam shaharda qoldi...

O'g'li chiqib ketgandan keyin Qo'nish boybicha birdan boshini ikki qo'li bilan changallab, chayon chaqqanday dodlashga tushdi:

— E, Xudoy taolo! E Xudo! E Parvardigor!

Kelinlar hammasi o'rinlaridan sapchib turishdi, uning atrofida parvonaday aylanishib, nima bo'lganini so'rashdi:

— Voy shunga ham farosatlaring yetmaydimi? — dedi Qo'nish boybicha. — Men imoni pok xotinman, hozir kelgan bezbet kelin bilan bir hovlida qanday turaman?

Qo'nish boybicha injiqliklarini o'g'illarining oldida qilmas, chunki ularga hukmini o'tkazolmas edi. Kelinlari esa unga qulday itoat qilishar, shuning uchun butun hunarlarini kelinlariga ko'rsatar edi. Kelinlari orasida Bekmurodboyning katta xotini qaynonasining bu fe'lini yaxshi bilar, uni tantiq bir bola kabi aldab-suldab yupatar edi. Hozir ham u qaynonasining yonboshiga par yostiq qo'yib:

— Chorining onasi, siz o'zingizni urintirmang, nima desangiz, o'g'illaringiz shuni qilishadi, — dedi.

Bu yolg'on maqtov Qo'nish boybichani sal yumshatdi. U par yostiqqa yonboshlab, qarilik tufayli o'zidan o'zi oqadigan ko'z yoshini rostakasi yig'lagan kishidek artdi. Katta kelin unga:

— Chorining onasi, bu uyatsiz kelin sizning ko'z yoshingiz tugul, harom tukingizga ham arzimaydi! dedi.

— Arzimaydi! — deb ma'qulladi boybicha. — Mening gulday kelinlarim bor — o'tirsam o'tiradi, kulsam kuladi, yig'lasam

yig'laydi. Shunday kelinlarning yoniga qayoqdagi shallaqini qanday qo'shaman?

— Qo'shmaysiz, Chorining onasi, undan hademay qutulasiz! — dedi katta kelin. — O'zingiz ilgarigi boylarning cho'risi ko'p bo'lishini aytar edingiz-ku. Cho'rini Buxorogami, Xivagami eltib sotsa, xo'jasini hech kim ayb qilmas ekan-ku.

— Ha, ha, men aytgan edim!

Bu sayoq kelinni ham bugundan boshlab, hammamiz shunaqa bir cho'ri o'rnida ko'ramiz. Xizmatimizni qiladi-yu, davramizga qo'shilmaydi. To o'lguncha tindirmay ishlatamiz. Kambag'aldan chiqqan qizlar serurug' bo'ladi-da. Omonmurodga o'g'il kerak. Yoshi qirqdan oshib, tirnoq ko'rmadi. Xudo ol qulim desa, bu xotini qo'sha-qo'sha o'g'il tug'ib beradi. Ana unda...

Birdan Qo'mish boybichaning chehrasi ochilib ketdi:

— Aylanay katta kelinimdan! Aqlli kelinim, bosh kelinim! — Qo'nish boybicha ikki qo'lini katta kelinining yelkasiga qo'yib davom etdi: — Omonmurodga tirnoq kerak! Farzand kerak!

Qo'nish boybicha birdan she'r ayta boshladi:

*Ot kerakdir otlanmoqqa,*
*Qo'ltig'idan ko'tarmoqqa.*
*Haq murodga yetirmoqqa*
*O'g'il kerakdir yigitga,*
*Zuryod kerakdir yigitga!*

"O'g'il! Farzand!" so'zlari Uzukning umrini uzaytiruvchi so'zlarga aylandi. Agar Qo'nish boybicha: "Bu kelinni yo'q qilmasalaring, rozi emasman!" deb turib olsa, Uzuk bugunoq o'limga mahkum bo'lar edi. Ammo Qo'nish boybicha Omonmurodga farzand kerakligini o'ylab, Uzukni gumdon qilishni bir necha yilga kechiktirdi.

— Borib qara-chi, — buyurdi u katta keliniga, — shallaqini qaysi uyga kirgizishgan ekan?

Omonmurod Uzukni Axaldan Mariga yetguncha do'pposlab urib kelgan, uning badanida sog' joyi qolmagan edi. Hozir Uzuk hovlida, devor tagida chala o'lik bo'lib yotar edi. Bekmurod-

boyning xotini uni ko'rib, qo'rqib ketdi, qaynonasining oldiga rangi quti o'chib kirdi-yu, voqeani aytdi.

Berahmlikda o'g'illaridan qolishmaydigan Qo'nish boybicha:

— Battar bo'lsin!— dedi.— Hali bu ham oz unga. Bekmurodjon aytganini qilmay qo'ymaydi! Senlar,— dedi boybicha kelinlariga,— hech qaysing bu sayoqqa yaqinlasha ko'rmanglar. Men aytmaguncha uning ahvolidan xabar olmanglar. Borib yotinglar!

Bekmurodboyning xotini tashqariga qarab turib:

— Tunlar juda sovuq, Chorining onasi, kechasi hovlida sovqotib o'lib qolmasin,— dedi.

— O'lsa to'ng'iz qavmida ketsin! Sovuqda o'lsa, mening ko'nglimdagi ish bo'ladi! Sen nega uning g'amini yeysan?

— G'amini yeb nima, mening qarindoshimmi u, sovuqda o'lsa o'laversin!— deb Bekmurodboyning xotini chiqib ketmoqchi bo'ldi.

Qo'nish boybicha katta kelinining boyagi ma'qul gapini esladi-yu, uni eshik oldidan qaytardi:

— Beri kel! Ma, mana bu kalitni ol. Qaznoqqa kirgizib, ustidan qulflab qo'y!

Katta kelin uning buyrug'ini bajo keltirdi.

Uzuk kechasi sovuqdan hushiga keldi. Qaznoqda na bir sholcha bor edi, na o'choq va na ko'rpa. Uning teshiklaridan izg'irin urib turardi. Omonmurodning yirtqichlarcha do'pposlashlaridan Uzukning a'zoyi badani momataloq bo'lib shishib ketgan edi.

Qo'nish boybicha kelinlarini berahm bo'lishga shuncha o'rgatsa ham, ularning orasida insonlik qiyofasini yo'qotmaganlari bor edi. Kechasi hamma uxlaganda shulardan biri qaznoqning tepasiga yopilgan kigizni ochib, Uzukka bitta chopon bilan bitta eski ko'rpacha tashladi. Shu bo'lmasa, Uzukni sovuq urib ketishi hech gap emas edi.

Ertalab Qo'nish boybicha o'rtancha kelninga buyurdi:

— Bor, qara, agar u sayoq sovqotib o'lmagan bo'lsa, rahmatli Omonsultonning uyiga kirgizib qo'y. Qaznoqda yotganini el-yurt bilsa gap qiladi.

... O'rtancha kelin borib qarasa, Uzuk uyg'oq o'tirar, ammo kechagi kaltak zarbidan va tungi sovuqning zahridan oyoq-qo'li karaxt bo'lib qotib qolgan edi.

— Tur o'rningdan,— dedi o'rtancha kelin.

.... Uzuk bir-ikki talpindi-yu, ammo o'rnidan turolmadi.

Shunda o'rtancha kelin "qaynonam ko'rmasmikan?" deganday xavotirlanib eshikdan mo'raladi. Hech kim ko'rmayotganiga amin bo'lgach, Uzukning ustiga engashib, qo'ltig'idan ko'tardi. Uzuk og'riqdan ingrab o'rnidan turdi. Ovsini beixtiyor:

— Qayering og'riydi?— deb so'radi.

Uzuk tishini tishiga qo'yib, bo'g'iq tovush bilan:

— Hech qayerim,— dedi va devorni ushlay-ushlay tashqariga yo'naldi.

Ovsini unga jirkanibroq qarab, shunday bo'lsa ham qo'ltig'idan olib, ko'maklashmoqchi bo'lar edi.

— Siz menga qo'lingizni tekkizmang,— dedi Uzuk.— Men hozir qora qozonman... Yaqin yursangiz qozonning qorasi yuqadi.

Uzuk shu ahvolda ham g'ururini yo'qotmagani ovsinini tang qoldirdi. U bilmas edi-ki, Berdi bilan birga o'tkazilgan mas'ud kunlar va bu orada uchratgan yaxshi odamlari Uzukdagi g'urur hissini mustahkamlagan, u o'z zolimlari oldida tiz cho'kmaydigan, ularga qarshi nafratini hech vaqt yo'qotmaydigan ayolga aylangan edi.

Uni Omonmurodning o'lib ketgan kichik xotini turgan uyga kiritib qo'yishdi. Uzuk bir oydan ortiq kasal bo'lib yotdi. U kunduzlari hovliga chiqmas, faqat kechasi hamma uxlaganda chiqar edi. Qaynonasi, eri va qaynog'asi uni ko'rishni qanchalik istamasa, Uzuk ularning diydoridan shunchalik bezor edi. Uning ahvolidan faqat ovsinlari xabar olib turishar edi. Bu atrofda hech kim uning nomini ovoz chiqarib aytolmas, qaynonaning talabi bilan unga "Sayoq" degan nom berilgan, o'zaro gapda faqat shu nom tilga olinar edi.

* * *

Berdi Nurmuhammad og'a bilan qamoqxona kasalxonasida uch-to'rt marta ko'rishdi-yu, yaralari tuzalgandan keyin ular bir-birlarini yo'qotib qo'yishdi.

Nurmuhammad og'ani qutqarib olish uchun hamqishloqlari pul yig'ib, ariza yozib, juda ko'p harakat qilishdi. Qo'shni qishloqlarda ham uni yaxshi biladigan odamlar ko'p edi, keyinchalik ular ham arzga kelishdi.

Bir oy yugurishib, uni va politsiyachilarga qarshilik qilgan to'rt dehqonni kafillikka olishga muvaffaq bo'ldilar.

Shundan keyin Nurmuhammad og'a Berdini kafillikka olishga urinib ko'rdi, ammo hech ish chiqarolmadi.

Bekmurodboyning poralari uni eng xatarli mahbuslar orasiga tashlagan, Berdi yo umrbod katorga bo'lishi yoki otilishi kerak edi...

## SUBHON XASISNING "SIYLOVI"

Qoraqum sahrosida qo'y boqib yurgan Murod og'a bu voqealardan haligacha bexabar edi. U hanuzgacha Uzukni Berdiga qanday to'y qilib berishning rejalarini tuzib yurar edi. To'yga tayyorlanish uchun ketgan Berdi qaytib bormadi. Shunda Murod og'a uch-to'rt kun xavotirlanib yurdi. Ammo beshinchi kuni Subhon xasisning o'g'li bir tuyaga un ortib, Bayram degan cho'pon yigitni Berdining o'rniga olib kelib qo'ydi. Murod og'a Berdini so'ragan edi, xasisning o'g'li qovog'ini solib:

— Bilmayman,— dedi.

Oqko'ngil Murod og'a o'zicha o'yladi: "Demak, Berdi to'yga tayyorlanaman deb qishloqda qolgani bularga yoqmayapti. Albatta, yoqmaydi-da. Boylarning so'zini yerda qoldirib, qizimni bir kambag'alga bersam, bularga yoqarmidi!" Shu o'y bilan Murod og'a yana bir oycha bexavotir yurdi, chunki Berdi to'yga bir oy — qirq kun tayyorlanishi kerak edi.

Berdining o'rniga kelgan Bayram boshqa qishloqlik bo'lgani uchun Murod og'aning qishlog'ida bo'lib o'tgan hodisalarni eshitmagan edi.

Subhonboy bilan uning o'g'li esa Murod og'aga qizining ne ko'ylarga tushganini ataylab bildirmas edi. Chunki Murod og'a buni eshitsa, qo'yni tashlab ketib qoladi. Kuz o'tib, qish kelyapti. Qoraqum sahrosining bir chetidagi bu uzoq yaylovga Murod og'aday yaxshi cho'pon topib borish oson emas. Qo'ylar nobud bo'lishi mumkin. O'raz xola Subhonboyga bir necha marta "Erimni

chaqirtirib bering!" deb yalinib bordi. Subhonboy avval "ana-mana" deb aldab yurdi-yu, keyin jerkib berdi:

— Eringni chaqirganimda qo'lidan nima kelar edi? Archin Mamat shuncha pul yig'ib, shuncha urinib, nimaning uddasidan chiqdi-yu, sening cho'pon ering nimaning uddasidan chiqadi!

— Chiqmasa ham qizining nima ahvolga tushganini bilishi kerakmi, yo'qmi? Keyin armonda qolmaydimi?

— Yaylov juda uzoq, borib xabar beradigan odam yo'q!

— Bo'lmasa, joyini ayting, o'zim odam yuboray.

— Joyi Qoraqumda, kerak bo'lsa, topib olinglar.

— Voy, qanday topamiz? Qoraqumning u boshidan bu boshigacha bir oylik yo'l-ku!

— Men qancha pul sarflab, u yaylovda quduq qazitganman. Qayerdaligini aytsam, hamma suruvlar o'sha yoqqa borib, oyoq osti qilib yuboradi!.. Aytmayman!

O'raz xola O'g'ilniyoz xolaning o'g'illari yoniga Turdini qo'shib, Subhon xasisning qudug'ini bir necha kun qidirtirdi. Ammo uning qaerdaligini boydan boshqa hech kim bilmasdi. Shunday bo'lsa ham O'raz xola Subhon xasisni ko'chada uchratib qolib do'q qildi:

— Qudug'ingizni biladigan odam bor ekan, erimning oldiga ketdi. Men tayinlab yubordim: "Subhonboydan yaxshilikcha qutulmaydigan bo'lsangiz, qo'lingizdagi suruvni qirib qutulasiz, ayamang qo'ylarini", dedim. Xudo xohlasa, qo'ylaringizdan ajraganda ko'zingiz moshdek ochiladi!

Subhonboy bu xotindan osonlikcha qutulolmasligini sezdi. "Yaxshi gapga ham farishta omin deydi, yomon gapga ham,— dedi ichida. — Kel, shuning qarg'ishini eshitib yurguncha, erining bahridan o'ta qolay". Subhonboy bozorga borib, bitta cho'pon bilan bir cho'liqni yolladi-yu, izg'irin shamolda sahroga jo'nadi.

U yo'lda ekanida qor bo'roni boshlandi. Qishda tug'ilgan o'ntacha qo'zilarin Murod og'a yerto'laga qamab qo'ygan edi. Qor bo'ronida u suruv bilan andarmon bo'lipdi-yu, yerto'laning eshigiga to'silgan chiyni shamol uchirib ketganini bilmay qolibdi. Izg'irin aralash qor yerto'laning ichini to'ldirib, qo'zilarning hammasi sovuqda o'lib qolipdi. Aksiga olib, Subhon xasis shu

hodisaning ustiga kelib qoldi. Uning nazarida, O'raz xolaning gapi rost chiqqanday ko'rindi. Subhon xasisning joni halqumiga kelib, Murod og'aga baqira boshladi:

— Sen hali xotiningni aytganini qilyapsanmi?! Qo'ylarimni ataylab qiryapsanmi?!

— Xotinimni men ikki oydan beri ko'rganim yo'q, qanaqa qilib uning aytganini qilay?

— Qo'yimni qiradiganning o'zini qiraman!

— Nainki biz ataylab qirsak, Subhon og'a? Bu qo'y-qo'zilarga ozmuncha mehnatim singganmi?

Subhon xasis muzlab qotib qolgan qo'zilardan birini ag'darib ko'rib, ko'zlari olayib ketdi:

— Oh! Oh! Hademay katta qo'y bo'lar edi!

— Sovliqlarni biz zo'rg'a qutqarib qoldik, bo'lmasa, bo'ron butun suruvni qumga quvib ketayotgan edi,— dedi Eson.

— Yo'qol, ko'zimga ko'rinma!— baqirdi Subhon xasis. Men bugun yetib kelmasam, erta-indin butun suruvdan ayrilar ekanman!

— Ishonmasangiz, mana yaqinda yuborgan cho'poningizdan so'rang, — deb Murod og'a boyga Bayramni ko'rsatdi.

Subhon xasis Bayramdan o'z shubhalarini tasdiqlovchi so'z kutar edi. Bayram esa Subhonboyga dumbalarini zo'rg'a ko'tarib yurgan semiz sovliqlarni ko'rsatib dedi:

— Bo'g'oz sovliqlarni bunchalik semirtirish oson emas, Subhon og'a. Bu suruvni astoydil suyub boqmagan odam sovliqlarni bunday semirtira olmas edi. Esonning gapi rost. Murod og'a butun suruvni qutqarib qoldi.

— O'lgan qo'zilarchi?! Bularga nima deysan?!

— Bularning ajali yetgan ekan-da. Nima qilamiz endi? Ajali yetsa, odam o'ladi-yu.

— Bular hammasi til biriktirgan, — dedi Subhon xasisning o'g'li. — Mana bu Bayram degan mahmadanasi dor tagidan qochganlardan ekan. Men keyin eshitib qoldim. "Boylar kambag'allarning qonini so'radi, oq poshsho ham zolim boylarga o'xshaydi", deb Marida ig'vo qilib yurgan ekan. Pristav, qo'lga oladigan bo'lganda cho'liq bo'lib sahroga qochibdi!..

— Ha, ablah, muttaham! Sen ham Murodning qo'ltig'iga suv purkab, qo'zilarni ataylab muzlattiribsan-da!

...Bayram Murod og'aga qarab:

— Aytmaganmidim?— dedi.— "Boylar ko'r bo'ladi, yaxshilikni bilmaydi", deganimda, ishonmagan edingiz!

So'nggi gap Subhonboyning o'g'lini g'azabga keltirdi. Ot o'stida o'tirgan holda qamchisini ko'tarib, Bayramga hamla qildi. Ot yaqin kelganda Bayram otning bo'yniga tayog'i bilan bir urdi-yu, uni boshqa yoqqa burilib ketishga majbur qildi. Boyvachchaning Bayramga urmoqchi bo'lgan qamchisi havoni chiyillatib kesib o'tdi. O'zi egar ustida chayqalib ketdi, ammo oyog'ini uzangiga qattiq tirab, yiqilmay qoldi. Subhonboyning o'g'li battar g'azablanib, otdan tushdi-da, belidan pichog'ini oldi. Bayram cho'ponlik tayog'ini ikki qo'llab ûshlab, boyvachcha yaqin kelsa, urishga tayyorlandi:

— Qani, boyning o'g'li, joningdan to'ygan bo'lsang yaqinroq kel! — dedi.

— Sen kimni urmoqchi bo'lyapsan?!— deb Subhonboy ham unga hamla qildi va Murod og'aning qo'lidagi tayoqqa qo'l cho'zdi.

Ammo Murod og'a unga tayog'ini bermadi. Shunda Subhon xasis bozordan yollab olib kelgan yangi cho'pon bilan cho'liqni yordamga chaqirdi:

— Qani, bu yoqqa kelinglar! Tayoqlaringni olib kelinglar! Qaroqchini ushlashga yordamlashinglar!

Eson Bayramga yordam bermoqchi bo'lib, uning yoniga o'tdi. Murod og'a esa behuda qon to'kilishidan qo'rqib, goh boyga, goh yangi kelgan cho'ponlarga yuzlanib gapira boshladi:

— Baraka topinglar, urushmanglar. Subhon og'a, bizni ket dedingiz. Xo'p, ketsak, keta qolamiz. Men yigirma yil qo'yingizni boqdim. Hozir o'nta qo'zi o'lgan bo'lsa, yigirma yildan beri men bundan yuz marta ortiq qo'zingizni qo'y qilib berganman. Shuning hurmati, meni kechiring.

— Daf bo'l! Ko'zimga ko'rinma!

— Xo'p, xo'p,-deb Murod og'a qo'shga borib, mayda-chuydalarini yig'ishtira boshladi.

Yangi kelgan cho'pon bilan cho'liq Bayramga qo'l ko'tarishni o'zlariga ep ko'rmadi. Shundan keyin Subhonboyning o'g'li so'kina-so'kina suruvga qarab ketdi.

Bayram tayog'iga ko'kragi bilan suyanib turib:

— Subhonboy! — dedi. — Men bir oy ishladim, haq so'ramasam ham bo'ladi. Lekin Murod og'a bilan Esonga haqlarini berishingiz kerak!

— Mendan haq so'raguncha o'lgan qo'zilarning tovonini to'langlar!

Murod og'a Bayramga:

— Hozir gap qaytarma, keyin jahlidan tushganda bir insofga kelib qolar, — deb shivirladi.

Bayram Murod og'aning yumshoq tabiatligidan norozi bo'lib, bosh chayqab qo'ydi-da, qo'shdagi tugunchani qo'liga oldi.

Yangi kelgan cho'pon bilan cho'liq ikki orada bo'lib o'tgan gaplarga jim quloq solib turishar edi.

Bayram ketayotib, ularga yuzlandi:

— Ko'rdilaringmi? Bu boylar sizlarni ham ishlatib-ishlatib, oxirida mana shunaqa qilib haydaydi! Undan ko'ra yuringlar, birga ketamiz. Men sizlarga boshqa ish topib beraman. Bular qo'ylarini o'zlari boqib ko'rishsin.

Subhonboy qo'rqib ketdi. Jonholatda yerga engashib, mushtday bir toshni oldi-da:

— Yo'qol! — deb Bayramga otdi.

Tosh Bayramning yelkasiga tegdi. Bayram uni urmoqchi bo'lib hamla qilgan edi, Murod og'a oraga tushdi:

— Bayramjon, o'zingni bos, mo'ysafid odamga qo'l ko'tarish yaxshi emas! Yur, shu yerdan eson-omon ketaylik.

Naryoqdan Subhonboyning o'g'li chopib keldi. Yangi kelgan cho'ponlarga:

— Qani, boringlar, suruv tarqab ketmasin! — deb buyurdi.

Qahraton qishda och qaytib ketishni istamagan cho'pon bilan cho'liq boyvachchaning amriga noiloj bo'ysunib, suruvning ortidan ketishdi. Murod og'a, Eson va Bayram boshqa tomonga yo'l olishdi. Murod og'a katta qilgan Yo'lbars ismli bo'ribosar it ularga ergashdi.

— Itni tashlab ketinglar! — g'azab bilan qichqirdi Subhonboy.

— Yo'lbars, qayt! Yo'lbars, qo'shga bor! — buyurdi Murod og'a itga.

It joyida birpas to'xtab, Murod og'alarning ortidan qarab turdi. So'ng yana ularga ergashdi. Shunda Eson orqasiga o'girilib, Subhonboyga:

— Ko'rdingizmi — dedi. — Sizning qanaqaligingizni shu it ham sezibdi!

— E, bas, buncha o'chakishma! — deb Murod og'a uni qo'lidan tortdi.

— Murod og'a, siz buncha boylardan qo'rqasiz?— dedi Bayram.— Axir bular...

— E bulardan Xudo o'zi asrasin, — dedi Murod og'a.— Bular o'chakishsa, paytini topib, o'ldirib ketishdan ham toymaydi. Men o'z ko'zim bilan ko'rganman...

Qo'shdan ancha uzoqlashganlaridan keyin Murod og'a o'sha ko'rgan narsasini aytib berdi:

— Ilgari mening Omonmuhammad degan cho'lig'im bor edi. Qotmadan kelgan, baland bo'yli, qiyiq ko'zli yigit edi. Olti yilmi, yetti yil birga qo'y boqdik. Men shu yigitning biror marta boshini xam qilib, xafa bo'lib yurganini ko'rgan emasman. Doim kulib, sho'xlik qilib, xushchaqchaq bo'lib yurar edi. Nima ish bo'lsa qochmas edi, "Murod og'a, qo'ying, men o'zim qilaman", deb turardi. O'zi ham ishlab charchamaydigan yigit edi. Lekin bu Subhon xasis bilan uning o'g'li shu yigitni ham oxiri bezor qildi. Yil ketidan yil o'tadi, ana-mana deb hech haq to'lamaydi. Birda-yarim falokat bo'lib qo'y-qo'zi o'lib qolsa, "tovonini to'laysan" deb yopishadi. Bir kun xasisning shu katta o'g'li kelganda Omonmuhammad yana o'z haqini so'radi. Boyvachcha o'lgan qo'ylarining tovonini pesh qildi. Ikkovi so'kishib qoldi. Omonmuhammad kichikligidan shularning xizmatini qilar edi. Har yili to'rttadan qo'y olganda ham, xizmat haqi o'ttiz-qirqta qo'y bo'lar edi. "Hozir borib, suruvdan o'z tegishimni ayirib olib ketaman", dedi. Men o'choq boshida qatirma non pishirayotgan edim. Omonmuhammad haligi maqsad bilan suruvga qarab ketdi. Boyvachcha sekin uning orqasidan bordi. "Qaytarib olib kelmoqchi, shekilli", deb

o'yladim. Bir vaqt chinqirib qoldi. Qarasam, Subhonboyning o'g'li Omonmuhammadning orqasidan borib, chap biqninga pichoq solibdi-da! Bechora yiqilib yotibdi. Men "hay-haylab" yetib borgunimcha yana ustma-ust pichoq urib, shundan azamat yigitni o'ldirib qo'ydi.

— Boyagi boyvachcha-ya? — so'radi Bayram.

— Ha, o'sha. Ko'zlari qontalash bo'lib kosasidan chiqib ketgan. "G'ing desang seni ham so'yaman!" deydi. Odam o'ldirgan kishi yomon bo'lar ekan. Men shunday qo'rqdimki, hali ham shu boyvachchani ko'rsam yuragim orqasiga tortib ketadi.

— Bu qotil haligacha jazosini tortmay yurgan ekan-da?

— Kim bularga jazo beradi, Bayramjon? Cho'li biyobonda buni kim ko'ribdi?

— Sizchi?

— Bitta men ko'rganim bilan qo'limdan nima keladi? Omonmuhammad yetim o'sgan bola ekan, aka-ukasi, ota-onasi yo'q ekan. O'zi "bittagina mungli singlim bor" der edi. Lekin men singlisining qayerga tushganini bilmas edim. Bir kun Qoraqumdan uyga borayotib, yo'lda uchragan bir qishloqda tunamoqchi bo'ldim. Yo'l bo'yidagi bir hovliga kirib, "Qoraqumdan kelyapman, yo'lim uzoq, charchab qoldim", degan edim, durust odamlar ekan, joy berishdi. Obi osh qilishdi. Uy egasi bir yoqqa ketgan ekanmi, yoshgina bir yigit mezbonlik qildi. Durustgina bola ekan, u yoqdan bu yoqdan gaplashib o'tirdik. Gapdan gap chiqib, men Subhon xasisning qo'ychivoni ekanligimni aytdim. "E shundaymi?— dedi yigitcha.— Omonmuhammad degan cho'ponni bilasizmi?" — "Ha, bilar edim, rahmatli nohaq o'lib ketdi" dedim-u, ko'zimdan yosh chiqib ketdi. Yigit o'rnidan turib, hovliga chiqdi, narigi uydan kimnidir chaqirdi, unga bir narsalar dedi. Bir vaqt chiroyli bir juvon yig'lab, mening oldimga kirib keldi. Yuzini yashirish ham esidan chiqqan bo'lsa kerak. Shunday qarasam, xuddi rahmatli Omonmuhammadning o'zi. "Subhonboy akamni "qochib ketdi" deb ovoza qildi,— dedi juvon eshik oldida cho'nqayib o'tirarkan. — Qochsa, uch oydan beri mening oldimga kelmasmidi? Boyvachcha uni o'ldirgani rostmi? Siz ko'rganmidingiz? Aytib bering, rost bo'lsa, men akamga aza ochay!" Men bo'lgan voqeani aytib berdim. Bechora juvon:

"Voy, yolg'izim akam, voy tug'ishganim, akam!" deb yig'lab hovliga chiqdi. Men ham...

Murod og'a u yog'ini aytolmay yig'lab yubordi:

— Ey, bolalarim, bu dunyo shu ekan, — dedi. — Bechora juvon akasiga aza ochdi-yu, yig'lab-siqtab qolaverdi. Qo'lidan nima keladi? Boyvachcha, mana, otini gijinglatib yuribdi. Shuning uchun men boya seni qaytardim, Bayramjon. Bular bilan olishib, yaxshilik ko'rmaysan! Zamona shularniki!

— Lekin boyvachchalarga yon beraverish ham yaxshi emasda, Murod og'a, — dedi Bayram. — Bo'sh kelsangiz, bular juda quturib ketadi.

— Rost! — deb Eson Bayramning tarafini oldi.— Murod og'a, mening ham otam yo'q, necha yildan beri men sizning qo'lingizda o'sdim. Siz menga otamday tarbiya berdingiz. Murosali, muomalali bo'l dedingiz, men "xo'p" dedim. Lekin bugun Bayram og'aning ishi menga ko'proq yoqdi. Boyvachcha qamchi ko'targanda bu kishi bo'sh kelsa ko'rar edingiz! Ota-bola bizni oyoqosti qilib tepkilar edi! Orqamizdan kelib pichoq urishdan ham toymas edi. Bayram og'a otini boplab urgandan keyin, o'zi ham yo'lay olmay qoldi.

— Ha, bo'sh kelmasak kuch biz tomondaku-ya, — dedi Bayram. — Agar boyagi cho'ponlar ham biz bilan birga jo'nasa edi, ota-bola ikkalasi Qoraqumda qishda rosa ko'rgiligini ko'rar edi. Suruvlari qirilib, o'zlari qochadigan joy izlab qolar edi. Haligi cho'ponlar ko'nmadi-da.

— Qanday ko'nsin, — dedi Murod og'a. — Bechoralar ochlikdan qochib kelgan kambag'allarga o'xshaydi. Boya tuyaga ortib kelgan unni tashlab qayoqqa ketadi?

Uchchalalari shu tariqa gaplashib, uzoq yo'l yurishdi. Kechasi osmon bulut bo'lgani uchun yulduzlar ko'rinmay, boshqa tomonga ketib qolishgan ekan, buni tong otgandan keyin bilishdi. Yana bir kecha-yu, bir kunduz yo'l yurishib, nihoyat, qishloqqa boradigan so'qmoqqa chiqishdi. Keksaligi asar qildi shekilli, Murod og'a juda charchab qoldi. O'z taqdiridan shikoyat qilib:

— Sho'rpeshona ekanmanda, — dedi. — Butun umrim mana shunaqa azob-uqubat bilan o'tyapti. Aytaversam, alamimdan ko'z

yoshimni tiyolmayman... Agar mendan biror gap o'tgan bo'lsa, xafa bo'lmanglar. Endi umrimning ko'pi ketib, ozi qolgan...

Bayram Esonga bir qarab oldi-da:

— Yo'q, Murod og'a, biz sizdan nega xafa bo'lamiz? — dedi. — Qani edi hamma ham sizday bo'lsa!

So'qmoq Mariga boradigan yo'lni kesib o'tgan joyda yigitlar Murod og'a bilan xayrlashdilar.

— Men endi Bayram og'adan ajralmayman, — dedi Eson. — Shu kishi nima bo'lsalar, men ham shu.

— Ishqilib, ehtiyot bo'linglar. Kushoyishi korlaringni bersin!

Ikki yigit Mariga qarab ketdi. Murod og'a esa uzoqda daraxtlari elas-elas ko'rinayotgan o'z qishlog'iga tomon yo'l oldi. Qish sovug'i, uyqusiz tunlar, yarim och ahvolda sahroda adashib yurishlar uni tamoman holdan toydirgan edi. Ammo kampirni, qizi Uzukni, bo'lajak kuyovi Berdini, o'g'li Turdini ko'rish umidi, Uzuklarga yaqinda to'y qilib berish orzusi unga madad berdi, bir amallab uyiga yetib keldi.

Biroq huvillab qolgan uyida bundan yuz marta yomon azob, ming marta og'ir kulfat kutmoqda edi. Uzukning kulib, quvonib chiqishini kutgan Murod og'ani alamli ko'z yoshi bilan O'raz xola qarshi oldi:

— Qayerda yuribsiz, dadasi?! Qizimizdan ayrilganimizga ikki oy bo'ldi?.. Sizni qidirib topolmadik... Qayerda edingiz?!

— Nima bo'ldi?! Uzukka nima bo'ldi?!

— Boylar olib qochib ketdi, — dedi Turdi.

Murod og'a turgan joyida taxta bo'lib qoldi. U gandiraklab yiqiladigan bo'lganda, Turdi uni suyab, kigiz ustiga yotqizdi.

Murod og'a bir yarim oy o'rnidan turolmay kasal bo'lib yotdi.

## MARDIKOR BOZORI

Kishilarning ipini yigirib, o'rmagini to'qib, tirikchilikni bir amallab tebratib turgan O'raz xola erini iloji boricha parvarish qildi. Oilaning boshiga tushgan kulfatdan tez ulg'ayayotgan Turdi ham ro'zg'or ishlarida oyisiga yaxshi ko'maklashar, bo'sh qolganda bemor otasining yonidan jilmas edi. Endi o'n to'rtdan o'n

beshga o'tayotgan o'smir bo'lganligi uchun ba'zan uning o'ynagisi kelar edi. Shunda ham otasining oldida o'tirib, o'zi bilan o'zi oshiq o'ynar edi. Ota-onaning birdan-bir suyanchig'i, kelajakdan kutadigan umidlari shu Turdi edi. Buni bolaning o'zi ham sezar, shu og'ir kunlarda ota-onasiga qo'lidan kelganicha madad berishga intilar edi... Murod og'a sal darmonga kirib, hovlida bir pas- yarim pas yuradigan bo'lgandan keyin:

— Endi Uzukdan bir xabar olib kelsammikan? — dedi.— Qizim bechoraning holi nima bo'ldi ekan?

Uzuk Berdi bilan Axalga qochib borib, yana qo'lga tushgani, biri qamalib, biri kasal bo'lib yotgani Murod og'aga ham ma'lum edi. U kampiri bilan shu to'g'rida ko'p gaplashar, ikkovi ham "endi Uzukni qutqarib ololmaymiz" deb tan berishar, ammo baxtsiz farzandlarini og'ir kunlarda borib ko'rib, uning ko'nglini sal ko'tarib kelish istagi yuraklaridan ketmas edi. Murod og'a Uzukni borib ko'rishdan gap ochgach, O'raz xola uning yuziga tikilib qaradi. Murod og'a ozib, sarg'ayib ketgan, bir yil kasal bo'lib yotgan odamga o'xshab qolgan edi.

— Dadasi, borganingiz bilan boylar uni sizga ko'rsatmaydi. Men xolis bir eshonnikiga borganimda ko'rsatmagan edi-ku. Endi Uzuk Berdi bilan qochib, Bekmurodboylarni sharmanda qilibdi. Shuning ustiga borsangiz, alamlarini sizdan olishadi.

— Qishloqlarida bitta-yarimta yaxshi odam bordir, axir o'shalar orqali Uzukni chaqirtirsam...

O'raz xola Uzukning holidan xabar olishni Murod og'adan ham ortiqroq istar edi-yu, biroq darmondan ketib, zo'rg'a oyoqda yurgan eri yana biror falokatga uchrashidan qo'rqar edi. Shuning uchun Murod og'ani Bekmurod boylarning qishlog'iga borishdan qaytardi. Uning xayolini boshqa yoqqa burish uchun ro'zg'or tashvishlaridan gap ochdi.

— Yana choyimiz tamom bo'ldi... O'tgan kuni O'g'ilniyozdan qarz olgan edim. Tag'in so'rashga tilim bormaydi.

— Subhon xasisga bor, haqimizni bersin.

— Kecha borgan edim. "Murod og'ani bekorga haydab yuboribsiz, kasal bo'lib yotibdi, yeydigan narsamiz yo'q", deb haqingizni so'radim. "Menda haqi qolgan emas, harom o'lgan qo'zi-

lardan so'rasin haqini!" deydi. "Mendan boshqa boy bo'lsa, tovonini to'latib olar edi, hali ham senlarga rahm qilyapman", deydi. Siz suruvini boqqaningizdan beri nechta qo'yi o'lgan bo'lsa, hammasining hisobini olib yurgan ekan, menga sanab berdi. "Qo'ylaringiz o'z ajali bilan o'lib, besh-o'nta kamayganini hisoblabsiz, yigirma yildan beri necha mingta ko'payganini nega hisoblamaysiz?" dedim. Gap topib berolmay qoldi-yu: "Bor, ishingini qil, endi menikida qiladigan ishlaring yo'q, bo'lar-bo'lmasga kelaverma", deb chiqarib yubordi.

— Shu la'natining suruvidan allaqachon ketishim kerak edi-yu, lekin o'zim bo'shlik qildimda. Birorta dehqonning yoniga borib, chorakorlik qilsam ham bunchalik bo'lmasmidi?

— Albatta, bunchalik bo'lmas edi. Uzukning o'g'irlanishida ham Subhon xasisning qo'li bor. Buni hamma sezadi, lekin hech kim isbot qilolmaydi. Yigirma yil qo'yini boqib, na kiyimga yolchidingiz, na buyumga. Endi iloj bo'lsa, dehqonchilik qiling.

— Rost, bugun choy tamom bo'lsa, ertaga un tamom bo'ladi. Bo'sh qop tikka turadimi? Men birorta yangi ish topishim kerak. Chorakorlik ham oson ish emas-u, lekin nima qilamiz?...

— Har qalay, yaqinroqda bo'lasiz-ku,— dedi O'raz xola.— Cho'pon bo'lganingizda uch oylab, besh oylab uyga kelmas edingiz. Men ham endi qariyapman. O'lib-netib qolsam, sizga xabar berib bo'lmasa, bundan yomoni yo'q.

— Yomon nafas qilma, xotin. Bizga endi shu ko'rgiliklar ham yetar.

— E, axir, Uzukning boshiga shunday ish tushganda sizga xabar berolmay qancha qiynaldik!

— Bo'pti, men ertaga ertalab Mariga boraman. Mardikor bozori bor deb eshitgan edim. Omadimiz kelib, zora birorta durust odam ishga chaqirsa...

— Mayli, ungacha men ham odamlar uchun o'rmak to'qib, ko'rpa qavib, ro'zg'orni eplashtirib turarman.

Ertasi kuni Murod og'a azon palla turib, belini chilvir bilan bog'ladi. O'raz xola unga bitta non tugib berdi.

— Sizni birov ishga yollamoqchi bo'lsa, avval yuziga yaxshilab qarang. Yaxshi odamning yuzi ochiq, peshonasi keng bo'ladi. Qoshi qo'shilgan, rangi zahil odamlar yomon bo'larmish.

Bugun Turdi ham erta turgan edi. U otasining hali quvvatga kirmaganini sezib, xavotirlanar edi.

— Dada, qachon qaytasiz? — dedi Turdi.

— Endi uyga tez-tez kelib turaman.

— Bo'lmasa, men ham birga boray.

— Borib nima qilasan, o'g'lim?

— Siz nima qilsangiz — shuni-da.

— Yo'q, men tirik bo'lsam, sen mardikorlik qilmaysan. Sen buni havas ham qilma.

Turdi indamay otasini qishloqning chetigacha kuzatib bordi. Uning otasiga rahmi kelar, o'pkasi to'lib durust gapirolmas edi. Murod og'a o'g'lining so'nggi uch-to'rt oyda qanchalik ulg'ayib qolganini endi sezdi.

— Endi onang ikkovimizning butun umidimiz sendan , Turdijon, — dedi. — Onangga ko'maklash. Uni xafa qilma.

— Xo'p, dada... Siz ham... hali uncha darmonga kirganingiz yo'q... Uzlikib qolmang.

Turdining gavdasi ingichka bo'lsa ham, bo'yi otasining bo'yiga barobar kelib qolgan edi. Murod og'a birinchi marta u bilan quchoqlashib xayrlashdi.

Murod og'a dala yo'lidan yolg'iz borar ekan, "E, Xudo! — derdi ichida.— Yetti yil halol qo'y boqqan odamga Xizr uchraydi, deyishar edi. Xizr uchraganda nima tilasang beradi, deyishar edi. Menku o'ttiz yil halol qo'y boqdim. Nega menga Xizr uchramadi? Mening tilagim — qizimni eson-omon o'ziga munosib joyga uzatish edi. Nega shu tilagimga yetolmadim? Yo namoz o'qimaganim uchunmi? Rost, menga hech kim namozni o'rgatgan emas. Mening peshonam har kuni besh vaqt yerga tegib turmaydi. Lekin... namoz o'qimaydigan haromxo'r boylar, boyvachchalar ko'p-ku. Nega mening boshimga tushgan kulfatlarning yuzdan biri ham ularning boshiga tushmaydi? Nega doim ularning oshig'i olchi? Ajib dunyo ekan bu! Hech narsaga tushunib bo'lmaydi".

Murod og'a shunaqa o'ylar bilan Murg'ob daryosidan o'tib, bozorga yetib keldi. Ko'k tunuka bilan yopilgan kappon ko'zga tashlanardi. Murod og'a mardikor bozorini izlab, shu kapponning yonidan o'tar ekan, mollarni tikka turib sotayotgan odamlarga uchradi.

Tikka turib mol sotganlar bozor haqini kamroq to'lar edi, shuning uchun mayda-chuydalarini yerga yoyib, o'tirib mol sotadiganlar — yoymachilar kamroq edi. Bir vaqt o'tirganlar ham, tikka turganlar ham "gur" etib darvoza tomonga qarab qochdi. Surunganiga, yiqilganiga qaramay qochayotgan odamlar Murod og'ani taajjublantirdi. U ham vahimaga tushdi. "Ayrilganni bo'ri yer", degan maqolni eslab, eldan ayrilib qolgisi kelmadi-yu, ko'pchilikka qo'shilib, ketiga qarab qochdi.

Odamlar ancha joygacha qochib borishdi-yu, keyin birbirlaridan so'ray boshlashdi.

— Nima bo'ldi, o'zi? Nimadan qochyapmiz?

— Bilmadim. Odamlar qochganiga bir balo bo'ldi-yov, deb o'yladim.

— Tavba!..

— Nima bo'lganini hech kim bilmaydimi?

— Astag'firullo!

— Biladiganlar bordir.

Odamlar so'rab-so'rab, nihoyat, gapning tagiga yetishdi. O'g'rilar ikkita och itni bozorning o'rtasiga olib kelishibdi. Bittasining bo'yniga ozgina go'sht bog'lab qo'yilgan ekan. Narigisi shu go'shtni yemoqchi bo'libdi, bunisi qizg'anib bermabdi, ammo boshini burib, bo'ynidagi go'shtni o'zi ham ololmabdi. Ikkovi go'sht talashib, o'mbaloq oshib urishibdi. Shunda o'g'rilar: "Qoch, quturgan itlar qopadi, o'lasan!" deyishibdi. Odamlar jonholatda qochgandan keyin o'g'rilar yerda egasiz qolgan mollarni istaganlaricha o'marishibdi. Xaloyiqning orasiga tiqilib kirib, qancha kishining cho'ntagini qoqlashibdi-yu, qochganlar o'zlariga kelguncha g'oyib bo'lishibdi.

Murod og'a molini, pulini oldirganlarning dod-voyini ko'rib, ichi achib borayotganda, dunyo g'amlarini unutib, xo'roz urishtirayotgan odamlarning ustidan chiqib qoldi. Xo'rozlardan biri qora qonga belangan, ikkinchisiga esa hech narsa qilmagan. Ma'lum bo'lishicha, ikkinchisining egasi xo'rozining tojiga yog' surtib qo'ygan ekan. Narigi xo'roz cho'qib uzib olmoqchi bo'lganda yog'dan silliqlashgan toj tutqich bermabdi. Birinchi xo'rozning egasi buni sezib qoldi. "G'irromlik bilan yutmoqchimisan!" deb

ikkinchi xo'rozning egasiga bir musht tushirdi. Unisi ham mushtini ishga soldi. Bir pasda ikkovi xo'rozlaridan ham battar qonga belanib og'izlarini burunlaridan ajratish mushkul bo'lib qoldi.

Shunda odamlar kulishib: .

— O'zlari xo'rozlaridan qattiqroq urishar ekan-ku,— deyishdi. — Xo'rozlariga olti tumandan qo'yishuvdi. O'zlariga qanchadan qo'yishgan ekan?

— Ha, bularni qimordan yutgan pullari quturtiryapti! — dedi bir kishi. — Qachon qarasang, ikkovi pul qo'yib, xo'roz urishtirib yurganini ko'rasan!

Shu payt bozor qorovuli kelib, ikkovini bir qamchidan urdi-da, ajratib qo'ydi.

"Ey, buzuq zamona-yey!" dedi Murod og'a ichida va tezroq xaloyiqning orasidan chiqib ketishga intildi.

Ammo eniga bir chaqirim, bo'yiga bir yarim chaqirim keladigan bozor maydoni odamga liq to'lgan, ularning orasidan yo'l topib o'tish oson emas. Deyarli hamma gapiradi, savdolashadi. Telpaklar, sallalar, cho'girmalar, do'ppilar orasida goho kepkalar uchrab qoladi. Chilimfurushlar qichqirib, kashandalarni chaqiradi. Nosfurush nosini, holvafurush holvasini, suv sotuvchi suvini maqtab, bozorga jar solardi. Shovqin-surondan quloqlar qomatga keladi. Xayr so'rayotgan gadoylar orasida Afg'onistondan, Erondan, tog'liq Belujistondan kelganlari ham bor. Birov beqasam chopon, xrom etik kiygan, birov juldur choponga o'rangan. Ko'za ko'targan bolalar:

— Muzday suv! — deb qichqirishadi. Ularning ba'zilari tojikchalab:

— Obi Xudoyi! — deb qo'yishadi.

Attorlik rastasida kichik-kichik tarozichalar va ulardan ham kichik misqol toshchalar Murod og'ani hayratga soldi. U bunday kichik tosh-u tarozini umrida birinchi ko'rishi edi. Xaltachalarining og'zini tugib qo'yib, turna qator bo'lib o'tirgan dorifurushlar o'ziga to'q kishilarga o'xshar edi. "Nahot shu kichik-kichik tosh-u tarozilar bularni boqa olsa?" o'ylaydi Murod og'a. Bu tarozichada birov bir misqol dori oldi-yu, ancha pul berib ketdi. Bu hol Murod og'ani battar taajjublantirdi.

Ko'knori ham, achchiqtosh ham, dolchin ham, saqich ham, zanjabil ham shu yerda sotilar edi.

— Kelib qol, navshodir, tekkan joyini ushatur!

— Turkana dori-darmonlardan oling, yuz dardga davo bo'ladi!

Dard ko'p, bemor ko'p, ammo doktorlar, dorixonalar yo'q. Shuning uchun odamlar bilsa-bilmasa, pul to'lab, shu dorilardan olib ketishadi. Ammo bularning ko'pi hech qaysi dardga davo bo'lolmas, goho bemorni battar qilar, sodda odamlar buni ham Xudodan ko'rib ketaverishar edi.

Murod og'a nosfurushlar rastasi oldidan o'tayotib ham qayg'uli, ham kulgili bir hodisaning guvohi bo'ldi.

Nos olgan odamlardan biri chanqagan ekan, suv sotayotgan bolani chaqirdi:

— Ey, obi, beri kel.

Bir suv sotuvchi boshqasidan tezroq yetib bormoqchi bo'lib, ko'zasini ko'tarib chopdi. Ammo nosfurushlar qatoriga yetib kelganda surunib ketdi. Yangigina sopol ko'zasi qo'lidan chiqib, nosfurushning tarozisi ustiga kelib tushdi-yu, chil-chil bo'ldi. Ko'za to'la suv bir xalta nosvoyni ishdan chiqardi. Nosga qo'shilgan ohak suvda bijirlab, biroz bug' chiqardi-da, so'ndi. Nos qorayib, loyga o'xshab qoldi. Buni ko'rganlarning ba'zisi kulsa, ba'zisi bolaga achinar edi. Nosvoyfurush suv sotuvchini do'pposlashga tushdi. U "Dod!" deb qochib qutulishga tirishar edi.

Kepka kiygan baland bo'yli rus yigiti suv sotuvchini nosfurushning qo'lidan tortib olib:

— Sen nosdan ayrilgan bo'lsang, bu ko'zasidan ayrildi, nega bekorga urasan, amaki? — dedi turkman tilida. Peshonasining qonagan joyini artayotgan suv sotuvchiga qarab davom etdi: — Kuni bilan "obi Xudoyi" deb yelib-yugurasan. Xudo nega seni bunday qiynoqlarga soladi?

— Hayronman, akamullo, — dedi suv sotuvchi tojikcha talaffuz bilan, — sahari mardondan to xuftongacha obi Xudoyi tashiyman. Yana boshimda kaltak sinadi.

— Obi Xudoyini bepul tashisang, savobi tegar edi, sen buni pulga sotasan-ku,— dedi nosfurushlardan biri.

Shunda haligi rus yigit kinoyali kulib dedi:

— Siz odamlarning og'zini yara qilishdan boshqa narsaga yaramaydigan nosni pulga sotasiz-u, issiq kunda tashnalikni bosib, odamning joniga ora kiradigan suvni bepul sotsinmi? Menga qara, suv sotuvchi yigit, sen "obi Xudoyi" degan gapni qo'y, "Muzday suv!" degin-da, sotavergin. Ana o'shanda Xudo ham sening qadringga tezroq yetadi.

Rus yigiti yonidagi turkman yigitiga qarab:

— Qani, Qilichli, ketdik, — dedi.

Ular ketgandan keyin odamlar anchagacha orqalaridan gapirib qoldi:

— Turkmanchani suvday biladi-ya!

— Yonidagi turkman yigit o'rgatgandir.

— Men bilaman, bular birga ishlaydi.

— Nosfurushni bopladi bu o'ris.

— Xudoga shak keltirdi! — g'ashi kelib dedi nosfurush.

— Yo'q, buning boshqa bir dardi bor.

— Qanaqa dardi?

— Oq poshsho buni o'z yurtidan bu yoqqa surgun qilgan bo'lsa kerak.

— Qanaqa aybi uchun?

— Kim biladi? Oq poshsho ham o'zidan aqlliroq odamlarni suymas emish.

— Bularda ham musofir bo'lib yurgan bechoralar bor ekan-da, a?

— Musofirga yordam berish savob bo'larmish.

— E, buni men yaxshi bilaman, — dedi nosfurush. — Bu o'ris musofir emas. Erguzardagi o'ris o'nboshining o'g'li. O'zi shu yerda tug'ilgan. Oti Sirgay[1]. Suv chiqarib beradigan mashinani yurgizadi. Yonidagi turkman yigiti aravada yog' tashiydi. Ikkovi na Xudoni tan oladi, na poshshoni. Bir kun emas, bir kun jazolarini tortishadi ku-ya!

Murod og'a oq poshshoga til tegizadigan odamlar ham borligini, tag'in bular o'sha oq poshshoning o'zi kabi ruslar ekanini bugun birinchi marta bilmoqda edi. Uzukni Bekmurodboylarga xatlab bergan oq poshsho amaldorlarini Murod og'aning o'zi ham yomon ko'rib qolgan edi. Shuning uchun bozorda unga eng yaxshi

[1] Sergey demoqchi.

ko‘ringan odamlar — boyagi yigitlar bo‘ldi. Marida ham shunaqa odamlarning borligi uning ko‘ngliga tasalli berar edi.

“Qani endi mening cho‘liqlarim Bayram bilan Eson shular bilan topishsa-yu, birga ishlasa”, deb qo‘ydi u o‘zicha.

Marida mardikor bozori “talabon bozor” deb atalar edi. Darvozadan tashqarida, supurindilar tashlanadigan joyning naryog‘ida, yupun kiyingan kambag‘al bechoralar o‘zlarini bozorga solib turishar edi. Mardikor yollashga kelganlarning orasida bashang kiyingan semiz boylar, chiroyli mo‘ylovchalar qo‘ygan boyvachchalar uchrar, bular mehnatni ko‘p qilib, haqni oz oladigan baquvvat, qobil kishilarni izlashardi.

Murod og‘a bir chetda o‘ziga xaridor kutib, ancha vaqt o‘tirdi. Nihoyat, gilam xurjunini qo‘ltig‘iga qistirgan, baland bo‘yli, qora mo‘ylovli bir yigit uning qarshisida to‘xtab:

— Talabon bo‘lib o‘tiribsizmi, yoshulli?! — dedi “mardikorlikka yollanmoqchimisiz” degan ma’noda.

Murod og‘a og‘ir tin olib:

— Ha, talabonman, — dedi. — Tirikchilik shunga majbur qildi.

— Rangingiz juda sariq, ko‘knori ichadiganlardan emasmisiz?

— Yo‘q, unaqalardan emasman.

Yigit olifta mo‘ylovini chimdib, bosh chayqadi-da:

— Yashirayotganga o‘xshaysiz, — dedi. — Men ko‘knorilarni yaxshi bilaman. Bugun kechasi ham ichgan bo‘lsangiz kerak, hozir kasalga o‘xshab bo‘shashib o‘tiribsiz.

Murod og‘aning g‘ashi keldi:

— Unday bo‘lsa, boshqa odamni yollay qoling, boyvachcha!

Soddaroq kiyingan, beli bukchayibroq qolgan bir mo‘ysafid ham Murod og‘aning qarshisida turgan edi.

Bu mo‘ysafid haligi boyvachchaga yuzlanib:

— Ha, Choriboy, bu yerlarda yuribsiz, kimga mardikor yollamoqchisiz? — dedi.

— Bekmurod akamlarga yana bitta xizmatkor kerak ekan...

Murod og‘aning yuragi “shig‘!” etib ketdi. U Bekmurodboyning Chori degan ukasi borligini eshitgan edi.

Murod og‘a endi haligi boyvachchaga adovat ko‘zi bilan tikildi.

Chori esa hamon ustaga izoh bermoqda edi:

— Mana bu odamni yollay desam, rangi juda sarg'ayib ketgan. Ko'knori ichsa kerak. Ko'nglim chopmay turibdi.

"Ko'ngling chopganda ham, men senlarnikiga xizmat so'rab bormayman, itvachcha!"— dedi o'zicha Murod og'a. Haligi mo'ysafid beixtiyor Murod og'aning joniga ora kirdi:

— E, Choriboy, akangizning dargohi — katta dargoh,— dedi.— U yerda — yugurib charchamaydigan yosh yigit ishlashi kerak. Bu odam ancha yoshga borib qolgan o'tog'asi ekan... Ehtimol, kasali bordir... Ishi kamroq odam yollasa, durust.

— To'g'ri aytasiz, usta og'a, bo'lmasa men yoshroq odam qidirib ko'ray, — deb Chori xurjunini qo'ltiqlaganicha nari ketdi.

Usta og'a boyatdan beri Murod og'aga qarab qarab qo'yar, unga bu mo'ysafidning istarasi issiq tuyular edi. Nihoyat, u Murod og'a o'tirgan joyga kelib cho'nqaydi-yu:

— Ismi sharifingiz?-deb so'radi.

— Murod.

— Yaxshi ism. Bola-chaqangiz bormi?

— Bor.

— Qaysi qishloqdansiz?

Murod og'a aytdi.

— E, archin Mamatning qishlog'idanmisiz? Bo'ldi, bo'ldi... Bilaman. Rangi ro'yingiz o'chganroq. Nima, kasal bo'lganmisiz?

— Ha, bir oydan ortiq kasal bo'lib yotgan edim. Yaqinda tuzaldim.

— Qaysi tabib tuzatdi?

— Tabibga menda pul qani, og'a?.. Tabibsiz o'zim...

— Mayli, zarari yo'q. Mening uch tanobgina yerim bor. O'n-o'n beshta mol bor. Ekin-tikinga-yu, shu molga qaraydigan yordamchim yo'q. Bir o'g'lim bor edi, ajali yetgan ekan, qazo qildi.

Usta og'aning ko'zlari yoshlanganini ko'rib:

— Qismati shu ekan, xafa bo'lmang, — deb qo'ydi Murod og'a.

— Men ilgari odam yollamas edim. O'g'lim ikkalamiz hammasini eplar edik. Endi yordamchim ham yo'q. O'zim ham qarib qoldim, yaqinda yetmishga kiraman. Balkim Annageldi usta deb eshitgandirsiz. O'sha — menman.

Murod og'a eshitmagan bo'lsa ham, mo'ysafidning hurmati uchun:

— Eshitganman, bilaman,— dedi.

Usta uning jabrdiyda odam ekaningini sezgan bo'lsa ham, boshiga qanday kulfatlar tushganini so'rab o'tirmadi. Murod og'aga ustki kiyimi, ovqatidan tashqari yiliga olti tuman pul va'da qilib, o'ziga qarol bo'lishni taklif qildi.

Murod og'a rozi bo'ldi.

Usta bozor-o'charini qilib bo'lgan ekan. Murod og'ani saroyga ergashtirib bordi-da, otiga mingashtirib, qishlog'iga olib ketdi.

## KAMBAG'ALNI TUYANING USTIDA IT QOPADI

Murod og'a Annageldi ustanikida bir necha oy tinchgina ishlab yurdi. Ustaning uyi qishloqning chetida ekan, zargarlik do'koni bor ekan. Unikiga singan, buzilgan baldoq, uzuk, bilaguzuk ko'tarishib ayollar ko'p kelishar ekan. Murod og'aning ular bilan ishi yo'q. Mol-holga qaraydi. Qo'sh haydaydi, yer chopadi. Ustaning o'zi ham, xotini bilan Obodon ismli qizi ham uning qobil-mo'min odam ekanligini ko'rishib, juda yoqtirib qolishdi. Usta uning bola-chaqalarini so'ragan edi, Murod og'a qishloqda kampiri bilan o'smir o'g'li qolganini aytdi-yu, Uzuk to'g'risida og'iz ochmadi.

Ammo Uzukning g'ami uni kecha-yu kunduz ezib yuradi. Bu g'amni u hech kimga aytmas edi. Murod og'aning juda ezilib yurganini sezgan usta "O'g'li bilan xotinini sog'ingandir, yolg'iz-sirayotgandir", deb o'yladi. Bir kun usta:

— Istasangiz kampiringiz bilan o'g'lingizni ko'chirtirib keling,— dedi,— Sizning o'tovingizga yarasha joy topiladi. Bu yog'i — yoz. Kuzgacha ish topiladi. Qishda uch-to'rt oy ish topib berolmasam, qo'ni-qo'shnilarda ish ko'p, bekor qolmassiz.

— Rahmat, usta og'a. Men o'ylab ko'ray.

— Mayli, kampiringiz bilan maslahatlashing. O'g'lingiz dastyor bo'lib qolgan ekan. Yoningizga kiradi. Men endi qarib qoldim. Dehqonchilik qilishga yaramayman. Yerimni sizga ijaraga bera qolaman. Ijara haqini ham insof bilan belgilarmiz.

Bu gaplar Murod og'aning ruhini ko'tardi. "Sizday yaxshi odamga duchor qilgani uchun Xudoga ming qatla shukur", dedi u ichida. So'ng ustaga qarab:

— Rost, siz aytganday qilsam yaxshi bo'ladi,— dedi.— Bahor kelib qoldi, hozir ekish payti, undan keyin sug'orishga navbat keladi. Ekinlarga bir suv beraman-da, kampirimning oldiga ketaman. Xo'p, desa ko'chirib kelaman-qo'yaman.

— Juda soz.

Murod og'a erta-yu kech tinmas, cho'ponlik davrida sahroda yolg'iz qo'y boqib o'rgangan odam, bu yerda ham hech kimga qo'shilmas, doim o'z ishi bilan andarmon bo'lib yurar edi. Shu sababli, Uzuk tushgan qishloq bu yerga xiyla yaqin ekanidan haligacha bexabar edi.

Bir kun tushda Murod og'a daladan kelib, ustani so'radi. U qayerga nima ekish to'g'risida usta bilan yana bir maslahatlashib olmoqchi edi. Biroq usta do'konida yo'q ekan. Tanishlaridan kimdir o'g'il ko'rgan ekan, usta qulluq bo'lsin qilgani ketibdi.

Ustaning xotini Murod og'aga:

— Kutib turing, hozir kelib qoladilar,— dedi-da, do'konning soyasiga sholcha to'shab berdi. Murod og'a choponini yechib yonboshiga qo'ydi, so'ng oyog'ini cho'zdi. Ustaning xotini ikkita non bilan bir kosa qatiq olib chiqdi.

— Obbo, Amango'zal opa, ovora bo'lib nima qilardingiz!

— E, ovoragarchiligi bormi? Kunning issig'ida tinmay ishlaysiz. Iching, qatiq taftingizni oladi.

Ustaning qizi Obodon narigi tomning soyasida dugonalari bilan hangomalashib o'tirishar edi. Orada do'kon bo'lgani uchun ayollar Murod og'aga ko'rinishmas, ammo ochiq havoda ba'zi bir gaplari, kulgilari eshitilib qolar edi. Obodon ustaning kichik qizi edi. Eri bilan bir oygina istiqomat qilgan, ukasi o'lib, ota-onasi yolg'iz qolgandan beri shu yerda turar edi. Qishloqning qiz-juvonlari uning suhbatini yaxshi ko'rishar, singan taqinchoqlarini ustaga tuzattirish bahonasi bilan kelib, Obodonning oldida hangama qilishap edi. Ustaning xotini ham yosh-yalanglarni o'ng'aysizlantirmaslik uchun ularning oldida ko'p o'tirmas edi.

— Menga qaranglar, qizlar... — deb gap boshladi Obodon.

Juvonlardan biri norozi bo'lib uning so'zini kesdi:

— Nuqul "qizlar, qizlar" deysan. Biz, juvonlar, senga nima yomonlik qildik?

— Xo'p, bo'lmasa... menga qaranglar, qiz-juvonlar.

— Yo'q, avval juvonlarni aytib, keyin qizlarni tilga olasan.

— Voy, nega endi?— dedi qizlardan biri norozi bo'lib.

— Negaki, juvonlarning yoshi katta. Erta-indin qizlar ham bizning yoshimizga kirib, juvon bo'lsin, ana o'shanda tilga olasan!

— Yo'q, jonim, bizning ohorimiz to'kilib qolgan, — dedi Obodon.— Yerga tobe bo'lib, qaynonaning qo'liga qarab, og'zimizni yashmoq bilan bekitib, so'ligan gulga o'xshab qolganmiz.

— Rost, — dedi juvonlardan biri. — Qizlik davriday yaxshi davr yo'q. Qo'limdan kelsa, bir umr qiz o'tar edim!

— Ha, opa, qizlik davringizni qo'msab qoldingiz — eringiz kechalari uxlatmaydi shekilli?

Qizlar uyalinqirab kulishdi. Juvonlardan biri Obodonga tegishdi:

— O'zing bundan oldin erga tekkansan, kechalari uyqudan qolish qanaqa bo'lishini yaxshiroq bilsang kerak?

— E, mening esimdan ham chiqib ketdi! — deb kuldi Obodon.— Qachondan beri ota-onamning oldida yuribman.

— Kuyoving bu yerga yashirincha kelib turmaydimi?

— Yo'q...

— Unday bo'lsa... otangga aytib, jazoyingni berdiramiz.

— Nega?

— Boshqa yigitlar bilan ko'z urishtiradigan bo'libsan...

— Voy, qachon?

— Arafa kuni oqshom, qurib qolgan ariqning toshchalarini hovlingga otib, seni chaqirib olgan kim edi? Shu yerlik yigitmidi?

— Iye, qiziqmisiz, erim edi-ku....

Obodon beixtiyor sir berib qo'yganidan hamma kulib yubordi.

Murod og'a ularning gap-so'zlariga e'tibor bermasa ham, qattiq kulganligini eshitib, yo'talib qo'ydi.

— Hay, muncha shaqillamasanglar, do'konning soyasida Murod og'a yotibdi,— deb shivirladi Obodon.

Ular birpas shivirlashib suhbatlashdilar-da, keyin gapga qiziqib ketdilar. Murod og'ani ham unutib yana baland ovoz bilan gaplashishga tushdilar.

— Aytmoqchi, Omonmurod olib qochib kelgan qizni ko'rdilaringmi?— dedi juvonlardan biri.

"Omonmurod" degan so'z Murod og'aning qulog'iga chalindi-yu, qiz-juvonlarning suhbati endi uning e'tiborini tortdi.

— Bechora, cho'riday ishlaydi.

— Hamma, "chiroyli" deb maqtagan edi. Bundan bir oycha oldin suvga borayotib ko'rib qoldim. Ozib, sarg'ayib ketgan. Ko'zlari shishgan. "Nimasini maqtashadi?" deb hayron bo'ldim.

— Sho'rlikni urib-urib kasal qilib qo'yishgan ekan-da. Qaynonasi bilan kundoshi juda ko'p qiynar emish. — Yer yutsin bu qaynona bilan Tojsultonni. Omonsulton oyday juvon edi. Shular kun bermay oxiri go'rga tiqishdi.

— Bunisi bo'sh kelmaydiganga o'xshaydi,— dedi Obodon.— Siz ilgari kasal paytida ko'rgan ekansiz, men o'tgan kuni ko'rdim. Cho'riga o'xshab bo'z ko'ylak kiygan bo'lsa ham o'zi shunday chiroyli, shunday istarasi issiq-ki havasingiz keladi.

— Asli qayerlik ekan-a?

— Asli o'zi bir cho'ponning qizi ekan. Yaxshi bir yigitga berishmoqchi ekan. Omonmurodlar zo'rlik bilan olib kelishgan ekan.

Murod og'aning qalbidagi dardlari birdan yangilandi-yu, o'rnidan turib ketdi. Demak, uning jabrdiyda qizi qayerdadir, shu atrofda yuribdi. Murod og'a unga yordam berolmasligini bilgani uchun ketiga tushib qidirmas edi, qidirishga imkoni ham yo'q edi. Endi Uzukning daragini eshitdi-yu, farzandini ko'rish istagi yana xuruj qildi. Hech bo'lmasa, Uzuk ota-onasining sog'-salomat yurganini bilar, bundan ko'ngli sal ko'tarilar.

Murod og'a dalaga qarab ketdi. Es-hushini yo'qotgan, qancha yurganini bilmaydi. Bir vaqt katta ariqning qarshisidan chiqib to'xtadi-da, atrofga ko'z yugurtirdi.

Ariqdan narida boylarning hashamatli imoratlari ko'zga elas-elas tashlanar edi. Kun qiyomdan oqqan. Murod og'a ariqdan tahorat qilib peshin namozini o'qidi. So'ng ariqdan naryoqqa o'tadigan ko'prik qidirdi. Uzuk ho' o'sha hashamatli imoratlardan

birida bo'lsa ajab emas. Xipcha bir ayol erta-yu kech shu ariqdan boylarning hovlisiga suv tashishini Murod og'a uzoqdan bir necha marta ko'rgan edi. Hozir u chekka cho'pdan yurib ariqdan naryoq-qa o'tganda yana shu ayol qo'lida ikkita katta chelak, boshida eski yopinchiq, suv bo'yiga keldi. Notanish ayolga qarash musulmon odatiga to'g'ri kelmagani uchun Murod og'a unga tikilib qarashdan o'zini tiydi. Ayol ham cho'chib, yuzini nari burdi. Murod og'aning ko'zi ayolning eski bo'z ko'ylagi va yirtiq kalishiga tushdi.

Ayol chelagiga suv olayotganda ko'zi Murod og'aning yuziga tushdi. Shunda ayolning qo'li birdan madorsizlanib, chelakning bandi "shiq" etib tushib ketdi. Chelak qiyshayib, suvi to'kilib ketdi.

— Dada!.. Dadajon!..

Murod og'a Uzukning ovozini tanib, taqqa to'xtadi.

— Uzuk?! Uzukjamol!.. Qizim!

Ariqning jimirlab oqib o'tayotgan tiniq suvida ota-bolaning aksi bir-biriga qo'shilib ketdi.

— Xayriyat, eson-omon yurgan ekansan, qizim.

— Bilmadim, dada, shu yurishim eson-omonligimni bildiradimi, yo'qmi?..

— Yig'lama, Uzukjamol... Ishqilib, o'lim bo'lmasin. Oying ham eson-omon. Turdi katta yigit bo'lib qoldi.

— Bu yerlarga qanday kelib qoldingiz?

— Seni qidirib keldim....

— Bu yerlar — jahannam, dadajon. Jahannam o'tida men kuyayapman, shuning o'zi yetadi. Endi sizlar kuymangizlar. Bechora Berdi... Men tufayli o'lib ketdi.

— Kim aytdi o'ldi deb?!

— Boylar...

— Bu gap yolg'on bo'lsa kerak, qizim. Nurmuhammad tog'asi qamoqdan chiqibdi. O'sha qishloqdan kelgan bir odam aytibdi. Berdi yarador bo'lgan ekan, tuzalibdi. Lekin qamoqdan bo'shatmayotgan emishlar.

— Shu rostmikin, dada?

— Rost, qizim, rost. Ishonmasang, men o'zim bo'sh vaqt topib Mariga boraman... Yana anig'ini bilib kelaman. Sen muncha ko'p kuyma. Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug'...

— Qani endi shunday bo'lsa... Men dardimni eshitadigan odam topolmay, mana shu daraxtlarga qarab yig'layman. Bular ham mening ko'z yoshimga chidamay yerga egiladi.

— Sen Xudoga iltijo qil, qizim. Bizdan bir gunoh o'tgandir-ki, Xudo shu kunlarni boshimizga solgan.

— Dadajon, boylar qilayotgan yomon ishlarning oldida bizning gunohimiz zig'ircha ham kelmaydi. Nega ularga hech narsa bo'lmaydi?..

— Bilmadim, Uzukjamol. "Joni og'rigan odam Xudoni qarg'aydi", deydilar. Bu dunyoning biz bilmaydigan sirlari ko'p ekan. Xudoga shak keltirma. Nima bo'lsa, hammasi Xudodan...

— Hali ham Subhon xasisning qo'yini boqyapsizmi?

Murod og'a cho'ponlikni tashlab, hozir shu yerda qarollik qilayotganini, xo'jayini yaxshi odam ekanini, "bola-chaqangni ko'chirib kel", deyayotganini aytib berdi.

— Sen nima deysan, qizim?— so'radi Murod og'a.

Onasi, otasi shu yaqin orada bo'lsa, Uzuk, albatta, o'zini bunchalik yolg'iz sezmas edi, ular bilan dardlashib ko'nglini yozar edi. Lekin yirtqich boylar Uzuk tufayli ularni bir balo qilib qo'yishlari mumkin. Uzuk shuni o'yladi-yu:

— Qo'ying, dadajon, bu yerlardan uzoqroq yuringlar,— dedi.— Men endi bo'lganimcha bo'ldim. Sizlar omon qolingizlar. Oyimga salom deng. Mendan xavotirlanmanglar. Sizni ko'rdim, ko'nglim ancha ko'tarildi. Boshga tushganini ko'z ko'rar... Nima qilay? Mard bo'laman, chidayman. Turdiga salom deng... Men sizlarni ham kulfatda qoldirdim. Gunohimni kechiringizlar. Rozi bo'lingizlar!

Uzuk dadasi bilan boshqa ko'risholmasligini sezganday gapirar edi. Murod og'aning ko'zidan yoshi chiqib ketdi:

— Sen ham meni kechir, qizim, shunchalik qiynalganingni ko'rib turib, yordam berish qo'limdan kelmaydi!..

* * *

Kechki salqinda qushlar to'lib-toshib sayrar, ularning sho'x, beg'am tovushlari Murod og'aning yuragini battar ezardi. Murod og'a yo'ng'ichqa o'rmoqda edi. O'tkir o'roq har tushganda yash-

nab turgan yo'ng'ichqalarning allaqanchasi kesilar edi. Murod og'a o'zicha o'ylanar edi: "O'roq bu begunoh giyohlarni qirqquncha Bekmurodboyga o'xshagan zolimlarning payini qirqsa bo'lmasmidi?" Yana bir ko'ngli: "Zolimlarning payini qirqadigan qurol yo'q hali,— derdi.— Mabodo bo'lsa ham, men unday qurolni ishlata olmayman. Men g'arib odamman, bechora odamman".

Murod og'a shu so'zlarni ko'nglidan o'tkazganda kuyunib yig'lagisi kelardi. Kun botganda Murod og'a o'rgan bedalarini eshakka ortdi. Bir bog'ini arqonga bog'lab, o'zi ko'tarib oldi. Marzaga arqonlab qo'yilgan sigirni etakladi-da, qishloqqa qarab yo'l oldi. G'ira-shira qorong'ilikda oldinda eshak minib ketayotgan bir dehqon ashula aytib borar edi:

*Arzi holim bir-bir bayon etayin:*
*Qayg'u-alam qaddim bukdi, netayin?*
*Kezar bo'ldim g'am-kulfat sahrosida,*
*Bu g'avg'odan qayga qochib ketayin?*
*Jafo chekib, haqiqatni topmadim,*
*To'ylar qilib, har yonga ot chopmadim.*
*O'ksinaman teng to'shim orasida,*
*Mehmon kutib, ustiga to'n yopmadim.*
*Bu g'ariblik boshimizdan ketmadi,*
*Hech bir kunim qayg'u-g'amsiz o'tmadi.*
*Yuragimda qatma-qatdir armonim –*
*Farzandim ham murodiga yetmadi.*

Ashulaning mungli ohangi, ayniqsa, so'zlari, Murod og'aning boshiga tushgan hamma dard-u alamlarni bir-bir eslatib o'tdi. Keksalik zaifligidanmi yoki boshqa iloj topilmaganidanmi, uning ko'zlaridan achchiq-achchiq yosh to'kilar edi.

Annageldi usta ayvonda choy ichib o'tirgan ekan. Murod og'ani choyga taklif qildi.

— Xo'sh, qalay, dehqonchilikka o'rganib qoldingizmi? Yo hali ham cho'ponlikni qo'msaysizmi? Xomush ko'rinasiz. Yoridan ayrilgan yetti yil yig'lasa, diyoridan ayrilgan bir umr yig'lar emish. Qoraqum sizga diyor bo'lib qolgani yo'qmidi?

Murod og'a bir piyola choy ichdi-da:

— Dehqonchilik ham yaxshi kasb, usta og'a, — dedi, — Mehnatning yaxshi-yomoni yo'q.

Uning ovozidan xo'rligi kelgani sezilib turar, ko'zlari ham shamollagan odamnikiga o'xshab qizarib ketgan edi...

Usta undagi o'zgarishni sezib:

— Qalay, tani joningiz sog'mi?— dedi.

— Shukur... — Murod og'a bir lahza taraddudlanib qo'lidagi bo'sh piyolaga qarab turdi-da, davom etdi — Usta og'a, men sizlardan minnatdorman. Shuncha kun tuzlaringizni ichdim.. Endi... qilgan mehnatimga yarasha haq bersangiz-u, ertaga ertalab meni jo'natsangiz.

Annageldi usta taajjublanib, nima hodisa bo'lganini so'radi.

— Uylaringizdan yomon xabar keldimi?.. Yo... biz xafa qilib qo'ydikmi? Biz sizga o'rganib qolgan edik-ku. To'satdan "ketaman" deyapsiz. Nima sababdan?.. Usta hadeb so'rayvergandan keyin Murod og'a sirni ochishga majbur bo'ldi.

Omonmurod olib qochib kelgan qizning tarixini usta yaxshi bilar, qizga ham, qizning otasiga ham ichi-ichidan achinib yurar edi. Murod og'a: "Subhonboyning qishlog'idanman, cho'pon edim" deganda, Annageldi usta uning g'amgin yuziga qarab, Uzukning otasi ekanligini payqagan edi. Lekin uning qalbidagi yaralarini tirnamaslik uchun bu haqda hech gap ochmagan edi.

— Butun qizimning qay ahvolda yurganini ko'rdim-u, yurak-bag'rim ezilib ketdi, usta og'a... U yig'ladi, men yig'ladim... Shundan boshqa narsa qo'limizdan kelmadi. Agar men ham badavlat odam bo'lganimda edi, mening ham besh-to'rtta beli baquvvat og'aynim bo'lganda edi, qizimni qutqarib olib ketar edim... Kambag'alga har bir tosh tog'day og'ir bo'lar ekan... Bu yerda yursam, uning ahvolini, ko'rib, har kuni bir o'laman. Qizimga yordam berish qo'limdan kelmasa... Undan ko'ra ketganim ma'qul.

— To'g'ri, Bekmurodboylar bilan qancha odam olishib ko'rdi, lekin hech ish chiqmadi. Bular juda battarli odamlar. Oyilari ham o'zlariday berahm xotin. "Qaynonada dil yo'q, kelinda til yo'q", degan maqol mana shunaqalarga qarab aytilgan. Sizning kuyganingizcha bor. Lekin bu yerdan ketganingiz bilan ko'nglin-

giz tinchib ketarmikin? Yo'q! Jigarporam nima bo'ldi ekan, deb uzoqda qaytaga ko'proq xavotirlanasiz. Vaqt-bevaqt kelolmaysiz. Kelganingiz bilan qizingizni ko'rishingiz qiyin bo'ladi.

— Qanday qilay, bo'lmasa, usta og'a? Bu mushkul ahvoldan qanday qutulay?

— Mening gapimga kirsangiz, yana bir-ikki oy sabr qiling. Yolg'izsirayapman desangiz, kampiringiz bilan o'g'lingizni ko'chirib keling. Boydan-ku, yaxshilik chiqmas. Lekin bu qishloqda ham, narigi qishloqda ham yaxshi mo'ysafidlar bor. Men o'shalar bilan gaplashaman. Ko'plashib, bir paytini toparmiz-da, Bekmurodboyni insofga chaqirarmiz. Sizlarni shuncha qiynaganlari ham yetar. Bir yo'lini topib, hammalaringizni yarashtirarmiz. Ana unda qizingiz bilan ochiqchasiga bordi-keldi qilaverasiz.

Murod og'a o'z ashaddiy dushmanlari bilan yarashishni tasavvur etolmas edi. Biroq ko'ziga bundan durustroq yo'l ham ko'rinmasdi. Uzukni ulardan tortib olish mumkin bo'lmasa, uning shu dargohda durustroq yashashi uchun, Uzuk uchun yarashishlari ham mumkindir.

— Mayli, usta og'a, siz aytganday, yana biroz sabr qilay, o'ylab ko'ray.

Keyinchalik bu gaplardan ustaning xotini ham xabar topdi-yu:

— Kek saqlab yurgan bilan hech ish chiqmaydi,— dedi.— Undan ko'ra, kampiringizni ko'chirib keling. Murosa yo'liga o'tinglar,— dedi.

Biroq Murod og'a kampirini ko'chirib kelishga yuragi betlamas edi, chunki u O'raz xolaning fe'lini yaxshi bilardi. Avvalambor, O'raz xola Bekmurodboylarga yaqin bir joyda kimlargadir sig'indi bo'lib, qizidan ayrim yashashni xo'rlik deb biladi va bunga o'lsa ham rozi bo'lmaydi. So'ngra, agar u Uzukning cho'riga o'xshab xor-zor bo'lib yurganini ko'rsa, Murod og'aday jimgina yig'lab ketolmaydi. Albatta, u zolimlar bilan janjallashadi, qizini olib ketishga urinadi. Ana unda yana biron baxtsizlik yuz berishi mumkin.

— Hozircha kampirim o'sha yoqda tura tursin,— dedi Murod og'a usta bilan xotninga — Paxta terimi o'tsin. Ungacha balki murosa yo'li topilar. Keyin ko'chirib kelsam, yaxshi bo'ladi.

— Mayli, har kimning holi uziga ma'lum,— dedi usta.— Ishqilib, biz sizlarga yaxshilik istaymiz.

* * *

Uzuk otasi bilan ko'rishgani, Murod og'a ustanikida mardikorlik qilib yurgani og'izdan-og'izga o'tib, Qo'nish boybichaning qulog'iga ham yetib bordi. Usiz ham Uzukka kun bermaydigan qaynona endi battar vaysaydigan bo'ldi:

— Qirilib ketsin bu tagi pastlar, ataylab bizning yonimizga kelib, mardikorlik qiladi. "Bekmurodboyning kichik kelini buzuq chiqdi", degan gapdan endi qulog'imiz tinchiy deganda, "Bekmurodboyning qudasi mardikor" degan isnodga qolyapmiz!

Uzukning kundoshi Tojsulton qaynonasini battar tezlar edi:

— Ha, sayoq kelinингiz otasini ko'rgandan beri yurish-turishi boshqacha bo'lib qoldi. Otasi unga birga qochgan yigitidan xush-xabar olib kelgan bo'lsa kerak.

— Voy, men bu kunlarga qanday chidayman-ey!— deb dod soldi Qo'nish boybicha.

Yoz paytida katta o'g'illari har xil ishlar bilan andarmon bo'lib uyda kam turishar edi. Qo'nish boybichaning vaysashlarini nuqul kichik o'g'li Chori eshitar edi.

— Bas qiling, ona, bular nima-yu, ko'chada yurgan sayoq it nima,— dedi Chori. — E'tibor bermang, bunisi cho'riligini qilib yuraveradi, unisi mardikorligini qilaversin. Bular bizga qarindosh emas.

— Sen shunday deganing bilan odamlar uyat qiladi-da, bolam! "Qudalari mardikor" deb kulishadi. "Qizini tortib olishdi, endi o'zini xor qilib qo'yishibdi", deb yana gap qilishadi.

— Padar la'nat mardikorligini boshqa joyga borib qilsa bo'lmasmidi?— deb, Chorining ham g'ashi keldi.

— Bu yerga ataylab kelgan! — dedi Qo'nish boybicha. Cho'ponlar — kasofat odamlar bo'ladi. "Kasofatim shularga ursin", deb kelgan. Mana, ko'rasan, agar shu yerda yuraversa, bizga biron kasofati urmay qolmaydi!

Murod og'aning bu yerlarda yurganiga avval uncha e'tibor bermagan Chori endi erta-yu kech oyisining vaysashlarini eshitib,

mardikor qudalariga adovat ko'zi bilan qaraydigan bo'lib qoldi. Bir kun Chori o'zlariga qarashli paxtazorlarni aylanib yurib, g'o'zalar ancha chanqab qolganini, ba'zi joylarda barglari so'linqirab qolganini ko'rdi. Dalada ishlayotgan G'ulom ismli mardikorlari esa ariq bo'yida allakim bilan gaplashib turar edi. Chori tikilibroq qarasa, belkurak[1]ning dastasiga suyanib turgan bu odam — o'sha mardikor qudalari ekan. Chorida oyisi uyg'otgan adovat tuyg'usi yana bosh ko'tardi. "Bu mardikorning senda qasdi bor!— dedi ichki bir ovoz.— G'ulomni ataylab gapga tutyapti, g'o'zalaringni oftob urib ketishini istaydi".

Chori Belujistondan kelgan mardikor yigit G'ulomni qahr bilan chaqirdi. Agar G'ulom gapini chala qoldirib, boyvachchaning oldiga chopib kelmaganda, ozg'in yelkalariga qamchi tushgan bo'lar edi.

— Sen nega g'o'zalarni chanqatib qo'yib, o'zing u yoqlarda gap sotib yuribsan?!

— Ikki og'iz hola-ahvol so'rashdik, xo'jayin.

— G'o'zalarni nega sug'ormayapsan?

— Navbatimiz peshindan keyin. Hozir Annageldi ustaning navbati ekan, Murod og'a sug'oryapti.

— He, Murod og'angni!.. — deb Chori uni yomon so'zlar bilan so'kdi-yu, — bor, hozir suvni bizning ariqqa och! — deb buyurdi.

— Hozir ocholmayman, xo'jayin. Suvni Murod og'alarga mirob berib ketdi. Mirob tushdan keyin kelib, navbatni bizga beradi.

— Gapni ko'paytirma, mirob — men o'zimman! Bor, suvni och! Peshin bo'ldi!

— Oftobga bir qarang, xo'jayin, hali tikkaga kelishiga ancha bor.

— Sen menga aql o'rgatadigan bo'lib qoldingmi hali, g'alcha! Belni bu yoqqa ber! Bor, jo'na, bu yerdan! Bugundan boshlab, menga qorangni ko'rsatma!

Chori otdan tushib, belkurakni G'ulomning qo'lidan tortib oldi-da, quloqning boshiga qarab ketdi. Murod og'a ancha narida bo'lsa ham, Chorining baqirib aytgan so'zlarini eshitgan, uning niyatini fahmlab, quloq boshiga qarab kelayotgan edi.

[1] Turkmanlar ketmon o'rniga belkurak ishlatishadi (tarj.)

Chori belni g'azab bilan loyga sanchib, suvni o'z yerlariga ochar ekan, Murod og'a uning oldiga keldi:

— Shoshma, inim, hali peshin bo'lgani yo'q, shoshma!

Chori uning gapiga quloq solmay quloqni ochishda davom etdi.

— Chori, inim. Yaxshi ish bo'lmayapti. Bunday qilsang men hozir mirobni aytib kelaman!

Murod og'aning yalinganday bo'lib gapirishi, "Chori" deb uning otini tilga olishi mardikor quda o'zini gunohkorday sezishini ko'rsatar va Chorining adovatiga adovat qo'shar edi.

— E, bor, mirobdan kattasiga arz qil!— dedi u keksa odamni sansirab.— Sendan qo'rqadigan ahmoq yo'q! Bor!

Suvning yarmidan ko'pi Chorilarning yeriga qarab oqa boshladi. Murod og'a Chorining qo'lidagi belkurakka yopishib yana yalindi:

— Jon uka, insof qil, jon uka!

Murod og'a o'zini past olgan sari Chorining g'azabi battar qo'zir edi. Mardikor qudaning qo'li Chorining belkurak sopidan tutgan qo'liga tegib ketdi. Chori undan jirkanib:

— Belga qo'lingni tekkizma, isliqi!— dedi va Murod og'ani itarib yubordi.

Murod og'a ikki qadam joygacha gandiraklab bordi, so'ng birdan qichqirib oldinga intildi:

— Senlarda insof bormi, yo'qmi?! — dedi-da, Chorini quloq boshidan nariga itarib yubordi. Chorining g'azabi nihoyasiga yetdi. U belni baland ko'tardi-yu, uning o'tkir tig'ini Murod og'aning boshiga urdi. Murod og'a ariq chetiga yiqilib tushdi. Chori qonni ko'rib quturgan yirtqichday o'zini tutolmas, behush yotgan odamni bel bilan urgani urgan edi.

Ancha naridan bu hodisani ko'rgan G'ulom quturgan boyvachchaga ro'para bo'lishdan qo'rqib, yaqin orada ishlayotgan dehqonlarni chaqirdi. Odamlar kelib Chorining qo'lidan belkurakni zo'rg'a tortib olishdi. Qonga belangan Murod og'a jo'yakda murdaga o'xshab qimirlamay yotardi. Chori hamon xirillab so'kinar, odamlarning qo'lidan chiqib ketmoqchi bo'lib silkinar, ikki labining cheti ko'piklanar edi.

Jo'yak ichidan Murod og'ani olib chiqayotganlar:

— Bu bechorani ham quturgan it talapti,— deyishardi.

— "Quturganning umri qirq kun", deyishadi. Bu boyvachchalar ham uzoq umr ko'rmas.

— Jim bo'l, Bekmurodboyga yetkazadiganlar bor!

— E, yetkazsa yetkazsin! Bular qachongacha qonxo'rlik qiladi! Bir bechorani bekordan-bekorga o'ldirib qo'yibdi.

— O'lgani yo'q, nafas olayotganga o'xshaydi! Mana bu soyaga yotqizinglar.

— Paxta topinglar, kuydirib bosaylik!

Shum xabar qishloqqa shamolday tez tarqaldi. Odamlar Murod og'aning boshidagi yarasini endi bog'lagan ham edilarki, Uzuk yetib keldi: — Dadajon! Sizga nima bo'ldi?! Voy, men baxti qaro qizingizga shu qayg'ular ozmidi?! Dadajon!

Uzukning tovushini eshitib, Murod og'a ko'zini ochdi. Qonsiz lablari titrab:

— Yig'lama, qizim! — dedi.

Murod og'a yonboshlamoqchi bo'lib qimirlagan edi, a'zoyi badani qaqshab, boshi gir aylanib ketdi. Uning qovurg'alari ham singan, badani qiymalanib ketganga o'xshardi. Uzuk qoniga belanib yotgan otasini quchoqlab:

— Sizni shu ahvolda ko'rguncha men o'lsam bo'lmasmidi, dadajon!— dedi.

— Unday dema, Uzuk... Men... seni qutqarib ololmadim... Mendan rozi bo'l... Oying...

Murod og'a har bir so'zni qiynalib aytar edi. U o'limi yaqinligini sezar, Uzukni boshqa ko'rolmasligini aytmoqchi bo'lar, lekin aytolmas edi. Bechora qizi! Bu voqealardan keyin onasi bilan ko'rishishi ham mumkin bo'lmay qoladi. O'raz xola endi bu yerlarga qadam bosmaydi. Qonxo'rlar esa Uzukka javob bermaydi... Murod og'a: "Rozi bo'l, qizim, — deganday Uzukka termilardi.— Men dunyoga g'arib bo'lib keldim, shu g'aribligimcha ketyapman. Sen qafasga tushgan qushday yig'lab qolasan. Nima qilay? Oxirgi daqiqalargacha sen mening ko'z o'ngimdan ketmaysan".

Og'riq birdan zo'rayib, Murod og'a:

— Oh!— deb yubordi.— Quvvat ketyapti... Men o'laman, Uzuk. Jasadimni durustroq joyga ko'minglar! Dushmanlarimdan kim qasd oladi?! Oh!!

Usta aravasini qo'shib keldi. Otasining ketidan kelgan Obodon Murod og'a bilan Uzukni ko'rib qo'rqib ketdi. Uzukning qo'llariga, ko'ylagiga otasining qoni tekkan edi.

— Otajon, qonini to'xtating, otajon!— dedi Obodon ustaga qarab. So'ng Uzukning yelkasidan quchib, Murod og'aning oldidan nariga olib ketdi: — Uzukjamol! O'zingizni bosing! Ilohim shu Bekmurodboy ukalari bilan yer tishlab o'lsin! Ilohim, shunday kunlar ularning ham boshiga tushsin!

Murod og'aning badanidagi yaralarni bog'layotgan usta:

— Shu aytganing bir kun emas, bir kun keladi,— dedi qiziga.— Bulardan dod deb yurgan odam kun sayin ko'payapti. Minora qancha baland bo'lsa, tagi shunchalik chuqur kovlanar ekan. Bekmurodboylar minoralarini baland qilmoqchi bo'lib, tobora katta chuqur qazishyapti. Vaqti kelganda o'zlari shu chuqurga yiqilib tushadi. Bu chuqur ularga qabr bo'ladi.

Aravaga ko'rpa to'shab, Murod og'ani sekin shu ko'rpaning ustiga yotqizdilar. Usta aravani o'z uylariga qarab haydadi. U Murod og'ani tabibga ko'rsatmoqchi, uni o'zi davolatib, oyoqqa turg'izmoqchi edi. Murod og'a uning bu niyatini eshitib:

— Yo'q, — deb shivirladi, — meni kampirimning oldiga eltib tashlang... Men endi odam bo'lmayman...

Annageldi usta Uzukka qaradi. Uzuk, ko'zi to'la yosh, otasining gapiga qo'shilganday bosh irg'adi. U otasini qishloqning chetigacha kuzatib chiqdi.

— Rozi bo'ling, dadajon!

— Men sendan roziman... Sen ham rozi bo'l... — yig'idan yelkalari silkinayotgan Uzukni Obodon quchoqlab oldi. Asta-sekin uzoqlashib ketayotgan arava ko'zdan yo'qolguncha ular qishloq chetida turdilar.

Annageldi usta Murod og'ani kampirining oldiga olib keldi, nima voqea bo'lganini aytib berdi. Ustma-ust yuz berayotgan baxtsizliklar O'raz xolani ham cho'ktirib qo'ydi. Usta unga uch tuman pul berdi-yu: — Tabibga qarating, Xudo xohlasa, tuzalib ketadi, —

dedi. Ketayotib Murod og'aga tayinladi: — Paxta terimigacha tuzalib ketsangiz, ajab emas. Men sizni kutaman. Borib, paxtani o'zingiz terib berasiz.

Ammo Murod og'a ustanikiga qaytib bormadi. Uning singan suyaklarini tabiblar tuzatolmadi. O'raz xola bilan Turdi kecha-yu kunduz Murod og'aning yonidan ketmas edilar. Uylariga boshqa hech kim kelmas edi. Qishloqda odam kam qolgan — Subhonboy ko'p kishilarni yozgi yaylovga qo'y sog'imiga olib ketgan edi. Murod og'aning singan suyaklari, qiymalangan etlari shunday qattiq og'irdiki, goho u o'zini tutolmay chinqirib yuborardi.

Suruvdan kelgan Yo'lbars nomli it uning ovozini tanidi. Bir kun yarim kechada Turdi shu itning dahshatli tovush bilan uliganidan uyg'onib ketdi. Otasiga qarasa, pastki jag'i osilib qolgan. Ko'zlari ham ochiq.

Qora chiroq xira nur sochib yonmoqda edi. Murod og'a umrining oxirgi daqiqasida ham shu chiroqqa qarab, kimsasiz g'arib bo'lib qolayotgan o'g'li bilan kampirini o'ylab dunyodan o'tgan edi...

## YOTIB QOLGUNCHA, OTIB QOL!

Murod og'aning o'limini paxta zavodiga ishga kirgan Eson bilan Bayram ham eshitdi-yu, bir kun bo'sh vaqt topib, O'raz xolaning holidan xabar olgani kelishdi. Uni Bekmurodboyning ukasi Chori belkurak bilan urib o'ldirganini eshitgan Bayram:

— Voqeani ko'rgan guvohlar bormi?— dedi.

— Bor. Butun qishloq ko'rgan.

— Bo'lmasa, Chorini sudga berish kerak.

— Kim ularni sudga beradi, ukajon? Kim menga ariza yozib beradi? Pulim bo'lmasa.

— Ariza yozadigan odamni topamiz, — dedi Bayram. U suv chiqaradigan nasosning masteri Sergey bilan tanish edi. Bir necha kun o'tgach, Bayram Sergeyni qishloqqa boshlab keldi.

Bu orada yaylovga ketgan odamlar ham qishloqqa qaytgam, Murod og'aning qotilidan g'azablanib yurganlar ko'payib qolgan

edi. Qishloqqa rus kishilari juda kam kelar edi, shuning uchun O'raz xolanikiga kelgan Sergey ko'pchilikning e'tiborini tortdi.

Sergey O'raz xolaning arzini eshitdi-yu, sof turkman tilida:

— Men ham sizga hamdardman, xola, — dedi. — Qancha ariza yoz desangiz, yozib boraman. Lekin oldindan aytib qo'yay-ki, bu arizalardan bir ish chiqishi qiyin.

— Marida ish chiqmasa, Ashxobodga yozamiz. Ashxobodda ish chiqmasa, Toshkentga yozamiz. Toshkentda yarim poshsho bor emish. Nahotki yetim-yesirning arziga quloq solmasa?

— "Katta it, kichik it, hammasi bir it", degan maqolni eshitmaganmisiz, xola? Marida laychalar o'tirgan bo'lsa, Toshkentdagi general-gubernator — kattakon ko'ppakka o'xshaydi!

— Voy!— deb, O'raz xola hayron bo'ldi. U Sergeyning rus bo'la turib, rus yarim poshshosini itga o'xshatishini hech kutmagan edi.

— Mayli, Sergey, nima bo'lsa ham, sen arizani yozib ber,— dedi Bayram.— Yotib qolguncha otib qolish kerak.

Sergey ham, shu munosabat bilan qishloq ahlining ko'zini sal ochish mumkin bo'lar, degan o'yda O'raz xolaning nomidan bir emas to'rt ariza yozdi. O'zi bu arizalarning ketiga tushib, Marining sud idoralariga bir necha qayta kirib chiqdi. Nihoyat "masala uch-to'rt kunda sudda ko'riladi" degan xabarni eshitgan Sergey Bayramni ergashtirib yana O'raz xolaning uyiga keldi.

Sergeyning qanday xabar bilan kelganiga qiziquvchi kishilar ko'p edi. Shular hammasi O'raz xolaning uyiga to'plandi.

O'raz xolaning yonida O'g'ilniyoz xola ham bor edi. Uning zardasi qaynab:

— Agar men sizlarday erkak bo'lsam edim, — dedi hamqishloqlariga, — Bekmurodboylardan qanday qasd olishimni bilar edim.

— Biz ham Uzukni olib qochganlarida otlanib borib pichoqlashmoqchi edik,— dedi yigitlardan biri.— Archin Mamat qo'ymadi-ku.

— Pichoqlashish bilan ish bitmaydi,— dedi Sergey.— Siz uch-to'rttasini pichoqlasangiz, uchta-to'rttangizni ular pichoqlaydi.

— Bo'lmasa yana sudlashaylikmi?

— Hozircha boshqa iloj yo'q.

— E, sudlashib ham ko'rdik. Archin Mamat elning qancha pulini sovurdi. Baribir ikki qo'limizni burnimizga tiqib qolaverdik.

— Archin Mamat elni aldadi, — dedi O'g'ilniyoz xola. — "Uch yarim ming tuman sarfladim", deydi. Bitta otbekatga ariza yozdirish-u, oq aminni yumshatish uchun shuncha pul ketadimi, a, o'g'lim, siz ayting?

So'nggi savolni u Sergeyga bermoqda edi.

— Yo'q, juda ko'pi bilan to'rt yuz yoki besh yuz tuman sarflangan bo'lishi mumkin.

— Ana! Qolganini o'ziniki qilib olgan. Ilohim teshib chiqsin!

— Boylar bilan amaldorlarga ishonsangiz, ana shunaqa bo'ladi,— dedi Bayram. — Undan ko'ra, bizga o'xshagan kambag'allar o'z kuchlariga ishonishlari kerak.

— Bizning qo'limizdan nima ham kelardi.

— Ko'p narsa keladi,— dedi Sergey.— Uch-to'rt kun ichida O'raz xolaning arizasi sudda ko'riladi. Bekmurodboy bilan ukasi ham chaqiriladi.

— O, juda soz-ku!

— Axiyri sudga tushibdi-da.

— E, ular tegirmondan ham butun chiqadi. O'tgan gal ko'rgan edik-ku.

— O'tgan galgisi boshqa,— dedi Sergey.— Bu gal sudda eng og'ir jinoyat ko'riladi. Dunyoda begunoh odamni o'ldirishdan og'ir jinoyat bormi? Bunaqa jinoyat qilgan kishi Sibirga haydalishi kerak.

— Xo'sh, shu jinoyat ochilishi uchun nima qilishimiz kerak?— deb, yigitlardan biri sabrsizlanib so'radi.

— Avvalambor, Annageldi usta bilan uning hamqishloqlarini guvohlikka chaqirish kerak. Keyin O'raz xola sudga chaqirilsa, bu kishini yolg'iz yubormaslik kerak.

— Men birga boraman,— dedi O'g'ilniyoz xola.— Agar divallar Bekmurodboyning tarafini oladigan bo'lsa soqollarini yulib olaman!

Odamlar bir kulib olishdi

— Menimcha, sudga qishloqdan qancha ko'p odam borsa, shuncha yaxshi,— dedi Sergey.— Chunki Bekmurodboy divallarga,

pristavga, hokimga pora berib, hammasini qo'lga olgan bo'lishi kerak. Pristav bilan hokim: "Ishni turkman sudyalari — divallar ko'rsin", deydi. Divallar esa "Bekmurodboy ham turkman, sizlar ham turkmansizlar, bir murosaga kelinglar, xun to'lasin", deyishsa kerak. Ana o'shanda O'raz xola ham, qishloqdan borgan boshqa odamlar ham bunga ko'nmay turib olishlaring kerak. Agar qattiq talab qilaversalaring, ish rus sudlarining qo'liga o'tkaziladi. Ana unda qotil osonlikcha qutulolmaydi, chunki unda biz ham belni bog'lab maydonga chiqamiz.

Bu fikr hammaga ma'qul bo'ldi. Sergey ketayotib odamlarga bir narsani qattiq tayinladi:

— Mushtlashish, qurol ishlatish mumkin emas. Agar narigi tomon ataylab urish-janjal çhiqarmoqchi bo'lsa ham, sizlar qo'llaringizni orqalaringizga qilib, adolatni talab qilaveringlar. Vaqti kelganda qurol ham, musht ham ishga tushadi. Ana o'shanda mana bu xolamiz boylarning soqoliga o't qo'ysalar ham ruxsat beriladi, ammo hozir mushtlashish ham, pichoqlashish ham narigilarning tegirmoniga suv quyadi. Sizlar talab qilingizlar. Divallar Bekmurodboyga yon bossa, "boshqa dival" tayinlansin denglar...

Sergey bilan Bayram qishloqdan kechqurun chiqib ketishdi-yu, ertalab archin Mamatning kichik o'g'li O'raz xolaga chaqiriq qog'oz keltirib berdi.

Sud bo'ladigan kuni archin Mamat O'raz xolaning uyi oldida to'plangan olomonni ko'rib qo'rqib ketdi. Katta o'g'li Mommuqni chaqirib:

— Nima gap ekan, sekin borib bilib kel-chi,— dedi.

Bir qismi ot mingan, bir qismi eshak mingan, bir qismi piyoda olomon Mariga qarab yo'l olganda Mommuq otasining oldiga chopib keldi. Voqeani aytib berdi-da:

— Sizni ham so'kib ketishyapti,— dedi— Elning pulini aldab olgan emishsiz!

"Mening ustimdan arz qilishsa-ya!— deb qo'rqib ketdi archin Mamat.— Yo'q, isbot qilisholmaydi. Pulni men bilan birga bo'lishib olgan yoshullilar yonimga kiradi. Pristav ham ahmoq emas, yegan porasini unutsa... Lekin bu olomon sudda boshqa biron falokat ish qilsa-chi. Kaltak avval katta tuyaga tegadi, deyishadi. Men shu

qishloqning kattasiman. Pristav "sen qayerda eding?" demaydimi? Yo'q, oldini olmasam baloga qolaman".

Archin Mamat chopqir otlaridan birini mindi-yu, eng qisqa yo'llardan yurib, Mariga tomon ot choptirib ketdi.

Sudga ketayotgan hamqishloqlari uni uzoqdan ko'rib tanidilar.

— Ha, la'nati bo'ri, bizdan oldin borib ishni buzmoqchi-ku!

— Otliqlar, otlaringga qamchi bosinglar! — dedi O'g'ilniyoz xola.— Ertaroq yetib bormasalaring, archin bizga to'g'anoq soladi!

Otliqlar archin ketgan yo'lga burilishdi, ammo uni quvib yetisholmadi. Ular sud bo'ladigan joyga yetib kelganda archin Mamatning ko'pikka botgan oti daraxtga qantarilib turar edi. Archinning o'zi esa pristavning kabinetida qo'lini ko'ksiga qo'yib arz qilmoqda edi. Tilmoch uning so'zlarini pristavga tarjima qilib berdi:

— Bizning qishlog'imizdagi odamlar isyon ko'tarib bosib kelyapti. Bekmurodboyni, hamma divallarni o'ldirishmoqchi. Ularga qo'shib pristav janoblarini ham, meni ham o'ldirishadi.

— O'ldirishadi?— qaytarib so'radi pristav. — Unday bo'lsa, seni nega o'sha qishloqda o'ldira qolishmadi?

— Men zo'rg'a qochib qutulib keldim, — dedi archin.

Pristav telefon trubkasini olib, politsiyani so'radi, ammo javob ololmadi. Shundan keyin to'pponchasini qinidan olib, cho'ntagiga soldi-da, qo'lini cho'ntagidan olmay tashqariga chiqdi.

Sud qo'shni binoda bo'lishi kerak edi. Binoning hovlisiga to'plangan odamlar isyonchilarga o'xshamas, ko'pchiligi o'zaro osoyishta gaplashib turar edi.

Shunday bo'lsa ham, pristav ichkariga kirib, telefonda yana politsiyani so'radi va qirg'in bo'lish ehtimoli borligini aytib, ehtiyot choralari ko'rishni buyurdi. Sud bo'ladigan zalda Bekmurodboy uch-to'rtta yaqinlari bilan savlat to'kib o'tirar edi. Qotil Chori kelmagan edi. O'raz xola va uning hamqishloqlari zalning yarmidan ko'pini egallab olgan edilar. Alohida eshikdan kirgan divallar va boshi qaltiroq Ulug'berdi qozi to'rga qo'yilgan stol atrofidan joy olishdi. Pristavning kabinetidan chiqqan tilmoch:

— To'ra keyin kelar ekanlar, boshlayvering ekan, — dedi.

Rahim dival oldingi qatorda o'tirgan boylarga murojaat qilib:

— Saidahmad eshon kelmadilarmi? — dedi.

— Kelganlari yo‘q, — dedi Valiboy.

— Kelarmikanlar? Yo boshlayveraylikmi?

— Ay, kelib qolar, shoshmaylik,— dedi Bekmurodboy.— Saidahmad eshon juda pok odam-da. Yaxshi-yomonga ko‘zim tushmasin deb uyidan kam chiqadi. Ayniqsa, shaharda behayolar ko‘p. Saidahmad eshon shularni ko‘rib gunohga botishni istamaydi, iloji bo‘lsa shaharga hech ham tushmaydi. Mo‘jizakor eshonda, doim maloikalar bilan gaplashadi. Lekin bugun siz bilan bizning yuzimizdan o‘tolmay shaharga tushadigan bo‘lgan edi.

— Mayli, unday bo‘lsa, kutamiz,— dedi Rahim dival.

Bir vaqtlar archindan pora olib, Bekmurodboyga qarshi ish yurgizgan Rahim dival O‘raz xolalarga tanish edi. Hozir bu dival odam o‘ldirgan jinoyatchilar kimlar ekanini bilib turib, oldindan shularning foydasini o‘ylamoqda, Bekmurodboyning gapiga kirib, Saidahmad eshonni kutmoqda edi. Yana buni zalda o‘tirgan xaloyiqdan yashirmas edi. O‘raz xolaning g‘ashi kelib, ataylab qattiq-qattiq so‘yladi:

— Mo‘jizakor eshon maloikalar bilan gaplasharmish! Puldor boylar bilan gaplashadi, deng!

— Yuzi qursin shu eshonning, — dedi O‘g‘ilniyoz xola.

Oldingi qatorda o‘tirgan kampirlarning bu so‘zlari Ulug‘berdi qozining qulog‘iga chalindi. U boshini qaltiratib o‘shqirdi.

— Tabarruk eshonga til tegizmanglar, ojizalar! Saidahmad eshonga til tegizsalaring, bundan battar baloga yo‘liqasanlar.

— E bular eshonni bir marta xafa qilib qarg‘ishiga qolishgan, — dedi divallardan biri.— O‘sha qizlari tufayli boshlariga shunday og‘ir kunlar tushgan bo‘lsa ajab emas!

— Tavba qilinglar!

— Agar tabarruk eshoningiz odamlarning boshiga shunday kunlarni ataylab soladigan bo‘lsa, men uning soqoliga o‘t qo‘yaman — dedi O‘g‘ilniyoz xola.

Rahim dival shoshilib:

— Bas qilinglar! — dedi.

— Nega bas qilar ekanman? Begunoh odamlarning o‘limiga sabab bo‘lgan ana u boy nega bu yerda qornini qashlab o‘tiribdi? Nega eshon uni qarg‘amaydi? Puli ko‘p bo‘lgani uchunmi?..

Divallar o'zaro shivirlasha boshladi:

— Bu xotin kim o'zi? O'g'ilturdi Pichoqli degan polvon xotin shu emasmi?

— Yo'q, bu xotin O'g'ilturdi Pichoqlidan ham o'tib tushadi. Aytishlariga qaraganda, O'g'ilturdi Pichoqli bir kun bu bilan dahanaki jang qilib, yengilib ketgan ekan. Shunaqaga o'xshaydi. Yaxshisi buning chakagini ochish kerak emas. O'zini ham ataylab olib kelishgan bo'lsa kerak,

— Xullas, bugungi ishimiz ancha mushkulga o'xshab qoldi.

— E, ana, eshon og'a ham keldilar! — dedi Rahim dival birdan yengil tortib.

Divallar o'rinlaridan turdilar. Qozi bilan Bekmurodboy eshonga peshvoz chiqishdi. Yuzi upa surtilganday oppoq, sallasi laylak uyasiday katta, mahsi-kalishi yengil Saidahmad eshon salobat bilan to'rga chiqdi. Unga yumshoq stul surib berishdi. Ammo eshon stulda o'tirishini gunoh hisoblardi. U orqadan xurjun ko'tarib kirgan yigitga ishora qildi. Yigit xurjundan yangigina xorazmcha to'n oldi-da, stol yoniga to'shadi. Keyin xurjunning ikkinchi ko'zidan joynamoz olib, to'nning ustiga yoydi. Eshon hozir namoz o'qimoqchi bo'lgan kabi, joynamozning bir chetiga cho'kka tushdi.

— Qani, mo'tabar eshon, fotiha bering, ishimizni boshlaylik, — dedi qozi.

Zalda Saidahmad eshonning ta'rifini ko'p eshitgan, uning duoibadidan qo'rqadigan odamlar oz emas edi. Shuning uchun hamma jim bo'lib, unga qarab qoldi. Eshon avval "Qur'on"dan qisqa bir surani qiroat bilan o'qidi-yu, keyin qo'lini fotihaga ochib:

— Ilohi omin! — dedi.

Divallar, boylar, zalda o'tirganlar hammasi fotihaga qo'l ochdi, qo'l ochmagan odam musulmonchilikdan chiqib ketadiganga o'xshar edi.

— Xudoyi taolo kushoyishi korlaringni bersin, tinchlik, xotirjamlik bo'lsin, murod-maqsadlaringga yetinglar — omin, Allohu akbar!

Eshonning so'nggi so'zini o'nlab ovozlar takrorlab:

— Allohu akbar! — dedi, o'nlab qo'llar yuzlarni, soqollarini siypadi.

Isyonkorona ruh bilan kelgan kishilarning anchasi to'rda cho'kkalab o'tirgan eshon qarshisida, shuncha odam ishtirok etgan fotiha ta'siridan avvalgi shaxtlaridan tushib jim bo'lib qolishdi.

Malla mo'ylovini burab pristav ham kirib keldi-yu, eshon o'tirmagan yumshoq stulga o'tirib:

— Qani, boshlansin,— dedi.

Rahim dival O'raz xola bilan Bekmurodboyni yuqoriga taklif qildi. Ikkovini katta stolning ikki chetiga o'tqazishdi, Saidahmad eshon yana fotihaga qo'l ochib:

— O'razsulton, eringizning joyi jannatdan bo'lsin, bolalaringizning huzurini ko'ring, omin, Allohu akbar!— dedi. Zal gurillab, bu fotihaga ham qo'shildi.

Sudga din aralashishini, bunaqa duoyi fotihalar bo'lishinni kutmagan O'raz xola nima deyishini bilmay dovdirab qoldi, so'ng beixtiyor eshonning fotihasiga qo'shildi. Buni ko'rgan divallar yana Saidahmad eshonga murojaat qildilar:

— Bechora bevaning ko'ngliga faqat siz taskin bera olasiz, eshon og'a.

— O'z fikringizni aying.

— Maslahat bering, eshon og'a.

Eshon bir lahza sukutga ketgach:

— O'razsulton,— deb gap boshladi,— sizning boshingizga og'ir musibat tushganini sezib turibman. Har qancha dovlashsangiz ham haqqingiz bor. Lekin endi o'lgan odam baribir tirilmaydi. Xudoning amri shu ekan, ilojimiz qancha? Odam tug'ilmasdan oldin Xudo uning peshanasiga qachon o'lishini yozib qo'yar ekan. Nimadan o'lishi ham peshanaga bitilar ekan. Qismat deganlari shu. Odamning kuni bitgandan keyin Azroyil bir narsani sabab qilar ekan-u, jonini olib ketar ekan. Xudoning xohishi bo'lmasa, daraxtdan bitta barg ham uzilib yerga tushmaydi. Xudoning xohishi shu ekanki, eringiz cho'ponlikni tashlab, mardikor bo'libdi, bir dalada Chori bilan suv talashibdi. Xudoning xohishi bilan Chori shaytonning yo'liga yuribdi. Eringizni belkurak bilan uribdi. Axir shaytonni ham Xudo yaratgan-ku. Ilgari shayton qirq ming maloikaga boshliq bo'lib turgan dono odam ekan. Bilimi zo'rligidan kerilib, Xudodan qo'rqmay qo'ygan ekan. Xudo yomon ko'rgan

bandalariga tavqi la'nat yuborar ekan. Osmondan olov bo'lib yonib tushadigan tavqi la'nat yerga yaqinlashganda maloikalar hammasi sajdaga bosh egib, yerga qarab turgan ekan. Shayton Xudoning g'azabidan qo'rqmay boshini sajdadan ko'taribdi. "Qani, tavqi la'nat kimga tushar ekan?" deb kekkayib turaveribdi. Shunda tavqi la'nat uning boshiga kelib tushipti! Shundan beri shayton odamlarni yo'ldan ozdiradigan bo'libdi. Bekmurodboyning ukasi Chori ana shu shaytonning qutqusiga uchgan. Bo'lmasa u yigit birovni o'ldiradigan yomon yigit emas edi.

O'raz xola tomoq qirib oldi-da:

— Rahmatli erimning o'limiga shayton aybdor demoqchimisiz, eshon og'a? — dedi.

— Ha, shayton aybdor, shayton! — dedi eshon.

— Uni o'z qo'li bilan o'ldirgan Chorichi? — pastdan luqma tashladi O'g'ilniyoz xola.

— Chori shaytonning gapiga kirgani uchun... narigi dunyoda, albatta, jazosini tortadi...

— Agar Chorining o'zini birov o'ldirib ketsa, u ham jazosini narigi dunyoda tortadimi?— dedi O'g'ilniyoz xola.

Eshon "ha" desa, Bekmurodboyning ukasini o'ldirishga fatvo berganday bo'ladi. "Yo'q" desa, avvalgi gapi yolg'on chiqadi. Shuning uchun dovdirab:

— Shaytonni... shaytonga hay ber, kampir! Men odamlarni yarashtirib, savob ish qilmoqchiman. Sen: "O'ldirganni o'ldirish kerak" deb shaytonga tarafkashlik qilyapsan. O'rozsulton — kambag'al beva. Boqadigan odami yo'q. Shuning uchun biz unga erining xunini olib bermoqchimiz. Qani, qozi, Bekmurodboy qancha xun to'lashi kerakligini hisoblab chiqdingizmi?

Qozi o'rnidan turdi, har so'zida boshi bir qaltirab dedi:

— Xudoning amri bilan Sahat o'g'li Murod Omongeldi o'g'li Chori tomonidan urib o'ldirilganda ellik to'rt yoshda edi. O'zi bir ustaning uyida yiliga olti tuman pulga ishlaydigan mardikor edi. Usta unga kiyim-bosh ham qilib berishni zimmasiga olgan edi. Bir yillik kiyimini biz ikki tuman hisobladik. Demak, har yili sakkiz tuman bo'ladi. Murod payg'ambar yoshiga yetguncha yashasa, yana o'n yil ishlar edi... O'n yilda sakkiz tumandan sakson tuman

ishlab topar edi. Nohaq o'ldirilgani uchun qirq tuman, oilasining boshiga tushgan musibat uchun yigirma tuman, dafn xarajatlari uchun besh tuman... Hammasi bo'lib bir yuz-u qirq besh tuman bo'ladi.

Qozi, "xunni katta belgiladim, chamasi?" deganday qilib, Bekmurodboyga xavotirlanib ko'z tashladi.

— Mayli, qancha desalaringiz, shuncha xun to'laymiz,— dedi Bekmurodboy ochiq chehra bilan.

Qozining ko'ngli endi joyiga tushdi.

— Qani, pulni bering, bo'lmasa, — dedi Rahim dival.

Bekmurodboy, kumush tangalarga to'la hamyonini stolga qo'ydi:

— Sanab olingizlar.

Pulni ko'rib ko'zlari yaltiragan divallar bir yuz-u qirq besh tuman kumush tangalarni sanab olib, O'raz xola tomonga surdilar.

O'raz xola indamay yerga qarab o'tirar edi. Saidahmad eshon yana unga murojaat qildi:

— O'razsulton, tangalarga qara, hammasi yap-yangi. Eringga yaxshilab xatmi Qur'on qil, yil oshi qil. Qolganiga sigir olinglar, kiyim-kechak qilinglar. Bekmurodboy bilan yarashsang, bordi-keldi qilasanlar, qizingni istaganda borib ko'rasanlar.

O'raz xola hamon pulga qaramay jim o'tirar edi.

— Dival og'alar,— dedi Bekmurodboy.— Xaltadagi puldan yana yigirma tuman olib, bir yuz qirq tumanning ustiga qo'shinglar. Mayli, shu bechora beva xursand bo'lsin.

— Juda saxiysiz-da, Bekmurodboy!— dedi Rahim dival. So'ng O'raz xolaga qaradi: — Xudo degan banda ekansiz, buncha pulni topish oson emas. Bu pulga bir qo'ra qo'y beradi! Oling tezroq.

Bekmurodboy, "ko'p berdim-ov!" deganday bir cho'chidi, ammo Uzukka qalin bersa, bundan ham ko'p puli ketishini o'yladi.

— Mayli, men roziman! — dedi. — Bular endi bizga qarindosh. Qo'ynidan to'kilsa qo'njga, deydilar.

Hamma O'raz xolaga qarar edi. Divallardan biri uning yerga qarab indamay o'tirganini ko'rib, "pulni olishga uyalyapti shekilli", deb o'yladi. Pulni hovuchiga olib o'rnidan turdi-da, O'raz xolaning etagiga soldi.

— Oling!

O'raz xola etagiga olov tekkanday sapchib o'rnidan turdi. Tangalar yerga to'kilib, To'rli tomonga yumalab ketdi.

— Men erimning o'ligini pulga sotgani kelgan emas edim, eshon og'a!— dedi O'raz xola tikka turganicha.— Imonlaringni pulga sotib o'rgangansizlar, hammani shunday deb o'ylaysizlarmi?

— E o'zingizni bosing-e!

— Qozi og'a, siz mening erimga bir yuz qirq tuman narx qo'ydingiz...

— Ha, ozmi?

— Ko'p bo'lsa, mayli, men shu bir yuz qirq besh tumanni sizga beray. Sizning hamma joyingiz butun qolsin-u, "eringning narxi" deb pul uzatgan qo'lingizni kessinlar. Erimning boshi bir yuz qirq besh tuman bo'lsa, sizning bir qo'lingiz shuncha bo'lsin. Kestirasizmi qo'lingizni?!

— Bu xotin jinni bo'libdi!— dedi qozi nari surilarkan.

— Kestirmaysiz, bilaman! Bo'lmasa nega boshqalarning jonini pulga chaqasiz? Men erimning bir tomchi qonini ming tumanga bermas edim. Bekmurodboy, siz menga yigirma tuman ortiq berib, o'z boyligingizni ko'z-ko'z qilmoqchi bo'lasiz. Men kambag'allik, halollikni afzal ko'raman. Men sizning pulingizdan, davlatingizdan hazar qilaman. Qon hidi keladi bu pullardan! Beva-bechoraning ko'z yoshlaridan yig'ilgan bu davlat!

Pristav O'raz xolaning bu so'zlarini tilmochdan so'rab bildi-yu, qovog'ini solib, "bo'ldi, boshqa tarjima qilma!" deganday yuzini naryoqqa o'girib oldi. Chunki pul va davlat to'g'risidagi gaplar unga ham tegib ketgan edi.

— Xo'p,— dedi Saidahmad eshon O'raz xolaga yana muloyim gapirib,— siz xun olmaganingiz bilan nima yutasiz?

— Xun olish odati azaldan bor-ku,— dedi Rahim dival.

Pastda o'tirgan O'g'ilniyoz xola:

— Ha, azaldan ko'za sindirgan aziz-u, suv keltirgan xor-zor,— dedi.

— Kimsasiz bir ayolni gij-gijlaguncha,— dedi Rahim dival ovoz kelgan tomonga yuzlanib,— to'g'ri yo'lga solsalaring bo'lmaydimi? Pulni olsa-ku, tirikchiligi yaxshilanib ketadi.

— Men kimsasiz emasman, bilib qo'ying, dival og'a! — dedi O'raz xola. — Mana shu o'tirgan hamqishloqlarim men bilan birga keldi. Biz sizlardan pul so'rab kelganimiz yo'q, adolat istab keldik. Agar sizlar "adolatni ham pulga sotamiz" demoqchi bo'lsalaringiz ochiq aytinglar. Bo'lmasa erimni o'ldirganlarga jazo beringlar. Men Bekmurodboylar bilan o'la-o'lgunimcha yarashmayman. Bular oyday qizimni tortib olib, yana erimni ham o'ldirgan ablahlar. Men ularni umrbod kechirmayman!

Tilmoch jim o'tirganini ko'rgan O'g'ilniyoz xola pastdan luqma tashladi. — Hoy tilmoch, nega xo'jayiningga bu gaplarni o'rischalab tushuntirmayapsan? Unga ayt, biz bu divallarga ishonmaymiz. Bekmurodboy hammasini og'zini moylab qo'ygan.

— Qozisi ham sotilgan — dedi kimdir.

— Bizning arizamizni rus sudyalariga topshiringlar!— dedi O'raz xola — Agar ular ham haqiqat qilmasa, men Ashxobodga boraman! Toshkentga borib, yarim poshshoga arz qilaman!

Divallar shoshib dovdirab qolishdi. Zal to'la odamlar eshonni ham, uning fotihasini ham unutib:

— Qotil sud qilinsin!

— Sibir qilinsin!— deb qichqirishardi. Tilmoch bu talablarni pristavga tushuntirib berdi.

— Jazo berilsin!

— Qotil qamoqqa olinsin!

— Bu divallar sotilgan. Boshqa dival tayinlansin!

— Xaloyiq! — deb tilmoch o'rnidan turdi.— Pristav janoblari shovqin qilmasliklaringni talab qiladi. Jim o'tiringlar. Hozir divallarning hukmi e'lon qilinadi.

Zal bir lahza jim bo'ldi. Rahim dival o'rnidan turib:

— Odamlar, uy-uylaringga boringlar,— dedi.— Bugun sizlar bizga xalaqit berdilaring. Ishni yopiq majlisda ko'rib, hukm chiqaramiz.

Pastda odamlar birdan shovqin-suron ko'tarishdi:

— Adolatsizlik bu!

— Qotil qamoqqa olinsin!

— Divallar pora olgan!

— Boshqa dival tayinlansin!

— Qozi ham o'zgartirilsin!

— Qachongacha bular bizni boylarga sotadi?

— Qotil Sibir qilinsin!

Pristav to'polon tobora avjiga chiqayotganini ko'rib, sekin tashqariga chiqdi. Ko'chada hozir bo'lib turgan politsiyachilar uning ishorasi bilan zalga bostirib kirishdi-da, odamlarni qamchi bilan urib ko'chaga hayday boshladi:

— Razoydis![1] — qichqirdi politsiya boshlig'i.

— Haqiqatni talab qilsang ham kaltak yeysan bulardan!

— Dunyoda adolat yo'q ekan!

— Razoydis!! — degan qichqiriq yana takrorlandi.

Hademay zalda divallar bilan boylargina qoldi. Pristav orqa eshikdan ularning oldiga kirdi-yu:

— Janoblar, bugungi hodisa bizni sergaklantirib qo'ydi, — dedi. — Turkmanlar orasida ham revolutsiyaning zaharli urug'ini sochayotganlar borga o'xshaydi. Hurmatli boyonlarimiz bu zaharli urug'ni sochuvchilarni topishda bizga yordam berishlari kerak.

— Jonimiz bilan yordam beramiz, — dedi Bekmurodboy va to'nining yoqasini to'g'rilagan kishi bo'lib, qo'ynidagi kumush tangalarini shiqirlatib qo'ydi.

U pristavga anchagina pora bergan, hozir yana berishga tayyor ekanligini bildirmoqchi edi. Pristav buni tushundi-yu, Bekmurodboyni kabinetiga chaqirtirdi.

— Men sizga yordamlashmoqchi edim. — dedi kreslosida yastanib o'tirib papiros chekayotgan pristav. — Biroq o'zingizning turkmanlaringiz bunga yo'l bermayapti. Bular Ashxobodga arz qilishdan ham toymaydi. Shuning uchun ukangizning ishini rus sudyalarga berishga to'g'ri keladi.

— Ular qonunga qarab ish qilisharkan, Chori Sibirga surgun bo'lmasmikin?

— Imperator hazratlarining dushmanlari Sibirga haydaladi. Ukangiz unaqalardan emas-ku...

— Yo'q, yo'q, pristav janoblari! Biz podsho hazratlarining duogo'ylaridanmiz, u kishi uchun jonimizni fido qilamiz.

[1] Tarqalinglar!

— Mana shuni imperator hazratlarining Maridagi sudyasiga ham tushuntiramiz. Haligi bevaga bermoqchi bo'lgan pullaringizni Rahim divalga topshiring. Yarmini rus sudyasiga bersin. Yarmini politsiya boshlig'iga bersin.

— Unday bo'lsa, ikki yuz tuman ozlik qiladi. Pristav janoblari, mening sizga ataganlarim ham bor. Hammasini Rahim dival keltirib beradi.

Pristav papiros qoldig'ini kuldonga tashladi. Mamnun tovush bilan:

— Yaxshi, — dedi.— Qishlog'ingizdagi archin bilan ham kelishib qo'ying. Mabodo, ukangizning nomiga chaqiriq qog'ozi borsa, "qishloqda yo'q, qayoqqa ketgani noma'lum" deb javob qaytaraversin. Ikki-uch marta shunday qilamiz-u, biror yil o'tgandan keyin "jinoyatchi topilmadi" deb, qaror chiqarib, deloni yopamiz.

Pristav bu so'zining ustidan chiqdi. O'raz xola Marining rus sudyalariga, Ashxobod va Toshkentdagi to'ralarning nomiga o'nlab arizalar yozdi, ammo hech qayerdan najot topmadi.

Oq podsho va uning amaldorlariga ishonib yurgan odamlarning ko'pisi shundam keyin bu ishonchlarini ham yo'qotdi.

## TURDI ISH IZLAYDI

"Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv", deganlariday, O'raz xolaning ip yigirib, ko'rpa qavib topgani ona-bolani boqolmay qoldi. Turdi o'n besh yoshga kirgan bo'lsa ham, og'ir kunlarni ko'p ko'rib, o'n yetti-o'n sakkiz yoshli yigitlarday mulohazali bo'lib qolgan edi. U bir necha marta qo'shni qishloqlarga ketib xizmatkor tushmoqchi bo'ldi. Ammo O'raz xola ruxsat bermadi. Uning birdan-bir suyanchig'i — shu o'g'ilchasi edi. Uni ko'zidan yiroqlashtirgisi kelmas edi. Bu yaqin orada esa Subhonboy bilan archin Mamatdan boshqa xizmatkor oladigan badavlat kishi yo'q. Ona-bola Subhon xasisni jinlardan battar yomon ko'rishardi. Archin Mamat ham yaxshi odam emasligini bilishsa-da, Subhon xasisdan durustroq deb o'ylashar edi. Shuning uchun O'raz xola bir kun archinning oldiga bordi.

Archin Mamat katta xotini bilan oynaband ayvonda nonushta qilib o'tirgan ekan, O'raz xolaga poygahdan joy ko'rsatdi. O'raz xola unga arzini aytib:

— O'g'ilcham begona joylarga ketmasin, sizlar xizmatkor qilib ola qolingizlar,— dedi.

Archin qovog'ini solib:

— O'n besh yashar bolaning qo'lidan nima ish keladi?— dedi.— Hali ona suti og'zidan ketmagan.

Ammo archinning xotini Turdining vazmin, pishiq o'spirin ekanini bilar edi. Mol-holga qarash, o'tin tashish, suv keltirish ayollarga xiyla og'ir tushar, archinning xotini shu tashvishlarni biron xizmatkorning bo'yinga yuklashni anchadan beri o'ylab yurar edi. Hozir paytdan foydalanib oraga tushdi:

— O'raz opa o'g'illariga haq so'ramasalar kerak. Turdi hali bola. Qornini to'yg'azib, kiyim-kechagiga qarashib tursak — shu ham katta gap.

Archin Mamat bu gapni ham xushlamadi.

— Kiyim-kechagi oson emas. Yozda chepek[1], qishda to'n, etik, cho'girma...

— Otasining eski chepegi bor, shuni kiyib turar,— dedi O'raz xola.

Archinning xotini yana O'raz xolaga yon bosdi:

— To'n bilan telpak kerak bo'lsa, o'g'illarimizning eskisi ko'p, shularni beramiz. Agar haq so'ramasa...

— Mayli, haq bermasalaringiz ham, Xudo o'zlaringizga insof bersin,— dedi O'raz xola — Ishqilib, o'g'limning qorni to'q, usti butun bo'lsa bas.

Archinning xotini eriga bir qarab oldi-da, uning nomidan buyurdi:

— Kechqurun olib keling o'g'lingizni.

Kun botayotgan paytda O'raz xola Turdini ergashtirib, yana shu yerga keldi. Archinning o'zi yo'q. Xotini ayvonda o'g'illari bilan choy ichib o'tirgan ekan. Archinning Mommuq degan o'g'li Turdidan ikki yosh katta. Kichigi Turdiga tengdosh. Ular ko'chalarda birga o'ynab o'sgan. Turdi o'yinda ularni ko'p yutar,

[1] **Chepek** — kavushga o'xshagan oyoq kiyimi *(tarj.)*.

aka-ukaning oldida o'zini doim mag'rur sezar edi. Hozir esa oyisi Turdini bularnikiga xizmatkorlikka boshlab keldi... Turdi shundan or qilib bosh ko'tarmas edi. Archinning xotini O'raz xolaga bir piyola choy berdi. Turdiga bir burda non uzatdi. O'raz xola choyni olib icha boshladi. Yaqinda tandirdan uzilgan bug'doy nonning hididan Turdining og'zi suv oldi. U ertalabdan beri tuz totmagan edi. Shunday bo'lsa ham, nondan yemadi — archinning o'g'illari dasturxondan non olib yeyayotganda Turdiga gadoyga uzatganday qilib bir burda non uzatishlari uning izzat-nafsiga tegib ketdi.

— Turdijon, kamtar bo'lgin,— deb tayinladi onasi.

— Annatuvoq xolang nima ish buyursa, so'z qaytarmay qilgin. O'yinqaroqlikni endi yodingdan chiqar. Sen bu yerda xizmatdasan. Mening baxtimga, endi sen yaxshi yigit bo'lgin. O'zing ko'rib turibsan, men opang bilan otangning dardida kuyib tamom bo'lyapman. Endi sen meni kuydirmagin, bolam!

— Bo'pti, oyi, siz xotirjam bo'ling,— dedi Turdi. Uning ovozi so'nggi oylarda juda do'rillab qolgan edi.

Annatuvoq uning nonni yemaganidan izzat-nafsi uyg'onib qolganini sezdi. Turdi kechki ovqatni Mommuqlar bilan bir dasturxondan yedi. Turdi bu uyga o'rganguncha unga ko'p ish buyurishmas va qattiq gapirishmas edi.

Uchinchi kuni Mommuq unga qarab:

— Men hozir aravani qo'shaman,— dedi.— Ungacha sen dalaga chiqib, o't o'rib tur. Otam aytdi.

Turdi bu dargohda ko'p dakki yemay yurishi uchun yaxshi ishlashi kerakligini sezar edi. Mommuq shoshilmay aravani qo'shib kelguncha Turdi o'n sakkiz bog' o't o'rdi. Mommuq erinchoqlik bilan aravadan tushdi-da, bog'larni sanab ko'rdi:

— Ko'z tegmasin, Turdi, durustsan,— dedi birdan yengil tortib. U bugun o't o'rish tashvishidan qutulganiga xursand edi.— Yana ikki bog' o'rsang, bugunga yetadi. Ungacha men tayyorini aravaga ortaveraman.

Bu o't bo'rdoqilar uchun o'rilgan edi. Turdi o't ortilgan arava bilan qishloqqa qaytgach, archin Mamat unga shu bo'rdoqilarni topshirdi:

— Otang mol boqishni yaxshi bilar edi, endi sen Murod og'aning o'g'li ekanligingni ko'rsatishing kerak. Bo'rdoqi boqishni bilasanmi? Bo'lmasa, men tushuntirib qo'yaman...

Turdi archin Mamatning buyrug'iga binoan har kuni kechqurun bir arava o't olib keladi. Bo'rdoqiga boqilgan qo'ylar kunduz kuni issiqda o'tni uncha yemaydi. Shuning uchun ularni tungi salqinda, ertalab sahar pallada boqish kerak. Turdi kechasi har bir bo'rdoqining oxuriga o't solib turadi, qo'y o'tning yumshoq-yumshoq joylarini chilpib yeydi-yu, boshqa yog'ini nishxo'rdga chiqaradi. Aslida bu nishxo'rd emas — archinning buyrug'iga binoan, Turdi qo'ylarning oldidan ortib qolgan o'tni otlarning oldiga soladi. Qo'ylarning yem-xashagini esa muttasil yangilab, taglarini tozalab turadi. Shu sababli, Turdi hammadan kech yotadi, archin uni goh yarim kechada, goh ertalab sahar palla uyg'otadi.

— Kuzgacha bu bo'rdoqilar o'rinlaridan turolmaydigan bo'lib semirishi kerak, — deydi archin. — Agar kuzda bularni dumbalariga arqon solib turg'azmaydigan bo'lsam, sen aybdor bo'lasan.

Turdi haftalab uyquga to'ymay, ko'zlari qizarib, boshi garang bo'lib yuradi. Ba'zan o'tirgan joyida mudray boshlaydi. Archinning to'yib-to'yib uxlaydigan o'g'illari uning mudraganini ko'rib kulishadi. Turdiga bu alam qiladi, ammo tishini tishiga qo'yib indamaydi.

Saraton kunlardan birida archin ikkita bo'talog'i bilan bir tuya sotib olib keldi:

— Bularni sen boqasan, — dedi Turdiga. Turdi "bo'rdoqilardan qutuldim", deb o'ylab xursand bo'ldi. Biroq archin unga:

— Tuya bilan bo'taloqlarni kunduz kuni, bo'rdoqilar kavsh qaytarib yotganda boqasan, — deb tushuntirdi.

Kunduz kunlari uncha-muncha dam oladigan Turdi endi bundan ham mahrum bo'ldi, ozib, tobora mazasi keta boshladi.

Archin Mamat so'nggi paytlarda ancha boyib, kattagina yer ham sotib olgan. Sari degan bir yigit uning yerida qarollik qilar edi. Turdining og'ir ahvoliga faqat shu yigit achinar edi.

— O'zingni muncha urintirma, uka, jon ham kerak,— der edi u, Turdi bilan yakkama yakka qolganda.— Kechasi hamma uxlaganda, sen ham archinga bildirmay uxlab ol.

Qo'ylar o'tni kam yesa yer. Bo'rdoqilarni semirtiraman deb, o'zing qoqsuyak bo'lib borayotibsan. Kunduz kunlari tuyalarni mening yonimga haydab chiq. Men qarab turaman, birpas mizg'ib olasan.

Turdi uning aytganini qilib, bir kecha bahuzur uxladi, ammo ikkinchi kechaga o'tganda archin uyg'onib qolib, bo'rdoqilar o't yemay turganini ko'rdi-da, Turdini rosa urishdi. Bu kecha deyarli uxlamagan Turdi kunduzi tuya bilan bo'taloqlarni Sarining oldiga haydab chiqdi. Sari kechasi bo'lgan voqeani Turdidan eshitib:

— Senga qiyin bo'ldi, uka,— dedi.— Bu archin ham juda noinsof odam. Agar shu archin bizni chalg'itmaganda opang-ni o'g'irlangan kuni borib qutqarib kelar edik. Bitta-yarimtamiz yarador bo'lsak ham, haq yo'lda to'kilgan qon hayf ketmas edi.

— Siz ham o'sha yigitlarning orasida bormidingiz?

— Ha, o'shanda uchta otni egarlab, taxt qilib qo'ygan men edim-da. Archinning xotinlari tayyor otlarni berishmadi-ku. O'ylab qarasam, sening otadan ayrilib, bu ahvolga tushib yurganingga archin ham sababchi. Subhonboy ham sababchi. Bekmurodboy, Saidahmad eshon, oq poshshoning amaldorlari — hammasi sening dushmanlaring. Dushmanim ko'p ekan deb qo'rqma. Hali yoshsan, ko'p narsani bilmaysan. Do'st kim, dushman kim — avval mana shuni ajrat. Keyin yigit bo'lasan, bilaklaring kuchga to'ladi. Ana unda ko'p ish qilishing mumkin.

— Qasd olaman hammasidan!— dedi Turdi ko'zlari yonib.

— Astoydil qasd olaman desang, olasan ham. Astoydil yengaman desang, yengasan ham. Ey uka, gapiraversam, mening ham ko'nglimda armonim ko'p. Bir kun emas, bir kun men ham senga o'xshab zolimlardan qasd olish yo'liga kirsam kerak... Hozircha faqir kishi panada yursa yurar...

— Hoy, Turdi, tuyalar g'o'zani payhon qildi, qayerdasan, ahmoq!

Bu — Mommuqning tovushi edi. Turdi chopib ketdi.

Tuya bilan tayloqlar yo'ng'ichqasi o'rib olingan paykaldan endi o'tishgan, ammo paxtazorga kirishga ulgurmagan edi. Turdi ularni dalaga haydab yubordi. Mommuq so'kinib:

— Daraxtning soyasida uxlaydigan senmisan hali,— dedi-da, yuziga bir shapati urdi.

Turdi ham jahli chiqib, unga qarshi musht ko'tardi. Mommuq unga chap berib, oyog'i bilan chalib yubordi.

— Burning ko'tarilib qolibdi-ku! — dedi yiqilib tushgan Turdiga yuqoridan g'azabli ko'z tashlab. — Hozir men sening burningni yerga ishqab qo'yaman!

U o'zini Turdining ustiga tashladi. Turdi uni itqitib tashlamoqchi bo'lib bir ag'anadi. Ammo Mommuq undan zo'r edi: yoshi ham katta, o'zi ham yaxshi ovqatlarni ko'p yeb, jonini koyitmay, kuchga to'lib yurar edi... Naryoqdan Sari yetib kelganda Mommuq Turdining ustiga chiqib olib, uning yuzini o'rilgan bedaning sixdan sixday poyalariga ishqamoqda edi. Turdining yuzidan, lablaridan, burnidan qon oqar, ammo o'zi tovush chiqarmas edi.

Sari Mommuqni yoqasidan olib itqitib yubordi.

— Sen o'zingdan yosh o'smirni qoniga belab uradigan bo'ldingmi?! — dedi Sari. — Hozir men sening jazoyingni beraman!

Sari juda baquvvat yigit edi. U o'n yetti yoshli miqti Mommuqni pastga egdi. Uning boshini sonlari orasiga qisib oldi. Mommuqning ikki qo'lidan ushlab:

— Turdi, ol tayoqni, dumbasiga ur! — dedi. — Seni necha marta urgan bo'lsa, shuncha ur!

Mommuq bo'g'ilib tipirchilar, ammo Sarining iskanjasidan chiqib ketolmas edi. Turdi Sariga minnatdor bo'lib bir qarab qo'ydiyu, indamay ariqqa qarab ketdi.

U Mommuqni o'z kuchi bilan yengishni istar edi. Sari tutib turgan odamni urishni o'ziga ep ko'rmas edi. Mommuqni qo'yib yubordi.

Turdi qonga belangan yuzini ariqda yuvmoqda edi. Sari uni Momuqqa ko'rsatdi-da:

— Ana, mard yigit bunaqa bo'ladi, — dedi. — Uning o'rnida sen bo'lsang, birov tutib turgan odamni urish gapmi, alamingdan so'yib ketar eding.

Yuzlari yaralanib shishgan Turdi hovliga qaytganda archin ham, uning xotini ham nima bo'lganini so'rashdi.

Turdi "daraxt tirnab ketdi" deb qo'ya qoldi. Shuning uchun Mommuq ham nima voqea bo'lganini ota-onasiga aytmadi.

Kech kuzda bo'rdoqilar so'yildi. Turdi "endi tinchiyman" deb o'ylagan edi, yana yangi tashvishlar chiqdi. Ilgarilari archinning

xotinlari tandirga yantoq yoqib non yopishar edi. Endi archin yoz bo'yi g'amlangan yantoqlar bilan tuyalarni boqmoqchi bo'ldi, Turdiga har kuni daladan o'tin olib kelib turishni buyurdi.

Archinning ikki xotini bor. Biri yopgan nonni biri yemaydi, biri pishirgan sho'rvani boshqasi ichishdan qo'rqadi — dori beradi yoki issiq-sovuq qiladi, deb o'ylaydi.

Shuning uchun ikkita tandir bilan ikkita o'choq har kuni o'tinni yamlagani yamlagan.

Bir kun Turdi olib kelgan o'tinning ko'proq qismini Annatuvoq ishlatib qo'yibdi. Kichik kundoshga o'tin kam qolibdi-yu, tandiri yaxshi qizimabdi. Ehtimol, Annatuvoq ataylab kichik kundoshiga o'tinni kam qoldirgandir, chunki archin kichik kundoshnikiga ko'proq kirib chiqsa, katta kundosh undan qasd olish yo'lini qidirib qolardi. Kichik kundosh yaxshi oqarmagan tandirga non yopgan edi, birin-ketin oqib tushdi. Aksiga olib, shu payt Turdi uning yonidan o'tib qoldi.

— O'tinni ko'proq olib kelsang, o'larmiding?!— deb kichik kundosh Turdiga yopishdi.— Buni qara, hamma nonim oqib tushdi! Yana o'shshayib qaraysan-a! Hu ko'zlaring oqib tushsin!

Turdini o'ziga tarafdor qilib olishni istagan Annatuvoq:

— O'zingning ko'zing qayerda edi, oyimcha! — dedi kichik kundoshga.— Tandir oqarmasdan oldin non yopib bo'ladimi?

— Sening sochingni yoqib oqartiraymi tandirni! — baqirdi kichik kundosh.— O'tin yo'q! O'tin qani, yetimcha?!

Kichik kundosh Turdini kosov bilan ikki-uch marta urdi. Annatuvoq oraga tushib, Turdining yelkasini siladi.

— O'l, bu kuningdan!— dedi kundoshiga.— O'tin yetmagan bo'lsa, tashqarida ikki g'aram yantoq turibdi-ku. Shundan olib yoqishga aqling yetmapti-da!.. Turdijon, sen bu jinnining yaqiniga borma!

Turdi archinning kichik xotinini ilgarilari ham suymas edi. Bugungi voqeadan keyin uni juda yomon ko'rib qoldi. Annatuvoq Turdini ayvonga chaqirib oldi.

Oldiga issiq bug'doy non, qovurilgan go'sht qo'yib:

— Ol, to'yganingcha ye, — dedi. U kichik kundoshining jig'iga tegish uchun Turdiga ataylab shunday mehribonchilik qilmoqda edi.

Yantoq olib kelib, tandirni boshqatdan qizdirayotgan kichik kundosh hamon Turdini qarg'ar, archin shahardan qaytganda, Turdini qanday kaltaklatishini aytib do'q urar edi.

— Bekor aytibdi, sen undan qo'rqma,— derdi Annatuvoq Turdiga.— Ayb o'zidaligini hammamiz aytamiz. Sen uning xizmatini ham qilma, nonini ham ema. Mening dasturxonim doim sen uchun ochiq. Qachon qorning och qolsa, o'zing non olib yeyaver. Tortinma. Mening ikkita o'g'lim bor. Sen uchinchi o'g'limsan. O'g'illarimni qanday boqsam, seni ham shunday boqaman.

Haqiqatan, bu dargohda Turdiga mehribon odam Annatuvoq bo'lib qoldi. U Turdiga qanday ovqat yoki kiyim bersa, buni kichik kundoshiga ko'z-ko'z qilib berar, shu bilan ularning ikkovini bir-biriga qarshi gij-gijlayotganday bo'lar edi.

* * *

Shu tariqa oradan ikki yil o'tdi.

Mehnatda pishgan Turdi devqomat bir yigitga aylandi. Uning baland bo'yiga, baquvvat yelkalariga onasi faxr bilan tikilar:

— Turdijon, Xudoyim seni yomon ko'zdan asrasin, sen bobongga tortyapsan,— derdi.— Mening rahmatli otam dong'i chiqqan polvon edi.

Archinning katta xotini Turdini o'zidan minnatdor qilmoqchi bo'lardi.

— Men seni o'g'illarimdan ham yaxshi boqyapman, shuning uchun bo'ying Mommuqnikidan baland bo'lib ketdi. Endi o'g'illarimning eskisi senga sig'may qoldi. Shuning uchun men senga yangi to'n, yangi etik, yangi telpak oldirdim. Bir yillik mehnat haqing bu. Qani kiy-chi, men bir ko'ray.

Turdi yangi to'nni kiyib ko'rsatdi.

— Muborak bo'lsin, juda yarashdi.

— Qulluq, Annatuvoq xola. Siz menga onamday mehribonsiz.

— Ha, agar men qattiq turmasam, archin senga bu kiyimlarni hech vaqt olib bermas edi. Kichik kundosh seni necha marta archinga yomonlab urdirmoqchi bo'ldi. Men oraga tushmaganimda boshing g'alvadan chiqmas edi.

— Rost aytasiz, Annatuvoq xola. Men sizning yaxshiliklaringizni umrbod unutmayman.

— Beri kel,— deb Annatuvoq Turdini dahlizdan uyga chaqirdi, darchadan boshini chiqarib, yaqin orada hech kim yo'qligiga ishondi-da, Turdiga yuzlandi:— Bu mochag'ar sen bilan mening dushmanimiz, to'g'rimi? Agar ilojini topsa ikkovimizni ham zaharlab o'ldirib yuboradi. Undan ko'ra biz bu ilonning boshini yanchishimiz kerak.

— Qanday qilib?

Annatuvoq shivirlab gapira boshladi:

— Men senga shuncha yaxshilik qildim. Endi sen shu yaxshiliklarim evaziga menga bitta yaxshilik qilgin.

— Xo'p.

— Shu kundoshdan qutulsam, seni o'zim uylantirib qo'yaman.

— Qanday qilib qutulmoqchisiz?

— Qanday qilib deysanmi? Hozir archin mehmonxonada miltig'ini tozalayapti. Ovga ketmoqchi. Kichik kundosh bilan Sari bedaxonada. Ikkovi jodi bilan beda qirqyapti. Sen hozir bedaxonaning oldiga borib turasan. Men archinning oldiga kiraman-u: "bedaxonada xotiningiz Sari bilan o'pishyapti", deyman. Archin hovliga chopib chiqqan zahoti sen uning oldiga yugurib borasan: "Bedaxonada xotiningiz Sari bilan o'pishyapti!" deysan.

Ikkimizning gapimiz bir joydan chiqsa, archin surishtirib o'tirmaydi. Jahli tez odam, ikkovini ham otib tashlaydi. Biz dushmanimizdan qutulamiz.

Turdi bu gaplardan dahshatga keldi. Annatuvoq ikki yildan beri uni mana shu ishga tayyorlab yurgan ekanda!

Turdi avval Sarini o'yladi: gunohi nima? Nega bekordan-bekorga o'lishi kerak? Turdining tuhmati bilan-a?

Annaguvoq ilonday vishillab:

— Nega indamaysan?— dedi. — Gung bo'lib qoldingmi? Yo qo'rqyapsanmi? Men seni ikki yildan beri tarbiyalab yigit qildim desam, sen hali ham bolamisan? Menga qara! Ko'zimga qara!

Turdi uning ko'zlari chaqchayib ketganini, burun kataklari titrab turganini ko'rdi.

— Agar aytganimni qilmasang, sening o'zing otilasan, bildingmi? Hozir dod deb chiqaman. Archinning oldiga borib: "Turdi meni zo'rlamoqchi bo'ldi", deyman. Qani, qaysisi senga ma'qul? Ayt tezroq! Bo'lmasa, dod deyman!

Turdi o'zini qopqonga ilinganday sezardi. Agar Annatuvoq uni o'z yo'liga sololmasa siri oshkor bo'lishidan qo'rqib tuhmat qilishi, archinning qo'li bilan uni o'ldirtirib yuborishi mumkin. Bu xotin hozir dudama pichoqqa o'xshar, qaysi damiga duch kelsang kesishi muqarrar edi.

— Gapirasanmi, yo'qmi?!

— Shoshmang, xayolimni yig'ishtirib olay.

— Bo'l tezroq!

Shu payt tashqarida qadam tovushi eshitildi.

— Ovsin, uydamisiz? — deb, Annatuvoqning ovsini dahlizga kirdi: — Choyim tamom bo'lib qolibdi, bir yumaloq ko'k choy bering, ovsin!

Annatuvoq dahlizga chiqishga majbur bo'ldi. Turdiga uning ovsini xaloskor ayol bo'lib ko'rindi. Turdi ayvonga qaytib chiqar ekan:

— Annatuvoq xola,— dedi,— meni o'ldirtirish qo'lingizdan keladi. Ammo Sarining bekorga o'lib ketishiga men hech qachon rozi bo'lmayman.

— Voy, bu nima deyapti, ovsin?

— Ahmoqning gapida,— dedi choy qutini ochayotgan Annatuvoq.— Quloq solmang.

Shu kundan boshlab Turdi Annatuvoq bilan yakkama-yakka qolmaslikka harakat qildi.

Annatuvoq uni qo'lga tushirolmagandan keyin ikki o'g'lini Turdiga qarshi gij-gijlagan bo'lsa kerak, Mommuq Turdining hamma ishidan kamchilik qidiradigan bo'lib qoldi.

Turdi dalada g'o'za sug'orib yurar edi. Bir kun tushga yaqin suv birdan ko'p kelib, ariqning chetini buzib ketdi. Archinning g'o'zasini suv bosa boshladi. Mommuq bilan ukasi dalaning narigi chetida yurar edilar. Turdi suv urib ketgan joyni bir o'zi bekitolmagandan keyin Mommuqni yordamga chaqirdi.

Suvni bu ariqqa ko'p ochib, ariqning buzilishiga Mommuqning o'zi sababchi bo'lgan edi. Hozir buni yashirib, Turdini so'kib ketdi:

— Ko'zing qayoqda edi, haromzoda! Ariqning chetini mahkamlasang bo'lmasmidi?!

— Suv bunday katta kelishini men qayoqdan bilay?

Mommuq atrofga alang-jalang ko'z tashladi. Dala chetida uch-to'rt bog' quruq yantoq turar edi.

— Suvga kir! — buyurdi u Turdiga. — Yelkang bilan to'sib tur!

Turdi suv urgan joyni ko'ksi bilan to'sdi. Mommuq yantoqdan ikki bog'ini olib kelib, uning yelkasi ustiga bosdi. Yantoqni etigi bilan tepib, ustiga tuproq torta boshladi. Yantoqning tikanlari Turdining ko'ylagidan o'tib, badaniga qadalar, uning yelkalari yonayotganday achishar edi. Shunda ham u tishini tishiga qo'yib turaverdi. Mommuq tuproq tortishning uddasidan chiqolmas edi. Kuchli oqim tuproqni uning belkuragidan yulqib olib ketar edi.

— Ariqning chetidan ol, chimi bor, ushlaydi! — dedi Turdi pastdan.

— Haromzoda, menga o'rgatguncha o'zing oldinroq shunday qilsang bo'lmasmidi! — deb Mommuq uning kiftiga belkurakning orqasi bilan bir urdi. Turdi suvni zo'rg'a to'sib turar edi. Buning ustiga Mommuqning zarbini yeb, Turdining oyog'i sirg'anib ketdi. U suvga yiqilib tushdi-yu, loy aralash yantoq bog'lari tagida qolib ko'rinmay ketdi. So'ng bir talpinib o'rnidan turdi. Mommuqqa qarab:

— Noshud! — dedi.

— Kim noshud?! — deb Mommuq unga yaqinlashdi. — Sen haromzodani men hozir o'ldirib suvga bosaman!

Mommuq hali ariqdan chiqib ulgurmagan Turdining ustiga sakradi va sakrash zarbi bilan uni yana suvga yiqitdi. Turdining boshini suv tagiga bosib:

— Avval g'arq bo'lib o'lasan, haromzoda! — dedi. Keyin o'ligingni bosaman!

Turdi butun kuchini to'plab, suv ichida bir ag'anadi. Mommuq uning ustidan uchib ketdi. Turdi bir sapchib uning ustiga chiqdi-da, bo'ynidan olib boshini suvga tiqdi. Mommuq jon holatda silkinar, tipirchilar, ammo Turdining baquvvat changalidan bo'shay olmas edi. Bundan ikki yil oldin u o'zidan yosh Turdini yiqitib, yuzini yo'ng'ichqa poyasiga qanday ishqagan bo'lsa, endi Turdi uning

yuzini ariqdagi loyga shunday ishqar edi. Mommuq bir lahza boshini bo'shatib oldi-da, loy tuflab:

— Qo'yvor! — dedi. — Meni o'ldirsang, o'zing ham tirik qolmaysan! Qo'yvor!

Turdi uning boshini yana suvga tiqdi:

— Qirqqacha sana, boy bo'lasan! Sana, noshud!

Shuning ustiga Mommuqning ukasi kelib qoldi. Akasi Turdining tagida yotganini ko'rdi-da, ariq chetida yotgan belkurakni ko'tarib, Turdiga hamla qildi. Turdi bir sapchib ariqdan chiqdi-yu, Mommuqning ukasini chalib yiqitdi. Yerga tushgan belkurakni sopidan olib toshga bir urgan edi, temiri uzilib tushdi.

Bu orada aka-uka o'rnidan turishib, unga tomon xezlanib kelishardi. Turdi oldinda kelayotgan Mommuqni belkurakning sopi bilan ikki martaba boplab urdi. Mommuq dod deb orqaga chekindi. Kichigi yerda yotgan toshga engashdi. Shunda Turdi uning dumbasiga tayoq tushirdi. Bunisi toshni tashlab, ariqning naryog'iga qochib o'tdi.

— Chop, qo'shtig' miltiqni olib kel! — dedi Mommuq ukasiga. Ammo o'zi ham nima qilishini bilmay, ukasining orqasidan uyga chopib ketdi.

Suv hamon bosib kelmoqda. Turdi bilan Sari yoz bo'yi mehnat qilib o'stirgan bir paykal g'o'za suv tagida qolmoqda edi. Turdi atrofga alanglab, shox-shabba qidirib ko'rdi. Ammo ko'ziga hech narsa chalinmadi. Uzoqda uylariga yaqinlashib borayotgan Mommuqlarning baqirib-chaqirishlari eshitilardi. Turdi archinning g'o'zasiga nega buncha achinadi? G'o'zasini suv bosgani bilan bu haromxo'r archin kambag'al bo'lib qolarmidi? Turdi endi ularnikiga bormaydi. Zaharli ilonga o'xshagan Annatuvoq ham, uning alamzada o'g'illari ham endi unga kun berishmaydi. Hozir ular miltiqlarini o'qlab chiqsa, ajab emas.

Turdi O'g'ilniyoz xolaning uyida miltiq borligini esladi. "Endi bo'sh kelish yo'q! — dedi u o'ziga o'zi, — musht ko'tarsa, mushtlashaman, otishsa otishaman!"

Turdi jadallab O'g'ilniyoz xolanikiga qarab ketayotgan edi, miltiq ko'targan Mommuqlar uning yo'lini kesib chiqish uchun qiyalab chopib kela boshlashdi. Endi Turdi ham yugurdi: qish-

loqqa tezroq yetib bormasa, dalada pana joy yo'q. Turdi O'g'ilniyoz xolaning qishloq chetida turgan hovlisiga yetay deganda bir narsa uning yonginasidan chiyillab o'tdi-yu, shu zahoti miltiq gumburlagani eshitildi. Ikkinchi o'q otilguncha hovlidan O'g'ilniyoz xolaning o'g'li Qilichli yugurib chiqdi. Xayriyat, ikkinchi o'q ham hech kimga tegmadi.

Gap nimadaligini sezgan Qilichli chopib uyga kirdi-da, o'zining miltig'ini ko'tarib chiqdi. Bir o'qni Mommuqlarning boshi ustidan oshirib otdi. Miltiqda boshqa o'q qolmagan bo'lsa ham, Qilichli miltiqni Turdiga berdi. Turdi miltiqni Mommuqlarga to'g'rilab, ularni nishonga olgan edi, aka-uka jon holatda qochib qoldi.

## JON SAQLAYDIGAN JOY BORMI?

Shunday qilib, Turdi ham o'ziga dushman orttirdi. Archin Mamat Turdiga da'vogar bo'lib: "G'o'zamni ataylab suv bostirgani uchun qamataman!" deb do'q qildi. Ammo ariqqa suvni ko'p ochib, toshqinga sababchi bo'lgan kishi Mommuqning o'zi ekanini biladiganlar bor edi. Shular oraga tushdi. Bir ma'rakada Qilichli archin Mamat bilan uning qarindoshlariga qarata dedi:

— Turdini hech kimi yo'q yetimcha deb o'ylamangizlar, men uni onasi bilan birga o'z uyimizga ko'chirtirib keldim. Turdi bizga uka tutindi. Kim unga qo'l ko'tarsa, bizga qo'l ko'targan bo'ladi.

Qilichlining o'zi rus yigiti Sergey bilan birga Mari tomonlarda ishlar, uyiga har haftada bir kelib ketar edi. Qishloqda uning uch og'aynisi, bir talay amakilari, xolavachchalari bor edi. Bular hammasi kambag'al yoki o'rta hol dehqonlar bo'lsa ham, archin ularning sovuniga kir yuvishni istamas, shuning uchun Turdiga hujum qilishdan o'zini tutar, o'g'illarini ham qaytarar edi.

Turdi Qilichliga qo'shilib, Mariga borishni, Bayram va Eson bilan birga paxta zavodida ishlashni istar edi-yu, ammo onasi uni o'z yonidan uzoqlashtirgisi kelmas edi. Turdi shu qishloqda har kimning xizmatini qilib yurar, archinning qarindoshlari o'ng kelgan joyda uni kamsitishga tirishishar edi.

Bir to'yda uy to'la odamlar orasida kimdir Murod og'aning o'limini-yu, Uzukning taqdirini eslab qoldi.

Bekmurodboy bilan uning ukalari suvdan quruq chiqib ketgani ko'p odamga hali ham alam qilar edi. Xususan, Turdi yoshi ulg'aygan sari otasi bilan onasining oldida o'zini qarzdordek sezar, bu qarzni uzish yo'lini topolmay qiynalar edi. Buni sezgan archin Turdining yarasiga tuz sepganday qilib dedi:

— Odamlar ne umidlar bilan o'g'il o'stiradi. Birovni ko'rganda: "Palonchining o'g'li devday yigit bo'libdi", degingiz keladi. Keyin bilasiz-ki, u baayni ichi bo'sh oshqovoq. Otasi nohaq o'lib ketsa ham parvoyi falak. Ko'kragini kerib yuraveradi.

— He, bizning zamonamizdagi yigitlar boshqa edi-da, — dedi archinga yon bosadigan bir mo'ysafid. — Agar birov otasini yo opasini shunday qilsa-chi, to qasdini olmaguncha odamlarning ko'ziga ko'rinmas edi.

— Turkmanning oriyatli yigiti shunaqa bo'ladi-da, — dedi archin. — Hozirgi bir xil yigitlar cho'girma kiymasa, ularning ayoldan farqi yo'q. Bunaqa yigitlar kiygan cho'girmaning har bitta qili dod deydi: "Meni qutqaring, men yigit emas, hajiqizning boshida xor bo'lib yuribman!" deydi.

— Archin og'a, siz bir-ikki yil oldin boshqacha gapirar edingiz-ku, — dedi Qilichlining akalaridan biri.

— Qanaqa gapirar ekanman?

— Uzuk o'g'irlangan kuni bir to'p yigitlar qizni tortib olib kelaylik dedik, o'shanda siz yo'l bermagan edingiz-ku.

— Men amaldor bo'la turib qanday yo'l beraman? — dedi archin. — Yigitchasiga o'ch oladigan odam hukumat qo'ygan amaldorlardan ijozat so'rab o'tirmaydi. Oriyati zo'r bo'lsa, hech kimga bildirmay qiladi qiladiganini.

— Ay, o'lmang, archin Mamat, gapning o'g'il bolasini aytdingiz,— dedi boya unga yon bosgan mo'ysafid.

Turdi o'rnidan turib, davradan chiqib ketdi. Archin bu gaplarni Turdiga qayishib emas, unga yomonlik istab gapirgan edi. Turdi buni sezib turar, "dushmanning qutqusiga uchasanmi?" deb o'zini bosmoqchi bo'lardi.

Ammo Omonmurod Uzukni qanday olib qochib ketgani, Chori Murod og'ani qanday o'ldirgani, Bekmurodboy sudlarda qanday qutulib ketgani uning ko'z oldidan ketmas edi. Bu adolatsizliklar, insofsizliklar uning qalbiga go'yo zaharli nayzadek sanchilib turardi. Turdi bu nayzalarni tezroq olib tashlamasa, butun vujudi, butun hayoti zaharlanishini bilar edi. Bu zaharli nayzalarni qanday olib tashlash mumkin? Oyisi zolimlar bilan ikki martaba sudlashdi, shuncha hamqishloqlari oraga tushdi, shuncha joylarga arizalar yuborishdi. Bari bekor ketdi. Hech bir yerdan najot kelmadi. Endi Turdi o'z yuragidan, o'z bilagidan najot izlashi kerakmi? Qotillarni o'ldirib, taskin topadimi? "Ha, faqat shu yo'l bilan yuragingga sanchilib turgan zaharli nayzalarni olib tashlash mumkin", dedi Turdiga ichki bir ovoz. Ammo u odam o'ldirishi kerakligini o'ylab, dahshatga keldi.

"Yo'q, yo'q! Men ularga o'xshagan qonxo'r bo'lolmayman,— dedi u o'ziga o'zi.— Oyim bechoraning holi nima kechadi? Men ularni o'ldirsam, o'zim ham tirik qolmasman... To'xta, men o'limdan qo'rqamanmi? Qo'rqoqlik qilmayapmanmi? Yo'q, gap bunda emas... Ha, gap nimada bo'lmasa?.. Qo'rqoqlik!.."

Turdi chalkash o'ylar girdobidan chiqishga urinar, lekin hech chiqolmas edi. Bugungi gaplardan keyin hamqishloqlarining ko'ziga ko'ringisi kelmas, xususan, archin Mamatning qarindoshlari va tarafdorlari har qadamda undan kulayotganga o'xshar edi. Turdi uyga kelsa, onasi eski sandiqni titkilab, allanarsani qidirmoqda ekan. Turdini ko'rib:

— Otang rahmatliga bir yildan beri xatmi Qur'on qilganmmiz yo'q, — dedi. — Mulla chaqirishga pul kerak. Bizda pul qani? Bozorga olib chiqadigan biron narsa qolganmikin desam... Bobong rahmatlining mana shu qilichi turibdi... Buni sotishga ko'nglim bo'lmaydi. Hozir buni kim ham oladi?

Turdi hayajonli tovush bilan:

— Qilich?— dedi.— Qani, menga bering!

G'ilofining u yer-bu yeri urinib qolgan, po'lat sopi bilan mis poynagi yiltirab turgan qilich xiyla uzun va og'ir edi.

— Sen bobongga tortgansan, taqib yursang bo'ladi-yu, lekin ot kerak-da,— dedi O'raz xola.

— Ichimdan bog'lab olsam-chi?.. Yo'q, uchi egilgan ekan, bo'lmas...

Turdida dushmanlaridan qasd olish istagi yana xuruj qildi. Bobosining qilichi bilan chopib tashlasa edi hammasini! Lekin bu qilichni piyoda taqib chiqib bo'lmaydi, odamlar yana kulgi qiladi.

— Oyi, buni yashirib qo'ying, hech kimga bermang. Men... Mariga ketmoqchiman.

— Qachon?

— Hozir.

— Kun kech bo'lyapti-ku! Kechasi Marida nima qilasan?

— Ishim bor. Qilichlini topaman. Bayram og'a ham o'sha yerda bo'lsa kerak.

Turdining avzoyi buzilganligini sezgan oyisi tashvishlanib qoldi. Nima gap bo'lganini shuncha so'radi, ammo Turdi aytmadi.

— Bu yerda endi ish yo'q, — dedi Turdi. — Men Mari tomondan ish topaman.

— Men seni bugun yubormayman. Kechasi turtinib qayoqqa borasan? Ertalab yog'chavani olib bor, Maridan zig'ir yog'i topib kel. Mo'ysafidlarni chaqirib otangga Xudoyi qilib beraylik. Keyin qayerda ishlashingni yana gaplasharmiz...

Turdi oyisining so'zini qaytarolmay bu kecha uyda qoldi. Ammo kechasi bilan tikanga ag'anaganday uxlayolmay chiqdi. Uning yigitlik g'ururi isyon ko'tarmoqda edi. Goh Omonmurod otga o'ngarib olgan og'izlari bog'liq Uzukning ingragani, uzun qora sochlari yer supurib, otlarga oyoq osti bo'lgani, goh Murod og'aning suyaklari sinib, badani qiymalanib yotgani ko'z oldiga kelar, "o'ch, o'ch, o'ch!" degan bir ovoz ikki chakkasiga bolg'adek urilib turar edi.

Turdi sahar palla uyquga ketdi, ammo tushiga o'ngidagidan ham dahshatliroq narsalar kirdi. Yoz emish, nafas qaytadigan darajada issiq emish. Turdi ot minib, sahroda borayotsa, osmonda uchayotgan qushlar hammasi o'lib, yerga tap-tap qulab tushar emish. Yomon bir hodisa bo'lishini oldindan sezib, Turdining yuragi uvushibdi. Bir vaqt yo'l chetida sochlari to'kilib ketgan ayol kishi paydo bo'libdi. Turdi durustroq qarasa — Uzuk! "Ukajon, — debdi, — men sening shu yerdan o'tishingni eshitib, necha yildan

beri kutib o'tiribman. Zolimlar meni shu ko'ylarga soldi. Og'zimda tishim qolmadi. Boshimda sochim qolmadi. Hammasi to'kilib ketdi. Oftobda kuyib o'laman. Meni olib ket!"

Turdi opasini mingashtirmoqchi bo'lganda, qayoqdandir oq kafanga o'rangan otasi paydo bo'libdi. Murod og'aning yelkasi yerga yopishib qolganmish. U o'rnidan turmoqchi bo'lib tipirchilabdi. Lekin yelkasini yerdan uzib ololmabdi. Turdi otdan tushib, otasiga qarab chopibdi. Otasi esa yotgan ko'yicha undan tobora uzoqlasharmish.

"Uzukni qutqar, Turdijon!— dermish Murod og'a uzoqdan.— Bir o'lim bo'lsa, hammaning boshida bor. Nomusga qolib yashagandan ko'ra nomusga dog' tushirmay o'lgan yaxshi".

Turdi orqasiga qarabdi. Uzuk uzoqda qolib ketibdi. Turdi otasiga yetolmasligini sezib, Uzukka tomon intilibdi. Ammo endi uning oyoqlari yerga yopishib qolibdi. Turdi jon-jahdi bilan bir oyog'ini yerdan tortgan ekan, ikkinchisi yerga botib ketibdi. Turdi qo'rqib qichqirdi-yu, uyg'onib ketdi.

U bosinqirab qichqirganida oyisi ham uyg'ongan edi.

— Nima bo'ldi, bolam, nima bo'ldi?

— Xayriyat tushim ekan...

Turdi boshqa uxlay olmadi. Sahar palla turib, otasining dandon soplik pichog'ini beliga taqdi, yog'chavani qo'liga olib, Mariga jo'nadi.

Qalbiga zaharli nayzaday qadalib turgan o'sha hislarga kechasi ko'rgan tushi ham qo'shilib, uni battar qiynamoqda edi. U Qilichliga uchramoqchi bo'ldi. Ammo Qilichli ertalab aravasini qo'shib, kerosinga ketganicha hali qaytmagan ekan. Mariga kiraverishda Turdi to'nini yechib, yelkasiga solib olgan Sarini ko'rib qoldi.

— Iye, Turdijon, eson-omon bormisan? Ko'za ko'tarib yuribsan?

— Yog' kerak ekan. O'zingiz qalaysiz?

— E, so'rama, uka. Archinning uyidan men ham ketdim.. Bu ikki kundosh bir-biriga qarab yumalayotgan ikkita xarsangga o'xshaydi. Orasida qolib, o'lib ketish hech gap emas.

— Yaxshi qilibsiz. Endi yo'l bo'lsin?

— Mardikor bozoriga-da. Birorta durust xo'jayin uchrarmikan, deb talabon bo'lib ketyapman. Qani yurmaysanmi?

Turdi qo'lidagi yog'chavaga qarab ikkilandi:

— Mayli, uka, — dedi Sari, — oying yolg'iz qolmasin. Bechora juda ko'p jabr ko'rdi, endi sen uning ko'ngliga qara...

Turdi yog' bozorini so'roqlab tor ko'chalardan o'tib borayotgan edi, darvoza yo'laklarida panalab turgan qo'shmachi xotinlar bir-ikki marta uni imlab chaqirishdi:

— Hoy, yigit, beri kel, yaxshi qizlar bor!..

Turdi ulardan balodan qochganday qochib borayotgan edi, boshqa bir darvoza yo'lagidan ikkita shirakayf yigit chiqdi. Ularni ichkaridan kuzatib chiqqan qo'shmachi xotin:

— Chorijon, yana qachon kelasizlar? — deb ishva bilan so'radi.

— Nozikxonni hech kimga bermang, erta-indin yana kelaman!

Turdi "yalt" etib Choriga qaradi. Uning baland bo'yi, qisiq ko'zlari, qoramtir yuzi akasi Omonmurodnikiga o'xshar edi. Turdi otasining qotilini tanigandan bo'lib, beixtiyor qadamini sekinlatdi-yu, ikki yigitni oldinga o'tkazib yubordi.

Turdining yuragi qinidan chiqib ketguday bo'lar, "shumikin yoki boshqamikin?" degan o'y chakkalariga go'yo toshday urilar edi. U haligi yigitlar ketidan izma-iz borib, choyxonaga kirdi.

Choyxonada odam ko'p. To'rda ikkita baxshi dutor chalib, ashula aytar edi. Sibizg'a tovushi dutorlarga jo'r bo'lib, atrofga mungli ohang taratardi.

Choyxonachi Chori bilan sherigini baxshilarga yaqin bir joyga o'tqazib, oldilariga qand-qurs va achchiq ko'k choy olib kelib qo'ydi. Turdi ulardan bir so'ri beriga o'tirdi. Ashula eshitayotgan bo'lib, zimdan Chorini kuzata boshladi.

Turdi bilan Chorining orasidagi so'rida archin Mamatning qarindoshlaridan biri o'tirgan edi. U Turdini ko'rib, istehzoli kulimsirab qo'ydi. Ammo Turdining ko'ziga Choridan boshqa odam ko'rinmas edi..

Baxshilar "Zolim firoq" degan ashulani tamomlab, dutorlarini devorga suyab qo'yishdi-da, choy icha boshlashdi. Turdi odam-

larning bosinqi g'ovuri orasidan Chorining so'zlarini eshitishga tirishar edi.

— Meni ko'rolmaydiganlarning ko'zi kuysin! — dedi u shirakayf tovush bilan. — Men Bekmurodboyning ukasi bo'lganimdan faxrlanmayman. Dushmanlarimning dodini beradigan yigit bo'lganimdan faxrlanaman!

Archin Mamatning qarindoshi luqma tashladi:

— Senga Xudo durustroq dushman ham bergan emas, Choriboy. Mana, bitta dushmaning ko'zlarini baqraytirib o'tiribdi.

— Qaysi?— deb Chori sergaklanib so'radi.

Archinning qarindoshi Turdini ko'rsatdi:

— Murod og'aning o'g'li mana shu. Gavdadan Xudo bergan-u, lekin ichi po'k.

Chori mo'ylovini silab turib kuldi:

— Men bunaqa jo'jaxo'rozlarni qamishning popugi bilan urib yiqitaman!

Turdi sakrab o'rnidan turdi. U hozir Chorining kulgan basharasiga pichoq solmoqchi edi. Ammo ichida bir ovoz "shoshma, payti emas" deganday bo'ldi. U bir amallab o'zini bosdi-da, choyxonadan indamay chiqib ketdi.

Yog' ko'zasi so'rida qolgani esiga ham kelmadi. Ammo g'azabi qaynagan edi. "Jo'jaxo'roz! Ichi po'k!" Nahotki Turdi shunday gaplarni ichiga yutib ketaversa? Bo'lmasa, qo'lidan nima keladi? Belida pichog'i bor. Chorini o'ldirishi mumkin. Lekin shunday o'ldirishi kerakki, Bekmurodboylar iloj topolmay, barmog'ini tishlab qolsin. Turdini tutolmay alamzada bo'lishsin! Ha, faqat shunday bo'lgandagina Turdi maqsadiga yetadi.

U bozor to'la odamlarning orasida yurib, Chorining choyxonadan chiqishini kutdi. Mana, Chori gilam xurjunini qo'ltiqlab, choyxonadan chiqdi. Lekin yana yonida o'sha sherigi bor. Turdi unga yakkama-yakka duch kelishni istardi. Xilvat joy qidirardi. Ammo odam to'la bozorda bunaqa joy yo'q... Qani endi Turdining ham yonida do'sti bo'lsa. Maslahat bersa!..

Turdi birdan Sarini esladi va mardikor bozorni so'roqlab ketdi. Xayriyat, Sari hali shu yerda ekan. Turdi uni bir chetga chaqirib oldi-da, voqeani aytib berdi.

— Men Chorini o'ldirmagunimcha tinchimayman!

— Juda og'ir ishga bel bog'labsan, uka. Onangning ahvoli nima bo'ladi?

— Bilmadim, Sari og'a. Men uni o'ldirmasam, o'zimni o'ldiradiganga o'xshayman...

Sari Turdining yuziga qarab, uni bu yo'ldan qaytarib bo'lmasligini sezdi.

— Bo'lmasa mening gapimga quloq sol. Dushmaning — zo'r dushman. Agar olishadigan bo'lsang, u seni yengadi. Sen poylab borib pichoq ursang, yengishing mumkin.

— Ishqilib, yengishim kerak!

— Yengishing yetarli emas. Yenggandan keyin qochib qutulishing ham kerak. Agar qo'lga tushsang, Bekmurodboylar seni xomtalash qilib yuboradi. Oting bormi?

— Yo'q.

Sari bir lahza o'ylanib olgach:

— Norining oti bormi?— dedi.

— Bor ekan. Sherigi bilan karvon saroyga borib, otining oldiga beda solib keldi.

— Pichog'ing qanaqa?

Turdi belidagi oq dandon sopli pichoqni ko'rsatdi.

— Otam rahmatli maqtab taqib yurar edi.

Sari bir yarim qarich keladigan katta pichoqning tig'iga qo'lini tekkizib ko'rdi-da:

— Maqtaganicha bor,— dedi.— Qayeriga pichoq urishni bilasanmi?

— Chap ko'kragiga, yuragini mo'ljallab urmoqchiman.

— Ko'kragiga? Sen yuzma-yuz turib pichoqlashmoqchimisan? Bu gapni qo'y, uka. U la'nati odam o'ldirib, tajribali bo'lib qolgan. O'zingni bir balo qilib qo'yadi. Sen uning yelkasiga, ikki kuragining orasiga pichoq ur. Pichoqni sopigacha kirgizib, bir burab ol.

Turdi bu gapni boshqa vaqtda eshitganda dahshatga kelishi mumkin edi. Lekin kechagi va ertalabki alamli gaplar uni shu darajaga olib kelgan ediki, hozir u Sari aytgan ishni qilishga o'zini tayyordek sezardi.

Ular ikkovi shunday maslahatga kelishdi: bozor tarqaganda Chori ham uyiga ketish uchun oti bog'langan joyga boradi. Turdi uni o'sha yerda poylab turadi. Sari Chorining sherigini karvonsaroydan tashqarida olib qolishga harakat qiladi.

— Agar Chori yolg'iz borsa, orqasidan pusib borib pichoq urasan, tushundingmi?— dedi Sari.

Turdi bosh irg'adi.

— Mabodo, sherigi ham yonida bo'lsa, ovora bo'lma. Boshqa bir kunga qoldir.

— Xo'p.

Shunday deb ular ikkovi ikki tomonga qarab ketishdi va Chori bilan sherigini zimdan kuzata boshlashdi.

Chori bilan sherigi kuni bo'yi ovqat yeb, ichkilik ichib, kayf qilib yurishar, bozor tarqayotgani bilan ishlari ham yo'q edi. Sari bir do'konda Chorining sherigi bilan birga vino ichib, tanish bo'lib oldi. Unga har xil qiziq-qiziq gaplardan aytib bera boshladi...

G'ira-shira qorong'ilikda Chori karvonsaroyga yolg'iz kirdi. Otini qoziqdan yechib, bir oyog'ini uzangiga endi qo'ygan edi, orqadan:

— Jo'jaxo'rozga bir qara, qotil!— degan so'zlar eshitildi.

Chori orqasiga o'girilgan ham ediki, chap ko'kragiga "g'arch" etib pichoq sanchildi. Chori dodlashga ham ulgurmay yerga gursillab yiqildi. Turdi pichoqni bir burab tortib olayotganida sharillab qon otilgani va Chorining dahshat bilan xirillaganini eshitib, ko'ngli behuzur bo'ldi, ko'zi tindi. Ammo otning pishqirgani uni o'ziga keltirdi. U yuganini darrov qo'lga olib, otga mindi, shom qorong'ilig'ida karvonsaroydan sekin chiqdi-yu, nariroqqa borib otga qamchi bosdi. Yaxshi boqilgan chopqir ot yelday uchib borar, qarshidan esgan shamol Turdining yoqalarini tortqilar, qizib ketgan yuziga urilar, quloqlari tagida g'uvillar edi. Chorining tanasiga "g'irch" etib sanchilgan pichoq, uning o'lim oldidan xirillagani, qon otilib ketgani hamon Turdining ko'z o'ngida turar edi. Turdi ortdan quvadigan dushmanlardan emas, mana shu mash'um xotiradan uzoqroq ketishni istab, o'n

besh chaqirim keladigan yo'lni ot choptirib o'tdi. Mari uzoqda qolib ketdi. Yo'l qandaydir dalalar, ekinzorlar orasidan o'tib, qorong'ida bahaybat ko'ringan bir jarlikka yaqinlashdi. Jar tagidan jildirab suv oqar, yakkam-dukkam daraxtlar ko'zga chalinar edi. Yo'l jarlikka tushganda Turdi otni chapga burdi. Biri biriga qo'shilib oqayotgan chashmalar yoqalab, bir mecha marta suv kechib o'tdi, nihoyat, panaroq bir joy topdi-da, otdan tushdi. Ko'p chopib, qora terga botib ketgan ot suvga intildi. "Ot ichi kuyib terlab turganda suv ichsa chatoq bo'ladi!" — dedi Turdi o'zicha. Xayoli endi boyagi mudhish hodisadan uzoqlashib, boshqa tomonga yo'nalganidan biroz yengil tortdi. U otni suvdan chetroqdagi tolning shoxiga qantarib bog'ladi. So'ng qorong'ida to'mpayib turgan bir toshning ustiga o'tirdi-da, endi bu yog'i nima bo'lishini o'ylab ketdi.

Bugungi ishi uni jarlarda, qum tepalar ortida bekinib, yolg'iz yashashga majbur qilishini endi birinchi marta bor bo'yicha his qildi. Xayriyatki, mana bu ot bor. Bo'lmasa, yolg'izlik uni hozirning o'zidayoq ezib tashlagan bo'lar edi.

Otning teri qotgandan keyin Turdi uni sug'ordi. Xurjunda ot to'rvaga solingan yem bor ekan. Turdi otga yem berdi. Keyin o'zi ham ertalabdan beri tuz totmaganini esladi. Tun salqinida qorni ochqab, eti uvusha boshladi. Yarim kechada Turdi otini minib, jardan chiqdi. U oyisining oldiga borishni istardi. Ammo o'ylab-o'ylab, bu fikridan qaytdi: dushmanlari uni o'sha yerda poylab turgan bo'lishlari mumkin. Turdi boshqa qishloqda istiqomat qiladigan Qilichlining uyiga jo'nadi!

Tun yarimidan oshgan, hamma mast uyquda. Qilichli hovlida yotgan edi. Kuchuk hurganidan uyg'onib ketdi.

Darvozani ochib qarasa, otini jilovidan tutgan Turdi...

Ular tom orqasiga — panaroq joyga o'tishdi. Chorini Turdi o'ldirib ketgani Marida allaqachon ovoza bo'lgan, buni Qilichli ham eshitgan edi.

— Bo'lar ish bo'libdi. Endi qo'lga tushma, uka,— dedi Qilichli.

— Nima qilay? Boshqa iloj yo'q edi. Odamlarning orasida bosh ko'tarib yurolmay qoldim.

— Ha, o'sha odamlar hozir seni maqtashyapti. "Otasining qasdini olipti, mard yigit ekan", deyishyapti.

Ertaga Bekmurodboy seni qo'lga tushirib Sibirga surgun qilsa yoki o'ldirib yuborsa, xuddi o'sha odamlar "Ukasining qasdini oldi, haqi bor edi", deb uni ham oqlaydi. Qonga qon ulanib ketaveradi. Mendan maslahat so'raganingda, seni bu yo'ldan qaytarar edim.

— Kecha ertalab kelib sizni topolmay ketdim...

— Endi nima qilmoqchisan?

— Sizdan maslahat so'ramoqchi edim...

— Axal tomonga ketsang qandoq bo'larkin?

— Baribir topishadi. Berdi bilan opamni qidirib topishdi-ku. Undan ko'ra, Qoraqumning ichkariroqlarida yashirinib yuraversammi deyman.

— Ma'qul. Non-poning bormi?

— Yo'q. Oyimning oldiga boray desam...

— Besh-o'n kun u yoqlarga borma. Birpas turib tur...

Qilichli uyiga kirib, bir ro'molga non, yog', qurut tugib chiqdi.

— Ma, xurjuningga sol. Quroling qanaqa?

— Pichoq.

— Pichoq bilan ish bitmaydi. Uch-to'rt kun o'tkazib bir kelgin, men senga miltiq topib qo'yaman. Ovchilikni o'rgan. Yaxshi cho'ponlar uchrasa, do'stlash. Lekin ochdan o'ladigan bo'lsang ham o'g'rilik qilma. O'g'rining kushandasi ko'p.

— Xotirjam bo'ling, og'a men o'g'irlikdan hazar qilaman.

— Bo'pti, onangdan men o'zim xabar olib turaman.

— Onamga ayting, meni kechirsin. Men ham u kishining boshiga g'alva soldim.

— Harqalay oying Chorining o'lganini eshitib bir alamdan chiqsa kerak.

— Unday bo'lsa, durust-a.

— Xo'p, uka, bu yerda ko'p turma.

— Xayr!

— Ishqilib, omon bo'l!

## BEKMURODBOY YANA QONSIRAYDI

Qo'nish boybicha erkatoy o'g'li Chorining jasadini quchoqlab yig'laganda o'zi boshqalarning boshiga bundan ham og'ir musibatlar solganini eslamadi. Bekmurodboy kenjatoy ukasiga motam tutganda bevaqt o'lim naqadar og'ir bo'lishini sezdi, lekin bu o'limni avvalo o'zi chaqirganini tan olmadi. Boylikdan quturib yurgan bu ona-bola shunday qayg'uli damlarda ham g'azab va intiqom tuyg'usi bilan yashar edi. Omonmurod: "Ukamning o'limiga sen sababchisan!" deb, alamini Uzukdan olib, uni avvalgidan battar qiynoqlarga solar, ammo bu hozir Bekmurodboyning taftini bosa olmas edi. U endi Turdining qoniga tashna edi. Maridan chaqirilgan politsiyachilar ham, Omonmurod va uning yigitlari ham ikki haftadan beri to'rt tarafga izg'ishib, Turdidan nom-nishon topisholmadi. Bu tirrancha Qoraqumning odam oyog'i kam tekkan joylarida yashirinib yurgan chiqar. Bekmurodboydan jabr tortgan, uni yomon ko'radigan odamlar oz emas. Ana o'shalar Turdini yashirib, unga madad berishlari aniq. Bekmurodboy Turdini oddiy usul bilan qo'lga tushirib bo'lmasligini sezadi. Shuning uchun aylanma yo'llar qidiradi.

"Bu bolaning o'ziga o'xshagan kambag'al yetimlar bor,— derdi Bekmurodboy ichida. — Shulardan birini ishga solish kerak. Qo'y terisini yopingan bo'ridek Qoraqumga chiqsin, tirranchani qidirib topib, o'zini jabrdiyda qochqin qilib ko'rsatsin, keyin payt topib boshini tanidan judo qilsin. Kim bu ishni uddalashi mumkin?"

Bekmurodboy o'ylab-o'ylab, Olloquli degan yigitchani esladi. Yetim o'sgan bu bolaning bir necha tanob yerini Bekmurodboy uning amakisidan tortib olib, Subhonboyga arzon-garovga sottirgan edi. Olloquli yerdan tushgan pulni sarflab, o'ziga o'xshash bir kambag'alning qiziga uylangandi. Turkman odatiga binoan, qalinning bir qismi to'ygacha, qolgan qismi to'ydan keyin to'lanadi. Olloqulining bor puli to'yga zo'rg'a yetdi. To'ydan keyin ko'p o'tmay, qiz otasinikiga qaytdi. Endi uning yana Olloquli bilan birga istiqomat qilishi uchun qalinning qolgan qismi ham to'lani-

shi kerak. Ammo Olloqulida pul yo'q. Agar u bir-ikki yilgacha pul topolmasa, qiz ham bir-ikki yilgacha otasinikida o'tiraveradi... Olloquli kecha Bekmurodboyning oldiga kelib, qarz so'ragan, boy unga "indin kel" deb javob qilgan edi.

"Turdini topib o'ldirib kelsang, qalinni o'zim to'layman desam... ko'narmikin?— o'ylandi Bekmurodboy.— Yo'q, jon shirin, ko'nmaydi. Buni shunday bir iskanjaga olish kerakki, ko'nmasdan iloji qolmasin!"

Bekmurodboy qarindoshi Valiboyni maslahatga chaqirdi. Bu maslahatga ko'ra ertasiga Valiboyning eng yaxshi otlaridan biri o'g'irlangani haqida ovoza tarqaldi. Qishloqda mashhur bir iztopar bor edi. Valiboy unga yashiriqcha pul berib, nima qilish kerakligini tushuntirib qo'ydi. Iztopar otni qidirib-qidirib Olloqulining kulbasi oldiga keldi. Bu yerda haqiqatan o'sha otning izi bor edi — Valiboy otini kechasi hamma uxlaganda uzoq bir qishloqdagi qarindoshinikiga jo'natar ekan, ataylab Olloqulining kulbasi oldida bir to'xtatib jo'natgan edi. Kulba oldidagi iz ham, mashhur iztoparning hukmi ham Olloqulini ot o'g'risiga chiqarib qo'ydi. Shirin oilaviy hayot orzusida yurgan bechora yigit dovdirab qoldi, o'zining o'g'ri emasligini isbot qilolmadi. Valiboy unga yopishib:

— Otimni topib ber! — derdi. — Bo'lmasa, hozir qamataman! Sibirga surgun bo'lasan. Otimni topib ber!

Olloquli Valiboyning Bekmurodboyga qarindosh ekanini bilar edi. Endi uni tuhmat balosidan qutqarishi mumkin bo'lgan birdanbir odam Bekmurodboy bo'lib ko'rindi. Olloquli Bekmurodboyning oldiga keldi. Unga voqeani aytib berib yordam so'radi.

— Men qanday yordam beray?

— Siz meni bilasiz-ku, boy og'a.

— Ha, biroz bilaman.

— Shuni Valiboyga aytsangiz.

— Aytganim bilan, u fe'li yomon odam, menga quloq solmaydi.

— Axir men o'z g'amim bilan yurgan bechora odamman... Qalin to'lay olmay sizdan qarz so'ragan edim. Nahotki men birovning otini o'g'irlagan bo'lsam? Nahotki siz ham menga ishonmasangiz?

— Men senga ishonaman. Lekin otning izi sening uyingga nega boradi? Iztopar nega seni o'g'ri deyapti? Ehtimol, ular sening pulga zor bo'lib yurganingni bilishgan. Ehtimol, "otni sotib, qalin to'lamoqchi", deb o'ylashgan.

— Bunday emasligini siz ularga tushuntirsangiz edi!

— Yo'q, men tushuntirolmayman. Senga mening rahmim keladi. Shuncha harakat qilib yurib, endi uylanganingda ham rohat ko'rolmading. Endi seni sud qilishib qamashsa, Sibirga surgun qilishsa, kim biladi, ahvoling nima kechadi? Qalinning yarmini to'lagan emassan. Qizni ota-onasi boshqa birovga berib yuborsa, ajab emas!

— Men bu azoblarga chidolmayman, boy og'a. Men hozir o'zimni o'zim o'ldirishga tayyorman. Menga yordam bering... Qonimga tashnaman!

— Men bir maslahat bersam... qilasanmi?

— Siz nima desangiz qilaman!

— Chorini so'yib ketgan qotilni topolmayapmiz. Sen shuni topib, o'ldirib kelasanmi?

Olloquli bo'shashgan tovush bilan:

— Qanday topaman? — dedi, — sizlar shuncha qidirib topolmadilaringiz...

— Bizdan yashirinib yuribdi-da, shuning uchun topolmadik. Ammo sen uni tez topasan, sendan yashirinmaydi. Aytganimni qilasanmi?

Olloquli ikkilanar edi.

— O'zing bilasan, — dedi boy. — Agar qo'rqsang, unda yo Valiboyga otini topib ber, yoki Sibirga jo'na...

— Yo'q! Men roziman.

Kechasi hamma uyquga ketganda Bekmurodboy Olloquliga o'zining chopqir otlaridan birini egarlab berdi.

Xurjunga uch kunlik oziq-ovqat solingan, egarga qo'shtig' miltiq osilgan, Olloquli kamariga xanjar taqib olgan edi.

— Aytganimni qilib kelsang, Valiboyni ham o'zim tinchitaman, qalinni ham o'zim to'layman,— shivirladi Bekmurodboy.— Mana shu ot ham anjomi bilan seniki bo'ladi.

— Xo'p!

Olloquli Qoraqumga qarab ketdi. Ertasiga butun qishloq bo'ylab: "Olloquli haqiqatan o'g'ri ekan, kechasi qochib ketibdi", degan ovoza tarqaldi.

* * *

Turdi Qoraqum sahrosida qochib yurar, besh-olti kunda bir marta Qilichlinikiga kelib ketar edi.

Olloquli Qilichlini yaxshi tanir, uning Bekmurodboylarni yomon ko'rishini, Turdiga yon bosishini bilar edi. "Ehtimol, Turdi Qilichlinikiga kelib ketib turar?"— dedi Olloquli o'zicha. U ikki kun sahroda izg'ib, Turdidan nom-nishon topolmagach, yomg'ir sevalab turgan kuni yarim kechada Qilichlining uyiga keldi. Turdi chindan ham shu yerda edi. Qilichli Olloqulining ot o'g'irlashda ayblanib, qochib ketganini eshitgan, ammo Turdini unga ko'rsatgisi yo'q edi. Shuning uchun u Olloqulini qo'shni xonaga olib kirdi.

— Yarim kechada nima qilib yuribsan?— dedi Qilichli.

— Qochib yuribman.

— Kimdan? Valiboydanmi?

— Valiboy meni bekorga o'g'ri qildi. Bekmurodboyga yordam so'rab borsam, so'zimga quloq solmadi. Qarasam, tuhmatga qolib, Sibir bo'lib ketadiganman. "Mana, bo'lmasa!" dedim-u, Bekmurodboyning eng yaxshi otini o'g'irlab qochdim. Endi Turdini qidirib yuribman. Kishi bir o'zi juda qiynalar ekan.

Uning so'zlari qo'shni xonada o'tirgan Turdiga eshik tirqishidan eshitilib turardi. Turdi o'ziga sherik topilganidan quvonib, eshikni ochdi-yu:

— Rost, Olloquli, yolg'izlik yomon,— dedi.

Ular do'stona ko'rishdilar.

— Ko'plashib, Bekmurodboynikiga bostirib borish kerak,— dedi Olloquli.— Bu qonxo'rlarni qirish kerak. O'zimizga o'xshagan yigitlardan yana uch-to'rtta topsak...

— Lekin begona odamga sir bermanglar,— dedi Qilichli.— Bekmurodboy ayg'oqchi qo'ygan bo'lishi mumkin.

Olloqulining yuzi o'zgarib ketdi. Turdi unga qarab:

— Sen bu gapni o'zingga olma,— dedi.— Biz seni bilamiz. Yetim o'sgansan, tuhmat balosiga uchragansan. To'g'rimi, og'a? — deb Turdi Qilichlidan so'radi.

Qilichli ham Olloqulidan shubha qilmas edi.

— Men sahroda begona yigit uchrasa, sir bermanglar, dedim. Sen begona emassan-ku, Olloquli.

— Men Turdi bilan tug'ishgan og'a-ini bo'lmasam ham,— dedi Olloquli endi o'zini o'nglab olib, — hozir Turdiga o'xshagan qoch-qin, bechora yigitman. Men bu yerga najot izlab keldim...

Turdi indamay bilagini shimardi. So'ng oq dandon sopli pichog'ini qinidan oldi-da:

— Tug'ishgan bo'lmasak, hozir og'a-ini tutinamiz, — dedi Olloquliga.

Turkman odatiga binoan, og'a-ini tutinmoqchi bo'lgan yigitlar bir-birlarining qonlarini tatib ko'rishadi, shu yo'l bilan qonlari ko'shilib, tug'ishganlardek yaqin bo'lishadi.

Turdi bilagini pichoq bilan tilib qonatmoqchi bo'lgandi, Olloquli shu qonni so'rish kerakligini o'ylab, negadir qo'rqib ketdi:

— Turdijon, shoshma!— deb uning qo'lini tutib qoldi.— Bunaqa qon chiqarib aka-uka bo'lish oson. Lekin og'ir kunlarda bir-birimizni sinab aka-uka bo'lish qiyinroq. Bugun qon qonga qo'shilsa-da, ertaga arzimagan bir narsadan xafalashib qolsak, fe'limiz to'g'ri kelmay ajrashib ketsak, ana unda yomon bo'ladi. Yaxshisi shoshmaylik, bir-birimizni yaxshiroq sinaylik.

Qilichli o'ylanib turib:

— Bu gap to'g'riroq,— dedi.

— Mayli,— deb Turdi ham pichog'ini qiniga qaytarib soldi.— El buyursa, otingni so'y, deydilar. Ikkovlaring shu fikrda bo'lsalaring, men ham shoshmay turaman.

Tongga yaqin Turdi bilan Olloquli yomg'ir yog'ib turganda sahroga chiqib ketishdi. Ular kuni bilan odam oyog'i kam tegadigan qum tepalar orasida yurib, ov qilishdi.

Turdi ovga ancha usta bo'lib qolgan ekan, bitta jayron otdi. Kechqurun Olloquli ikkovlari qurigan saksovullardan gulxan yoqib, to'yganlaricha kabob yedilar, choydishda choy qaynatib ichdilar.

Olloqulining qalbini qarama-qarshi hislar timdalar edi. U Bekmurodboyning buyrug'ini unutolmas, sahroda qochqin bo'lib umr o'tqazishni istamasdi. Boyning yordami bilan tuhmatdan qutulib, qalinning qolganini to'lashga, xotini bilan tinchgina yashashga butun vujudi tashna edi. Ammo bu tashnalikni qondirish uchun Turdini o'ldirish kerak... Kunduzi ov paytida Olloquli boyning buyrug'ini bajarishga bir-ikki marta jazm qilmoqchi bo'ldi. Ammo Turdiday beozor, jabrdiyda yigitga pichoq sanchish oson emas edi. Olloquli bu ishni kechasi Turdi uxlagan paytga qoldirdi.

U Turdining biror qilig'ini, biror gapini yomon ko'rib qolishni istardi. Shunda uni o'ldirishi osonroq bo'lar edi. Ammo Turdining fe'li, gaplari, o'zini tutishi, do'stga mehribonligi Olloquliga borgan sari yoqib qolmoqda edi. Kabob yeb, choy ichib o'tirgan paytlarida Turdi unga otasining o'limini, opasining o'g'irlanishini, o'zining sarguzashtlarini shunday ta'sirli qilib aytib berdiki, Olloquli beixtiyor o'zini unga hamdard sezdi.

Turdi Olloqulidan qilcha ham shubha qilmas edi. Qancha tunlarni yolg'iz o'tkazib, xotirjam uxlay olmay yurgan Turdi bugun tinch uyquga ketdi.

Havo ochiq, osmonda yulduzlar charaqlaydi. Ammo Olloqulining qalbini qora bulut qoplab olgandek. Shu qora bulut orasida Turdini o'ldirish to'g'risidagi fikr chaqmoq kabi damba-dam yaltyult qiladi.

"Yo'q, men begunoh odamni o'ldirolmayman!" — deydi u o'ziga o'zi. Ammo boshqa bir ovoz: "O'ldirmasang, o'zing o'lasan,— deydi.— Bekmurodboy senga bekorga otini berib qo'ygani yo'q. Agar aldab ketganingni bilsa, seni ham ovlashga tushadi. Sahroda qachongacha qochib yurasan? Hozir yoz payti, uncha bilinmaydi. Hademay qish keladi. Qaysi teshikka kirib jon saqlaysan? Yo sahroda sovuqda qotib o'lasan, yoki Bekmurodboyning qo'liga tushib otilasan".

"Faqat men-mi? Turdi-chi? Turdi birinchi navbatda..." Olloquli Turdining ertami-kechmi baribir o'lishiga ko'zi yetdi-yu, xayoli birdan boshqa yoqqa burildi. "Bu yigit mensiz ham baribir o'lar ekan-ku. Men-chi? Agar bu o'lsa, men xotinimni qutqarib olaman, nomim tuhmatdan tozalanadi. Demak..."

Olloquli mana shu o'yga mahkam yopishib, sekin o'rnidan turdi. Eti junjikar edi. U bitta-bitta yurib, Turdining boshiga keldi.

O'n yetti yashar ma'sum yigit devday qomatini bexavotir cho'zib, mast uyquda yotar edi. Olloquli titrog'ini bosishga tirishib, pichog'ini qinidan sug'urdi. Turdining chap ko'kragini mo'ljalga oldi-da, pichoqli qo'lini yuqori ko'tardi.

Turdi yaxshi bir tush ko'rgan bo'lsa kerak, uyqusida kulimsirab qo'ydi. Gulxan yorug'ida Olloquli buni ko'rdi. Bu ajoyib yigitni so'ysa, o'zi qanday ahvolga tushishi Olloqulining ko'zi oldida shunday aniq gavdalandiki, o'zining a'zoyi badanidan sovuq ter chiqib ketdi. Pichoq ushlagan qo'li bo'shashib pastga tushdi. Olloquliga havo yetishmayotganday edi. Tomog'i qurib, taxir bo'lib ketgan edi. U yutoqib choydishdagi sovuq choydan ikki ho'plam ichdi. Choydishni yerga qo'yib, qo'liga qarasa, qop-qora kuya bo'libdi.

"Hozir shu qo'lim qip-qizil qonga belanishi mumkin edi... Begunoh yigitning qoniga. Yo'q!.. Men bu ishni qilolmayman. Demak, kelajakda meni o'lim kutadi. Azob-uqubat chekib yurgandan ko'ra, hozir o'lib keta qolsam nima bo'pti?"

Shu payt Olloquli minib yurgan jiyron ot suvmi, tuzmi so'raganday, uning oldiga keldi. Olloquli o'rnidan turib, otning bo'ynidan oldi-da:

"Xayr, jonivor, xayr,— deb shivirladi.— Sen ham yaqin kunlarda sahroda daydib yurish azobidan qutulasan".

Olloquli pichoqning sopini otning bo'yniga tirab uning uchini o'zining chap ko'kragiga to'g'riladi. U butun og'irligi bilan pichoqning tig'iga ko'krak urmoqchi edi, ammo ot yurib ketdi. Pichoq siljib, Olloqulining chap bilagini kesib ketdi. Olloquli o'tkir og'riqdan o'ziga keldi. O'lim dahshati shundagina unga bor bo'yicha ko'ringandan bo'ldi. U pichoqni otib yubordi. Telbalanib qichqirdi:

— Turdi!.. Hoy, Turdi! Ko'zingni och, Turdi!

Turdi cho'chib uyg'ondi-yu, sakrab turib, belidagi pichog'ini paypasladi:

— Nima bo'ldi? Bostirib kelishyaptimi?

Olloqulining yarador qo'lidan qon oqmoqda edi. U Turdiga yaqinlashib:

— Pichog'ingni ol!— dedi va ko'kragini ochdi.— Men nomard ayg'oqchiman! Pichoq ur ko'kragimga! Haqqing bor!

— Jinni bo'ldingmi?! Nimalar deyapsan?!

— Meni Bekmurodboy yuborgan! Men seni o'ldirmoqchi edim...

Turdi hang-u mang bo'lib:

— Nahotki?!— dedi.

— Men seni uyquda o'ldirmoqchi edim, Turdi! Lekin yaxshi odamni o'ldirib bo'lmas ekan. O'zimni o'ldiraman dedim, bu ham qo'limdan kelmadi. O'ldir meni!

— Men ham seni o'ldirolmayman, Olloquli. Yaxshi odamni o'ldirish mening ham qo'limdan kelmaydi!..

— Men yaxshi odam bo'lsam, sahroga bu niyat bilan chiqmas edim!

— Seni tuzoqqa ilintirishgan bo'lsalar kerak. Yomon odam bo'lganingda meni uyquda o'ldirmasmiding? Qo'lingga nima qildi?

Turdi Olloqulining qon sirqib oqayotgan qo'lini qo'liga oldi, bilagini ochdi. — Katta bir sinovdan o'tdik, endi aka-uka tutinsak bo'lar,— dedi-da, Olloqulining qonli bilagiga labini bosdi va o'z bilagini tilib qonatdi.

Olloquli uning bilagiga labini qo'ydi-yu:

— Turdijon, inim!— deb yig'lab yubordi.

* * *

Tun yarmidan oshgan, hamma uyquda. Faqat Bekmurodboy bog'-hovliga qo'yilgan prujinali karavotini g'ijirlatib, uxlamay yotar edi. Bir vaqt devordan kimdir sekin oshib tushdi. Bekmurodboy darrov yostiq tagiga qo'l tiqib, brauning to'pponchasini oldi. Hovli atrofida doim qorovullar bo'lar edi. Hammasi uxlab qolganmi? Itlar ham jim. Devordan oshib tushgan kishi ayvonga yaqinlashdi-yu, nima qilishini bilmay turib qoldi. Bekmurodboy o'rnidan turar ekan, karavot prujinasi yana g'ijirladi. Haligi odam tez bu tomonga o'girildi. Bekmurodboy to'pponchasini unga to'g'rilab:

— Kimsan?— dedi.

Haligi odam boyning ovozini tanib, darhol unga tomon yurdi. Yaqinroq kelganda buning Olloquli ekanligi ma'lum bo'ldi.

— Assalomu alaykum, boy og'a.

— Olloquli, bormisan?

— Ha.

Boy to'pponchani cho'ntagiga solib, yelkasiga choponini tashladi.

— Qani, yurchi,— deb uni bog'ning xoliroq burchagiga ergashtirib ketdi. Bog'ning bu burchagida devor past, tashqarida daraxtga qantarib qo'yilgan ikki ot ko'rinib turar edi. Bekmurodboy otlarga yaqinroq borib qaradi, mamnun tovush bilan:

— Bittasi Chorining oti-ku,— dedi,— la'natini o'ldirdingmi?

— Ha. Juda qiyin bo'ldi.

— Nima qiyin bo'ldi?

— Payt poylash...

— Qayerda o'ldirding?

— Kumush tepaning naryog'ida. Ilonsoyda.

Bekmurodboy Turdining o'limiga oid tafsilotlarni bilishni istar, voqeani boshdanoyoq to'liq ko'z oldiga keltirsa bir alamdan chiqadiganday bo'lardi:

— Qanday o'ldirding? Boshini kesdingmi?

— Yo'q, yuragini mo'ljallab pichoq urdim.

— Bir martami?

— Yo'q, uch-to'rt marta.

— Yuragiga tekkan bo'lsa, o'ladi-ya. Agar yuragiga tegmagan bo'lsa, bu toifaning joni qattiq, yana turib ketadi.

— O'lgani aniq.

— Qayoqdan bilding o'lganini?

Olloquli tutilib-tutilib javob berdi:

— Nafas olmay qoldi... Keyin qon ko'p ketdi... Yuragini... yuragiga pichoq sanchiganim aniq.

— Kallasini kesib kela qolmabsan-da.

— Qo'lim bormadi... Ancha kun birga yurdik... Odamning yuzi issiq bo'larkan...

— Yuzi issiq emish-a. Chorini o'ldirgan la'natining yuzi. Sen uning boshini kesib olib kelishing kerak edi. Ishni xom qilibsan, mening shartimni bajarmabsan.

— Qaysi shartingizni bajarmabman?

— Uning o'lganini isbot qiladigan belgi olib kelishing kerak edi. Balki hali tirikdir?

— E, boy og'a, men sizga aytdim-ku...

— Aytganing bilan bu ishlarda sening tajribang yo'q. Hali ham bo'lsa, o'sha Ilonsoyga bor. Kallasini kesib olib kel.

— Qaytib borgim yo'q...

— Bo'lmasa, men senga va'da qilgan yordamimni berolmayman. Agar o'ldirganingga ishontirsang, qolgan qaliningni to'layman, bitta uy ham qurib beraman, Valiboyning da'vosidan ham qutqazaman. Borasanmi?

— Kallasini olib kelmasam bo'lmaydimi?

— Bo'lmaydi...

— Xo'p, bo'pti! — deb Olloquli devor oshib o'tdi-da, otini minib, yana Qoraqumga qarab ketdi.

Bekmurodboy hovlidan tashqarida yuradigan qorovullardan birini uyg'otib, uxlab qolgani uchun rosa so'kdi, so'ng Chorining otini otxonaga kiritib qo'yishni buyurdi.

* * *

Tong bo'zarganda Olloquli Ilonsoyga yetib bordi. Ilonsoydan narida cho'ponlarning qo'shi bor edi. Kecha qazilgan go'rning ustidan bir necha yuz qo'y o'tib, uni tep-tekis qilib yuborgan. Olloquli kunduz chiroq bilan qidirganda ham bu go'rni topolmas edi. U bu go'rni qidirmoqchi ham emas edi.

Olloquli soyaroq bir joyni topib, kuni bo'yi yotib uxladi-da, qorong'i tushganda cho'ponlarning qo'shiga bordi.

Bir vaqtlar Murod og'a bilan birga qo'y boqqan Eson hozir yana cho'ponlik kasbiga qaytgan edi. Qo'shda Olloquliga notanish bir yigit gulxanga o'tni tashlab, choy ichib o'tirar edi.

Eson Olloqulining xomush yuziga qarab:

— Ha, bo'lmadimi? — dedi.

Olloquli notanish odamning oldida javob bergisi kelmay:

— Yo'q,— deb qo'ya qoldi, so'ng notanish yigit bilan sovuqqina salomlashdi.

— Bu kishi ham cho'ponlikka yollanibdi,— izoh berdi Eson.— Shu suruvni birga boqadigan bo'ldik.

Olloquli notanish yigitga sinovchan iazar bilan qarab:

— Avval nima ish qilar edingiz?— dedi.

— Qilmagan ishim qolgan emas, uka. Mol ham boqqanman, qarol ham bo'lganman, mardikorlik ham qilganman. Yetimning noni yerda, deyishadi. Bu gap uncha to'g'ri emas. Yetimning noni osmonda, chiqib bir burdasini olib tushguncha odamning iyig'i chiqib ketadi.

Olloquli o'zining ham yetimlikda tortgan mashaqqatlarini esladi-yu, notanish yigitning gapini yoqtirib bosh irg'ab qo'ydi. So'ng o'ychan tovush bilan:

— Bu dunyoda yetim o'sgan odam muncha ko'p? — dedi. — yo menga nuqul shunaqa odamlar uchraydimi?

— Dunyoda bevaqt o'lim ko'p, uka,— dedi haligi yigit.— Dunyoda baxtsizlik ko'p, bevaqt o'lim bilan baxtsizlik ko'p bo'lsa, yetim-yesir ham ko'payaverar ekan. Mana, mening otam rahmatli... kecha-yu kunduz tinmas edi, qorni to'yib ovqat yemas edi. Qishda yomon bir yo'talga yo'liqdi. Endi bilsam, o'pkasi shamollagan ekan. O'ziga to'q odam bo'lsa o'ranib yotadi, tabib chaqirib doridarmon qiladi... Kambag'al odam sog'u kasalligiga qaramay ishlashi kerak, bo'lmasa o'zi ham, bola-chaqasi ham och qoladi. Otam rahmatli kasal bo'lsa ham ishlab yurib, oxiri hushidan ketib yiqildi-yu, uch kun o'tmay dunyodan ko'z yumdi. Ana endi bizning ahvolimizni ko'ring! Bori-budimiz o'lik ko'mishga sarflandi, yana otamning akasidan ancha qarzdor ham bo'ldik. Oyim endi o'ttizlarga kirgan juvon edi. Odatga binoan otamning akasi uni o'ziga nikohlab oldi.

— Shu odatimiz juda bema'niku-ya!— dedi Eson.

— Bema'ni deb sekin aytasizmi! Ilgari oyim bilan amakimning xotini juda inoq ovsinlar edi. Keyin biri-biriga dushman kundoshlarga aylandi. Har kuni g'urbat, har kuni urish-janjal. Bir-ikki oygacha amakim ko'proq mening oyimga yon bosib yurdi, katta xotinini ko'p urdi. Bora-bora avvalgi xotini uni o'ziga ag'darib oldi

shekilli, amakim mening onamni yomon ko'rib qoldi. "Ukamning boshiga sen yetgansan, endi menga ham kasofating uryapti" deb oyim bechorani o'lasi qilib kaltaklar edi. Oyim yig'lasa, men unga qo'shilib yig'lar yedim. Oyim oxiri bu xorliklarga chiday olmadi. Bir kun ko'chada bolalar bilan chillak o'ynab yurgan edim, hovlimizda qiy-chuv ko'tarildi. Chopib kirsam, boshdan-oyoq lovillab yonayotgan bir odam o'zini u yoq-bu yoqqa otadi. Hech kim uning yaqiniga borolmaydi. Durustroq qarasam, yonayotgan odam — oyim! Ustiga kerosin sepib, o'ziga o't qo'yibdi!

Men chinqirib unga qarab chopdim, ammo yetolmadim — hushimdan ketib yiqilgan ekanman, keyin bildim...

— Oyingiz tirik qolibdimi?

— Qayoqda! Suyagigacha yonib ketibdi, sho'rlik. O'shanda men o'n bir yashar bola edim. Amakimning oldida bir soat ham turgim kelmas edi. O'roz og'a degan bir hamqishlog'imiz o'ziga yugurdak qilib oldi. Ikki-uch yil shunikida jon saqladim. O'zi yaxshi odam edi-yu, lekin tirikchiligini zo'rg'a o'tkazar edi. Men balog'atga yetganimdan keyin kiyim kechagimni to'g'rilab berdi-da: "Endi senga javob, — dedi. — Durustroq haq to'laydigan joyni top, pul yig', uylan, dunyodan yolg'iz o'tma", — dedi.

— Yaxshi odam ekan-da.

— Ha, shundan keyin yaxshi joy ko'rganim yo'q, desam bo'ladi. Bir archinnikida uch-to'rt yil qarol bo'lib ishladim. O'zi menga uncha ozor bermas edi, kichik xotini osh-u suvimdan xabar olib turar edi, lekin katta xotini yalmog'iz edi. Ikkov kundoshning urishmagan kuni bo'lmasdi. O'zlari urishaversa ham bir sari edi. Bizga o'xshagan bechoralarni oraga solishardi. Men kundoshlarning orasida qolib o'lib ketishim ham mumkin edi. Bir kun archin Mamatning kichik xotini bilan beda qirqayotganimda katta xotini "bular o'ynashyapti" deb, eriga aytib, bizni o'ldirib yubormoqchi ekan. Turdi degan bir yigit bor edi, o'sha qutqarib qolibdi.

— Qaysi Turdi, Murod og'aning o'g'limi?— deb so'radi Olloquli.

— Ha, o'sha... Siz uni bilasizmi?..

— Ha, men... — Olloquli u yog'ini aytmay, Esonga savol nazari bilan qaradi.

Eson haligi yigitga tikilib turib:

— Siz Sari og'a emasmisiz? — dedi. — Men endi tanidim-a! Archin Mamatning dalasida bir ko'rgan edim.

— Men seni darrov tanidim, uka. Sen Murod og'a bilan birga qo'y boqqansan. Lekin mana bu yigitni birinchi ko'rishim.

Olloquli Sari og'aning ta'rifini Turdidan eshitgan edi, shuning uchun ortiqcha sir saqlashni o'rinsiz deb bildi-da, o'zining kimligini aytdi.

— E, bo'ldi, men sizning ovozingizni ham eshitganman! — dedi Sari. — Valiboyning otini o'g'irlab qochgan sizmisiz?

— Bu tuhmat edi. Ammo endi Bekmurodboyning otini astoydil o'zimniki qilib olaman, shekilli.

Olloquli shunday dedi-yu, voqeani bir boshdan aytib berdi.

— Turdi, Eson uchalamiz kecha Turdiga go'r qazib, uni ko'mgan bo'ldik. Keyin men Chorining otini etaklab, boyga "buyrug'ingizni bajardim", deb bordim. "Qayerda o'ldirding?" degan edi, Ilonsoyni aytdim. Agar ishonmasa "Borib, ko'mgan joyimni ko'rishlaringiz mumkin", demoqchi edim. Bu la'nati boy: "Kallasini kesib olib kelmasang bo'lmaydi", deb turib oldi.

— Bekmurodboyni aldayman deb, Chorini otini bekorga eltib berdingiz-a! — achindi Eson.

— Bu boyning bunchalik makkorligini men qayerdan bilay? Men ham tuhmat balosidan qutulib xotirjam yashayman, Turdi ham o'ldiga chiqib tinchiydi, deb o'ylagan edim.

— Turdi o'zi qani? — so'radi Sari.

— Hali zamon kelib qolar, — dedi Eson. — El uxlaganda kelmoqchi edi. Obbo, Olloquli og'a-ey, shunday qilib, qishloqqa qaytib bormaydigan bo'lib keldingizmi?

— Endi qaytsam ham, Bekmurodboylarni qiyratadigan bo'lib qaytaman. La'nati, meni yo'ldan urib, amakimga dushman qilib qo'ydi. Bechora amakim besh bolasi bilan mening otamdan qolgan bir parcha yerga ekin ekib, tirikchilik tebratar edi. O'zi juda yaxshi odam edi, meni bolalaridan ortiq e'zozlar edi, lekin qalin to'lab uylantirishga qurbi kelmadi. Bekmurodboy meni chaqirib

"dunyodan so'qqabosh o'tasanmi?" dedi. Men bir qizni uch-to'rt marta ko'rib, unga ishqim tushib qolgan edi. Shunga uylanish hech xayolimdan ketmay qoldi. Bekmurodboyning gapiga kirib, amakim bechoradan yerni tortib oldim-u, Subhonboyga sotdim. Narx-u navoni yaxshi bilmas edim. Keyin surishtirsam, noinsoflar meni aldashib, yerimga ikki baravar arzon narx qo'yishgan ekan. Xayr, bu ham o'tdi... Yerdan tushgan pul qalinimning bir qismini uzishga yetdi, qiz ota-onasinikida qolib ketdi. Bu yetmaganday, Valiboyning tuhmatiga qoldim...

— Bu tuhmat ham Bekmurodboyning qutqusi bilan qilingandir,— dedi Sari, — Bular shu yo'l bilan seni qo'lga olib, Turdining kushandasiga aylantirmoqchi bo'lgan.

— Shu taxmin rost bo'lsa kerak,— dedi Olloquli. — Mayli, xotinim otasinikida turib turgani yaxshi.

— Qaynotang durust odamga o'xshaydi,— dedi Sari.— Men Turdidan eshitgan edim. Murod og'aga ko'p yaxshilik qilgan ekan. Ko'plashib uncha-muncha pul yig'amiz-u, sening nomingdan eltib beramiz. Qallig'ingni asrab-avaylab turadi. Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug'. Oxiri bir kun topisharsanlar.

— Hay, bilmayman-da, — dedi Olloquli g'amgin tovush bilan.

Eson uning ko'nglini ko'tarish uchun:

— Men bugun sizlarni bir ziyofat qilaymi? — dedi.— Yaxshi bir shirboz qo'zi bor. Hozir shuni so'yaylik.

— Xo'jayiningga nima deysan?

— Xo'jayinim Sarbozboy Subhon xasisga o'xshagan emas. Qo'yi shuncha ko'pki, hisobiga yetib bo'lmaydi. Bundan tashqari, egiz tuqqan sovliqlarning besh-oltita qo'zilarini hisobga kirgizgan emasman...

— Sening ham qo'ling egrilikka o'rganyapti deyman-a, uka? — so'radi Sari kulib.

— Egri qoziqqa egri tayoq, deydilar. Bechora Murod og'a boylarning oldida to'g'ri bo'laman deb, oxiri bekorga o'lib ketdi. Qoraqumda qo'y boqish osonmi? Go'sht, yog' yeb turmasangiz, cho'ponlikning mashaqqatiga chiday olmaysiz. Boylar o'zlaricha "mana buni ye" demaydi. Shuning uchun men o'z mehnatimga yarasha yeb, ichib yurmoqchiman.

— To‘g‘ri qilasan, Eson! — dedi Olloquli. — Ana, Turdi ham kelyapti. So‘y so‘yadiganingni. Bugun bir go‘shtga to‘yaylik. Ertaga yana taqdirda borini ko‘rarmiz.

Esonning kuchuklari Turdiga o‘rganib qolishgan edi, hurishmadi. Gulxan yorug‘ida Turdi Sari bilan Olloqulini allaqachon tanigan edi.

— Men boyatdan beri “qo‘shda begona odam bor” deb, yaqin kelolmay o‘tirsam, bu sizlar ekansizlar-da!

Turdi Sari bilan quchoqlashib ko‘rishdi-yu, Olloquliga qo‘l berdi:

— Ha, qaytib kelibsan? — dedi.

— Boyni ishontirolmadim. Endi sen nima bo‘lsang, men ham shu, Turdi. Otingni o‘zim bir amallab olib kelib beraman.

— Ot topiladi. Boylarda ot ko‘p. Biriniki bo‘lmasa, boshqasinikini olamiz. Mana, Sari og‘a ham kelibdi. Ko‘payishib qolyapmiz.

Eson birdan Berdini eslab:

— Berdi ham davramizda bo‘lsa edi! — dedi.

— Men Qilichlidan eshitdim, — dedi Turdi.— Berdi hali ham Marida qamoqxonada ekan. Sergey bilan gaplashib, Berdini qochirishning yo‘lini o‘ylashayotgan emish.

— Qani endi u ham shu yerlarga qochib kelsa!— dedi Olloquli.— Qoraqumning bag‘ri keng. Yaxshilab kuch to‘plab, keyin Bekmurodboyning qo‘rasiga bir bostirib borarmidik!

Turdining ko‘nglida dard bo‘lib yotgan zo‘r bir istak — opasi Uzukni zolimlarning qo‘lidan qutqarib olish istagi hozir yana xuruj qildi. Ammo bu ish hali qo‘llaridan kelmasligini o‘yladi-yu:

— Ishqilib, endi zolimlarga yon berish yo‘q,— dedi.— Ulardan qasd olmaguncha qo‘ymaymiz.

## SO‘NGGI CHORA

Turdi zo‘r chiqib, Olloqulini o‘ziga hamroh qilib olgani, Bekmurodboy otidan, miltig‘idan ayrilib, aldanib qolgani Qo‘nish boybicha bilan uning o‘g‘illari uchun yara ustiga sepilgan tuzday ta’sir qildi.

— Hammasiga mana shu qanjiq sababchi! — deb Qo'nish boybicha nuqul Uzukka yopishar edi. — Omonmurod, Chorijonning qasdini shundan ol! O'ldir buni!

Omonmurod Uzukni qo'liga tushgan narsa bilan urar, etigining poshnasi bilan tepar edi. Uzuk o'ladigan bo'lganda yo Bekmurodboyning o'zi yoki uning katta xotini oraga tushardi. Bekmurodboy Uzukni tirik murdaga aylantirmoqchi, uni o'limdan yuz hissa og'ir ahvolga solmoqchi edi.

Omonmurod esa Uzukni o'ldirishni va undan qutulishin istardi. Chunki uning Uzukka uylanganiga uch yil bo'lsa ham, ammo orzu qilingan o'g'ildan darak yo'q edi.

Tojsulton ham farzandsiz, Omonmurodning uch yil oldin o'lib ketgan xotini Omonsulton ham farzand ko'rmagan edi. Demak, ayb Omonmurodning o'zida. Odamlar uni "pushti kuyib ketgan" deyishadi. Uzuk tug'mayotgani sababli, bu taxmin rost chiqyapti. Shu sababli Omonmurod Uzukni ko'rarga ko'zi yo'q. Bu dargohda Uzukning o'limini hammadan ortiq istaydigan bir shaxs bor. Bu — Tojsulton. Katta boyning qizi bo'lgan bu badfe'l juvon hozir farzandsizlik dog'iga ko'nikib qolgan. U endi Omonmurodning uyida yolg'iz beka bo'lishni istaydi. Uzukning boshiga it kunini solishar, ammo Tojsultonga bu ham oz ko'rinardi, u Uzukdan butunlay qutulishni istar edi.

Qo'nish boybichadan tashqari, Bekmurodboylarga ancha yaqinligi bo'lgan Saidahmad eshon ham Tojsultonning bu istagiga sherik edi. Uzukka tegishib sharmanda bo'lgan, so'ng bu juvon Berdi bilan qochganda juda noqulay ahvolda qolgan eshon ham endi uning o'limini istar edi. Eshonnikiga tez-tez ziyoratga borib turadigan Tojsulton bir kun u bilan til biriktirdi. Eshon Tojsultonga bitta tumor yozib berdi-yu:

— Mana shuni kundoshingizning ro'moliga yashiriqcha tikib qo'ying, — dedi. — Qaysi xotinda shunday tumor bo'lsa, unga yaqinlashgan erkakning pushti kuyib ketadi, o'zi jinni bo'ladi. Tushundingizmi? Ertaga men sizlarnikiga boraman. Mening oldimda shu tumorni Omonmurodga olib ko'rsating. Qolganini menga qo'yib bering...

Tojsulton eshonga bir dasta pul in'om qilib, tumorni olib ketdi. Kechasi Uzuk uxlaganda uning ro'molini olib, haligi tumorni tikib qo'ydi.

Ertasi kuni kechki payt Uzuk tandirga non yopayotganda Omonmurod Saidahmad eshonni ergashtirib keldi.

Tojsulton ularga choy qaynatib berdi. So'ng birdan non yopayotgan Uzukka yaqinlashdi-da, uning boshidan ro'molini yulib olib, ichkariga kirib ketdi.

Qo'li band Uzuk hay-haylaganicha qolaverdi. Tojsultonning ketidan Omonmurod o'tirgan uyga kirishga yuragi betlamadi. Xizmatkor xotin boshqa uyga kirib, Uzukka durrasini olib chiqib berdi.

Uzuk tandirdan non uzayotganda ichkaridan rangi-quti o'chgan Omonmurod chiqib keldi. Qo'lida haligi tumor, Eshon bilan Tojsulton bu tumorda qanday iblisona duoyi bad borligiga uni ishontirishgan edi.

Omonmurod Uzukka yaqinlashib:

— Hali sen mening pushtimni kuydirib, o'zimni jinni qilmoqchimiding?! — dedi.

Uzuk hech narsaga tushunmay, uning vajohatidan qo'rqib, orqaga tisarildi. Omonmurod haligi tumorni tandirdagi olovga tashladi:

— Mana sening duoyi bading!.. Sen kimga ishonib meni duoyi bad qildiryapsan? Qamoqxonadagi o'ynashingni kutyapsanmi? Bilib qo'y, o'ynashing allaqachon otilgan... O'ligini men o'zim ko'rganman!..

Uzuk najot istaganday issiqqina tandirning biqiniga suyandi. Omonmurod uchi kuygan yo'g'on kosovni qo'liga olib dedi:

— Yo ukangga ishonyapsanmi? Ukang Ilonsoyda yer tishlab yotibdi! Ishonmasang borib ko'r! Go'shtini bo'rilar eyapti!

Omonmurod bu gaplarning yolg'onligini bilar, ammo hozir Uzukning butun umidlarnni puchga chiqargisi kelardi.

— Endi navbat senga keldi! Endi o'zing yer tishlaysan!

Uzuk undan qochib tandirning ortiga o'tdi. Ammo shu zahoti boshiga kosov tegib, ko'zidan o't chiqib ketganday bo'ldi. Ustma-ust tushgan kaltaklardan behush bo'lib yiqildi...

Tojsulton bilan Saidahmad eshon buni ayvondan tomosha qilib turishardi.

Omonmurod Uzukni charchagancha urdi. Keyin uyga sudrab olib kirib tashladi.

Xizmatkor xotinga:

— Hech qaysing kirma buning oldiga, — dedi. — O'lgan bo'lsa, ertaga ko'mamiz...

Uzuk qorong'i tushganda hushiga keldi. Yuzlarida qon qotib qolgan. A'zoyi badani qaqshab og'rirdi. U devorni paypaslab sekin o'rnidan turdi. Hayot unga hozir har qachongidan ham bema'ni ko'rinar edi. Boya Omonmuroddan Berdi bilan Turdining o'lib ketganini eshitganda Uzukning ishongisi kelmagan edi. Ammo endi butun vujudi toptalgan, hayoti og'uga aylanib ketgan, shu damlarda Turdi bilan Berdining vafoti unga chindek tuyulib ketdi. "Butun umidim shularda edi... Endi ulardan ham ayrilgan bo'lsam, bu jahannamda nega yuribman?.. Nega?!"

Uzuk bu dargohda endi bir daqiqa ham qolishni istamadi. Oxirgi kuchlarini to'plab, hovliga, undan dalaga chiqdi.

Uzoqda Murg'ob daryosi qoya toshlarga bosh urib pishqirib oqar edi. Uzuk qorong'ida turtina-turtina o'sha shovullagan tovush eshitilgan tomonga qarab ketdi.

"Oyijon,— deb pichirlardi u,— baxtsiz qizingdan rozi bo'l, oyijon! Men otam ketgan joyga ketaman, ukam ketgan joyga ketaman. Hammamiz o'sha yerda yana topisharmiz..."

Uzuk daryo bo'yiga kelib, qirg'oqdagi tik qoya toshga ko'tarildi. Shu qoya toshdan nariroqda mol sug'oriladigan joy bor edi. Bekmurodboyning qaroli To'rli kunduz qo'sh haydab, kechasi allamahalgacha ho'kiz boqar, keyin ularni sug'orish uchun daryo bo'yiga haydab tushar edi. To'rli g'ira-shira oydinda Uzukni ko'rib qoldi. Uzukning sochlari yoyilib elkasini qoplab turardi. To'rli uni ajina deb o'yladi, qo'rqib qochmoqchi bo'ldi. Ammo "ajina" etagiga tosh terar: "Berdijon, bu dunyoda taqdirimiz qo'shilmadi, narigi dunyoda qo'shilarmikin? — deb o'zi bilan o'zi gaplashar edi. — Oyijon, meni kechiring! O'limdan boshqa najot qolmadi menga!"

To‘rli taajjub bilan “ajinaga” yana bir qaradi. Bu orada o‘n kunlik oy bulutlar orasidan suzib chiqqan edi. Qoya toshda Uzukni To‘rli endi tanidi, ammo unga so‘z qotishga ulgurmadi.

Uzuk bo‘g‘iq bir tovush chiqarib, o‘zini daryoga tashladi. Etagidagi toshlar ham uning og‘irligini oshirgan edi, suvga cho‘kib ko‘rinmay ketdi. To‘rli shosha-pisha etigini yechdi-yu, chopib borib, uning ketidan daryoga o‘zini otdi. Uzukning etagidagi toshlar to‘kilib ketgan, o‘zi yuzaga qalqib chiqqan, boshi oydinda bir ko‘rinib, bir ko‘rinmay oqib borar edi. To‘rli suzib borib, uning ko‘ylagidan, sochlaridan ushladi va boshini suv yuzasiga chiqarishga tirishdi. Ammo Uzuk behush edi. To‘rli uni yelkasidan va bo‘ynidan olib qirg‘oqqa qarab suzmoqchi bo‘lar, asov daryo to‘lqinlari bunga yo‘l bermas edi. Toshlarga urilib girdob bo‘lib oqayotgan Murg‘ob hozir shafqatsiz qismatga o‘xshar edi. Uzukni bu qismatning changalidan qutqarib bo‘larmikin yoki To‘rli ham unga qo‘shilib g‘arq bo‘lib ketarmikin? Qorong‘i tunda buni bilib bo‘lmas edi.

# IKKINCHI KITOB

## G‘ANIMNING G‘AZABI

Bekmurodboy gilamlar to‘shalgan hashamatli uyda eng yaqin qarindoshlari bilan tovuq palov yemoqda edi. Ikkita charxin tovoq to‘la palov oltinday tovlanib, atrofga xushbo‘y hid taratar, hil-hil pishgan tovuq go‘shti ham ilikday osh bilan birga og‘izda erir edi. Omonmurod bilan Valiboyning panjalari ham, lunjlari ham oshdan bo‘shamas, suzik ko‘zlari esa o‘rtadagi tovoqdan boshqa narsani ko‘rmas edi. Faqat Bekmurodboy har zamonda bir cho‘qim osh yeydi-yu, yon-veriga noxush nazar tashlab qo‘yadi. Uning ishtahasi yo‘qroq ekanini ko‘rib, Qovus degan yigiti bitta anorning suvini piyolaga siqib, Bekmurodboyning oldiga qo‘ydi. Boy anorning suvidan bir qultum ichib, qolganini oshga sepdi.

— Bekmurodboy, olishingizning mazasi yo‘q, — dedi Valiboy og‘zidagi oshni shosha-pisha yutib.

— Menga qaramay olaveringlar. Bugun xayolim qochib durust uxlay olmadim.

— Odam aqlli bo‘lgani sari ko‘p o‘ylanadi, chamasi-da, — dedi Valiboy yana osh changallab. — Bo‘lmasa, ishlaringiz hammasi joyida. Urush[1] boshlangandan beri narx-navo ko‘tarilib, savdoyingiz yurishib ketgan. Paxtaning bozori chaqqon. Sizga qasd qilganlar hammasi past bo‘lib yuribdi. Yana nega xayolingiz qochadi?

Valiboy panjasi to‘la oshni og‘ziga tiqdi. Bekmurodboy esa qo‘lini arta boshladi:

— Qasd qilganning past bo‘lishi yetarli emas ekan, Valiboy, — dedi u. — Sen fil bo‘lsang ham, sichqondan dushmaning bo‘lmasin, — degan maqol bor. Dushman sichqonday kichik bo‘lsa ham, agar firib berishga tushsa, filni aldab, jarning yoqasiga olib borib qo‘yadi.

[1] Birinchi jahon urushi nazarda tutilmoqda *(tarj.)*

O‘tirganlarning yodiga Chorini o‘ldirib, haligacha tutqich bermay yurgan Turdi tushdi. Hozir u yolg‘iz emas, Bekmurodboyga firib berib ketgan Olloquli ham endi Turdiga sherik. Bir yarim yildan beri bu ikkalasi Qoraqumda ochdan yoki issiq-sovuqdan o‘lib ketishi kerak edi. O‘lmaganda ham, Bekmurodboyning yigitlarimi, oq podshoning soldatlarimi, allaqachon ularni tutib kelishi kerak edi. Lekin Turdi bilan Olloqulini o‘zlariga o‘xshagan yalangoyoqlar yashirib, qo‘llab-quvvatlab yuribdi, shuning uchun ular haligacha eson-omon. Agar ular astoydil qasd qilsa, bir kun emas bir kun yo Omonmurodni, yoki Bekmurodboyning o‘zini Choriga o‘xshatib so‘yib ketishlari mumkin.

Buning ustiga qamoqxonadagi Berdi hali tirik, Bekmurodboy uning otilishini yoki Sibirga umrbod badarg‘a qilinishini so‘rab, Mari shahar hokimiga murojaat qilgan, polkovnik janoblari uning bu iltimosini bajarishga so‘z bergan edi. Ammo Berdining tog‘asi Nurmuhammad Ashxobodga arz qilib, ishni buzib qo‘yibdi.

Berdini Ashxobod qamoqxonasiga jo‘natishibdi. U yerdagi siyosiy mahbuslar ham bu yigitga nisbatan adolatsizlik bo‘layotganini bilishib, podsho amaldorlariga norozilik bildirishibdi.

— Shu ketishda, bu haromi bo‘shab chiqishi ham mumkin, — dedi Bekmurodboy. — Keyin bu borib narigi ikkoviga qo‘shilsa, ana unda ko‘rasan mashmashani!

Berdi tilga olingach, Omonmurodning ham ishtahasi bo‘g‘ilib qoldi. Uzuk uning ko‘z oldiga keldi. O‘shanda Uzukni naqd o‘limdan qutqarib, dahshatli tog‘ daryosidan tirik olib chiqqan xizmatkori To‘rli ham Omonmurodning nafratini keltirardi. “Qaytaga cho‘kib ketsa men bir balodan qutular edim!” — deb o‘ylardi Omonmurod. Uzukning unga balo-qazoday ko‘rinishining eng katta sababi shuki, to‘rt yildan beri u ham bola tug‘mayotibdi. Avvalgi ikki xotinidan farzand bo‘lmagani ustiga bu qo‘shilib, butun ayb Omonmurodning o‘zida ekani bilinib qolyapti. Agar shu ahvolda Uzukning sevgilisi Berdi qamoqxonadan tirik chiqsa-ya. Yo‘q! Omonmurod bunga yo‘l qo‘ymaydi.

— Agar qamoqxonadan tirik chiqsa, men uni o‘z qo‘lim bilan o‘ldiraman! — dedi u tishini tishiga bosib.

— Katta gapirma! — kinoya bilan e'tiroz qildi Bekmurodboy. — O'ldirsang, o'sha Axalga qochgan paytda o'ldirarding!

— Unda sallotlar xalaqit berdi!

— Chorini so'yib ketgan Turdichi? Buni yer tishlatishingga qaysi sallot xalaqit beryapti?

Omonmurod indamay yerga qaradi. Qirmizi choynaklarda xushbo'y ko'k choy keltirildi. Turkman odaticha, har kim o'z oldiga qo'yilgan alohida choynak-piyoladan choy icha boshladi.

— Bekmurodboy, haqiqatan ham dushmanlaringizning joni juda qattiq chiqdi, — dedi Valiboy. — Qamoqxonadagi haromini Sibirga badarg'a qildirganingizda ham tirik kelishi hech gap emas. Nurisibir, Bobosibir deganlar Sibirdan omon qaytganini hammamiz bilamiz-ku.

Bekmurodboy bu gapni ma'qullagan kabi bosh irg'ab qo'ydi. Chunki Berdini qaytadan sud qildirish va Sibirga jo'nattirish juda mushkul, uni himoya qiluvchilar ko'payib qolgan edi.

— Tavba! — dedi Valiboy. — Qoraqumda qochib yurgan it-vachchalar-ku tutqich bermayapti ekan. Nahotki, bu avaxtada yotganini yo'q qilib bo'lmaydi? Bekmurodboy, siz shunday tadbirkor odamsiz. Ashxobodga borsangiz, o'sha yerda biron yo'li topilib qolar, deyman.

Bekmurodboyning kechasi bilan o'ylagan o'yi hozir birdan intihosiga yetdi:

— Hozir u to'ng'iz, — dedi u Berdini ko'z oldiga keltirib,— botqoqqa botib yotibdi. To'ng'izni botqoqda bos, degan maqol bor.

Bekmurodboy bir lahza sukut saqlab, atrofiga quloq soldi. Orada bo'layotgan gapni chet odam eshitolmasligiga ishonch hosil qilgach:

— Men ertaga Ashxobodga jo'nayman, — dedi. — O'sha to'ng'izni o'zim borib bir yoqlik qilib kelmasam bo'lmaydiganga o'xshaydi.

— Albatta, siz borsangiz ish bitmay qolmaydi, — dedi Valiboy. — Pulning yuziga qaramaydigan saxiy odamsiz. Qamoqxonaning kattalari ham pulni ko'rsa, hech narsadan qaytmasa kerak.

— Qamoqxonaning kattasi nima bo'libdi? — dedi Omonmurod. — Hozir Azroilni ham pulga sotib olib ishlatsa bo'ladigan zamon.

— Ha, lekin mening Ashxobodga nega ketganimni hech kim bilmasligi kerak, — dedi Bekmurodboy ovozini pasaytirib. O'tirganlar ham past tovush bilan:

— To'g'ri!

— Albatta! — deyishdi.

Bekmurodboy hamyonini pulga to'ldirib, ertasi kuni uzoq safarga otlandi.

## OQ UY

Erta bahor. Murg'ob daryosidan suv oladigan apiqlarda qurbaqalar basma-bas sayraydi. Egriguzar to'g'onining yuqorirog'ida qamishlar o'sib yotgan halqob joy bor. Qurbaqalar, ayniqsa, shu yerda ko'p. Biroq bu sokin qamishzorlarda ilonlar ham juda ko'payib ketgan. Makkor ilon suv yuzida ilang-bilang iz qoldirib ovoz chiqarmay suzib boradi-da, boshini suvdan chiqargancha jonsiz bir narsaday qotib qoladi. Buning xatarli mahluq ekanidan bexabar qurbaqa sayrab-sayrab unga qo'qqisdan yaqin kelib qoladi. Ilon hamon tayoqday qotib turadi. Faqat uning ingichka qora tili beozor bir narsaday ko'rinib qoladi. Qurbaqa ilonning tilini pashshaga o'xshatib yaqinroq boradi. Ilonning harakatsiz ko'zlari uni sehrlab qo'yadi. Qurbaqa qisqa-qisqa "g'urrq-g'urrq" deb, to'rt oyog'ini kerib, ilonga yaqinlashib boraveradi va birdan boshi bilan ilonning og'ziga kirib ketganini o'zi ham sezmay qoladi...

Bitta qurbaqani mana shunday osongina qo'lga tushirgan ilon yana ikkinchi-uchinchisining yo'lini poylaydi. Bundan bexabar qurbaqalar esa to'g'onni boshlariga ko'tarib, o'z ashulalarini aytishgani-aytishgan.

To'g'on yonidan chiroyli saman ot minib o'tayotgan Bekmurodboyga ba'zi odamlar mana shu qurbaqalarday farosatsiz ko'rinadi. "Xudo xohlasa, mening pullarim mana bu ilonning ishini qiladi, — deydi Bekmurodboy ichida. — Mening davlatim dushmanini bilintirmay komiga tortadi". Ammo Bekmurodboy ilonday makkor bo'lganda ham, uning g'animlari qurbaqaday go'l emas edi.

Bekmurodboy Berdining joniga qasd qilib Ashxobodga ketayotganini eng yaqin kishilariga aytganda, boshqalar bu sirdan voqif bo'lolmasligiga ishongan edi. Biroq uning ukasi Omonmurod bu sirni beixtiyor oshkor qilib qo'ydi. Omonmurodning tutqanoq kasali bor edi. U ba'zi kechalari alahlab, o'zi bilan o'zi gapirishib chiqar edi.

Bugun kechasi Uzuk uning:

— "Qo'ymang, aka, o'ldiring!" — deb alahlaganidan cho'chib uyg'ondi. Burchakda xiragina qora chiroq yonib turibdi. Omonmurodning ko'zlari yumuq, faqat ko'kimtir lablari asabiy qimirlaydi. Xunuk tovush bilan g'uldirab:

— "Aka, bo'g'ib... bo'g'ing... o'ldiring!" — deydi. — "It bu... Mening xotinimni o'g'irlagan... O'ligi qolsin... Ashxobodda... Turmadan tirik chiqmasin! Aka, bo'g'ib tashlang!"

Omonmurod "aka" deb Bekmurodboyni aytayotganini Uzuk sezdi-yu, qamoqxonadagi Berdi esiga tushdi. O'tgan yili Omonmurod Berdini o'ldiga chiqarib, yolg'on gapirganini Uzuk keyinchalik bildi. Uzuk o'zini o'ldirmoqchi bo'lganini, biroq To'rli uni daryodan olib chiqqanini shu qishloqlik Annageldi ustaning qizi Obodon ham eshitgan edi. Bir kun Obodon Uzukka ariq bo'yida yolg'iz duch kelib qoldi-da, qilgan ishi uchun uni koyidi:

— Sizga bir narsa bo'lsa kundoshingiz suyunar edi... Joningiz ko'zingizga ko'rinmagan bo'lsa onangizni o'ylang edi, bechora Berdini o'ylang edi...

— Berdi tirikmikin-a?!

— Ashxobod turmasida yotgan emish. Erim Berdining tog'asidan eshitibdi. Boylar uni Sibirga jo'natmoqchi ekan, tog'asi harakat qilib, Ashxobodda olib qolibdi. Siz sog'-salomat bo'lsangiz, shuning o'zi ham Berdiga madad beradi.

Uzuk hozir Obodonning mana shu gaplarini esladi. So'ng erining alahlab aytgan gaplarida qanday mudhish ma'no borligini to'satdan fahmlab, eti junjikib ketdi. Bekmurodboy Ashxobodga jo'nayotganini u kecha oqshom eshitgan edi. Buning sababini ham u endi bildi. Bular Berdini o'ldirishmoqchi! Qamoqxonadagi Berdi hech narsani bilmaydi! Uzuk shuni o'ylab, tong otguncha mijja qoqolmadi.

Bu qishloqda uning eng ishongan kishisi Obodon edi, Uzuk ertalab oqlik olish bahonasi bilan Annageldi ustalarnikiga chiqdi-yu, Obodonni xoli topib, voqeani aytib berdi:

— Jon opa, eringizga ayting! Berdiga xabar bersin. Mening qo'l-oyog'im bog'loqlik. Ajal kelgan bo'lsa, menga kelsin! Bechora Berdi meni deb qamoqda shuncha yotgani ham yetadi! Juvonmarg bo'lib ketmasin!

— O'zingizni bosing, Uzukjamol. Omonmurod tushida alahsiragan bo'lsa, alahsiragandir. Tushida ko'rgani darrov o'ngida bo'la qolmas!

— Siz bularni bilmaysiz, opajon. Anavi ilon akasi aytganini qilmay qo'ymaydi... Mening baxtim shunchalik qora ekan! O'shanda o'lib keta qolsam bo'lmasmidi? Berdi ham bu balolarni ko'rmas edi!

Uzuk kuyunib yig'lay boshladi. Obodonning ham o'pkasi to'lib:

— Uzukjamol, bo'ldi, yig'lamang! — dedi. — Men qaynonamning oldiga erta-indin qaytmoqchi edim. Siz uchun mana hoziroq jo'nab ketaman. Erimni topib, hamma gapni aytaman. Uning Ashxobodlik o'rtoqlari bor... Bir yo'lini qilishar. Bardam bo'ling... Nasib qilsa, hali Berdi bilan yana ko'rishasiz!

Uzuk yum-yum yig'lab bosh chayqadi. Hayotning berahm zarbalari uning orzu-umidlarini yakson qilgan, Uzuk endi kelajakdan yaxshilik kutmas, ko'p narsaga umidsiz va loqayd ko'z bilan qarar edi. Shunday bo'lsa ham, u Berdini xavf-xatardan asrab qolgisi kelardi.

— Men kuyib, kul bo'lganman, opa. Berdini ko'rishdan umidimni uzganman! Men o'lib ketsam ham mayli, ishqilib, o'sha yigit omon qolsa, bo'ldi!

* * *

Egriguzar to'g'onining bo'yida bir oq uy bor. Bunda Qilichlining qadrdon o'rtog'i Sergey Timoshchenko oilasi bilan istiqomat qiladi. Kasbi slesar bo'lgan Sergey ilgari Ashxobodda temiryo'l ustaxonasida ishlar edi. Ishchilar orasida yashirin inqilobiy tashkilot bo'lib, Sergey ham unga a'zo edi. Tashkilotning maqsadi — hokimiyatni tekinxo'r sinflardan tortib olib, mehnatkashlarni ozodlikka

chiqarish edi. Shuning uchun bu yashirin tashkilot turkman dehqonlari orasida ham targ'ibot ishlari olib borishga, ularni ommaviy harakatga tayyorlashga alohida ehtiyoj sezar edi. Sergey mana shu ehtiyoj bilan Ashxoboddan uzoqdagi suv inshootiga ishga o'rnashgan edi. U turkman tilini yaxshi bilar, bu xalqning mard, dovyurak va jabrdiyda mehnatkashlariga alohida bir ehtirom ko'zi bilan qarar, ularni inqilobiy kurashga jalb etish uchun qo'lidan nimaiki kelsa, qilar edi. Bir vaqtlar Sergey Uzukning onasi O'razsulton xolani va uning hamqishloqlarini Bekmurodboylar bilan qattiq turib sudlashishga undagani ham dehqonlarning ongini uyg'otish va ko'zini ochish uchun edi. So'nggi yillarda atrof qishloqlarda yuz bergan hamma voqealardan Sergeyning xabari bor edi. Turkmanlar orasida ish olib borishda Sergeyga yaqindan yordam berayotgan kishi — Uzukning hamqishlog'i, Obodonning eri Qilichli edi. Bekmurodboy Berdini qamoqxonada yo'q qilib yuborishga astoydil bel bog'laganini Sergeyga Qilichli kelib aytdi.

— Agar Bekmurodboy shu niyatiga yetsa, keyin undan qo'rqadigan odamlar juda ko'payib ketadi, — dedi Qilichli Sergeyga. — O'zing bilasan, Berdilar bilan Bekmurodboylarning orasida bo'lib o'tgan ur-surlarni hamma eshitgan. Endi agar boy g'olib chiqsa...

— Fikring to'g'ri, Qilichli. Bunga yo'l qo'ymaslik kerak. Lekin... qamoqxonada yotgan odamni biz bu yerdan turib qanday himoya qila olamiz?

Ikkovlari to'g'on bo'yida turib shu to'g'rida o'ylashayotganda eshak mingan ikkita kampir Sergeylarning uyi oldiga kelib to'xtashdi. Bularning biri — Qilichlining onasi O'g'il xola, ikkinchisi esa Uzukning onasi O'raz xola edi. Ikkovi tengdosh bo'lgan bu kampirlar hozir biri-biridan ancha farq qilar edi. Ko'p jabr ko'rgan, uzoq vaqt kasal yotib, yaqinda tuzalgan O'raz xola O'g'il xoladan o'n-o'n besh yosh kattaga o'xshar edi. O'g'il xola eshagidan oldinroq tushib, O'raz xolani qo'ltig'idan suyab tushirdi. Keyin uning xurjunini eshagidan oldi.

Sergey ularga yaqinlashib:

— Kelinglar, onalar, kelinglar! — dedi. Kampirlar ham Berdining gapi bilan kelishgan edi.

— Baraka top, Sergeyjon, — dedi O'raz xola Sergeyning o'ng yelkasiga qo'lini qo'yib ko'rishgach. — Uying kuygur boylar Berdini avaxtada ham sog' qo'ymaydiganga o'xshaydi.

— Sirboy, o'g'lim, bizga yaxshilab ariza yozib ber, — dedi O'g'il xola. — Toshkentdagi yarim poshshoning nomiga yoz. O'zim olib borib beramap. Shuncha surbetlik qilishgani ozmi? Yana qamoqda yotgan sho'rlikning qoniga tashna bo'lishibdi-ya! Ilohim, o'zlariga ajal kelsin bu boylarning!

— Shoshmanglar, onalar, — dedi Sergey. — Bu ovozani sizlarga kim aytdi?

— Obodondan eshitdik.

Sergey Qilichliga "ovoza bo'lgani yaxshi emas, xotiningni ogohlantirmagan ekansan-da!" — deganday qilib qaradi. So'ngra kampirlarga yuzlanib, ovozini pasaytirib gapirdi:

— Maqsadlaringiz Berdini boylardan omon saqlash bo'lsa, buning uchun eng avval nima kerak, bilasizlarmi?.. Buning uchun eng avval boylarga sir bermaslik kerak. Qilichli, sen Obodonga tezroq ayt, Uzukdan eshitgan gapini boshqa hech kimga bildirmasin. Agar bu sir oshkor bo'lsa, Bekmurodboy sergaklanib qoladi. Ishini yana ham puxtaroq qiladi. Ana unda Berdini bu yovuzlardan omon saqlash juda ham qiyin bo'ladi.

— Rost aytasan, Sirboyjon, — dedi O'g'il xola. — Dushmanning sirtida bo'lma, ichida bo'l, degan maqol bor. Dushmanning sirini bilsang, ichida bo'lasan, unga siringni bersang, sirtida bo'lasan.

— Mana bu to'g'ri gap! Endi, yarim poshshoga ariza yozishga kelsak, menimcha, buning ham keragi yo'q.

— Nega?

— Chunki o'shanda men sizlarga yozib bergan arizalarning oqibati nima bo'lganini ko'rdilaringiz. Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi. Yarim poshsho bu yerdagi amaldorlardan kattaroq, lekin u ham shularga o'xshagan bir qarg'a. Menga qolsa, bu sirni yarim poshshoga ham aytish kerak emas.

O'raz xolaning tarvuzi qo'ltig'idan tushib:

— Bo'lmasa nima qilamiz? — dedi. — Qilichlijon, sen nega indamaysan? Ular Berdiga pichoq qayrayotganini ko'rib-bilib indamay o'tira beramizmi?

— Biz Sergey bilan xuddi shu haqda gaplashib turgan edik...

— Men yaqinda Ashxobodga borib keladiganman, — dedi Sergey. — Xat oldim. Opam betob ekan. Borib ko'rmoqchiman.

— Voy aylanayin sendan, — dedi O'raz xola xurjunini ochib. — Ashxobodga borsang, Berdini o'zing borib ko'rarsan axir?

— Bilmadim... menga ruxsat berishadimi, yo'qmi?

— Nega berishmas ekan? Bizning nomimizdan borasan. Biz Berdijonga atab bir dasturxon pishma[1] pishirib keldik. Mana, ol, aylanayin Sirboyjon, eltib bersang, savob bo'ladi.

Sergey Qilichli bilan ko'z urishtirib oldi-da:

— Mayli, — deb bo'g'irsoq hidi kelib turgan issiq dasturxonni kampirlarning qo'lidan oldi. — Sizlar xavotir olmangizlar. Men qo'limdan kelgan hamma ishni qilaman. Faqat bu gaplar shu yerda qolsin. Xo'pmi?..

— Xo'p, xo'p!

Kampirlar qaytib ketgandan keyin Qilichli Sergeyga qarab:

— Dasturxonni chini bilan Ashxobodga ko'tarib bormoqchimisan? — dedi.

— O'zing ko'rding, kampirlarning shashtini qaytargim kelmagani uchun shuni olib qoldim. Men Ashxobodga borib, maslahat so'rayman. Nazarimda, mening Berdini so'roqlab borishimni ma'qul ko'rishmaydi. Agar ma'qul ko'rishsa, sovg'a-salom o'sha yerda ham topilar.

Qilichli Sergeyning Ashxobodda kimlar bilan maslahatlashmoqchi ekanini so'ragisi kelsa ham so'ramadi. Chunki u Sergeyning maxfiy ishlariga aralashishdan tortinar edi.

— Sergey, agar foydam tegsa, men ham sen bilan birga Ashxobodga borishim mumkin.

— Rahmat, Qilichli. Lekin hozir buning zarurati bo'lmasa kerak. Albatta, hozirgi hokimiyat boylarning tarafini oladi. Bekmurodboyning oltin, kumushlari bir bechora kambag'alning boshiga yetishi hech gap emas. Ammo biz ham qarab turmaymiz. Berdiday yigit bizga juda kerak.

Sergey Qilichlining ko'ngliga taskin beradigan gaplarni aytar edi-yu, ammo qamoqxonada yotgan yigitni qanday saqlab qolish-

[1] **Pishma** — bo'g'irsoqning bir turi.

ni tasavvur etolmasdi. Unga Ashxoboddan kelgan telegrammada "opang kasal, tez yetib kel!" — deyilgan bo'lsa ham, aslida, gap opasida emasligi, yashirin tashkilot uni zarur bir ish bilan chaqirayotgani sezilib turardi.

"O'sha yerga borganda biron yo'li topilib qolar" degan o'y bilan Sergey ertasi kuni azonlab poyezd yo'liga qarab ketdi.

## ASHXOBODDA

Oftob ufqqa yaqinlashib, issiqning tafti sal bosilgan bo'lsa ham, havo juda dim. Gavjum vokzalda nafas olish og'ir. Poyezdni kutayotgan kishilar sabrsizlik bilan yo'lga ko'z tikishadi, temir izdan tovush kelmasmikin deb relslarga ham quloq solishadi. Nihoyat, uzoqda parovoz gudogi eshitildi. Passajir poyezdi perronga yaqinlashgan sari sekinlab kelar edi. O'rtadagi birinchi klass vagoni vokzal darvozasining ro'parasiga kelganda butun sostav taqqa to'xtadi. Bu muhtasham vagondan tushib kelganlar orasida oltinday tovlangan qo'ng'ir qorako'l cho'girma va qizil ipak to'n kiygan salobatli Bekmurodboy ham bor edi. Uning qop-qora soqoli chiroyli qilib tarashlangan, qimmatbaho etigi yaltiratib tozalangan. Yurish-turishiga qaragan odam Buxoro amirining eng zo'r arboblaridan bo'lsa kerak, deb o'ylaydi. Bekmurodboy, oqposhsho amaldorlari bilan muomala qilishga yordam beradi, deb Marida turadigan tatar xotini Xonimni ham birga olib kelgan edi. Baland poshna tufli kiygan sariq soch Xonim erining yonida mayda qadam tashlab yo'rg'alab borar edi. Orqadagi ikkinchi klass vagonidan tushgan o'rta bo'yli, yag'rindor yigit Bekmurodboyni ko'zdan qochirmaslikka tirishib, uning izidan yurdi. Yigit tik yoqali yashil satin ko'ylagining ustidan kamar bog'lagan, boshiga furajka kiygan. Mo'ylovi ham, qoshi ko'zi ham qoramtir qo'ng'ir. Asli ukrainalik bo'lgan bu yigit — Sergey Timoshchenko edi. U Bekmurodboyning ketidan borib, vokzalning tashqarisidagi maydonchada turgan faytonlarga yaqinlashdi.

Bekmurodboy beriroqda to'xtab:

— Ey, faytun!.. — deb qo'lini sermadi.

Eskiroq bir fayton tez yetib kelib, boyga yonini berib to'xtagan edi, Bekmurodboy uni pisand qilmay:

— Yo'q, sen emas! — dedi faytonchiga. U yaraqlab turgan yangi bir faytonning egasiga qarab: — Sen kel! — dedi.

Eski fayton orqaga chekindi-yu, uning o'rniga kelgan yangi faytonning egasi:

— Yo'l bo'lsin? — deb boydan adresni so'radi.

Bekmurodboy shop mo'ylov faytonchiga yaqin borib, adresni past tovush bilan aytdi. Yigirma qadamcha narida turgan Sergey uning nima deganini uqib ololmadi.

— Yaxshi, necha pul berasiz? — dedi shop mo'ylov faytonchi baland tovush bilan.

— Savdolashma, senga pul kerak bo'lsa, hayda tezroq! — dedi Bekmurodboy xotini bilan birga faytonga minar ekan.

Bekmurodboy nazariga ilmagan eski faytonga Sergey mindi-yu, faytonchi cholga sekin uqtirdi:

— Mana shu fayton borgan joygacha boramiz. Undan naryog'ini keyin aytaman. Uncha yaqin yurmang. Ko'zdan qochirmasak bo'ldi...

U paytlarda Ashxobod katta shahar emas edi, mashhur boylar va amaldorlarning qaysisi qayerda turishini Sergey yaxshi bilar edi. Bekmurodboy mingan fayton shahar qamoqxonasi joylashgan ko'chaga burildi. Qamoqxonadan ancha berida sokin bir mavzeda hashamatli yashil darvoza ko'rindi. Bekmurodboy mingan fayton shu darvoza oldiga kelib to'xtadi. Boy yo'l kirasini to'lab, xotini bilan birga mana shu darvozadan sekin ichkariga kirar ekan, Sergey mingan fayton tez yurib o'tib ketdi.

Darvoza ichkarisidagi gulzor hovli va tunuka tomli, oldi oynavand imorat shahar qamoqxonasining boshlig'iga qarashli edi. Sergey Bekmurodboyning qora niyat bilan kelganiga endi shubha qilmay qo'ydi. "To'g'ri qamoqxona boshlig'ining uyiga keldi — bular azaldan tanishmikin yoki boyligiga ishonib bunchalik dadil harakat qilyaptimikan? — o'yladi Sergey. — Nima bo'lganda ham boshlanishi juda yomon. Tezroq bir chora ko'rilmasa, Berdining o'lishi muqarrar!"

Sergey faytonchiga:

— Tezroq haydang! — dedi.

Faytonchi chol otiga qamchi bosdi.

* * *

Shahar qamoqxonasining boshlig'i podpolkovnik Boriskin kunduzgi issiqdan betoqat bo'lib, muzday shampan vinosidan ko'proq ichgan edi, kechki payt ichkari uyga kirib, uxlab qoldi. Uning semiz xotini Emma Mixaylovna hovlida bog'bonga gul o'tqazdirmoqda edi. Darvozadan orqama-ketin kirib kelgan Xonim bilan Bekmurodboy Emma Mixaylovnaga egilib, salom berishdi.

Uy bekasi birinchi marta ularni ashxobodlik savdogarlarning ziyofatlarida ko'rgan, keyin Mari hokimi bilan birga Bekmurodboyning uyiga mehmonga borganda qimmatbaho sarupo kiyib qaytgan edi. Hozir Bekmurodboy ko'tarib kirgan chiroyli gilam xurjun ham sovg'a-salomga to'la ekanini sezgan uy bekasi:

— Ah, aziz mehmonlar, xush kelibsiz! — deb Xonim bilan o'pishib ko'rishdi. Bekmurodboyga esa qo'lini berdi. Bekmurodboy uning oppoq barmoqlarini ikki qo'llab avaylab oldi.

Uy bekasi mehmonlarni oynavand ayvondagi divanga o'tqazib ichkariga yo'naldi.

— Kolya, qayerdasan, Kolya? Chiq, tezroq, marilik do'stlarimiz keldi! — deb podpolkovnikni baland ovoz bilan chaqirdi.

Sap-sariq mo'ylovli, novcha podpolkovnik bemahal uyqudan lanj bo'lib turdi-yu, mehmonlar bilan naridan-beri ko'rishdi. Bekmurodboy unga yoqimli narsalarni eslatgisi kelib:

— Batbalkovnik janoblarini yana Mariga taklif qilmoqchi bo'lib keldik, — dedi. Xonim uning gapini silliqlab tarjima qila boshladi: — Hozir cho'lda jayron ko'p, Murg'ob bo'yida tustovuq ko'p. Batbalkovnik janoblari ovni yaxshi ko'radilar...

— Ha, ovmi? — dedi podpolkovnik birdan jonlanib.

Bir kun u Bekmurodboyning yigitlari bilan birga yigirmata tustovuq otib olganini esladi-yu, bahri dili ochilib kuldi. — Ovga borsak, yaxshi bo'lardi-ya. Lekin hozir ish ko'p...

Podpolkovnikning yana ichkisi kelardi. Mehmonlar bahonasi bilan bugun to'yguncha ichishi mumkinligini o'ylab, uy bekasiga qaradi.

— Emma, bugun bir yayraydiganga o'xshaymiz. Qani, buyur, stol tuzashsin.

Ayollar ichkari xonaga kirib ketishdi, Bekmurodboy ruscha gapirolmasa ham, qo'llarini harakatlantirib, imo-ishoralar bilan podpolkovnikning uyini, hovlisidagi gullarini maqtadi, o'shanda qanday yaxshi ov qilganini yana esiga tushirdi. Ko'p o'tmay uy bekasi ularni dasturxonga taklif qildi. Stolga aroq ham, konyak ham, vino ham qo'yilgan, biri-biridan totli ovqatlar ketma-ket kelib turar edi.

— Biz do'stlarimizning, uy egalarining martabalari kundan kunga ko'tarilib borishi uchun ichamiz! — deb qadah taklif qildi Bekmurodboy.

Podpolkovnik:

— Day bog! — deb oq ichdi.

Xonim esa:

— Sizga hasad bilan qaraydigan baxillarning ko'zi ko'r bo'lsin, bizga qo'l ko'tarmoqchi bo'lgan dushmanlarning qo'l-oyog'i shol bo'lsin! — deb qadah taklif qildi. Uning qadahiga "Bravo" deb oq ichdilar. Uy egalarining taklif qilgan qadahlariga ham xursandchilik bilan ichishdi, bir vaqt podpolkovnik ham, Bekmurodboy ham shirakayf bo'lishib, bir-birlarini quchoqlab, o'pishga tushdilar.

— Men boyman, lekin butun davlatimni "do'stlarimning oyog'i tagiga tashlashga tayyorman!" — dedi Bekmurodboy. — Xonim, xurjunni olib kel!

Bekmurodboy xurjunning ikki ko'zidan ikki dasta asl qorako'l terini olib, mezbonlarning oldiga qo'ydi. Terilarning bir dastasi nuqul kumush rang qorako'l edi. Ikkinchi dastasi esa nuqul oltin rang sur terilardan xillangan edi. Uy bekasi chiroq nurida sirli tovlanayotgan kamyob qorako'l terilarini qo'li bilan silab: — Qanday ajoyib-a! — dedi. — Bunaqasi bozorlarda hech uchramaydi!

— Bular bizga ham bir necha yilda bir uchrasa uchraydi, bo'lmasa yo'q, — dedi Bekmurodboy. — Do'stlarim, sizlarga buyursin! Sizlar uchun men jonimni berishga ham tayyorman.

— Kel, shu saxiyliging uchun yana bittadan ichaylik, — dedi podpolkovnik. Yana ichdilar, yana quchoqlashib o'pishdilar.

— Men sizga sodiqman! — dedi Bekmurodboy qo'lini ko'ksiga qo'yib. — Men sizning do'stingizga do'stman, dushmaningizga dushmanman!

Podpolkovnik Boriskin uning yelkasiga mastlarcha shapatilab:

— Men ham shundayman, boy! — derdi. — Men ham seni yaxshi ko'raman!

— Lekin mening eng yomon dushmanim shu yerda eson-omon yuribdi... Batbalkovnik janoblari uni asrab, boqib yotibdilar...

— Sening dushmaningni men asrab, boqib yotibman?!

— Ha! — deb Bekmurodboy ichidagi dardini aytib, endi yoridi. Uning hikoyasini Xonim uy egalariga tarjima qilib turdi. Bu hikoyaga binoan, Berdi dunyodagi eng yovuz bir odam va bechora Bekmurodboyga benihoya ko'p jabr o'tkazgan dahshatli bir jinoyatchi bo'lib gavdalandi. Boyning sovg'alaridan ko'ngli yumshab turgan podpolkovnik Boriskin bu hikoyani eshitib, Berdiga qarshi qaratilgan g'azabdan ko'zlari chaqnab ketdi:

— Men undaqa itni ertagayoq yo'q qildiraman! — dedi. — Men uni jahannamga jo'nataman!

— Rahmat, badbalkovnik janoblari, rahmat!

Shu kecha Bekmurodboy xotini bilan qamoqxona boshlig'ining uyida yotib qoldi-yu, ertasi kuni bu yerdan xush-u xursand chiqib ketdi.

* * *

Bu orada Sergey ham opasi bilan pochchasini qidirib topgan va ularga bor gapni aytib bergan edi. Temiryo'l ustaxonasida ishlaydigan uning pochchasi Ashxoboddagi yashirin partiya tashkilotining mas'ul kishilaridan edi. Ular katalakday kichkina uychada eshik-derazalarni yopib, ovozlarini pasaytirib so'zlashmoqda edilar.

— Xullas, turkman dehqonlarining orasida ham norozilik kuchayib boryapti, — dedi Sergey. — Chor hukumati urushga kirgandan beri oliq-soliqlar ko'paygan. Hukumat o'n so'm soliq solsa, mahalliy amaldorlar uni yigirma-o'ttiz so'm qilib undirib oladi. Xonavayron bo'layotganlar, yeridan ayrilib, chorakorga aylanayotganlar behisob.

— Sen ana shularni uyushtirib, eng yaxshilarini tashkilotimizga jalb qilishing kerak.

— Men ham shunday qilyapman, Boris Petrovich. Lekin savodsizlik, qoloqlik, tushunmaslik — hammasi juda xalaqit beryapti-da. Boylar, mullalar xalqni itoatkorlikka o'rgatgan. Qanday jabr-zulm bo'lsa, hammasini Xudodan ko'rib, "taqdirimda bori shu ekan" deb ketaveradiganlar ko'p. Bularga sinfiy kurash nimaligini tushuntirish qiyin. Buni o'sha Berdiga o'xshab boylar-u, eshonlar bilan dadil kurashgan kishilar tezroq tushunishi mumkin. Keyin o'ziga o'xshagan kambag'allarning ongini tezroq uyg'otishi mumkin. Berdi va Uzukning tarixlarini Sergeydan eshitgan Boris Petrovich o'ylanib turib:

— Bunday dadil kishilarga ehtiyoj erta-indin yana ham ortadi, — dedi, — Sergey, men seni chaqirtirganimning sababi shuki, podsho hukumati yerli xalqlardan mardikorlikka odam olishga qaror qilibdi. Boylar, albatta, mardikor bermaydi, bu qarorning butun og'irligi kambag'allarning yelkasiga tushadi. Demak, xalq orasida norozilik yana ham kuchayadi. Kuchli g'alayonlar bo'lish ehtimoli bor. Biz bunga hozirdan tayyorlanib borishimiz kerak. Xalq bordi-yu hukumatiga qarshi qo'zg'alsa, unga to'g'ri yo'l ko'rsatadigan ilg'or kishilar kerak.

— Bunday kishilar turkmanlarning orasidan ham yetishib chiqishi kerak, demoqchimisan?

— Ha.

— Yetishib chiqayotganlar bor, lekin oz, Boris Petrovich. Agar o'sha qamoqxonadagi yigit qutulib chiqsa edi... Gap yana aylanib, Berdining ustiga kelgach, Boris Petrovich o'z andishasini aytdi.

— Qamoqxonadagi siyosiy mahbuslar orasida bizning odamlarimiz bor, ular bu yigitning nohaq o'ldirilishiga monelik qilishlari mumkin edi. Lekin siyosiy mahbuslar alohida bo'limda saqlanadi. Sen aytgan yigitni ularga bildirmay bir narsa qilib qo'yishlari mumkin.

— Qamoqxonadan qochirish hech ham mumkin emasmi?

— O'ylab ko'rish kerak. Ba'zan juda kerakli partiya xodimlarini qochirishga ham iloj topilmaydi. Bu-ku, oddiy bir mahbus ekan.

— Oddiy mahbus bo'lgani, balki ishni osonlashtirar?

— Bilmadim, Sergey. Bu sohani mendan durustroq biladigan o'rtoqlar bor. Maslahatlashib ko'raman. Ismini yana bir ayt, eslab olay.

— Berdi Aqi o'g'li.

Boris Petrovich sirni maxfiy tutish uchun Berdining ismini yozib olmadi-yu, o'zicha qayta-qayta takrorlab, yodlab oldi. Sergey zarur ko'rsatmalar olgach, o'sha kuni Egriguzarga qaytib ketdi. Pochchasi unga "Berdini qutqaramiz" deb aniq va'da bermadi. Lekin iloji bo'lganicha urinib ko'rishni zimmasiga oldi.

## BERGAN XUDOGA YOQIBDI

Qamoqxona boshlig'i o'z kabinetida yolg'iz qolib, birpas o'ylanib o'tirdi. Uning oldidagi bir parcha g'ijimlangan qog'ozga "Berdi Aqi o'g'li" deb yozilgan edi. Podpolkovnik bu mahbusning faqat otini biladi, o'zini tanimaydi. Berdi uning uchun qamoqxonada yotgan yuzlab mahbuslarning biri, xolos. Ammo g'ijimlangan qog'oz Bekmurodboyning qimmatbaho sovg'alarini esiga soladi. U boyga va'da bergan.

O'sha kuni ichib o'tirgan paytda bitta xatarli jinoyatchini o'ldirish uncha qiyin tuyulmagan edi. Biroq endi bu va'dani amalga oshirishga kelganda uning boshi qotib o'tiribdi. Albatta, mahbuslarning ba'zisi kasal bo'lib o'ladi, ba'zisi bir-biri bilan yovlashib, yomon ko'rgan kishisini qasddan o'ldiradi. Bekmurodboyning dushmani ham shu tarzda o'lishi mumkin. Lekin boyning aytishiga qaraganda, Berdi juda baquvvat yigit. Uni bo'g'ib tashlaydigan odamni podpolkovnik qayerdan topadi? Uning o'zi, albatta, bunday xatarli ishni qilolmaydi. U mahbuslarga qo'lini tegizishdan ham jirkanadi...

Unga boshqa bir uzun kosov kerak. Kim bu ishni qilishi mumkin? Podpolkovnik qo'l ostida ishlaydigan nazoratchilarni xayolidan bir-bir o'tkazib chiqdi. Ulardan biri yaqinda boshliqqa murojaat qilib mas'uliyati kattaroq ish so'ragan edi. Mas'uliyati katta ish — siyosiy mahbuslar yotgan bo'limda bor. Oyligi boshqa bo'limlarning nazoratchilarinikidan xiyla baland. Vatslov Rankovich degan

bu nazoratchi pulni yaxshi ko'rishini podpolkovnik oldin ham bir sezgan edi. Qamoqxona boshlig'i aniq bir qarorga keldi-yu, eshik oldida turgan navbatchiga:

— Rankovichni chaqir! — deb buyurdi.

Rankovich deganlari oqish yuzli, ozg'in va badqovoq bir polyak yigiti edi. Podpolkovnik uni qarshisiga o'tkazib:

— Haligi iltimosing esimda, — dedi. — Seni boshqa yaxshiroq ishga o'tkazishni mo'ljallab yuribman.

— Qaysi ishga, janobi oliylari, so'rasam mumkinmi?

— O'zing qanaqa ishga o'tishni istaysan? — Podpolkovnik unga sinovchan ko'z bilan tikildi.

— Ochig'ini aytsam, bola-chaqa ko'p, puldan sal qiynalyapman, janob oliylari...

— Oyligi balandroq o'rin siyosiy mahbuslar bo'limidan topilishi mumkin. Buni men yanà aniqlayman... Agar... puldan qiynalayotgan bo'lsang... senga yaxshi pul unadigan bir ishni topshirishim mumkin.

— Eshitaman, janobi oliylari!

Podpolkovnik qaddini Rankovich tomonga egib, ovozini pasaytirib, gapira boshladi:

— Yettinchi kamerada Berdi Aqi o'g'li degan xatarli jinoyatchi yotibdi. Mashhur bir eshonning otini o'g'irlagan, katta bir boyning kelinini olib qochib, nomusiga tekkan, yana boshqa dahshatli jinoyatlar qilgan. Turkmanlarnning qo'liga tushsa, allaqachon toshbo'ron qilib, o'ldirib yuborar edi. Lekin bizning mahkamalar... pora olganmi, rahmdillik qilganmi, ishqilib, besh yilga kesib qo'ya qolgan. Bu xatarli shaxs hademay qamoqxonadan chiqib, avvalgidan battar jinoyatlar qilishi mumkin.

— Beriladigan jazolar haddan ortiq yengil-da, janob oliylari. Bo'lmasa bundaylarni xalqqa ibrat qilib, dorga ossangiz ham haqqingiz ketadi!..

— Ha, balli! Menga xuddi shu fikrni katta bir turkman boyi ham kelib aytdi. "Agar adolat yuzasidan shu jinoyatchini yo'q qilsalaringiz, mening ataganim bor, hammalaringizni xursand qilaman!" — dedi. Xo'sh, sen nima deysan?

Rankovich taraddudlanib qoldi:

— Yettinchi kamerada dedingizmi? U yerda odam ko'proq.

— Odam ko'p bo'lsa, buyruq beraman, bir o'zini yerning tagidagi kameraga olib tushib qo'yasan...

— Keyin men o'zim... uni o'ldiramanmi?

— Sen o'zing unga qo'l urging kelmasa... o'n beshinchi kamerada Oryol[1] degan zo'r bir kallakesar o'tiribdi.

Rankovich allanechuk xavotirlanib:

— Bilaman, Oryolning avvalgi laqabi Qarg'a edi, — dedi. — Lekin u... pichoq ishlatadigan bo'lsa...

— Qo'liga qurol bermaysiz. Qon chiqarmasdan o'ldirish kerak.

— Ko'narmikan?

— Ko'ndirgin-da. Topshiriqni bajarsa, muhlatini qisqartiramiz. "Agar qochishga yordam berasan" desa, bunisiga ham xo'p deng. Keyin bir gap bo'lar.

— Tushundim, janobi podpolkovnik.

— Ammo hamma ish nihoyatda maxfiy qilinsin... Reja amalga oshgandan keyin kirasiz. O'z ajali bilan o'ldi, deb akt tuzamiz...

* * *

Bekmurodboy ekib ketgan ajalning urug'i unib chiqayotgani, ayni vaqtda, yaxshi odamlar unga najot yo'lini izlayotgani Berdiga mutlaqo noma'lum. U tikanli sim bilan o'ralgan qamoqxona ichida nuqul kun sanar, muhlati tugashiga yana necha oy, necha hafta qolganini muttasil hisoblab yashar edi. Oylar, haftalar esa biri-biriga o'xshab, benihoya sekin o'tar, Berdi qarib, chol bo'lib ketguncha qamoqdan chiqolmaydiganga o'xshar edi. Birdan-bir tasalli shu ediki, qamoqxonada unga o'xshab nohaq qamalgan kishilar ham ko'p edi. Berdi ular bilan hasratlashsa, ko'ngli sal-pal taskin topardi. Bugun badqovoq nazoratchi uni mana shu tasallidan ham mahrum qildi — Berdining yolg'iz o'zini yer ostidagi tor, zax kameraga olib tushib qo'ydi. Qamoqxonada Berdi har To'rli millat vakillari bilan birga yotib, birga ishlab, rus tilida chala-chulpa gaplashadigan bo'lib qolgan edi. Nazoratchi uni yer ostida yolg'iz qoldirib ketayotganini ko'rgan Berdi ruschalab:

— Nega bir o'zim? Nega? — deb so'radi.

[1] **Oryol** — Burgut.

— Shoshilma, keyin bilasan, — deb g'uldiradi nazoratchi. U "bilasan" degan so'zni shunday tahdid bilan aytdiki, Berdiga bu "o'lasan!" deganday eshitildi. Berdining yuragi "shuv" etib ketdi. Nazoratchi eshikni sharaqlatib qulflab ketgandan keyin Berdi devorning baland joyiga osilgan xira chiroqqa qaradi. Oyoq osti ham, devorlar ham, shift ham qalin qilib sementlangan. Kichkina tuynukka yo'g'on temir panjara qoqilgan. Berdi sakrab temir panjaradan ushladi-yu, uni butun og'irligi bilan silkitib ko'rdi. Panjara "qilt" etmadi. Nahotki bu yerda uni o'lim kutayotgan bo'lsa? Nahotki u endi yorug' dunyo yuzini ko'ra olmasa? "Yorug' dunyo" deganda Berdi Uzukning go'zal ko'zlarini esladi. Tog'asi Nurmuhammad xayolida gavdalandi. Yax ·ii odamlar hammasi undan uzoqda. Hech kim unga yordam qo'lini cho'zolmaydi. Yolg'izlik unga mana shu zindondan yuz karra mudhishroq ko'rindi.

Birdan eshikdagi qulfga kimdir kalit solgani eshitildi. Berdi dahshatli xavfni oldindan sezganday butun vujudi tarang tortildi. "O'lim xavfini birinchi marta ko'rayotganing yo'q! — degan so'zlar ko'nglidan o'tdi. — Dadil bo'l!"

Eshik ochildi. Boyagi nazoratchi ko'zlari alang-jalang, harakatlari tez, ko'rinishidan ho'kizday zo'r Oryolni kameraga itarib kirgizdi-yu, eshikni yana yopib oldi. Berdi Oryolni qamoqxona hovlisida uzoqdan bir-ikki marta ko'rgan, odamlar uni "juda uchar o'g'rilardan" deyishgan edi. "O'g'ri oladigan mening nimam bor?" deb Berdi o'zining usti-boshiga qaradi-yu, biroz yengil tortdi. Bu zindonda yolg'iz o'tirishdan ko'ra, o'g'ri bo'lsa ham, har qalay, tirik bir hamroh bilan o'tirish ko'ngliga biroz taskin berar edi. Oryolning qo'lida hech narsasi yo'q. U Berdiga boshdan oyoq sinchiklab qarab chiqdi-da, nimasinidir yoqtirmadi.

Nazoratchining aytishiga qaraganda, bu yerda nimjongina bir odam o'tirgan bo'lishi kerak edi. Berdining bo'yi-basti esa Oryolnikidan qolishmaydi. Oryol bitta-bitta qadam tashlab, Berdiga yaqinlashar ekan, niyatini amalga oshirishi qiyinroq bo'lishini o'yladi. U avval Berdini gapga solib ko'rmoqchi bo'ldi.

Ruschalab:

— Bir o'zing bir uyda, ishing zo'r-ku, oshna! — dedi. — Men ortiqchalik qilmaymanmi?

Berdi uning so'zlarini qiyinlik bilan tushundi:

— Bir o'zing yomon! — dedi. — Ikki odam yomon emas! Pojaliska!

Oryolning bir ko'ngli — ishni kechasiga qoldirib, Berdini uxlaganda bo'g'ib tashlash edi. Ammo Berdi undan hech bir yomonlik kutmay beparvo turganini ko'rdi-yu, "hozir birpasda boplab tashlayman" deb o'yladi. U Berdining sodda yuziga kulimsirab qarardi. "Qanshariga bir ursam, boshi sement devorga daranglab tegadi-yu, behush bo'lib yiqiladi, lekin burnidan qon ketishi bor. Qon chiqarmay o'ldirasan, deyishgan edi. Mayli, bunaqasini endi ko'ryapmanmi!.."

Berdi burchakdagi yog'och kursini beriroq surib, hamrohini o'tirishga taklif qilmoqchi bo'layotgan edi, Oryol orqadan borib, uning bo'yniga chang soldi. Juda ko'p priyomlarni biladigan Oryol bir qo'li bilan uni kekirtagidan bo'g'ib, ikkinchi qo'lining qirrasi bilan bo'ynining yo'g'on tomirini mo'ljallab urdi. Buni kutmagan Berdi bir lahza o'zini yo'qotib qo'ydi, nafas ololmay xirillab qoldi. Oryol butun gavdasi bilan uni yelkasidan bosib, bo'ynini ikki qo'llab qismoqda edi. Berdi jon achchig'i bilan siltandi, bo'lmadi. Shu zahoti u qo'llarini yelkasi osha cho'zib, Oryolni bo'yni aralash boshidan ushladi-yu, tez egilib, uni boshidan oshirib yerga otdi. Oryolning qo'li Berdining bo'ynidan chiqib ketdi, o'zi yerga yonboshi bilan tushdi. Ammo Oryol mushukday chaqqonlik bilan sakrab o'rnidan turdi-yu, Berdining qansharini mo'ljallab musht tushirdi. Berdining yuziga tekkan bu mushtning zarbi uni ikki qadam nariga itqitib yubordi. Ammo bu musht Berdini birdan hushiga keltirdi. Hayot-mamoti hozir hal bo'lishini sezgan Berdi o'ziga yana hamla qilib kelayotgan dushmaniga kalla tashladi. Oryol abjirlik bilan o'zini chetga oldi, Berdining peshonasi uning yelkasiga borib tegdi. Shunda Oryol yana uning bo'yniga chang solmoqchi bo'ldi. Lekin Berdi uni turkmanchasiga belidan olib, yonboshga keltirdi-yu, yerga ko'tarib urdi. So'ng butun og'irligi bilan Oryolning ustidan bosib tushdi. Suyak singanga o'xshab bir narsa qirs etdi. Oryolning "oh!" degani eshitildi. U ostini g'ujanak qilib, tizzasi bilan Berdini o'z ustidan otib tashladi. Berdi sement polga orqasi bilan tushib o'tirib qoldi. Oryol o'ng qo'liga tayanib sapchib o'rnidan turmoqchi bo'lgan edi, qo'li gavdasining og'irligiga bardosh berolmay qayrilib ketdi. Uning qo'li bilagidan singan edi, og'rig'iga chiday olmay, naryoqqa ag'ana-

di, chap qo'liga tayanib o'rnidan ko'tarilganda, Berdi uni ko'kragidan tepib yubordi.

Eshikning tirqishidan bu olishuvni sergak turib kuzatayotgan nazoratchi Rankovich eshikni ochib ichkariga kirdi. G'azablangan Berdi Oryolning to'g'ri kelgan joyiga tepar, quloq, chakkasiga mushti bilan urar, Oryol sog' qo'li bilan yuzini to'sib:

— Oh, qo'lim sindi, bas qil, bas! — derdi. Oryolning qo'li chindan ham singanini Berdi endi payqadi-yu, uni tepishdan to'xtadi. Turkmanchalab:

— Meni bo'g'moqchi bo'lgan hamma qo'llaringni sindiraman! — dedi.

Shoshilmay ularning oldiga kelgan nazoratchi Berdiga tikilib:

— Ahmoqsan, — dedi.

Berdi uning nega bunday deganiga tushunolmay, yuziga tikilib qaradi.

— Agar bu sening qo'lingni sindirsa, hozir nima qilar edi, bilasanmi? — so'radi nazoratchi.

— O'ldirardi!

— Sen nega o'ldirmaysan?

— Men yarador odamni o'ldirib o'rganmaganman!

— Bo'lmasa, boshqa safar kelib, bu seni o'ldirib ketadi.

Singan qo'lini osiltirib titrab-qaltirab polda o'tirgan Oryol:

— Yo'q, yo'q, men endi hech kimga tegmayman, menga rahm qilinglar! — deb goh nazoratchiga, goh Berdiga yalina boshladi: — Meni ham onam yaxshi umid bilan tuqqan! Men ham bir vaqtlar sizlarga o'xshagan odam edim!

Oryol kelib nazoratchining oyog'iga yopishgan edi, nazoratchi uni tepib tashladi. Berdiga qarab:

— Qani, tuguningni ko'tar, mushtlashganing uchun endi karserda yotasan! — dedi.

Yer ostidagi kamerada Oryolning bir o'zi qoldi.

* * *

Rankovich podpolkovnikni xoli topib voqeani aytib berdi:

— Chatoq bo'libdi-ku, — dedi podpolkovnik tashvishlanib. — Endi nima qilasiz?

— Turkman yigiti ayiqday zo'r ekan, karserda besh-olti kun och yotsin, darmoni ketgandan keyin bir yog'li qilish osonroq bo'lar. Lekin bu hodisadan siyosiy mahbuslar xabardor bo'lib qolishmasin yana. Janjal bo'lib ketadi.

— Bilaman, janob podpolkovnik. Hamma ehtiyot choralari ko'rilyapti.

— Men senga ishonaman! Endi boshqalarni aralashtirmay o'zing bir yog'lik qil. Oryol nima bo'ldi?

— Biror oy o'sha yer ostida yolg'iz yotsin. Bo'lmasa sirni oshkor qilib qo'yishi mumkin.

— To'g'ri. Agar "yolg'iz yotmayman!" deb to'polon qilsa, menga ayt, aybi bo'ynida, yo'q qilib yuborolamiz!

— Xo'p bo'ladi.

* * *

Bitta odam zo'rg'a sig'adigan tor karserda Berdi yolg'iz o'zi kuniga ikki burda non, bir krujka suv bilan bir hafta turdi-yu, juda darmoni ketib qoldi. U har zamonda faqat o'sha badqovoq nazoratchini ko'rib qolar:

— Sen meni bu yerda ochdan o'ldirishga nima haqqing bor? Men arz qilaman! — deb baqirar edi. Ammo uning ovozini hech kim eshitmasdi. Oxiri bir kun yarim kechada karser eshigi sekin ochildi-yu, Rankovich paydo bo'ldi.

Berdi uxlamay o'tirgan edi. Rankovich unga yaqinlashib, past tovush bilan:

— Shu yerdan tirik chiqib ketishni istaysanmi? — dedi.

Berdi indamay unga tikilib qoldi.

— Istaysan, albatta, — dedi nazoratchi o'z savoliga o'zi javob berib. — Agar tirik qolishni istasang, men nimaiki desam, shuni so'z qaytarmasdan darhol bajo keltirasan.

— Hozir, — dedi-da, nazoratchi eshikdan chiqib ketdi. Ko'p o'tmay taxtadan yasalgan uzun bir narsani ko'tarib kirdi. Berdi buning ruslarda o'lik solib ko'miladigan tobut ekanini ko'rdi-yu, qo'rqib ketdi. Nazoratchi unga:

— Qani, endi, sekin mana shuning ichiga kirib yot, — dedi.

— Yo'q, yotmayman! Sen meni aldayapsan!

— Menga ishonmaslikka haqqing bor. Lekin yana aytaman, agar tirik qolay desang shu tobutga o'z ixtiyoring bilan kirib yot. Bo'lmasa, bu yerda sen baribir o'lasan. Keyin bu tobutda o'liging chiqariladi... Tushundingmi, yo'qmi? Yot!

— Yotmayman! Men o'z ixtiyorim bilan go'rga kiradigan ahmoq emasman!

Berdi nazoratchi bilan olishib ketdi. Ammo, uning ilgarigi kuchi yo'q edi. Badanini sovuq ter bosib, nafasi bo'g'ziga tiqila boshladi. Nazoratchi tashqariga bir lahza quloq solib turgach, ovozini pasaytirib:

— Agar istasam, men hozir seni o'ldirib olib chiqib ketaman! — dedi. — Lekin men buni istamayman. Tushundingmi? Tobutga kirib yot, tezroq! Keyin bilasan. Yot!

Berdi unga ishonishini ham, ishonmasligini ham bilmas edi. Bu odamning shivirlab gapirishida kishini umidlantiruvchi bir ma'no bor.

— Tavakkal! — dedi Berdi va tobutga kirib yotdi. Nazoratchi tobutning qopqog'ini yopib, ustidan mix qoqayotganda Berdi bir "dod!" deb o'rnidan turib ketgisi keldi-yu, ammo tishini tishiga qo'yib, o'zini bosdi. Rankovich allaqachon Berdining "o'z ajali" bilan o'lganligi haqida akt tuzdirib, podpolkovnik bilan birga qog'ozlarini tayyorlatib qo'ygan, shaharning bir chetidagi qabristonda "marhum" uchun qazilgan go'r ham tayyor turar edi. Chipta qanorga solingan og'ir tobut aravada silkina-silkina qamoqxona darvozasidan chiqdi-yu, qabristonga qarab yo'l oldi. Tobut ichida qiynalib nafas olayotgan Berdini go'r oldida aravadan tushirayotganlarida bir necha kishining ruscha ohista gaplashgani eshitildi. Bularning biri yoshgina ayol ekanini Berdi uning mayin tovushidan payqadi. Tobut solingan qopni kimdir o'tkir pichoq bilan kesa boshladi...

## KUYOVLIK AZOBI

Xuddi shu daqiqalarda Qoraqum sahrosining olis bir chekkasidagi uychada Turdi, Olloquli va Qilichli uchalasi Go'ro'g'li dostonidagi Og'ayunus pari to'g'risida gaplashib o'tirar edilar.

— Qilichli og'a, siz madrasada ham o'qigansiz, — dedi Turdi. — Shu Go'ro'g'lilar, Yunus parilar, qanot chiqarib uchadigan G'irotlar aslida bo'lganmikan, yo hammasi ertakmikan?

— Kim biladi, uka. Men o'zim ko'rgan emasman. Madrasada she'r kitoblarni ko'p o'qiydigan bir mullabachchani bilar edim. O'sha: "agar yarim kechada hujrada bir o'zing o'tirib, Navoiyning "Xamsa"sini baland ovoz bilan o'qiyversang, parilar keladi" der edi. Chindan ham shundaymi yo Shirinlar, Laylilar haligi mullabachchaning xayolida pariga aylanib ketib, ko'ziga ham pari bo'lib ko'ringanmi, aytolmayman.

Olloquli e'tiroz qildi:

— Mullalar "bir yelkangda rahmon o'tiradi, bir yelkangda shayton o'tiradi, lekin buni o'zing ko'rmaysan" deyishadi-ku. Shunga qaraganda parilar ham atrofimizda yurgandir-u, biz ko'rmasmiz.

— Lekin Go'ro'g'liga o'xshagan botir odamlar turkmanlarning orasida bo'lgan, — dedi Qilichli. — Buni men eshitganman.

— Qani edi, mening ham, o'shanaqa G'irotim bo'lsa, qirq gaz joydan kesadigan qilichim bo'lsa, — dedi Turdi armon to'la tovush bilan. — Hozir borib Bekmurodboylarni qiyratar edim, bu yoqdan Uzuk opamni, u yoqdan Berdini qutqarib olar edim-u, keyin...

— Keyinchi? — so'radi Qilichli. — Keyin Yunus parini izlab ketarmiding?

O'n sakkizga kirib, qizlar haqida ham ko'p o'ylaydigan bo'lib qolgan Turdi uyalib yerga qaradi:

— Pari bo'lmasa ham, ishqilib o'zimga yarasha bir qiz uchrab qolsa...

Qilichli kulib, Turdining gapini ma'qulladi:

— To'g'ri aytasan, uka, nasiyasidan naqdi yaxshi. Hurlar hammasi qiyomatdan keyin bo'ladigan nasiya gaplar. Maxtumqulining jiyani shoir Ziloli aytgan ekan:

"Mullalarga berdim nasiya jannatni, menga shu naqd jahon o'zi yetarlik".

Olloquli og'ir tin olib:

— Ha, bu sahrolarda qochib yurib, oilalarimizdan ham begona bo'lib ketdik, — dedi. — Sen baxtiyorsan Qilichli, Obodon bilan

birgasan... Olloquli bulturdan beri xotini Jayronni biror marta ham ko'rmagan edi...

— Sen nega bunday qilasan? — dedi Qilichli. — Kechasi yashirincha bo'lsa ham borib xabar olib qo'ysang bo'lmaydimi?

— Xotinim uyimda o'tirgan bo'lsa-ku, haligacha necha marta borib, xabar olar edima. O'sha yalmog'iz Enaquti Jayronni uyiga olib ketib qolgan.

— Nega olib ketadi?

— Axir Enaquti Jayronning o'gay onasi emasmi? Mening qaynonam ilgari o'lib ketgan, keyin Jayronning otasi Enaqutiga uylangan. Bechora qaynatam odamga qayishadigan insofli kishi edi. Bultur u ham o'ldi. Endi Jayron butunlay Enaqutining qo'lida qoldi. Bir kun kechasi borgan edim, Enaquti kirgizmadi.

— Nega?

— Hali qizga to'lanadigan qalinning yarmini to'laganim yo'qda. Xotinim "qaytarma" bo'lib ketgan edi. Shu "qalin", "qaytarma" degan odatimiz ham bema'niku-ya! — dedi Qilichli. — Hammasi kambag'al odamlarning qo'l-oyog'ini bog'laydi. Boylarga nima? Qancha qalin kerak bo'lsa, to'laydi-yu, xotinning qo'ynida yotaveradi. Kambag'al bechora endi uylanib, turmushini sozlayman deganda, "qaytarma" boshlanadi. Xotini otasinikiga qaytib ketadi. Kuyov to qalinning qolganini to'lamaguncha o'sha yerda o'tiradi. Koshki qalin to'lash oson bo'lsa? Yosh juvon ikki yillab, uch yillab otasinikida tul xotinga o'xshab qolib ketadi-ya!

— Ba'zi vaqt shu sababli oraga sovuqlik tushib, ish qo'ydi-chiqdiga aylanib ketadi,— dedi Olloquli.

— Men mana shundan qo'rqaman.

— Endi sen Enaqutidan ehtiyot bo'l, uka. Enaquti pul uchun hech balodan qaytmaydigan ayol. Eshonlarning dargohi ham juda iflos dargoh, men bilaman. O'sha yerda O'g'ilnozik degan yoshgina qizchaning tuzoqqa tushganini men o'zim ko'rganman.

Olloquli bezovtalanib o'rnidan ko'tarildi:

— Nima qilishim kerak? Qilichli og'a, maslahat bering. Bu qochqinlik ham, kambag'allik ham jonimga tegdi. Turdi ikkalamiz tavakkal qilib, Bekmurodboylarnikiga bostirib borsakmikan? Yo o'lamiz, yo qutulamiz?..

— Yo‘q, uka, hali shoshmanglar. Men o‘sha to‘g‘onda ishlaydigan Sergey bilan gaplashib yuribman. Aytishiga qaraganda, hamma kambag‘allar bir taraf bo‘lib, zolimlarga qarshi qurol ko‘tarib chiqadigan zamon ham yaqin kelyapti. Ungacha biz bor kuchlarimizni ehtiyot qilishimiz kerak.

— Bo‘lmasa, nima qilay?

— Biz Turdi ikkalamiz senga yordam beraylik. Sen xotining bilan bir uchrashgin. Ahvolni unga tushuntirgin.

— Kelinchaklar erlari bilan yashirincha uchrashadigan odatimiz ham bor-ku, axir,— dedi Turdi. — Sen nega shu odatdan foydalanolmaysan, Olloquli?

— Bu la’nati Enaqutining o‘toviga yaqin borib bo‘lmaydi. Eshakday-eshakday ko‘ppak itlari bor.

— Bir iloji topilar, — dedi Qilichli. — Sen kechasi Jayronning qayerda yotishini bilasanmi?

— O‘tovning to‘rida uxlasa kerak-da. Enaquti eshikka yaqin joyda uni qo‘riqlab yotadi.

— O‘tovning derazasi yo‘qligi ham chatoq, — deb qo‘ydi Turdi.

— Mayli, boshqa bir yo‘li bor, — dedi Qilichli. — Qani, yuringlar.

* * *

Uch yigit tun yarimdan oqqanda sekin Enaqutining o‘toviga yaqinlashdilar. Yilt etgan chiroq ko‘rinmaydi, hamma yoq suv quyganday jimjit. Enaqutining Qoraboy degan ko‘ppagi kecha eshonlarning og‘ilida bo‘g‘ilib harom o‘lgan bir novvosning go‘shtidan ko‘p yegan, hozir o‘tov eshigining og‘zida mudrab yotar edi. Uch yigit nafaslarini ichiga olib, sharpalarini itga sezdirmay, o‘tovning orqa tomonidan keldilar. O‘tovning kigizlari keraga degan yog‘och “qovurg‘a”lar ustiga yopiladi. Keragani esa “terim” deb ataladigan og‘ir yog‘och o‘q tutib turadi. Uch yigit sekin o‘tovning terimidan ushlab, uni bor kuchlari bilan ko‘tardilar. O‘tovning keragalari qirsillab bir tomoni yerdan xiyol ko‘tarildi.

— Kir tezroq! — shivirladi Qilichli Olloquliga.

— Keyin qanday chiqaman? — Qo‘rqib so‘radi Olloquli.

— Biz yana kelamiz. Kir!

Olloquli yerdan uzilgan keraganing tagidan ichkariga emaklab kirayotganda bahaybat qora it yo'g'on ovoz bilan vovillab yetib keldi. Qilichli oyog'i bilan itni bir tepdi — bo'lmadi. It yana hamla qildi. Qilichli beixtiyor terimni qo'yib yubordi. Turdining bir o'ziga og'irlik qilgan keraganing ayri yog'ochlari yerga tushib ketdi va Olloqulini ikki oyog'ini qisib qoldi.

Qora ko'ppak Qilichlining yuziga sapchidi. Shunda Qilichli uning bo'ynidan mahkam ushlab, bo'g'a boshladi. Ichkarida uxlab yotgan Enaquti ham, Jayron ham uyg'onib ketgan edilar. Enaquti chopib tashqariga chiqdi.

— Hay, kim?! Nega itimni bo'g'ayapsan? Qo'yvor!

Qilichli bo'g'ilib xirillayotgan itni o'tovdan naryoqqa uloqtirdi.

— Enaquti xola, baqirmang! — dedi entikib.

— Kimsanlar?

— Biz kuyovingizni olib keldik. Olloqulini olib keldik! Kuyovlamakka[1] keldik, shovqin solmang!

— Kerak emas menga bundaqa o'g'ri kuyov. Birovlarning otini o'g'irlab gumdon bo'lib ketdi! Bir yildan beri bir tiyin qalin to'lamaydi!

Enaquti bu gaplarni hang-mang bo'lib jim turgan Turdiga qarab gapirmoqda edi. Qorong'ida u Turdini Olloquli deb o'ylamoqda edi. Qilichli buni sezib, ichkariga kirgan Olloqulini yashirishning yo'lini topdi.

— Ha, bu kuyovingiz sizdan juda uyalib yuribdi, deb Turdini ko'rsatdi. — Lekin sizdan kechirim so'raydi... Kechirim so'ra tezroq!

Turdi ovozini Olloqulining tovushiga o'xshatib:

— Kechirasiz, onajon! — dedi. Sizlarni ko'pdan beri ko'rolmadim. Sog'indim!

— Nima olib kelding? — dedi Enaquti.

Olloquli xotiniga biroz qand-qurs tugib kelganini Turdi ko'rgan edi.

— Hozircha biroz shirinlik olib keldim, — dedi.

---

[1] **"Kuyovlamak"** — qaytarma bo'lib kelgan kelinchak bilan erining yashirincha uchrashuvi turkmanchada shunday deb ataladi.

— Kerak emas menga shirinliging! Qalinning qolganini olib kelmasang qo'ymayman, degan edim-ku. Ketinglar bu yerdan. Ketinglar! Bo'lmasa dod deyman, odamlarni chaqiraman! Ketinglar!

Tashqarida bu to'polonlar bo'layotgan paytda yarmi o'tovning ichkarisiga kirib qolgan Olloquli xotiniga qo'lini cho'zdi. Qorong'ida qo'liga Jayronning etagi ilindi:

— Jayron, jonim, qo'rqma! — deb shivirladi Olloquli.

Jayron engashib, yuz tuban yotgan erini paypaslab topdi.

— Voy, sizmidingiz? — shivirladi Jayron. — Nega bunaqa qilib yotibsiz?

— Oyog'imni terim qisib qoldi.

Jayron shoshib kelib, keragani bir silkitib ko'rdi. Uch yigit zo'rg'a ko'targan og'ir terimni uning bir o'zi joyidan ham qimirlata olmadi.

— Oyog'ingiz lat yedimi? — so'radi Jayron erining yuziga yuzini yaqinlashtirib.

— Yo'q. Faqat tortib ololmayapman.

— Sho'rimiz qursin! — deb qo'ydi Jayron.

Tashqarida Enaquti hamon Qilichlilarni "ketinglar-chi, ketinglar!" deb quvmoqda edi. Jayronning to'shagi Olloquli yotgan joydan ancha narida edi. Hozir Enaquti kirsa, Olloqulini ko'rib qoladi. Jayron darrov o'zining to'shagini Olloquli yotgan joyga olib kelib to'shadi-da, uning ustiga ko'rpasining bir chetini yopib qo'ydi. Olloqulining oyoqlari "tuzoq"da bo'lsa ham, qo'llari bo'sh edi. U Jayronni belidan olib, o'ziga tortdi:

— Jonim! Senga yetadigan kun ham bor ekan! Yaqinroq kel, bir bag'rimga bosay!

Jayron yuzini uning yuziga qo'yib, bo'ynidan quchoqladi:

— Muncha yo'q bo'lib ketdingiz? Men xavotirlanib yurgan edim.

— Xavotirlanma. Nasib bo'lsa, bu kunlar hali esimizdan chiqib ketadi. Men...

Shu payt Enaquti Turdilarni jo'natib, o'tovga kirib keldi:

— Iloyo, bundaqa kuyovni yer yutsin! Kuyovlamakka kelgan emish-a! Sendaqa xasis kuyov bilan yotadigan qizim yo'q... He, iloyim qoralaring o'chsin! Uyqumni qochirib yubordi-ya! Jayron,

gugurt qayerda? Bitta chilim chekib yotmasam endi uyqum kelmaydi!

Jayron sakrab turdi. Qorong'ida paypaslanib chilimni qidirar ekan:

— Muncha qarg'amang bechorani, — dedi. — Quvib yubordingiz-ku, bo'ldi-da!

— Ha, sen ham jon deb turgan ekansan-a! Chiroqni yoq!

Olloquli hozir sir fosh bo'lishini sezib taxtaday qotib qoldi.

— Chiroq nima kerak, oyi, hozir chilimni topib beraman.

— Sen yoqmasang, men o'zim yoqaman! — dedi Enaquti va yostig'ining tagidan gugurt olib chaqdi. Jayron shoshib uning qarshisiga bordi-da, Olloquli yotgan tomonni undan to'sdi:

— Ana, chilim... orqangizda turgan ekan, — dedi Jayron va gugurtni puflab o'chirdi.

— Ha, juvonmarg. Nega o'chirasan?!

— Qorong'ida chilim chekkaningizni bitta-yarimtasi ko'rib qolsa, uyat qiladi. Axir siz Saidahmad eshonga qo'l bergan so'fi xotinsiz!

— Sen menga o'rgatma! Eshik yopiq turibdi. Hamma uxlab yotibdi. Kim ko'radi?

Enaquti axiyri chiroqni yoqdi, chilimning sarxonasiga cho'g' solib, bir-ikki tortdi-yu, to'satdan Jayronning to'shagi boshqa joyga borib qolganini, yana tag'in ichida odam borday do'mpayib turganini ko'rdi. Nihoyat, terimning tagida qisilib yotgan erkakcha oyoqlarga ham ko'zi tushdi.

— Iye, bu nima? — deb Enaquti borib, ko'rpani ochib yuborgan edi, haligacha yuz tuban yotgan Olloquli boshini ko'tardi: — Ha, battol! — Qichqirdi Enaquti. — Meni aldamoqchi ekansanlar-da! Bu juvon o'lgur nega chiroqni yoqtirmaydi desam, bu yoqda erchasi qo'yniga kirib olgan ekan-da!.. Hu, basharang qursin! Tur, jo'na! Jo'na tezroq!

— Turolmayman, axir, oyog'imni ko'rmayapsizmi! — deb g'o'ldiradi Olloquli.

Enaquti uni terim qisib olganini endi ko'rdi-yu:

— Battar bo'l! — dedi. — Xasis kuyovning jazosi shu! Bir yildan beri qalinning yarmini ham to'laganing yo'q, endi jazongni tort!

— Meni xasis deysiz, mening sizdan ayayotgan davlatim bormi? — deb, Olloquli qaynonasini yaxshi gap bilan yupatmoqchi bo'ldi. — O'zim tuhmat balosiga qolib, qochib yuribman. La'nati boylar kun bermayapti!

— Buning ustiga yana siz o'lganning ustiga chiqib tepganday qilyapsiz! — dedi Jayron endi eriga yon bosib. — Undan ko'ra terimni ko'tarishib yuboring, bechora oyog'ini bo'shatib olsin!

— Ko'tarishmayman! Yotsin shunday! Odamlar hammasi kelib ko'rsin!

— Qanaqa noinsof xotinsiz! — dedi Olloquli birdan g'azabi kelib. — Bo'lmasa borib, Bekmurodboylarga xabar bering, kelib meni tutib olsin! Sibir qildirsin! Niyatingiz shu bo'lsa, boring!

— Sen menga o'rgatma, men nima qilishimni o'zim bilaman! — deb Enaquti parvo qilmay, chilimini qurullatib tortaverdi.

Jayron itning yana hurayotganini eshitib, tez tashqariga chiqdi. Turdi bilai Qilichli yaqin bir joyda poylab turishgan ekan. Jayron ularni imlab chaqirib oldi-yu, uchovlashib terimning tagidan Olloqulining oyog'ini chiqarib olishdi. Olloquli ma'yus bo'lib turgan Jayronga armon to'la ko'zlar bilan qaradi:

— "Kambag'alning og'zi oshga yetganda burni qonaydi" deganlari bo'ldi. Ko'ngling cho'kmasin, Jayron. Bizning yelkamizga ham oftob tegib qolar.

— Qani, gapni ko'paytirmay, jo'na tezroq. Agar juda xotiningni sog'ingan bo'lsang, qalinning qolganini keltirgin-u, olib ketgin.

— Siz imoningizni ham pulga sotadiganga o'xshaysiz, — dedi Olloquli qop-qora, semiz Enaqutiga nafrat bilan tikilib. — Lekin bilib qo'ying, Jayron uchun qalin olishga sizning haqqingiz yo'q. Buni tug'ib o'stirgan onasi tirik bo'lganda, bugun siz qilgan noinsoflikni qilmas edi. Siz hozir menga ham, Jayronga ham o'gaylik qildingiz!

— Yo'qol!

— Bo'pti, men hozir ketaman. Jayron, sen bu xotindan ehtiyot bo'l.

Jayron ko'ziga yosh olib:

— Nima qilay, otamni ham menga Xudo ko'p ko'rdi! — dedi. — Siz ham... yo'qsiz...

— Mayli, hozircha bu xotin bilan turib tur. Lekin qaynona bo'lmishim, siz bir narsani qulog'ingizga quyib oling: men xavf-xatarga o'rganib ketgan odamman. Mening jonim ko'zimga ko'rinmaydi, faqat mana shu Jayron doim ko'zimning oldida turadi. Agar bunga bir gap bo'lsa, javobini siz berasiz! Mabodo xiyonat qilsangiz, tirik qolmaysiz!

— Do'q qilma, qo'rqitadigan odaming boshqa!

— Xayr, Jayronim, yaxshi qol! Meni unutma. Nasib bo'lsa, bu qora kunlar ham boshimizdan ketar...

— Xayr, o'zingizni ehtiyot qiling!

## TULKISIGA YARASHA TOZISI

Saidahmad eshonning kichik xotini O'g'ilnozik haligacha Enaqutidan qo'rqadi. O'shanda O'g'ilnozik Uzukning Berdi bilan qochib ketishiga yordam berganligi hali ham Enaqutining esida turibdi. Har zamonda bu badnafs xotin O'g'ilnozikka duch kelib qolsa:

— Eshon hazratlarining tabarruk to'nlari o'sha sayoqlarda ketdi-ya! — deb qo'yadi. O'g'ilnozik unga kiyimlari yoki taqinchoqlaridan birortasini beradi-yu, bir oy-yarim oy tinch yuradi. Keyin Enaquti uni holi topib yoniga keladi-yu, shivirlaydi.

— O'sha sirni Eshonbuva sezganmilar, tushlarida ayon bo'lganmi, kecha mendan so'rab qoldilar. Lekin men aytmadim. Menga ishonadilar-da. "Sen hech narsani sezmagan bo'lsang, demak, xotirjamlik ekan" dedilar.

O'g'ilnozik unga yana bironta qimmatbaho narsasini beradi. Bora-bora bu hammasi O'g'ilnozikni juda jonidan to'ydirdi. O'zini taqvodor ko'rsatib yurgan bu xotinning fe'li-atvorini eshonning o'zi bilarmikan? Eshon bilan uning o'g'lini bir-biriga chaqib, oralarini buzgan va Cherkezning bu dargohdan ketib qolishiga sabab bo'lgan yosuman — mana shu Enaquti ekanini eshon ham, eshonoyim ham bilmaydi. Buni faqat Cherkezning kichik xotini

uncha-muncha sezgan ekan, bir kun O'g'ilnozik bilan gaplashib o'tirib, dardini aytib qoldi:

— Bu qora qo'ng'iz mening erimni haligi Uzuk degan juvonga qo'shmoqchi bo'lgan ekan-a!

— Ha, Uzuk mening o'zimga aytib bergan edi. Undan oldin Cherkez eshonning otalari Uzukka chang solaman, deb yuzlari timdalanganini men o'zim ko'rgan edim.

— Erim shaharga ketayotib, menga hammasini aytib ketdi. Eshonning yuzini kim timdalaganini Enaquti ham bilar ekan. Buni kelib, erimga aytibdi. Erim Uzukka xushtor bo'lib soqolini olib tashlaganini otasiga borib aytibdi. Butun urish ana shundan chiqibdi. Mana endi ota-bola yuz ko'rishmas bo'lib ketdi. Bu yerda biz bevaga o'xshab o'tiribmiz.

— Bu sirni eshonga aytib beradigan odam yo'q-da, — dedi O'g'ilnozik.

— Siz, eshon hazratlarining xotinlarisiz-ku, nega aytmaysiz?

— Menga ishonmaydi.

— Bo'lmasa, isbot qiling.

— Qanday isbot qilaman?

— Enaquti ilgari qo'shmachilik qilib yurgan bo'lsa, eri o'lgandan beri o'zi o'ynash o'ynaydigan bo'lgan.

— Nahot? Shu qora qo'ng'izga kim o'ynash bo'la qoldi ekan? Men ishonmayman!

— Ishonmasangiz kechasi men sizga ko'rsataman.

— Mayli, bir ko'ray-chi...

Kechasi hamma uxlaganda Cherkezning kichik xotini O'g'ilnozikni hovliga boshlab chiqdi. Ikkovi sekin devorning zihi bilan yurib o'sha mashhur "egalik" hujraga yaqinlashdilar.

Eshik tirqishidan xiragina yorug' tushib turar edi. Ichkaridan Enaqutining qitig'i kelganday qiqirlab kulgani eshitildi.

— Ol, jonim, avval qorningni to'ydir. Men senga yaxshi ko'rgan ovqatingni olib keldim, — derdi u kimgadir. Yo'g'on erkakcha ovoz eshitildi:

— Yangi etik bilan to'n olib beraman degan eding-ku!

— Etik ham, to'n ham olib beraman. Lekin juda olifta bo'lib ketsang, eshon shubhalanib qoladi.

— Eshonni qo'y. Men olifta bo'lib ketsam, Eshonoyimlar hushtor bo'ladi deb qo'rqasan. Lekin qo'rqma. Menga mana shu sendan issiqqina, yumshoqqina...

— Hay, sekin... sekinroq...

O'g'ilnozik erkakni ovozidan tanidi. Bu hovlida eshonga qo'l berib murid bo'lib yurgan Qovoq laqabli bir shayx bor edi. Dunyoda ikkita xunuk odam bo'lsa, biri shu. O'zi o'lguday badnafs. Kecha-yu kunduz yotib yesa ham to'ymaydigan odam. Qozon-tovoqqa aralashib yuradigan Enaquti uni eshon hazratlarining sergo'sht ovqatlari bilan boqib, o'ziga el qilib olgan edi. Ikki juvon "egalik" hujrada bo'layotgan hayosiz gaplarga birpas quloq solib turgandan keyin:

— Endi ishondingizmi? — dedi Cherkezning xotini.

Uylariga qaytib ketayotganlarida:

— Men-ku, ishondim-a, — dedi O'g'ilnozik. — Biroq, Eshonni qanday ishontiramiz?

Ikki jabrdiyda juvon endi shu to'g'rida kengasha boshladilar.

— "Har joyning tulkisini o'zining tozisi bilan ovla", degan maqol esimga tushdi, — dedi O'g'ilnozik. — Biz ikkovimiz ham bu yerning tozilaridan emasmiz. Lekin katta oyimga aytsak...

— Ha, katta oyim yolg'iz o'g'illaridan ajrab juda alamzada bo'lib yuribdilar. Buning bir sababchisi Enaquti ekanini bilsalar, alamlarini olmay qo'ymaydilar.

Oradan besh-olti kun o'tgandan keyin Qovoq bilan Enaquti yana o'sha "egalik" hujraga kirib ketganini O'g'ilnozik ko'rib qoldi-yu, darrov Cherkezning kichik xotiniga aytdi. Cherkezning xotini esa katta oyimning oldiga chopib borib, butun voqeani aytib berdi. Yarim kechada katta oyim kelini bilan "egalik" hujraga bostirib borib, Enaqutini gunoh ustida tutdi. Enaquti oyimning oyog'iga yiqilib, tavba qildi, ammo natija chiqmadi.

Cherkezning xotini katta oyimga Enaqutining avvalgi ig'vogarliklarini, Cherkez bilan Eshonbuvani bir-biriga gij-gijlab, ikki orani qanday buzganini aytib bergan edi. Enaqutining buzuqligiga isbot topgan katta oyim endi uning ig'vogarligiga ham shubha qilmas edi. U voqeani eshonga yig'lab aytib berdi-yu:

— Bu yosumanni dargohimizdan quvlamasangiz, men rozi emasman! — deb turib oldi: — Bu sharmandaning aybini hamma bilsin, toki ibrat bo'lsin!

— Shoshmang, oyim, ko'p qattiq ketmang, — dedi Eshon. — Men o'zim bir gaplashay-chi. Hozircha bu gaplarni hech kimga aytmanglar. Enaquti bizga sirdosh murid!

Eshon ertalab joynamoz ustida tasbeh o'girib o'tirgan paytda Enaquti kirib uning oyog'iga yiqildi:

— Pirim, meni shayton yo'ldan urdi, gunohimdan kecching!

— Zino — dunyodagi eng yomon gunoh. Bu gunohni kechirib bo'lmaydi!

— Qandoq qilay, pirim! Axir hammamiz ham xom sut emgan bandamiz! Bir vaqtlar o'zingiz ham...

Enaquti boshini ko'tarib, eshonning bir vaqtlar tirnoq izidan yara bo'lgan yuziga qaradi. Eshon bu qarashning ma'nosini tushundi-yu, shaxti qaytdi:

— Axir siz ayol kishisiz!

— Boshimda erim bo'lmasa...

— Eringiz bo'lmasa, birorta musulmonning nikohiga o'ting!

Enaqutiga jon kirdi:

— Pirim, biz ham Qovoqshayx bilan shu to'g'rida gaplashib o'tirgan edik... Katta oyimga boshqacha ko'rinibdi. Siz mening xaloskorimsiz, pirim!

— Bo'lmasa boring, o'sha Qovoqshayxga ayting, mening oldimga kirsin.

Isqirt kiyingan ho'kiz taxlit Qovoqshayx eshonning oldiga qo'l qovushtirib kirib keldi. Eshon uni harom yo'lga yurgani uchun rosa urishdi, do'zaxda qanday azob tortishini vahimali qilib aytdi.

— Endi bu gunohni yengillatishning birdan-bir yo'li, o'sha ayolni nikohlab olish! — dedi Eshon.

Qovoqshayx Enaquti bergan shirin taomlarga uchib, u bilan shunchaki o'ynashib yurar edi-yu, ammo unga uylanishdan qo'rqar edi.

— Pirim, men... men bunday gunohni ikkinchi qilmayman. Ont ichaman, qasam ichaman!

Ammo eshon o'z gapida turib oldi:

— Agar shu gapingiz rost bo'lsa, siz o'sha ayolga uylanishingiz kerak. Ana unda bunaqa harom yo'lga yurmaydigan bo'lasiz! Enaquti sizni mahkam ushlaydi!

Bechora Qovoqshayx qopqonga tushgan edi. Oradan ikki kun o'tar-o'tmas Enaquti bir tovoq osh qilib, to'rtta mo'ysafidni chaqirdi. Eshon uni Qovoqshayxga nikohlab qo'ydi. Enaquti o'zida yo'q xursand edi. Katta oyim buni ko'rdi-yu, kechasi bilan Eshonga uyqu bermay nolib chiqdi:

— Baliqni jazolayman deb daryoga tashlabsiz.

— Axir shariatda ham bundan boshqa yo'l yo'q!

— Shunday buzuq xotin bizning dargohimizda yurishi to'g'rimi?

— Nima qilaylik, bizga ham shularday sodiq muridlar kerak.

— Sodiq emish! Sizni o'g'lingizga yomonlab, o'g'lingizni sizga yomonlab, hamma ko'ngilqaroliklarga mana shu buzuq xotin sabab bo'lgan...

— Kim aytdi?

Katta oyim "kelinim aytdi" deb o'tirmadi-yu, gapni lo'nda qilib:

— Cherkezjondan eshitdim, — dedi. — O'g'lingizni yo'ldan urib, Bekmurodboyning keliniga qo'shmoqchi bo'lgan odam mana shu — Enaquti ekan.

— Unchalik emasdir-e!

— Ha, siz yana o'sha yalmog'izning tarafini oling! Sizning ham tilingiz qisiq, bilaman! Birovlarga suyuqlik qilib, yuzingiz yulinganini eshitganmiz!

— Yolg'on! Kim aytdi senga bu gapni?

— Cherkezjondan eshitdim. Cherkezjonga buni o'sha Enaquti aytgan ekan!

Saidahmad eshon o'g'lining o'shanda butun sirdan xabardor odamga o'xshab piching qilganlarini esladi. Bu sirni faqat Enaquti aytishi mumkin edi.

— Obbo, yosuman-ey! Menga ham... tuhmat qilibdi-da!.. Mayli, oyim, sizning ham so'zingiz yerda qolmasin. Buning bahridan o'tmasa bo'lmaydiganga o'xshaydi...

Saidahmad eshon Enaqutidan osonlikcha qutula olmasligini bilar edi. Bu dargohning hamma sir-u asrorini biladigan Enaquti eshon bilan o'chakishsa, yana ko'p yomonliklar qilishi mumkin

edi. Shuning uchun Saidahmad eshon Enaqutini yaxshilikcha ketkizmoqchi bo'ldi.

Bu yerdan qirq chaqirimcha joyda Saidahmad eshon Qadamjo deb e'lon qilgan bir mozor bor edi. Bu mozorning shayxi yaqinda o'lgan, uning o'rnini oladigan odam topilmay turar edi. Saidahmad eshon Enaquti bilan Qovoqshayxni mana shu qadamjog'a tavsiya qildi.

— Ikkovingiz ham mening muridlarimsizlar, — dedi. — U mozorot juda ulug' joy, odamlar ko'p keladi. Xususan, farzand ko'rmayotganlar o'sha yerni ziyorat qilib farzand topadi.

Enaquti o'sha Qadamjog'a suvday oqib keladigan nazr-niyozlarni ko'z oldiga keltirdi-yu, eshonning taklifini hech ikkilanmay qabul qildi. Shunday qilib, O'g'ilnozik axiyri bu xotindan qutuldi.

## QABRDAN TIRIK CHIQQANMI?

Tungi poyezd Ashxoboddan Mariga kelib, birpas to'xtadi-da, Toshkentga o'tib ketdi. Poyezddan tushgan yigirma-o'ttiz yo'lovchi har qayoqqa tarqab ketdi. Faqat bo'yi novcha bir turkman yigiti qayoqqa borishini bilmaganday daraxt panasida ikkilanib turib qoldi. Stansiyadan sal narida yorug' tushib turgan peshayvonlik bir joy ko'rindi. Odamlar kirib-chiqib turgan bu joy choyxona edi. Yigit choyxonaga qarab yurdi. Choyxonaga kirib, bir choynak choy oldi-da, qorong'iroq burchakka borib o'tirdi. Choyxonachi chol uning oldiga choynak-piyola keltirib qo'yar ekan:

— Poyezddan tushdingizmi, mehmon? — deb so'radi.

— Ha.

— Yotib qolaman desangiz joy topiladi.

— Rahmat, mening boradigan joyim bor. Lekin qaysi tomondaligini o'zim ham bilmayman.

— Maridami? Qaysi ko'chada?

Yigit aytdi. Choyxonachi o'ylanib turib:

— E, u... siz aytgan ko'chada o'ris masterovoylar turadi-ku, — dedi. — U yerda kimingiz bor?

— Oshnolarim bor, — dedi yigit.

Choyxonachi chol yigitning kiyim-boshiga razm soldi. Yigit rus ishchilari kiyadigan fufayka va shim kiygan, faqat boshida turkmancha telpak bor edi.

— Mayli, choyni ichavering, — dedi choyxonachi chol. — Hozir ko'chadan birorta masterovoy o'tib qolsa, qo'shib yuboraman.

Yigit bir piyola choy ichgan ham ediki, choyxonachi ko'chadan o'tayotgan bir kishini ruschalab chaqirib to'xtatdi-yu, yigitga "chiqing!" ishorasini qildi. Yigit shoshganicha cho'ntagidan mayda chaqa olib piyolaga tashladi-da, ko'chaga chiqdi. Ko'chada to'xtab turgan past bo'yli yumaloq kishiga ro'para bo'lib arzini aytdi.

— Yetmish uchinchi uy! — deb hayron bo'lib so'radi ko'chada turgan kishi. — Siz o'zingiz kimsiz?

— Men bir mehmonman. Menga bu adresni ishonchli odamlar bergan edi.

— Mayli, yuring.

Ikkovi qorong'i ko'cha bo'ylab jim keta boshlashdi. Ishchining kiyimidan qoramoy hidi kelar, yog' tegaverib qotib qolgan yenglari shaldirar edi. Nihoyat, pastakkina bir uyning kichkina ko'cha eshigi oldida to'xtashdi. Derazalarda yorug' ko'rinmas edi. Yigitning hamrohi eshikni taqillatdi. Ko'p o'tmay, ular chog'roq bir hovliga kirishdi. Uyning hovliga qaragan derazalaridan yorug' tushib turar edi. Yigit ichkariga kirgandan keyin, eshikni ochgan kishi mo'yloviga oq oralagan o'rta yashar odam ekanini ko'rdi. U odam o'z navbatida yigitga sinovchan ko'z bilan tikildi. Yigit barvasta, ko'kragi keng, ammo ko'zining ostlari shishib salqigan, yuzi og'ir kasaldan turgan odamnikiday sarg'ish. O'ng chakkasida qandaydir bir yaraning izi bor.

— Sirgay Timashanka shu yerdami? — deb so'radi yigit eshikni ochgan kishidan.

— Sergeyda nima ishingiz bor?

— Ay, menga o'sha odam kerak edi-da. Ashxoboddan bir narsa berib yuborishgan edi.

— Bo'lmasa, kiravering, — dedi eshikni ochgan kishi. Mezbon yigitni ichkariga boshlab kirdi-da, divanda kitob o'qib o'tirgan boshqa bir qora qosh yigitga qarab:

— Sergey, bu odam Ashxoboddan ekan, seni so'rayapti, — dedi.

Sergey sakrab o'rnidan turdi-yu, mehmonning yuziga tikildi.

— Keling, — dedi Sergey turkmanchalab.

— Sirgay Timashanka sizmisiz? — ovozi titrab turkman tilida so'radi mehmon.

— Ha, men.

— Ashxobodda pochchangiz bormi? Natasha degan opangiz bormi?

— Bor!

— Unday bo'lsa, siz mening qiyomatlik do'stimsiz! — deb mehmon birdan Sergeyni quchoqlab oldi.

— Siz Berdimisiz? — entikib so'radi Sergey. — Aqi o'g'li Berdi sizmisiz?

— Ha, qabrdan tirik chiqqan Berdi menman!

Endi Sergey Berdini quchoqlab, uy ichida bir-ikki aylantirdi-da, yerga qo'ydi.

— Yashasin bizning pochcha! Iltimosimizni bajaribdi! Turkman do'stlarimning oldida yuzimiz yorug' bo'libdi! Qani, Berdi, o'tir mana bu divanga. Bu yerda sen xuddi o'z uyingdagiday bemalol dam olishing mumkin.

— Sog' bo'l!

Uy bekasi stol tuzay boshladi. Bu orada Berdini boshlab kelgan yigit ham kiyimlarini almashtirib, yuvinib-taranib qaytib keldi. Dasturxonda qovurilgan kartoshka, selyodka, tuzlangan bodring va bir shisha aroq paydo bo'ldi. Bir qo'ldan ichilgandan keyin Berdi juda ochilib ketdi va qamoqxonadan qanday qochganini goh hayajonlanib, goh kulib hikoya qila boshladi:

— Haligi badqovoq nazoratchi meni tobutga solib, ustimdan mixlab tashlagandan keyin... Endi tiriklayin ko'milaman, deb o'yladim. Bir-ikki marta "sen qo'rqma, men senga yaxshilik qilmoqchiman" dedi. Hech ishongim kelmaydi-da. Bir vaqt qabristonga etib, tobutni aravadan tushirishdi. Qopqog'ini ochib, "tur, ozodsan!" desa turolmayman. Darmon yo'q! Axiyri, nazoratchi o'zi suyab turg'izdi. Sirgay, sening opang bilan pochchang o'sha yerda turishgan ekan. Ayol kishining tovushini eshitganimdan keyin meni o'ldirmasliklariga ishondim-u, ko'zimdan tirqirab yosh chiqib ketdi... Nazoratchi badqovoq odam ko'rinsa ham, ajoyib yigit

ekan, keyin bildim. Axir oldinroq tushuntirib qo'ysa, men uni ham qiynamas edim, o'zim ham muncha qo'rqmas edim-ku, deyman ichimda.

— Qamoqxonaning ichida nazoratchi bilan mahbusning ortiqcha suhbatlashib o'tirishi mumkin emas-da, — dedi Sergey. — Bitta-yarimta sezib qolsa, ish tamom. U yerda ayg'oqchi ko'p.

— Nima bo'lganda ham, agar o'lmasam, o'sha yigitning yaxshiligini bir qaytaraman-da. Men sendan ham qarzdorman. Sirboyjon, — deb Berdi Sergeyni azbaroyi yoqtirganidan turkmancha nom bilan atadi. — Pochchang ham, opang ham juda ajoyib odamlar ekan... Aytmoqchi, ular bir talay qog'oz berib yuborishgan edi.

Berdi kattakon turkman telpagini boshidan oldi. Uning astaridagi tikishni so'kib, ichidan yupqa qog'ozlarda juda ixcham qilib bosilgan yashirin bolshevistik gazetalarning yangi sonlarini olib Sergeyga berdi.

— E, yasha do'stim! — deb Sergey quvonib ketdi. Gazetalar orasida Sergeyning nomiga yozilgan bir xat ham bor edi. Dasturxon yig'ishtirildi. Gazeta sonlari qo'lma-qo'l bo'lib ketdi. O'qishni bilmaydigan Berdi bir chetda jim xayol surib o'tirar edi. Sergey shuni sezdi-da:

— Xo'sh, endigi rejalaring qalay? — dedi.

— Axalga borib, tog'amni bir ko'rsam deyman. Keyin... bilmadim... Uzuk sog'-salomatmikan, sen bilmaysanmi, Sirgay?

— O'zini tanimasam ham, Qilichlidan sog'-salomat yuribdi, deb eshitganman. Bekmurodboy seni qamoqxonada o'ldirib yubormoqchi bo'lganini eng avval Uzuk bilib qolibdi. Keyin buni Obodonga aytibdi. Obodonning eri menga aytdi. Shundan keyin biz harakatni boshladik-da. Agar Uzuk bo'lmaganda, ehtimol, Bekmurodboy o'zining yovuz niyatiga yetar edi-yu, biz buni bilmay ham qolar edik.

Berdining ko'zlari yonib:

— Meni o'limdan olib qolganlarning eng birinchisi Uzuk bo'lsa, endi men ham uni dushmanlarimning changalidan qutqarib olishim kerak! — dedi. — Bekmurodboy men uchun qazigan qabrga uning o'zi bilan ukasini ko'mishim kerak! Men bulardan qasd olmaguncha qo'ymayman!

— Lekin hozir butun hokimiyat Bekmurodboylarning qo'lida, sen buni unutma, — dedi Sergey.

— Mayli, osmon Bekmurodboylarning qo'lida bo'lganda ham men undan qo'rqmayman.

— Berdi, sen dushmaning bilan yakkama-yakka olishmoqchisan, shundaymi?

— Ha! Xoli bir joyda uchrab qolar...

— Lekin Bekmurodboy senga qilgan jabr-zulmini biror joyda o'z qo'li bilan amalga oshirganmi? Yo'q! Qizni ular ko'pchilik bo'lib o'g'irlagan. Sen mard yigit bo'lganing uchun qizni yolg'iz o'zing ularning changalidan yulib olib qochgansan. Keyin bular ko'pchilik bo'lib, politsiyachilarni ergashtirib borib, sizlarni yenggan. Sudda ham, qamoqxonada ham Bekmurodboyning o'z odamlari bor. Tekinxo'rlar doim bir-birini qo'llab-quvvatlaydi.

— Mayli, meni quvvatlaydigan yaxshi odamlar ham topiladi.

— Gap shunda-da. Tekinxo'rlar birgalashib, bizga zulm o'tkazayotgan ekan, biz, ezilganlar, nega birgalashib ularga qarshi chiqmaymiz? Axir biz ham ko'pchilikmiz-ku.

— Lekin Bekmurodboylardan men o'zim o'ch olishim kerak! Bu ishga boshqa odamlarni aralashtirib bo'lmaydi!

— Sen yolg'iz o'zing ular bilan olishib ko'rding, Berdi. Sening mardligingga, dovyurakligingga hammamiz qoyilmiz. Lekin kishi har qancha botir bo'lsa ham, bir o'zi zolimlarga bas kelolmas ekan.

— Hamma zolimlarga bas kelolmasam ham, Bekmurodboyni yer tishlatish qo'limdan keladi!

Sergey mo'yloviga oq oralagan kishiga yuzlanib, ruscha gapirdi:

— Bu nuqul shaxsiy intiqomni o'ylaydi. Sinfiy kurash nimaligini tushuntirib bo'lmayapti. Nima maslahat berasiz, Aleksandr Samoylovich!

— Hozir tushunmasa, keyin tushunar. Sabr-toqat kerak. Qani, tarjima qil-chi.

Aleksandr Samoylovich Berdiga yuzlanib, ruscha gapira boshladi, Sergey uning so'zlarini turkmanchaga sodda til bilan tarjima qilishga tushdi:

— Men ham qamoqda yotib chiqqanman. Petrogradda kapitalistlarga qarshi tashviqot yurgizganim uchun podsho hukumati

meni avval qamoqxonaga tashladi, keyin Mariga surgun qildi. Bu yerda men uch yil surgunda yashadim. Nihoyat, muhlatim tugadi. Endi Vatanimga jo'nab ketaman. Mana, bugun Sergeylar meni kuzatish uchun yig'ilishgan.

— E, bugun ajoyib kun ekan-ku, — dedi Berdi.

— Ha, — davom etdi Aleksandr Samoylovich, — endi men Petrogradga qaytganimdan keyin kimdan qasd olaman? Axir podsho menga ham adolatsizlik qilgan-ku. Agar men podshodan qasd olaman desam, uni o'ldirganimda ham, o'rniga boshqa bitta undan yomonrog'i kelib, podsho bo'ladi. Zavodchi boydan qasd olaman desam, bu boy o'lgani bilan, zavod boshqa boyning qo'liga o'tadi. Demak, men shaxsiy intiqom yo'li bilan maqsadimga yetolmayman. Shuning uchun bu yo'ldan bormayman. Men senga o'xshagan, bunga o'xshagan halol mehnatkashlarning ko'zini ochmoqchiman. Dunyoda bor hamma boyliklarni mehnatkashlar yaratgan. Shuning uchun yer-suv, mol-mulk, qurol-yarog' — hammasi mehnatkashniki bo'lishi kerak. Buning hammasini mehnatkashlar boylardan tortib olishi kerak. Ana unda biz podshoni ham yengamiz, boylarni ham, amaldorlarni ham, to'g'rimi, yo'qmi?

Berdi o'ylanib turib:

— To'g'ri-yu, lekin siz aytganday bo'lishiga odamning ko'zi yetmaydi, — dedi.

— Nega?

— Bu dunyoda har kim o'zi bilan o'zi ovora, odamlarning boshini qovushtirish qiyin.

— Qiyin bo'lsa ham mumkin, — dedi Sergey. — Boylardan jabr ko'rgan odam bitta senmisan?.. Yo'q, sen Uzukning ukasi Turdini bilsang kerak.

— Bilaman. Unga ham bir gap bo'libdimi?

Berdi hali Murod og'aning qanday o'lganini, Turdi otasi uchun qanday o'ch olganini, hozir uning Qoraqumda qanday qochib yurganini bilmas edi. Sergey unga buni va Olloqulining tarixini aytib berdi.

— Bular hali yosh, tajribasiz yigitlar, — dedi Sergey. — Shuning uchun biron qaltis yo'lga kirib ketib, bekorga nobud bo'lishlari mumkin. Umuman, qishloqlarda zolimlardan norozi bo'lib

yurgan kishilar juda ko'p. Sen shularning ko'zini ochishing mumkin, boshini qovushtirishing mumkin.

— O'zim hali ko'p narsani bilmayman-u.

- Bilmaganingni biz bilan birga yurib, o'rganarsan. Sen yosh bo'lsang ham, ko'p narsani boshdan kechirding. Hayotiy tajribang boshqalarnikidan katta.

— Mayli, — dedi Berdi, — menga juda katta yaxshilik qildilaringiz. Men avval sizlar buyurgan ishni qo'limdan kelganicha bajo keltiraman-u, undan keyin o'z bilganimni qilaman.

— O'z bilganing... Bekmurodboydan o'ch olishmi?

— Ha, avval o'ch olib, keyin Uzukni qutqarish!

— Yana avvalgi gapga qaytding-ku. Axir, tushun, Uzukning bir o'zini qutqarib bo'lmaydi. Bitta boyni o'ldirsang, boshqalari seni o'ldiradi. Hamma mehnatkashlar birlashib, barcha boylarni yo'q qilsa, ana unda Uzuk ham butun ezilganlar qatori ozodlikka chiqadi!

— Ungacha men shu ahvolda yuraveramanmi?

— Nega yuraverar ekansan? Zolimlarga qarshi kurashasan! Bir o'zing emas, yuzlab, minglab ezilganlar bilan bir saf bo'lib, maydonga chiqasan, boylar sening nomingni eshitgandayoq titrab-qaltiraydigan bo'ladi!

— Qani edi shunday bo'lsa!

— Bo'ladi! Buning uchun sen hozirdan tayyorgarlik ko'rishing kerak. Aleksandr Samoylovich, sizning fikringiz qalay, Berdini temiryo'lga ishga kiritib bo'larmikan?

— Ishga kiritish mumkin-u, bitta lekini bor. Temiryo'ldan odam ko'p o'tadi. Biri bo'lmasa, biri tanib qolishi mumkin. Qamoqxonadan qochgan odam uzoq qishloqlarda yurgani yaxshi. Bundan tashqari, turkman dehqonlari orasida ish olib boradigan kishi tashkilotimiz uchun ham juda zarur.

Sergey bu so'zlarni Berdiga soddaroq qilib tushuntirib berdi-da:

— Eng muhimi, senga dushmanlaringning ko'zi tushmasligi kerak, — dedi. — Qamoqxonada seni "o'ldi" deb akt tuzishgan. Bunga Bekmurodboy mutlaqo ishonishi kerak. Mabodo u sening qamoqdan tirik chiqqaningni bilib qolsa, darrov podsho mahkamalariga xabar beradi. Politsiya izingdan tushadi.

— Bunisidan qo'rqmayman.

— Sen qo'rqmasliging mumkin. Ammo seni qamoqdan qutqargan odamlar tahlika ostida qoladi.

— Nega endi?

— Chunki qamoqxona boshlig'i seni Rankovich qochirganini bilib qoladi. Axir Rankovich "o'z qo'lim bilan o'ligini ko'mdim" deb uni ishontirgan. Agar bu yolg'on ekanini bilib qolishsa, Rankovichning o'zi sening o'rningga qamalishi mumkin.

— Men bu tomonini o'ylamagan ekanman. Rost aytasan, Sirbon, men endi har bir qadamimni o'lchab bosishim kerak.

Berdining bu gaplaridan Sergey xiyla yengil tortdi. "Kelajakda bundan yaxshi bir kurashchi chiqishi mumkin, — deb ko'nglidan o'tkazdi. — Afsuski, savodi yo'q-da. Bo'lmasa buning ko'zini ochadigan kitoblar ko'p-a. Mayli, men o'zim mana shunday suhbatlar bilan buni partiya ishiga tayyorlab boraman!"

— Bo'lmasa sen tanishlar uchramaydigan uzoqroq qishloqlarga borib ishlaysan, — dedi Sergey. — Birorta boyga xizmatga yollanishing mumkin. Hafta-o'n kunda mening uyimga kelib turasan. Egriguzardagi to'g'onni bilasanmi?

— Bilaman.

— Men ana o'sha yerda turaman. Nima ish bo'lsa, bamaslahat qilaveramiz.

— Bo'pti!

Berdi kechasi birpas uxladi-yu, tong qorong'isida turib, Maridan chiqib ketdi.

## QO'RQINCHLI QADAM

Dunyo g'am va tashvish bilan to'lib yotgan bo'lsa ham, dalalarga yana bahor sepini yoygan, lolaqizg'aldoqlar gilamday bo'lib ochilgan edi. Hamma yoq ko'm-ko'k. Osmonda parday yengil bulutlar suzib yuribdi. Atrofdan gul hidi keladi. Mayin shabada yuzni silab o'tadi. Dala bo'ylab kelayotgan Berdi bahor havosiga ko'kragini to'ldirib, chuqur nafas oldi-yu, yo'l ikkiga ayrilib ketgan joyda birpas turib qoldi. O'ngga qarab burilsa, Axalga, tog'asi Nur-

muhammadning oldiga borishi mumkin. Ammo Axalga yetguncha juda uzoq yo'l bosish kerak, har qayerlarda tunash kerak. Bu ham mayli-ya! Axalda hamma uning qamalganini biladi! Endi birdan kirib borsa, qishloq joy, sir tutish qiyin, uning qamoqdan qochgani gap bo'lib ketadi. Keyin Berdining iziga odam tushadi, qamoqxonada unga yaxshilik qilgan nazoratchi xavf ostida qoladi. Yo'q, Berdi o'zining najotkoriga qilcha ham yomonlikni ravo ko'rmaydi.

U Qoraqumga chiqib ketish va o'sha yerda Turdini qidirib topib, birga yashirinib yurish niyatida chapga qarab ketgan yo'lga burildi. Yo'lda goh otliq, goh eshaklik, goh piyoda odamlar uchrar, ammo Berdi hech kimga qaramas, o'z xayoli bilan band bo'lib, yerga qarab bir qiyomda yurib borar edi. Atrofni kelinchakday bezantirgan bahor unga dam-badam Uzukni eslatar edi. Qorachungul yaylovida mana shunday mas'ud bahor kunlarida ikkovi yonma-yon o'tirib, qo'y sog'ganlari, keyin muhabbat to'g'risida ilk bor so'zlashganlari Berdining yodiga tushib, yuragini ezib o'tdi. Mana, hozir hamma yoq xuddi o'shandagiday gullab-yashnab turibdi. Go'yo dunyoda hech qanday baxtsizlik bo'lmagan, deysiz. Mana bu umri qisqa lolaqizg'aldoqlar o'sha yili qanday qiyg'os ochilgan bo'lsa, hozir ham xuddi o'shanday qip-qizil bo'lib, gurkirab ochilgan. Lekin Berdining o'shandagi baxti qani? O'shanda tengsiz go'zal qiz bo'lgan Uzuk qani? Berdi uni ko'rmaganiga, mana, uch yildan oshib boryapti. Bu dunyo qanchalik berahm ekan! Berdi Uzukni Axalda nikohlab olib, endi bir yorug' kun ko'raman deganda, shum taqdir ularning birini qamoqxonaga, ikkinchisini undan ham dahshatli jahannamga uloqtirdi! Berdi endi Uzukni ko'rmasman, deb o'ylagan edi. Uni qamoqxonada ham tirik qoldirmaslikka intilgan dushmanlari o'z qo'llaridagi Uzukni allaqachon nes-nobud qilib yuborgan bo'lishlari kerak edi. Biroq bechoraning ajali yetmagan ekan, hali ham tuproqdan tashqarida yurgan ekan. Shu ahvoliga yana Berdining g'amini ebdi, boylarning yovuz niyatidan xabar topib, kerakli odamlarga aytibdi...

Berdi o'zining tirik qolishiga Uzuk ham sabab bo'lganini har o'ylaganda ko'ngli bir daraja o'sadi. Demak, Uzuk uni unutgan emas, kelajakdan umidini uzgan emas!.. Berdining hozirgi eng zo'r istagi — uzoqdan bo'lsa ham Uzukni bir ko'rish edi. Faqat ko'rish

emas, uni bir quvontirish!.. "Mana, men sening yordaming bilan najot topdim!" desa, Uzuk qanchalik shodlangan bo'lardi!

Berdi bir tepalikdan oshib o'tayotib, uzoqda ko'ringan katta bir qishloqqa tikilib qoldi. Nahotki oyoqlari uni ixtiyorsiz ravishda Uzuk tushgan qishloqqa olib keldi? Yo'q, bu qishloq o'zi uning yo'lida edi. Lekin Bekmurodboyday ajdaho yashaydigan bu qishloqni Berdi hozir chetlab o'tishi kerak. Uning butun vujudi Uzukni ko'rish va Bekmurodboydan qasd olish istagiga to'lib turibdi. Berdi u yerga borsa, o'zini tanitib qo'yishi mumkin. Bir o'lim bo'lsa, hamma vaqt boshida bor, Berdi bundan qo'rqmaydi. Biroq unga yaxshilik qilgan odamlar baloga qolishi mumkin. Berdi so'z bergan. Yigit so'zidan qaytmaydi. Ammo ko'z oldida turgan qishloq Berdini o'ziga ohanraboday tortmoqda edi. Uch yildan beri Uzuk benihoya uzoqda edi. Hozir u ko'z ilg'aydigan yaqin bir joyda turibdi, lekin Berdi uni borib ko'rolmaydi. Hech bo'lmasa, Uzuk yashayotgan qishloqqa Berdining yaxshilab qarab olgisi keldi-yu, yo'ldan chetroqqa chiqib, mayin ko'kat ustiga o'tirdi. Kun botib bormoqda edi. Uzoqdan qo'ng'irog'i bir qiyomda "do'ng-do'ng" qilib, tuya karvoni kela boshladi. Yettita tuyani ko'k eshak mingan keksa bir qozoq yetaklab kelmoqda edi. Karvon yaqin kelganda Berdi o'rnidan turib, mo'ysafidga salom berdi-da:

— Jo'l bo'lsin, o'tag'asi? — deb qozoqchalab so'radi.

Mo'ysafid Qoraqumning uzoq bir chetidagi joyni aytdi. Berdi ham o'sha tomonlarga bormoqchi edi. "Yolg'iz yursam odamlarning e'tiborini tortaman, undan ko'ra, shu karvonga qo'shilib olganim ma'qul" deb o'yladi-yu:

— Bo'lmasa jo'limiz bir eken, — dedi va eshak mingan mo'ysafid bilan yonma-yon keta boshladi.

Bahor kirib, havo ilib ketgan bo'lsa ham, chol quloqchin kiyib olgan edi. U Berdiga sinovchan ko'zlar bilan tikilib:

— O'zing kim bo'lasin? — dedi.

Berdi cho'pon ekanini, hozir o'sha yoqlarga ish qidirib ketayotganini aytdi. Mo'ysafid uning ochiq yuzli, istarasi issiq yigit ekanini sezib, gapiga ishondi. Uning karvonda birga yuradigan sherigi betob bo'lib, yotib qolgan, mo'ysafid durust hamroh topolmay, noiloj yolg'iz ketayotgan edi. Endi Berdining uchrab qolganidan quvonib,

uning yelkasidagi xurjunini oldi-da, eshagiga ortdi. Karvon to'g'ri Bekmurodboylarning qishlog'iga qarab bormoqda, Berdi bu qishloqni chetlab o'tolmaydigan bo'lib qoldi. Mayli, uni bu qishloqda Uzukdan boshqa taniydigan odami yo'q. Bekmurodboy uni uch yil burun Axalda uzoqdan bir ko'rgan bo'lishi mumkin, ammo otishma bo'layotgan to's-to'polon paytda eslab qolganmi, yo'qmi, ma'lum emas. Bundan tashqari, hozir Berdining o'zi ham soqol-mo'ylov qo'yib, chakkasida tirtiqlar paydo bo'lib, xiyla o'zgarib ketgan. Mana bu karvonning panasida kirib borsa, kim bilib o'tiribdi! Karvon qishloqqa yetguncha kech kirib qoldi. Tuyalarni yetaklab borayotgan chol Bekmurodboyning mehmonxonasi borligini bilar ekan, shu yerda tunab qolmoqchi bo'ldi. Berdi boyning tashqi hovlisiga kirayotganda, yuragi qinidan chiqib ketgudek bir bezovtalik bilan urar edi.

Hovlini o'rab olgan baland devorlar, bir-biriga yelka tirab turgan hashamatli uylar uning ko'ziga baloday ko'rinar edi. Ammo u hech narsani sezdirmaslikka tirishib, tuyalardan yukni tushirib olishda karvonchiga ko'maklashdi. Mehmonxonada boyning o'zi yo'q ekan. Karvonchi chol sovg'a-salomini mehmonxonaga qarab turadigan xizmatkorga topshirdi. Xizmatkor rahmat aytib, cholning sovg'asini ichkari hovliga olib kirib ketdi-yu, Berdi ko'zlari olazarak bo'lib, ichki hovlining eshigiga qaray boshladi. Berdining dunyoda eng sevgan yori ham, eng ashaddiy dushmani ham mana shu dargohda edi. Berdi ularning qaysi biri avval uchrab qolishini bilmas, hovlida ko'ringan har bir kishiga sergaklanib ko'z tashlar edi. Berdi bilan karvonchi chol choy ichib o'tirganlarida ichkari hovlidan qora soqoli o'ziga juda yarashgan, salobatli bir odam chiqib keldi-yu, mehmonlarga istar-istamas salom berdi. Karvonchi chol o'rnidan sakrab turib:

— E, e, Bekmurodboy! — deb u bilan egilib ko'rishdi.

Berdi bu nomni eshitgan zahoti yelkasidan olov chiqib ketganday bo'ldi. U ham tez o'rnidan turdi. Bekmurodboy unga ko'z qirini tashlab:

— Kelinglar, — dedi-yu, ammo ko'rishish uchun Berdiga qo'l cho'zmadi. Berdi bundan xiyol yengil tortdi. Chunki u boyga yaqin borib, qo'l berib ko'rishsa, o'zidagi g'azabni sezdirib qo'yi-

shi mumkin edi. Boy mehmonlar bilan bir piyola choy ichdi. Berdi uyning chirog'dan panaroq, chetida haykalday qotib o'tirar, bo'ynidagi naganning salmog'i hozir unga har qachongidan ham aniq sezilar edi. Sergey unga bu naganni "birov joningga qasd qilganda ishlatasan" deb bergan edi.

"Hozircha bu faqat mudofaa quroli" deb uqtirgan edi. — Lekin buni qasd olish uchun ishlatsang, hammamizning sirimizni ochib qo'yasan!"

Berdi mana shu so'zlarni xayolida takrorlab, o'zini bosishga tirishar edi. Uning hozirgi eng zo'r istagi — naganni qo'ynidan shartta olib, mana shu savlatli qonxo'rga to'g'rilash, gunohini bo'yniga qo'yib, peshonasidan otish! Ammo naryog'i nima bo'ladi?! Politsiyachilar, nazoratchilar, mahkamalar... hammasi Berdining ko'z oldidan o'ta boshladi... Yo'q, hozir shoshmaslik kerak. Berdi qo'lga tushmaydigan paytni poylaydi. Boyagi boy kechasi shu xonada yotib qolar yoki boshqa bir qulay fursat bo'lar... Biroq Bekmurodboy mehmonlarning hurmati uchun bir pasgina o'tirdi-yu, shoshilib chiqib ketdi. Shu ketganicha Berdiga qaytib duch kelmadi. Berdining xayoli Uzukka ketdi. U ham shu yaqin orada bo'lsa kerak. Lekin erkaklar o'tirgan uyga kirmasligi aniq. Bundan tashqari, Bekmurodboyning ukasi boshqa hovlida tursa kerak. Biror ishonchli odam bo'lsa-yu, Berdi iltimos qilsa... Lekin bu yerda uni hech kim tanimaydi. Karvonchi chol juda charchagan ekan, bir kosa suyuq oshni ichgandan keyin uxlab qoldi. Berdi chiroqni o'chirib, eshik oldiga keldi-da, tashqariga ko'z tashladi.

Oy to'lgan, hovli sutday yorug'. Tuyalar cho'kkalab, kavshanib yotishibdi. Bir vaqt ichkari hovlidan birin-ketin ikkiga qora chiqdi. Biri kichikroq. Kiyimlariga va yurishlariga qarab, Berdi bularning qizlar ekanini sezdi. Qiz bolaning hiringlab kulgani eshitildi.

— Kela ber, hammasi uxlab qolgan, — dedi oldindagi bo'yi balandrog'i.

Berdi qorong'i uy ichidan indamay qarab turibdi. Qizlarning kichikrog'i cho'kkalab yotgan nor tuyani no'xtasidan ushlab turdi-yu, kattasi uning bahorda palaxsa-palaxsa bo'lib ko'cha boshlaydigan yungini yulishga tushdi. Achchig'i yomon nortuya boshini silkib, bo'kirdi.

— No'xtasini mahkam ushla, qo'rqma, yungidan senga ham beraman, istagan narsangni to'qitasan, — deb shivirladi yung yulayotgan katta qiz.

Berdi endi uydan chiqib, ularga qarab borayotgan edi, nortuya birdan bo'kirib o'rnidan sapchib turdi-yu, qizlarga hamla qildi. Berdi tayoq olib yugurdi. Nortuya yungini yulgan katta qizni kamzulidan tishlab yerga otdi. Agar Berdi yetib kelib, tuyani tayoq bilan urib chetlatmaganda, qiz tuyaning paypoqlari tagida ezilib o'lishi aniq edi. Berdi tuyani tayoq bilan urib-urib haydadi-yu, keyin qizni yerdan ko'tarib, turg'azdi. Qizning chiroyli kamzulida kumush tangalar shildirar edi. Qo'rquvdan titrayotgan badani juda tarang. Bu — Bekmurodboyning katta qizi edi. U yigirma yoshga kirgan bo'lsa ham, haligacha munosib joydan er chiqmayotgani uchun otasinikida o'tirar edi. U tuyaning juniga zor ham emas. Otasining tuyalari behisob, qizi bir og'iz aytsa, istaganicha jun keltirib beradigan xizmatkorlar bor. Hozir bu qizning jun yulishi — to'qlikdan chiqqan bir sho'xlik edi. Berdi qizdan so'rab-so'rab, buning hammasini bildi-yu, bir lahza o'ylanib turdi. Bu qiz Uzukni bilsa kerak. Berdining yaxshiligi evaziga uning bir mushkulini oson qilmasmikan? Uzukni bir pasga chaqirib bermasmikan?

— Otingiz nima, yaxshi qiz?

— Ashirgul!

— Yaxshi, Ashirgul, narigi hovlida... sizlar turasizlarmi?

— Bizning hovlimiz bunisi. Narigisi Omonmurod amakimniki.

Berdi gapni bir amallab maqsadga yaqinlashtirdi.

— Tuyaning junini o'zingiz uchun yulganmidingiz, yo amakingizning xotinlariga bermoqchimidingiz?

— Amakimning xotinlari boshidan qolsin. Men ularni yomon ko'raman.

— Nega?

— Bittasi janjalkash shallaqi. Ertadan kechgacha vaysaganivaysagan.

— Ikkinchisi ham... shunaqami?

— Ikkinchisi undan battar... buzuq!

— Qanaqasiga buzuq? — so'radi Berdi o'zini tushunmaganga solib.

— Buzuq-da. Ilgari bitta yalangoyoq bilan qochib ketib, bizni sharmanda qilgan edi. Keyin...

Qiz bir lahza to'xtab oldi.

— Keyin-chi? — sabrsizlanib so'radi Berdi.

— Keyin o'zini o'ldirmoqchi bo'lib daryoga tashlabdi. O'lsa qaytaga qutular edik... To'rli degan bir yigit qutqarib olibdi. To'rli uni suvdan bekorga olib chiqmagandir... Men poylab yuribman, ikkovini bir kun emas, bir kun otamga tutib beraman...

Berdi mushtlarini g'azab bilan qisdi. U hozir bu qizni yana qaytadan tuyaning oyoqlari tagiga tashlagisi kelardi.

— Ilonning bolasi ilon bo'lar ekan-da! — dedi u o'ziga-o'zi gapirganday sekin.

Qiz Berdining g'azabli so'zlarini Uzukka qaratilgan deb o'yladi-da, unga sho'x kulib boqdi:

— Siz uni bilasizmi?

— Yo'q!

— Siz meni bir balodan qutqardingiz. Yaxshi yigit ekansiz. Men sizga qanday rahmat aytay?..

Birovni bekorga buzuq degan bu qiz agar hozir Berdi istasa, unga o'pich berishga ham tayyordek ko'rindi.

— Menga sening rahmating kerak emas! — dedi Berdi nafrat bilan. — Sen hammani o'zingga o'xshagan deb o'yladingmi? Bor, jo'na!

Ashirgul uning nafratiga ham, gapiga ham tushunmay angrayib qoldi. Berdi orqasiga burilib, mehmonxonaga kirib ketdi. Bu yerda Uzuk bilan ko'rishib bo'lmasligiga u endi ishongan edi...

Tong otganda tuya karvoni yo'lga tushdi. Qishloqdan chiqib, sal yurganlaridan keyin yo'l bo'yida bir mozor uchradi. Devorlariga kiyik shoxlari qadalgan, tomining ustiga oq latta bog'log'liq yog'ochlar o'rnatilgan bu mozorda Enaquti bilan Qovoqshayx istiqomat qilar edi. Mozorning ichidagi buloqdan tiniq suv oqib chiqib turar edi. Karvon shu yerga kelganda tuyalarni sug'ora boshlashdi. Berdi buloqning yuqorirog'iga o'tib, yuzini yuvayotganda darvozadan Enaquti chiqib keldi. U karvonchidan aqalli biror narsa undirib bo'lmasmikin deb, goh qozoq cholga, goh Berdiga tikilar edi. Berdi ham unga bir qaradi-yu, qop-qora semiz xotinni tani-

di. Berdi hozir soqol qo'ygan bo'lsa ham, ammo uning ko'zlari, baland bo'yi, yurish-turishi Enaqutiga tanish tuyuldi.

— Shoshma, yigit, men seni qayerdadir ko'rganman... Sen Saidahmad eshonning otlarini minib ketgan ho' o'sha...

Berdi atrofiga alanglab, bu gaplarni boshqa hech kim eshitmaganiga ishonch hosil qilgach:

— Gapni cho'zmang, ona, meni ziyorat qiladigan joyga boshlang, — dedi. Qozoq cholga: — Siz boravering, men ketingizdan yetib olaman! — dedi.

Enaquti yigitning avzoyi yomonligini sezib, xushomad qila boshladi:

— Xayriyat, tirik ekansan. Seni qamoqda o'lgan deyishgani yolg'on chiqdi!

— Sekinroq gapir!

— Xo'p, o'rgilay. Bu sirni hech kimga aytma, desang aytmayman. Sen Uzukjamolni ko'rdingmi, yo'qmi?

— Qayerda ko'raman?

— Mana shu yerga keladi. Har juma kuni kelib, ziyorat qiladi. O'zi oyday bo'lib yuribdi. Farzandi yo'q, xolos. Erining pushti kuyib ketgan emish... Lekin mana bu qadamjoni ziyorat kilgan odam shifo topadi. Shuning uchun...

Berdi bu xotinning og'zi bo'shligini bilar edi. Bekmurodboylarning qishlog'i yaqin. Agar Enaquti Berdini ko'rganini boylarga aytsa, ish tamom. Sir fosh bo'ladi. Nima qilish kerak?

— Qani, o'sha mozorning ichiga kiraylik, — dedi u Enaqutiga. — Enaquti jim-jit sag'ananing ichiga uni boshlab kirar ekan, qo'rqqanidan yuragi uvishar, orqasiga qarab-qarab, Berdiga laganbardorlik qilardi:

— Agar Uzukni ko'rging kelayotgan bo'lsa... hozir aytib kelaman! Borib aytib kelaymi? Sen shu yerda kutib turasanmi?

Enaquti hozir borib Uzukni emas, Bekmurodboylarni aytib kelmoqchi edi. Berdi uning yomon niyatini sezganday bo'lib, g'azab bilan:

— Yo'q, sen hozir mana shu mozorning oldida tiz cho'kib qasam ichasan! — dedi. — Qani ayt: "Bu yigitni ko'rganimni biror kimsaga aytsam, meni shu mozor ursin" de! "Qur'on ursin" de!

Enaquti bu dahshatli qasamlarni og'ziga olgisi kelmay, tixirlik qila boshlagan edi, Berdi qo'ynidan naganini oldi:

— Yo aytganimni qil, yo hozir shu mozor bilan qo'shmozor bo'lasan!

— Xo'p, xo'p, — deb Enaquti mozor oldida tiz cho'kib, Berdi buyurganday qasam ichdi.

— Agar shu mozor chindan ham muqaddas joy bo'lsa, adolat kim tomondaligini bu yerda yotgan azizlar bilishi kerak.

— Biladi! — dedi Enaquti.

— Zolimlar men bilan Uzukka qanchalik jabr qilganini, bizning haq ekanimizni biladimi?

— Men... men... bilaman.

— Agar sen buni bila turib qasamni buzsang, seni mana shu mozor uradi, Qur'on uradi. Mabodo o'shanda ham tirik qolsang, unda men o'zim kelib...

Berdi yaltirayotgan naganning sovuq uchini qalt-qalt titrayotgan Enaqutining peshonasiga tiradi:

— Agar xiyonat qilsang, men o'zim mana shu to'pponcha bilan peshonangdan otaman!

— Yo'q, yo'q! Men seni ko'rganim yo'q! Taniganim yo'q! Bu sir men bilan birga go'rga ketadi!

— Gap tamom, — deb Berdi naganini qo'yniga soldi-yu, mozordan chiqib ketdi.

## AVLIYONING QUDRATI

Bu mozordan Bekmurodboylarning qishlog'i uch-to'rt chaqirim keladi. Orada ekin o'smaydigan qumloq yerlar bor. Unda yovvoyi jiyda, to'rang'i va yulg'unlar o'sib yotadi. Faqat mozorning ichidagi buloq bo'yida ikkita ulkan chinor o'sadi. Rivoyatlarga qaraganda, bu chinorlar muqaddas daraxtlar emish, ularni Hotam-shayx degan bir avliyo ekkanmish. Atrof qishloqlarning hech birida o'smaydigan chinorlar shu buloqning bo'yida o'sganligi ularning muqaddasligiga ko'p odamni ishontirardi. Faqat qishloqda Bobo Zang'ar deb nom chiqargan qiziqchi bir odam:

— Bu yerga oshiqlarning muqaddas qoni to'kilgan, — derdi.

— Qanaqa oshiqlarning? — deb so'rashsa:

— E, menga otam rahmatlik aytib bergan, — derdi Bobo Zang'ar. — Qishloqda bir odam o'g'lini uylantiribdi. Kelini juda chiroyli ekan-u, lekin tug'mas ekan. Chiroyli xotin tug'masa "bunga pari tekkan" deyishar ekan. Boshqa bir bo'ydoq yigit shu kelinchakka oshiq bo'lib yurgan ekan, buloq bo'yidagi chinorlarni ko'rsatib gap tarqatibdi: "Tug'maydigan ayol har chorshanba kuni shu chinorlarni ziyorat qilsa, Xudo unga farzand beradi", debdi. Uning gapiga ishongan ishonibdi, ishonmagan ishonmabdi. Axiyri bir kun allaqayoqdan kelgan bir shayx ham shu gapni aytibdi. Shayx oilalik odam ekan, shu yerga uy qurib, xotinini ko'chirtirib kelibdi. Shundan keyin atrof qishloqlardan xotin-xalaj ziyoratga keladigan bo'libdi. Haligi "pari tekkan" kelinchak ham shu yerga qatnab yurib, axiyri bir kun bo'yida bo'libdi. Nazarimda, chinorlarni muqaddas deb, gap tarqatgan o'sha oshiq yigit kelinchakka "ko'mak"lashgan bo'lsa kerak. Buni aniq ko'rgan odam yo'g'-u, lekin Hotamshayx befarzand bir boyning xotiniga dam solib yurib, o'g'il tug'ishiga sabab bo'lgani rost. Boy qurg'ur gap nimadaligini sezganmi, ish-qilib, bir kun "Hotamshayx shahid bo'libdi" degan gap tarqaldi. Boy uni o'ldirtiribdi-yu, ammo o'g'li undan bo'lganini yashirish uchun Hotamshayxni "shahid" deb e'lon qilibdi. Mana shu shayx o'sha chinorlarning oldiga ko'milganini men o'zim bilaman, shundan beri bu yer qadamjo bo'lgan. Bobo Zang'arning bu gapiga ba'zi birovlar kulsa ham, ammo Xudodan qo'rqadigan musulmonlar bu yerga ko'milgan avliyoga shak keltirishdan hayiqib, yoqalarini ushlaydilar:

— Tavba deng, yana avliyo urib ketmasin!

Enaquti bilan Qovoqshayx bu yerga ko'chib kelganlaridan keyin mozorning devorlariga shoxlar qadab, uning salobatini oshirishdi. Enaquti Qovoqshayxni, "Yonib turgan olovdan bino bo'lganlar bu kishi, ulug' odamning farzandlari, — deb e'lon qildi, — Hotamshayx avliyo bu kishini qoshlari bilan qovoqlarining orasida asrab katta qilganlar. Shuning uchun ismi shariflari Qovoqshayx bo'lgan!"

Bu gaplar atrof qishloqlarga tarqalib, ziyoratga keluvchilar ancha ko'payib qoldi. Ular qishloqqa qaytganda "mozorning

gumbazida olov yonganini ko'rdik", "shahid bo'lgan avliyoning nolasini eshitdik" deb borishardi. Saidahmad eshonning dargohida hiyla-nayranglarni ko'raverib, ko'zi pishib qolgan Qovoqshayx mozorning shamol yaxshi tegadigan devoriga bo'sh ko'zani qistirib qo'ygan edi, shamol turganda bu ko'za xuddi birov "o'-o'-o'" deb nola chekayotganga o'xshash tovush chiqarardi. Qadamjoning ta'rifi Bekmurodboyning onasi Qo'nish boyvuchchaning qulog'iga ham yetib bordi. Boyvuchchaning eng yomon ko'rgan kelini Uzuk edi. Uzuk bu dargohda "cho'riday tinmay ishlaydi, katta ro'zg'orning yuz xil yumushini o'rinlatadi, lekin haligacha eri bilan qaynonasi orzu qilganday bir bola tug'maydi. Omonmurod Ashxobodga borib, rus doktorlariga o'zini ko'rsatib kelgan. Vrach unga "sendan bola bo'lmaydi" deb ochiq aytgan. Lekin Omonmurod buni hammadan sir tutadi. Bola bo'lmasligiga xotinlarini aybdor qilib ko'rsatadi. Qo'nish boyvuchcha o'g'liga yon bosib, nuqul Uzukka yopishadi:

— Seni qarg'ish urgan! Qilgan gunohlaringning kasofatiga bola ko'rmayapsan! Tavba qil! Hotam avliyoning mozorini ziyorat qil! Bu avliyo befarzandga farzand beradi! Har juma borib, sig'inib kel!

Uzuk o'zi tengi juvonlarning qo'lida jajji go'daklarni ko'rsa, beixtiyor havasi keladi. Ammo butun vujudi bilan yomon ko'radigan Bekmurodboylarning urug'ini ko'paytirishi kerakligini o'ylasa, bu dargohda befarzand yurishi ham afzal ko'rinadi. Qo'nish boyvuchcha maqtagan mozorni Enaquti bilan Qovoqshayx egallab olgani Uzukning bu qadamjodan ixlosini qaytarsa qaytarar ediki, oshirmas edi. Chunki bularning fe'li-atvorlarini Uzuk Saidahmad eshonnikida yashagan paytlarida bilgan edi. Uning mozorga borgisi kelmas edi. Ammo Qo'nish boyvuchcha buyurgan ishni qilmasa, baloga qolishi ham aniq edi. "Mendan nima ketibdi! — deb o'yladi Uzuk. — Mana bu jahannamda bo'g'ilib o'tirganimdan ko'ra, ziyorat bahonasi bilan birpas yozilib kelganim yaxshi emasmi?"

Xullas, Uzuk qaynonasining buyrug'ini bajo keltirib, juma kunlari Hotamshayx mozorini ziyorat qiladigan bo'ldi. Enaquti uni bir ko'rishdayoq tanidi. Uzuk qo'li ochiq juvon ekanini biladigan mug'ombir xotin unga juda yaxshi muomala qilar, yakkama-yakka qolganda:

— Men sening ko'nglingni bilaman. Uzukjamol, sen nohaq jabr ko'rib yuribsan! — deb shivirlardi.

Uzuk bu xotinning ochko'zligini bilsa ham, o'shanda u Berdi ikkovining sirini yashirgani, sovg'aga uchib, eshonning otlarini berib yuborgani esida turardi. Enaquti yomon bo'lsa ham, Uzukka Bekmurodboylarchalik yovuz ko'rinmas edi. Shuning uchun Uzuk mozorga nazr-niyozni iloji boricha ko'p olib kelardi. Bekmurodboylar beva-bechoralarni zor qaqshatib yiqqan boyliklar behisob edi.

Uzuk ilojini topsa, bu boyliklarni havoga sovurgan bo'lardi. Chunki eri bilan qaynag'asini mana shu boylik quturtirib yurganini u har kuni sezardi. Uzuk nazr-niyozni katta olib kelgan sari Enaquti unga mehribon bo'lib borardi. Birda-yarim qishloqqa yo'li tushganda Enaquti Qo'nish boyvuchchani ko'rgani kirar, o'sha yerda Uzukni maqtab:

— Xudo xohlasa, bir yil o'tmay bu kelinингiz sizga qo'chqorday o'g'il tug'ib beradi, — derdi. — O'zi ham juda muloyim bo'lib, insofga kelib qolibdi!

— Biz tarbiyalab muloyim qildik-da, — derdi Qo'nish boyvuchcha.

— Men ham shuni hammaga aytib yuribman, boyvuchcha. Siz — tabarruk onasiz. Sizning tarbiyangizni olgan kelin kam bo'lmaydi. Kelinингiz avliyoning mozorlarida hamma toat-ibodatni juda o'rniga qo'yyapti. Xudo xohlasa, murodingizga etasiz! Enaqutining bu gaplaridan keyin Uzukning ziyoratlari uchun yo'l yanada kengroq ochildi. Uzuk ilgari mozorga faqat juma kunlari borsa, endi chorshanba kunlari borishiga ham ruxsat berildi. Qishloq bilan mozorning oralig'i anchagina yo'l. Egri-bugri so'qmoq taqir yerlardan, qalin to'rang'ilar, yulg'inlar o'sib yotgan pana joylardan o'tadi. Avvallari Uzuk bu yo'ldan yolg'iz yurmas, mozorga ham qishloq ayollari bilan birga borar edi. Keyin-keyin o'rganib ketib, so'qmoqdan bir o'zi ham bemalol o'tadigan bo'ldi. Bugun chorshanba, Uzuk yana mozorga nazr-niyoz olib keldi. Enaquti uni hujrasiga olib kirib:

— Uzukjamol, men bir tush ko'rdim, — dedi. — Sen egarlangan oq tuyaga minib yurgan emishsan.

— Buning ma'nisi nima bo'ldi?

— Agar tuya yaydoq bo'lganda ma'nisi yomon bo'lar edi. Yaydoq emas. Yana oq tuya. Xudo xohlasa sen tilagan tilagingga etasan. Uzukning eng katta tilagi — Berdi bilan yana topishish edi. Ammo bu tilakka yetishiga u endi ishonmas edi. Shuning uchun boshini chayqadi.

— Ishonmaysanmi? — dedi Enaquti. U uch kun burun Berdini ko'rganini bir og'iz aytsa, Uzuk qanchalik quvonishini bilar edi. Ammo Berdi uni qanday qasam ichirgani va to'pponchasini peshonasiga tirab, qanday tahdid qilgani hali ham Enaqutining ko'z o'ngidan ketmaydi. Bu yigit aytganini qiladigan toifadan ekaniga Enaquti endi shubha qilmaydi. Bekmurodboylarning tegirmonidan-ki butun chiqibdi, endi bunga hech kim bas kelolmaydi. Shuning uchun Enaquti Berdini ko'rganini hech kimga (hatto, Uzukka ham) aytmoqchi emas. Uzukka bu sirni ishonmaganligi uchun emas, yo'q, Berdini yomon ko'rganligi uchun, Uzukka baxilligi kelgani uchun ham aytmaydi. "Hech kimga aytma, dedimi, bo'ldi, sevganiga ham aytmayman!" derdi Enaquti ichida. Ammo u Berdi bilan Uzukning yaqin orada biror joyda uchrashib qolishi mumkinligiga ishonar edi. Enaquti buni oldindan karomat qilib aytib, Uzukning mozorga ixlosini oshirishga intilmoqda edi.

— Agar sen mening tushimga ishonmasang, — dedi u, — ilohim seni azizlar ishontirsin, avliyolar ishontirsin! Enaquti keyingi paytda o'ziga "eshon oyim" deb ot qo'yib olgan edi. Uzuk unga:

— Voy, eshon oyim, ko'nglingizga hech gap kelmasin, — dedi. — Men tushingizga jon deb ishonar edim. Lekin ko'p aldanib, zada bo'lib qolganman... Yana aldanishdan qo'rqaman.

— Qo'rqma, Uzukjamol. Sen hozir muqaddas dargohdasan. Seni aziz-avliyolar qo'llab-quvvatlaydi. Odatda, maqbaraning ichiga Uzukni Enaquti o'zi boshlab kirar, o'sha yerda hamma duoyi fotihalarni o'qib, muqaddas qabrning atrofidan Uzukni uch marotaba aylantirib olib chiqar edi.

— Bugun maqbaraga o'zing yolg'iz kirasan, — dedi Enaquti Uzukka. — Men o'rgatgan duolarni o'qiysan, qabrni uch marotaba aylanib chiqasan-da, keyin qiblaga qarab ko'nglingda nimaiki tilaging bo'lsa, aytasan. Xudo xohlasa shu bugun sening tilagan tilaging ijobat bo'ladi!

Uzuk nim qorong'i, zax maqbaraga yolg'iz o'zi kirib borganda, eti bir junjikdi. Go'yo qabrning yoni-verida kimdir uni poylab yotibdi-yu, hozir qandaydir favqulodda bir hodisa bo'lishi kerak. Tashqarida shamol esmoqda edi. Devorning qatida kimdir "o'-o'-o'", "o'-o'-o'" deya zorlanayotganday bo'ldi. Uzuk qo'rqqanidan kalima keltira boshladi. Agar u Enaqutining tushiga ishonmasa, mana shu yerda yotgan avliyoga ham shak keltirdi deganday bo'ldi. Qalbida qo'rquv aralash bir e'tiqod paydo bo'ldi. Bilgan duolarini o'qib, qabrni uch marta aylanib chiqdi-da, qiblaga qarab:

— E Xudo! — deb ko'ziga yosh olib astoydil iltijo qildi: — E Xudoyi taolo! Men ham bir bandangman! Men ham shu dunyoga umid bilan kelganman! Noumid qilma, parvardigor!

Uzuk qalbida tug'yon urib turgan istagini — Berdi bilan esonomon topishish istagini — bu muqaddas joyda ochiq aytishga botinmadi, lekin shu tilakni ko'ngliga tugib:

— Xudoyo Xudovando, men ham tilagimga yetarmikanman? — dedi. So'ng bu so'zlarni uch marta takrorladi:

— Tilagimga yetarmikanman? Tilagimga yetarmikanman, Xudo?!

Birdan jim-jit maqbaraning gumbazi tilga kirdi. Ulkan chinorlar soya solib turgan bu gumbazning allaqayeridan inson ovoziga o'xshaydigan ham, o'xshamaydigan ham bir sado keldi:

— Yeta-sa-an!

Uzuk o'zining iltijosiga berilgan bu javobni aniq eshitdi-yu, a'zoyi badani jimirlab ketdi. U yoqasini ushlab:

— E-voy, qudratingga tan berdim, Xudo! — dedi. — Ovozingni eshitdim, parvardigor! Eshitdim!

Uzuk hushi o'zida yo'q, maqbaradan telbalanib chopib chiqdi. Uni darvoza oldida kutib turgan Enaquti:

— Ha, nima bo'ldi, qo'rqdingmi? — deb so'radi.

Uzukning rangi "quv" o'chgan, ammo o'zi qo'rqqanga o'xshamas, baxtiyor tovush bilan:

— Eshitdim, ovozingni eshitdim, Xudo! — der, Enaqutining gapi esa qulog'iga kirmas edi. U Enaqutining oldida to'xtamay, chopganicha darvozadan chiqib ketdi. Chinor shoxlarining orasiga berkinib olgan va gumbazning tirqishidan ovozini o'zgartirib "yetasan!" degan Qovoqshayx sekin yerga tushdi.

— Nima bo'ldi? — dedi u Enaqutiga yaqinlashar ekan. — Qo'rqib qochdimi?

— Yo'q, e'tiqodi oshib, jazavasi tutib qochdi.

— Nazr-niyozni nasiya qilib ketibdi-da! Odamni bekorga ovora qilganing qoldi!

— Bekorga emas, hali qarab tur, bu juvon bizdan hech narsasini ayamaydigan bo'ladi.

Uzuk shu daqiqalarda qanot chiqarib osmonda uchib borayotganga o'xshardi. U aziz-avliyolarning ovozini eshitish anchamuncha odamga nasib bo'lmasligini bilar edi. Uning tortgan azob-uqubatlari bekor ketmagan ekan. Aziz-avliyolar bugun uning dodiga etdi. Endi u ham kelajakda yorug' kun ko'rishiga ishondi. Mana shu ishonch Uzukka qanot bog'laganday bo'ldi. U nariroqqa borib chopishdan to'xtadi. Hansirab orqa-oldiga qaradi. Mozor uzoqda qolgan, yolg'izoyoq yo'l qumloqda o'sgan to'rang'i va yulg'inlar orasiga kirib borar edi Uzuk nafasini rostlash uchun sekinroq yura boshladi. Shu payt ortdan bo'g'iq bir erkakcha ovoz:

— Uzuk! — deb chaqirgani eshitildi.

Bu ovoz unga boya maqbara gumbazidan eshitilgan sadoni eslatdi. Uzuk orqasiga qarashdan qo'rqib yana yugura boshladi.

— Uzuk! — degan chaqiriq yana takrorlandi. So'ng kimdir uni quvib kelayotgani eshitildi. Uzuk jon-jahdi bilan qochib borardi. Ammo uning oyoqlaridan mador ketib qoldi. Yo'l bo'yida o'sgan bir butaga surinib ketib, qum ustiga yiqilib tushdi. Orqadan yugurib yetib kelgan barvasta yigit to'satdan uni yerdan ko'tardi-yu, bag'riga bosdi:

— Uzuk, bu menman, Uzuk!

Uzuk o'zini Berdining og'ushida ko'rib, "men yo tush ko'ryapman, yo aqldan ozyapman!" deb o'yladi.

— Ko'zlarimga ishonmayman!.. Berdi?! Tirikmisan? Yoki arvoh?..

— Meni o'limdan sen o'zing olib qolgansan, Uzuk!

— Qamoqxonadan qutulib chiqdingmi?

— Ha! Men mana shu yerda sening o'tishingni poylab yotgan edim!

Berdi Uzukni og'ushidan qo'ymay qalin to'rang'ilar orasiga olib kirib ketdi. Uzuk boya gumbazdan eshitilgan sado tufayli niyatiga yetganday bo'lib:

— Xudoyo o'zingga shukur! — dedi-da, Berdining ko'kragiga yuzini qo'yib, yig'lab yubordi. Berdi Uzukni yelkasidan silab:

— Bas, yig'lama, eson-omon uchrashganimizdan quvon, kul! — dedi.

Uzuk ko'zining yoshini kafti bilan artib, kulimsiradi:

— Berdijon, men sen bilan eson-omon ko'rishishni Xudodan astoydil tilagan edim.

— Ishqilib, odam dunyodan umidini uzmasligi kerak ekan, Uzuk. Esingdami, Axalda men senga nima degan edim?

— "O'limni bo'yningga olma" degan eding. Esimda bor. Lekin bular meni shunday bir ahvolga soldiki, men...

Berdi yumshoq qum ustiga to'nini to'shadi. So'ng bu ovloq joyda ikkovi kechgacha qolib ketishdi. Uch yildan beri boshlaridan kechgan voqealarni bir-birlariga aytib hasratlashishdi. Berdi Uzukni erkalab o'pganda Uzuk Omonmurodga xotin bo'lib o'tkazgan kunlarini esladi-yu, o'zini Berdiga munosib emasdek sezdi. Shunda Berdining ovozi alam bilan titrab:

— Menga bugun dushmanlarimni eslatma, Uzuk, — dedi. — Men hozir birpas bo'lsa ham sen bilan yayrab o'tirishni istayman. Sen mening nikohimga o'tgansan. Nima bo'lsa, bo'lib o'taversin, lekin men uchun sen hamisha o'sha Uzuksan. Senga men avval ham aytgam edim: it tekkan bilan daryo harom bo'lmaydi. Hali ham shu gapimda turaman. Tushundingmi?

— Muncha ham mardsan, asilsan, Berdijon! — deb Uzuk o'zi uni quchoqlab o'pa boshladi. — Men shuncha vaqt baxti qaro bir ayol bo'lib yurdim. Lekin hozir sening yoningda men buni unutdim. Ishqilib, Xudo shuni ham ko'p ko'rmasin. Sen endi omon bo'lsang, men o'zimni baxtiqaro demayman.

Oftob ufqqa yaqinlashib qolganda Uzuk sekin Berdining og'ushidan chiqib, qishloqqa qaytishi kerakligini aytdi.

— Yana o'sha jahannamga qaytasanmi, Uzuk?

— Nima qilay, Berdijon? — deb Uzukning ko'zlarida yosh halqalandi: — Sen qochib yurgan bo'lsang...

— Yur, seni ham Qoraqumga olib chiqib ketaman!

— Unda sening qamoqxonadan qochganing ma'lum bo'lib qolmaydimi?

— Ma'lum bo'lsa, bo'lar!..

— Axalga qochib borib ko'rdik. Bu boylarning qo'li uzun, qayoqqa cho'zsa yetadi.

Berdi Sergeyga bergan va'dasini esladi-yu:

— Mayli, Uzuk, hozircha chida, — dedi. — Men yaxshi do'stlar topdim. Boylarning oyog'i osmondan keladigan davr ham kelib qolar. Bunga kun sayin ishonchim ortib boryapti. Seni ko'rdim, ko'nglim ancha taskin topdi.

— Men har chorshanba, har juma kuni shu yerga ziyoratga kelib turaman.

— Bo'lmasa munday. Hu ana u chetki daraxtni ko'rdingmi, men kelgan kunim ana o'shaning shoxiga oq mato bog'lab qo'yaman. Sen shuni borayotgandami, kelayotgandami, ko'rsang, sekin shu o'tirgan joyimizga kelasan.

— Xo'p, Berdijon. Lekin ehtiyot bo'lgin.

— Sen o'zing ham birovga bildirib qo'ymagin. Aytmoqchi, Bekmurodboyning qizidan ehtiyot bo'lgin. U seni daryodan qutqarib chiqqan yigit bilan oralaringda bir gap bor, deb o'ylar ekan. Berdi shunday deb Bekmurodboyning mehmonxonasida qanday tunaganini va Ashirgul bilan qanday gaplashganini aytib berdi.

— Otasiga o'xshagan chayon qiz-da u, — dedi Uzuk. — Shuning uchun ham er olmaydi. Bo'lmasa, meni qutqargan To'rlining oyday xotini bor. Men uning xotini bilan opa-singil tutunganmiz. To'rlini men qiyomatlik akam deb yuraman.

— Men sening pokligingga shubha qilganim yo'q, Uzuk. Lekin bilib qo'ygin, deb aytdim.

Berdi Uzukni yana bir marta bag'riga bosdi-yu, keyin qo'yib yubordi. Uzuk so'qmoqqa chiqdi-da, yana o'sha mash'um dargohga qarab ketdi.

* * *

Bahor o'tib, yoz keldi. Bu orada mozorning yo'lidagi o'sha belgili daraxtga bir necha marta oq mato bog'landi. Uzukning

bo'yida bo'lganini qovun pishig'ida qaynonasi Qo'nish boyvuchcha ham sezdi.

— Aytmabmidim senga, Hotamshayx avliyoga sig'insang, murodingga yetasan demabmidim! — derdi u Uzukka qarab. — Xudo xohlasa, o'g'il tug'asan, otini Davlatmurod qo'yamiz...

## ALAMLI YURAK TOSH BO'LAR

Ikki yildan beri davom etib kelayotgan jahon urushi narx-navoni oshirib yuborgan. Bozorlarda kun sayin don qimmatlashib, buyum arzonlashib boradi. Bir uyda bir o'zi qolgan Uzukning onasi O'razsulton xola ip yigirib, gilam to'qib tirikchilik tebratar edi. Uning to'qigan gilamlarini archin Mamat iloji boricha arzon olar, kampirning mehnat qilib topgani ovqatiga yetmas edi. Buni bilgan O'g'ilniyoz xola uni doim bir kosa ovqat bilanmi, issiq non bilanmi yo'qlab turardi. Kechalari kampirning uyqusi qochib ketar, uylaridan begona bo'lgan o'g'li Turdi bilan qizi Uzuk har esiga tushganda yuragi bir timdalanar edi. Onadan farzandlarini judo qilgan Bekmurodboylarni kampir dunyoda bor hamma yomon qarg'ishlar bilan qarg'ardi. Qarg'ishlari tugagandan keyin:

— Ilohim bolalarimning boshi toshdan bo'lsin, ilohim Xudo bizni ham yorug' kunlarga yetkazsin! — deb qo'yardi.

Bugun kechasi kampir mana shu tarzda o'zi bilan o'zi gaplashib, xiragina chirog' yorug'ida ip yigirib o'tirganda eshikdan soqol-mo'ylovli, novcha bir yigit kirib keldi. Kampir uning ko'zlarini kimningdir ko'zlariga o'xshatib turgan edi, yigit salom berdi. Kampir uni ovozidan tanidi:

— Berdijon! — deb sakrab o'rnidan turdi. — Berdi! Bolam! Qutulib keldingmi? Berdi!

Kampir Berdini quchog'iga olib, uning nomini baland ovoz bilan takrorlar edi. Berdi ovozini pasaytirib:

— O'razsulton xola, sekinroq gapiring, mening kelganimni hech kim bilmasin, — dedi.

— Xo'p, aylanay, xo'p! Qani, mana bu yerga o'tir. Qanday qutulib kelding? Turdini qo'rdingmi, yo'qmi?

— Turdidan sizga salom.

— Aylanay sendan, Turdi qayerda hozir?

— Qoraqumda birga yuribmiz. Mana bu sizga sovg'a!

Berdi xurjunga semiz qo'yning bir sonini solib kelgan edi, olib kampirga uzatdi. O'razsulton xola seryog' go'shtni uning qo'lidan olar ekan:

— Berdijon, bu yana o'g'irlik qo'yning go'shti bo'lmasin? — dedi.

— Yo'q, bu — men bilan rahmatlik Murod og'a ikkovimiz mehnat qilib topgan qo'ylarimizning go'shtidan.

Kampir bu gapning ma'nosini tushunolmay ag'rayib turardi.

— Esingizda bormi? — dedi Berdi. — Subhon xasis Murod og'a ikkovimizni ishlatib-ishlatib, haqqimizni yeb ketgan edi. Men yaqinda Turdi bilan uning sherigini yonimga olib, xasisning qo'ylari yoyilib yurgan yaylovga bordim.

— Ha, aytmoqchi, uning yaylovini sen yaxshi bilasan-ku! Subhon xasis buni hammadan sir tutar edi-ya!

— Endi siri ochilib, xasis soqolini yulib yurgan bo'lsa kerak. Cho'ponlari ham beparvoroq ekan... Murod og'a ikkovimizning ikki yillik haqqimizni hisoblasam, o'ttiz-qirqta qo'y bo'lar edi-yu, lekin bu hammasi begunoh cho'ponlarning bo'yniga tushib qolmasin, dedim. Hozircha faqat ikkita semiz qo'yini olib ketdik!

— Xasisni toza boplabsanlar-ku.

— Bu hali xamirning uchidan patir, O'raz xola. Xasisda hali bizning haqqimiz ko'p.

— Xasisdan-ku, oz-moz haqlaringni olibsanlar. Endi bu Bekmurodboylardan qasdlaringni qachon olasanlar, Berdijon? Ko'zim tirikligida Uzukni bir ko'rsam edim, bag'rimga bir bossam edim!

O'razsulton xolaning ko'zlarida yosh yiltilladi. Berdi og'ir tin oldi-da:

— Sabr qiling, xola! — dedi. — Men Uzukni ko'rdim.

— Ko'rdingmi?! Tani-joni sog'mi?!

— Ha, sizga salom aytdi. Men uni olib qochib ketmoqchi ham bo'ldim, lekin... o'ylab qarasam... Yana o'sha Axaldagidaqa baxtsizlik bo'lishi mumkin.

— To'g'ri aytasan, Berdijon. Endi boshqa yo'lini axtaringlar.

— Boshqa yo'li — hamma kambag'allarni boylarga qarshi qo'zg'atish, tekinxo'rlardan butun mol-mulkni, davlatni tortib olish. Hozir biz Qilichli, Sergey, Turdi — hammamizning o'ylaganimiz ana shu.

— Ilohim, o'ylaganlaring kelsin, bolam!.. Hozir sen kelmasingdan oldin, men senlarga umr tilab, Bekmurodboyni qarg'ab o'tirgan edim. Shu boylar bizning boshimizga qanday yomon kunlarni solgan bo'lsa, Xudo hammasini ularning boshiga ham solsin. Bekmurodboyning bo'yi yetgan qizi bor deb eshitaman. Ilohim uning qizini ham birorta bo'yni yo'g'on olib qochib ketsin! Ilohim el-yurt oldida nomusiga chidamay, sharmanda bo'lib o'lsin hammasi!

"Alamli yurak tosh bo'ladi" deydilar. Bekmurodboy O'razsulton xolaga shunchalik alam o'tkazgan ediki, hozir bu kampir uning butun urug'-avlodi shafqatsizlarcha qirilib ketishini istardi, kampirning qarg'ishlari Berdini o'ylantirib qo'ydi.

O'sha oydin kechada u nortuyaning oyog'i tagidan qutqarib olgan dirkillama qiz ko'z oldidan o'tdi. Otasining bolasi bo'lgan bu qiz Uzukni ko'rarga ko'zi yo'q. Paytini topsa, Uzukni chayonday chaqishga tayyor. Berdi mozor yo'lidagi to'rang'izorda Uzuk bilan har uchrashganda o'sha qiz poylab kelib qolishidan qo'rqadi. "Agar poylab kelib qolsa, bo'g'ib tashlayman", deb ko'ngliga tugib ham qo'ygan. O'razsulton xolaning qarg'ishlari ta'sirida Berdining ko'nglida boshqa bir istak paydo bo'ldi.

— Chindan ham, — dedi u, — agar biz Turdi, Olloquli uchalamiz Bekmurodboyning o'sha qizini olib qochib ketsak-chi?

— Unda men bir alamdan chiqar edim-da, Berdijon!

Lekin boyning odami ko'p, qo'lga tushib qolmanglar, tag'in!

— Buni qilsak ham, hamma tomonini o'ylab, qo'lga tushmaydigan bo'lib qilamiz-da. Ana unda qiz o'g'irlatishning nimaligini ular ham bir bilib qo'yadi!

— Qizi ko'hlikkina emish. Sen... o'zingga xotin qilib olasanmi, Berdijon?

— Menmi? Be!.. Men uni Uzukning bitta tirnog'iga ham olmayman, xola. Uzuk menga nikohlangan!

— Bo'lmasa... qanday qilasanlar? Qiz olib qochilgandan keyin birovning nikohiga o'tishi kerak-da. Turdi ham balog'atga yetdi. Yo Turdiga nikohlab berasanmi?

O'raz xola boylarga har qancha shafqatsiz bo'lganda ham, Berdi yoki Turdining nikohsiz qiz bolaga teginib, harom yo'lga yurishlarini istamas edi. Berdi buni tushundi-yu, miyig'ida kuldi:

— Siz bizni unaqa deb o'ylamang, xola. Biz boylarning jazosini beramiz-u, lekin ular qilgan iflosliklarni qilmaymiz. Nima bo'lganda ham, bu sirni hech kim bilmasligi kerak. Meni ko'rganingizni ham hech kimga aytmang.

— O'g'ilniyozga ham aytmayinmi?

— O'g'ilniyoz xola biladi. O'g'li Qilichli unga tushuntirib aytadi. Sizlar ham meni qutqarganlardan ekansizlar. Hammasini eshitdim.

— Aytmoqchi, senga bir dasturxon pishma pishirib yuborgan edik. Sirboy eltib berdimi, yo'qmi?

Berdi kampirni xursand qilish uchun yolg'on gapirdi:

— Ha, juda mazza qilib yedim. Hammasi uchun rahmat!.. Endi biz sizdan yaqin orada xabar ololmasak, xavotir bo'lmang. Chunki o'zingiz bilasiz, devorning ham qulog'i bor. Subhon xasis o'lguday ayyor odam, sezib qolishi mumkin. O'zi qo'ylaridan ayrilib, alamzada bo'lib yurgandir. Agar mening kelib ketganimni bilib qolsa, keyin sizni ham tinch qo'ymaydi.

— Men hech kimga bildirmayman, Berdijon. Bu yog'idan xotirjam bo'l. Uzukjamolga salom de! Turdijonni quchoqlab o'pib qo'y! Ey-voy, bolalarimni o'ylasam, yuragim qon bo'lib ketadi, Berdijon! Qachon endi diydor ko'rishar ekanmiz? Qachon biz bu kunlardan qutular ekanmiz?

— Vaqti kelib qolar, axir...

O'razsulton xola Berdi bilan yig'lab xayrlashdi.

## BEKMURODBOYNING TUZOG'I

Qishloqlarda har kuni soliq janjali. Hukumat "oqpodsho hazratlarining farmoni oliylari" bilan dehqonga o'n tanga soliq solsa, mahalliy amaldorlar buni yigirma-o'ttiz tanga qilib undirib olib,

ortig'ini o'zining hamyoniga tiqadi. Ilgari ot-ulov, qo'y-echkilar uchun soliq to'lansa, bora-bora uy solig'i, arava solig'i, hatto, telpak solig'i degan narsalar ham chiqdi. Bu soliqlarni vaqtida to'lamagan odamlarni archinlar siquvga oladi, birovning sog'in sigirini, birovning yolg'iz baytalini, birovning boshidagi telpagini tortib olishadi. Erkak odamning telpaksiz bosh yalang yurishi esa turkmanlar orasida eng yomon nomus hisoblanadi. Telpagini oldirgan odam bor-budini sotib bo'lsa ham bu nomusdan qutulishga harakat qiladi. Archinlar xalqning mana shu odatidan ham soliq undirish uchun foydalanishar edi. Oliq-soliqlar odamlarning joniga tegib, norozilik kun sayin kuchayib borayotgan 1916-yilning o'rtalarida chor hukumati turkmanlardan ham mardikor olish haqida farmon chiqardi-yu, yaraning ustiga tuz sepganday bo'ldi. Xiva tomonlarda g'alayonlar chiqqani, Junayidxon bu g'alayondan foydalanib, Xiva xonidan taxtni tortib olishga intilgani, lekin niyatiga yetolmay, Afg'onistonga qochgani el orasida ovoza bo'ldi. Mari atroflaridagi qishloqlarda ham mardikorlikka borganlar "yo o'lib qutularmish, yo kofir bo'lib qaytarmish", "o'n to'qqiz yoshdan o'ttiz uch yoshgacha hamma erkak zotini olib ketarmish" degan gaplar kun sayin ko'payib borar, hamma yoqdan g'alayon hidi kelar edi. Mari uyezdining hokimi polkovnik Peresvet tahlikaga tushib qoldi, askariy kuchlarning ko'pi urushda, Mari garnizonida odam kam. Agar butun xalq bir bo'lib, qo'zg'olon ko'tarsa, eplab bo'lmaydi. Darhol Toshkentga maxfiy telegramma jo'natib, general-gubernatordan qo'shimcha harbiy kuch so'rasa, biron natija chiqishiga polkovnikning ko'zi yetmaydi. Chunki Toshkentning o'zida ham xalq mardikor olishga qarshi qo'zg'olon ko'targani unga ma'lum.

Polkovnik o'ylab-o'ylab, boshqa bir reja tuzdi. Adyutantini chaqirib:

— Darhol Yusufxon topib kelinsin, — deb buyurdi.

Yusufxon Mari aholisining orasida eng nufuzli boylardan biri edi. Xufiya agentlar polkovnikka keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, Yusufxon ham, dehqonlarga yaxshi ko'rinish uchun mardikor olishga qarshi gapirib yurar edi. Biroq bu odam jandarmeriyaga ham til bergan edi. Yusufxonni kechasi yotar mahalda topib kelish-

di. Polkovnik har qancha charchagan bo'lsa ham, uyidan chiqib yana kabinetiga qaytdi. Qabulxonada kutib o'tirgan Yusufxon uni ko'rgan zahoti sakrab o'rnidan turdi. Polkovnik, odatda, Yusufxon bilan juda quyuq so'rashar edi. Bu gal qovog'ini solib, til uchida salomlashdi-da, kabinetiga kirib ketdi. Ancha vaqt o'tgandan keyin adyutant chiqib, Yusufxonni chaqirdi. Polkovnik Yusufxonni o'tirishga taklif qildi.

— Biz sizni juda hurmat qilar edik, janob Yusufxon, — dedi. — Podsho hukumati sizning savdo-sotiq ishlaringizga keng yo'l ochib bergan edi...

— Men buning uchun oq podshodan ham, sizdan ham hamisha minnatdorman, janob polkovnik.

— Siz "agar podsho hazratlariga biron kimsa til tegizsa, men darhol ma'lum qilaman" deb jandarmeriyaga tilxat bergansiz. Mana, o'sha tilxat.

— To'g'ri, polkovnik janoblari, men podsho hazratlariga o'lgunimcha sodiqman.

— Qani bu gapingizning isboti? Odamlar hamma joyda podsho hazratlari qo'l qo'ygan buyruqqa qarshi gapirib yuribdi. G'alayon tayyorlanyapti. Siz bundan bizni ogohlantirish o'rniga o'zingiz ham...

Yo'q, yo'q, janob polkovnik! Men odamlardan gap olish uchun "o'zim ham mardikor olishga qarshiman" dedim. Agar shunday demasam, xalqning nazaridan qolaman. Hozir norozilik juda kuchli.

— Xo'sh, xalqingiz qo'zg'olon ko'tarmoqchimi?

— Xalqni qo'zg'olonga undayotgan buzuqilar ham bor. Lekin men odamlarni murosaga chaqiryapman.

— Qo'zg'olon ko'tarmoqchi bo'lganlar bir narsani bilib qo'yishlari kerak, janobi Yusufxon. Rossiya imperatori har qanday qo'zg'olonni shafqatsizlarcha bostiradi. Behuda qon to'kilmasin deganlar murosa yo'liga o'tishlari kerak!

— Mening ham fikrim xuddi shunday, Peresvet — Sulton janoblari, — dedi Yusufxon.

U polkovnikning boyagi avzoyini ko'rib "qamalaman shekilli" deb qo'rqqan edi. Endi polkovnik ham murosa yo'lini izlayotganini sezib, birdan yengil tortdi. Polkovnikni yumshatgisi kelib,

uning familiyasiga "Sulton" so'zini qo'shib aytdi. Polkovnikka bu qo'shimcha juda yoqimli tuyular edi. Hozir ham chehrasi birdan ochilganday bo'lib:

— Janob Yusufxon, — dedi. — Turkman boylari avom xalqqa ergashmasliklari kerak. Avomlarni qo'zg'olonga chaqiradigan yashirin tashkilotlar bor. Bu tashkilotlarning niyati bizga ma'lum. Ular hamma boylarning mol-mulkini kambag'allarga tortib olib berishmoqchi.

— Bunga yo'l bermaslik kerak, polkovnik janoblari. Men o'zim shu kunlarda sizning huzuringizga maslahatga kirmoqchi edim.

— Qanday maslahat?

— Bizning xalq mardikorga odam berib o'rgangan emas. Suzishga o'rganmagan odamni daryoga tashlasangiz, cho'kib ketadi.

— Mardikor olinmasin demoqchimisiz?

— Agar iloji bo'lsa, buni kattaroq bir soliq bilan almashtirish kerak. Axir pulga podsho hazratlari boshqa joylardan odam yollashlari mumkin-ku.

— Lekin buni siz-u, biz hal qilolmaymiz. Buni faqat podsho hazratlarining o'zlari hal qiladi.

Polkovnik bir lahza o'yga tolgan odamday jim qoldi. Aslida u bu narsalarni avvaldan o'ylab olgan. Yusufxon orqali xalqni vaqtincha bo'lsa ham biror narsa bilan aldab turishga qaror bergan edi.

— Janob Yusufxon, sizning sakson yoshga kirgan tabarruk onangiz borlar-a?

— Ha, mening onamni xalq juda hurmat qiladi...

— Bunday keksalarni podsho ham hurmat qiladi, — dedi polkovnik. — Bunday qilsak, siz atrof qishloqlardan eng nufuzli mo'ysafidlarni mehmonga chaqirsangiz.

— Xo'p, janob polkovnik.

— Lekin hozir biz ikkalamiz nimani gaplashsak, hammasi sir — davlat siri, tushundingizmi?

— Tushunaman, janob polkovnik. Menga ishonavering. Tilxatim qo'lingizda turibdi-ku!

— Xo'sh, o'sha mo'ysafidlarga podshoh hazratlarining dargohlari keng ekanligini aytsangiz. Keyin maslahat bersangizki, qishloqlarining eng chevar ayollari yig'ilib, sizning onangiz

rahbarligida yaxshi gilamlar to'qisalar. Bu gilamlar podsho hazratlariga turkman xalqining sadoqatini bildiradigan darajada go'zal bo'lsa.

— Bo'ladi! — dedi Yusufxon polkovnik bergan maslahatdan ilhomlanib. — Keyin bu gilamni mening onam podsho hazratlariga sovg'a qilib olib boradi!

— Xuddi shunday! Faqat avval Toshkentga borib, general-gubernatorning roziligini olish kerak. Demak, general-gubernatorga atab yana bitta gilam to'qish kerak... Yaxshi sovg'a-salomlar olib borish kerak.

— Bo'lmasa xalqdan pul to'plashga to'g'ri keladi.

— Mayli, pul ham to'plang. Odamlarni ishontiringki, agar mana shunday sovg'alar bilan tabarruk onangiz Toshkentga, undan keyin, Peterburgga borsalar, albatta, podsho hazratlarining marhamatlariga sazovor bo'ladilar. Mari uyezdi mardikor berish majburiyatidan ozod qilinishi mumkin. Buning o'rniga ham birorta soliq chiqarib qo'ya qolinadi.

— Men sizning doʻnoligingizga qoyilman, Peresvet — Sulton janoblari! — dedi Yusufxon astoydil xursand bo'lib.

Chunki u mana shunday bir ishning boshida tursa, xalq orasida obro'si yana oshadi. Odamlardan pul to'plash unga topshirilsa, yig'ilgan mablag'ning bir qismi uning o'ziga qoladi. Shunday qilib, polkovnik bilan Yusufxon g'alayonga hozirlanayotgan odamlarni chalg'itishning yangi bir yo'lini o'ylab topdilar. Oradan bir necha kun o'tar-o'tmas "Yusufxonning tabarruk onasi oqpodshoga arzga borarmish, mardikorlikdan xalqni qutqarmoqchi emish" degan ovoza tarqala boshladi. Keyin Yusufxon mo'ysafidlarni maslahatga chaqirib, mablag' to'plashga va podshoga munosib gilamlar to'qitishga qaror berganlaridan keyin bu ovozalar go'yo tasdiqlandi. Odamlarda umid paydo bo'ldi. Sabr kosasi to'lib yurganlar ham "balki tinchib ketarmiz" degan ilinj bilan oxiri nima bo'lishini kuta boshladi. Maxsus gilamlarni to'qib bitirish uchun anchagina vaqt kerak edi. Bu vaqt davomida polkovnik Peresvet o'z qo'l ostidagi hamma kuchlarni to'plab, maxsus kazak otradlari bilan qishloqlarni aylanib chiqdi. Toshkentda va Jizzaxda ko'tarilgan qo'zg'olonlar shafqatsizlik bilan bostirilganligi haqida xabar kelgan edi.

Polkovnik bu xabarni "Agar Marida ham g'alayon qiluvchilar bo'lsa, mana shu ko'yga tushadi!" — degan bir xulosa bilan iloji bo'lgan hamma joyda e'lon qildi.

Polkovnik qo'zg'olonning oldini oladigan hamma choralarni ko'rib bo'lgandan keyin "Yusufxonning onasi Toshkentga borgan ekan, yarim podsho qabul qilmabdi, oqpodshoning buyrug'ini o'zgartirish hech kimning qo'lidan kelmasmish, mardikor olisharmish" degan xabar tarqaldi. Odamlar Yusufxonga yig'ib bergan mablag'larni esa xonning o'zi oldi-yu, chevarlar to'qib bergan gilamlarning bittasini polkovnik Peresvetga sovg'a qildi. G'azabi qaynab turganda shaxti qaytgan dehqonlar endi yig'lab-siqtab, mardikor berishga rozi bo'ldilar.

* * *

Bekmurodboy har bir ishning, hatto, mardikor olishning ham o'ziga foydasi tegadigan tomonini topar edi. U yomon ko'rgan odamlarini mardikorlikka berib yuborishga intila boshladi. Uning eng ashaddiy dushmani Berdi edi, uni Ashxobod qamoqxonasida yo'q qilib keldi — Bekmurodboy Berdining o'ldirilganiga shubha qilmas edi. Endi Qoraqumda Turdi bilan Olloquli qoldi. Turdi bir o'zi bo'lganda haligacha qo'lga tushgan bo'lar edi. Mayli, hozircha Turdi Bekmurodboyning qo'liga tushmay turibdi. Ammo Olloqulini qo'lga tushiradigan payt mana endi keldi. Olloqulining ota o'rnida ko'radigan tog'asi Xudoyberdi ham mardikorlikka odam berishi kerak. Chunki uning xo'jaligida o'n to'qqiz yashar o'g'li bilan yigirma bir yashar jiyani Olloquli bor. Shularning ikkovidan birini Bekmurodboy, albatta, qo'lga tushirishi kerak. So'nggi qarorga binoan har besh xo'jalik o'zaro kelishib, mardikorlikka bitta odam berishi kerak edi. Hech kim o'z ixtiyori bilan mardikor berishni istamas edi. Shuning uchun barcha xo'jalik boshliqlari Bekmurodboylarnikiga to'planishib, beshta-beshta bo'lib, chek tashlashga qaror qilishdi. Bekmurodboy, Valiboy va Omonmurodlar oldindan kelishib, Xudoyberdi og'a bilan bir to'pda chek tashlashga maslahat qilishgan edi. Kiyimlari yirtiq-yamoq Xudoyberdi og'a Bekmurodboyning uyiga kelganda, Valiboy uni qo'yarda-qo'ymay to'rga o'tkazdi. Odam ko'p kelganligi uchun

ichkariga sig'ishmay talay dehqonlar hovlida o'tirishdi. Ularning hammasiga bir lagangina palov tortildi — bir cho'qumdan yegan edi, yemagan labini yalab qolaverdi. Ammo Xudoyberdi og'a bilan birga uyning to'rida o'tirgan o'tag'asilar ikkovora-uchovora bir lagandan osh yeyishdi. Xudoyberdi og'a ko'pdan beri bunchalik shirin tovuq palov yemagan edi. Orqa-oldiga qaramay, katta-katta oldi, qorni to'yganda: "Xudoga shukur, bugun o'ng yog'im bilan turganga o'xshayman", deb o'zicha mamnun bo'lib qo'ydi. Choy ham ichilgandan keyin, dasturxon yig'ishtirildi-yu, odamlarning yuragini taka-puka qilib turgan ishga kirishildi. Qishloqning archini odamlarni beshta-beshta to'p qilib, chek tashlata boshladi. Archin bilan yana bir savodli odam hamma xo'jalik boshliqlarining nomini bir xildagi kichkina qog'ozchalarga yozib, qog'ozchalarni o'ram qilib telpakka solib qo'yadi. Har bir odam telpakdan bitta chek qog'oz oladi. Olingan qog'ozni archin ochib o'qiydi — kimning nomi oldin chiqsa, o'sha mardikorlikdan ozod bo'ladi. To'rda Bekmurodboylarning yonida o'tirgan Xudoyberdi og'a birdan mana shu boylarning to'piga tushib qoldi. Bu ayyor boylarni yutib chiqishi amrimahol ekanini sezgan bechora dehqon juda bezovtalana boshladi. Shunda Bekmurodboy uni xotirjam qilishga tirishib dedi:

— Avvalambor, kimning peshonasiga mardikorlik yozilgan bo'lsa, taqdirda bori bo'lmay qolmaydi. Qolaversa, hamma ishni insof bilan qilishimiz kerak. Mana shu telpakdagi cheklarning to'rttasi oldin chiqadi-yu, birimizning nomimiz, albatta, oxiriga qoladi. Kimki mardikorlikka borolmasa, o'rniga odam yollaydi. Men eshitdim, hozir bir odamni ikki ming to'rt yuz so'mga yollash mumkin ekan. Albatta, buncha pul bir odamga og'irlik qiladi. Shuning uchun, ikki ming to'rt yuzning yarmini (bir ming ikki yuzini) mardikorlikdan ozod bo'lgan to'rt odam to'plab berishi kerak. To'g'rimi, Xudoyberdi?

— To'g'ri.

— Bo'lmasa, qani, telpakni o'rtaga qo'y. Qani, olinglar. Kim birinchi oladi? Valiboy, senmi?

— Mayli, men ola qolay.

Valiboy olgan chekdan Saparning oti chiqdi. Sapar olgan chekdan Omonmurodning oti chiqdi.

— Qani, endi, siz ham oling, — dedi Bekmurodboy, Xudoyberdi akaga. Xudoyberdi aka nafasini ichiga olib, telpakka qo'l cho'zdi. Olgan chekini ochib ko'rdi. Qandaydir nom yozilgan. Lekin savodsiz dehqon bu nomning kimniki ekanligini o'qiyolmadi. Archinga uzatib:

— O'qing-chi! — dedi.

Archin qog'ozni ko'rib, ko'zi bir bejo bo'ldi. Xudoyberdi og'aga o'z nomi yozilgan chek chiqqan edi. Ammo Bekmurodboyning odami bo'lgan archin:

— E, e, Valiboy. Valiboy, siz ham ozod bo'libsiz, nomingiz chiqdi, — dedi. Xudoyberdi og'aning bo'g'inlari bo'shashib ketdi. Uning butun umidi to'rtinchi chekdan edi. To'rtinchi chekda Valiboyning nomi chiqdi. Archin esa uni:

— Bekmurodboy! — deb o'qib berdi.

— Xayriyat! — dedi Bekmurodboy.

Xudoyberdi og'ani sovuq ter bosdi. Turkmanlar "qora chek" deb nom bergan mash'um qog'oz uning ko'ziga tushgan oqday yomon ko'rindi. Og'ir jimlikda archin telpakning tagida yotgan beshinchi chekni olib ochdi. Unda Bekmurodboyning nomi bor edi. Ammo archin uni:

— Xudoyberdi og'a, taqdirda bori bo'ladi, — dedi. — Nima qilaylik, sizning nomingiz oxirida chiqdi.

Xudoyberdi og'a peshonasiga bir urib:

— Xudo meni munchalik sho'rpeshona yaratgan ekan! — dedi. Jo'jabirday jon, bitta-yu bitta dastyorim — shu katta o'g'lim edi. Xudo menga uni ham ko'p ko'radigan bo'ldimi?!

Bekmurodboy boshini afsuslanganday chayqadi:

— Ay, Xudoyberdi, senga mening rahmim keladi. Lekin iloj qancha! "Chekingga tushsa, chegrayma" degan gap bor. Endi agar ilojini topsang, o'g'lingning o'rniga boshqa odam yollagin-u, Melini olib qolgin.

— Odam yollashga menda pul qani!

— Biz-ku, boya va'da qilganimizday bir ming ikki yuzni to'plab beramiz-a. Lekin qolgan bir ming ikki yuzi senda yo'q-da!

Oldindan tuzilgan rejaga binoan Omonmurod gapga aralashdi:

— Boshqa bir yo'li bor. Agar Xudoyberdi og'a jiyani Olloqulini topib kelib, o'g'lining o'rniga yuborsa, qanday bo'ladi?

— Unga Valiboy da'vo qilib yuribdi-ku, — dedi Xudoyberdi og'a.

— Otimni o'g'irlagandan keyin, albatta, da'vo qilaman-da!

— Valiboy, — deb Bekmurodboy oraga tushdi, — sen endi mana bu bechora kambag'alga rahm qil. O'sha da'voyindan kecha qol.

— Kechmayman!

— Kel, endi bir vallomatlik qil, — dedi boy.

— Mayli, sen bunga o'sha uch yuz so'm mardikor pulini bermay qo'ya qol. Lekin buning jiyanini kechir.

Hamma boyning gapini ma'qulladi.

— To'g'ri maslahat!

— Valiboy pul bermasin-u, Olloquli mardikorlikka keta qolsin.

— Bekorga qumda qochib yurib, o'lib ketishi ham mumkin.

— O'lmaganda ham, — dedi Bekmurodboy, — hukumat uni bir kun emas, bir kun qo'lga tushiradi-yu, Sibirga surgun qiladi. Mardikorlikdan ham Sibir yomon. Mardikorlik nima, bir-ikki yil borib, ishlab keladi. Ungacha Xudoyberdi Olloqulining xotiniga qarab turadi. Xudoyberdi aka ikkilanar edi. Agar u o'g'lini olib qolib, jiyanini yuboradigan bo'lsa, Olloquliga o'gaylik qilganday bo'lmaydimi? O'zi-ku, tog'a-jiyanning orasi Subhon xasis sotib olgan yer mojarosi bilan ancha buzilgan edi. Endi Xudoyberdi aka mardikorlikday dahshatli bir ishni qanday qilib jiyanining zimmasiga yuklaydi?

Xudoyberdi akadan sado chiqavermagandan keyin:

— Mayli, uyingga borib, bola-chaqang bilan ham maslahatlashib ko'r, — dedi Bekmurodboy. — Valiboy ham o'ylab ko'rsin. Bir bitimga kelsalaring, menga aytinglar, men savobtalab odamman, qo'limdan qanday yaxshilik kelsa, hammasini qilaman.

## BOSHI AYLANGAN YO'L TANIMAYDI

Xudoyberdi og'a uyiga qanday kelganini bilmaydi. U bora-borguncha o'zini so'kib bordi: "Ahmoq bo'lmasam, kelib-kelib shu Bekmurodboylar bilan chek tashlashamanmi! To'rga o'tib, tovuq

palov yeguncha zaharni yesam bo'lmasmidi?! Bu boylarning otgan oshig'i olchiligini azaldan bilar edim-ku. Bular nimani quvsa yetadi, nimadan qochsa qutuladi..."

Xudoyberdi og'a qattiq iztirob cheksa ham, dardi ichida edi. Ammo uning xotini voqeani eshitgandan keyin uy bilan bitta bo'lib uvvos tortib yig'lashga tushdi:

— Voy men endi Melijondan tiriklay ajralamanmi-ya? Xudoyim menga Melijonni "tiriklay ayrilasan" deb berganmidi-ya! Men shunday bolamni borsa kelmasga qanday yuboraman-a?!

— Bas qil, bu hammasi Xudodan!

— Xudo nega hamma jabr-zulmini bizga o'xshagan bechoralarga yuboradi? Nega Bekmurodboylarga qora chek chiqmaydi? Mening qo'lim o'la-o'lgunimgacha boylarning yoqasida!

— Sen buni nega boylardan ko'rasan? Baqirma, birov eshitsa baloga qolamiz. Ular ham biz qatori chek tashladi, men hech bir ayyorlik sezganim yo'q. Bekmurodboy bizga qayishib bitta maslahat berdi. Melini chaqir, o'tirib bir kengashaylik. Yigirma yoshlik xipcha yigit Meli uyning orqasida yantoq g'aramlamoqda edi. Odamlar "borsa kelmas" deb aytayotgan mardikorlikka ketish uni goh tahlikaga solardi, goh o'zining yolg'iz ketmasligini, minglab yigitlarga qo'shilib, poyezdga chiqib, noma'lum yurtlarga safar qilishini o'ylasa, ko'nglida qandaydir mapoq paydo bo'lar, yoshligi tutib, "mayli, hamma nima bo'lsa, men ham shu-da!" — deb qo'yar edi. Biroq hozir oyisining kuyunib yig'lashlarini eshitib, Melini go'yo tomog'idan birov xippa bo'g'ib olganday bo'ldi. Nazarida, u mardikorlikka emas, o'limga ketadigan odam edi. O'n gulidan bir guli ochilmay o'lib ketishini o'ylasa, Melining o'ziga rahmi kelar, o'pkasi to'lib, ko'zida yosh yiltillar edi. Xudoyberdi og'a xotini bilan o'g'lini qarshisiga o'tqazib qo'yib, Olloquli to'g'risida gap ochdi. Bekmurodboy bergan maslahatni aytib, xotini bilan o'g'lidan so'radi:

— Xo'sh, qani nima deysanlar? Olloqulini qidirib topib, shu gapni aytsam to'g'ri bo'ladimi?

Meli onasiga qaradi. Boya dod solib yig'lagan ayol bu gapni eshitib, ko'nglida qandaydir umid uchqunlaganday bo'ldi. Olloquli tog'asining yuziga oyoq qo'yib, erini Subhonboyga sotganda bu

ayol ham, Meli ham undan juda xafa bo'lishgan edi. Keyin Olloquli tuhmat balosiga uchrab, sahroga qochib ketganda, Melining onasi "battar bo'lsin!" — degan edi. "Bizning rizqimizni tortib oldi, qilgan yaxshiliklarimizni unutdi, mana endi hammasi Xudodan qaytibdi!" Biroq bu xafaliklar va alamlar yolg'iz o'g'lidan tiriklay ajralish kabi bir dahshat oldida allanechuk juda kichik, juda ahamiyatsiz tuyuldi. Melining onasi endi Olloqulining sahroda qochqin bo'lib juda qiynalib yurganini ko'z oldiga keltirdi.

— Qochqinlik ham mardikorlikka borishdan a'lo emasdir.

Meli o'ylanib turib:

— Dadam unga bu gapni qandan aytadi? — dedi.

— Qaysi gapni?

— "O'g'limning o'rniga sen borgin" degan gapni.

— Mana shunisi menga ham juda xunuk ko'rinyapti, — dedi Xudoyberdi og'a. — O'zimizning o'g'limizga ravo ko'rmagan narsani unga ravo ko'rsak, insofdan bo'ladimi?

— Iye, jiyaningiz mening o'g'lim bilan barobarmi? — E'tiroz qildi Melining onasi. — Melijon qishloqda tinchgina mehnatini qilib yuribdi. Jiyaningiz yomon otliq bo'lib qochib ketgan. Agar Valiboy da'vosidan kechadigan bo'lsa, jon desin! Yana ancha pul ham yig'ib berishmoqchi emish. Jiyaningiz bu pulni olib, qalinning qolganini uzsin, xotinini qutqarib olsin!

— Mana bu gaping ancha ma'qul, — dedi Xudoyberdi og'a. — Olloquliga pul ham juda kerak. Men Bekmurodboyga uchrayin bo'lmasa. Valiboyning aniq gapini olib bersin. Agar da'vosidan kechishi aniq bo'lsa, keyin Olloqulini qidirayin. Nima deding, Meli?!

— Olloquli og'ani qidirib topsangiz, ko'ngliga keladigan gap qilmang, — dedi Meli. — "O'g'limning o'rniga" deyish uyat. Bunday demang.

— Mayli, men undan maslahat so'rayman. Keyin u nima qarorga kelsa, o'zi biladi. Shu fikr bilan Xudoyberdi og'a darhol Bekmurodboyning oldiga bordi. Bekmurodboy unga Valiboyning "uch yuz so'm evaziga da'vomdan kechaman!" degan aniq gapini olib berdi. Ertasi kuni Xudoyberdi og'a jiyanini qidirib, piyoda Qoraqumga jo'nadi. Bir kun ovora bo'lib, undan hech bir nom-

nishon topolmagandan keyin, kechqurun Qilichlining oldiga bordi. Qilichli bundan besh kun oldin Olloqulini Sari degan cho'ponning qo'shida ko'rganini aytdi. Xudoyberdi og'a bu qo'sh sahroning qayerida ekanini so'rab oldi-da, ertalabdan yana yo'lga tushdi. Biri-biriga o'xshaydigan qum tepalardan oshib, shimol tomonga qarab yurdi. Avval u iz bilinadigan so'qmoqlardan bordi. Keyin shamol turib, qumlarni shuvullatib ko'chirishga tushdi. Qum ko'chgandan keyin so'qmoqlar ham, izlar ham bekilib, ko'rinmay ketdi. Xudoyberdi og'a tusmol bilan shimol-g'arb tomonga qarab borar edi. Yakkam-dukkam saksovullar va cherkez o'tlar o'sgan cheksiz qum sahrosi peshinga borib tandirday qizib ketdi. Xudoyberdi og'a chanqab, tili tanglayiga yopishib ketdi. Uning taxminicha, qo'y suruvlari mana shu atrofda yoyilib yurgan bo'lishi kerak edi. Biroq atrofda bironta odam yoki qo'y-ko'zi ko'rinmas edi, Xudoyberdi og'a shu darajada chanqadiki, yurishga majoli qolmadi. Ammo o'tirib dam oladigan bironta soya joy yo'q, qumdan olovning tafti kelar edi. Xudoyberdi og'a qoqinib-surinib, yana bir qum tepaning ustiga chiqdi. Shunda uning ko'ziga ziloldy ko'm-ko'k bir ko'l ko'rindi. Oftobda jimir-jimir qilib turgan bu ko'l uncha uzoq emas edi. Xudoyberdi og'a bor kuchini to'plab, shu ko'lga qarab chopdi.

Ammo ko'zi tinib, oyog'i chalkashib yiqildi. Tashnalik butun vujudini qovjiratib tashlamoqda edi. U boshini ko'tarib oldinga qaradi. Boyagi zilol ko'l hali ham undan juda uzoq edi. Bu — aldamchi sarob edi. Ammo Xudoyberdi og'a uning zilol suv ekaniga ishongisi kelar, bunga shubha qilsa, so'nggi umididan ham ayriladiganday bo'lar edi. Uning turib yurishga madori qolmagandan keyin, issiq qum ustida emaklay boshladi. Yumshoq qumda emaklash ham nihoyatda mushkul. Xudoyberdi og'a ozgina siljidi-yu, hushidan ketdi. Bir vaqt hushiga kelib qarasa, tepasida kalxatlar aylanyapti. Agar shu yerda qolib ketsa, o'laksaxo'r kalxatlarga yem bo'lishini payqadi-yu, yana emaklay boshladi. Ammo chanqoqlik uning bo'yniga sirtmoq solib, nafasini shafqatsizlarcha bo'g'moqda edi. Xudoyberdi og'a yana hushidan ketdi. Osmonda tobora ko'payib borayotgan kalxatlar uning o'lishini kutib, tepasida charx urmoqda edi. Xudoyberdi og'a hushidan ketgan bo'lsa ham hali tirik ekanini

bu ko'zi o'tkir qushlar yuzlab metr balandlikda uchib yurib ham juda aniq sezar edilar. Ular qanchalik yirtqich bo'lmasin, insondan hayiqar, odamga yaqin kelishga jur'at etolmas edi. Ular faqat o'zini himoya qilolmaydigan o'likning ustiga dadil qo'nar, o'tkir tumshuqlari bilan murdaning ko'zini cho'qib, go'shtini uzib, ichini yorib yeyishga o'rgangan edi. Xudoyberdi og'a behush bo'lib yiqilgan joydan bir necha chaqirim narida — quduq bo'yida Sari qo'ylarini sug'ormoqda edi. Quduqdan sal beridagi qo'shda Berdi dam olib o'tirardi. U qamoqxonadan qochgandan beri Sarining qo'shiga ko'p kelar edi. Bir vaqt u osmonning uzoq chetida charx urayotgan kalxatlarni ko'rib qoldi. Cho'ponlik qilgan davrida kalxatlarni ko'p kuzatgan Berdi ularning bir nuqta atrofida aylanib qolganlariga qarab, buning bejiz emasligini payqadi. Qo'y sug'orayotgan Sarining oldiga kelib:

— Qo'ylaringdan bitta-yarimtasi kasal bo'lib yotib qolgan emasmikan? — dedi va kalxatlar aylanayotgan joyni ko'rsatdi.

— Bugun qo'ylarni sanaganim yo'q, bilmayman, dedi Sari va suruvga bir ko'z yugurtirib chiqdi. Unga qo'ylar hammasi borday ko'rindi.

— Mayli, sen ishingni qilaver, men nariroqqa borib bir qarayчi, — dedi Berdi. U ikkita qum tepadan oshib o'tib, uchinchisiga ko'tarilganda kalxatlar birin-ketin yerga qo'nayotganini ko'rdi. Berdi chopib pastga tushdi-yu, yana bir qum tepaga ko'tarildi. Shunda uning ko'zi uzala tushib yotgan odam gavdasiga tushdi. Yerga qo'ngan kalxatlar bu gavdani to'rt tomondan o'rab olgan, faqat hali unga chang solishga jur'at etolmay turishardi. Berdi cho'ponchasiga qiyqirib, odam yotgan tomonga qarab chopdi. Kalxatlar uni pisand qilmagandek hamon behush odamning atrofida o'ralishardi. Osmonda ancha ixcham ko'rinadigan bu qushlar yerda juda beso'naqay va vahimador tuyular edi. Berdi ularga yaqin borganda, qo'ynidan naganini olib osmonga qaratib o'q uzdi. Qoraqushlar endi qanotlarini yoyib lapanglab, sakrab, yerdan ko'tarila boshladilar. Berdi behush yotgan notanish odamning u yoq-bu yog'ini ko'rib chiqdi. Kalxatlar hali unga chovut solib ulgurmagan edi. Berdi ozg'in bu odamni uncha qiynalmay yerdan ko'tarib yelkasiga qo'ydi-da, iziga qaytdi. Olloquli bilan

Turdi qo'shdan narida o'tin terib yurgan edilar. Berdi terlab-pishib, notanish odamni qum tepadan ko'tarib tushdi. Bu orada Olloquli ham qo'shga qaytgan edi. Berdi ko'tarib kelayotgan odamning kimligini bilgisi kelib, uyga tomon yurdi. Yaqin borganda behush odamni tanib:

— Tog'a! Tog'ajon! — deb qichqirdi va Xudoyberdi og'ani Berdining yelkasidan oldi. Uni quduq bo'yiga olib kelib, yuziga, boshiga suv sochdilar. Nihoyat, Xudoyberdi og'a hushiga keldi. Ko'zini ochib, jiyanini ko'rdi-yu, yorilib ketgan lablarini zo'rg'a qimirlatib:

— Senmi... — dedi. Uning tili og'zida aylanmas edi. Berdi uning chanqab holdan toyganini sezdi-yu, boshini ko'tarib, suv ichirdi. Anchadan keyin Xudoyberdi og'a butunlay o'ziga keldi-yu: — Men seni qidirib chiqqan edim, Olloquli. — dedi. — Tepamda kalxatlar aylanib yotgani esimda bor. Keyin nima bo'lganini bilmayman. Meni qanday topdilaring? Berdi voqeani aytib berdi. Xudoyberdi og'a unga minnatdor ko'zlari bilan tikilib:

— Ilohim, bu yaxshiligingiz Xudodan qaytsin, yigit, — dedi. — Siz kim bo'lasiz o'zi?

— Men ham asli cho'ponman, — dedi Berdi, ammo boshqa narsalarni aytmadi. U ehtiyotkorlikka o'rganib ketgan edi.

— Berdi og'am bilan biz aka-uka tutinganmiz, — dedi Olloquli — Xo'sh, tog'a, uylar tinchmi? Hamma sog'-salomatmi?

— He-e, jiyanim, biz juda notinch bo'lib qoldik. Mardikorlik degan bir balo chiqdi. Omadi kelganlar hamma balolarga chap berib yuribdi. Bizga o'xshaganlarni tuyaning ustida ham it qopadi. Odam bolasining baxti past kelmasin ekan-da... Hammaga baravar chek tashlandi. Besh odamdan bittasi mardikorlikka olinadigan bo'ldi. Shu baxti qaro odam men bo'lib chiqdim-da.

Xudoyberdi og'a Bekmurodboylar bilan qanday baxt talashganini, keyin boy unga qanday maslahat berganini hikoya qilishga tushdi. Olloquli tog'asining nima maqsad bilan kelganini sezdi-da, ma'yuslanib:

— Xo'p, tog'a, agar siz istasangiz, men Melining o'rniga ketishga tayyorman, — dedi.

— Yo'q, jiyanim, men sendan faqat maslahat so'ragani keldim.

— Kelganingizdan juda ham xursandman. Otam yo'g'ida siz meni o'g'lingizday parvarish qilib o'stirgansiz. Keyin men yoshlik qilib, bir parcha yerimizni sizdan beso'roq sotib qo'ydim. La'nati Bekmurodboy meni aldab sottirgan ekan, hammasini keyin bildim.

— Shu Bekmurodboy-a? — dedi Xudoyberdi og'a. — Nega oldinroq aytmagan eding?

— Men o'zim buni keyin Turdilarning qishlog'iga borganimda bildim. O'sha yerdagi Subhon xasis degan boy bilan Bekmurodboy til biriktirgan ekan... Shu bilan gap ochilib ketdi-yu, qo'shda o'tirgan Sari ham, Turdi ham, Berdi ham boydan ko'rgan yomonliklarini Xudoyberdi og'aga batafsil aytib berdilar. Olloqulini Bekmurodboy odam o'ldirishga o'rgatmoqchi bo'lganini ham, Uzuk va Murod og'alarning butun tarixini ham Xudoyberdi og'a endi birinchi marta eshitdi.

— Obbo, qonxo'r-ey! — dedi u eshitgan gaplaridan ta'sirlanib. — Bu boy nega meni to'rga o'tqazib, oldimga tovuq palov qo'yib, ziyofat qildi, desam, mening qo'lim bilan jiyanimni aldab, tuzoqqa ilintirmoqchi ekan-da!

— Nazarimda, — dedi Berdi, — o'sha chek tashlash paytida ular sizni aldagan. Har kimning nomi bitta qog'ozga yozilgan dedingizmi? Siz o'zingiz xat-savodli odammisiz?

— Qayoqda! G'irt savodsizman. Rost aytasiz, uka, qaysi qog'ozga nima yozilganini men qayoqdan bilib o'tiribman! Obbo, uying kuygurlar-ey. Men yana uning bergan maslahatlariga laqqa tushib o'tiribman-a! Qishloqqa qaytib borib, shartta yoqasidan olaman men uning!

— Endi vaqt o'tgan, — dedi Berdi va bir lahza jim turib, keyin davom etdi: — Men boya sizga kimligimni ochiq aytmagan edim. Endi qarasam, o'zimizga o'xshagan jabrdiyda odam ekansiz. Men ham, mana shu o'tirgan Turdi ham, Olloquli ham boylarni yakson qilish niyatidamiz. Shunday qilish uchun qulay fursatni kutib yuribmiz. Bekmurodboy meni "qamoqxonada yo'q qildim" deb yuribdi. Hozircha shunday deb yura turgani yaxshi. Uning mendan keyingi bir dushmani — Olloquli. Boy buni endi sizning qo'lingiz bilan yo'q qilmoqchi bo'lsa, nahotki siz shu yo'lga yurasiz?

— Yo'q, men burichalik bo'lishini hech ham o'ylagan emasman! Bizga har qancha og'ir bo'lsa ham, mayli, Melining o'zini jo'natamiz. Siz, — dedi Xudoyberdi og'a Berdiga qarab, — xotirjam bo'ling, uka. Men sir saqlashni bilaman. Bugun siz meni bir o'limdan olib qoldingiz. Buni umrbod unutmayman. Eskilar "boshi aylangan yo'l tanimaydi" deyishar edi. Mening boshim aylanib qolgani uchun odam ham tanimas ekanman. Bo'lmasa, Bekmurodboylarning battolligini azaldan bilar edim.

— Har qancha battol bo'lsa ham, bir kun emas, bir kun jazosini tortadi, — dedi Berdi Sergeyning kelajak haqidagi so'zlarini eslab. — Yaqin yillarda zamon o'zgaradi, degan gaplar bor.

— Qani endi bizning yelkamizga ham oftob tegsa!

Shu kecha Xudoyberdi og'a yigitlar bilan dardlashib, ne pallagacha uxlamay o'tirdi. Ertasi kuni qishloqqa bordi-yu, gapni ko'paytirmaslik uchun uyidagilarga "Olloqulini topolmadim", — deb qo'ya qoldi. Meli ko'p qatori mardikorlikka ketishini sezib, onasi yana dod-faryod ko'tarib yig'lay boshladi.

## QO'RQOQNI QUVSANG, BOTIR BO'L!

O'n yettinchi yildagi og'ir ocharchilikning yomon alomatlari o'n oltinchi yilning kuzidan ma'lum bo'la boshlagan edi. Ko'pni ko'rgan turkman yoshullilari "Ilon yilining xabarini baliq yilidan so'ra" deydilar. Baliq yilining kuzi haddan ortiq quruq keldi, havodan chang-to'zon yog'ilib, osmon g'ubordan arimadi. Keksalar qish va bahor ham quruq kelishini oldindan sezishib, elni sug'oriladigan ekinlarga zo'r berishga undar edilar. Sug'oriladigan yerlarda esa katta-kichik ariqlar juda ko'p. Murg'obning bo'tana suvi bu ariqlar bo'ylab besh-olti oy oqqandan keyin tagiga loyqa cho'kib, juda sayozlashib qoladi. O'sha davrda Mari atroflarida ariq tozalash ishi besh-olti oyga cho'zilar edi. Ayniqsa, bu yil baquvvat yigitlarning ko'pchiligi mardikorlikka jo'natilgandan keyin ariq tozalash yana ham qiyin bo'lib ketdi. Urushdan va soliqlardan tinkasi qurigan dehqon qurg'oqchilik va ocharchilik bo'lishidan qo'rqib, ozgina don-dunini tejab-tergab sarflar, kunlarni yarim och o'tkazar

edi. Bu ahvolda ariq tozalashday og'ir mehnatga bardosh beradigan odamni topish yana ham qiyinlashdi. Archinlar har bir dehqonning yeriga va oladigan suviga qarab ish o'lchab berar edilar. Xudoyberdi og'aga o'xshagan keksa dehqonlarga juda qiyin bo'lib ketdi. Ularga o'lchab berilgan ulush har yilgidan ortiq bo'lsa ortiq, ammo kam emas. Biroq ariq qaziydigan o'g'li mardikorlikka ketgan. O'zi yarim och yurib, sillasi qurigan. Uyda besh-oltita yosh bola...

Olloquli bu gaplarni Qilichlidan eshitgandan keyin:

— Men borib, tog'amga qarashmasam bo'lmaydi, — deb qoldi.

— Borib ariq qazimoqchimisan?

— Boshqa iloj yo'q.

— Boylar eshitib qolsa, tutib bermaydimi?

— Boylarning o'zlari ariq tozalashga chiqmaydi. Ularning puli ko'p, mardikor bozoridan uch-to'rtta odamni olib chiqib ishlataveradi.

Berdi o'ylanib turib:

— Bo'lmasa, bunday qilaylik, — dedi. — Xudoyberdi og'a ariqning qishloqdan uzoqroq joyidan ish o'lchatib olsin. Shunday qilsinki, yoni-verida ishlaydigan odamlarning orasida sening ham, mening ham hamqishloqlarimiz bo'lmasin. Sen bilan biz Turdi uchalamiz pulga yollangan mardikorlarga o'xshab, borib, ishlarini qilaveramiz. Bu gapni Qilichli orqali Sergey ham eshitibdi-yu:

— Lekin juda ehtiyot bo'lishsin, — deb tayinlabdi. — Xalqning orasida bo'lganlari yaxshi. O'rni kelganda, odamlarga vaziyatni tushuntirib turishadi. Faqat qo'lga tushib qolmasalar bo'lgani.

Qilichli Xudoyberdi og'ani xoli topib, yigitlarning fikrini yetkazdi. Keksa dehqon xuddi Berdi aytganday qilib, hamqishloqlaridan uzoqroq va ovloqroq bir joydan ish o'lchatib oldi. Uch yigit ariq tozalashga kirishdilar. Xudoyberdi og'aning ishi yaxshi yurishib ketgani nari-berida ishlayotgan yolg'izqo'l dehqonlarning havasini keltirar edi.

— Bu g'ayratli yigitlar kimlar? — deb bir-biridan so'rashar edi. Ariq tozalashga rahbarlik qilayotgan miroblar orasida Berdining hamqishlog'i archin Mamat ham bor edi. U bir kuni ariq yoqalab o'tayotib, Berdi bilan Turdini tanib qoldi. Keyin naryoqdagi dehqonlardan so'rab yurib, uchinchi yigitning kimligini ham aniqladi...

"Obbo, bu uchalasi juda topishibdi-ku, — o'ylaydi archin ichida. — Bularning bu yerda yurganini Bekmurodboy bilsa, darrov hukumatga tutib berar edi-ya. Menga nima, Bekmurodboyning g'amini yeb nima qilaman!"

Archin Mamat Bekmurodboyni yomon ko'rgani uchun ham, Berdilar to'g'risida besh-olti kun gap qo'zg'amay yurdi, ammo keyin boshqa bir narsani sezib qoldi. Ariq tozalashda ishlayotgan xo'jaliklarning hammasiga har yili qancha ish o'lchab berilsa, bu yil ham shuncha berilgan edi. Biroq ochlikdan tinkasi qurigan va mardikorlikka yigit bergan oilalar har yilgichalik ish qilishga qodir emas edilar. Ular:

— Bizning ahvolimiz nega hisobga olinmaydi? — deb norozi bo'lishardi. Bir kun archin Mamat odamlarni to'plab:

— Dehqonlar, — dedi. — Ishyoqmaslar qazuvni tashlab ketib qoldi. Agar qo'yib bersak, qazuv bitmaydiganga o'xshaydi. Biz, miroblar, archinlar, o'ylashib shunday qarorga keldik. Shu vaqtgacha bo'lgan qazuv hisob emas. Kelgusi bozordan keyin bo'ladigan ish hisob. Kimki shu bozordan keyin bir o'lchov ish olsa bahorda bir navbat suv oladi. O'n o'lchov ish olsa, o'n navbat suv oladi. Shu bozordan keyin qazuvda ish ko'rsatmaganlar suvdan mahrum qilinadi.

Bu gapni beli baquvvat, boy dehqonlar juda ma'qul ko'rdilar. Chunki ular mardikor bozoridan odam yollab, berilgan vaqt ichida bir necha o'lchovdan ish qilishlari, keyin shunga yarasha ko'p suv olishlari mumkin. Ammo ochlik, kasallik tufayli ishini oxiriga yetkazolmay ketib qolgan kambag'allar suvdan butunlay mahrum bo'lishi mumkin edi.

Berdi archinlar, miroblar oldida so'zlashdan o'zini tiyib, ehtiyot bo'lib yurar edi-yu, ammo bugun adolatsizlik bo'layotganini sezib, o'zini tutolmadi.

— Hozir archin Mamatning aytgan gapi faqat boylarning tegirmoniga suv quyadi, — dedi u. — Chunki boylar istagancha odam yollab, istagancha ko'p suv olishi mumkin. Ishlaydigan odamlari mardikorlikka olinganlar-chi? Ular quruq qoladi! Shuncha vaqt kuchi yetganicha ishlab, keyin sillasi qurib ketib qolgan bechoralar-

chi? Ular ham quruq qoladi! Hammasining tegishini boylar oladi! Bu noto‘g‘ri! Dehqonlar, bu gapga ko‘nmanglar!

Odamlar orasida g‘ala-g‘ovur boshlandi. Berdining gapi ko‘pchilikka ma’qul tushdi. U ariq qaziyotganda dehqonlar oldiga kelib maslahat so‘raydigan bo‘lib qoldilar. Berdi dehqonlarni Sergeyning oldiga yubordi:

— Egriguzardagi to‘g‘onda ishlaydi, turkmancha yaxshi gaplashadi, qonun-qoidalarni biladi. Iltimos qilib ariza yozdiringlar. Mariga borib, dod solinglar! Bo‘lmasa, bu miroblar boylarga qo‘shilib, bechoralarning sho‘rini quritadi!

Berdi norozi odamlarga yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatib yurgani og‘izdan-og‘izga o‘tib, nihoyat, archin Mamatning qulog‘iga borib yetdi. U Bekmurodboyni har qancha yomom ko‘rsa ham, hozir Berdi unga boydan ko‘ra xatarliroq tuyuldi. Archin endi Berdi va uning sheriklarini tutib berishga qaror qildi.

* * *

Ishning eng qiyini — katta ariqni tozalash edi. Kengligi yetti quloch keladigan, chuqurligiga odam bo‘ylay olmaydigan bu ariq juda ko‘p dehqonlarning tinkasini quritmoqda edi. Uning ichidan chiqqan loy aralash tuproqni tom bo‘yi balandlikka irg‘itish uchun juda baquvvat bilak kerak. Qazuvda ishlayotganlarning ko‘pi tushga borib juda toliqdi. Ikki kishi ariqdan chiqib choy qaynata boshladi. Boshqalar ham dam olish uchun ariq bo‘yiga chiqayotgan edi, Mari tomondan uchta qurolli politsiyachi ot choptirib kela boshladi. Ularning biri furajkalik, pogonlik rus kazaklaridan, ikkitasi cho‘girma kiygan turkman yigitlari edi. Uchalasining ham qo‘llarida beshotar miltiq. Endi ariq bo‘yiga chiqib yonboshlagan Berdi ularni ko‘rdi-yu, sekin ariqning ichiga qaytib tushdi. Turdi bilan Olloquli belkuraklariga yopishgan loyni qirib tashlamoqda edilar. Berdi ularga yaqinlashib shipshidi:

— Hushyor bo‘linglar... Hech qaysimiz qo‘lga tushmasligimiz kerak! Otliqlar to‘g‘ri ularga qarab kelmoqda edi.

— Ariqning ichi bilan panalab qochsak-chi? — shivirladi Turdi.

— Baribir ko‘rib qoladi. Bular otliq, qochib qutulolmaymiz.

Berdi engashib belkuragini oldi-da, ariq qaziy boshladi. Nima qilish kerak? Balki bularga tegishmas? Ehtimol, mardikorlikdan qochganlarni qidirib kelishgandir? Otliqlar ariq bo'yiga yaqinlashganda dam olib o'tirgan dehqonlar o'rinlaridan turdilar. Chovkar ot mingan kazak ruschaga turkmancha aralashtirib, miroblarni va archinlarni so'radi. Keksa bir dehqon ularning to'g'on boshiga ketganini aytdi. Kazak nimadir deb to'ng'illadi-da, cho'ntagidan bir qog'oz oldi va unga qarab:

— Berdi Aqi o'g'li kim? — deb qichqirdi.

Berdining yuzi oqarib ketdi. Demak, kimdir yetkazgan... U o'zini eshitmaganga solib, engashganicha ariq qazishda davom etdi. Kazak yana qichqirdi:

— Berdi Aqi o'g'li!.. Berdi...

Turkmanda nima ko'p, Berdi degan ism ko'p. Kazakning "Berdi Aqi" degan so'zlari sodda bir dehqonning qulog'iga "Berdi Baqi o'g'li!" deganday eshitildi. Uzun bo'yli o'rta yashar bu dehqon qo'rqa-pisa:

— M-men. — dedi.

Otliq kazak yonidagi yigitlarga ishora qildi. Ular darrov otdan tushib haligi dehqonning qo'lini orqasiga qilib bog'ladilar. Kelganlarning niyati yomonligini endi hamma sezdi. Kazak, yana qog'ozga qarab:

— Turdi Murod o'g'li kim? — deb qichqirganda, hech kimdan sado chiqmadi. Ariq chuqur, uning ichida egilib ishlayotgan odamlar yaxshi ko'rinmas edi. Ariq chetidagi daraxtlar va uning ichidan qazib chiqarilgan tuproq uyumlari ham pastdagi odamlarni to'sib turardi. Kazakning buyrug'i bilan uning sheriklari beshotar miltiqlarini otishga to'g'rilab, ariq labiga keldilar.

— Turdi Murod o'g'li qayerda? Baribir topib olamiz! Yaxshilikcha aytinglar!

Odamlar jim.

— Gungmisanlar? Nega aytmaysanlar?

Nihoyat, Turdining yonida turgan Berdi tutilib-tutilib javob berdi:

— Turdi... Murod o'g'li... boya hu ana u tomonda ishlayotgan edi.

— Qaysi tomonda?

— Hu ana u... qamishzorning oldi-da.

— Qani yur, menga ko'rsat! Yur, oldimga tush!

Berdi miltiqli yigitni ariqning yuqori tomoniga ergashtirib ketayotib, Turdiga ma'noli qarab qo'ydi.

Bu orada kazak:

— Olloquli Tangribergan o'g'li kim? — deb so'roqlay boshladi, yana hech kimdan sado chiqmagach, kazak ikkinchi yigitga Olloqulini topishni buyurdi. Kazakning o'zi esa qo'li bog'loqlik novcha dehqonni eng xatarli qochqin hisoblab, uni qo'riqlab turar edi. Berdi ko'rsatgan qamishzor yaqinida ariqning burilgan joyi bor edi. Burilishning naryog'ida qulog'i kar bir dehqon ishlamoqda edi. Berdi uni miltiqli yigitga ko'rsatib:

— Turdi ana shu, — dedi.

Miltiqli yigit ariq bo'yida turib:

— Turdi Murod o'g'li, chiq bu yoqqa! — deb qichqirdi. Ammo ariq qaziyotgan odam qayrilib ham qaramadi.

— Qulog'i kar bo'lib qolgan, eshitmaydi, — dedi Berdi.

Miltiqli yigit, ariqning ichiga tushgisi kelmay:

— Sen borib ayt! — dedi Berdiga. — Chiqsin! Bor ayt!

— Men qo'rqaman, achchig'i yomon, belkuragi bilan uradi, — deb Berdi ko'nmay turib oldi. Axiyri miltiqli yigit ariqning ichiga tushishga majbur bo'ldi. Berdi orqaga bir qarab oldi. Bu yerdan otliq kazak ham, boshqa odamlar ham ko'rinmas edi. Politsiyachi yigit miltig'ini jarga to'g'rilab so'kinib borayotganda Berdi undan sal ortda qoldi. So'ng bir sakrab, gavdasining butun og'irligi bilan politsiyachini yerga bosib tushdi. Bir qo'li bilan uning og'zini bekitib, ikkinchi qo'li bilan naganini qo'ynidan oldi. Naganning tutqichi bilan politsiyachini boshiga qulochkashlab urgan edi, politsiyachi hushidan ketdi.

Bu orada Turdi ikkinchi politsiyachiga Olloqulini ko'rsatish bahonasi bilai, uni ariqning narigi tomoniga boshlab ketmoqda edi. Olloqulini ham, Turdini ham dehqonlar yaxshi tanir edilar-u, lekin buni hech kim og'iz ochib aytmas edi — birovlar chaqimchi bo'lishni istamas, birovlar politsiyachilarni yomon ko'rar, boshqa birovlar Turdilardan qo'rqar, shuning uchun hamma o'zini bilmaganga solib jim turar edi. Berdi narigi politsiyachini qamishzor ortiga

boshlab ketayotib, Turdiga bir qarab qo'ygandayoq Turdi uning niyatini sezdi. Bu politsiyachilarni bitta-bitta chetga olib chiqib daf qilmasalar, oshkora olishib yengib bo'lmaydi. Ikkinchi politsiyachi Turdini oldiga solib borayotib, ketidan kimdir kelayotganini sezdi-da, tez o'girilib qaradi. Olloquli ularga ergashib kelmoqda edi. Politsiyachi uning avzoyi bejo ekanini sezib, miltig'ini o'qtaldi:

— Senga nima kerak?!

— Men ham... men ham ko'rsat...

Turdi sir hozir fosh bo'lishi muqarrarligini sezib qoldi. Politsiyachi Olloquliga miltiq o'qtalib gapirayotganda Turdi uni oyog'idan chalib yubordi. Politsiyachi yiqilayotganda miltig'i otilib ketdi. O'q hech kimga tegmadi-yu, lekin ariq ichidagi olishuvni otliq kazak sezib qoldi. Kazak otini yeldirib ariqning labiga keldi. Ot ariqqa tusholmas edi. Kazak otdan tushib, o'q otilgan tomonga qarab chopdi.

Turdi bilan Olloquli miltiqni politsiyachining qo'lidan tortib olishgan, o'zini ag'anatib urishmoqda edi.

Kazak ariq labiga kelib, Turdini mo'ljalga olayotganda naryoqdan Berdi yetib keldi. Kazakni bir tepib, ariqqa ag'anatib yubordi. Kazak yumshoq tuproq ustiga yelkasi bilan tushdi-yu, bir o'mbaloq oshib, darrov o'rnidan turdi. Berdi yuqoridan uni bosib tushishni mo'ljallab sakragan edi, ammo kazak chap berishga ulgurdi. Berdi to qaddini rostlaguncha kazak miltig'ini yerdan oldi va qo'ndoq bilan Berdining boshini mo'ljallab urdi. Ammo qo'ndoq Berdining yelkasiga tegdi. Berdi kazakning miltiq tutgan qo'llariga tepib yubordi. Miltiq yana yerga uchib tushdi. Berdi qo'lidagi naganni kazakning ko'kragiga to'g'rilab:

— Qimirlama, otaman! — dedi.

Kazak uning g'azabli yuziga qarab, qimirlasa chindan ham otilishini sezdi-da, qo'llarini ko'tardi. Bu orada Turdi bilan Olloquli narigi politsiyachini tappa-taxt qilgan edi.

— Olloquli! — dedi Berdi. — Beri kel, mana buning qo'lini bog'la! Turdi, sen unisining qo'l-oyog'ini bog'laysan.

Ariqning ichi-tashida ulardan ulardan boshqa hech kim qolmagan edi. Hamma dehqonlar o'q ovozini eshitgandayoq har tomonga tum-taraqay bo'lib qochishgan, faqat qo'li bog'log'liq

bechora Berdi Baqi o'g'li rangi bo'zday oqarib, ariq bo'yida hamon so'rrayib turar edi. Turdi, Olloquli, Berdi — uchalasi oyoq-qo'li bog'langan politsiyachilarni ariqning ichiga yotqizib qo'yishdi.

— Behuda qon to'kilmasin deb o'ldirmay ketyapmiz, bilib qo'yinglar! — dedi Berdi. Keyin u ariqdan chiqib, haligi dehqonning qo'lini yechdi.

— Bular boshqa Berdini izlab kelishgan ekan, siz ozodsiz! — dedi. Uchalasi politsiyachilarning miltiqlarini, o'qlarini bitta qoldirmay olishdi-da, ularning otlariga minishib, Qoraqum sahrosiga qarab yelday uchib ketishdi.

Oradan ikki kun o'tgandan keyin Mari uyezd hokimi ularni tutib kelish uchun o'n ikki kishidan iborat bir dasta soldat yubordi. Bekmurodboyning ukasi Omonmurod va Subhon xasisning katta o'g'li Madad bu soldatlarga yo'l ko'rsatuvchi bo'ldilar. Ular sahroda uch kungacha izg'ib, Berdilarni qidirishdi, lekin hech joydan o'zlarini ham, izlarini ham topisha olmadi.

## YORUG' DERAZA

So'nggi paytlarda Egriguzar to'g'onidagi oq uyning chirog'i kechasi ne pallalargacha o'chmaydigan bo'lib qoldi. Atrof qishloqlardagi dehqonlar Sergeyning oldiga ko'p kelishadi. Birovning o'g'li, birovning ukasi mardikorlikka ketgan. Ulardan xat keladi, konvertlardagi adreslar ruscha yozilgan bo'ladi. O'qitib tushunish uchun Sergeyning oldiga olib kelishadi. Mardikordagilarga xat yozishsa, yana Sergey kerak — konvertga adresni yozib beradi. Hozir qish kunida sug'orish ishlari to'xtab qolgani uchun to'g'ondagi mashinalar ham bekor turibdi, Sergeyning bo'sh vaqti ko'p. U dehqonlar bilan uzoq-uzoq suhbatlashib o'tiradi. Sergey turkman tilini yaxshi bilishini ko'rib dehqonlar bir-biriga:

— E, bu o'zimizning odam ekan, — deyishadi, — dini boshqa bo'lsa bo'libdi-da, bularni ham Xudo yaratgani! Sergey dehqonlarga "Xudo yo'q" degan gaplarni aytmaydi, bunday desa, ularni cho'chitib qo'yishini biladi.

— Har bir xalqning halol mehnat qiladigan kambag'allari bor, — deydi u. — Beli og'rimay non yeydigan tekinxo'rlari bor. Shuning uchun men odamlarni diniga qarab emas, qanchalik halol mehnat qilishiga qarab farq qilaman.

— Mehnat deysan, inim Sirboy, lekin mehnat ham jonga tegib ketyapti-da,— dedi Xudoyberdi og'a. — O'zimizda mehnat ozmidi? Ariq qazi, yer sug'or, g'o'za ek, paxta ter. Bu ham yetmaganday, mana endi bolalarimizni qaysi bir joylarga olib borib ishlatishyapti.

— Men ham ana shuni aytyapman-da. Mana, sizning o'g'lingiz Meli Samarada temiryo'lda ishlayapti ekan. Xatida yozibdi. "Rus ishchilari bilan birga ishlayman" debdi. "Ishchilarning ko'pini askarlikka olgan, o'shalarning o'rniga bizni olib kelgan" debdi. Haqiqatan, to'g'ri. Agar podsho hukumati xalqqa keraksiz shu urushni boshlamaganda edi, narx-navo ham ko'tarilib ketmas edi, mardikor ham olinmas edi. Podsholar urushmay turolmas ekan-da, — dedi dehqonlardan biri. — Ilgari zamonlarda shunday urushlar bo'lganki, keksalar aytaversa, sochingiz tikka bo'lib ketadi!.. Oqpodsho kelgandan beri qaytaga sal-pal tinchib qolgan edik. Bo'lmasa, bizdagi xonlar bilan beklar mudom urushar edi, biri-birining qonini ichib to'ymas edi. Sergey rus bo'la turib, oqpodshoni yomonlagani Xudoyberdi og'ani hayratga soldi:

— Sirboyjon, deyman, shu podshoda sening bir qasding borov, a? Hech qo'rqmay yomonlaysan-a!

— Podshoni men umrimda ko'rgan emasman, — dedi Sergey. — Shaxsan menga u hech qanday yomonlik qilgani yo'k. Lekin podsho butun mehnatkashlarga yomonlik qilyapti. Qancha begunoh odamlarning urushda bekorga o'lib ketishiga sabab bo'lyapti.

— Bu hammasi Xudodan, — deb qo'ydi keksa bir dehqon. — Podsholarga Ollohning nazari tekkan.

— Hozirgi oqpodsho sizning Ollongizni tan olmaydi, — dedi boshqa bir dehqon. — Uning Xudosi boshqa. To'g'rimi, Sirboy?

— Uning Xudosi ham boshqa, maqsadi ham boshqa, — dedi Sergey. — Agar oqpodsho ilojini topsa, turkmanlarning eng yaxshi yerlarini rus mushtumzo'rlariga tortib olib beradi. Agar oqpodsho ilojini topsa, turkmanlarning tilini ham, madaniyatini ham yo'qotib, hamma joyda ruslashtirish siyosatini amalga oshiradi!

— Obbo, oqpodshoning ham niyati buzuq ekan-a! — dedi Xudoyberdi og'a. — Men uni juda odil podsho deb o'ylar edim. Nega desangiz ilgari biz Xiva xonidan ham, Buxoro xonidan ham jabr ko'raverib, juda jonimizdan to'ygan edik. Oqpodsho keldi-yu, shu xonlarning urush-janjallaridan tinchidik. Ilgari zamonlarda gugurt degan narsani bilmas edik. Chaqmoq bilan o't yoqar edik. Chaqmoq ham borda bor. Ko'p odam qaysi mo'rida tutun ko'rinsa, o'sha yerga borib olovni tilab olar edi. Oqpodsho bizga gugurt berdi, olov berdi. Mana bunaqa to'g'onlarni qurib berdi. Sen ishlatadigan mashinalarni olib kelib berdi, Sirboyjon! Yo noto'g'rimi?

— Albatta, oqpodsho xonlarga nisbatan sal-pal durustroq. Lekin olovni sizga podsho bergan emas. Gugurtni podsho o'zi yasabdimi? Mana bu to'g'ondagi mashinalarning ham podshoga aloqasi yo'q. Buning hammasini sizlarga o'xshagan mehnatkashlar yaratgan. Xalqdan chiqqan ixtirochilar topgan.

Dehqonlar bu qaltis mavzularda ko'p suhbatlashishdan hayiqishardi.

— Devorning ham qulog'i bor, Sirboyjon, — dedi Xudoyberdi og'a. — Sen bu gapni qo'ygin-u, bizga boshqa bir narsani aytgin. Mana, qish o'tib boryapti. Chilla chiqdi. Osmondan bir tomchi yomg'ir ham tushmadi, qor ham tushmadi. Kuz ham quruq kelgan edi. Bu ketishda kuzgi bug'doylar unib chiqmaydi. Odamlarni vahima bosgan. Saidahmad eshon "qiyomat yaqin", deganmish. Xivani qum bosib, ko'mib tashlagan emish. Axalda zilzila bo'libdi. Tejenda suv toshgan emish. Shu hammasi rostmi? Sergey gazetalarda o'qigan xabarlarini esladi. Bu mish-mishlarda uncha-muncha asos bor edi. Bu yil tabiiy ofatlar ko'proq yuz berayotgani, dahshatli qurg'oqchilik bo'layotgani rost edi. Ammo buni qiyomatning belgilari deyish — eshonlarning odatdagi vahimasi ekanligi, ular odamlarni qo'rqitib, nazr-niyozni ko'proq olish uchun har xil mish-mish tarqatayotgani shubhasiz edi.

— Men bundan ham vahimaliroq bir gap eshitgan edim, — dedi Sergey. — Turkman qal'aning naryog'ida bitta ajdarho ilonning izini ko'rgan emishlar. Izning eni uch quloch kelarmish. Izining eni uch quloch bo'lsa, uzunligi qanchaykin? Eshonlar shuni aytib, "endi hammani ajdaho yutib yuboradi" deb vahima qilishgan

edi. Mana, bir yil o'tdi. O'sha ilonni hech kim ko'rgan emas. Yo ko'rganlaringiz bormi?

— Uni-ku ko'rganimiz yo'g'a, — dedi Xudoyberdi og'a. — Lekin mana bu qurg'oqchilikni hammamiz o'z ko'zimiz bilan ko'rib turibmiz. Ocharchilikning hidi kelib turibdi.

— Endi birdan-bir umid sug'oriladigan yerlardan, — dedi Sergey. — Hozir boylar kambag'allarning suvini sotib olishga[1] intilyapti. Siz tajribali dehqonsiz, Xudoyberdi og'a, mendan yaxshi bilasiz — qurg'oqchilikda suv oltinga ham topilmaydi. Shuning uchun aqli bor odam suvini sotmasligi kerak.

— Ay, Sirboyjon, bu miroblar hozir suvdan ham chatoqliq chiqarib o'tiribdi. Menga avval Olloqulilar yordam berdi, bir o'lchov ish qildim. Keyingi o'lchovni endi qaziyotganimda qaysi go'rdan soldatlar keldi-yu, mening jonimga oro kirayotgan uchta devday yigitni hurkitib yubordi.

— Ammo ular ham balo yigitlar ekan-a, — dedi yoshroq bir dehqon. — Miltiq ko'targan uchta soldatning uchovini ham boplab ketibdi-ya!

— Ayniqsa, ana u Berdi deganiga qoyil bo'ldim!

— Uning ishini ko'rib, og'zim ochilib qolibdi-e!

— Yigitlar-ku, qochib qutuldi-ya, — dedi Xudoyberdi og'a. — Bu yoqda men baloga qolyapman. O'n ikkita soldat chiqib, uch kungacha "topib berasan!" deb meni qiynadi. Men ularni Qoraqumning qayeridan topib beraman? Yalinib, yolvorib, zo'rg'a qutuldim. Endi bu yoqda Mamat mirob: "O'g'rilarga qildirgan ishing hisobga o'tmaydi!" deb ko'nglimni xufton qilyapti.

— Hisobga o'tishi kerak, — dedi Sergey. — Faqat sizga emas, qazuvga kuchi yetmagan, ishini bitirolmay ketgan bechoralarga ham hiyla ishlatmoqchi bo'lishyapti. Sizlar mana shu hiylaning ishlatilishiga yo'l qo'ymangizlar.

— Qanday qilib yo'l qo'ymaymiz?

— Hamma kambag'allar bir yoqadan bosh chiqarib, adolatni talab qilinglar. Kerak bo'lsa, men ariza yozib beraman, ko'pchilik bo'lib, uyezd hokimiga boringlar.

---

[1] Ilgari zamonda yerdan tashqari sug'orish uchun bepilgan suv navbati sotilgan. *(yarj.)*

— Bo‘pti, shunday qilamiz!

Dehqonlar maslahatni bir joyga qo‘yib, besh-olti kishini Mari uyezd hokimiga arzga yubormoqchi bo‘lib turgan kunlarida yana yangi bir ovoza tarqaldi. Oqpodsho taxtdan ag‘darilganmish. Mari hokimi ishini tashlab ketmoqchi emish. Bu gapga birov ishonsa, birov ishonmaydi. Shu orada Xudoyberdi og‘aning o‘g‘lidan yana bir xat keldi. Meli o‘zi savodsiz bo‘lgani uchun xatni rus oshnasiga yozdirgan edi. Qishloqda bu xatni hech kim o‘qiyolmas edi. Xudoyberdi og‘a xatni qo‘yniga solib, bir-ikkita ulfatlari bilan kechasi yana to‘g‘on boshidagi oq uyga kirib keldi.

Sergey bugun allanechuk juda xursand edi:

— Eshitdilaringizmi, og‘alar! Oqpodshodan qutulibmiz! Hokimiyat hali bizning qo‘limizga o‘tmagan bo‘lsa ham, yelkamizdan bosib yotgan og‘ir bir tog‘ qulab tushibdi!

Biroq Xudoyberdi og‘a bu xabardan tashvishga tushib qoldi:

— Podsho yiqilgan bo‘lsa, bizni Xudo uribdi, endi qirg‘in boshlanadi!

— Qanaqa qirg‘inni aytyapsiz?

— Podsho hammaning boshini qovushtirib, tartib saqlab turmaganmidi?!

— E, siz juda ham sodda ekansiz. Podshoning o‘zi urushdagi qirg‘inning bosh sababchisi edi. Agar urush tugaca, o‘g‘lingiz Meli qaytib keladi.

— Shundaymikin-a, Sirboyjon! Xudoyo aytganing kelsin! Mana, Melijondan yana xat kelibdi. Ruscha yozdiribdi. O‘qib bergin.

Sergey xatni avval ichida bir o‘qib chiqdi-da, keyin turkmanchaga tarjima qila boshladi:

— Podsho taxtdan tushganini Meli ham eshitibdi, bundan xursand bo‘lib yozibdi. “Shu ketishda hademay qaytib borishim mumkin” debdi!

— Ay, baraka top, Sirboyjon. Bu podshodan qutulganimiz chini bilan yaxshi ish bo‘lganga o‘xshaydi-da.

— Ha, endi Qoraqumda qochib yurgan jiyaningiz Olloqulining ishi ham osonlashadi. Marining amaldorlari o‘zi bilan o‘zi andarmon bo‘lib yotibdi. Bittasi chamadonini yig‘ishtiryapti. Bittasi nima qilishini bilmay garang. Vaqtincha tuzilgan hukumatning ahvoli tang.

— Unday bo'lsa, biz nima qilamiz? Marining hokimiga arz qilmaylikmi?

— Yo'q, endi hokimlardan ish chiqmaydi. Boylarning ishongan tog'i — oqpodsho edi. Bu tog' quladi. Hozirgi muvaqqat hukumat ham boylar tarafida. Ammo bu hukumat mehnatkashlar bilan hisoblashishga majbur. Chunki bu hukumat mehnatkashlardan madad olib davlat tepasiga keldi.

— Unda biz nima qilaylik?

— Sizlar endi boylarga yon bermasliklaringiz kerak. Suv taqsimotida dehqonlar o'z haqlarini qattiq turib talab qilishsin.

— Ey, Sirboyjon, boylar ko'p odamning suvini sotib olib qo'ydiku. Hozir yo'g'on cho'zilgan, ingichka uzilgan payt. Kambag'alning iligi qurigan. Nima qiladi? Xudo yomg'ir berib qolsa, lalmi bug'doy ekarman, deydi-yu suvni arzon-garovga sotadi. Mening o'zim ko'rdim, kecha o'n besh kishi suvini Bekmurodboylarga sotdi. Ellik botmon hosil beradigan yer-suvni odamlar besh botmon arpaga sotyapti.

— Men ham suvimni sotadigan bo'lib turib edim, — dedi ozib qoq suyak bo'lib qolgan bir dehqon. — Uyda bolalarim och. Hozircha suvni sotib, yeb tursak, keyin Xudo yana bir yo'l ko'rsatar.

Unga Xudoyberdi og'a e'tiroz qildi:

— E, uka, Xudo ham "sendan harakat, mendan barakat" degan. Bu yil ilon yili. Suvni sotmang.

— Sotmaganim bilan, ariqdan o'lchab berilgan ishni qilolmadim, kuchim yetmadi. "Qazuvdagi ishini bitirmaganlarga suv berilmaydi" deyishdi. Shuni eshitgandan beri suvdan umidimni uzganman.

— Miroblar bilan boylar til biriktirib, jo'rttaga shunday qilishayotgan bo'lsa kerak, — dedi Sergey. — Mening maslahatim: suvlaringizni sotmangizlar. Qazuvda kuchlaringiz yetguncha ishlanglar-u, keyin sug'orish paytida o'z haqlaringni qattiq turib talab qilinglar. Sizlar ko'pchiliksizlar...

To'g'on bo'yidagi uyning derazasidan tushib turgan yorug'lik yarim kechaga borib o'chdi. Uy-uyiga tarqagan dehqonlar bu yorug'likni go'yo qalblariga joylab olib ketdilar.

Oqpodshoning taxtdan qulagani, Ashxobod va Maridagi uning amaldorlari nima qilishlarini bilmay sarosimaga tushib qolgani og'izdan-og'izga o'tib, nihoyat, Qoraqum sahrosiga ham yetib bordi. Berdilar Qoraqumning odam oyog'i tegmagan joylarida ikki oydan beri qochib yurishar, ularning o'lik-tirigini hech kim bilmas edi. Kecha oqshom ular Sarining qo'shiga keldilar. Sari ikki kun oldin Qilichlini ko'rgan va so'nggi yangiliklarni undan eshitgan edi.

— Xayriyat! — dedi soch-soqoli o'sib ketgan Olloquli. — Endi yaxshiroq bir odam podsho bo'lsa, bizga tegmasa kerak-a, Sari?

— Bilmadim, — dedi Sari. — Buni to'g'onda ishlaydigan rus yigitdan so'raysizlar. Qilichli sizlarni "o'sha yerga borsin" deb tayinladi.

— Borsin degan bo'lsa, ilgaridaqa xavf-xatar yo'q ekan-da, — dedi Berdi. — Bugun shu yerda yotib dam olamiz-u, ertaga peshindan keyin yo'lga chiqamiz. O'zimiz ham odam zotini juda sog'indik-e! Qani, Sari og'a, beri keling, birpas gurunglashaylik. Odamlar bizning to'g'rimizda nimalar deyapti, hech kimdan eshitdingizmi!

— U kuni bozorga borganimda eshitdim. Bekmurodboylar tishini qayrab yurganmish. Bir dasta soldat chiqib sizlarni ko'p qidirdi. Shu soldatlarga Omonmurod bilan Madad yo'l ko'rsatuvchilik qildi. Kelib, meni ham rosa surishtirishdi.

— Qaysi Madad?

— Subhon xasisning katta o'g'lichi, o'sha-da.

— Obbo, la'nati-ey. U ham ayg'oqchilik yo'liga o'tibdi-da.

— Hozir bular bilan Bekmurodboylar juda qalin, oralaridan qil o'tmaydi. Lekin... qazuvda ishlayotgan dehqonlar hammasi sizlarni maqtab yuribdi. "Mard yigitlar ekan, — deyishadi, — yomon odamlar bo'lsa, haligi soldatlarni o'ldirib ketar edi, keyin biz ham baloga qolar edik", — deyishadi.

— U soldatlarda ham nima ayb? Begunoh odamni o'ldirishdan yomoni yo'q... Lekin ularni o'ldirmasdan oyoq-qo'llarini bog'lab ketish juda qiyin bo'lgani rost.

— Odamlar ham ana shunisiga tan berdi-da. Dunyoda bekorga qon to'kayotganlar ozmi?

— Sari og'a, bugun aytgan xushxabarlaringiz uchun rahmat, — dedi Berdi. — Agar shu suruvda qo'yim bo'lsa, hozir bittasini so'yib, hammalaringni ziyofat qilar edim.

— Mening bir to'qlim bor, so'yaymi? — dedi Sari og'a.

— Yo'q, siz shoshmang. Mening halol mehnat qilib topgan qo'ylarim Subhon xasisning suruvida yuribdi. Agar uning o'g'li ham bizga qarshi ayg'oqchilik qilgan bo'lsa, endi xasisdan haq-qimizni olmasak bo'lmaydi, yigitlar, to'g'ondagi do'stlarimizning oldiga ham quruq borib bo'lmaydi. Hozir birpas uxlab olaylik. Sahar palla Subhon xasisning yayloviga qarab jo'naymiz...

Miltiq taqqan uch otliq tong otganda Subhon xasisning yayloviga qarab borayotgan edilar, qarshilaridan yetmish-saksonta qo'y haydab kelayotgan o'rta yashar bir cho'pon chiqdi. Yigitlar cho'pon bilan salomlashdilar. O'zlarini ovchi deb tanitdilar-da, bu qo'ylar kimniki ekanini so'radilar.

Cho'pon ularning ovchi yigitlar ekaniga ishondi-da:

— Qo'ylar Subhonboyniki, — dedi. — Ertangi bozorga etkazib kelasan, degan edi.

— Sotmoqchi ekanmi?

— Ha, sotib don olmoqchi ekan. Odamlar "qimmatchilik bo'larmish" deb, donni ko'proq g'amlayotibdi-ku.

— Siz Subhonboy bilan bozorda uchrashasizmi? — so'radi Berdi.

— Nimaydi?

— Biz ham u kishini bir ko'rmoqchi edik.

— Yo'q, boy meni bozordan berida kutib oladigan bo'lgan.

— Qayerda?

— Qazuvda ishlayotgan odamlar ham qo'y olmoqchi ekan. Boy "to'g'onning bo'yida turaman" degan edi.

— Egriguzardami?

— Ha, o'sha atrofda.

Berdi hamrohlariga ma'noli bir nazar tashlab qo'ydi. Subhonboyning qo'ylarini hozir tortib olib ketsalar, o'g'irlik va zo'ravonlik qilganday bo'ladilar. Subhon xasis keyin bu begunoh cho'pondan

tovon talab qiladi. Undan ko'ra hozir bu qo'ylarga tegmaslik kerak. Mayli, cho'pon hammasini qazuv bo'layotgan joylarga haydab borsin.

— Biz hozir ovda yuribmiz, — dedi Berdi cho'ponga. — Bugun qaytmasak kerak, endi ertaga bozorda Subhonboy bilan bir uchrasharmiz. So'rasa, ovchi oshnalaringiz bor ekan, yo'qlashdi dersiz. Turdi bu gaplarning tagidagi yashirin ma'noni sezib jilmayib qo'ydi. Qo'y haydagan cho'pon bir tarafga, otliq yigitlar ikkinchi tarafga qarab ketdilar. Ular bir-birlaridan ko'z ilg'amaydigan darajada uzoqlashganlaridan keyin otliqlar qum tepalarning panasi bilan yurib orqaga qaytdilar.

* * *

Kun botar-botmas qo'y haydagan cho'pon Egriguzar to'g'oniga yetib keldi. Subhon xasis uni ariq bo'yida kutib turar edi.

— Qo'ylarni charchatib qo'ysang, bozorda narxi tushib ketadi, — dedi xasis cho'ponga. — Bugun mana shu yerda yotasan. Qo'ylar ariqning bo'yida birpas o'tlasin. Sahar turib haydasak, ertalab bozorga yetib boramiz. Bu yog'i yaqin. Qo'ylarning sotilishini eshitib, qazuvda ishlayotgan dehqonlardan bir qanchasi xaridor bo'lib kelishdi. Lekin Subhon xasis qo'ylariga juda baland narx qo'ygani uchun hech kim ololmadi. G'ira-shira qorong'ilik tushganda Mamat mirob Subhon xasisning yoniga kelib:

— Qani, og'a, ana u o'n boshining gapini biz ham bir eshitamizmi? — deb qoldi. O'nboshi deb ular Sergeyni aytar edilar. Podsho taxtdan tushgandan beri ahvol nima bo'lishini bular ham bilolmay garang edi. Sergeyning suhbatida bo'lgan dehqonlar esa har kuni yangi bir gap topib kelishardi. Bu gaplar Mamat mirobni ham qiziqtirib qo'ygan, biroq u yolg'iz o'zi borgisi kelmay, Subhon xasisni birga borishga undar edi.

— Men namoz o'qiyman, — dedi Subhon xasis. — Bu g'ayridin cho'chqa go'shti yeydi.

— Ovqatini yemaymiz-da, — dedi Mamat mirob. — Shuncha musulmonlar kirib chiqib yuribdi-ku. Zamon qayoqqa qarab ketayotganini bu o'ris yaxshi biladiganga o'xshaydi.

— Mayli, lekin choy tutsa, choyini ham ichmaymiz. Faqat gapini eshitamiz.

— Bo'pti. Yuring!

Sergey chetroq bir xonani keldi-ketdi uchun moslab qo'ygan edi. Hozir bu xonadagi kursilarda ham, divanda ham dehqonlar gurunglashib o'tirar edi. Subhonboy bilan Mamat mirob kirgandan keyin, divanda o'tirgan dehqonlar ularga joy bo'shatishib, o'zlari polga to'shalgan palos ustiga o'tirdilar. Sergey Mamatni ilgaridan tanir edi.

— Archin og'a, keling, — dedi.

— Ay, o'nboshi yigit, men hozir archin emasman, jo'n bir mirobman.

— Kim sizni archinlikdan bo'shatdi?

— Ashxoboddan kelgan bir to'ra bo'shatdi.

— Biron narsa sabab bo'ldimi?

— E shu... birovlar meni yomonlagan bo'lsa kerak, besh qo'l barobar emas. Ming yaxshi bo'lsang ham, seni yomon deydiganlar topiladi.

— Demak, hozir mirobsiz.

— Ha, qazuvda yuribmiz.

— Nazaringizda bu yil qazuv ishlari bitadiganmi-yo'qmi?

— Bitmasa, suv chiqmaydi. Bitirish kerak.

— Ishini bitirmay ketayotgan dehqonlar ko'p emish. Ularning mehnati hisobga o'tmaydimi?

— Hech kimning mehnati kuymaydi. Qilgan ishini sotsa, pul to'laydigan odamlar bor. Mana, men o'zim besh-oltita odamning bitmagan ishini sotib oldim. Endi odam yollab bitiraman. Shunday qilmasak, hamma suvsiz qoladi.

— Qazuvni bitirish, albatta, kerak. Lekin chala qolgan ishini sotib ketayotgan dehqonlar suv oladimi, yo'qmi?

— Nega suv olar ekan? Uning chala ishini kim bitirsa, suvini ham o'sha odam oladi. Qoida shu.

— Bu qoidani kim chiqardi?

— Xalq o'zi chiqargan.

— Yo'q, xalq o'ziga qarshi qoida chiqarmaydi. Bu qoidani puldorlar chiqargan.

— Biz dehqonlarni to'plab, hammaning roziligini olganmiz.

— Lekin norozilar ham bor edi, — dedi Xudoyberdi og'a.

Gap boshqa yoqqa burilib ketayotganidan bezovtalangan Subhonboy Sergeyga qarab:

— O'nboshi inim, bu gapni qo'y, — dedi. — Sen bizga boshqa bir narsani ayt. Endi kim podsho bo'ladi?

— Hech kim. Endi podshosiz yashaymiz.

— Astag'furullo! Podsho bo'lmasa bu xalqni kim boshqaradi?

— Menimcha, — dedi Sergey, — xalqqa kim astoydil jon kuydirsa, davlatni o'shalar boshqarishi kerak. Kimki xalqni norozi qilsa, oqpodshoga o'xshab quviladi.

Mamat mirob o'smoqchilab so'radi:

— Undan chiqdi, hozirgi hukumat ham oqpodshoga o'xshab, xalqni norozi qilayotgan ekan-da?

Agar Sergey "ha" desa, Mamat mirob bu gapni Maridagi amaldorlarga yetkazishi muqarrar edi. Sergey buni sezib, kinoyali kulimsiradi:

— Men unday deganim yo'q. Balki siz, Mamat og'a, hozirgi hukumatdan norozi bo'lib yurgandirsiz?

— Yo'q, yo'q, men... men to'ralardan minnatdorman!.. Men...

Shu payt eshik ochildi-yu, ostonada yelkasiga miltiq taqqan Berdi ko'rindi. Uning ketidan Turdi kelmoqda edi. Olloquli to'g'on boshida otlarga qorovullik qilib qolgan edi.

— Assalomu alaykum, yaxshilar! — dedi Berdi.

Sergey sakrab o'rnidan turdi:

— Salom, salom!

Mamat mirob bilan Subhonboy o'tirgan joylarida taxta bo'lib qotib qolishdi. Xudoyberdi og'a Berdilar bilan quchoqlashib ko'rishdi. Dehqonlarning orasida Berdining adashi Baki o'g'li ham bor edi. U yonidagilarga shipshidi:

— Ho' o'sha soldatlarni kulliklab ketgan botirlar — mana shular.

— E, shundaymi? Sening qo'lingni yechib ketgani qaysisi?

— Mana bu mo'ylovdori.

— Obbo, azamatlar-ey. O'zlariyam polvon yigitlar ekan-a!

Dehqonlar o'zaro pichirlashib, Berdilarga maroq va ehtirom bilan tikilar ekanlar, Mamat mirob istar-istamas o'rnidan turib:

— E, Berdiboy, omonmisan? — deb ko'rishish uchun qo'l cho'zdi. — Mana bu kim? Turdimi? Cho'lda yurib katta yigit bo'lib ketibsan-a?! Qani, ko'rishaylik! Qo'rqib taxta bo'lib qolgan Subhonboy endi sal hushini yig'ib oldi-yu, jonsarak bo'lib o'rnidan turdi:

— E, e, Berdijon, kelinglar, o'g'lim, kelinglar, Turdijon...

Subhonboy ham Berdi bilan ko'rishmoqchi bo'lib ikki qo'lini barobar cho'zdi. Ammo Berdi uning qo'lini olmadi. Yuziga nafrat bilan qarab:

— Ko'rishadigan odamingiz boshqa, — dedi. — Men bu yerga siz bilan qo'l olishib yarashish uchun kelganim yo'q.

— Xo'p, xo'p, men ketay, — deb Subhon xasis eshikni mo'ljalga olayotganda Berdi uni to'xtatdi:

— Siz hozir qilgan ablahliklaringiz uchun javob berasiz. O'tiring joyingizga!

Subhon xasis titrab-qaltirab joyiga o'tirayotganda Mamat mirob eshikka qarab yo'naldi:

— Mamat og'a, siz ham o'tiring, — dedi Berdi unga.

— Mening ishim bor.

— Avval bu yerdagi ishni bitiraylik. Keyin ketasiz.

Berdi bilan Turdi eshikning oldiga kursi qo'yib o'tirib olishdi. Mamat mirob ularning g'azabli yuzlarini ko'rib, darhol Subhonboyning o'g'illariga, "otalaringni qutqaringlar!" deb xabar bermoqchi edi. Biroq Berdi eshikni to'sib olgandan keyin, Mamat mirob o'chakishib chiqib ketishga jur'at etolmadi. Keyingi paytlarda u ham Berdilardan hayiqadigan bo'lib qolgan edi.

— Xo'p, qani, nima ishlaring bor o'zi? — deb Mamat mirob ham boyagi joyiga borib o'tirdi. Sergey ularning gapiga aralashmay jim o'tirardi. Dehqonlar nafaslarini ichlariga olib nima bo'lishini kutishardi.

— Mamat og'a, siz bizning qishlog'imizda archin edingiz, — bo'g'iq tovush bilan gap boshladi Berdi. — Siz ham bir vaqtlar xalq to'plab bergan pulni belingizga tugib, Bekmurodboylar bilan sudlashgan ekansiz.

— Ha, men adolat uchun astoydil jon kuydirganman.

— Adolat uchunmi yoki o'z nafsingiz uchunmi, — dedi Berdi Mamatning o'shanda niyati buzuq bo'lganligini esiga solib, —

harqalay, siz ham bizning boshimizga tushgan falokatlarni yaxshi bilasiz. Murod og'a bekorga o'lib ketdi. Uning begunoh qizi jahannam olovida haligacha kuyib yotibdi. Murod og'aning o'g'li Turdi otasining qasdini olaman deb ikki yildan beri sahroda qochib yuribdi. Men o'zim qanday og'ir kunlarni ko'rganimni aytmay qo'ya qolay.

— Hammalaringga juda qiyin bo'lganini bilamiz, Berdi, — dedi Mamat mirob. — Lekin qismat...

— Shoshmang. Agar mana shu o'tirgan Subhonboy imonini pulga sotmaganda edi, agar shu odam Bekmurodboylar bilan til biriktirib, Uzukning o'g'irlanishiga yordam bermaganda edi, buncha falokatlar bizning boshimizga tusharmidi?!

Mamat mirob bu savolga javob topolmay, yerga qarab jim qoldi. Berdi intiqom olovi bilan yongan ko'zlarini Subhonboyga tikib so'radi:

— Shuncha mol-u dunyong ozlik qilganmidi? Uzukni ham Bekmurodboylarga sotib eding, xoin? Birovning bolasini necha pulga sotgan eding?! Murod og'aning o'ligini qanchaga sotding?! Bekmurodboylardan necha ming so'm olgansan?! Ayt hammasini, bu yerda o'tirganlar bilsin! Hech bo'lmasa o'ladigan kuningda xiyonating uchun tavba qilasanmi, yo'qmi?!

Berdi Subhonboyni otadiganday bo'lib yelkasidagi miltig'ini qo'liga oldi. Sergey bu yerda odam o'ldirishga yo'l bermaslik uchun sapchib o'rnidan turdi. Dami ichiga tushib shu choqqacha jim o'tirgan Subhonboy endi birdan qo'llarini Berdi tomonga cho'zib, gapira boshladi:

— Meni o'ldirma, Berdijon! Men tavba qilaman! Men... Bekmurodboydan bir tiyin ham olganim yo'q... U menga faqat bitta jiyron ot bergan edi. Agar olaman desang, shu otni senga beray! Mayli, minib yur!

— Birovga xiyonat qilib orttirgan otni sendaqalar minadi! Men bunday otni minishdan hazar qilaman!

— Minmasang ham mayli! Nima qil desang, qilaman! Bekmurodboy menga Olloqulining yerini olib bergan edi. Arzon olib bergan edi. Agar qaytarib ber desang, olgan narximda qaytarib beray! Uch yildan beri bu yerdan mahrum bo'lib qashshoqlashgan Xudoyberdi og'a:

— Endimi? — dedi. — Bu yil nima arzon — yer arzon. Suv yo'q, ishlovchi yo'q, odamlar yerini avvalgidan o'n baravar arzonga sotyapti. Subhonboy hozir yerni o'sha narxda qaytarib berganda ham foyda oladi!

— Bu odam "o'layotganda ham foyda olib o'lsam" deydigan ochko'zlardan-da! — dedi Berdi.

— O'limdan gapirma, Berdijon, — deb Subhon xasis yana unga qarab yalina boshladi: — Har narsa bo'lsa ham, o'lim bo'lmasin!

— Lekin senday iblis odamlarning tirik yurgani hammaga ziyon!

— Berdijon, — deb endi Mamat mirob gapga aralashdi, — sen bu odamni o'ldirib, qo'lingni qon qilma! Bu o'zi keksa odam, necha kunlik umri bor, Xudo biladi.

— Undan chiqdi, bu odam yomonligini qilib yura bersinmi? Bizga shuncha jabr qilgani yetmay, yana Murod og'a ikkovimizning to'rt yillik mehnat haqimizni yeb keta bersinmi? Berdiga ish haqisini to'lab omon qolishi mumkinligini sezgan Subhon xasis:

— Men sendan qarzman, to'g'ri, — dedi. — Qarzingni to'lay desam, o'zing ko'rinmay ketding. Mana hozir tashqarida qo'ylarim bor. Ayt, nechta desang ayirib beraman.

— Murod og'aning haqqi-chi?

— Murod bilan hisob-kitob qilgan edik. Qo'zilarni ko'p o'ldirgani uchun o'zi... rozi bo'lgan edi...

— Bekor gap! Qo'zilar sovuqda o'lgan, buning uchun Murod og'adan tovon olishga hech kimning haqqi yo'q. Mana, bu yerda Murod og'aning yolg'iz o'g'li Turdi o'tiribdi. Nima hodisa bo'lganini biz Esondan eshitganmiz. Murod og'aning haqqini o'g'li olishi kerak!

— Xo'p deya qoling, Subhonboy! — dedi Mamat. Subhon xasis sog' tishlari sug'urib olinadigan odamday bezovtalanib:

— Nima ham deyman, mayli, olinglar! — dedi yig'lamsirab. — Tashqarida yetmish beshta qo'y turibdi. Kerak bo'lsa, hammasini olinglar! O'zimga tegmasalaring bo'ldi!

— Bizga birovning haqqi kerak emas, — dedi Berdi dehqonlarga qarab, — Har birimiz yiliga to'rttadan qo'yga yollangan edik. To'rt yilda har birimizniki o'n oltitadan bo'lsa, o'ttiz ikkita qo'y.

— Ay, juda halol hisoblading, — dedi Xudoyberdi og'a. — Subhonboyning o'zi bo'lsa, "to'rt yildan beri qo'ylarim qo'zilab ko'paygan" deb, sonini ikki baravar oshirib talab qilar edi.

— Qo'zilarning hisobini boshqa vaqtga qoldiramiz, — dedi Berdi. — Subhonboyning boshqa ayblari ham bo'ynida turib turadi. Hozir bizga o'ttiz ikkita qo'yimizni ajratib bersin.

— Xo'p! — deb Subhon xasis shosha-pisha o'rnidan turdi.

Berdi uning ketidan tashqariga chiqayotib:

— Sergey, iloji bo'lsa, odamlar ketmasin, — dedi. — Qo'ylarning ikkitasini so'yib chekdirma pishiramiz. Bugun bir gurunglashaylik.

— Bo'lmasa, men Qilichlini chaqirtiraymi?

— Ha, chaqirtir. Qilichli Maxtumqulining she'rlaridan o'qib berar.

Berdida Subhon xasisni o'ldirish niyati yo'qligini, bu halol yigit qari cholning qonini to'kishdan hazar qilishini, lekin Subhon xasis birovning haqqini osonlikcha bermasligini sezib, Berdi ataylab qattiq turganini Sergey allaqachon sezgan edi. Biroq Subhon xasisning o'zi tirik qolishiga hali ham uncha ishonmas edi. Ayniqsa, Berdi uni oldiga solib, to'g'on etagidagi qo'ylariga tomon haydab borayotganda, Subhon xasis: "Xudoyo taolo o'zing asra" deb shivirlar, dam-badam kalima keltirar edi.

Kecha oydin edi. Qo'ylar shamolpana bir joyda kavsh qaytarib yotgan ekan. Subhon xasis cho'ponga yaqinlashib:

— Mana shu yigitga qo'ylardan o'ttiz ikkitasini ajratib ber, — dedi-yu, boshqa hech narsani aytmadi. Cho'pon "shuncha qo'yni birdan sotibdi-da" deb o'yladi. U qo'ylardan kichikroq, yuki ozg'inroqlarini ajratmoqchi bo'lganda, Berdi bunga yo'l bermas edi. Ko'p yil cho'ponlik qilib, qo'ylarni kechasi ham oydinda ham bir-biridan yaxshi farq qila oladigan Berdi:

— Buni qoldir, bizga ana unisi kerak, — deb eng sara qo'ylarni tanlardi. Subhon xasis ichini mushuk tatalayotgan bo'lsa ham, "g'ing" deyolmay bir chetda jim turardi. Ajratilgan qo'ylar o'ttiztaga yetganda, Berdi cho'pon yigitga:

— Endi shoshma, — dedi. — Menga ayt-chi, sen shu suruvni qachondan beri boqasan?

— Bir yildan beri.

Bundan olti-yetti oy burun shu suruvning ikkita qo'yini cho'ponlarga bildirmay olib ketganlari Berdining esida turgan edi. U cho'ponlarga bu ikkita qo'yni qaytarib berishni ko'ngliga tugib qo'ygan edi. Hozir Subhon xasisga voqeani aytib o'tirmadi-yu:

— Men o'ttizta qo'y ajratib oldim, — dedi. — Qolgan ikkita qo'yni cho'ponlarga qoldiraman. Bular ham mehnat qilgan.

— Mayli, bu yerdan sen ikkita qo'y olasan, — dedi Subhon xasis cho'ponga. So'ng Berdiga gapirdi:

— Endi ora ochiqmi? Men ketaveraymi?

— Ketishdan oldin yana bir narsani bilib qo'ying, Subhonboy. Men sizni har narsa qilsam ham haqqim bor edi. Lekin hozircha uyingizga tirik qaytasiz. Mabodo, bizga yana biron yomonlik qiladigan bo'lsangiz, keyin joningizdan umidingizni uzing!

— Yo'q, yo'q, mening ishim nima?

— Ha, yana adashib, Bekmurodboylarnikiga borib qolmang? Bizni tutib beraman desangiz, o'zingiz tutilasiz!

— H-e, Bekmurodboylari qurib ketsin!

Subhon xasis hozir faqat bir narsani — tezroq uyiga borib, issiqqina ko'rpaga o'ranib yotishni istar edi.

* * *

Turdi to'g'on boshida otlarga qarab, soqchilik qilib turgan Olloqulining oldiga keldi-da:

— Xudoyberdi tog'ang ham shu yerda ekan, seni so'roqlayapti, — dedi. — O'rningga men qolaman, lekin miltig'ingni olib ket. Berdi aytdi. Birdan bostirib kelib qolishsa kerak bo'ladi.

Olloquli Sergeyning uyiga borganda qo'ylardan ikkitasi so'yilgan, dehqonlar hovliga katta o'choq qurib, qozon osib, chekdirma[1] qaynatmoqda edilar. Qolgan yigirma sakkizta qo'y Qilichlilarning hovlisidagi og'ilda turar edi. Ko'pdan beri qorni to'yib go'sht yemay yovg'onsirab yurgan dehqonlar yog'och korsonga suzib kelingan chekdirmadan rosa yeyishdi.

[1] **Chekdirma** — ozgina suv quyilib, qaynatma sho'rvaga o'xshatib pishiriladigan go'shtli taom. *(tarj.)*

— Kambag'alning bir to'ygani — chala boyigani, — deb Xudoyberdi og'a odamlarni bir kuldirdi. — Rahmat senga, Berdijon.

— Siz to'yganingiz bilan uyda bolalaringiz yovg'onsirab yurgandir, — dedi Olloquli.

— E, nimasini aytasan, jiyanim. Meli ketgandan beri ahvolimiz kun sayin og'irlashyapti. Hammasidan yomoni — qazuvda o'lchab berilgan ishim bitmayapti. Bu ketishda men ham suvimni sotib yeydiganga o'xshayman.

— Bekmurodboylar Meli uchun mardikor puli yig'ib bermoqchi edi-ku!

— Erta deydi, indin deydi, haligacha yig'ib bermaydi. Bu boylar tulkida, jiyanim. Narx-navo kun sayin oshyapti. Kuzda besh botmon bug'doy oladigan pulingga hozir bir botmon ham ololmaysan. Bekmurodboy menga pulimni bermasdan, hozir Mariga chiqqan donlarni sotib olib, omboriga bosayotgan emish. Qimmatchilik bo'lganda birga o'n qo'shib sotadi-da.

— Bekmurodboy shunchalik ablah bo'lsa, mayli, hozircha ablahligini qilib tursin, bir kun unga ham navbat kelib qolar, — dedi Berdi. U boylarning ochko'zligiga qarshi bir vallomatlik qilgisi, shu bilan o'tirgan dehqonlarning ko'zi oldida Bekmurodboyning sharmandasini chiqargisi keldi. — Xudoyberdi og'a, siz bugungi qo'ylardan beshtasini haydab keting. Bolalaringiz bilan so'yib yeysiz.

— Beshtasini? — hang-u mang bo'lib so'radi Xudoyberdi og'a. — Yo'g'-e, Berdijon. Sen bu qo'ylarni mehnat qilib topgansan. O'zingga kerak bo'ladi.

— Men salt odamman. Yigitning noni yo'lda, deydilar. Olavering!

— Bo'lmasa bittasini olaman, bo'ladi.

— Bittasini, mayli, bolalarga so'yib bering. Ikkitasini sotib dondun olarsiz. Yana ikkitasini mana bu qazuvga sarflang-u, ishingizni bitirib oling. Suvni sota ko'rmang. Oling beshtasini!

Xudoyberdi og'a nima deyishini bilmay odamlarga qaradi. U hayajonlanganidan entikar edi.

— Sizga Xudo berdi, olavering, yoshulli! — dedi siyrak soqolli qop-qora bir dehqon.

— Ha, Berdi jo'mardlik qilyapti, yo'q demang!

— Mayli, Berdijon, agar esonchilik bo'lsa, Melijon qaytib kelib, yonimga kirsa, men bu yaxshiligingni, albatta, qaytaraman!

— Qaytarmasangiz ham mayli. Olloquli, tog'angni boshlab borib, og'ildagi qo'ylarni ko'rsat. Beshtasini tanlab olsin-u, haydab ketaversin.

Xudoyberdi og'a bilan Olloquli chiqib ketgandan keyin Berdi Qilichliga yuzlandi:

— Agar senga xizmat bo'lmasa, ertaga o'zingmi, ukalaringmi, shu qo'ylardan o'ntasini Murod og'aning bevasiga haydab oborib bersalaring.

— O'razsulton xolagami?

— Ha, Turdining onasiga.

— Lekin bu juda savobli ish bo'ladi-da, — dedi siyrak soqolli dehqon. — Men u kampirni ko'rganman. Eridan, farzandlaridan ajralib, abgor bo'lib qolgan bechora.

— Mayli, o'ntasini ertalab o'zim haydab olib borib beraman, — dedi Qilichli.

— Ha, kampirga aytgin, bu hammasi halol mehnat bilan topilgan qo'ylar. Murod og'aning qo'ylari. Bitta-yarimtasi unday-munday desa hech bo'sh kelmasin.

— He u kampir bo'sh kelmaydi, — deb kuldi Qilichli. — Yonida — mening onam bor.

— Sening onang balo-ku. Xo'sh, endi o'n uchta qo'y qoldimi? — Berdi bir lahza to'xtab oldi. U qo'ylardan to'rttasini Sergeyga, to'rttasini Qilichlining o'ziga bermoqchi edi. Qolgan beshtasini Sarining suruviga olib borib qo'shib qo'ymoqchi edi. Ammo ko'pchilikning oldida buni aytishni lozim ko'rmadi: Chunki bu yerda har xil odamlar o'tiribdi. Berdilar yashirinib, qochib yuribdi. U qo'ylarini do'stlariga taqsimlab berganini dushmanlari bilib qolsa, "bular mana shu oshnalarinikiga ko'p kelar ekan, shu atrofda poylasak hammasini qo'lga tushiramiz" degan xulosaga keladi. Berdilar chini bilan Sarining qo'shiga ham, Sergey va Qilichlining uyiga ham ko'p kelishadi. Bo'lib bergan qo'ylarini ular mana shu do'stlari bilan birga so'yib yeyishlari aniq. Lekin buni sir tutgan ma'qul.

— Qolgan qo'ylar hozircha o'sha og'ilda tursin, keyin hisobini topamiz, — dedi Berdi va Sergeyga qarab kulimsiradi: — Qani, do'stim, zamon o'zgaryapti, deyishadi. O'zgarib qayoqqa qarab ketayotibdi? Shuni bir aytib bergin.

Sergey so'nggi oylarning yangiliklarini ayta boshladi. Tun yarimlab qolayotgan bo'lsa ham, dehqonlarning tarqalgisi kelmas, Berdilarning suhbatiga qiziqib quloq solishar edi. Subhon xasisday odamning ta'zirini bera oladigan, soldatlarni ham tavbasiga tayantirib ketgan, o'zining jo'mardligi bilan Bekmurodboyning yuziga bir shapati urganday ish qilgan Berdi dehqonlarning ruhini ko'tarmoqda edi. Ular bu yigitlarning davrasida o'zlarini ancha dadil sezar edilar. Sergey dehqonlarning ko'ngillari ko'tarilib qolganini sezib, "kelajakda agar Berdi bularni kurashga boshlasa ko'pchiligi hech ikkilanmay unga ergashadi", — derdi ichida. Shu payt Sergey o'zidan ham mamnun edi — bir vaqtlar u Berdini qamoqxonadan qutqarishga intilganda uning xuddi mana shunday mardona ishlar kilishini o'ylagan edi. Hozir shu o'yi amalga oshayotganini ko'rib, Sergey ich-ichidan suyunib qo'ydi. Ammo bu sevinch ko'pga bormadi. Tun sukunatida otilgan o'q ovozi shunday qattiq eshitildiki, bir necha kishi birdan cho'chib tushdi. O'qni to'g'on bo'yida soqchilik qilayotgan Turdi otgan edi. Sergeyning gapi og'zida qoldi. Berdi miltig'ini qo'liga olib, o'rnidan turdi.

— Agar Bekmurodboylar bo'lsa, hozir bir bellashamiz! Sen chiqma, Sergey.

— Lekin hozir payti emas, Berdi.

Olloquli chopib keldi:

— Berdi, tezroq. O'n besh-yigirma kishi ot choptirib kelyapti.

— Qayoqdan?

— Bekmurodboylarning uyi tomondan!

Berdining qochib ketgisi kelmas, u ko'pdan beri o'z dushmanlari bilan yuzma-yuz olishishga tashna bo'lib yurar edi. Lekin hozir dushmanlar ko'pchilik ekanini, qorong'ida Bekmurodboy qolib, boshqa begunoh odamni otib qo'yishi mumkinligini o'yladi-yu:

— Mayli, ketdik! — deb Turdi turgan tomonga qarab yugurdi.

Uch yigit otlanib to'g'ondan o'tayotganlarida bu yoqda tosh yo'ldan ot choptirib kelayotgan odamlarning shovqini eshitildi.

Oydinda ular uch otliqning to'g'ondan o'tib ketganini ko'rishdi-yu, besh-olti marta ustma-ust o'q otishdi. Naryoqdan Berdilar ham ularga qarab o'q otishdi. Sal o'tmay otishma tindi — Berdilar to'qayga kirib ketgach, dushmanlari ularni qorong'ida ta'qib etishga botinolmadi. Sergey otishma paytida hech kimni tashqariga chiqarmay uyining eshigini bekitib o'tirar edi. Bir payt hovlida ot dupuri eshitildi. Eshik sharaqlab ochildi-yu, Bekmurodboyning qahr-g'azabdan qiyshaygan yuzi ko'rindi. Salom yo'q, alik yo'q, Sergeyga zaharxanda qilib:

— Oshnalaringni darrov qochiribsan-da! — dedi.

— Mana shu o'tirgan dehqonlar ham mening oshnalarim. Sizga kim kerak?

Bekmurodboyning ketidan Subhonboyning katta o'g'li Madad kirib keldi:

— Mening otamni o'ldirmoqchi bo'lgan qaroqchilar qani?

— Hozir sizlar kimga o'q otdilaringiz? — so'radi Sergey.

— O'sha kallakesarlarga!

— O'q otgan odam birovni ko'rib otadimi? O'zlaring ko'rgan bo'lsalaring, mendan nega so'raysizlar?

— Sen ularga joy bergansan! — o'shqirdi Bekmurodboy.

— Mening eshigim hamma uchun ochiq. Mana, shuncha odam o'tiribdi. Men hammasiga qo'limdan kelgan yaxshi muomalani qilyapman. Sizlar keldilaringiz. Sizlarga ham ket deyotganim yo'q. Biz hozir Maxtumqulining she'rlarini eshitmoqchi bo'lib o'tirgan edik. Istasalaring, o'tirib birga eshitinglar, marhamat.

— Sen meni laqillatolmaysan! — xirillab dedi Bekmurodboy. — Marida ham yomon o'g'rilar chiqibdi. O'ris to'ralarining uyini ham o'shalar talamoqchi bo'layotgan emish. Sen o'sha o'g'rilarning biri bo'lsang kerak. Men bolkuvnik janoblariga borib aytaman. Sen bu yerdagi kallakesarlar bilan til biriktirgansan!

— Men sizning do'qlaringizdan qo'rqmayman, Bekmurodboy. Meni bu yerga Maridagi to'ralarning o'zi yuborgan. Men o'g'rilikdan, talonchilikdan uzoq yurishimni hamma biladi. Lekin siz... bu yerda kambag'al bechoralarni talayotibsiz. Mana buni Maridagilar hali bilmaydi.

— Men kimni talabman? A? Qani, kim shikoyat qilib keldi bu yerga?

— Hech kim shikoyat qilgan emas. Lekin men eshitdim. Xudoyberdi og'aning mardikor pulini haligacha bermay yuribsiz ekan. Narx ko'tarilib ketyapti. Pulning qadri har kuni bir daraja tushyapti! Siz u odamning pulini olti oydan beri bermabsiz, endi bersangiz qadrini olti marta tushirib berasiz. O'zingiz esa bozorda bor donlarni olib o'rangizga bosyapsiz!

— Pulim ko'p, bozordan istaganimcha don olaman! Haqqim bor!

— Pulingiz ko'p bo'lsa, nega birovning haqqini bermaysiz?

— Men uch yuzini berganman. Boshqalardan o'zi yig'ib olsin!

Xudoyberdi og'a ketib qolganligi uchun bu gaplarning qanchalik rostligini aniqlab bo'lmas edi.

— Lekin sen, o'nboshi, qadamingni bilib bos, musulmonlarni buzma! — dedi Bekmurodboy Sergeyga tahdidli tovush bilan.

— Bu yigit bizga yomonlik qilayotgani yo'q, boy aka, — dedi dehqonlardan biri. — O'rischa xat-pat yozib beradi, qo'lidan kelgan xizmatini ayamaydi.

— Boy-kambag'al deb oraga nifoq solishi-chi?

Sergey istehzoli kuldi-yu:

— Berdilar bilan sizlarning oralaringizga men nifoq solibmanmi? — dedi. — Birovning qizini men o'g'irlatibmanmi? Begunoh odamni men qamatibmanmi? Qamoqda yotgan bechorani o'ldirtirish uchun qamoqxona boshlig'iga men pora beribmanmi?!

— Bas! — deb Bekmurodboy qamchisi bilan etigining qo'njiga shartillatib urdi-yu, tashqariga chiqib ketdi.

Sergey uning ochiq yarasiga tuz sepganday bo'ldi. Qamoqxonada Berdining o'ldirilganligi haqidagi hujjatni Bekmurodboy o'z ko'zi bilan ko'rgan, shundan keyin "bir balodan qutuldim!" deb suyunib yurgan edi. Bu hujjat soxta ekanini, Berdi qamoqxonadan qochib ketganini Bekmurodboy keyin ariq qazish paytida eshitdi. Shundan beri u yana tinchini yo'qotdi. Berdilar soldatlarning otini, miltig'ini tortib olib ketganini eshitib, u battar tahlikaga tushdi. Xalq orasida Berdining shuhrati or-

tib borayotgani, bu yoqda podsho taxtdan tushib, to'ralar nima qilishini bilmay yurgani boyning ich-etini yemoqda edi. U endi soldatlardan yorug'lik chiqmasligini sezib, Berdini o'zi bir yoqliq qilishga bel bog'lagan, o'n besh-yigirma kishini shu ishga tayyorlab yurgan edi. Boya Subhonboyning o'g'li otasining bir o'limdan qolganini, Berdilar to'g'on boshida qo'y so'yib o'tirish qilayotganini Bekmurodboyga kelib aytgan zahoti u hamma odamlarini to'plab, yo'lga chiqdi-yu, biroq fursatni qo'ldan berdi! "Bu qaroqchilar ko'pchilikning oldida Subhonboyni shunchalik beobro' qilgan bo'lsa, — derdi Bekmurodboy o'zicha, — erta-indin meni ham bir balo qilishdan toymaydi. Uyda kecha-yu kunduz ikki-uch kishi uxlamay qorovullik qilmasa bo'lmaydiganga o'xshaydi. Biror yoqqa boradigan bo'lsam, Sapar bilan yana bir yigitni doim yonimda olib yurishim kerak. Zamon tinchisin, keyin ko'proq askar olib chiqaman. Qayerdan bo'lsa ham topdirib, urug'ini quritaman!

## ICHI QORA KO'ZI QORADAN KULADI

Kechasi to'g'onda yuz bergan hodisa ertasi kuni qishloqda "duv-duv" gap bo'ldi. Odamlar Berdi bilan uning sheriklarini qo'li ochiq, mard yigitlar ekan, deb maqtab, "E, Bekmurodboylar ularning oldida ip esholmay qoldi!" deb bir-birlariga shivirlab kulishar edi. Boyning ustidan ochiqchasiga kulishga ko'p odam hali jur'at qilolmas edi. Xudoyberdi og'aning och o'tirgan bolalari Berdi in'om qilgan qo'ylarning atrofida parvona edilar.

Onalari:

— Sabr qilinglar, — dedi. — Otalaring bularni bozorga olib borib sotadi. Keyin puliga non olib keladi, mayiz olib keladi!

— Menga non berasizmi, oyi?

— Ilgarigiday ko'p berasizmi?

Ozib qoq suyak bo'lib qolgan onaning ko'zlarida yosh yiltilladi:

— Ha, ko'p beraman. Ko'p!

— Kechqurun, Xudo xohlasa, go'sht ham eysizlar, — dedi.

Xudoyberdi og'a qo'ylardan uchtasini bozorga haydab ketardi. — Mana, ikkita qo'yni tashlab ketyapman. Bittasini kechqurun kelib so'yib beraman. Go'sht yeysan, bolam, jishsha yeysan!

Oyog'i ingichka bolacha:

— Jishsha! — deb ko'zlari yonib takrorladi. — Jishsha!

Xudoyberdi og'a bozordan yarim qop un, uch-to'rt yumaloq choy olib qaytdi. Uf tortib:

— Biroz bug'doy olmoqchi edim, bo'lmadi, — dedi. — Bozorga bug'doy kirsa odamlar narxiga qaramay talashib olyapti. Yaqiniga yo'lab bo'lmaydi. Oddiy arpa unini zo'rg'a topdim. Qahatchilik boshlandi, shekilli...

Och bolalar chirqillab, otalarining atrofini o'rab olishdi. Onalari xurjunni ochib, hammasiga bir siqimdan olma qoqi bilan jiyda berdi.

— Men qo'yni so'yguncha sen bitta qotirma pishir, xotin, bir to'g'ramdan yeylik. Juda tinkam qurib ketdi.

— Xo'p, hozir choy ham qo'yaman. Hoy, bolalar, o'tin olib kelinglar... Tezroq!

Xudoyberdi og'a pichog'ini qayrab qo'yni so'ymoqchi bo'lib turganda Bekmurodboyning qaroli kelib:

— Sizni chaqirishyapti, — dedi. — Men bilan birga tez borarmishsiz.

Xudoyberdi og'aning yuragi shuv etib:

— Qayerga borarmishman? — dedi.

— Bekmurodboyning mehmonxonasiga.

— Borib ayt, bugun ishim ko'p, ertaga boraman.

— Yo'q, hozir bormasangiz bo'lmaydi. Saidahmad eshon ham kelib sizni kutib o'tiribdi.

Xudoyberdi og'aning ko'ngli g'ash bo'ldi. Boynikiga oyog'i tortmasa ham, noiloj yo'lga tushdi.

Mehmonxonaning to'rida sallasi katta eshon bilan ipak to'nni yelkasiga tashlagan Bekmurodboy savlat to'kib o'tirishibdi. Ularning ikki yonida Qovoqshayx, Valiboy va Sapar. Beriroqda boyga qarashli boshqa odamlar. Xudoyberdi og'aning salomiga Bekmurodboy qovog'ini solib alik oldi-yu, unga poygakdan joy ko'rsatdi. Dasturxonda issiq bug'doy non yoqimli hid taratib turibdi. Ham-

maning oldida bir choynakdan ko'k choy. Ammo hech kim Xudoyberdi og'aga na choy taklif qildi, na non.

— Xo'sh, Xudoyberdiboy, siz ham yomonlar bilan til topishibsiz, chamasi? — dedi Bekmurodboy.

— Qaysi yomonlarni aytyapsiz, Bekmurodboy?

— To'g'ondagilarni aytyapman. U yerdagi g'ayri dinga borib meni yomonlabsiz. Mardikor pulimni yeb ketdi debsiz!

— Axir haligacha pulimni bermayotganlaringiz rost-ku, boy aka?

Bekmurodboy cho'ntagidan bir dasta pul chiqarib, Xudoyberdi og'aning oldiga xuddi it oldiga tashlagan suyakday itqitdi:

— Oling, bu uch yuz so'm mendan!

— Boshqalar-chi? Sapar, Valiboy...

— Boshqalar o'zi biladi.

— Jiyaningiz mening otimni o'g'irlab ketgan! — dedi Valiboy. — O'shani qaytaringlar, keyin men pul beray. Hozir o'sha ot ming so'm turadi.

— Jiyanimning alamini nega mendan olasiz? Uning uyi boshqa, joyi boshqa!

— Lekin uni siz qazuvda ishlatganingizni biz bilmaymizmi? Hammalaring bir odamsizlar! Jiyaningiz otimni qaytarib bermaguncha men sizga bir tiyin ham bermayman! Sapar ham bermaydi!

— Bu qanday gap, Bekmurodboy? Axir siz menga "o'g'lingning haqini o'zim yig'ib beraman" degan edingiz-ku? Lafzingizda turmaysizmi?

— Men sizga pul yig'ib beraman deganda, siz musulmon odam edingiz. Hozir siz imoningizni sotyapsiz!

— Alhamdulilloh, men musulmonman!

— Yo'q, siz dindan qaytyapsiz! — deb birdan Saidahmad eshon gapga aralashdi. — Har kuni o'sha g'ayridinning uyiga borib og'iz-burun o'pisharmishsiz! Menga hammasi allaqachon ayon bo'lgan!

— Uni ham Xudo yaratgan emasmi, eshon og'a? Bizning tilimizni bilar ekan, dinimizni tushunar ekan...

— Unday bo'lsa, siz o'sha o'risning diniga o'ta qoling! Kofir bo'la qoling! Keyin sizni butun qishloq toshbo'ron qilsin!

— Men kofir emasman! Meni birov boshqa dinga o'tgin deyayotgani yo'q! Bu tuhmat gaplar qayoqdan chiqyapti?!

— Kecha o'sha o'risning uyida o'tirib, ziyofat yeganingiz ham tuhmatmi? — deb endi Qovoqshayx ham gapga qo'shildi: — U yerda siz kimning ziyofatini yedingiz? Qani, eshon og'aning oldida rostini ayting. Kim sizga beshta qo'yni tekinga berdi? Nega berdi? Ayting!

Bu yerda o'tirganlar hammasi Berdining dushmanlari ekani ma'lum. Shuning uchun Xudoyberdi og'a qo'yni kim berganini aytishdan qo'rqdi:

— Qo'ylarni menga Xudo berdi, — dedi. — Kechagi ziyofatni ham Xudo bizga yetkazdi. "Xudo bersa quliga, keltirib qo'yar yo'liga" degan gap bor, eshon og'a!

— O'g'irlik narsaga siz Xudoni aralashtirmang! — o'shqirdi Bekmurodboy. — O'tgan hafta bizning qo'tondan uchta qo'yni o'g'irlab ketishibdi. Kecha Omonmurodning sigiri yo'qoldi.

— Men o'g'irlikdan hazar qilaman. Hozir och ko'p. Qo'yingizni ochlar o'g'irlagan.

— Siz to'qlardanmisiz?

— Men ochdan o'lsam ham o'g'irlik qilmayman!

— Bugun bozorga haydab borib sotib kelgan qo'ylaringiz o'g'irlik bo'lmay nima?

— Bu qo'ylarni bir yigit halol mehnat bilan cho'ponlik qilib topgan!

— Qaysi yigit u? Sizning kimingiz bo'ladi u yigit? Mehnat qilib topgan qo'ylarini nega sizga tekinga beradi?! O'g'irlik bu hammasi!

— Axir mening guvohlarim bor! Bu qo'ylarni Berdi degan yigit cho'ponlik qilib topgan.

— Berdi?! — deb Saidahmad eshon bir sakrab tushdi. Bekmurodboyning kelinini olib qochib ketgan haromi Berdimi?!

— Ha, sizday tabarruk odamning otini o'g'irlab qochgan o'sha Berdi!

— Dordan qochgan bu padarla'nati olti oydan beri o'ziga o'xshagan ikkita qaroqchini yoniga olib Qoraqumda yashirinib yuribdi. Olti oydan beri bular och yuribdi, deysizmi? Sahroda birov

ularga ovqat tayyorlab qo'yibdimi? Nuqul o'g'irlik mollarni yeyishadi!

— Ular o'g'irlik qilishmaydi, uchovi ham mergan yigitlar, ov qilishadi! — dedi Xudoyberdi og'a. Ammo o'tirganlar uning izohini eshitishni istamas edi.

— Xudo! Xudovandi karim! — deb eshon yumuq ko'zlarini shiftga qaratib tasbehlik qo'llarini duo uchun ko'tardi: — Xalq mana shunday haromilarning kasofatiga qolyapti! Osmondan g'ubor yog'ib turgani bejiz emas! Qurg'oqchilik, qahatchilik! Hammasiga mana shu kasofatlar sababchi! Hamma yoqda harom, harish! O'g'rilarning o'zi ham harom, moli ham makruh! Ilohim... Eshonning qarg'ishidan qo'rqadigan Xudoyberdi og'a sarosima bo'lib dovdirab:

— Shoshmang, eshon og'a, — dedi, — meni duoibad qilmang... Men halol mol deb olgan edim... Menga yo'l ko'rsating!..

— Olgan molingni qaytarib ber... Bo'lmasa, gunohga botasan! Kasofati uradi!

— Uchtasini sotib qo'ydim-ku. Bolalarim och edi. Un olib keldim. Ikkitasi qoldi. Bolalar uch oydan beri go'sht yegani yo'q. Bittasini so'yib bersam...

— Makruh! — dedi eshon.

— Siz norasida bolalarga makruh narsa yedirib uvoliga qolasiz! — eshonga yon bosib dedi Qovoqshayx.

Xudoyberdi og'aning boshi aylanib, tili g'o'ldirab qoldi.

— Bo'lmasa bu gunohini yuvadigan bir ish qilsin, — dedi Bekmurodboy. — Eshon og'a, bu odamning o'zi meni xafa qilgan bo'lsa ham, begunoh bolalariga odamning rahmi keladi. Hozir ahvol og'ir. Mayli, makruh qo'ylarni sotib, puliga nimaiki olib kelgan bo'lsa, bolalari yesin. Odam bilmay harom yeganda halqumini tozalash uchun savoblik ishlar qiladi. Qolgan ikki qo'yni Hotam-shayx mozoriga atasin. Bittasini qoldiringlar. Bola-chaqalarga...

— Bolalaringizga bu kasofatni yedirmang! — dedi Saidahmad eshon. — Birni o'n qilib olib chiqib ketadi! Osmondan tavqi-la'nat tushadi. Qarg'ishning tagida qolasiz.

— Bas, eshon og'a, bo'ldi! Men Xudodan qo'rqaman, mayli, ikkovini ham berdim. Xudo yo'liga sadaqa!

Qovoqshayx Bekmurodboyning qarolini yoniga olib, Xudoyberdi og'a bilan birga uning uyiga bordi-da, haligi ikki qo'yni mozorga haydab ketdi. Kechasi qorong'ida Qovoq eshon bu qo'ylardan birini Saidahmad eshonga eltib berdi. Bu yoqda Bekmurodboyning odamlari Berdini ham, Xudoyberdi og'ani ham yomonlab gap tarqatishdi. "Xudoyberdi qo'ylarning uchtasini yegandan keyin Berdining harom ishlarini bilib qolibdi, gunohini yuvish uchun qolgan ikkita qo'yni mozorga Xudoyi qilibdi", degan mish-mishlar ko'paydi. Biroq Berdini o'z ko'zlari bilan ko'rgan dehqonlar: "Bu hammasi bekor gap, — deyishardi. — "Ko'zi qoradan ichi qora kuladi" deganday bo'libdi. Nafsi kattalar bechora Xudoyberdi og'ani qo'rqitib, aldab, og'zidagi oshini tortib olishibdi".

## KUZGA O'XSHAGAN BAHOR

Hamal oyi quruq keldi. Savr oyida ham yomg'ir yog'madi. Har yili bahorda osmonni larzaga keltiradigan momaqaldiroqlar bu yil mutlaqo eshitilmay qoldi. Har zamonda paydo bo'ladigan xira bulutlar osmonning bir chetida bezrayib turadi-yu, o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketadi. Qilichning tig'iday yaltiraydigan chaqmoqlar qani? Osmondan nuqul g'ubor yog'adi, sahrodan garmsel shamollar esadi. Har yili bahorda dalalarga qizil gilam to'shaydigan lola-qizg'aldoqlar endi yo'q. Bu yilgi bahor — sepsiz kelinday qup-quruq. Faqat oqar suvlar bo'yida siyrak ko'katlar va bitta-yarimta gullar ko'zga chalinadi. Boshqa hamma joy bahorda ham kuzdagiday sarg'ayib yotibdi. Uzukning yoshligi Omonmurodning uyida xuddi mana shu qurg'oqchilik yilining bahoriday qovjirab o'tmoqda edi. Agar Berdi qamoqxonadan qochib kelib, uni qidirib topmaganda, ehtimol, Uzukning butun hayoti suvsiz qolgan ekin kabi yerdan bosh ko'tarolmay xazon bo'lar edi. Ammo taqdir uni sevimli yigiti bilan yana uchrashtirdi. Uzuk uchun osmonda sho'x chaqmoqlar chaqilganday bo'ldi, guyo bahor yomg'irlari yog'ib o'tdi. Uning qalbida so'na boshlagan tuyg'ular yana tirildi. Qurg'oqchilikdan jizg'anak bo'lib yotgan berahm olamning bir chetida zaifgina gul ochildi — bu yil erta ko'klamda Uzuk o'g'il tug'di. Uch xotin olib

haligacha tirnoq ko'rmagan Omonmurodning og'zi qulog'ida — bolaning chillasi chiqar-chiqmas novvos so'yib, katta ziyofat qilib berdi. Ukasi o'g'illik bo'lganini eshitgan Bekmurodboy ham xush-xabar keltirgan odamlardan suyunchini ayamadi. Qo'nish kampir esa xursand bo'lganidan ko'zlariga yosh oldi:

— Xudoga ming qatla shukur, murodimizga yetdik! Ilohim bolaning umri uzoq bo'lsin. O'g'illarimning davlatiga davlat qo'shsin. Bekmurodjon, bu bolaning otini Davlatmurod qo'yinglar!

— Yaxshi ism topibsiz, ona! Otasi Omonmurod, o'zi Davlat-murod!

— Davlatmurod! — shodlanib takrorladi Omonmurod. — Me-ning o'g'lim!

Uzuk bu gaplarni eshitganda chetga qarab, istehzoli kulimsira-di. Chaqaloq hali bir parcha et bo'lsa ham, uning ko'zlari, qoshlari Berdining xuddi o'zi. Uzuk qalbining tagida to'qqiz oy sevimli yi-gitining farzandini ko'tarib yurganini biladi. Ammo buni Berdidan boshqa hech kimga aytolmaydi. Qo'nish boyvuchcha bilan uning o'g'illari bolaga qarab, boshlari osmonga yetganday bo'lar, lekin o'g'il tuqqan Uzukni hech qaysisi tilga olmas, "bolangga shunday ot qo'ysak, rozimisan?" deb hech kim undan so'ramas edi. Uzuk-ka eng og'ir botayotgan narsa — Berdining o'g'li bo'lgan bu bola Berdining dushmanlarini shunchalik xursand qilayotgani edi. Uzuk Berdini juda sog'ingan. Uni ko'rishga mushtoq edi. U Berdi bilan ko'rishmaganiga to'rt oydan oshib boryapti. Oyi-kuni yaqinlash-gandan keyin Qo'nish boyvuchcha Uzukni hovlidan chiqarmay qo'ygan edi. Ko'z yoriganiga ham, mana, qirq kun bo'lyapti. Irim-sirimlarga qattiq rioya qiladigan Qo'nish boyvuchcha hamon Uzukni ziyoratga borgani qo'ymaydi. Bu orada, ehtimol, Ber-di o'sha to'rang'ilar tagiga qayta-qayta kelib ketgandir, ehtimol. Uzukni uchratolmagani uchun har xil xayollarga borib, ozorlanib yurgandir? Berdining xavf-xatarga to'la hayoti kecha-yu kunduz Uzukning ko'z oldidan ketmaydi. Bekmurodboylar Berdining qamoqdan tirik chiqqanini bilganidan beri avvalgidan battar qon-sirab yuribdi. Agar ular Berdining bu tomonlarga kelib, Uzuk bilan uchrashishini sezib qolishsa, yo tirigini, yo o'ligini qo'lga tushir-may qo'yishmaydi...

Bolaning katta chillasi chiqqandan keyin ertaga juma, degan kuni Uzuk qaynanasidan mozorga borib kelishga ruxsat so'radi. — Hotamshayx avliyoga jonim sadag'a, bizga qo'chqorday o'g'il ato qildilar! — dedi Qo'nish boyvuchcha. — Bu avliyoning mozorlarini har kuni borib, ziyorat qilsang ham oz. Lekin sen yosh bolalik ayolsan, yolg'iz bormagin. Yosh bolalik ayolga ins-u jins o'ch bo'ladi...

— Xo'p, qo'ni-qo'shnilarga qo'shilib borarman.

Qo'nish boyvuchchaning yaxshi ko'rgan nevarasi — Bekmurodboyning katta qizi Ashirgul:

— Buvi, men birga boraymi? — dedi.

Haligacha er olmayotgan bu qiz bekorchilikdan zerikib, nima qilishini bilmay yurar, Qo'nish boyvuchcha uni kelinlaridan gap o'g'irlaydigan ayg'oqchiga aylantirib olgan edi. Uzuk undan iloji boricha uzoq yurishga tirishar edi.

— Voy, siz ovora bo'lmang, qiz bolaning mozorga borishi yaxshi emasdir, — dedi Uzuk.

— Ha, odamlarga erish ko'rinadi, — deb Qo'nish boyvuchcha ham Ashirgulni qaytardi.

Uzuk nazr-niyozini olib hovlidan chiqib ketdi. Ashirgul devordan mo'ralab, uni zimdan kuzata boshladi. Uzukdan oldinda To'rli ho'kizlarini daryo tomonga haydab bormoqda edi. Uzuk bilan To'rli salomlashib, bir-ikki og'iz gaplashganini Ashirgul uzoqdan ko'rib qoldi-yu, ilgarigi shubhalari esiga tushdi. Uning nazarida, Uzuk ziyoratga emas, To'rli bilan ovloqda uchrashish uchun ketmoqda edi. Ashirgul erkak bilan ayolning ovloqda quchoqlashib o'pishishlarini ko'rishga juda tashna edi. Badavlat oilada yeyish-ichishdan kamchilik ko'rmay o'sgan bu qizga hozir eng yetishmayotgani bitta er edi. U yigitlar to'g'risida juda ko'p xayol surar, munosib er chiqmayotgani alam qilar, oilalik juvonlar uning hasadini keltirardi. Ashirgul boshiga eski to'nini yopindi-yu, Uzukning ketidan yo'lga tushdi. Uzuk mozor yo'lidan yolg'iz bormoqda edi. Ashirgul poylab borayotganini bildirmaslik uchun Uzukdan xiyol orqada qoldi. To'rlining ho'kizlari yulg'unlar orasida o'tlab yurar, uning o'zi yantoq chopmoqda edi. Uzuk qalin to'rang'ilar orasiga kirib

ko'rinmay qoldi. Ashirgulning nazarida, hozir To'rli ham o'sha yoqqa qarab yo'nalishi kerak edi. Biroq To'rli hamon boshini ko'tarmay yantoq chopmoqda edi.

Ashirgul oftobga qaradi. Kun kech bo'lyapti. Ehtimol, Uzuk mozordan qaytayotganda To'rli bilan uchrashar? Ashirgul yulg'unlar orasida o'tirib, To'rlini zimdan kuzata boshladi.

Uzuk belgili daraxtga bog'langan oq surpni ko'rib, yuragi hapqirib ketdi. Demak, Berdi shu yerda! Uzuk ko'zlari olazarak bo'lib orqasiga qaradi. U to'n yopingan bir ayol orqadan kelayotganini ko'rgan, ammo uzoqdan kimligini tanimagan edi. Bu ayol birdan yo'q bo'lib qoldi. Bir joyda uni poylab o'tirgan bo'lmasin? Uzuk nima qilishini bilmay, bir lahza ikkilanib turdi. Shu payt o'ng tomonda shox-shabbalarning shitirlagani eshitildi. Uzuk cho'chib o'sha tomonga qaragan edi, Berdini ko'rib qoldi. Hamma xavf-xatarlar esidan chiqib, Uzuk Berdiga qarab otildi. Berdi uni quchoqlab, yuzlaridan, ko'zlaridan o'pdi-da, keyin qo'liga ko'tarib, to'qayning ichkarisiga olib kirib ketdi.

— Berdijon, shoshma, meni yerga qo'y! — deb pichirladi Uzuk.

Berdi uni yerga qo'yib, belidan quchoqlab oldi. Uzuk ikki siynasidan tizillab sut otilib ketayotganini sezdi-yu:

— Sekinroq! Berdijon, qo'yvor! — deb uyalib iltijo qildi. Berdi uni quchog'idan bo'shatganida Uzukning ko'kragi sutdan nam bo'lib qolgan, bu nam Berdining ko'ylagiga ham tekkan edi.

— Men endi ona bo'ldim, Berdijon. — Uzuk Berdining ko'kragidagi nam tekkan joyga kaftlarini qo'yib kulimsiradi: — O'g'lingning ona suti...

— Chini bilan men ota bo'ldimmi, Uzuk?

— Agar sen shubhalansang, meni o'ldirgandan battar qilasan!

— Yo'q-yo'q, men ishonaman! Men xursand bo'lganimdan shunday dedim, Uzuk!

— Agar xursand bo'lsang... O'g'ling muborak!

— Senga ham o'g'il muborak bo'lsin!

— Men endi yolg'iz emasman. Bag'rimda sening jigarporang!

— Qani edi men ham uni bir ko'rsam, birpas qo'limga olsam... Yanagi jumada shu yerga olib kelolmaysanmi, Uzuk?

— Sen yana kelmoqchimisan?

— Sen agar olib chiqsang, kelaman.

— Endi ko'p kelma, Berdijon, bu yer juda xatarli. Dushmanlaring bilib qoladi.

Berdining ko'zlari qahr bilan qisildi:

— Dushmanlarim! Sen ularning tutquni eding. Endi o'g'limiz ham ularning tutquniga aylandi... O'g'il tug'ib berganingdan ular juda xursanddir?

Uzukning ko'zlari yoshlandi:

— Qismatim shunday bo'lsa ilojim nima, Berdijon? Men sen bilan qochib qutulolsam jon der edim. Bolani ham olib ketolsak qani edi. Lekin... bu go'dak bilan qochib qayerga yashirinamiz? Hamma joy shularniki. Hamma yoqda shularning odami. Hozir ketimdan bir ayol kelayotgan edi. To'satdan yo'q bo'lib qoldi.

— Senga poyloqchi qo'yadigan bo'lishganmi?

— Bilmayman... — Uzuk jim qolib, so'qmoq tomonga quloq soldi. Ulardan ancha uzoqda Ashirgul hamon To'rlini poylab o'tirar edi. To'rli hech qayoqqa qaramay yantoq chopgani chopgan. U Uzuk bilan va'dalashgan odamga o'xshamaydi. Ashirgul uni poylay-poylay juda zerikdi. O'rnidan turib, so'qmoqqa qaytib chiqdi-da, mozorga qarab o'ta boshladi. Mozor tomondan ikkita ayol kelmoqda edi. Ulardan biri Ashirgulni tanib:

— Voy, Bekmurodboyning qizimisan? — dedi baland tovush bilan. — Bu yoqlarda nima qilib yuribsan?

— Amakimning xotini ziyoratga ketgan edi. Ko'rmadilaringmi?

— Qaysi xotini?

— Uzuk.

Baland ovoz bilan gapirgan xotinning hamma gaplari Berdi bilan Uzukka eshitilib turardi. Uzukning rangi oqarib ketdi:

— Bu alvasti meni poylab yurgan ekan-da. Men endi qanday qilaman?

Berdi qo'llarini musht qilib:

— Chayonlar! — dedi. — Otalarining yomonligi yetmasmidi? Endi bolalari ham bizni chaqmoqchi!

— Bu qiz Qo'nish boyvuchchaning qo'lida katta bo'lgan. Hozir quturib yuribdi! Nuqul ayg'oqchilik qiladi.

— Quturib yurgan bo'lsa men uni olib qochib ketaman, Uzuk. Sening kuningni boshiga solaman! Sen menga bu qizning kechasi qayerda yotishini tushuntirib ket.

— Buni olib qochib nima qilasan, Berdijon? Qo'y, kerak emas!

— Yo'q, sen menga qayerda yotishini ayt!

— Buvisi bilan yotadi. Qo'nish kampir juda sergak. Kechalari ko'p uxlamaydi. Bekmurodboy hamma yoqqa qorovul qo'ygan. Itlari ko'p. Qo'lga tushib qolasan. Keyin... mening boshimga tushgan kunlarni men hech kimga ravo ko'rmayman!.. Yo sen shu qizni olmoqchimisan, Berdi?!

— Jinni bo'ldingmi, Uzuk? Men buni olib boshimga uramanmi?.. Bunaqalarning mingtasi sening oldingdan o'taversin!..

Bu orada Ashirgul haligi ayollar bilan gapirishib bo'ldi. So'ng yolg'iz o'zi mozorga qarab ketdi. Ammo nariroqqa borib to'xtadi. Buvisi "mozorga borsang, erish ko'rinadi" degani esiga tushdi-yu orqasiga qaytdi. Yana boyagi joyiga borib, To'rlini poylamoqchi bo'ldi. Chakalakzor orasida yashirinib o'tirgan va pichirlashib gaplashayotgan Uzuk bilan Berdi Ashirgulning orqaga qaytayotganini ko'rib turishardi.

— Bu bir baloni sezdi! — dedi Uzuk vahimadan dir-dir titrab. — Nima balo kelsa menga kelsin! Sen ket, Berdijon! Ikkinchi bu yepga kelma!

— Esingni yig', boshingga balo chaqirma! Bu qiz meni taniydi. Men bunga bir yaxshilik qilganman. Hozir oldidan chiqib gapga tutaman. Shunda sen sekin ziyoratingga ketaver, o'lmasak, shu yerda yana ko'rishamiz.

— Bu yerga endi kelma, Berdijon!

— Kelaman!

— Bo'lmasa men kelmayman! Men sening qo'lga tushishingdan qo'rqaman!

— Qo'rqma!.. Taqdirda bori bo'ladi... Agar ana u alvasti yo'qolib qolsa, sen hech narsani sezdirmagin. Xayr!

Uzuk Berdining ko'kragiga yuzini bosib, unsiz yig'ladi:

— Xudo seni panohida asrasin!

Berdi uni yelkasidan quchib, sochidan, peshonasidan o'pib xayrlashdi. So'ng sharpasini sezdirmaslikka tirishib, tig'iz to'ran-

g'ilarni aylanib o'ta boshladi. Ilang-bilang so'qmoq yo'lning ovloq bir joyida Berdi Ashirgulning qarshisidan chiqdi. Boshiga to'n yopingan qiz baland bo'yli mo'ylovdor yigitga qo'rqa-pisa ko'z tashladi.

— Ashirgul, eson-omon yuribsanmi? — dedi yigit mayin tovush bilan. Qiz to'xtab, yigitning yuziga tikilib qaradi. Bu jozibali yigit uni nortuyaning g'azabidan qutqargan oydin kecha esiga tushdi:

— Siz o'sha... karvonchi og'a emasmisiz?

— Ha, men o'sha og'angman. Seni bir ko'rib ketgim keldi. Ashirgul Berdining kelishgan qaddi-qomatiga ko'zlari yonib qaradi. O'sha kecha bu yigit uni yerdan quchoqlab ko'tarib olgani yodiga tushdi. Yigit uni quchoqlab olgan paytda Ashirgulning dirkillama ko'kraklari yigitning keng ko'ksi bilan birlashib ketganday tuyulgan edi. Ashirgul nortuyadan qanchalik qattiq qo'rqqan bo'lmasin, bora-bora bu esidan chiqdi, ammo yigitning zabardast quchog'ida uyg'ongan shirin tuyg'ulari uning xotirasidan ketmaydigan bo'lib qoldi. Ashirgul bu yigit bilan yana uchrashishni va o'sha shirin daqiqalarning yana takrorlanishini istardi. Biroq yigit o'shandan keyin butunlay ko'rinmay ketgan edi. Mana hozir u to'satdan Ashirgulga ovloqda duch keldi... Nahotki bu yigit ham o'sha daqiqalarni unutmay yurgan bo'lsa?

— Bu yerga chini bilan meni izlab keldingizmi? — so'radi qiz Berdidan.

Berdi kulimsirab qizning bilagidan oldi:

— Senga aytadigan gapim bor. Yur, yo'ldan chetroqqa chiqaylik.

Qiz unga qarshilik qilmadi, yonida borar ekan:

— Qanday gapingiz bor? — dedi.

Qizning hayajondan entikayotganini ko'rgan Berdi ichida: "O'zing shunchalik yengiltaksan, Uzukdan ayb izlashga nima haqqing bor?" — deb g'ijindi. — "Sening ko'zingni moshday ochadigan payt keldi! O'sha yirtqich otang ham qiz o'g'irlatishning azobini bir tatib ko'rsin!"

Berdi Ashirgulni bilagidan olib, chakalakzor panasiga boshlab borar ekan, osmonga bir qarab oldi. Kun botib boryapti. Berdi bu yerga ertalab tong qorong'isida kelgan edi. Oti va sheriklari

to‘qayning narigi chetida, to‘g‘on bo‘yida qolgan. Turdi bilan Olloquli uni oqshom qorong‘i tushguncha o‘sha yerda kutib turadigan bo‘lgan. Agar Berdi hozir bu qizni to‘qayga olib kirib, qo‘l-oyog‘ini, og‘zini bog‘lab qo‘ysa, qorong‘i tushganda to‘qayning ichi bilan yurib, bir amallab to‘g‘ongacha olib boradi.

Undan narida otliq ketishi mumkin. Ammo buni shuncha joygacha qo‘lda ko‘tarib borish juda noqulay. Bitta-yarimta odam uchrab qolsa, tashlab qochishga to‘g‘ri keladi. Yana unda Uzuk xavf ostida qoladi. Berdi bu qizni olib qochib ketgani bilan sog‘-salomat qaytarib yuborishi kerak. Qiz kelgandan keyin, albatta, qayerda qo‘lga tushganini aytib beradi. Uzukni poylab borib, Berdining qo‘liga tushganini aytsa, narigilar kosa tagidagi nimkosani bilib qolishadi. Keyin ular butun alamlarini Uzukdan olishlari aniq. Yo‘q, Berdi Uzukni xavf ostida qoldirolmaydi. U qizni hamon bilagidan ushlab, chakalakzor ichiga boshlab bormoqda edi. Oraga tushgan jimlik va Berdining qadam olishidagi qat’iyat Ashirgulni sergaklantirdi. U yo‘ldan ko‘p ham uzoqlashgisi kelmay to‘xtadi va bilagini Berdining qo‘lidan bo‘shatishga tirishib:

— Qo‘yvoring, — dedi. — Otam bilib qolsa, ikkovimizni ham o‘ldiradi!

— Otang qayoqdan bilishi mumkin?

— Boya otam dalalarni aylanib ko‘rishga ketgan edi.

— Shu tomongami?

— Ha, daryo tomonga... Nima gapingiz bor, ayting!

“Otasi shu atrofda yurgan bo‘lsa, bugun olib qochib ketish mumkin emas!” deb ko‘nglidan o‘tkazdi Berdi.

— Gapim shuki, otang yo‘q paytda bir uchrashsak.... Senga men ko‘p narsalarni aytib beraman...

— Nimalarni aytib berasiz?

— Sen nimani istasang, hammasini.

— Yana karvon bilan keldingizmi?

— Yo‘q, bir o‘zim... Seni ovloqda uchratmoqchi edim. Otang qachon shaharga ketadi?

— Erta emas, indin ketadi. Bir haftadan keyin yana qaytib keladi.

— Ashirgul, bo‘lmasa, ikki kundan keyin tim qorong‘i tushganda shu yerga bir kelgin. Men seni kutib turaman.

— Qorong'ida kelishga qo'rqaman.

— Nimadan qo'rqasan? Men o'zim seni kutib olaman, keyin kuzatib qo'yaman.

— Yo'q, qorong'ida... bu yer uyimizga juda uzoq...

— Bo'lmasa men o'zim uylaringning orqasidagi daraxtzorga borib turaymi?

— Qachon?

— Sen qachon desang, o'shanda.

— Erta o'tib indinmi?

— Ha. Senga qaysi vaqt qulay?

Ashirgul yutoqib nafas oldi. Berdi uning ko'ziga afsonaviy go'zal yigit bo'lib ko'rinar, Ashirgul u bilan uchrashgisi, uning yoqimli ovozini yana eshitgisi kelar, uning keng quchog'ida yana ho' o'shandagiday shirin tuyg'ularga g'arq bo'lishni istardi.

— Mayli... siz... — deb Ashirgul titroq tovush bilan gapirdi: — Siz keling... Men hamma uxlaganda chiqaman...

— O'sha men aytgan daraxtzorgami?

— Ha. Ikki kundan keyin...

Uzoqdan ot kishnagani eshitildi. Ashirgulning esiga otasi tushdi-yu, birdan bezovtalanib:

— Endi men ketaman, — dedi.

Ular indin kechasi uchrashish haqida yana bir marta va'dalashdilar. Keyin Ashirgul so'qmoqqa qaytib chiqdi. Chakalakzor ichida qolgan Berdi ko'zlari bilan uni ancha joygacha kuzatib turdi. Ashirgul endi To'rlini ham, Uzukni ham butunlay unutgan edi. Uning butun borlig'i Berdi qo'zg'atgan hayajonli tuyg'ularga to'lib turar, u atrofiga qaramay, zipillab uylariga tomon borar edi.

## YASHIL QALAMLI YOSHULLI

Xudoyberdi og'a qishloqdan ariq qazishga qaytib ketayotib, to'g'on ko'prigi tepasida bir to'xtab oldi. Ko'prikdan pastdagi tiniq suv shamolda to'lqinlanib turar edi.

— Ey, Xudoyim, har bandani o'z rizqi bilan yaratgansan! — dedi u o'ziga o'zi gapirib, — bu yil endi ahvolimiz nima bo'ladi?

Bu sho'r peshonalarimizga yana qanday falokatlar yozilgan ekan?.. Ishqilib, O'zing rahm etgin, pok Parvardigoro!

Qazuvdagilar Xudoyberdi og'aning odatdan tashqari Xudojo'y bo'lib qolganini sezishib:

— Ha, og'a, Berdi sizga qo'ylarini bergani uchun Xudoga ixlosingiz ortib ketdimi? — deb hazil qilishdi.

— He, Berdining qo'ylaridan gapirmanglar, ikkitasini Xudo yo'liga sadaqa qilib zo'rg'a qutuldim, — dedi Xudoyberdi og'a va qishloqda bo'lgan voqeani aytib berdi. Hikoyasining oxirida:

— Shu ikkita qo'y menga taqdir qilmagan ekan-da, — deb qo'ydi.

Qilichli unga achinib:

— Soddasiz, Xudoyberdi og'a! — dedi. — Eshon bilan Bekmurodboy sizni rosa laqillatibdi. Berdi ularning o'zlaridan o'n barobar halol yigit. Mana, odamlar aytsin.

— Sizni aldashibdi, Xudoyberdi og'a!

— Bekor ularning gapiga ishonibsiz.

— Boy sizni mardikor olish vaqtida ham aldagan edi-ku!

— Ko'r hassasini bir marta oldiradi, degan gap ham bekor chiqdi-ya!

Odamlardan bu gaplarni eshitgan sari Xudoyberdi og'aga alam qilar edi.

— Agar ular meni yana aldagan bo'lsa, Xudoga soldim! — dedi u. — Mayli, bolalarimga ham nasib qilmagan ekan...

— "Nasib qilmagan ekan", "taqdirda bori shu ekan" deb, siz har qanday yomonlikka ham ko'nikib ketaverasizmi? — dedi Qilichli.

— Bo'lmasa, nima qilay, Qilichlijon?

— Sergeyning oldiga boring. Nima qilishingizni aytadi.

Xudoyberdi og'a eshonning "oxir zamon bo'lyapti, hammalaring g'ayridinlar bilan og'iz-burun o'pishib yuribsanlar, musulmonchilikni unutyapsanlar" deganini eslab, birpas ikkilanib turdi. Qilichli uning ko'ngliga kelgan andishani sezdi-da:

— Siz endi eshonlarning gapiga kirib, hammadan yuz o'girmoqchimisiz? — dedi.

— Yo'g'e, men...

— Balki siz allaqachon Berdini ham haromxo'rga chiqarib qo'ygandirsiz?

— Nega unday deysan, Qilichlijon? Mening boshim aylanib qolayotganga o'xshaydi... Sergey yaxshi yigit. Berdining yaxshiligini ham men umrbod unutmayman.

— Bo'lmasa boring, Sergey sizga bir ish topshirmoqchi edi. Bu yerdagi qazuvni siz uchun ham biz qilaveramiz.

Xudoyberdi og'a Sergeyning uyiga qarab ketdi. Deraza oldiga stol qo'yib, bir narsa yozayotgan Sergey eshikdan kirib kelayotgan Xudoyberdi og'ani o'rnidan turib kutib oldi.

— Yoshulli, men Mariga borib, bir narsani bilib keldim, — dedi. — Ilgarigi hokim ishdan bekor bo'libdi. Uning o'rniga boshqa bir odam komissar bo'libdi.

— Komissaring kim?

— Muvaqqat hukumatning odami. Bu ham avvalgi amaldorga o'xshaydi. Lekin hozir Marida ishchi-dehqon sovetlari ham tuzilgan. Bu sovetlar hali eserlar bilan mensheviklarning qo'lida. Siz bu narsalarni tushunmaysiz. Ammo bir narsani bilingki, yangi hukumat xalq bilan hisoblashishga majbur. Shuning uchun men kambag'allarning nomidan katta bir ariza yozyapman.

— Nima deb yozyapsan?

— Qazuvda chekiga tushgan ishni bitirolmay ketgan dehqonlarga ham suv berilishini talab qilyapman.

— Mana bu ishing juda savobli ish!

— Ha, Qilichli odamlar bilan gaplashib, ishini tashlab ketgan dehqonlarni nomma-nom aniqlab keldi. Hozircha ellik bir odamning ro'yxatini tuzdik. Lekin bu odamlar hozir uy-uyiga ketib qolgan.

— To'g'ri, hammasi hozir o'z qishlog'ida yotibdi.

— Shularni siz qidirib topsangiz. Arizada hammasining imzosi bo'lishi kerak.

— Hammasi savodsiz-ku, qanday qilib imzo qo'yadi?

— Buning yo'li oson. Men sizga mana bu ko'k qalamni beraman. Barmog'ini ho'llab, qalamni surtsa, siyoh surtganday bo'ladi. Barmog'ini bossa — imzo qo'ygani shu.

Xudoyberdi og'a uchi uzun qilib chiqarilgan siyoh qalamni qo'liga oldi. So'ng Sergey ruschalab yozgan varaqlarga ko'z yugurtirdi, ammo biron harfni ham o'qiyolmadi.

— Men o'zim hali savodsizman, Sirboyjon, — dedi u armon bilan:

— Kimning ismi qayerga yozilganini qanday topaman?

— Mana shunisi chatoqroq.

— O'zing men bilan birga yursang, qanday bo'larkin?

— Men birga yurishdan erinmas edim-u, lekin boshliqlarim eshitib qolsa, meni ishdan bo'shatadi.

— Bo'lmasa, bunday qilaylik. Sen har qishloqning odamini bir-biridan sal ajratib yoz. Keyin menga o'qib ber. Men yodlab olaman. Sergey Xudoyberdi og'aning aytganini qildi. Bu keksa dehqonning zehni Sergey kutgandan ancha o'tkir chiqdi. Bir-ikki soat mashq qilib, ro'yxatning qayeriga qaysi qishloq yozilganini, bu qishloqlardan kimlar qayerga barmoq bosishi kerakligini xotirasiga yaxshilab joylab oldi. Sergey Xudoyberdi og'ani qishloqlarga jo'natayotganda, ariza yozilgan qog'ozning orasiga bir parcha shisha ham solib qo'ydi.

— Barmoq bosayotganda mana shu shishani qog'ozning tagiga qo'yib bossin, — deb tushuntirdi. — Agar qalamning uchi sinsa, pichoq bilan tarashlab chiqarishni bilasizmi?

Xudoyberdi og'a umrida qo'liga siyohqalam olmagan edi:

— Bilmayman, — dedi. — Buni menga bir ko'rsatib qo'y.

Sergey uchi chiqarilmagan boshqa bir qalamni oldi. Pichoq bilan birga Xudoyberdi og'aning qo'liga berdi:

— Men aytib turaman. Qani, uchini chiqaring.

Xudoyberdi og'a shuncha yil yashab endi birinchi marta qalamning uchini chiqarar ekan, kula-kula:

— Qiyin emas ekan! — derdi. — Xudo o'zi kechirsin, men eshagimga xalacho'p yo'nganda uning uchini ham xuddi mana shunday qilib chiqaraman!

Bu gapdan Sergey ham qotib kuldi.

* * *

Xudoyberdi og'a qishloqma-qishloq yurib, suvdan mahrum qilingan dehqonlarning imzosini yig'a boshladi. Hamma joyda u arizani qo'liga olar va unda nimalar yozilganini qog'ozga qarab o'qiyotganday ravon aytib berar edi. Mosh-guruch soqolli bu nu-

roniy dehqonni ko'p odam "mulla odam ekan" deb o'ylar, suvdan ilinji qolmay ko'ngli cho'kib yurgan ba'zi kambag'allar:

— Zora dodimiz yaxshilarning qulog'iga yetsa, — deb umidlanishardi. Xudoyberdi og'a ularga:

— Noumid — shayton! — derdi. — Yotib qolguncha otib qolish kerak.

— Aytganingiz rost, yoshulli. Biz indamay o'tiraversak, boylar tepamizga chiqib ketadi.

Bu gap qishloq machitining jilovxonasida bo'lmoqda edi. Azon aytish vaqtini kutib o'tirgan so'fi so'nggi gapni eshitib qoldi-da:

— Boyonlarimizga kim til tegizyapti? — deb so'radi.

— Biz bor gapni aytyapmiz, taqsir, — dedi Xudoyberdi og'a. — Kambag'allarning suv navbatini arzon-garovga sotib olgan badnafs odamlar bor. Qurg'oqchilikni ko'rib turibsiz.

— Bu hammasi Xudodan! Bandalari biror gunoh qilgan-ki, Xudo bizga shu jazoni yuboryapti!

— Lekin Xudoyi taolo ham "olma pish, og'zimga tush" deb osmonga qarab yotadiganlarni yomon ko'radi, taqsir. Biz mana, qo'limizdan kelgan harakatimizni qilayotibmiz. Qani, Eson Qilich o'g'li... Siz mana bu yerga barmoq bosasiz.

Xudoyberdi og'a qalamni qo'ynidan oldi-yu, uning uchi sinib qolganini ko'rib shashti qaytdi.

— Obbo, chatoq bo'libdi-ku. Kimda pichoq bor?

— Machitga pichoq taqib kelish gunoh bo'ladi, deb pichoqni tashlab kelgan edik.

— So'fi og'ada gazlik bo'lsa kerak.

— Bu kishida hamisha qalam bilan dovot bo'ladi.

So'fi cho'ntagidan gazlik pichog'ini olar ekan:

— Qani, qalamingizni bu yoqqa bering, men bir ko'ray, — dedi. Xudoyberdi og'a uchi singan qalamini sufiga uzatdi. So'fi qamishdan qilingan ichi teshik eskicha qalamlarga o'rgangan, fabrikada chiqqan siyoh qalamni umrida hech ko'rmagan edi.

— Bu qalam emas! — dedi so'fi to'satdan. — Buning ichida teshigi yo'q. Siyoh turadigan joyi yo'q!

— E taqsir, buning ichida quritilgan siyoh bor. Gazligingizni bering, men uchini chiqaray, keyin ko'rasiz.

So‘fi qalamni egasiga qaytarib berdi-yu, ammo gazligini bermadi:

— Quruq siyoh bilan yozib bo‘ladimi? Siz odamlarni laqillatmang.

— Buning ichidagi siyoh juda alomat! Siz bilmaysiz, taqsir. Bu qalam...

So‘fining jahli chiqdi:

— Men bilaman! Bu qalamni kofirlar chiqargan! Rangi ham ko‘k. Odamning ko‘ziga baloday ko‘rinadi. Buning ichiga kofirlar harom narsalarni joylagan. Men pichog‘imni bermayman. Bunga tekkan pichoq harom bo‘ladi!

— Ana xolos! Endi qalamdan ayb topdilar...

Bu gaplar davomida machitning jilovxonasiga yana bir necha kishi kirib kelgan edi. Ulardan biri dandon sopli pichog‘ini qinidan sug‘urib olib Xudoyberdi og‘aga uzatdi:

— Oling, qani, qalamingizning uchini chiqaring, biz ham bir ko‘raylik, — dedi. So‘ng so‘figa yuzlandi: — Siz bilmagan narsangizning hammasini harom deyavermang, taqsir. Juda zo‘r kelsa, pichoqni olovga birpas tutib, qatron qilib olamiz!

Xudoyberdi og‘a kalamning uchini chiqarib, uni pichoq bergan kishiga tutdi:

— Ol, inim, mana bu yog‘ochga chizib ko‘r-chi. Quruq siyoh yozarmikin?

Qalamning yozayotganini ko‘rgan kishilar:

— Yo tavba, quruq siyoh ham yozar ekan-a! — deb yoqalarini ushlashdi. Xudoyberdi og‘a Eson degan yigitga qarab:

— Qani, endi sen bosh barmog‘ingni ho‘lla, — dedi.

Eson uning aytganini qildi. Xudoyberdi og‘a siyoh qalamni ho‘l barmoqqa surta boshladi. Boya yog‘ochda qora iz qoldirgan qalam hozir ho‘l barmoqni ko‘m-ko‘k siyoh bilan bo‘yay boshladi. Odamlar yana yoqalarini ushlashdi:

— Obbo, tilsim qalam ekan-ku!..

— Hunariga qoyilman-e!

Eson arizaga barmoq bosgandan keyin pichoq bergan kishi qalamni Xudoyberdi og‘adan olib, uchini og‘ziga solib ho‘lladi-da, kaftiga chiziq chizib ko‘rdi:

— Iye, ta'mi achchiq ekan-ku! — dedi u kulib.

— Qani, men ham bir tatib ko'ray!

So'fi boya bu qalamni yozmaydi degani uchun endi odamlarning oldida o'ng'aysizlanib, birpas izza bo'lib turdi-yu, keyin lo'lilik qila boshladi:

— Bu harom qalamni kim og'ziga olgan bo'lsa, tahorati buzildi! Borib boshqatdan tahorat qilib kelinglar! Bo'lmasa, masjidning muborak ostonasidan kirgizmayman!

— Kirgizmasangiz mayli, bugun namozni uyda o'qiy qolamiz — dedi pichoq bergan kishi. U Xudoyberdi og'aga gapirdi: — Siz kambag'al bechoralarning g'amini yeb, juda xayrli ishga bel bog'labsiz, yoshulli. Yuring, bugun biznikida mehmon bo'ling. So'fimizdan xafa bo'lmang. Fe'li shunaqa.

— Bu so'filarni-ku, xalq boqyapti. Bular nimaga xalqning g'amini yemaydi? Men mana shunisiga hayronman!

— E, bular xalqning nonini yeyishni biladi, xolos. Sizga o'xshagan biror kishi xalqning g'amini yesa, bular tekin nonidan ajrab qoladiganday irillaydi.

Xudoyberdi og'a qaysi qishloqqa bormasin, o'ziga o'xshagan jabrdiydalar bilan mana shunday dardlashib, hasratlashib ko'ngli yozilar edi. U ishni bitirib, to'g'onning boshiga qaytganda arizaga barmoq bosgan odamlarning soni oltmish ikkiga yetgan edi. Sergey hayron bo'lib:

— Adashib ketibsiz, chamasi, — dedi.

— Yo'q, bu o'n bir odam sening avvalgi ro'yxatingga kirmay qolgan ekan. Bular ham arzga bormoqchi bo'lishdi. Ismlarini yoz, men aytib turaman. Ortiqcha bosilgan o'n bir barmoqning qarshisiga Sergey egalarining otlarini yoza boshladi. Xudoyberdi og'a hammasining ismini, otasining ismini yoddan aytib turdi.

## PRISTAVNING HUZURIDA

Dehqonlar uyezd boshlig'ining nomiga ariza yozishib, imzo to'plashayotgani Bekmurodboyning qulog'iga allaqachon borib yetgan edi. Hozirgi uyezd boshlig'i bir vaqtlar Marida pristav

bo'lib ishlagan Shubin degan kishi edi. Bekmurodboy armani do'sti Avanesni vositachi qilib, Shubinning uyiga semiz bir bo'rdoqi qo'y yubordi. Keyin izidan o'zi xotini bilan mehmon bo'lib bordi. Shubin janoblariga bir dasta qorako'l teri taqdim qildi. Qahatchilik boshlangandan beri Shubin janoblarining uyiga bunday sovg'alar kam kelar edi. U Bekmurodboydan minnatdor bo'lib:

— Nima talabingiz bo'lsa ayting, qo'limdan kelganicha ado etaman, — dedi.

Bekmurodboy Egriguzar to'g'onida ishlaydigan Sergeydan gap ochdi:

— Bu bola o'ris bo'lgani uchun emas, sizday to'ralarga munosib ish qilmayotgani uchun bizga yoqmay qoldi, — dedi. Sergey to'g'risida eshitgan hamma gaplarni pristavga aytib berdi-da: — Shuni qamoqqa olsangiz, bizning qulog'imiz bir g'alvadan tinchir edi, — dedi.

— Sergey Timoshchenkomi? — dedi Shubin. — Men uni bilaman. Podsho zamoni bo'lsa, uni qamoqqa olish hech gap emas edi. Lekin hozir zamon o'zgardi, Bekmurodboy. Hozir hamma yoqda hurriyat. Kim nima deb fikr bildirsa, hammasiga yo'l berilgan. Hozir biz tashviqot uchun birovni qamashga haqqimiz yo'q.

— Chatoq bo'lgan ekan-ku. Bizga qarshi ig'vo qo'zg'ashsa, biz indamay o'tiraverishimiz kerakmi?

— Nega indamay o'tirar ekansiz? Siz ham bor gapingizni ayting, ig'voni fosh qiling!

— Bizning musulmonlarda eskidan qolgan bir odat bor. Agar yomon odam musulmonlarni dindan chiqarsa, kofirlik yo'liga boshlasa, mullalar fatvo berib, toshbo'ron qildirib yuboradi. Mabodo shunday hodisa yuz bersa, bu ham hurriyatga kiradimi?

Shubin janoblari bir lahza o'ylanib oldi. Bekmurodboy yomon ko'rgan odamlarini toshbo'ron qildirishdan ham qaytmasligi aniq. Biroq xalq uning gapiga kirib, birovni bekorga toshbo'ron qilib yuborarmikan?

— Janobi Bekmurodboy, — dedi Shubin. — Biz musulmon fuqarolarimizga vijdon erkinligini berganmiz. Musulmon odatlariga qarshi emasmiz. U yog'ini o'zingiz bilasiz.

Bekmurodboy miyig'ida kuldi-da:

— Tushundim, komissar janoblari, — dedi. — Menga ma'lum bo'lishicha erta-indin sizning huzuringizga ellik-oltmish kishi arzga keladi. Ularga o'sha Sergey ariza yozib berganmish.

— Nima to'g'rida?

Bekmurodboy voqeani pristavga hikoya qilar ekan, qazuv ishiga sarflagan mablag'larini ikki baravar oshirib aytdi.

— Agar biz mardikor yollab ishlatmaganimizda butun xalq suvsiz qolar edi, — dedi. — Odamlar shuni tushunmay, bizning ustimizdan sizga shikoyat qilib kelmoqchi emish.

— Mana bu masalada men sizni qo'llab-quvvatlayman, — dedi pristav. — Lekin siz o'zingiz ham odamlarga maqsadingizni tushuntiring. Axir hammalaringiz bir xalqsizlar, musulmonsizlar. Hozir odamlarning boshi og'ib turgan payt. Birov yomon yo'lga boshlasa, qo'yga o'xshab ergashib ketadiganlar ko'p. Tashabbusni qo'ldan bermaslik kerak, boy janoblari!..

* * *

Tashqarida chang-to'zon ko'tarib qattiq shamol esmoqda edi. Uyezd komissari Shubinning idorasi oldiga to'plangan odamlar quyun bo'lib aylanayotgan to'zondan qochib, devor panasida turardilar. Yirtiq-yamoq to'n kiygan, ochlikdan suyaklari bo'rtib chiqqan bu dehqonlarning hammasi bitta ariza bilan kelgan edi. Eshik og'zida turgan miltiqli kazaklar ularni ichkariga kirgani qo'yishmadi.

— Komissar janoblari bo'shasalar o'zlari chiqib gaplashadilar, — deyishdi.

Devor tagida bukchayib o'tirgan bir dehqon chang-to'zondan yoshlangan ko'zini artib:

— Bu qurib ketgur shamol necha oydan beri tinmaydi-ya, — dedi.

— Qishdayam qor yog'may nuqul shamol bo'ldi. Bahorda ham yomg'ir yog'may, nuqul shamol turyapti. Yerning jiri qolmadi. Hammasini shamol yalab ketdi.

— Ey, qudrati zo'r Ollo, bizning nima gunohimiz uchun bunday balolarni boshimizga solyapsan! — dedi keksa bir odam yig'lamsirab. — Qanday kunlarga qoldik? G'arib odamga hozir

it ham dushman, bit ham dushman. U kuni bir yomon shamol turib, bizning o'tovimizni yiqitib ketdi. Yonimizdagi boshqa odamlarning o'tovlariga hech narsa qilgan emas. Bizniki ag'anab ketsa bo'ladimi! Qishlog'imizning mullasi kelib, ko'ngil so'rash o'rniga: "Osmondan kelgan balo senga yopishgani bejiz emas, — deydi-da. — Sening fe'ling yomon, xayr-saxovatni bilmaysan, ushr, zakot bermaysan, Xudo senga g'azabini ko'rsatgan" deydi. Axir bolalarim och, o'zim bu ahvolda yuribman. Mullaga qayoqdan ushr, zakot beray?

— Baliq boshidan buziladi-da, — dedi Xudoyberdi og'a. — Yurtning boshida turgan mullalarda insof qolmadi, iloji bo'lsa, og'zingdagi oshingni tortib olib yeyishadi. Yaqinda bir eshon bilan shayx mening bolalarimni chirqiratib, nasibasini olib ketdi. Endi so'yaman deb turgan qo'ylarimni oldirib qo'ydim... Endi o'ylasam, o'shanda o'zim ham o'lguday soddalik qilgan ekanman...

Xudoyberdi og'a o'sha hodisani hozir odamlarga goh o'zidan kulib, goh boy va eshonlardan g'azablanib aytib berdi.

Pristavdan hamon darak yo'q edi.

— Indamay o'tirsak, o'tiraveradiganga o'xshaymiz, — dedi Xudoyberdi og'a. — Men kirib, arizani berib chiqay. Miltiqli kazaklar uning yolg'iz kirishiga ruxsat berdilar. Xudoyberdi og'a anchagacha qaytib chiqmadi. Bu orada piyozi chakmon va qorako'l telpak kiygan, chiroyli saman ot mingan Bekmurodboy ikkita yigiti bilan dehqonlarning oldiga keldi-yu, otdan tushib, hamma bilan quyuq salomlashdi. Yigitlari uning otini olib o'zlarining otlari bilan birga hovli chetidagi qoziqlarga bog'lab qo'yishdi.

Bekmurodboy keksaroq odamlarga yuzlanib:

— Ha, yoshullilar, nimani kutib turibsizlar? — dedi.

— To'ralarning kattasiga arzimiz bor.

— Suv vajidanmi?

— Ha.

— Osmondan tommagandan keyin to'ralar ham nima qiladi? Ular ham bizga o'xshagan odam. Ochlik og'zini ochib kelyapti. Shamol hech to'xtamayapti. Xudo o'zi bandalariga rahm qilmasa, qiyin.

Oraga og'ir jimlik cho'kdi. Bekmurodboy yaxshi bir yangilik esiga tushgan kishiday boshini xushhol ko'tarib, kulimsirab oldi-da:

— Men bir ertak eshitgan edim, — dedi — Burungi zamonda shamollarning piri Mirhaydar bilan bulutlarning piri Burgut devona bir-birlariga duch kelib qolibdi. Shamollarning piri Mirhaydar oqpodshoning saroyiga borib kelgan ekan. Burgut devonaga aytibdi:

"Oqpodsho juda shirin ichimliklar ichar ekan, kayfi taraq bo'lib xursandchilik qilar ekan" debdi. Bulutlarning piri Burgut devona qiziqib qolibdi. "Yur, biz ham o'sha ichimlikdan olib kelib ichamiz" debdi. Ikkovi ko'z ochib yumguncha podshoning saroyiga yetib borishibdi, haligi ichimlikdan olib ichishib, kayf qilishibdi. Keyin har biri o'zini maqtashga tushib ketibdi. Bulutlarning piri Burgut maqtanibdi: "Agar men istasam, hozir osmonda momaqaldiroq guldiraydi, chaqin chaqadi, yomg'ir yog'adi" debdi. Mirhaydar maqtanibdi: "Sening bulutlaringni mening shamollarim quvib yuboradi" debdi. Ikkovi urishib ketibdi. Avval Burgut zo'r kelibdi. Mirhaydardan shamollarini tortib olib, katta bir meshga qamabdi-yu, og'zini bog'lab, ko'r qizni qorovul qilib qo'yibdi. Keyin Mirhaydar hiyla ishlatibdi. "Mayli, sen zo'r chiqding, — debdi Burgutga. — Men tan berdim. Kel, o'sha ichimlikdan ichib, yana bir kayf qilaylik". — Burgut ko'nibdi. Mirhaydar o'zi oz ichibdi, Burgut devonaga ko'p ichiribdi. Burgut mast bo'lib uxlab qolibdi. Shunda Mirhaydar qilichini chiqarib, Burgutning boshini tanasidan judo qilib tashlabdi. Keyin meshga qorovul bo'lib o'tirgan ko'r qizni gurzisi bilan bir uribdi. Qiz yetti marta umbaloq oshib, jardan qulab, o'libdi. Keyin Mirhaydar meshni ochib, butun shamollarni qo'yib yuboribdi.

— Obbo, — dedi sodda dehqonlardan biri bu ertakka ishonib. — Shuning uchun yomg'ir yog'may nuqul shamol-to'polon bo'layotgan ekan-da.

— E, bu bir ertak-da! — deb, kimdir uning gapiga qo'shilmadi.

— Bu ertak bo'lsa ham, — dedi Bekmurodboy, — yomon odamlar oqpodshoni taxtdan tushirgani rost. Oqpodsho o'sha yomg'ir yog'diradigan Burgutga o'xshar edi. Sal narsadan nifoq chiqarib,

odamlarni bir-biriga qarshi qayraydiganlar — shamolning piri Mirhaydarga o'xshaydi. Mirhaydar Burgutni o'ldirgani rost. Shuning uchun to'xtamay shamol esadi. Shuning uchun osmonda bulut ko'rinmay qoldi. Ruslar avvalgi podsholarining o'rnini oladigan podsho topolmayapti. Agar fe'l-atvorimiz tuzalmasa, bu shamollar yetti yilgacha to'xtamaydi.

— Yetti yil? — deb qo'rqib so'radi bir dehqon.

— Ilgari zamonda yetti yil davom etgan bir qurg'oqchilik bo'lgan ekan. O'shanda Yusuf alayhissalom o'zlarining munavvar chehralari bilan eng yaxshi musulmonlarni yetti yil boqqan ekanlar. Dinni unutgan yomon odamlarni hazrati Nuh payg'ambarning davrida bo'lgan toshqin yutib ketgan ekan.

Ichkaridan chiqib kelgan Xudoyberdi og'a boyning gapiga birpas quloq solib turdi-da, keyin so'radi:

— Bekmurodboy, insof bilan ayting, bu kambag'al bechoralar suvdan ayrilsa, musulmonchilikka to'g'ri keladimi?

— Bu-ku hali suv ekan, — dedi Bekmurodboy, — ajali yetsa, odam jonidan ham ayriladi. Taqdirda bori bo'ladi. Peshonaga nima yozilgan bo'lsa, musulmon odam shunga qanoat qilishi kerak.

— Qanoat deysiz, Bekmurodboy. Men bir navbat suv olsam, siz yetmish barobar ortiq suv olasiz.

— Qazuvda yetmish barobar ortiq ish qilganim uchun olaman-da.

— Xo'p, nega endi siz shunga qanoat qilmaysiz? Mana bu hamqishlog'ingiz Qurbonning oltita bolasi bor. Katta o'g'li mardikorlikka ketdi. Qazuvda nochorlik qilib, chekiga tushgan ishni uddalay olmabdi. Siz musulmon bo'lsangiz, shunga sal ko'maklashar edingiz, qarz berar edingiz. Yo'q, siz buning suvini besh pud bug'doyga sotib olibsiz.

— Har yili men o'sha suvim bilan yer sug'orib, yuz yigirma pud bug'doy olar edim!

— Ana, yuz yigirma pudlik hosilni siz besh pud bug'doyga...

Shu payt ichkaridan papax kiygan Shubin janoblari chiqib keldilar. Uning qoshi egnidagi ko'ylagiday malla, ko'zi ko'k. Ilgari pristav bo'lgan paytlarida kambag'allarga nuqul do'q-po'pisa qilib gapiradigan bu odam hozir dehqonlarga muloyim kulimsirab salom berdi. O'tirgan dehqonlar o'rinlaridan turdilar. Hamma yangi huku-

mat vakilining kulimsiragan yuziga umid bilan tikildi. Shubin janoblari turkmanchani bilsalar ham, ruscha gapirdilar, unga ergashib ichkaridan chiqqan tilmoch tarjima qilib turdi:

Yangi hukumat xalqqa g'amxo'rlik qilishni o'zining sharafli burchi deb biladi. Biz ishchi-dehqon sovetlarini mana shu maqsadda tuzganmiz. Biz xalqparvar kishilarning maslahatlariga qarab, ish olib borayotirmiz. Biroq dehqonlarimiz ham ahvol jiddiyligini tushunsinlar. Rossiya qahramonona urushni davom ettiryapti. Vaqtli hukumat va shaxsan Kerenskiy janoblari urushni g'alaba bilan tugatmoqchi. Bunday sharoitda turkman dehqonlari ham kamarlarini mahkamroq bog'lashlari kerak. Sabr-qanoat va sabot-matonat bilan har qanday qiyinchilikni yengib o'tish mumkin!

— To'g'ri aytasiz, komissar janoblari! — deb qo'shildi Bekmurodboy.

— Xo'sh, endi sizlarning arizalaringizga kelaylik, — ovozini sal pasaytirib davom etdi Shubin janoblari: — Biz ahvol og'ir ekanini tushunamiz. Misli ko'rilmagan qurg'oqchilik bo'lyapti. Shuning uchun dalada o't ko'karmayapti. Murg'obda suv oz. Agar shuning ustiga ariqlar yaxshilab tozalanmasa, suv chiqmaydi. To'g'rimi, yo'qmi?

— To'g'ri-to'g'ri! — dedi dehqonlarning bir nechasi.

— Sizlar qazuvdagi cheklaringizni chala tashlab ketib qolibsizlar...

— Nima qilaylik, janobi boshliq, kuchimiz yetmadi, ochmiz, darmon yo'q!

— Kuchimiz yetganicha ishladik!

— Yigitlarimizni mardikorlikka jo'natdilaringiz!

Shubin janoblari qo'lini ko'tardi:

— Bas, bas! Bu hammasi tushunarli! Biroq agar sizlar chala qoldirgan ishlarni boshqa odamlar bitirib qo'ymaganda, ariqlaringizga umuman suv chiqmas edi. Ana unda o'z ishini halol bajargan odamlar sizlarning yoqalaringizdan olsa haqlari bor edi. Chunki sizlar hammaning suvsiz qolishiga sabab bo'lar edingizlar! Bu yilgi qurg'oqchilikda suvsiz qolish esa o'lim bilan barobar!

— Unday bo'lsa, bular o'lib ketaversinmi? — dedi Xudoyberdi og'a.

— Yo'q, biz o'limni hech kimga ravo ko'rmaymiz...

— Ravo ko'rmasangiz, boylarimizga buyuring, bizning suvimizni qaytarib bersin!

— Boylar suvlaringizni tortib olganmi yoki sotib olganmi? — Ovozini ko'tarib so'radi Shubin.

— Sotib olgan bo'lsa, biz pulini qaytaramiz!

— Bu qanday subutsizlik? — qahri kelib dedi Shubin. — Men turkmanlarni lafzi halol kishilar deb bilar edim... "Bor baraka!" deb qo'l berib, savdolashib sotgan narsasini yana qaytarib oladigan odamni turkmanlar yomon ko'rar edi. Sizlarning muqaddas odatlaringiz bor, so'zidan qaytgan odamni turkmanlar nomard deydi. Kim sizlarni bunday nomardlik yo'liga boshladi?

Dehqonlar boshlarini egib, jim bo'lib qolishdi. Xudoyberdi og'a tutilib-tutilib gapira boshladi:

— Odamlar suvni sotganda, "bahor kelyapti, yomg'ir yog'ib qolar, lalmi bug'doy ekarmiz" deyishgan edi. Bahorda ham yomg'ir yog'masligini kim bilibdi?

— Bilganimizda suvimizni o'lsak ham sotmas edik!

— Bolalarimiz ochdan o'ladi, boshliq janoblari rahm qiling!

— Men rahm qilganimda ham, sizlar o'z ixtiyorlaringiz bilan sotgan suvlaringizni qaytarib olib berishga haqqim yo'q! Kim nimani sotib olgan bo'lsa, bu narsa o'sha odamning shaxsiy mulkiga aylanadi. Shaxsiy mulkni esa bizning hukumat muqaddas deb biladi, birovning shaxsiy mulkiga ko'z olaytirganlarni biz ayovsiz jazolaymiz. Mening sizlarga nasihatim shuki, vaqtni bekorga ketkazmay, hali ham bo'lsa qazuvga borib ishlanglar! Qazuvni tamomlashda boylarga yordam beringlar! Halol lafzlaringizni harom qilib yurmanglar. Turkmanlar: "Odamning eti harom bo'lsa ham, lafzi halol" deydi. Bu juda to'g'ri! Boshqa millat odamlari sizlarni yomon yo'lga boshlasa, yurmanglar. Gap ana shu! Boringlar.

Ikki yigiti bilan bir chetda gapga aralashmay turgan Bekmurodboy Shubinga zavq bilan tikilib turar edi. Shubin ichkariga kirib ketayotib, boyga bir qaradi-yu gapi borday imo qilib qo'ydi.

Dehqonlar tarvuzlari qo'ltiqlaridan tushganday bo'shashib qolishdi.

— O'ris bo'lsa ham turkman odatlarini yaxshi bilar ekan-a! Bekorga ovora bo'lib kelganlarimizni qarang. Xudoyberdi og'ani

aytmaysizmi, barmoq bostiraman deb necha kun vaqti ketdi. Vaqting ketdi — baxting ketdi! — dedi Bekmurodboy va g'olibona qadamlar bilan dehqonlarning orasidan o'tib, Shubinning idorasiga yo'naldi.

— "Baxtning hammasini Xudo mana shunaqa odamlarga bergan! — Alam bilan o'ylandi Xudoyberdi og'a. — Men bu boy bilan necha marta baxt sinashgan bo'lsam, hammasida bu yutib chiqdi! U kungi ikkita qo'yimni ham shu odam shayxlarga tortib olib berdi. Hozir ham butun mehnatimni shu odam kul qildi!" Xudoyberdi og'a ichkariga kirib ketgan boydan ko'zini oldi-da:

— Odamlar! — dedi. — Bekmurodboy bugun bu yerga bekorga kelgan emas. Boyagi boshliq — buning oshnasi! Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi. Bekmurodboy bizga "g'ayridin bilan oshno bo'lsang, dindan qaytasan!" deydi. O'zi boyagi g'ayridin bilan apoq-chapoq! Yuringlar, biz ham hozir Sirboyning oldiga boramiz. Bir o'lim bo'lsa, boshimizda bor. Suvdan mahrum bo'lsak, ochdan o'lishimiz aniq. Nimadan qo'rqamiz? Yuringlar!

Dehqonlarning bir qismi Xudoyberdi og'aga ergashdi, qolganlari har qayoqqa tarqab ketdi. Bekmurodboy esa Shubinning kabinetiga benihoya xursand bo'lib kirdi:

— Rahmat sizga, komissar janoblari! Bu yaxshiligingizni o'lgunimcha unutmayman!..

Minnatdorchilik quruq bo'lmasin uchun Bekmurodboy Shubin janoblariga yangi chiqqan Kerenskiy pullaridan bir dastasini berib chiqib ketdi. Keyin saman yo'rg'ani yeldirib, shahar hovlisiga keldi. Bu yerda uni Xonim kutib o'tirar edi.

— Bugun o'ng yog'im bilan turgan ekanman! — dedi Bekmurodboy. — Bitta tovuq palov damla. Haligi musallasni ham ol! Bir maza qilaylik!

## ALAMZADA CHAYON O'ZINI O'ZI CHAQADI

Bekmurodboy Xonimi bilan palov yeb, bugungi g'alabasi sharafiga musallas ichib, ayshini surib o'tirgan shu daqiqalarda uning qishloqdagi hovlisida dod-faryod tovushlari eshitilmoqda

edi. Boyning katta qizi Ashirgul bugun kechasi hammani uxlatib hovlidan chiqqanicha qaytib kirmagan, uning yo'qolganini buvisi Qo'nish boyvuchcha va onasi Omonsulton ertalab bilib qolishgan edi. Uyda bor odam oyoqqa turg'izildi, butun xizmatkorlar qishloqni ag'dar-to'ntar qilib qidirib chiqishdi. Ashirgul hech qayerda yo'q, hech kim uni ko'rdim demaydi. Shunda Qo'nish boyvuchcha qishloqning mashhur iztoparini chaqirtirdi. Iztopar eng avval qizning kiyimlaridan qaysilari uyda qolganini aniqladi. Ashirgul bu kecha onasining oldida yotgan edi. Onasi uning kavushini yotgan uyidan topdi. Biroq ro'moli, kamzuli, mahsisi yo'q. Iztopar hovlining ichi-tashini sinchiklab tekshirib chiqdi. Ashirgulning mahsisidan qolgan izlar hovlining orqasidagi daraxtzorga qarab ketgan edi. Naryoqdan kelgan katta-katta etik izlari shu daraxtzor ichidagi so'qmoqda mahsi izlari bilan uchrashgani ham bilinib turardi. Daraxtzorning narigi chetiga borganda mahsi izi birdan yo'qolib qoldi. Etik izi esa yerga botib-botib, daraxtzordan uzoqlashib ketgan edi. Iztopar ancha narida ot izlariga duch keldi. Iztopar boshini chayqab, xizmatkorlarga hech narsa demadi-yu, Qo'nish boyvuchchaning oldiga bordi. Omonsulton ham shu yerda edi. Iztopar unga:

— Eshikni yoping, — dedi. Eshik yopilgandan keyin:

— Men sizlarga sodiq odamman, boyvuchcha, — dedi. — Xizmatkorlarning oldida aytmadim. Ahvol chatoq. Qizlaringizni olib qochib ketishibdi!

— Darvoza berk, hamma yoqda qorovullar, itlar. Qanday olib qochibdi? Kim olib qochibdi?

— Kimligini men bilmayman, izlardan ko'rinib turibdi: uchtami-to'rtta otliq odam kelgan. Shulardan bittasi daraxtzorda qizni poylab turgan. Qiz uydan o'zi chiqqan... Sharpasini sezdirmaslik uchun mahsichan chiqqan.

— Men bu gapga ishonmayman! Mening qizim undaqa buzuq emas edi!

— Men buzuq deganim yo'q, boyvuchcha. Lekin men mahsi kiygan ayolning iziga qarab, shuni aniqladim. Ishonmasangiz yuring, qizingizning izini ko'rsatay!

— Ashirgulni men tarbiyalab o'stirganman! — dedi Qo'nish boyvuchcha. — Nahotki mening suygan nevaram biror yigit bilan qochgan bo'lsa? Bu yolg'on!

— Men qochgan deyotganim yo'q, — e'tiroz qildi iztopar. Qiz aldangan bo'lishi mumkin. Shu daraxtlarning oldigacha o'z oyoqlari bilan borgan. Naryoqdan kelgan yigit keyin uni zo'rlik bilan ko'tarib olib ketgan. Izi yerga botib-botib ketgani yigitning yuki og'ir bo'lganidan dalolat beradi. Keyin og'zini bog'lab, otga o'ngarib ketgan bo'lishi kerak.

— Qayoqqa olib ketgan? Qayoqqa?!

— Otlarning izi Qoraqumga kirib yo'q bo'lgan...

— Voy bolam! — dod soldi Omonsulton.

— Sharmanda bo'ldik! — deb yig'lay boshladi Qo'nish boyvuchcha.

Keyin iztopar o'z xulosasini Omonmurodga aytib berdi-yu:

— Akangizga tezroq xabar qiling, — dedi. — Keyin "menga aytmabsizlar" deb xafa bo'lmasin!

— Akam bu ikki uyni menga topshirib ketgan edi. Men unga qaysi yuz bilan aytaman?! Undan ko'ra siz ham bir otga minib, biz bilan yuring, izini qidirib ko'raylik!

— Ey, Omonmurod, sahroga qara, shamol quturib yotibdi. Shunday paytda qumda iz qoladimi? Undan ko'ra tezroq akangga xabar ber!

Omonmurod tishini g'ijirlatib, tashqariga chiqdi-yu, bor yigitlarni yoniga olib, Qoraqumga qarab ketdi. Ammo shamol tobora avjiga chiqmoqda, qumda hech qanday iz qolmagan edi. Kun kech bo'ldi. Shunda Omonmurod yigitlardan ikkitasini yoniga oldi-yu, Mariga qarab, ot choptirib ketdi. Omonmurod Mariga kirib borganda qorong'i tushib qolgan edi. Bekmurodboy ichgan musallasidan qip-qizil bo'lib, qalin ipak ko'rpachalar ustida yonboshlab yotar, Xonim unga karnayi katta grammofonda plastinka qo'yib eshittirmoqda edi. Ularga bu grammofonni yaqinda Moskvadan kelgan savdogar oshnalari sovg'a qilgan edi. Boy karnayning ichidan chiqayotgan quvnoq ashuladan zavqlanib:

— Ay, o'lma-ya, omon bo'l-a! — deb qo'yardi.

Rangi-quti o'chgan Omonmurod eshikdan kirdi-yu, o'zini akasining oyog'i tagiga tashladi:

— Akajon, menda ayb yo'q! Falokat bo'lishini hech kim bilmagan!

Boy sapchib o'rnidan turdi:

— Nima bo'ldi?! Gapir tezroq!

— Qizingizni... Ashirgulni olib qochib ketishibdi...

— Ashirgulni? Qachon?!

— Bugun kechasi... Biz qidirib topolmadik. Iztoparni chaqirdik...

Karnayi katta grammafon hamon quvnoq ashula aytmoqda. Shum xabardan esankirab qolgan Xonim uni o'chirishni unutgan edi. Omonmurod akasiga iztopardan eshitgan gaplarini aytib berayotganda Bekmurodboy qizining uydan mahsichan qanday chiqqanini ko'z oldiga keltirdi-yu:

— Bas! — deb telbalanib o'rnidan turdi va grammofonni tepib yubordi. Plastinka devorga urilib parchalandi-yu, ashula ham tindi. Bekmurod faytoniga minib, shitob bilan qishlog'iga qarab ketdi. U xuftonda hovlisiga yetib kelganda kunduzgi dod-voylar bosilib qolgan edi.

Boya qorong'i tushganda Berdilar Ashirgulni qishloqning yaqiniga olib kelib qo'yib yuborgan edilar. Mahsichan Ashirgul bezrayib uylariga kirib keldi. Onasi bilan buvisi avval suyunishdi:

— Vah, ko'zimning nuri, bolam!

— Qayerda eding, bo'tam?!

Keyin Ashirgulning ezg'ilangan kiyimlariga, yig'idan silkinayotgan chirkin gavdasiga qarashdi-yu, uni ichkari uyga olib kirib, so'roq qila boshlashdi. Qiz nuqul:

— Hech kim mening nomusimga tekkani yo'q! Meni hech kim hech narsa qilgani yo'q! — derdi.

— Bo'lmasa, seni nega olib qochishadi, juvonmarg?!

— Otam ularga yomonlik qilgan emish! "Qiz o'g'irlatish qanaqa bo'lishini otang ham bir bilib qo'ysin" deyishdi.

— Kimlar ekan u haromilar?

— Otlarini bilmayman... Bittasi karvon bilan kelib, mehmonxonamizda yotib ketgan edi.

— Sen uni o'shanda ko'rganmiding?

— Ha, o'shanda... Tuyaning junidan olmoqchi bo'ldim. Nortuya meni quvdi. Bosib o'ldirishiga sal qoldi. Shunda o'sha yigit meni qutqarib olgan edi.

— O'sha yaxshiligi uchun bugun kechasi uning oldiga o'zing chiqdingmi?

— Yo'q, yo'q...

— Bo'lmasa, u seni qanday olib qochib ketdi, yashshamagur? Nega mahsichan chiqding, a? Ayt hammasini! Iztopar izingga qarab bilib berdi! Aytasanmi, yo'qmi?! — deb onasi Ashirgulning yuziga bir shapaloq urdi.

Ashirgul yigit bilan to'rang'izor orasida qanday uchrashganini va qanday va'dalashganini yashirdi-yu, lekin bugun kechasi hovlidan tashqariga o'zi chiqqanini tan oldi:

— Men olib qochadi, deb o'ylamagan edim... Men...

— O'ylamay o'l! — dedi Qo'nish boyvuchcha. — Ersiramay o'l! Bu sharmandalikdan ko'ra Qoraqumda o'liging qolgani yaxshi emasmidi? Bu isnoddan ko'ra o'sha haromilardan bittasi seni xotin qilib olsa, yaxshi bo'lmasmidi?!

Bekmurodboy qizining topilganini hovlidagi xizmatkorlaridan eshitdi-yu, indamay ichkariga kirdi, qiya ochiq eshik oldida qotib turib, ichkarida bo'layotgan gaplarning hammasini eshitdi. Ashirgul onasining gaplariga javoban:

— Nima qilay?! — dedi. — Ular meni o'zlariga munosib ko'rmadi! Ular bizdan hazar qilar ekan!

Bu so'zlarning har biri Bekmurodboyning qulog'idan kirib, qalbiga go'yo zaharli nayzaday sanchilar edi. Qizini Berdilar olib qochgani unga endi ayon bo'ldi. Bekmurodboy hozir o'z qizidan shunday nafratlandiki, uning yuzini ko'rishga ham, ovozini eshitishga ham toqati qolmadi. Narigi uyning eshigini sharaqlatib ochdi-yu, bo'm-bo'sh turgan xonaning bir burchagiga borib, o'zini gilam ustiga tashladi. Bir vaqt onasi bilan xotini uning kelganidan xabar topdi. Omonsulton paypaslanib u o'tirgan uyga kirgan edi, Bekmurodboy boshini ko'tarmay, alamli past tovush bilan:

— Yo'qol! — dedi.

Omonsulton balodan qochganday uydan darrov qochib chiqdi. Birozdan so'ng qo'liga tasbehini olib, o'likka yig'laganday

yig'i aralash gapira-gapira eshikdan Qo'nish boyvuchcha kirib keldi:

— Otingdan aylanayin, Bekmurodjon! Obro'yingdan aylanayin, to'ng'ichim! Otingni isnodga qoldirdi bular! Obro'yingni yerga kirgizdi bular! Kulgan yuzingni so'ldirdi bular! Voooy, Olloyim! Men sendan obro' tilaganimda jonimni obro'yimning borida olgin deb tilagan emasmidim?! Menga muncha yoshni sharmisor qilish uchun berganmiding, Olloyim!! Voooy, voy!

Ammo Bekmurodboydan na bir so'z chiqdi, na bir sado. U gilam ustida boshini osiltirib, haykalday qotib o'tirar edi. Uning hech kimni urishmagani, so'kmagani, butun zahrini ichiga olib, jim o'tirishi qo'rqinchli edi. Qo'nish boyvuchcha birpas dod-voy qilib chiqib ketganidan keyin Bekmurodboy o'tirgan uyga boshqa hech kim kirishga jur'at etolmadi. Hamma yoq suv quyganday jim-jit bo'lib qoldi. Eshikni ichidan yopib olgan Bekmurodboy qiblaga qarab o'tirib, pichirlab, Xudoga nola qila boshladi:

"Yoshim ellikka borganda meni muncha sharmanda qilding, Xudo? Nega meni o'sha haromzodalarning oyog'i ostiga tashlading, Tangrim?! Menga dushman berding, lekin nega o'zimga o'xshagan badavlat dushman bermading, ey qudratli Parvardigor?! Etigimga yopishgan loyga arzimaydigan cho'pon-cho'liqlar qizimni olib qochsa-yu, unga uylanishdan hazar qilib, tashlab ketsa — bundan yomon ko'rgulik bormi dunyoda? Qani endi ular ochiqchasiga maydonga chiqib men bilan olishsa, men qasdimni olar edim, yo obro' bilan o'lar edim-ku! Dushmanlarim qum tepalarning panasida, saksovullarning ichida yashirinib yursa, men ularni qanday topayin?!"

Bekmurodboy ham shafqatsiz qismatga qarshi iloj topolmay qolganda bechora odamlarga o'xshab, Xudoga nola qilar ekan, tun sukunati ilgari bo'lib o'tgan voqealarni uning yodiga tushira boshladi. Berdi Axalda qo'liga qurol olib, maydonga chiqqani uning ko'z oldidan o'tdi.

Yo'q, uning dushmani mudom Qoraqumda qochib yurgan emas, qizning aytishiga qaraganda, u karvonga ergashib, Bekmurodboyning hovlisiga ham kelgan, mehmonxonasida tunab ham ketgan, qizini yo'ldan urib, kechasi tayinlagan joyiga chiqarib ham olgan!

Bekmurodboy boshini qo'llarining orasiga olib:

"Ular qizimning nomusiga tegmaganiga ishonmayman! Ishonmayman!" — deb pichirladi. — Hech kim ishonmaydi. O'z oyog'i bilan uydan chiqib, dushmanimning qo'yniga kirgan qiz! Kechasi hammani uxlatib qochgan qiz... O'z qizim menga dushmanlarimdan battar yomonlik qildi. O'z qizim meni dushmanlarimning oyog'i tagiga tashladi! Endi men odamlarning ko'ziga qanday ko'rinaman? Bu qiz ellik yil yashasa, odamlar ellik yilgacha uni bir-birlariga ko'rsatib kuladi... "Bekmurodboyning qizi... otasining dushmani bilan o'ynashib qochgan", deydi!

Bekmurodboy onasining vaysab aytgan gaplarini esladi: "Bu sharmandalikdan ko'ra Qoraqumda o'liging qolsa yaxshi emasmidi?" Ha, ha, qizi o'sha yoqlarda o'lib ketsa Bekmurodboy uni shahid deb e'lon qilar edi, butun ayb dushmanlarining bo'yniga tushar edi. O'shanda hozirgiday sharmandalik bo'lmas edi. Bekmurodboyning ko'nglida dahshatli bir istak uyg'ondi-yu, to'satdan a'zoyi badani qizib ketdi. Boshidan telpagini olib tashladi, egnidagi to'nini yechdi, ko'ylagining yoqasidagi bog'ichini bo'shatdi.

"O'lim!.. O'limdan uyat yomon! — degan so'zlar xayolidan ketmay turib oldi. — Bu qizni endi er olmaydi. Umrbod mening boshimga bitgan balo bo'ladi. Undan ko'ra o'lim afzal. Ammo men o'z farzandimni qanday o'ldiraman?!"

Bekmurodboy sovuq terga botib, qaltirab eshikni ochdi. Narigi uyda qizi bilan xotini uxlab yotar edi.

"Mard bo'l! — dedi Bekmurodboy o'ziga-o'zi. — Uyat o'limdan yomonligini unutma! Qizing o'lsa, nomusdan qutuladi! O'lim gap-so'zlarni tindiradi. O'lim dushmanlaringning tilini qisiq qiladi!"

Bekmurodboy sekin xotini bilan qizi uxlab yotgan uyga kirdi. Burchakda kichkina qora chiroq lipillab yonmoqda edi. Kuni bilan qizini izlab holdan toygan ona dong qotib uxlamoqda edi. O'tgan kecha uyqudan qolgan, kuni bilan ne mashaqqatlarni boshidan kechirgan Ashirgul esa uyqu ichida dam-badam cho'chib tushar va ingrardi.

Bekmurodboy uning yuzini ko'rmaslik uchun ro'molini betiga yopdi. So'ng qizining tomog'iga chang solib, uni ikki qo'llab bo'g'a boshladi. Ashirgul xirillab, tipirchilab, temir qo'llardan bo'shashga

urinib ko'rdi, ammo kuchi yetmadi. U jon achchig'ida qo'l-oyoqlarini to'g'ri kelgan joyga tapir-tupur urar edi. Bir vaqt qizning onasi uyg'onib ketdi. Xira chiroq yorug'ida uyquli ko'zlarini eriga tikib, to uning nima qilayotganini fahmlaguncha Ashirgulning oyoq-qo'li bo'shashib qoldi. Omonsulton sapchib turib, eriga yopishdi:

— Hoy, nima qilyapsiz! Qo'yvoring qizimni! Qo'yvor!

Bekmurodboy uni oyog'i bilan bir tepdi. Omonsulton uch-to'rt qadam nariga borib chalqancha yiqildi:

— Ovozingni chiqara ko'rma! — xirillab dedi Bekmurodboy. Ashirgul murdaga aylanganini sezib uning tomog'ini bo'shatdi-yu, cho'ntagidan brauning to'pponchasini olib, xotiniga to'g'riladi: — Sen qizing ikkoving meni oyoqosti kildilaring. Men hozir seni ham o'ldiraman!

— Yo'q! Yo'q!

— Bo'lmasa hozir ko'rgan narsangni og'zingdan chiqarmaysan. Yuragi yorilib o'ldi deysan! Butun ayb buni olib qochganlar-da, deysan! Agar boshqa gapingni eshitsam, o'sha kuniyoq joningdan umidingni uz!

Bekmurodboy to'pponchasini cho'ntagiga solmoqchi bo'lib, anchagacha cho'ntagining og'zini topolmadi. Mast odamday gandiraklab uydan chiqib ketdi. Omonsulton qizini quchoqlab, dod solib yig'lay boshladi. Hademay hovlida bor odamning hammasi uyg'ondi.

Ertasi kuni Ashirgulni ko'mdilar. Bekmurodboyning odamlari hamma joyda "qiz o'sha haromzodalardan yomon qo'rqqan ekan, yuragi yorilib o'libdi" degan ovoza tarqatdilar. Qizni kim o'ldirganini bilmaydigan odamlar, "Berdilar ham bir norasidaning o'limiga sabab bo'lishibdi-ya!" deb, ulardan xafa bo'lishdi. Biroq bu dargohning hamma sirlaridan voqif bo'lib yurgan Uzuk bilan To'rli qizni kimdir bo'g'ib o'ldirganini sezgan edilar. Yuvg'uchi kampir qizning bo'yni momataloq bo'lib ketganini aytgan edi. Qizining o'limidan keyin uning nomini aytib, ko'p yig'laydigan Omonsulton bir marta "meni ham yoningga chaqir, Ashirguljon, otang meni ham bo'g'ib o'ldirsa, o'ldira qolsin" degani Uzukning qulog'iga chalingan edi.

## SINALMAGAN OTNING SIRTIDAN O'TMA

Kechasi Qilichlining uyiga kelgan Sergey bilan Berdi ham o'sha qiz to'g'risida uzoq gaplashdilar.

— Berdi, men odamlardan eshitdim, — dedi Sergey, — shu qizning umriga sen ham zomin bo'lganing kishilarga yomon ta'sir qilibdi.

— "Alamzada chayon o'zini o'zi chaqadi" degan maqol bor, Sergey! Men ham ishonchli odamlardan eshitdim.

— Bekmurodboy qizini o'zi o'ldirgan!

— Lekin sen qizni olib qochmasang, bu hodisa bo'lmas edi-ku, axir! Nahotki tushunmaysan?!

— Bo'lmasa, nega Bekmurodboylar Uzukni olib qochishdi? Axalda mening nikohimga o'tgan Uzukni nega mendan tortib olib ketishdi?!

— Buning alamini nega sen u qizdan olding?

— U qiz ham otasining bolasi edi! Xuddi otasiga o'xshab, Uzuk bilan menga zulm o'tkazmoqchi edi!

— Har holda, qiz olib qochish odati yaxshi odat emas, Berdi. Sen bu odatdan yuqori turishing kerak edi. Men o'sha qizni olib qochishlaringga qarshi edim, buning oqibati yomon bo'lishi mumkin, degan edim. Gapimga kirmading.

— Sening gapingga kirmaganimizdan o'zimiz ham keyin xijolat bo'ldik, — dedi boshini osiltirib o'tirgan Olloquli. — O'sha qizning o'limiga biz ham sababchi bo'lganligimiz rost. Mana, Turdi aytsin, bizga bunday xijolatli ishdan ko'ra, Bekmurodboyning o'zi bilan yuzma-yuz olishganimiz ma'qul edi.

— Lekin men bunday bo'ladi deb hech o'ylamagan edim! — dedi Berdi. — Agar bunday bo'lishini bilganimda men ham bu ishga aslo qo'l urmagan bo'lar edim!

Sergey og'ir tin olib:

— Sen uchun bu bir saboq bo'lishi kerak, — dedi. — Shaxsiy intiqom tuyg'usiga berilib ketish juda yomon. Xun olish, qiz olib qochish, bu hammasi bo'yni yo'g'onlardan qolgan odatlar. Bunday odatlar xalqni birlashtirmaydi, balki odamni odamdan ayiradi.

Senday botir yigitlarni bu odatlar yo'ldan adashtiradi, boshi berk tor ko'chalarga olib kirib ketadi. O'zing o'ylab qara: shu qizni olib qochish bilan sen nima obro' topding? Nima yutding?

— "Bekmurodboyning adabini berib qo'ydim!" deyishga Berdining tili bormadi. Chunki oxiri nohaq o'lim bilan tugagan bu voqea uni quvontirish o'rniga ma'yuslantirib qo'ygan edi.

— Haqiqatan, bu ish bizga to'g'ri kelmas ekan, — dedi Berdi.

— Bekmurodboy hozir o'zini jabrdiyda ko'rsatib yurganmish, — davom etdi Sergey. — Men kecha Mariga borib eshitib keldim. Muvaqqat hukumatning idorasidan hech ish chiqmagandan keyin, Bekmurodboy shaxsiy askari bor odamlar bilan aloqa qilayotgan emish. Paxta savdosiga aralashib yuradigan bizning bir odam Bekmurodboynikiga borgan ekan, o'sha yerda Sulg'unxon degan bir kallakesarni ko'ribdi. Boy uni askarlari bilan birga rosa ziyofat qilganmish. Sulg'unxonning paxtasini yuqori narxda sotibdi, arzonroq narxda bug'doy olib beribdi.

— Bu hammasi bekorga bo'lmasa kerak. Eshitishimga qaraganda, Sulg'unxon degani erkak taxlit bir ayol ekan. To'g'rimi, Qilichli?

— Ha, men uni bir marta ko'rganman, — dedi Qilichli. — O'zi yigitlarday barvasta. Ovozi bizning ovozimizdan ingichkaroq, ammo ayollarning ovoziga qaraganda yo'g'on. O'zi doim erkakcha kiyinib yuradi. Ot chopishda, qilichbozlikda, merganlikda bir qishloq yigitning hammasidan zo'r chiqqan ekan. O'zi ham xonlar avlodidan emish, qirq yigiti bor emish, hammasi chizgan chizig'idan chiqmas emish. Sulg'unxonning bir akasi o'zining o'gay onasiga ergashib kelgan qiz bilan o'ynashib qo'ygan ekan, Sulg'unxon bilib qolib, akasini ham, qizni ham o'ldirtiribdi.

— Bekmurodboy ana shu Sulg'unxonni senga qarshi otlantirayotgan emish, Berdi, — dedi Sergey. — Bizning Maridagi odamimiz bergan axborotdan men buni juda aniq sezdim.

— Bekmurodboy kelib-kelib ayol kishidan yordam so'rabdi-da? — zaharxanda qildi Berdi.

— Ammo sen uni "ayol ekan" deb beparvo bo'la ko'rma! — dedi Qilichli. — Bekmurodboy bu ishda ham tulkilik qilgan. Sulg'unxon o'zi ayol zotidan bo'lgani uchun boyning nohaq o'lib

ketgan qiziga astoydil achinishi mumkin. Sendan u qizning qasdini olishga astoydil intilishi mumkin. Agar Sulg'unxon seni bir narsa qilsa, yana Bekmurodboy haq bo'ladi. "Sulg'unxon harom yo'lga yurgan akasini o'ldirgan edi, endi mana bu haromilarni ham adolat yuzasidan o'ldirdi" deb ko'p odamni ishontiradi.

— Ogohlantirib qo'yganing uchun rahmat, Sergey. Biz endi ehtiyotimizni qilamiz. Yana sahroga chiqib ketishga to'g'ri keladi.

— O'zimizga bitta oshiqcha g'alva orttirdik-da, — dedi Turdi ham armon bilan. — Keyingi vaqtlarda sal-pal tinchib qolgan edih-a!

— Bu yerga kelib-ketishlaring ham ancha jo'n bo'lib qolgan edi, — dedi Sergey. — Endi bu yoqlarga ko'p kelmanglar. Pistirmaga duch kelib qolishlaring mumkin.

Berdi o'rnidan turar ekan, Qilichli unga qarab:

— Haligi qo'ylaringni nima qilamiz? — deb so'radi. — O'n uchtasi hali ham bizning qo'y-echkilar bilan birga yuribdi.

— Qilichli, biz Sergey bilan sening tuzingni ko'p ichdik. Qo'ylardan to'rttasini sen ol, to'rttasini Sergey olsin.

Sergey bilan Qilichli e'tiroz qilishgan edi, Olloquli oraga tushdi:

— Ola beringlar, o'zimiz kelganda so'yib berasizlar, — deb ularni ko'ndirdi.

— Bo'lmasa... qolgan beshtasini nima qilamiz? — dedi Qilichli.

— Ularni bir vaqting bo'lganda Sarining suruviga olib borib qo'shib qo'y. Ovimiz yurishmagan kunlarda ish berib qolar. Xo'p, xayr, do'stlar!

— Xayr! Ehtiyot bo'linglar!

* * *

Uch yigit sahroda besh-olti kun juda sergaklanib yurishdi, lekin hech qanday xavf-xatarga duch kelishmadi. Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv, deganlariday, ular har kuni yeyish-ichishni o'ylashlari kerak edi. Ikki kundan beri go'shtlari tamom bo'lgan, ovdan durustroq o'lja tushmay qolgan edi. Bugun ertalab Olloquli qo'y olib kelish uchun Sarining suruvini qidirib ketdi. Oftob hali qi-

yomga kelmagan bo'lsa ham, kun qattiq isiy boshladi. Turdi meshning tagida suv oz qolganini ko'rib:

— Hozir suv olib kelib qo'ymasak, keyin havo battar isib ketadi, — dedi.

Quduq bu yerdan besh-olti chaqirim joyda edi. Berdi suvga birga borishga erindi.

— O'zing bora qol, men kechasi uxlamay chiqdim, birpas mizg'ib olay, — dedi.

Turdi suvga ketdi. Ularning qo'shlari saksovullarni bir-biriga ulab, chaylaga o'xshatib soya qilingan joyda edi. Berdi soyaga uzala tushib yotib uxlab qoldi. Qancha vaqt uxlaganini o'zi bilmaydi. Bir payt o'q ovozidan cho'chib uyg'ondi. Qarasa, o'n qadamcha narida oq telpak kiygan notanish bir yigit turibdi. Qo'lidagi beshotar miltig'ining uchi xiyol tutab turganiga qaraganda o'qni shu otgan. Berdining uyqusi birdan o'chdi. U darrov qo'yniga qo'l solib, naganini qidirdi, ammo topolmadi. Nagan qumga tushib ketgan edi.

— Yoningga qara! — dedi miltiqli yigit. Uning bo'yi baland bo'lsa ham, ovozi o'smirlarnikiday ingichka edi. "Sulg'unxon" degan taxmindan Berdining eti junjikib ketdi. U yonidagi qumda nimadir shatir-shutur qilayotganini payqab, burilib qaradi. Yo'g'onligi qamchi sopiday keladigan qizg'ish ilon dumini qumga asabiy urib, tipirchilab jon bermoqda edi. Oq telpakli yigit otgan o'qilonning boshini uchirib ketgan edi. Berdi buning odamni chaqsa o'ldiradigan zaharli ilon ekanini ko'rib, sapchib o'rnidan turdi.

— Berdi Aqi o'g'li senmisan? — so'radi oq telpakli yigit miltiqni unga to'g'rilab.

Bu yigitning ketida o'ndan ortiq qurolli otliqlar turibdi. Berdi bir lahza hech narsaga tushunolmay karaxt bo'lib qoldi. Tushimi yoki o'ngimi? Bular qayoqdan keldi? Maqsadi nima? Nega ilonni o'ldirdi?

— O'zing kimsan? — xirillab so'radi Berdi.

— Sen Berdi bo'lsang, men seni izlab yurgan Sulg'unxonman. Sen gunohsiz bir qizni yomon otliq qilib o'ldirgansan! Shuning uchun endi o'zing o'lishing kerak!

— Bu tuhmatga ishongan bo'lsang, ilonni otguncha meni ot edi!

— Men uyqudagi odamni otadigan nomardlardan emasman!

— Agar mard bo'lsang, avval nima voqea bo'lganini so'rab bil, kimdan qanday ayb o'tganini aniqla. Kim o'limga loyiq bo'lsa, o'shani o'ldir!

Sulg'unxon orqada turgan yigitlariga qarab o'ng tomonni ko'rsatdi:

— Bu yoqqa o'tinglar!

Yigitlar darhol uning amrini bajo keltirishdi. Sulg'unxon miltig'ini yelkasiga soldi. Berdiga tikilib turib:

— Qo'rqoqqa o'xshamaysan! — dedi. — Lekin qo'ling qaltiraydimi, yo'qmi, gunohingni ana shundan bilamiz! Sulg'unxon cho'ntagiga qo'l solib, bir so'mlik kumush tanga oldi. Berdiga qarab:

— Naganingni qo'lingga ol! — dedi. Berdi Sulg'unxonning keng yuziga va qisiq ko'zlariga qaray-qaray, yerga engashdi-da, qumda yotgan naganini qo'liga oldi. Sulg'unxon kumush tangani barmog'ining uchiga olib, boshi ustiga ko'tardi:

— Agar shu tangani urib tushirsang, men sen bilan gaplashaman. Agar urib tushirolmasang yoki otgan o'qing mening qo'limga tegsa, unda gaplashib o'tirishga arzimaysan. Qani, ot!

Berdi uch-to'rt qadam keyinga tisarildi. Chap qo'li bilan yuzini, ko'zlarini ishqab, go'yo butun borlig'ini shu ishga safarbar qildi. Sulg'unxonning barmoqlari uchida yaltirab turgan katta kumush tanga Berdining otgan o'qidan chaqmoqday yaltirab tepaga uchdi-yu, besh-olti qadam nariga borib tushdi. Sulg'unxon barmoqlariga bir pufladi-da, keyin qo'lini ko'ziga yaqin keltirib qaradi.

— Merganliging rost ekan, — dedi u Berdiga tomon yurib. — Qani, endi gapingni gapir.

Berdi naganini pastga tushirib:

— Yigitlaringga ayt, mening gapimga quloq solishmasin, — dedi.

Sulg'unxon yigitlariga o'girilib qaragan edi, uzoqda shoshilib kelayotgan ikkita otliqni ko'rib qoldi:

— Buning sheriklari kelayotganga o'xshaydi,— dedi Sulg'unxon yigitlariga:— Annaqul, sen besh kishini olib, o'shalarni bu

yerga yaqin keltirmay turgin... Qoraboy, sen to'rt kishi bilan ana u qumtepaning ortida kutib turasan. Agar bu yerda o'q ovozi eshitilsa, Annaquli odamlari bilan narigi ikkovini o'likmi, tirikmi, qo'lga oladi. O'q otilsa, Qoraboy, sen odamlaring bilan mening oldimga yetib kelasan. Ammo men turgan joyda o'q otilmaguncha narigi ikkoviga zarar yetmasin.

— Tushundik!

— Aytganingizni qilamiz!

Devday yigitlar ayol kishining buyrug'ini zudlik bilan bajo keltirayotganini ko'rib, Berdi hayron bo'ldi.

U Qilichlining Sulg'unxon haqidagi so'zlarini esladi. Bu qiz qilichbozlikda ham, chavandozlikda ham, merganlikda ham bir qishloq yigitning hammasidan baland kelganiga Berdi o'shanda ishonmagan edi, biroq hozir ishondi. U Sulg'unxonga chaylaning soyasini ko'rsatib, o'tirishga taklif qildi. Sulg'unxon o'qlangan miltig'ini tizzasiga yotqizib qo'yib, Berdidan uch-to'rt qadam beriroqda o'tirdi. Berdi ilonning o'ligini etigining uchi bilan ilib olib, bir chetga uloqtirdi-da, Sulg'unxonning qarshisiga chordana qurib o'tirdi.

— Sulg'unxon, sen bu ilonni o'ldirib, menga katta yaxshilik qilding. Eson bo'lsam bu yaxshiligingni qaytaraman. Sen hozir mard yigitning ishini qilding. Rahmat!

— Lekin men yigit emasman! — deb Sulg'unxon chiroyli oq telpagini boshidan oldi. Ikki o'rim qora sochlari sirg'alib yelkasiga tushdi. Shu topda uning yuzi ham Berdiga avvalgidan nozikroq ko'rindi.

— Tavba! — dedi Berdi. — Miltiq ko'tarib, odam ovlashga seni nima majbur qildi, Sulg'unxon?

Sulg'unxon sochini boshi ustiga yig'ib, yana telpagini kiyib oldi.

— Hajiqizlar ko'payib ketgani uchun men erkakcha kiyinib, maydonga chiqdim! — dedi u. — Yurt notinch, o'g'ri ko'p, bosqinchi ko'p. Bizning urug'larimizdan durust yigit chiqmadi. Bitta akam harom yo'lga yurib, nomardlik qildi. Men uni o'z qo'lim bilan o'ldirdim. Sen... durust yigitga o'xshaysan-ku, nega birovning qizini olib qochding? Nega nomusiga tegib juvonmarg qilding?

— Men u qizning nomusiga tegsam, haqiqatan nomardlik bo'lar edi. Chunki mening sevgan qizim bor! Men o'z sevgimni oyoq osti qilmayman. Shuning uchun men Bekmurodboyning qiziga tekkan emasman. Senga yolg'on bo'lsa, Xudoga chin, Sulg'unxon, men harom ishdan hazar qilaman!

— Bo'lmasa, nega sen u qizni olib qochding?

— Sababini Bekmurodboy aytmadimi?

— Aytdi. Sen unga mudom dushmanlik qilar emishsan!

— Lekin dushmanlikni uning o'zi boshlab berganini senga aytdimi, yo'qmi? Menga unashtirilgan qizni Bekmurodboy bosh bo'lib olib qochdirganini aytdimi, yo'qmi?

— Men buni eshitgan emasman.

— Bo'lmasa, eshit. Bu dushmamlikning tarixi juda uzoq...

Berdi o'zi bilan Bekmurodboyning orasidan o'tgan voqealarni hikoya qilishga tushdi. Oxirida u Bekmurodboy qizini ham o'ziga o'xshatib tarbiyalaganini, Ashirgul Uzukka behuda o'chakishib yurganini ham aytib berdi.

Agar u qiz bizga yomonlikni istamaganda, biz unga tegmas ham edik, Sulg'unxon. Ochig'ini aytsam, yomonlikka yomonlik bilan javob beraverish ham to'g'ri emas ekan. Men u qizni olib qochishga haqqim bo'lsa ham, lekin olib qochganimdan hozir pushaymonman. Chunki otasi uni bo'g'ib o'ldirishi uchun biz yo'l ochib berganimizni men keyin bildim!

— Otasi bo'g'ib o'ldirganini qayoqdan bilasan?

— Agar istasang, Bekmurodboylarning qishlog'iga borib, buni biladigan odamlardan so'ra!

— "Qizim o'g'rilarning dastidan o'ldi", deb menga yig'lab gapirgan edi-ku?

— Xohlasang, uning gapiga ishon, xohlasang, mening gapimga ishon, o'zing bilasan, Sulg'unxon. Lekin men aytib bergan voqealarning hammasiga isbot bor, guvoh bor. Axalda menga nikohlangan Uzuk haligacha Bekmurodboyning panjasidan qutulolmay asir bo'lib o'tirgani — mening birinchi isbotim. O'zim uch yil bekorga qamoqda yotganim — yana bir isbot. Haligacha uylik-joylik bo'lolmay qochib yurganim uchinchi isbot. Bekmurodboyning nima isboti bor? Uning puli ko'p, boyligi zo'r. Pul

bilan hamma ishini bitiradi. Pul bilan hamma amaldorlarni sotib oladi... Pul bilan rostni yolg'on deb isbot qiladi. Agar senga malol kelmasa, men bir narsani so'rayman, Sulg'unxon.

— So'ra, bemalol.

— Mening o'ligim uchun Bekmurodboy qancha pul va'da qildi?

Sulg'unxon ziyofatga borganda Bekmurodboy "yigitlaringizga ulashasiz" deb unga xaltachada bir siqim oltin pul bergan edi. Sulg'unxon shuni esladi-yu:

— Bu yigitlar menga tekinga xizmat qilmaydi, — dedi. — Hozir qahatchilik. Ko'plarining ota-onasi, bola-chaqasi bor. Shular uchun men Bekmurodboy bergan pulni olgan edim... Ammo o'zim badavlat odamning farzandiman, Bekmurodboyning puliga zor emasman!

— Men bunga ishonaman, Sulg'unxon.

— Men ham senga ishondim, yigit! Agar xo'p desang, sheriklaring bilan menga qo'shil. Birgalashib, suyganingizni Bekmurodboylarning changalidan qutqarib olamiz!

Berdi boshini egib bir lahza o'ylanib qoldi. Sulg'unxon bilan birga boyning qo'rasiga hujum qilsa, Uzukni qutqarishlari mumkin. Berdi buni butun vujudi bilan istaydi. Ammo keyin Sulg'unxonga yigit bo'lib qanday ishlar qiladi? Uzuk bolasi bilan qayerda jon saqlaydi? Berdining Sergeyga bergan va'dalari nima bo'ladi?

— Ishonching uchun rahmat, Sulg'unxon, — dedi Berdi. — Agar ko'nglingga olmasang men rostini aytaman.

— Aytaver!

— Men senga qo'shilolmayman.

— Nega?

— Sababini so'rama, Sulg'unxon aytolmayman.

— Balki sen meni "ayol zotidan" deb qo'shilmoqchi emasdirsan? Mening yoshim yigirma beshdan oshgan. Menga munosib er chiqmagani rost. O'zimga munosib erim bo'lsa, balki men erkakcha kiyinib miltiq ko'tarib yurmas edim. Ammo shu ahvolimda ham men ayollarga qayishaman. Shuning uchun sevganingni birga qutqaraylik, deyapman.

— Uzukning yosh bolasi bor... Bundan tashqari, men hozirgi hukumatdan ham qochib yuribman... Bir marta qochib qo'lga tush-

ganimizdan beri har tomonini o'ylab ish qiladigan bo'lib qolganmiz, Sulg'unxon.

— Hukumatdan qochib yurgan bo'lsang, sahrodagi qaltamanlarga qo'shil!

— Qaltamanlar yo'l to'sadi, bosqinchilik qiladi. Men bu ishlardan or qilaman. Mening boshqa do'stlarim bor. Butun xalqni o'ylab ish qilayotgan kishilar bor. Xalq bu jabr-zulmdan qutulmaguncha biz ham qutulmaymiz. Shuning uchun biz xalq bilan birga bo'lishimiz kerak.

— Xalq deganing ariq qaziyotgan dehqonlarmi? Ularning qo'lidan nima keladi?

Berdi bu to'g'rilarda Sulg'unxon bilan bahslashib o'tirishni o'ziga ep ko'rmadi. Uni yaxshi gaplar bilan yumshatishga intilib:

— Sen qizlarning o'g'il bolasi ekansan, Sulg'unxon, — dedi. — Men sening mardligingga tan berdim. Endi odamlaringni chaqir. Mening sheriklarim bitta qo'y olib kelishi kerak edi. Ruxsat bersang, shu qo'yni so'yaylik. Mehmon bo'linglar!

Sulg'unxon o'rnidan turib, miltig'ini yelkasiga oldi. Qumtepa ustiga chiqib, odamlarini chaqirdi. Narigi ikki yigitga tegmanglar, qo'shlariga kelaversin, — deb buyurdi. — Qoraboy, mening otimni olib kel. — Sulg'unxon qushday uchib otiga mindi-yu, Berdiga qaradi:

— Yaxshi qol, yigit! Uzukni qutqarib olganingdan keyin qo'y so'ysang, men o'shanda mehmonga kelaman. Xayr!

Bir to'da yigitlarning oldiga tushib ot choptirib ketayotgan oq telpakli Sulg'unxon qumtepalar panasiga o'tib ko'zdan yo'qolguncha Berdi uning ketidan zavqlanib qarab turdi.

— Men juda qo'rqib ketdim, nima bo'ldi o'zi, Berdi? — deb qo'y yetaklagan Olloquli unga yaqinlashdi.

— E, so'rama, Sulg'unxon deganlari baloyi azim ekan. Ehtiyot bo'lib yurganimizda qorasini ko'rsatmagan edi. Beparvoroq yurgan paytimizda topib kelganini qara-ya! Men toza qo'lga tushgan edim.

— Bizni ham haligi oltitasi qimirlatmay qo'ygan edi.

— Bir o'limdan qoldik deyaver! Bekmurodboy sinamagan otining sirtidan o'tmoqchi bo'lgan ekan-da. Sulg'unxon u o'ylagan nomardlardan emas ekan! Bo'lmasa biz bulardan qutulolmas edik!..

— Endi Sulg'unxondan tinchidikmikan?

— Menimcha, bu endi bizga yomonlik qilmasa kerak. Sahro ham jonga tegdi. Bugun kechasi Sergeylarning uyiga boramiz. Ariqqa suv ochiladigan kunlar ham yaqinlashgan bo'lsa kerak.

— Qo'yni hozir so'yamizmi?

— So'ysak, so'ya qolaylik. Go'shtining qolganini sovg'a qilib olib boramiz. Uch yigit shu kuni to'ygunlaricha chektirma pishirib yedilar-da, kechki payt otlanib to'g'onga qarab ketdilar.

## EGRI QOZIQQA EGRI TO'QMOQ

Qazuv ishlari tamom bo'ldi. Daryoda suv har yilgidan ko'ra oz bo'lsa ham, mangu muzliklardan kelayotgan suv odamlarga birdan-bir najot bo'lib ko'rinardi. Chunki bahor o'tib borayotgan bo'lsa ham, biror marta yomg'ir yog'madi. Uzluksiz shamollar quruq yerlarni qaqratib, zarang qilib yubordi. Bu yil endi ariqdan suv ichadigan yerlardagina ekin bitishi hammaga ayon. Shuning uchun odamlar sug'orish uchun suv ochiladigan kunni zoriqib kutar edi.

Ariqlar bu yil chalaroq tozalangan bo'lsa ham, miroblar hamma joyni aylanib ko'rib, suv ochish mumkin, degan xulosaga keldilar. "To'g'ondan ariqqa chorshanba kuni suv ochiladi, suvga haqqi borlar to'g'onning boshiga to'plansin!" deb e'lon qildilar.

Dushanba kuni Sergey Qilichlini, Xudoyberdi og'ani va yana bir necha ishonchli odamlarni uyiga chaqirib:

— Eri bor hamma dehqonlarga xabar berish kerak, — dedi. — Indin to'g'onning boshiga to'planishsin. Qazuvda ishini bitirolmay suvdan mahrum qilinganlar ham bitta qolmay kelsin. Yuqorilarga arz qilish bilan hech ish chiqmadi. Endi odamlar o'z haqlari uchun o'zlari kurashishlari kerak.

— Mushtlashish kerakmi? — so'radi soddaroq bir dehqon.

— Agar zo'ravonlar musht ko'tarsa, mushtlashishdan ham qo'rqmaymiz, — dedi Qilichli. — Hamma dehqonlar belkurak[1]larini olib chiqsin.

[1] Mari tomonlarda azaldan ketmon o'rniga belkurak ishlatiladi *(tarj.)*

Suvidan ayrilgan odamlar chorshanba kuni ariqqa suv ochilishini eshitib, o'zlarini qo'yadigan joy topolmay yurgan edilar. Xudoyberdi og'alar qishloqma-qishloq yurib, Qilichli bilan Sergey tayinlagan gapni kerakli odamlarning qulog'iga yetkazgach, seshanba kuniyoq to'g'on atrofiga xaloyiq to'plana boshladi. Buni ko'rgan Qilichli kechqurun yana Sergeyning oldiga maslahatga bordi.

— Ertaga janjal katta bo'ladiganga o'xshaydi, Sergey.

— Lekin qon to'kilishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Kambag'al dehqonlarni uyushqoqlikka o'rgatish kerak. Sen bilan biz ertaga ularning sinfiy dushmanlarini ko'zlariga ko'rsatishimiz kerak. Dehqonlar qo'zg'alsa — bu ishchi sinfining revolutsion harakatiga qo'shilib, ulug' natijalar beradi!

— Ertaga sen ham ariq boshiga bormoqchimisan?

— Albatta! Sen bilan biz tashkilotchilarmiz!

— Ammo men sening borishingga qarshiman, Sergey. Ehtimol, ertaga qon to'kilar, bitta-yarimta odam o'lar. Suv janjalida odam o'lishi — har yili bo'lib turadigan hodisa edi. Bu yil juda yomon bo'ladiganga o'xshaydi. Bitta-yarimta g'iybatchi odam o'rtaga chiqib, "mana shu g'ayri din hammani buzyapti!" desa, biron kor-hol bo'lishi mumkin.

— Men bundan qo'rqmayman, Qilichli. Chunki men yolg'iz emasman. Mening senga o'xshagan, Xudoyberdi og'aga o'xshagan qadrdonlarim bor.

— Biz-ku, sen bilan bir tan, bir jonmiz-a! Lekin eshonlar bor, shayxlar bor. Seni xaloyiqqa ko'rsatib "buning yeri yo'q, suvi yo'q, nimaga ariqning boshiga keladi? Musulmonlarni bir-biriga qarshi gijgijlab, qirg'inni boshlagan mana shu!" desa, keyin toshbo'ron boshlanib ketishi mumkin.

— Bunday deydiganlar, albatta, topiladi. Lekin men borsam, sen bilan birgalashib qirg'inga yo'l qo'ymasmidik, deyman-da. Ertangi ishni shunday uyushtirish kerakki, dehqonlardan birontasi ham nobud bo'lmasin!

Shu payt hovliga otliq odamlar kirib kelganday bo'lib ot dupuri eshitildi. Sergey o'rnidan turib derazadan qaradi. Ammo qorong'ida hech narsani ko'rolmadi. Qilichli ham xavotirlanib o'rnidan turdi. Birdan eshik lang ochildi-yu, Berdi kulimsirab ki-

rib keldi. Qilichli u bilan quchoqlashib ketdi. Sergey ham Berdini quchoqlab ko'rishayotganda, otlarini qoziqqa bog'lashdi va xurjun to'la go'sht-yog' ko'tarishib Turdi bilan Olloquli kirib kelishdi. Hammalari ko'rishib-so'rashib bo'lganlaridan keyin Sergey Berdiga savol nazari bilan tikilib:

— Hovligacha bemalol ot minib kelibsizlar, biron yangilik bormi? — dedi.

— Yangilik shuki, Sulg'unxon bilan orani ochiq qildik, — dedi Berdi va kulib turib voqeani bir boshdan hikoya qilishga tushdi. U hikoyasini tamomlagandan keyin:

— Bu gal ishlaring o'ngidan kelibdi, — dedi Qilichli. — Ammo hozir kallakesar bosqinchilar ko'paygan. Kichik qaltaman degani bor, Rajabquli qaltaman degani chiqibdi. Bekmurodboy o'shalardan birortasini yollasa, ular oltin uchun hech balodan qaytmaydi.

— Qilichli, "parvo ham qilma, beparvo ham bo'lma" degan maqol bor, — dedi Berdi kulimsirab. — Hozircha bittasidan qutuldik. Yana qismatimizda nimaiki bo'lsa, ko'raveramiz-da!

— Ammo bugun kelganlaring juda yaxshi bo'ldi, — dedi Sergey va Qilichli bilan hozir nima to'g'risida bahslashib o'tirganini aytib berdi.

— Men ham ariqqa suv ochilishini mo'ljallab kelayotgan edim, — dedi Berdi. — Mening taxminimcha, dehqonlar o'z haqlarini qattiq turib talab qiladigan bo'lsa, boylar qurol o'qtalib, po'pisa qilishi aniq. Biz ana shu paytda qurol ko'targanlarga qarshi qurol ko'tarib maydonga chiqishimiz kerak.

— Mana bu to'g'ri fikr! — dedi Sergey. — Berdilar pistirmada turadi. Qilichli, menga endi sening taklifing ham ma'qul ko'rinyapti. Mayli, men ariq boshiga bormayman. Men borib aytadigan gapni ham sen aytasan.

— Albatta-da, — dedi Qilichli. — Men aka-ukalarim bilan birga yetti navbat suv olishga haqqim bor. Ariq boshiga borib qancha gapirsam ham hech kim hech narsa deyolmaydi.

* * *

Oftob bugun ham xira bo'lib chiqdi — osmondan hamon tuproq yog'ib turar edi. Belkuraklarini yelkalariga tashlab, to'g'on bo'yiga

yig'ilayotgan dehqonlarning orasida ochlikdan va og'ir mehnatdan sillasi qurib, yuzidan go'yo kul yog'ilib turgan odamlar ko'p edi. Hamma ko'zlar to'g'ondan narida chayqalib turgan suvga tikiladi. Bugun shu suv ariqlardan oqib borib, yerlarning chanqog'ini bosishi kerak. Olti oy davom etgan qazuv ishlari bitganligi, endi faqat daryo bilan ariq orasini to'sib turgan tuproqni olib tashlash qolganligi odamlarning dilini ravshan qiladi. Qazuvdan qutulgan yosh-yalanglar suv bo'yida to'nlarini taglariga to'shab, yonboshlab hazil-mutoyiba qilishadi.

— Bir xotin aytgan ekan: "O'roq o'rmoq — o'ynamoq, bug'doy yanchmoq — ot minmoq, qo'sh haydamoq — borib kelmoq, hay-hay, cho'kkalab o'tirib un elamoqdan qiyini yo'q".

— O'sha xotin mana bu qazuvda ishlab ko'rsa nima derkin-a?

— Loy aralash tuproqni uch odam bo'yi balandlikka otib ko'rsin edi!

— Lekin o'sha xotin ham un elashni qazuvdan qiyinroq demabdi-ku. Bir narsani bilgan-da. U xotin qazuvning qiyinligini qayoqdan bilsin? Eridan bilgan bo'lsa kerak.

— Eridan?

— Ha. Eri o'roq o'rganda ham, bug'doy yanchganda ham, kechasi xotiniga tinchlik bermagan. Shundan keyin xotin u ishlarni oson deb o'ylagan. Eri qazuvga tushgandan keyin sulayib, kechalari uyqudan bosh ko'tarolmaydigan bo'lib qolgan. Qazuvning qiyinligini xotini shundan bilgan.

Bu gapni eshitganlar xaxolab kulishdi.

— Topdi!

— Qazuv o'zi olti oyga cho'zildi. Eri olti oy uyqudan bosh ko'tarmagan bo'lsa, xotin ham juda zerikib ketgandir?

— Zerikish ham gapmi!..

Sarg'ish mo'ylovli yigit ovozini pasaytirib, bir narsa degan edi, suv bo'yida yotganlar boyagidan ham qattiq xaxolab kulishdi. To'g'on bo'yida odam ko'payib bormoqda edi. Odamlar orasida hassa tutgan miroblar ham ko'rinib qoldi. Mamat mirob suv bo'yida chaqchaqlashib yonboshlab yotgan yigitlarga hassasini silkitib:

— Qani, turinglar, — dedi. — Belkuraklaringni olib, to'g'onning naryog'ini sal ochinglar. Hozir yoshullilar kelib fotiha beradi, keyin ariqqa suv qo'yamiz.

Yigitlar belkuraklarini olib, Mamat mirob aytgan ishni qilishga ketishayotgan edi, ariqqa suv ochiladigan joyning atrofini o'rab turgan dehqonlar ularning yo'lini to'sishdi.

— Shoshmanglar, yigitlar, — dedi dehqonlarning orasida turgan Qilichli. — Mana bu bechoralar miroblardan o'zlarining suvlarini talab qilib kelgan. Miroblar bularni ham ko'p qatori suv navbatiga kirgizmaguncha to'g'onni ochgani qo'ymaymiz.

Yigitlar to'xtab, miroblarga qarashdi. Mamat mirob Qilichliga o'shqirdi:

— Bu yerda biz mirobmi yoki sen mirobmisan?

— Siz mirobsiz! Miroblik hassasi qo'lingizda turibdi, uni hech kim sizdan tortib olayotgani yo'q!

— Bo'lmasa, nega xo'jayinlik qilasan? O'tinglar, yigitlar, to'g'onni ochinglar!

— To'g'onni ochishdan oldin bizning suvimizni beringlar!

— Navbatimizni tiklang, Mamat mirob, ana undan keyin quloqni oching!

— Suvini sotgan odamlarga navbat yo'q!

— Pullarini qaytarib beramiz!

— Lafzidan qaytgan odamlarga suv yo'q!

G'ala-g'ovur boshlandi. Mamat mirob hassasini boshi ustida silkitib, quloqni ochdirishga urinar, ammo quloqning boshiga yaqin borolmas edi. Qilichli tuproq uyumining ustiga chiqib, xitob qildi:

— Odamlar, men suvsiz qolgan dehqonlarning arzini sizga aytmoqchiman! Birpas jim turib, quloq soling! Bular ham sizlarga o'xshagan musulmon farzandi. Bularning ham bola-chaqasi bor. Bular o'zlari uchun emas, uyda "non!" deb yig'layotgan bolalari uchun kelgan bu yerga. Nahotki bularga hech rahmlaringiz kelmaydi?!

— Rahmimiz kelsa nima qilaylik! — dedi bir chetda turgan Subhon xasis. — Yil juda og'ir kelyapti. Qorni nonga to'ymayotgan odam juda ko'p. Qaysi birining g'amini yeylik?

— Siz faqat o'z jig'ildoningizning g'amini yeysiz, shuning uchun qopday semirib yuribsiz! — dedi Qilichli. — Siz shu semizligingizga ham qanoat qilmaysiz. Bu bechoralarning suvini sotib olib, birga o'n foyda bilan hosil ko'tarib, battar semirmoqchisiz!

— Bu yoqda biz ochdan o'lib ketaversak mayli!

— Agar bizga suv bermasalaring bola-chaqamiz o'lib ketishi aniq!

— Sug'orilmagan yerda bu yil ekin bitmaydi! Ekin bitmagandan keyin dehqon o'ldi, deyaver!

— Mana shu yerda suv navbatini sotgan oltmish ikki odam bor, — davom etdi Qilichli. — Surishtirib qarasangiz, hammasining suvini boylar sotib olgan. Nima, boylarning suvlari o'zlariga yetmasmidi? Yo'q, mana shu Subhonboyning o'n besh navbat suvi bor edi. Bekmurodboyning ellik navbat suvi bor edi. Shuncha suvga qanoat qilmay, yana bu bechoralarning suvini sotib olib, bola-chaqasini ochdan o'ldirish noinsoflik emasmi, odamlar?

— Boylar ham insof qilishi kerak!

— Adolatsizlik bo'lyapti! Boylar bularning suvini qaytarib bersin!

Olomonning bir chetiga kelib qo'shilgan otliq Valiboy:

— Boy-kambag'al deb ayirmachilik qilish g'irromlik! — deb qichqirdi.

— Boylar bo'lmasa, qazuv bu yil bitmas edi, ariqqa suv chiqmay hamma suvsiz qolar edi! — deb uning gapini Subhonboyning o'g'li Madad quvvatladi. — Yaxshilikka yomonlik qilma, Qilichli!

— Agar sen odamlarga astoydil yaxshilik qilmoqchi bo'lsang, sotib olgan suvlaringni egalariga qaytarib ber!

— Savdoni buzish nomardlik bo'ladi!

— Odamlarni ochdan o'ldirish-chi, bu mardlik bo'ladimi?!

— Gapni ko'paytirma! Quloqni och!

— Ochmaymiz!

Valiboy otdan tushmay o'z xizmatkorlariga buyurdi:

— Boringlar, quloqni to'sib turganlarni bir chetga surib tashlanglar!

— Qani, surib ko'rsin-chi! Suraman degan odamning o'zini quloqning tagiga chim qilib bosib yuboramiz!

— Itar! Surib tashla!

— Sur!

Itar-itarlar, sur-surlar birdan mushtlashuvga aylanib ketdi. Valiboyning xizmatkorlari Qilichlining yelkasiga urdi. Qilichlining akasi bunga javoban:

— Ur! — dedi-yu, hamla qilib kelayotganlardan birining ko'kragiga kalla qo'ydi. Belkuraklar bir-birlariga shaq-shuq urilayotganini va kimdir yarador bo'lib yiqilganini ko'rgan Mamat mirob to'dadan qochib chiqdi. Subhonboy mushtlashuvni uzoqdan tomosha qilib turar edi. Valiboy qamchisini o'ynatib to'daga kirdi. Qilichlining akalaridan birini qamchi bilan savalay boshladi. Shunda Qilichli chopib borib, uni otdan tortib tushirdi-da, tepib ariqqa yumalatib yubordi.

Boshi yorilgan, qo'li singan, og'iz-burni qonga botgan odamlar tobora ayovsiz kaltaklashmoqda edilar. Qilichli buni ko'rdi-yu:

— Odamlar! Odamlar! — deb qichqirdi. — Qirg'in bo'lmasin, mushtlashuvni bas qilinglar! Menga qaranglar! Xudoyberdi og'a! To'rli! Mushtlashuv bas! Bu yoqqa kelinglar!

Odamlar mushtlashuvga berilib ketib, quloqning boshi bo'shab qolgan edi. Og'iz-burni qonagan Qilichli besh-oltita dehqonlar bilan birga yana ariqda suv ochilmoqchi bo'lgan joyni o'rab oldi.

Shu payt ikki yigiti bilan ot choptirib kelayotgan Bekmurodboy ko'rindi.

— Bekmurodboy ukalari bilan kelyapti!

— Hozir bularni boplaydi! — degan gap og'izdan-og'izga o'ta boshladi.

Yonidagi otliq yigitlari bilan to'g'on bo'yiga yetib kelgan Bekmurodboy yarador odamlarni ko'rib:

— Bu qirg'inni kim boshladi?! — deb so'radi va cho'ntagidan brauning to'pponchasini oldi.

Suvga tushib shalabbo ho'l bo'lgan Valiboy quloqni qo'riqlab turgan Qilichlini ko'rsatdi. Bekmurodboy otini gijinglatib Qilichliga ro'para bo'ldi:

— Ket quloqning boshidan! Ket!

— Ketmaymiz! Bu bechoralarning suvini qaytarib bermasalaring, ariqqa suv ochilmaydi!

— Bir o'lim bo'lsa, boshimizda bor! Ertaga ochdan o'lguncha bugun mana shu yerda o'lganimiz ma'qul!

— Miroblar, to'g'onni ochdiring! — g'azabga to'lib qichqirdi Bekmurodboy.

Mamat mirob uning yoniga kelib, ovozini pasaytirib gapira boshladi:

— Bekmurodboy, hozir bular bilan mashmasha qilib o'tirmaylik! Gaplariga "xo'p" deb tarqatib yuboraylik! Suv ariqdan oqib borgandan keyin o'z bilganimizni qilamiz!

Ammo Bekmurodboy to'g'on tuprog'iga to'kilgan qonni ko'rib, go'yo quturib ketdi.

— Men shu yalangoyoqlarning amriga bo'ysunaymi?! — dedi u. — Yo'q, mirob, hozir suvni ochdiring!

Bekmurodboy saman yo'rg'asini o'ynatib, yana Qilichlilar turgan joyga yaqinlashdi. Shu paytgacha qamishzor orasidan jan-jal-to'polonni kuzatib jim turgan Berdi va uning sheriklari otlariga minib, odamlar to'planib turgan joyga keldilar. Bekmurodboy to'pponchasini Qilichliga to'g'rilab:

— Yo to'g'onning boshidan ketasan, yo hozir otilasan! — dedi. — Qoch!

Qilichli va uning yonidagilar joylaridan jilmadi.

Bu yoqda Berdi ham qo'ynidan naganini oldi. To'g'on boshida Qilichli bilan yonma-yon turgan Xudoyberdi og'a:

— Olloquli, jiyanim! — deb qichqirdi.

Bekmurodboy tez orqaga o'girilib qaradi. Uch otliqdan birini — Olloqulini u tez tanidi. Qolgan ikkitasi Turdi bilan Berdi ekanligini u tusmol qilib bildi. Karvon bilan kelib, boyning mehmonxonasida bir kecha yotib ketgan, o'shanda uning qizi bilan tanishgan mana shu mo'ylovdor... Berdi! Nihoyat, dushmani u bilan yuzma-yuz keldi! Bekmurodboy Berdining qo'lida yiltillagan naganini ham aniq ko'rdi. Ukasi Chorini o'ldirgan Turdi ham shu yerda! Bekmurodboyning brauningi o'qqa to'lib turibdi. Hammasiga yetadi. Faqat qahr-u g'azabdan qo'li qaltiramasa, bo'ldi.

G'ala-g'ovur birdan bosildi. Odamlar nafaslarini ichlariga olib, jim turishibdi. Hammaning ko'zi bir-birlaridan yigirma qadamcha uzoqlikda turgan Bekmurodboy bilan Berdiga tikilgan.

— Bekmurodboy, qurolsiz dehqonlarga to'pponcha o'qtalish nomardlik bo'ladi! — dedi Berdi.

— Sen nomard! — deb Bekmurodboy to'pponchasini unga to'g'rilab tepkini bosayotganda tagidagi oti chivin qo'riyman deb

qo'zg'alib ketdi. U to'pponchasini ko'targan zahoti Berdi ham naganini unga to'g'rilab tepkini bosdi. Bekmurodboy otgan o'q Berdining tepasidan vizillab o'tib ketdi. Bekmurodboy tepkini yana bosmoqchi edi, ammo bunga ulgurolmadi. Berdi otgan o'q mo'ljalga tekkan edi. Bekmurodboy "oh!" deb otining bo'ynini quchoqladi-da, keyin yerga yumalab tushdi.

Valiboy unga qarab chopdi. Boyning miltiq taqqan ikki yigiti otdan tushdi. Ular Berdilarga bas kelolmasliklarini sezishdi, shekilli, otishishga jur'at etisholmadi-yu, qoni oqib yotgan Bekmurodboyni ko'tarib olib ketishdi.

Berdi jim bo'lib qolgan dehqonlarga qarab:

— Odamlar, behuda qon to'kildi, deb o'ylamanglar, hozir harom qon to'kildi, — dedi. — Agar qo'yib bersak, noinsoflar shuncha odamni suvsiz qoldirib, ajalidan oldin o'ldirar edi. Hozirning o'zida bu boy mana shu turgan Qilichlinimi, Xudoyberdi og'animi otib tashlab, to'g'onni ochdirar edi! Zolimlarga bosh egmanglar! Biz qurol ko'targanga qarshi qurol ko'taramiz! Miroblar, agar sizlar ham shu kambag'al bechoralarning haqqiga jabr qilsalaring, bizdan yaxshilik kutmanglar! Mening gapim — shu! Yaxshi qolinglar, odamlar!

Berdi otini orqaga burib, to'g'on tomonga yo'naldi. Turdi bilan Olloquli uning ketidan ot choptirib ketishdi. O'nlab ko'zlar ularga tikilib qarab qoldi. Birpasning ichida bo'lib o'tgan bu voqea ko'p odamni esankiratib qo'ygan edi.

Mamat mirob boshqalardan oldinroq hushini yig'ib olib, o'rtaga chiqdi:

— Odamlar, avvaldan maslahatni puxta qilmaganimiz shu dilsiyohlikka sabab bo'ldi, — dedi. — Ot boshiga ish tushsa, suvliq bilan suv ichar, degan maqol bor. Bu yil xalqning boshiga og'ir kulfat tushib turibdi. Savdoni buzish, so'zidan qaytish turkman odatiga to'g'ri kelmasligi rost. Lekin bu yilgiday qurg'oqchilikda qadimgi odatlarimiz ham ko'zga ko'rinmas ekan. Bu yil suvliq bilan suv ichadigan yil bo'lyapti. Agar shunday qilmasak, bugungiday urish-janjal ko'payib ketadi. Men shu turgan bechoralarga rahm qilish tarafdoriman. Mayli, bular sotgan suvlarini qaytib olsin, lekin olgan haqlarini ham egalariga qaytarishsin!

— Qaytaramiz!

— Qiyomatli qarz!

— Xirmon ko'tarsak, olgan bug'doylarimizni ikki hissa qilib beramiz!

— Mamat mirob odamgarchilik qildi!

— Otasiga rahmat!

Mamat mirob odamlardan xuddi mana shunday rahmat eshitib, obro' orttirish istagida yonar edi. Ammo suv bo'yida turgan boshqa miroblar uning fikriga qo'shilmay jim turishardi. Mamat mirob ularga qarab:

— Qani, endi sizlar ham fikrlaringizni aytinglar, — dedi. — Agar mana shu turgan bechoralarni rozi qilmaydigan bo'lsak, men miroblikni bas qilaman. Unda boshqa mirob saylanglar! Mayli!

Mamat mirob qo'lidagi hassani quloqning boshiga ko'ndalang qilib yotqizdi.

— Yo kambag'allarning suvini qaytarib beraylik, yo miroblikni bas qilaylik, — deb yana bir mirob hassasini quloqning boshiga tashladi. Keyin uchinchi mirobning hassasi ham yerga tushib, ko'ndalang bo'ldi.

Miroblarga qarshi hech kim hech narsa deyolmay qoldi. Subhon xasis o'g'liga qarab pichirlab:

— Xudo urdi! — dedi. — Sotib olgan suvlarimizdan ayrildik! Shuncha pulga kuydik!

Qilichli o'rtaga chiqdi:

— Miroblar, sizlarning so'zlaringizga hech kim yo'q demayapti. Hassalaringizni qo'llaringizga olinglar! Mana shu turgan oltmish ikki dehqonni suv navbatiga qo'yinglar.

Miroblar hassalarini qo'llariga olib, kim qaysi ariqdan qaysi kun suv ichishini aniqlay boshladilar. Bu ish bitgandan keyin yigitlar shovqin-suron ko'tarib quloqni ochdilar. Daryoning suvi katta ariqqa sharillab oqa boshladi. Ariq to'lganda yosh-yalanglar qiyqiriqlar bilan Mamat mirobni tutib oldilar-da, suvga tashladilar. Loyqa suvda kiyimlari ho'l bo'lgan Mamat mirob kula-kula narigi qirg'oqqa yaqinlashganda Xudoyberdi og'a uni tortib chiqarib oldi. Bu orada yigitlar narigi ikki mirobni ham suvga tashlashdi. Ariqqa suv ochilganda mirobni suvga pishib olish — dehqonlar-

ning alohida ehtiromini bildirar edi. Shuning uchun suvga pishilgan miroblar hech kimdan xafa bo'lishmas, aksincha, suvni juda yoqtiradiganday nuqul kulishar edi.

## KUNDOSHLIK UY

"Berdi Bekmurodboyni otibdi", "Berdini dehqonlar maqtab yuribdi!" degan ovoza og'izdan-og'izga o'tib, hamma yoqqa tarqalib ketdi. Birovlar "Bekmurodboy o'lganmish!" ham deyishardi. Ammo bu quruq mish-mish edi. Bekmurodboy ko'kragidan yaralangan bo'lsa ham, tirik qolgan edi.

Hozir uni Marining eng zo'r tabiblari davolamoqda edilar. Ukasi Omonmurod bilan shaharlik xotini Xonim Bekmurodboyni tezroq oyoqqa turg'izish uchun pulni ayamay sarflashardi. Qishloqda qolgan Qo'nish boyvuchcha erta-yu kech Berdini qarg'ar edi. Uzuk ko'ziga ko'rinib qolsa:

— Hammasiga mana shu megajin sababchi! — deb unga yopishardi: — Guldaygina nevaram shu sayoq kelinning kasofatiga qolib juvonmarg bo'lib ketdi! Norg'ul o'g'lim Bekmurodjon ham mana shuning kasofatiga qolib, o'q edi!

Omonmurod Uzukni ilgarigiday do'pposlamoqchi bo'lib xezlanar, shunda Uzuk to'rt oylik o'g'ilchasini bag'riga bosib, uni o'ziga qalqon qilardi. Omonmurod Uzukka qarshi ko'targan mushti chaqaloqqa tegib ketishidan qo'rqardi. Qirqdan oshganda ko'z ochib ko'rgan shu yolg'iz farzandidan ajralib qolish juda dahshatli edi. Shuning uchun Omonmurodning kuchi ko'proq og'ziga yetardi. U Uzukni dunyoda bor eng qabih so'zlar bilan haqorat qilar:

— Bola sal katta bo'lsin, sen manjalaqini quturgan biyaning dumiga bog'lab sudrataman! — derdi. — Changalzorlarning ichida burda-burda bo'lib o'lasan! Go'shtlaring tikanlarga ilinib qoladi!..

Uzuk uni indamay yengardi. Bu dargohda uning eshitmagan haqorati qolganmas, hammasiga chidab o'rgangan. Berdi Bekmurodboyni otib yiqitgani uning xo'rlangan qalbiga taskin berardi. "Bularning ming haqorati, ming qarg'ishi, — derdi u ichida, —

Berdijonim otgan shu bitta o'qning oldidan o'taversin! Battar bo'linglar. Alamlaringdan o'rtanib, o'linglar!"

Bugun kechqurun Uzuk o'g'lini beshikka solib tebratib, sekin alla aytib o'tirganda, eshik sharaqlab ochildi-yu, ipak durrasini chakkasiga qo'ndirgan, qoshiga o'sma qo'ygan, ammo qovoq-tumshug'idan zahar tomayotgan Tojsulton kirib keldi.

— Voy, alla aytmay o'la qol, sen oyoqyalang! Bolani bahona qilib o'tirganing o'tirgan! Tur, ovqat pishir!

Tojsultonning shovqinidan bola cho'chib tushdi va ingalab yig'lay boshladi.

— Ovozingizni muncha qo'yib berasiz, opa! — dedi Uzuk. — Bolani qo'rqitib yubordingiz!

— Ho', bolang boshingda qolsin! Itdan tug'ilgan qurbonliqqa yaramas! Onamga olib borib ber, uxlatadi! Bo'l tezroq! Ovqat pishir!

Naryoqdan Qo'nish boyvuchcha ham:

— Olib kel, nevaramga o'zim qarayman! — dedi. — Sening kasofating shu bolaga ham uradi! Ber uni bu yoqqa!

Uzuk bolani beshigi bilan ko'tarib, qaynonasining oldiga chiqarib berdi. Qo'nish boyvuchcha Uzukni qanchalik yomon ko'rmasin, go'dakka qo'lidan kelganicha yaxshi qarar edi. Chunki bu nevara Qo'nish boyvuchchaga juda kerak edi. Boyvuchchaning o'g'lini "pushti qurib ketgan" degan malomatdan shu bola qutqargan edi. Ammo farzand ko'rmay o'tayotgan Tojsulton Uzukning o'g'lini ko'rarga ko'zi yo'q. Chunki shu bola tug'ilgandan beri butun ayb Tojsultonning bo'yniga tushib qolganday bo'ldi. Bu bolaning har bir ingasi Tojsultonning qulog'ini o'qday teshib o'tardi. Ilojini topsa, Tojsulton Uzukning bolasini g'ijimlab tashlar edi. Ammo Uzuk bolani ko'z qorachig'iday asraydi. Ayniqsa, Tojsulton bor joyda uni yolg'iz qoldirmaydi. Biror ishga unnasa, bolani To'rlining xotini Qurbonjamolga topshiradi yoki hozirgiday qaynonasiga eltib beradi.

Uzuk oshxonaga kirib ovqatga unnagandan keyin Tojsulton nima qilishini bilmay o'z xonasiga kirib oynaga qaradi. Yoshi o'ttiz sakkizga borgan bo'lsa ham, yuzi hali so'lgan emas. Ko'zlarida olov yonadi, bola emizmagan siynalari tirsillab turibdi.

Omonmurod bugun Mariga akasining oldiga ketgan.

Ketmaganda ham, uning endi Tojsultonga erligi qolgan emas. "Umr o'tib ketyapti! — o'ylandi u. — Qirqdan oshsam ham tug'ish yo'q. Umrbod farzandsiz o'taman! Mana bu yalangoyoq kundoshning oldida bir umr tilim qisiq bo'ladi. Qanday bexosiyat uyga kelin bo'lib tushdim men?"

Tojsulton hovliga chiqdi. Yana chang-to'zon ko'tarib shamol esmoqda. Burchakdagi kichkina uychadan bolalarning qiy-chuv ko'tarib o'ynashayotgani eshitildi. Bu uyda boyning xizmatkori To'rli turadi. Qiy-chuv qilayotganlar uning bolalari. To'rlining o'zi somonxonaning ichida o'roq qayramoqda edi. Tojsulton kuchli qo'llar bilan "g'aj-g'aj" qilib po'latga ishqalayotgan qayroq tovushiga quloq solib turgan edi, burchakdagi uydan yupun kiyingan, ozg'ingina juvon chiqib keldi. Bu — To'rlining xotini Qurbonjamol edi.

— Ha, Qurbonjamol, boshingga to'ningni yopib olibsan, kech bo'lganda qayoqqa ketyapsan?

— Onam betob bo'lib qolibdi. Bir xabar olay deb ketyapman.

— Bugun onangning oldida qolasanmi?

— Iloji bo'lsa, kelaman... Shamolni qarang-a! Necha oydan beri to'xtamay esadi-ya!

Qurbonjamol yuzini to'ni bilan bekitib, shamoldan shikoyat qila-qila chiqib ketdi. Tojsulton esa qayroq tovushi kelayotgan somonxonaga yo'naldi.

Baland bo'yli, ko'kraklari keng, qoshlari qalin To'rli tikka turgan ko'yicha o'roqning sopini qorniga tirab, silliq qora qayroqni po'latga ishqamoqda edi. Uning shimarilgan bilaklaridagi mushaklari ham qayroqday o'ynoqlar edi. To'rli somonxona eshigida paydo bo'lgan Tojsultonga qarab:

— Keling, opa, yaxshi yuribsizmi? — dedi.

— O'zing horma, To'rli.

— Bor bo'ling.

— To'rli, sening yoshing menikidan kichikmi?

— Bilmadim. Men o'ttiz oltidaman.

— Bo'lmasa mendan katta ekansan, — dedi Tojsulton yolg'on gapirib. — Bundan keyin meni opa deyaverma.

— Endi, hurmat qilganim uchun opa deyman-da. Eringiz mendan katta-ku.

— Erim o'zi yoshligida qariganlardan. U qarilikda hozir sakson yashar onasidan qolishmaydi.

Tojsulton erini yomonlashida alohida ma'no borligini To'rli sezdi-yu, nima deyishini bilmay qoldi. Tojsulton unga yaqin borib, To'rli qayragan o'roqqa qo'lini qo'yib ko'rdi.

— Juda o'tkir bo'libdi-ku. Qayrog'ing yaxshi qayroq shekilli?

Tojsulton To'rlining qo'lidagi silliq qayroqni sekin silab ko'rdi. Shunda To'rli uning kiyimlaridan xushbo'y gulob hidi kelayotganini sezdi. Tojsultonning og'ir ish ko'rmagan nozik barmoqlari yigitning bilagiga ipakday mayin tegdi.

— Qani, qayrog'ingni menga ber... Voy, juda og'ir-ku... Polvon yigitsan-da, To'rli!

— Ko'zingiz tegmasin yana!

— Ko'zim tegmaydi, qo'rqma. Ko'zim seni erkalaydi.

— Qani, qayroqni bering.

— Bermayman... Kuching bo'lsa, tortib ol!

To'rli entikdi va eshikka bir qarab oldi. Shamol to'polonda ularning gapini tashqaridan hech kim eshitolmas edi. Tojsultonning xumor bo'lib suzilgan ko'zlari To'rlini chindan ham quchib erkalayotganga o'xshardi. To'rlini shayton vasvasa qildi.

— Kuchimni bilmoqchi bo'lsang, mana! — deb, Tojsultonni sensirab belidan quchdi-da, o'ziga tortdi. Tojsultonning qo'lidagi qayroq "to'p" etib yerga tushdi. Tojsulton qiqirlab kuldi. To'rli uning tirsillagan siynalarini ko'kragiga bosib, yuzidan, bo'ynidan o'pa boshladi. Tojsulton qo'lini uning bo'yniga solib, gardanini silar, tovushi titrab shivirlardi:

— To'rlijon, bo'ldi... bas!.. To'rli... Birov kelib qoladi... Menga qara... To'rli... Hozir qo'yvor... Keyin... Ana! Seni birov chaqiryapti...

To'rli endi hushiga keldi. Tojsultonni quchog'idan qo'yib yuborib, eshikka qaradi.

— Kim chaqirdi? Kim?

Tojsulton kulib:

— Aldadim! — dedi. So'ng shivirladi: — Kechasi... kelasanmi?

— Qayerga?

— Men aytgan joyga.

— Boraman.

— Yarim kechadan oshganda, xo'roz bir qichqirganda, to'g'ri mening uyimga kel. Zanjirni solmayman.

— Borib nima qilaman? — talmovsirab so'radi To'rli.

— Borganda bilasan, — Tojsulton yana qiqirlab kuldi-da, eshikdan sekin chiqib ketdi.

To'rli qayroqni yerdan olib, ishini davom ettirmoqchi bo'ldi. Ammo hozir yuragi gupillab urar, qo'li ishga bormas edi. U o'roq bilan qayroqni somonxonaning bir chetiga olib borib qo'ydi-yu, hovliga chiqdi. Burchakdagi kichkina uychadan bolaning chirillab yig'lagani eshitildi. To'rli xotinining bemor onasini ko'rgani ketganini, bolalar yolg'iz o'tirganini esladi.

Yig'i tovushidan xavotirlanib, "Nima balo bo'ldiykin?" dedi-da, shoshilib, uylariga qarab ketdi.

To'rlining beshta bolasi bor edi. Kattasi o'n ikki yashar qizcha. Eng kichigi ikki yashar o'g'il bola edi. Orada yana ikki qiz, bir o'g'il bor. Hozir bolalar o'yinga berilib ketib, o'choqda qaynab turgan choydishni ag'darib yuborgan, ikki yashar bolachaning oyog'iga qaynoq suv to'kilib, ancha joyi kuygan edi. To'rli bolaning qizarib shisha boshlagan boldiriga tuz aralash paxta yog'i surtar ekan, katta qizini urishdi:

— Ahmoq, oying senga tayinlab ketgan edi-ku. Nega qaramading?!

— Bilmay qolibman.

— Dada, Nurlini anu Murod itarib yubordi.

— Men emas, sen o'zing!

— Yo'q, sen!

Kichkina bolacha oyog'ining achishganiga chiday olmay ko'zidan yoshini oqizib yig'lamoqda edi.

— Jim bo'l hammang! Jim! — deb o'shqirdi To'rli.

Bolalari jim bo'lib qolishdi. Faqat kichkina Nurli ovozini chiqarmaslikka tirishib, lablarini tishlab yig'lar edi. Murg'ak bola qattiq azob tortayotganini ko'rib, To'rli o'zini so'kdi: "Shuncha bolaning otasisan, birovning xotiniga ko'z olaytirishni senga

kim qo'yibdi? Senga harom yoqmaydi! Bu bola sen uchun azob tortayotgan bo'lsa, ajab emas".

— Yig'lama, o'g'lim, hozir men bog'lab qo'yaman, oposh bo'ladi. Guljamol, sen Uzuk opangga borib ayt. Ukamning oyog'i kuydi, de, yog' solingan qorindan qolgan bo'lsa ozgina bersin. Chop tezroq! Qorin bog'lasak tez tuzaladi!

To'rlining katta qizi yugurib chiqib ketdi. To'rli o'ziga o'zi: "Rost, senga harom yoqmaydi!" deb qo'ydi.

Bu orada Tojsulton kechasi To'rlini kutib olishga tayyorlik ko'ra boshladi. Eng avval u: "To'rlini go'sht-yog'ga to'ydirishim kerak" deb o'yladi. Sirlangan bir idishga eritilgan quyruq yog'ini solib oshxonaga chiqdi.

Uzuk sho'rva pishirib bo'lib, bolasini emizishga kirib ketgan edi. Tojsulton narigi o'choqqa o't yoqib, haligi yog'ni eritdi-da, ustiga tarvuz qiyomidan quyib, "olachali yog'" qildi. Bu tayyor bo'lgandan keyin, boshqa bir idishda qo'y go'shtidan qovurdoq tayyorladi. Jizza solingan patirlardan to'rttasini yangi dasturxonga o'radi. Keyin hammasini uyiga olib borib, tokchaga qo'ydi-da: "Tong otguncha yetadi!" deb o'zicha bir kulib qo'ydi. Keyin sim karavotning ustidagi shohi ro'yjoni oldi, yostiqlarini urib-urib yumshatdi. Pastga beqasam ko'rpachalar to'shadi. Bu bilan ham ko'ngli to'lmay, javonni ochdi. Bir vaqtlar Omonmurod uning yoniga kirib yotganda kiyadigan oq shohi ko'ylak bor edi. Tojsulton uni tozalab yuvib qo'ygan, ammo Omonmurod ko'pdan beri bu uyga kirib yotmagani uchun shohi ko'ylak taxlab qo'yilganicha turar edi. "Buni To'rlijonga kiydiraman!" deb Tojsulton shohi ko'ylakni javondan olib, sim karavotning ustiga qo'ydi. Keyin muattar hidli iroqi sovun bilan yangi sochiqni dahlizga olib chiqdi. Katta mis obdastani suvga to'ldirib qo'ydi. U devqomat To'rlini qanday yuvintirishini o'ylab, bir yutinib oldi.

Tojsultonning nazarida, vaqt juda sekin o'tar edi. Qorong'i ham tushdi, uydagilar hammasi sho'rvasini ham ichdi. Ammo hovlida hech qadam tovushi tinmas edi. Narigi uyda Qo'nish boyvuchcha hali tahorat qiladi, hali namoz o'qiydi, hali o'g'lining dushmanlarini qarg'aydi. Bu hammasi Tojsultonning joniga tegdi. Undan bir uy narida Uzuk chaqalog'i bilan yotadi. Chaqaloqning inga-in-

gasi Tojsultonni avvalgiday o'rtamasa ham, uning tezroq uyquga ketmayotganidan toqati toq bo'ldi. Tojsulton tunning qanchasi o'tganini bilish uchun hovliga chiqib, yulduzlarga qaradi. Shu payt darvozadan bir ayol kishining kirib kelayotganini ko'rdi. Yaqinroq kelganda buning Qurbonjamol ekanini yurishidan tanidi-yu:

"Juvon o'lgur, bir kecha oyisi bilan yotmay, darrov yetib kelibdi-da", — dedi ichida va unga o'zini ko'rsatgisi kelmay, eshikdan tez ichkariga kirib ketdi. Nihoyat, uylardagi chiroqlar birin-ketin o'chdi. Hovli ham tinchib qoldi. Hamma uyquga ketgan shu daqiqalarda Tojsultonning ko'zlari katta ochiq, yuragi gursillab urayotgani o'ziga ham baralla eshitilardi. U goh gilam ustiga to'shalgan ko'rpachaga borib yotadi, goh sim karavot ustiga o'zini tashlab, uni shiqirlatib silkitadi. So'ng yana o'rnidan turib, tashqariga quloq soladi.

Tojsulton xo'rozning qichqirishini kutmoqda edi. Xo'roz bir qichqirganda To'rli kelaman degan. Hozir Tojsulton uchun jahonda faqat To'rli degan yigit bor. Bolasi ko'p bu yigitdan, ehtimol, Tojsulton ham farzand ko'rar. Ehtimol, u ham ona bo'lar! Omonmurod uning umrini xazon qilib yuborganini Tojsulton yaxshi biladi. U hozir Omonmurodni butun vujudi bilan yomon ko'radi. Agar ixtiyori o'zida bo'lsa, Tojsulton uydan allaqachon chiqib ketgan bo'lardi. Lekin shariat bunga yo'l bermaydi. Er uch taloq deb javobini bermaguncha, ayol uydan chiqib ketishga haqqi yo'q. Tojsultonning taqdiri Omonmurodning qo'lida. Tojsulton eridan nafratlanadi, bugun unga xiyonat qilish bilan bir alamdan chiqadiganday bo'ladi.

To'satdan xo'roz qichqirgani eshitiladi. Tojsulton shuni poylab yotgan edi, titrab o'rnidan turdi. Dahlizga chiqib, tashqariga quloq soldi. To'rli hozir kelishi kerak. Hozir uning qadam tovushi eshitilishini kutib, Tojsultonning halqumi qurib ketdi. Ammo hovlidan shamolning uvillashi eshitilardi, xolos. Tojsulton obdastadan suv ichdi, yana birpas dahlizda kutib turdi-yu, keyin ichkariga qaytib kirdi. Birpas karavotda o'tirib kutdi. Birpas ko'rpachada yotdi. Vaqt o'tib ketyapti. To'pliga nima bo'lgan?

Tojsultonning toqati toq bo'lib, sekin hovliga chiqdi. Tun oysiz, hamma yoq qorong'i. Tojsulton To'rlining uyi tomonga tikildi.

Shu payt yantoq g'arami orasida allakimning boshi ko'ringanday bo'ldi. Tojsulton buni To'rli deb o'ylab, qo'li bilan "kela ber!" ishorasini qildi. Boshga o'xshagan haligi narsa qimirlar edi-yu, ammo Tojsultonning ishorasiga e'tibor bermas edi. Oxiri Tojsultonning o'zi yantoq g'aramining yoniga yetib bordi. Qarasa, qorong'ida odamning boshiga o'xshab ko'ringan narsa cho'loq bir tuyaning boshi ekan. Tuya g'aramning oldiga kelib olib, yantoq kemirmoqda edi.

— Harom o'lgur! — deb Tojsulton tuyani qarg'adi. Uning uyga qaytgisi kelmas edi. Bu To'rliga biror gap bo'lganmi o'zi? Boya pichanxonada Tojsultonni shunchalik quchoqlab o'pgan yigit nahotki xotinini uxlatib chiqolmasa? Tojsulton sekin To'rlilarning uyiga yaqinlashdi, eshikka qulog'ini qo'yib ichkariga quloq soldi. Uxlayotgan bolalarning nafas olishi shamol shovqinida unga eshitilmas edi. Faqat oyog'i kuygan bolachaning uyqu aralash ingragani Tojsultonning qulog'iga chalindi.

To'rli bola bilan andarmon bo'lib anchagacha uxlay olmagan edi. Boya pichanxonada Tojsultonga bergan va'dasi uchun xotini va bolalarining oldida o'zini juda o'ng'aysiz sezardi. Hozir hovuri bosilib qolgani uchun:

"Boyning xotini to'qlikka sho'xlik qilib, men bilan o'ynashmoqchi bo'lyapti, — dedi u o'ziga o'zi. — Nafsimni qo'yib bersam, naryog'i nima bo'ladi? Tojsultonning jinni fe'li bor. Bir kun emas, bir kun sir ochilib qolsa, eri bilan qaynag'asi meni tirik qo'ymaydi. Keyin bu besh bolaning ahvoli nima bo'ladi? Menga o'chakishib, ular Qurbonjamolning nomusiga tegishdan toymaydi. Bechora xotinim men uchun jonini ham ayamaydi. Men bunga xiyonat qilsam, ertaga yuziga qanday qarayman?"

To'rli shu narsalarni o'ylab yotib, uxlab qolgan edi. Eshikning oldigacha kelib ketgan Tojsulton uning uxlab qolganini sezdi-yu, bo'shashib uyiga qaytib ketdi. Tokchada turgan qovurma go'shtning hidi dimog'iga kirib, unga alam qilib ketdi. "Shu sassiq xizmatkor ham meni shunchalik zor qilguncha onadan tug'ilmay o'lsam bo'lmasmidi!" — deb ich-ichidan kuyunib yig'ladi. Yotgan joyida tong otguncha to'lg'anib uxlay olmay chiqdi, xayolida To'rlidan qasd olishning rejalarini tuzdi.

Ertalab ko'zlari qizargan, rangi o'chgan Tojsulton hovliga chiqqan edi, kosa ko'targan Uzuk To'rlilarning uyidan chiqib kelayotganini ko'rib qoldi. Qimmatchilik boshlanib, oziq-ovqat tanqis bo'lib ketgandan beri Uzuk To'rlilarga nonmi, unmi, go'sht-yog'mi, nimaiki qo'liga tushsa, berib turar edi. U Qurbonjamol bilan opa-singil tutingan, bu hovlida birdan-bir ochilib gaplashadigan odami shu juvon bo'lib qolgan edi. Uzuk hovlining chetidagi bu uychaga ko'p borishini Tojsulton avval ham sezgan edi. Hozir u To'rlining Uzukni daryodan qutqarib olib chiqqanini esladi-yu, ko'nglida rashkka o'xshash alamli bir his paydo bo'ldi. U Uzukning yo'lini to'sib:

— Ha, sen o'sha uychaga ovqat tashiyapsanmi? — dedi. — Boylarning moliga iching achimaydi-da, cho'ponning qizi. Ilojini topsang, butun davlatimizni havoga sovurasan!

— Kechagi sho'rvadan qolganini olib borib berdim, opa, ishonmasangiz borib ko'ring! Bechora kichkina o'g'ilchalari kecha oyog'ini kuydirib olgan ekan. Men borib oyisidan ko'ngil so'radim.

— Bilaman men seni!

Uzuk kundoshi bilan urishishni o'ziga ep ko'rmadi-yu, chaqalog'ining oldiga kirib ketdi. "To'rli bolasi bilan andarmon bo'lib qolmaganmikan? — o'ylandi Tojsulton.

"Oyog'i kuygan bo'lsa... kechasi bittasining ingragani eshitilganday bo'lgan edi. Balki bugun kechasi kelar?" Tungi alamlar Tojsultonning xayolidan uzoqlasha boshladi. Nonushtadan keyin To'rli kecha bitmay qolgan ishini bitirish uchun yana pichanxonaga kirib ketdi. Tojsulton uning bugun cho'kich bilan belkuragini o'tkirlayotganini eshitib turardi. U otxonadagi otlarga beda olish bahonasi bilan yana pichanxonaga kirdi.

To'rli uyalib, uning yuziga qaray olmas edi. Uning yosh yigitchaday iymanayotganini ko'rib, Tojsulton dadillashdi:

— Ha, yolg'onchi. Yaxshi yotib turdingmi? O'g'ling oyog'ini kuydirib olgan emish. Rostmi?

— Rost... Tojsulton opa, men kecha odobsizlik qildim. Meni kechiring!

Tojsulton bir bog‘ bedani qo‘liga oldi — kunduz kuni bo‘lgani uchun eshikdan birov kirib qolishi mumkin edi, u qo‘lidagi beda bilan To‘rliga yaqin bordi-da, shivirlab:

— Yigit odam kechirim so‘rab o‘tiradimi? dedi. — Undan ko‘ra bugun kel. Hammasi esdan chiqadi ketadi!

To‘rli boshini osiltirib jim turar edi.

— Ha, qo‘rqasanmi? — dedi.

— Qo‘rqmay ilojim yo‘q, opajon. Men bir kambag‘al odamman. Jo‘jabirday jon...

Tojsultonning lablari alam bilan titradi:

— Men seni ayg‘ir ot desam, sen aravaga qo‘shilaverib, axta bo‘lib qolgan ekansan-ku!

To‘rli yelkasiga qamchi tekkanday boshini siltab ko‘tardi va Tojsultonning yuziga g‘azab bilan tikildi. Uxlay olmay chiqib, yuzlari so‘lib qolgan, ko‘zi qizargan Tojsulton hozir unga jirkanch bir maxluq bo‘lib ko‘rindi.

— Senga yilqi zoti kerak bo‘lsa, boshqa joydan izla, men odam zotidanman, bildingmi? — dedi To‘rli.

— Bildim! Eshakning kallasini tovoqqa solsang, yumalab tushishini bildim! Men seni sinamoqchi edim! Sen o‘zingga o‘xshagan zoti pastlarning ketidan chopasan! Men bilaman! Boylar ham buni bir kun bilib qolar, o‘shanda sening jazongni berar! Sen hali qarab tur!

Tojsulton bedani otib tashladi-yu, eshikdan chiqib ketdi. Titrab-qaqshab uyiga kirayotganda eshigi ochiq qo‘shni xonada bola emizib o‘tirgan Uzukka ko‘zi tushdi. Farzand ko‘rgandan beri Uzuk yana ham ochilib ketgan, ko‘zlari ravshanlashib, yuzlari behad tiniqlashgan edi. Tojsulton o‘zining Uzukka nisbatan naqadar xunuk, naqadar baxtsiz xotin ekanini his qildi-yu, ochiq turgan eshikni oyog‘i bilan tepib yopdi. Uzuk bag‘ridagi bolasi bilan cho‘chib tushdi.

Tojsulton uyiga kirib, o‘zini ko‘rpachaning ustiga tashladi-da, yuzini yostiqqa bosib ho‘ngrab yig‘ladi. “Nahotki Xudo meni shu podachining qizidan kam qilib yaratgan bo‘lsa? — pichirladi u yostiqni alam bilan tishlarkan. — Nahotki shu To‘rli ham meni pisand

qilmasa? Nega pisand qilmaydi? Uzukdan meni past qo'yadimi? Ha, ha, bu podachining qizi To'rlini qo'lga olgan. Uning uyiga ko'p borishi bejiz emas. Xotini-yu, bolalarini ovqat bilan alahsitib, To'rlining o'zini bag'riga bosadi!"

Bu taxmin hech qanday mantiqqa to'g'ri kelmasligini Tojsulton ich-ichidan sezib tursa ham, ammo uning tutab yonayotgan alamzada qalbiga faqat mana shunday gumonlar biroz taskin berardi. Shuning uchun Tojsulton bu gumonlarga mahkam yopishib oldi. Xotirasidan bu taxminni tasdiqlaydigan dalillar qidira boshladi.

Bir vaqtlar Tojsulton: "To'rli bilai Uzuk o'ynash" degan taxminini marhuma Ashirgulga aytib, uni shunga ishontirgan edi. Ashirgul o'lib ketdi. Uning onasi Omonsulton haligacha juvonmarg bo'lgan qizini eslab yig'laydi. Tojsultonning xayoliga bir fikr keldi-yu, u sapchib o'rnidan turdi. Oynaning oldiga borib, ko'z yoshini artdi, sochini tarab, yuziga upa surtdi. Ammo uyqusiz tundan qizargan ko'zini pardoz bilan asliga keltirib bo'lmas edi.

— Mayli! — dedi Tojsulton o'ziga o'zi va tokchada turgan kechagi olachali yog' bilan qovurdoqni olib uydan chiqdi.

Qishloqning eng baland, ko'krakdor joyida Bekmurodboyning hashamatli uyi qad ko'tarib turar edi. Tojsulton katta ovsinining uyiga dasturxon ko'tarib kirganda, Omonsulton joynamoz ustida qiblaga qarab o'tirib, o'zi bilan o'zi pichirlab so'zlashmoqda edi. Qizi o'lgandan keyin birdan sochlari oqarib ketgan Omonsulton, "endi kayvoni bo'ldim" deb namoz o'qiydigan bo'lgan edi.

Tojsulton devor tagiga to'shalgan ko'rpachada jimgina o'tirib, Omonsulton namozini o'qib bo'lguncha kutdi. Keyin u bilan quchoqlashib ko'rishdi-da, olib kelgan sovg'alarini uning oldiga ochib qo'ydi.

— Bir o'zimning tomog'imdan o'tmadi, sizga ilindim, Omonsulton opa! Oling, birga nonushta qilaylik!

— Haliyam o'zing yaxshisan, Tojsulton! Ashirguljon o'lgandan beri menga hech kim senchalik qayishgan emas.

Omonsulton qizining nomini tilga olganda ko'zidan beixtiyor yosh to'kildi. Shunda Tojsulton ham o'z qalbidagi alamlarni esladi:

— Ashirgul yodimga tushsa mening ham uyqum qochib ketadi, opajon. Bugun kechasi uxlay olmay chiqdim. Bir-ikki marta

yig'lab ham oldim. Ko'zlarimga qarang, qizarib ketgan... Gulday qiz o'lib ketdi-yu, uning umriga zomin bo'lganlar davrini surib yuribdi.

— O'sha og'zingdan qoning kelgur qaroqchilar erim bechorani ham otib qo'yibdi-ku.

— Ha, naryoqda u qaroqchilar quturgan sari bu yoqda mana bu podachining qizi yayrab, yashnaydi!

— Rost aytasan, Tojsulton. Kundoshing bola tuqqandan beri kaltakdan qutulib rangi kirib qoldi.

— He, bola tug'may go'rga kirsin! Bolasini ko'rdingizmi? Omonmurodga hecham o'xshamaydi! O'ynashdan orttirgan!

Omonsulton bu gapdan cho'chib eshikka bir qarab oldi:

— Gapingni Qo'nish boyvuchcha eshitib qolsa, baloga qolamiz, Tojsulton! Qaynanang u chaqaloqni "kenjatoyim" deb, yer-u ko'kka sig'dirmay maqtaydi-ya!

Tojsulton ovozini pasaytirib:

— O'lsin shu qari toshbaqa! — dedi. Hech baloga farosati yetmaydi. Bo'lmasa, bu podachining qizi erta-yu kech o'sha To'rlining uyiga ovqat tashiganidan sezsa buladi-ku.

Omonsulton shivirlab so'radi:

— Bola To'rlidan bo'lgan deysanmi?

— Bo'lmasa kimdan? Omonmurodni men bilaman! Uning pushti kuyib ketgani rost.

— Rahmatlik Ashirguljon ham menga bir kun aytgan edi. "Shu Uzuk bilan To'rlini qo'lga tushirmasam qo'ymayman" degan edi.

— U rahmatlik juda sezgir edi-da. Men ham sezib yuribman-u, lekin... bir narsa desam, "kundoshlikdan" deb ishonmaydi. Agar siz aytsangiz, gapingizga ishonishadi, Omonsulton opa. Siz namoz o'qiydigan kayvoni xotinsiz.

— To'rli bilan o'ynashishi chinmi o'zi?

— Chin! Men sezib yuribman!

— Bo'lmasa men paytini topib, Qo'nish boyvuchchaga aytaman. Shu yashshamagur Uzukni deb, bizning boshimizga nene savdolar tushdi!

— Agar bundan qutulmasak, boshimiz balodan chiqmaydi. Buni yo'q qilish kerak.

— Rost aytasan, Tojsulton. Men bundan Ashirguljonning qasdini olaman! Erim tuzalib kelsin, hammasini bitta qoldirmay aytaman!

— Ungacha qaynonangizga ham ayting. Siz katta kelinsiz, sizning gapingizga ishonadi... Uzukka qo'shib ana u To'rlini ham gumdon qilishsin!

## QASSOBGA YOG' KERAK, ECHKIGA — JON

Bahor chiqar-chiqmas jazirama issiqlar boshlanib ketdi. Qurg'oqchilikdan qotib ketgan yerni yumshatish nihoyatda qiyin edi. Daryoda suv oz. Ariqdan jildirab kelayotgan suv talash. Dehqon talashib-tortishib suv navbatini olganda ham, qaqrab yotgan yer va jazirama issiq bu suvning barakasini uchiradi. Bir parcha yer qonib suv ichmasdanoq miroblar, archinlar, navbat kutib turgan boshqa dehqonlar dod-voyni boshlaydi. Keyin quloq bekiladi-yu, suv boshqa odamning yeriga qarab oqadi.

To'g'onning boshida kambag'allar boylar bilan olishib, o'z suvlarini qaytarib olganda Xudoyberdi og'a, "hamma mushkulimiz endi oson bo'ladi" deb suyungan edi. Ko'p qatori unga ham bir navbat suv tekkan edi. Xudoyberdi og'a bola-chaqasining nasibasidan urib qolib, dalaga bir pud urug'lik olib chiqdi. Suv navbati tekkanda yerini sug'ordi. Keyin ikkita eshakka kichkina omoch qo'shib yer haydadi.

O't yaxshi bitmagani uchun eshaklar ham oriqlab, kuchdan ketib qolgan edi. Suv navbati tez o'tib qolgani uchun yer yaxshi yumshamagan edi. Xudoyberdi og'a omochni bosib, yerga chuqurroq botirsa, eshaklar tortolmaydi. Omochni yuzaroqdan yurgizsa yer durust haydalmaydi.

U ming azob bilan yerni chala-chulpa haydab bo'ldi-yu, tavakkal, deb, urug'ni sepdi va ustidan mola bosdi. Agar osmon dehqonlarga rahm qilib, hech bo'lmasa javzoda biror marta yomg'ir yog'sa edi, bahorgi ekinlar durust boshoq olgan bo'lardi. Ammo hali ham osmondan bir tomchi yomg'ir tushmas, buning o'rniga

erta-yu kech garmsel shamol esardi. Suv navbatini ko'p olgan beli baquvvat xo'jaliklar urug'ni tanlab sepib, chanqagan ekinlarini peshma-pesh qondirib sug'orib, ancha yaxshi hosil yetishtirdi. Ammo Xudoyberdi og'aga o'xshagan kamsuv odamlarning ekini yerdan sal bosh ko'tardi-yu, garmselga bardosh berolmay, vaqtidan avval sarg'ayishga tushdi.

Bahordayoq boshlangan ocharchilik yozga borib avjiga chiqdi. Don tansiq bo'lgani uchun odamlar har xil o'tlarni, hatto, kunjarani ham yeyishar, buning oqibatida, xatarli kasalliklar ko'payib borar edi.

Xudoyberdi og'a ham anchadan beri betob edi, ammo, kasalga bo'sh kelmaslikka tirishib, tez-tez dalaga borar va ekinidan xabar olib turar edi.

Juma kuni ertalab Xudoyberdi og'a namozni machitda o'qidi. Namozdan keyin sallasi katta imom odamlarni to'xtatdi:

— Xaloyiq, bugun Maridan bir xushxabar keldi!

"Xushxabar" so'zini eshitganda "o'g'lim kelyaptimikan?" deb umidlangan Xudoyberdi og'a imomning og'ziga tikilib qoldi. Imom esa yonida turgan Omonmurodga tantanali bir nazar tashladi-da:

— Xaloyiq, bugundan boshlab Omonmurod qishlog'imizga archin bo'lib tayinlanibdi! — dedi. — Qishloq ahli nomidan men muhtaram Omonmurodboyni yuksak martaba bilan muborakbod etaman...

Hafsalasi pir bo'lgan dehqonlar hech narsa deyishmadi. Faqat Xudoyberdi og'a yonidagi qo'shnisiga pichirlab:

— Xushxabari boshida qolsin, yur, ketaylik! — dedi.

— Odamlar, to'xtanglar, sizlarga aytadigan gapim bor! — deb Omonmurod o'rtaga chiqdi. — Podshosiz yurt tez buzilar ekan. Bizning yurtda ham yomon odamlar ko'payib ketyapti. Shu vaqtgacha biz qulf nimaligini bilmasdik. O'g'irlik yo'q edi. Hozir har kuni biror kishining uyiga o'g'ri tushadigan bo'lib qoldi.

— Odamlardan insof ketdi, baraka ketdi! — deb uning gapiga qo'shildi imom. — Shuning uchun biz falakning g'azabiga uchrayapmiz!

— Falakning g'azabini bahona qilib, bizning og'zimizdagi nonimizni tortib olib yeyayotgan odamlar ham bor! — dedi Xudoyberdi og'a.

U Saidahmad eshon bilan Qovoqshayxning po'pisasidan qo'rqib, ikkita qo'yini oldirib qo'yganini, ayniqsa, hozirgi ocharchilikda armon bilan eslar edi. Valiboy buni sezdi-yu:

— Xudoyberdi og'a, siz birpas jim turib, quloq soling! — dedi.

— Odamlar, — davom etdi Omonmurod, — o'g'rilardan saqlanish uchun boshqa qishloqlar yo'l topibdi. Xalqdan pul yig'ib, beshta-o'ntadan qorovul yollaydigan bo'libdi. Endi biz ham qishlog'imizni o'z kuchimiz bilan qo'riqlamasak bo'lmaydi. Hozir biz bu yerda gaplashib turibmiz. Qishloqning naryog'iga qaltamanlar bostirib kirib, odamlarning uylarini talab ketsa, nima bo'ladi?

— Rost, zamon yomon!

— Xudo o'zi panohida asrasin!

— Biz ham qorovul yollashimiz kerak! — dedi Valiboy. Qani, qorovul haqini bir gaplashib olaylik. Omonmurod, qo'shni qishloqda qanaqa ekan, shuni aytchi?

Biz ham boshqa qishloqlardagiday qorovul yollaydigan bo'lsak, har oyiga o'n sakkiz pud don yig'ib berishimiz kerak.

— O'n sakkiz pud? — hayron qoldi Xudoyberdi og'a.

— Hozir bir qadoq don odamning joni bilan teng-ku, buncha donni biz qayerdan yig'ib beramiz?

— El ichida qorovul haqi shunday belgilangan bo'lsa, ilojimiz qancha? — dedi Omonmurod. — O'ziga uch pud, otiga bir pud, yarog'iga yarim pud. To'rt yarim pud bo'ladimi? Qishlog'imiz katta qishloq. Qorovul to'rttadan kam bo'lmasligi kerak.

— El tupursa, ko'l bo'ladi, — dedi imom. — Har bir xo'jalikdan yarim puddan yig'salaring yetib qolar?

— Undan chiqdi, men ham yarim pud qorovul haqi beraman-u, Valiboy ham shuncha beradimi? — dedi Xudoyberdi og'a.

— Ha, sizning Valiboydan qayeringiz kam?

— Agar uylarimizni o'g'ri bossa, Valiboy bilan ikkovimizning ko'radigan zararimiz ham teng bo'larmikan?

— Nafasni sovuq qilmang, Xudoyberdi og'a. Ko'pchilik nima desa, shunga ko'ning! "El buyursa otingni so'y" deydilar.

— E, menda so'yiladigan ot qoldimi? So'yiladigan itim ham yo'q!

— Itingiz bo'lsa, so'yib yermidingiz? — zaharxanda qildi Valiboy.

— Sen to‘qsan, Valiboy, shuning uchun menga o‘xshagan ochlardan kulasan. Lekin kulma. Qo‘shningdan kulsang, o‘z boshingga balo chaqirasan!

— Xudoyberdiboy, siz juda mo‘min odam edingiz, yomonlarga yaqin yurib, fe’lingiz buzilibdi, chamasi, — dedi imom. — Fe’lni keng qiling!

— Fe’lingizning yomonligidan qorningiz to‘ymaydi! — o‘shqirdi Valiboy. — Rangi-ro‘yingizga qarang. Keksa odamning bir oyog‘i yerda bo‘lsa, bir oyog‘i go‘rda, deyishar edi. Sizning ikki oyog‘ingiz ham go‘rga yaqin!

— Mening ikki oyog‘imni go‘rga tiqqanlar sen bilan Bekmurodboyga o‘xshaganlar!

— “Mard o‘zidan ko‘rar, nomard yo‘ldoshidan” deb shuni aytadilar-da!

— Sen mening yo‘ldoshim emassan, Valiboy! Sen mening jiyanimga tuhmat qilib, bir qanotimni qayirding. Mardikor berishda meni to‘plaringga qo‘shib, hiyla ishlatib, Melini jo‘nattirganlaringda yana bir qanotim qayrildi! O‘g‘lim bilan jiyanim yonimda bo‘lsa, men shu ko‘yga tusharmidim? Qorovul haqiga yarim pud don emish! Men yarim pud don topsam, och o‘tirgan bolalarimni boqaman! O‘g‘ridan boylar qo‘rqadi, puli ko‘plar qo‘rqadi, noni ko‘plar qo‘rqadi! Men nimadan qo‘rqaman! O‘g‘ri mening bitimni oladimi?

— Shu ketishda hademay Xudo sening joningni oladi! — dedi Omonmurod g‘azab bilan.

— Xudoyi taolo ham nuqul menga o‘xshagan bechoralarga o‘chakishadi. Sendaqalarning joningni olishdan Xudo ham hazar qiladi!

— Bas! Tur, jo‘na bu yerdan! Kerak emas sendaqa nokasning beradigan doning! Ket!

— Men sening uyingda o‘tiribmanmi, ket deysan? Men Xudoyi taoloning uyida o‘tiribman. Machitda o‘tiribman!

— “Xudoyi taolo menga o‘chakishadi” deb siz hozir yaratganga ham til tekkizdingiz, keting! — deb imom Omonmurodning tarafini oldi.

— Kasal odamga qattiq gapirmanglar! — deb keksaroq bir dehqon Xudoyberdi og‘aga yon bosdi: — Bechoraning ekini ham yax-

shi bo'lmadi. Bola-chaqasi ko'p. Alam o'tganidan gapiradi-da... Mayli, Xudoyberdiboy, siz qorovul haqi bermay qo'ya qoling...

— Qani, yana kim qorovul haqidan qochadi? Qochadiganlar davradan chiqib ketsin!

— Ilojim bo'lsa men ham to'lar edim, lekin ilojim yo'q! — deb yuzi ochlikdan shisha boshlagan o'rta yashar bir odam o'rnidan qo'zg'aldi.

— Mening ham qorovul qo'riqlaydigan hech narsam yo'q, — dedi uchinchi bir dehqon.

Xudoyberdi og'a shu ikki kishi bilan birga machitdan chiqib ketdi.

U Valiboy va Omonmurod bilan bahslashganda qizishib ketib, hech narsani sezmagan ekan, ko'chaga chiqqanda darmoni ketib, tizzasi qaltirab qoldi. U kasal edi. Badani sovuq terga botib, ko'ngli behuzur bo'ldi. Yo'lda bir-ikki marta to'xtab, devorlarning tagida o'tirib, nafasini rostladi-da, uyiga bir amallab yetib bordi.

Ochlik Xudoyberdi og'aning xotinini ham cho'ktirib qo'ygan. Endi qirq to'rt yoshga kirgan ayol oltmishdan oshgan kampirlarday bukchayib qolgan. Ko'zlari o'pirilib tushgan, yonoq suyaklari bo'rtib chiqqan.

— Bolalarni ertaroq yotqizdim, — dedi u eriga.

— Qorinlari och. Ozgina un qoldi. Har kuni bir mahal atala qilib berib turibman. Bug'doyingizni qachon o'rasiz?

— Yana ikki hafta bor.

— Hah! Ungacha bu sho'rliklar nima yeydi? Unning qolgani besh kunga yetsa ham katta gap.

— Iloj qancha, xotin! Bitta eshagim qolgan edi, uni ham o'tgan bozor sotib, mana shu unni olib keldim. Bug'doy boshoq tortib, sal qotsin, qo'g'irmoch qilib berarsan... Uff! Ichim kuyib ketyapti.

Xudoyberdi og'a bir kosa suv ichdi.

— Kasalmisiz deyman, otasi? Rangizga qarab bo'lmaydi!

— Mazam yo'q. Og'zim taxir. Xayr, mayli. Taqdirda bori bo'ladi. Ishqilib, shu bolaginalar tirik qolsin. E Parvardigor! Shu bolaginalarimga o'zing rahm qil! Gunohim bo'lsa, kechir!

Xudoyberdi og'a kambag'alligi tufayli qalin to'play olmay yoshi qirqqa borganda uylangan edi. Shuning uchun to'ng'ich

bolalari yigirmaga yetar-yetmas Xudoyberdi og'a oltmish yoshga kirdi. Xotini unga qaraganda xiyla yosh edi. Ularning eng kichik farzandlari hozir besh yashar va yetti yashar edi. Xudoyberdi og'a uxlab yotgan go'daklarining tepasiga keldi-yu, ularning ozg'inligini, yuzlarining qonsizligini ko'rib, ko'zidan yosh chiqib ketdi:

— Bu go'daklarning nima gunohi bor? Tog'-u toshdan ham marhamatingni ayamaysan-ku, Parvardigor! Nega bu go'daklarga rahm qilmaysan?

— E, voy-ey, Tangrim-ey! — deb, go'daklarning onasi ham yig'lab yubordi. Yoshi o'n uchlarga borib qolgan qizchalari Mayram uyqusida tamshanib, narigi yoniga o'girildi — ehtimol u tushida ham och qolib, ovqat topolmay qiynalayotgandir.

— Yig'lama, xotin, bolalar uyg'onib ketmasin. Beri kel. Men dalaga ketay. Shu bolaginalarning ozgina nasibasidan ayrilib qolmaylik. Hozir odam ham och, mol ham och. Mol kirib, ekinimni yeb ketmasin. O'sha yerga bitta chayla qurib, qorovul bo'lib yotaman.

— Tobingiz yo'q-ku.

— Tuzalib ketarman. Qani, ertaga yeydigan biror narsang bo'lsa, ber.

— Hozir ketasizmi? Qorong'ida-ya?

— Salqinda borib olganim ma'qul. Kunning issig'ida yurolmayman. Darmonim yo'q.

— Undan beraymi? O'zingiz qotirma qilib eysiz.

— Unga tegma. Bolalar yesin.

Xudoyberdi og'aning xotini supraning orasiga yarimta ko'moch yashirib qo'ygan edi. Shuni eriga olib berdi. Xudoyberdi og'a uning ham yarmini sindirib, xotiniga uzatdi:

— Ma, o'zing ham yegin. Qoq suyak bo'lib ketibsan. Yiqilib qolsang, bolalarga kim qaraydi?

— Bir burda ko'moch sizga nima bo'ladi? Necha kunga ketyapsiz?

— Uch-to'rt kunga ketyapman. Katta ariqning bo'yida tut bor. Iloji bo'lsa, tut terib yerman. Xayr, xotin. Oradan yaxshi-yomon gap o'tgan bo'lsa rozi bo'l.

— Voy, nega rozilik so'rayapsiz? Xudo xohlasa, hali eson-omon ko'rishamiz!

— Xudoning xohishi nimaligini bilib bo'lmaydi, xotin. Ishqilib, to'rt ko'z tugal bo'lsin!

Xudoyberdi og'a bir burda ko'mochni beliga tugdi, kichkina ko'zachani qo'liga oldi, o'roqni yelkasiga ildi-yu oydinda dalaga chiqib ketdi. Yo'lda ko'ngli behuzur bo'lib qayt qildi. Nuqul ichi kuyar, suv ichsa, ko'ngli behuzur bo'lar edi. Ariq bo'yida to'xtab, ko'zachasiga suv olib ichdi. Nariroqqa borib ichi keta boshladi. Dalasiga yetguncha bir-ikki marta holdan ketib yotib ham oldi. Ko'zi uyquga ketganda ichidan dahshatli bir og'riq qo'zg'alar edi.

"Menga ham vabo tekkanga o'xshaydi, — deb o'yladi u. — Yoki jo'n yurak buruqmikan-a? Unday bo'lsa o'tib ketadi. Vabodan Xudo saqlasin! Bolalarim nima bo'ladi. Ekinim-chi? Yo'q-yo'q!"

Xudoyberdi og'a yomon xayollarni miyasidan uzoqlashtirishga tirishib, tong otguncha zo'rg'a dalasiga yetib keldi. Bug'doylari bir qarichgina bo'lib o'sgan, ba'zi joylari boshoq ham tugmagan edi. Ammo pastak bo'lsa ham boshoq chiqargan joylari ko'proq edi. Aksiga olib, ekinga tushgan mol boshoq chiqargan joylaridan anchasini yeb ketgan edi. Itqushlar ham boshoq chiqargan joylariga o'ch.

Xudoyberdi og'a ariq bo'yida o'sgan yovvoyi jiydalar va to'rang'ilardan kesib xoda tayyorlab qo'ygan edi. Xodalarning tagini yerga ko'mib, uchini bir-biriga tishlatib, chayla ko'tara boshladi. Ammo birpas ishlar-ishlamas holdan toyib, darmoni ketib qolar, goh qayt qilar, goh atrof paykallarda ishlayotgan dehqonlardan iymanib, dala chetidagi suvsiz jarga tushib ketar va o'sha yerda bo'shanib qaytardi. Tushga borib, Xudoyberdi og'a juda behol bo'lib qoldi. "Bet-qo'limni sovuq suvda yuvsam, yengillasharmikanman?" deb ko'zachada qolgan suvga yuvindi. Bu ham kor qilmadi. Kechadan beri hech narsa yemagan bo'lsa ham, ishtahasi yo'q edi. "Sal tamaddi qilsam, darmon kirarmikan?" deb, beliga tugilgan ko'mochdan ikki tishlamini sindirib oldi-da, suvda ho'llab edi. Ammo ko'p o'tmay buni ham qaytardi. Ekiniga chug'urchiqlar aylana boshladi. Xudoyberdi og'a bir amallab oyoqqa turdi-da, chug'urchiqlarga kesak otib, uchirib yubordi. Keyin

dahshatli og'riqdan ikki bukilib qornini ushlab, yana jarga tushib ketdi. Biroq jardan qaytib chiqolmadi. Hushidan ketayotganda ko'ziga goh xotini, goh kichkina go'daklari, goh katta o'g'li Meli ko'rinar edi.

Hamma o'z ishi bilan band bo'lgani uchun, Xudoyberdi og'aning chaylasi bitmay yotgani va o'zi ko'rinmay qolgani hech kimning e'tiborini tortmadi.

Qo'shnilari uni "betobroq edi, uyiga ketib qolgan shekilli" deb o'ylashdi. Biroq ikki kun o'tgandan keyin qishloqdan uni katta qizchasi so'roqlab kelgach, qo'shnilari Xudoyberdi og'ani qidira boshladilar va uning shishib ketgan jasadini jardan topdilar.

## ENAQUTI O'LJA IZLAYDI

Ochlik bilan qo'l ushlashib yurgan og'ir kasalliklar juda ko'p odamning yostig'ini quritayotgan shu qora kunlarda Hotamshayx mozoriga ziyoratga keluvchilar kamayib ketdi. Nazr-niyozlarning barakasi uchdi.

Shundan keyin Enaquti Qovoqshayxni ola baytalga mindirib, xurjun, qop va xaltalarni egariga ortib, dalaga jo'natdi.

— Hozir dehqon xirmon ko'tarayotgan payt, — dedi — "Xirmoningizga baraka", — deb duo qilsangiz, hammasi kapsan beradi. Ilgari Saidahmad eshon bir oy dala aylanib, ikki yilga yetadigan don yig'ar edi.

— Men buncha don yig'olmayman. Yilning yomon kelganini ko'rib turibsan.

— Ishqilib, quruq qaytmang, shayxim. Bo'sh kelmang!

Qovoqshayx ola baytalni "chuh-chuh"lab kuni bo'yi dala aylandi. Bu yil xirmonlarning ilgarigi salmog'i yo'q — odamlar yerga tushgan har bitta boshoqni, har bitta donni terib oladi. Shunda ham bir yilga yetgulik hosil ko'targan dehqon topilmaydi.

Qovoqshayx xirmondan xirmonga o'tib, dehqonlarga bisotida bor eng shirin so'zlarini aytadi, qiroatini keltirib, duolar o'qiydi, baraka tilaydi. Dehqonlar unga quruq rahmat aytishadi, duosiga qo'shilib, yuzlariga fotiha tortishadi-yu, "aytganingiz kelsin,

xo'jam!" deb qo'yishadi. Ammo hech kim ilgarigiday uning xurjunini to'ldirib, kapsan bermaydi. Qovoqshayxga tobora alam qila boshladi. Kechki payt bir xirmonga yaqinlashgan edi, tagidagi baytal qoplanayotgan arpaga qarab intildi. Qovoqshayx yuganni mahkam ushlab, baytalni arpaga yo'latmadi. Odatdagiday salomalik va duoyi fotihadan keyin Qovoqshayx arpa qoplayotgan o'rta yashar dehqonga qarab:

— O'tag'asi, shu baytalga bir to'rva yem bering, — dedi.

— Ay, xo'jam-ov, bu arpa uyda och o'tirgan bolalarimga yetmaydi-yu, baytalingizga yo'l bo'lsin!

— Fe'lni keng qilsangiz, hammaga yetadi.

— Tirik qolsak, fe'lni endigi yildan keng qilamiz, xo'jam. Bu yil baytalingiz somon-pomon yeb tura tursin. Bozorda bir to'rva donga bitta ot beradi-yu siz bu baytalga yem beraman deysiz-a!

— Lekin siz bu og'ir kunlarda bir narsani unutmang, — tahdid qilib dedi Qovoqshayx. — Oltin olma, duo ol, deganlar. Duo olgan odam o'zadi, qarg'ish olgan odam to'zadi.

— Ahvolimizni ko'rib turibsiz, xo'jam. Sizning baytalingiz ekishda yo'q, tikishda yo'q, xirmonda hozir bo'lib qoldi.

— Lekin xo'janing o'zini hurmat qilgan kishi, itiga suyak tashlashi kerak.

— Endi xo'jam ham o'z izzatini bilishi kerak-da, siylasam — pirimsiz, siylamasam — birimsiz. Siz ham bizga o'xshagan odamsiz.

— Siz bizga birni bersangiz, Xudo sizga yuzni beradi. Xo'jalar Xudoning suygan bandalari! Bizning dilimizni og'ritmang.

— Qo'ymadingiz-da, xo'jam! Mang, xurjuningizni tuting!

Dehqon Qovoqshayxning xurjuniga ikki hovuch arpa solib berdi:

— Qani, endi yo'lingizdan qolmang, xo'jam. Siz Xudoning suygan bandasi bo'lsangiz, Xudo o'zi siylasin sizni. Endi boshqa xirmonlarga boring. Qovoqshayx yuz xil ko'ngil xiraliklar bilan ikki kun dala aylanib yurib, topgan doniga xurjunning bir ko'zi yarim ham bo'lmadi.

— Xudo ursin bu nokaslarni! — deb Enaquti avval dehqonlarni qarg'adi. Keyin eriga yopishdi: — Siz o'zingiz bo'shsiz! Gapingizni eplab gapirolmaysiz! Qorovullikdan boshqa ishga yaramay-

siz! Boring, qo'lingizga shaqildoqni olib, mozorning ketidagi jiydalarni chumchuqdan qo'ring!

— Eshon oyim, menga rahm qiling, qornim och!

— Ertalab shirchoyga non to'g'rab urib olgan edingiz-ku!

— Oftobga qarang! Kun og'di. Ertalab yegan yarimta nonim nima bo'ladi?.. Polvon odam bo'lsam...

— Sizdaqa atala polvonga shu ham xayf! Odamlar bir kunda bir mahal yovg'on atala ichib, kuni bo'yi mehnat qiladi. Endi kech-qurun ovqat yeysiz. Bir kunda ikki mahal tamaddi qilsangiz, jon deng. Boring!

Enaquti erining qo'liga shaqildoq berib, mozor hovlisidan tashqariga chiqarib yubordi. So'ng o'zi sekin ichkariga kirib, jizza solingan patir bilan bir kosa qatiq ichib, qornini to'ydirib oldi. Tashqarida jiyda qo'riyotgan Qovoqshayxning "hay-hay!" deb qichqirgani va shaqildoq chalgani birpas eshitilib turdi. Keyin hamma yoq suv quyganday jimjit bo'lib qoldi.

Enaquti chiqib qarasa, shingil solgan jiydalarning shoxida bargidan ko'p chug'urchiq, shoxidagi jiydalarni qushlar, yerga to'kilganlarini besh-oltita och bolalar terib yeyishyapti. Qovoqshayx esa salqin bir joyda og'zini ochib uxlab yotibdi. Enaquti dod-faryod ko'tarib bolalarni quvdi, erini uyg'otib, rosa urishdi.

Korni och Qovoqshayxning birdan jahli chiqdi:

— Menga til tekkizaverma, men xo'ja avlodidanman! Qorovullikni o'zing qil! Ol, shaqildog'ingni!

U Enaqutiga shaqildoqni tutqizdi-yu, hovliga kirib ketdi. Chug'urchiqlar jiydadan uzoqqa ketmas, shu atrofda aylanishmoqda edi. Ko'zlari yaltillagan och bolalar ham yulg'unlarning orasida pusib o'tirardi. Enaquti shaqildoqni qo'lidan qo'ymay, jiydalarning atrofida birpas aylandi. Kun issiq edi. Axiyri qorovullik uni ham charchatdi. Tekin yeb o'rgangan Enaquti astoydil mehnat talab qiladigan bu qo'riqchilikdan foyda chiqmasligini sezdi-yu, hovlisiga qaytib kirdi.

Qarasa, Qovoqshayx ola baytalning oldiga ozgina yem solib qo'yib, uning sariq-qizg'ish dumidan eng uzun qillarini qaychi bilan qirqib olyapti.

— Hay, yana nima balo qilyapsiz? — do'q qilib so'radi Enaquti.

— Eshon oyim, bu yoqqa keling. Bu baytalimizda gap ko'p ekan-u, biz bilmas ekanmiz-a. Buning dumidan chiqqan oltinday sariq qillarni qarang. Ajinaning sochi xuddi shunday bo'ladi, deb eshitgan edim. Faraz qiling-ki, men kechasi hu ana u daraxtning tagida sariq sochli ajinaga duch kelaman. Ajina meni chalib ketmoqchi bo'ladi. Lekin men zo'r eshonman, otam yonib turgan olov edi, onam yonib turgan olov edi, o'zimning nafasim ham qilichday o'tkir. Kalima keltirib, ajinani sochidan ushlab olaman. Ajina menga bas kelolmaydi. "Qo'yvoring" deb yalinadi. Men qo'yvormayman. "Seni hozir o'ldiraman" deyman. Keyin ajina "tila tilagingni" deydi. Men aytaman: "Mana bu qadamjoga kim nima orzu bilan kelsa, sen hammasini ro'yobga chiqarolasanmi?" Ajina "chiqarolaman, meni qo'yvor" deydi. Men uning sochidan bir tutamini yulib olaman-u keyin o'zini qo'yib yuboraman. Odamlar eshitganki, ajinaning joni sochida bo'ladi...

Enaquti uning niyatini tushunib:

— Balosiz! — dedi. — Ertaga men qishloqqa borib, ovoza qilaman!

— Ziyoratchini shunaqa qilib ko'paytirmasak, kapsan yig'ish-u, jiyda qo'rish bilan ish bitadimi?

— Buni yaxshi topibsiz!

Otning dumidan qirqib olingan uzun, sap-sariq qillarni Enaquti avval yaxshilab yuvdi, keyin moy surtib, yumshatib, yiltillaydigan qildi. Undan keyin qishloqqa borib, kechasi Qovoq eshon ajina bilan qanday olishganini ayollar orasida ovoza qilishga tushdi:

— Xudoning qudratini qaranglar, — derdi u.— O'tgan kun oqshom xo'jam hovliga chiqsalar, bir daraxtning tanasi qip-qizil bo'lib yalanglanib turganmish. Yonib ketyaptimi? — desalar, yonayotganga o'xshamaydi. "Bu yerda bir sir bor-ov" deb, tavakkal qilib daraxtning tagiga borsalar, sochlari sap-sariq, o'zi biyaday keladigan bir alvasti turganmish-da. Agar xo'jam qo'rqib qochsalar, alvasti baland kelar edi-yu u kishini o'ldirib ketar edi. Qo'rqmagan yaxshi-da. To'ram o'zlari Xudo nazar qilgan odamning farzandlari-da. Ins-u jinsdan tap tortmaydilar. Duoning zo'rini o'qib, alvasti bilan olishib ketibdilar. Alvasti hech sochini ushlatmas emish.

Enaquti Qovoq eshon bilan alvastining olishishini xuddi afsonaviy qahramonlarning dahshatli devlar bilan olishishiga o'xshatib hikoya qilar ekan, soddaroq xotinlar yoqalarini ushlashib:

— Xudoyo o'zing panohingda asra-yey! — deb qo'yishardi.

Xuddi shu kunlarda Maridan Bekmurodboyning shaharlik xotini Xonim qaynonasi Qo'nish boyvuchchani ko'rishga kelgan edi. Enaquti mehmonni borib ko'rdi, Bekmurodboyning tez tuzalayotganini eshitib, Xonimga va Qo'nish boyvuchchaga xursandchilik bildirdi. Shunda Qo'nish boyvuchcha undan:

— Qovoq eshon alvastining sochidan yulib olganmish, rostmi? — deb so'rab qoldi.

— Rost, men o'zim qanday olishganlarini ko'rib qo'rqib ketgan ekanman, uch kun kasal bo'lib yotdim — dedi Enaquti va o'sha hikoyasini avvalgidan ham ta'sirliroq qilib aytib berdi.

Qo'nish boyvuchcha bu hikoyaga paqqos ishondi-yu:

— Eshon oyim, omadlaring kelibdi, — dedi. — Kimki alvastining sochini qo'lga tushirsa, alvasti o'sha odamning xizmatini qiladi. Sochi uylaringda turibdimi?

— Ha, xo'jam kitobning qatiga solib qo'ydilar. Alvasti sochini kitobning orasidan olib ketolmas ekan-ku.

— Niyday chach ekan, minga oni nichik bo'lsa-da, bir ko'rsatig'iz, — deb iltimos qildi Xonim.

— Hotamshayx avliyoning mozoriga boring, qimmatli Xonim. O'sha yerda biz sizga hammasini ko'rsatamiz. Xudo xohlasa, siz ham bu muborak dargohdan bahramand bo'lasiz. Tilagan tilagingizga yetasiz.

— Ha, Hotamshayx avliyoning qurboni bo'lay, nafaslari juda o'tkir, — deb Enaqutining gapini Qo'nish boyvuchcha ham ma'qulladi. — Qovoq eshonni mana shu avliyo qo'llaganlar-da, bo'lmasa alvastini yengib bo'ladimi?

— Og'zingizga bol, Qo'nish boyvuchcha, siz mening ko'nglimdagi gapni aytdingiz!

— Madorim yo'q, bo'lmasa, azizlar yotgan bu joyni men o'zim ham ziyorat qilar edim. Alvasti Qovoq eshonning aytganini qiladigan bo'lsa, xo'jamga ayting, Bekmurodjonni yarador qilgan, Chorijonni o'ldirgan ana u qonxo'rlarni alvasti urib yo'q qilsin!

— Buni men borib aytamin! — dedi Xonim.

Ertasi kuni Xonim ovsinlaridan Tojsultonni yoniga olib, bir dunyo nazr-niyozlar bilan Hotamshayx mozoriga bordi. Enaquti ularning kelishini eshitib, tayyorgarligini ko'rib qo'ygan edi. U Xonimning bir o'zini salqin maqbaraning ichiga olib kirdi. Qabr atrofida uch marta aylantirib chiqqach, pichirlab duo o'qidi-da:

— Endi qiblaga qarab, nima tilagingiz bo'lsa ayting! — dedi.

Xonimga Qo'nish boyvuchcha tayinlab yuborgan ish — Bekmurodboyning dushmanlariga o'lim tilash edi. Xonim qiblaga qarab, shu tilagini aytayotganda mozor devoriga qistirilgan bo'sh ko'za shamolda "uv-uuv" qilib, ovoz chiqara boshladi. Enaquti Xonimga shivirladi:

— Ana, azizlar nola chekyapti! — dedi. — Tilagingizni yana ayting! Uch marta ayting!

— Yaratgan Ollo, erimning dushmanlariga o'lim ber! — deb takrorladi Xonim. — Erimning dushmanlariga o'lim ber!

Bu tilak uchinchi marta takrorlangach, tepadagi maqbara gumbazining allaqayeridan odam ovoziga uncha o'xshamaydigan yo'g'on, past tovush eshitildi:

— Bera-ma-an!

Xonim bu tovushni eshitgandan keyin taxta bo'lib qotib qoldi.

— Karomatingizdan o'rgilay, azizlar! — deb shivirladi Enaquti. — Xonim, tilagingizni azizlar eshitdi!

Azizlar javob berdi!

— Ollo! Ollo! — dedi Xonim azbaroyi hayajonlanganidan boshqa so'z topolmay.

Enaquti Xonimni qo'ltig'idan olib, sekin maqbaradan suyab chiqqanda, Qovoqshayx hovli sahnida turar edi, Gumbazdan ovoz bergan bu "avliyo" mozorning tomiga bebiliska qo'yilgan shotidan allaqachon yerga tushgan, u yoq-bu yog'ini qoqib, silab, yana avvalgiday eshon qiyofasiga kirgan edi. U xotinlarni ko'rgandan keyin odob bilan bosh egib, ko'zi nomahram ayolning yuziga tushishidan qo'rqqanday, yerga qarab, qo'l qovushtirib turdi.

— Alvasti bilan olishgan shayx mana shu kishi bo'ladilar, — deb shivirladi Enaquti Xonimga.

Xonim Qovoqshayxga egilib, ta'zim qildi:

— Ruxsat etig'iz, eshon abziy, minga alvastining chachini ko'rsatsinlar.

— Sizday mo'tabar mehmonga men o'zim ko'rsataman, — dedi Qovoqshayx va uyga kirib, charm muqovali "Qissasil anbiyo"ni ko'tarib chiqdi. Qizg'ish rangli qog'ozga chiroyli arab alifbosida bitilgan yozuvlar orasida sirli yiltillab turgan oltin rang soch tolalari Xonimga juda g'alati ko'rindi. Otlarni yaxshi biladigan odam bo'lsa, bu tolalar sochdan ko'ra ot qiliga ko'proq o'xshashini sezgan bo'lardi. Ammo Xonim umrida ot minmagan, ot boqmagan, faqat ot qo'shilgan faytonlarda yurgan. Uning nazarida, alvastining soch tolalari mana shunday yo'g'on-yo'g'on bo'lishi kerak edi — axir, kattaligi sigirday keladigan, har qanday odamni ham urib, yalpaytirib keta oladigan alvastining sochi boshqacha bo'lishi mumkinmi?

Xonim Qovoqshayxning yo'g'on gavdasiga qarab:

— Sizga ko'z tegmasin, eshon abziy, — dedi. — Siz pahlavon ekansiz.

— Rahmat!

— Duo etig'iz bizning mushkullaribiz oson bo'lsin! Dushmanlaribizni alvastilar urib yuqotsinlar!

— Ilohi omin! — deb Qovoqshayx qo'llarini fotiha uchun ochdi va Qur'onning uzun surasini qiroat bilan o'qishga tushdi.

Shu kuni Xonim Hotamshayx mozoridan ham, Enaquti va Qovoqshayxdan ham juda qoyil bo'lib qaytdi. Maqbara gumbazidan qanday vahiy kelganini, alvastining sochi qanaqa ajoyib ekanini Xonim Qo'nish boyvuchchaga aytib bergan edi, kampirning ko'zlaridan yosh chiqib ketdi:

— Qurboni bo'lay Hotamshayx avliyoning! Tilagan tilagimizni yerda qoldirmaydilar! Omonmurodga o'g'il tilagan edim, o'g'il berdilar. Endi bolalarimning dushmanlariga zavol tiladik. Hotamshayx avliyo bu niyatimizga ham yetkazadilar! Qani, hoy, Omonsulton, Tojsulton! Hotamshayx avliyoni rozi qilinglar! Chorshanba kuni yaxshi niyat bilan mozorga bitta qo'y olib borib so'yinglar!

— Xo'p, Chorining onasi, xo'p!

Qo'nish boyvuchchaning so'zi hali yerda qolgan emas. Chorshanba kuni mozorda so'yilgan qo'ydan Enaqutining qozoni ham

moy bo'ldi, cho'michi ham. U Qovoqshayxdan behad xursand edi. Hozir erining cho'tir yuzi Enaqutiga naqsh olmaday silliq ko'rinar, kundaday yo'g'on qaddi-qomati o'ziga nihoyatda yarashib turganga o'xshardi.

Bekmurodboyning shaharlik xotini ko'rib qoyil bo'lgan oltin rang qillar — alvastining sochi — qishloqda duv-duv gap bo'lib ketdi. Alvastini yengib, sochini olgan Qovoqshayxning hurmati uchun Qo'nish boyvuchcha mozorda qo'y so'ydirgani odamlarning qiziqishini yana bir daraja oshirdi. Ochlikdan va kasallikdan sillasi qurigan bechoralar mozorga durustroq bir sadaqa olib borolmasalar ham, o'ziga to'qroq dehqonlarning xotinlari kitob qatiga solingan alvastining sochini ko'rish va Qovoqshayx pahlavon nomini olgan eshonning duolaridan bahramand bo'lish uchun topgan nazr-niyozlarini ayamas edilar.

## BEKMURODBOY SO'ZIDAN QAYTADI

Sershamol kuz kunlarining birida Bekmurodboy hashamatli faytonga tushib, Maridan qishlog'iga qaytdi. Uning yarasi butunlay tuzalib ketgan, o'zi avvalgiga qaraganda sal rangini oldirgan bo'lsa ham, yurish-turishi, kelgan-ketgan bilan muomalasi burungiday vazmin va salobatli edi.

Ko'rgani keluvchilarning keti uzilgandan keyin Bekmurodboy onasi o'tiradigan oq o'tovga kirdi. So'nggi qirq-ellik yil davomida bu o'tovning kigizlari ko'p marta almashtirilgan, eskirgan va singan chang'aroqlari, keragalari yangilangan bo'lsa ham, Qo'nish boyvuchcha o'g'illariga:

— Hammalaring mana shu o'tovda tug'ilgansizlar, — deydi. — Bu juda xosiyatli o'tov. Otalaring rahmatlik mana shu o'tovda turib, katta davlat orttirgan edi. Men mana shu o'tovda saksonga kirdim. Sening davlating ham mana shu o'tovdan boshlangan, Bekmurodjon. Ukalaringni chaqirtir, bolam, mening sizlarga aytadigan gapim bor.

— Gapingizni avval o'zimga ayta qoling, ona. Keyin kerak bo'lsa, boshqalarni chaqiramiz.

— Mayli, bo'lmasa avval o'zingga aytay. Sen mening suygan farzandimsan. Men shuncha yil senga nima maslahat bersam, quloq solding-u, bitta maslahatimni yerda qoldirding.

— Qaysi maslahatingizni?

Qo'nish boyvuchchaning orqa tomonida ustiga oq shohi yopilgan beshik turar edi. Beshik bilinar-bilinmas silkindi-yu, qo'llari bog'log'liq go'dakning beshikdan bo'shagisi kelganday chiranib yig'lagani eshitildi. Qo'nish boyvuchcha beshikni tervata boshlagan edi, bola asta-sekin jim bo'ldi.

— Bu Omonmurodning o'g'limi? — so'radi Bekmurodboy.

— Ha, bu bolani hozir men o'zimga o'rgatyapman... Mana shu bolaning onasi bizning ostonamizga oyoq qo'ygandan beri boshimizga qancha falokatlar tushdi, Bekmurodjon, sen shuni hech o'ylaysanmi?

Bekmurodboyning qalbidagi ochiq yara yangilanganday bo'ldi. U Uzuk va Berdilar tufayli boshiga tushgan balolar edi. Berdidan qasd olish istagi hozir Bekmurodboyning qalbini erta-yu, kech kemirib yotgan eng kuchli istakka aylangan edi.

— Pushaymonning foydasi yo'q, ona, — dedi u bo'g'iq tovush bilan. — Lekin boshda sizning maslahatingizga kirsam bo'lar ekan. Shu cho'ponning qizini olib qochib kelib kelin qilganimiz noto'g'ri bo'lgan ekan.

— Keyin-chi, keyin? Axalga qochganda, men "o'sha yoqda yo'q qilib, ko'mib kelinglar" demaganmidim? Nega bu maslahatimga kirmadilaring?

Qo'nish boyvuchchaning madorsiz qo'llari beshik tervatib toldi. U beshikdan qo'lini olib, o'g'liga tomon cho'zdi:

— Agar shu maslahatimga kirsalaring, hozir Chorijon tirik yurmasmidi? Ashirguljon tirik yurmasmidi?

Beshikdagi bola yana yig'lay boshladi. Bekmurodboy onasiga qarab:

— Unda mana bu bola ham bo'lmas edi, ona, — dedi. — Dushmanlarim qonga qon, jonga jon oladigan battol dushmanlar chiqdi. Choriga qo'shib, bizni ham o'ldirmay qo'ymas edi.

— Hozir tinch qo'yyaptimi? Seni o'ldirishiga sal qolibdi-ku.

Bekmurodboy to‘g‘on bo‘yidagi otishuvni esladi:

— Tagimdagi ot qo‘zg‘alib ketdi, bo‘lmasa men uning o‘zini otib o‘ldirar edim!

Qo‘nish boyvuchcha yig‘layotgan bolani tervatishni ham unutib:

— Hamma balo mana shu cho‘ponning qizidan chiqyapti! — dedi. — Sen avval mana shuni o‘ldirgin!

Hovli supurayotgan Uzuk oq o‘tovdan kelayotgan bola yig‘isini eshitib qoldi. U dunyoda bor hamma tovushlarning orasidan o‘g‘ilchasining ovozini tanib olar edi. Qo‘nish boyvuchcha nevarasini onasidan ayirib, o‘ziga o‘rgatish uchun olti oylik bolaga sigirning sutidan atala qilib bergan edi. Bola buni ko‘tarolmay, kechadan beri ichi ketib, ko‘p yig‘laydigan bo‘lib qolgan edi. Uzuk bolasining yig‘isini eshitib, chidab turolmadi. Qo‘lidagi supurgini tashlab, oq o‘tovga qarab ketdi. Ammo u o‘tovga orqa tomonidan yaqinlashib kelganda Qo‘nish boyvuchcha bolani yana tervatib jim qildi. Uzuk bu o‘tovga boya Bekmurodboyning kirib ketganini ko‘rgan edi. Qo‘nish boyvuchcha o‘zi chaqirib “bolani olib ket!” demaguncha, ichkariga kirsa, baloga qolishi mumkin edi. Ammo betob bolani bu kampirning oldida qoldirishga ham Uzukning ko‘ngli yo‘q edi. U o‘tovning orqasida birpas ikkilanib turib qoldi. “Bola yana yig‘lasa, kirib olib ketaman” deb kutdi. Bola yig‘lamadi-yu, ammo Bekmurodboyning g‘azab bilan:

— Shu gap chinmi? — deganini eshitdi. — Bu manjalaqi To‘rli bilan o‘ynashgani rostmi?

— Rost! Agar buni Tojsulton aytsa, men ishonmas edim. Buni menga sening xotining Omonsulton aytdi. Rahmatlik qizing Ashirgul ham gumonsirab yurganini menga aytgan edi.

Uzuk gap o‘zi haqida borayotganini sezib taxta bo‘lib qotib qoldi.

— Men bu cho‘ponning qizini o‘lgandan battar qilaman, deb o‘ldirmagan edim. Agar hamma yoqni nahs bostirib, To‘rli bilan buzuqlik qilib yurgan bo‘lsa, endi bahridan o‘tamiz! Bola yana yig‘ladi.

Bekmurodboyning g‘ashi kelib:

— Chaqiring, olib ketsin! — dedi.

Uzuk ularning gaplarini eshitganini sezdirib qo'ymaslik uchun orqasiga qaytib, hovlida yotgan supurgini yana qo'liga oldi. Qaynonasi uni emas, Omonmurod bilan Valiboyni chaqirib oldi. Bular hammasi maslahatga kirib ketganini Uzuk sezib turar, ko'ziga baloday ko'rinayotgan oq o'tovga ikkinchi marta yaqinlashgisi kelmas edi. Biroq go'dagi ora-chora bezovtalanib yig'layotganini eshitsa, o'zini qo'yadigan joy topolmay sarosimaga tushardi.

— Ona, siz buni nega tervatib o'tiribsiz, charchab qolyapsiz, ayting, olib ketsin, — dedi Bekmurodboy.

— Sen tushunmayapsan, bolam, — dedi Qo'nish boyvuchcha. — Bu endi olti oylik bo'ldi. Buni hozir emchakdan chiqarish oson emas. Asta-asta o'rgatyapman. Onasi o'lsa ham bolasi tirik qolsin, deyapman! Omonmurodga farzand kerak!

— Shunday bo'lsa ham hozir berib yuboring, yig'lab gapni gapga qo'shmayapti. Omonmurod ol, chiqarib ber.

Omonmurod bolani beshigi bilan ko'tarib olib chiqib ketdi-yu, ko'p o'tmay hansirab qaytib keldi. Bekmurodboy onasidan eshitgan gaplarini ukalariga aytib berganda, Omonmurodning g'ilay ko'zlariga qon to'lib:

— Men hozir o'ldiraman uni! — dedi.

— Sen hovliqma, uka. Biz hamma tomonini yaxshilab o'ylab olishimiz kerak. Men shu kasofatni o'ldirmayman, deb so'z bergan edim. To'rt yildan beri shu so'zimda turdim. Endi bas. Bu o'lmasa, biz buning kasofatidan qutulmaymiz.

— Ana endi o'zingga kelding, Bekmurodjon! — dedi Qo'nish boyvuchcha o'g'liga so'zi o'tganidan mamnun bo'lib. — Lekin bu sayoq xotinning tarixi elning og'ziga tushib, juda mashhur bo'lib ketgan. Buning aybini bo'yniga qo'yib, To'rli bilan ikkovini bir joydan tutib o'ldirmasak gap-so'z ko'payadi. Bizga da'vogar bo'lib, avvalgiday sudga sudraydiganlar topiladi. Hukumat ham hozir podsho zamonidagiday emas. Bizni ovora qiladi.

— Poylab yurilsa, ikkovini o'ynashgan paytida tutish mumkindir-a! — dedi Valiboy. Bu gapdan Omonmurodning rashki kelib:

— Poylab yurish nima kerak? — dedi. — Ikkovini ikki joyda o'ldirib, keyin o'liklarini bir joyga olib kelib tashlasak bo'lmaydimi?

— Yo'q, odamlar ishonadigan ishni qilish kerak, — dedi Bekmurodboy. — Men bu ishga chetdan bir-ikkita xolis yigitlarni ham taklif qilmoqchiman. "Biz ikkovining bir uydan tutilganini ko'rdik" deydigan guvohlar kerak. Agar ikkovi birga qo'lga tushmaganda ham, kechasi biron narsani o'sha xotin yotgan joyga qo'yish mumkin. Keyin To'rliga "o'sha narsani olib chiq" deb buyuramiz. Olib chiqishga kirganda tappa bosamiz.

— Mana, bu yo'l yaxshi! — dedi Valiboy.

— Bola nima bo'ladi? — so'radi Qo'nish boyvuchcha.

— Siz boqib olaman deyapsiz-ku.

— Kechadan beri bola betob bo'lib qoldi-da. Ichi ketyapti. Ovqat berib edim, zo'rlik qildi. Uch-to'rt kun shoshmanglar, Bekmurodjon, bolani sal epaqaga keltirib bersin. Ona suti davo bo'ladi. Davlatmurodjon tuzalsin keyin bilganlaringni qilinglar.

— Mayli, bola tuzalgan kuni oldingizga olib oling-da, onasiga qaytarib bermang. U yog'ini o'zimiz bilamiz.

* * *

Uzuk oq o'tovdagi maslahatning oxirini eshitmagan bo'lsa ham kechqurun eri va qaynonasining muomalasida qo'rqinchli bir mayinlik sezib, o'limga mahkum etilganini payqadi. Uning uydagi yolg'iz tayanchi — murg'ak bolasi edi. Uzuk bolani beshikdan olib, uyushgan elkalarini silar ekan, unga ham, o'ziga ham rahmi kelib, yum-yum yig'lay boshladi.

"Men o'lsam, sening ahvoling nima bo'ladi, toychog'im? — deb pichirlardi Uzuk. — Onangga Xudo shu qora kunlarni ham ko'p ko'ryaptimi? To'rlini ham o'ldirmoqchilar... Berdi... Berdijon! Men senga qanday xabar beraman?"

Bola Uzukni emib yotib uxlab qoldi. Uy qorong'i edi Uzuk chiroqni yoqib, bolasini beshikka beladi, so'ng uni uxlatib, ustini yopib qo'ydi-da, sekin hovliga chiqdi va To'rlilarnikiga qarab ketdi.

* * *

Kuz kirib, kechalar ancha sovuq bo'lib qolgan, To'rli bilan xotini o'choqqa olov yoqib chaq-chaqlashib o'tirar edi. To'rli uxlab qolgan bolalariga qarab:

— Akang qarag'ayning o'g'li ajoyib-da, — deb kulib qo'ydi. — Ko'rpaning teshigidan boshini chiqarib yotib uxlab qolibdi-ya!

— Ko'rpa bo'lmay o'lsin, hamma yog'i ilma-teshik, — dedi Qurbonjamol. — Shunga bir bo'zmi, chitmi olib kelib bersangiz, boshqatdan astar-avra qilib qavib chiqardim. To'rli xotiniga tegishgisi kelganda uni "kelinjon" deb atar edi:

— E, kelinjon, bo'z topsam, o'zimga to'n qilib kiyar edim, chit topsam, senga ko'ylaklik bo'lar edi.

— Ko'rpa-chi?

— Bizdan ortsa, keyin ko'rpa qilasan.

— Qilichini qayrab qish kelyapti. Sovuq tushganda ko'rpasiz qanday yotishingizni ko'ramiz hali!

— Sovuq tushmoq tugul hamma yoq muzlab ketsa ham, sen yonimda yotsang bo'ldi.

— Ho, men ko'rpa o'rniga o'tarmishmanmi?

— E, sen ko'rpadan ham issiqsan, kelinjon!

To'rli bu gapni shunday kulgili qilib aytdiki, xotini boshini orqaga tashlab, qah-qah urib kuldi.

Shu payt eshik ochildi-yu, allanarsadan qattiq qo'rqqan kabi rangi oqargan Uzuk kirib keldi. To'rli va Qurbonjamol qashshoq bo'lsalar ham, o'zlari beg'am, betashvish o'tirganlarini ko'rib, Uzukning yuragi ezildi. Qurbonjamol uni quvonib qarshi oldi-da, to'rdan joy ko'rsatdi.

— Yo'q, men hozir ketaman, — deb, Uzuk eshikni zichlab yopdi.

— Tinchlikmi, Uzukjamol? — so'radi To'rli uning yuziga qarab.

— Bu dargohda tinchlik nima qilsin, To'rli og'a! — dedi Uzuk armon to'la tovush bilan. — Bular hamisha mening qonimga tashna edi. Endi bular mening qonim bilan to'ymaydiganga o'xshaydi. Qurbonjamol opa, men sizni bezovta qilgim kelmaydi. Lekin men bir shum xabar eshitdim. Shuni ikkovlaringizga aytmasdan ilojim yo'q. To'rli og'a bilan birga ehtiyotlaringizni qilingizlar.

Uzuk bugun oq o'tovning orqasida turib eshitgan gaplarini erxotinga aytib berdi-da:

— Men taqdirimda borini ko'raman, — dedi. — To'rli og'a, siz iloji bo'lsa, bu yerdan keting!

Qurbonjamolning nazarida, Bekmurodboylar hozir ularning uyiga bostirib kiradigandek tuyuldi. U qalt-qalt titrab, eriga:

— Tezroq yashirining! — dedi.

To'rlini hammadan ham ortiq dahshatga keltirayotgan narsa uni "Uzuk bilan o'ynashadi" deb ayblab o'ldirmoqchi bo'lganlari edi. Uzukni u tug'ishgan singlisiday muqaddas deb bilar, narigilarning razil gumonlari unga benihoya jirkanch tuyular edi.

— Men bilaman, bu iflos gap Tojsultondan chiqqan! — dedi To'rli so'nggi so'zlarni nafrat bilan tilga olib. — Alamzada bo'lib yurgan edi. Menga bir tahdid ham qilgan edi... Kerak bo'lsa, men bu xotinning o'zi rasvoligini isbot qilib beraman!

— To'rli og'a, ular bizdan isbot so'raydigan ahvolda emas. Ularning bittasi alamzada bo'lsa ham gapingizga quloq solar edi. Hozir hammasi alamzada. Qizi o'lgandan beri Omonsulton ham menga dushman bo'lib qolgan. Berdidan o'q yegandan keyin Bekmurodboy ham alamiga chiday olmay, ilgarigi so'zidan qaytib o'tiribdi.

— Meni bolalar bilan birga onamning oldiga olib borib tashlang-u, o'zingiz biror yoqqa keting! — dedi To'rlining xotini.

To'rli o'ylanib qoldi: bir ko'ngli xotini aytganday qilishga moyil edi. Ammo ko'nglining boshqa bir chetida bunga qarshi achchiq bir e'tiroz qo'zg'aldi:

— Agar men hozir qochsam, ularning gumonini isbot qilgan bo'laman, Uzukjamol! Olloquli Valiboyning otini o'g'irlamagan bo'lsa ham, tuhmatdan qo'rqib qochdi. Keyin bular "aybi bo'yniga tushdi, bo'lmasa qocharmidi?" deb hammani ishontirdi.

— Bunisi mening xayolimga kelmagan ekan, — dedi Uzuk.

Agar To'rli qochsa, Uzuk elning ko'zi oldida chindan ham yomonotliq bo'lib qolishini tushundi-yu, ko'ziga yosh olib dedi:

— To'rli og'a, o'shanda siz meni daryodan olib chiqqaningiz uchun baloga qolyapsiz. O'shanda o'lib keta qolsam ham durust

bo'lar ekan, boshimga bunday qunlar tushmas edi! O'gay qismatimdan bira to'la qutular edim! Siz ham tinch bo'lar edingiz!

To'rli qovog'ini solib o'rnidan turdi-yu, shiftga qistirib qo'yilgan pichog'ini oldi. Qora qindan pichoqning gulband sopi chiqib turar edi.

— Sen shuncha kulfatni ko'rib, hali ham pishimabsan! — dedi To'rli Uzukning so'nggi gaplaridan norozi bo'lib. — Ular "o'ldiramiz" degan zahoti sen darrov o'limni bo'yningga olaverasanmi?

— Yo'q, To'rli og'a, men endi ularning qilichiga bo'ynimni egib turmoqchi emasman! O'lsam ham birortasini o'ldirib o'laman!

Uzuk shunday deb, kamzulining astari orasiga bilintirmay solib yurgan sadaf sopli bejirim javhar pichoqni olib ko'rsatdi:

— Men buni eski bir sandiqdan topib oldim. Boylarning bu pichog'i o'zlariga sanchilsa, ajab emas!

— Mana bu dadilliging odamning ko'nglini ko'taradi, singlim.

— Men yig'lagan bo'lsam, o'zim uchun emas, Qurbonjamol opamga, sizga, bolalaringizga ichim achiganidan yig'ladim. Kambag'al bo'lsalaringiz ham tinchgina o'tirgan edilaringiz...

To'rli yirtiq ko'rpa ichida, beg'am, betashvish uxlab yotgan bolalariga ko'z tashlab qo'ydi. Uzuk kelmasdan oldin xotini bilan chaq-chaqlashib, kulishib o'tirgani esiga tushdi-yu, bu hammasi endi qaytib kelmaydigan bir o'tmishga aylanganini o'ylab, qalbini vahima bosdi.

— Nima bo'lganda ham ayb bizda emas, — dedi To'rli. — Buni bilib qolganing yaxshi bo'ldi, Uzukjamol. Endi ehtiyot bo'lib, qurolni qo'ldan qo'ymay yuramiz.

— Sizning pichog'ingiz bo'lsa, ularning miltig'i bor, to'pponchasi bor! — dedi Qurbonjamol.— Boyning odami ko'p. Qaysi biriga bas kelasizlar? Undan ko'ra siz tezroq Uzukning ukasiga xabar bering.

To'rli Uzukka qaradi:

— Ukangni topib bo'larmikan? Qoraqumda qochib yuribdi, deyishadi.

— To'rli og'a, men hech kimga aytolmaydigan bir sirni sizga aytaman, — dedi Uzuk shivirlab. — Siz Obodonning eri Qilichlini toping. Berdi bilan mening ukamni Qilichli sizga topib beradi. To'rli pichoqni to'nining tagidan beliga taqdi-da, o'rnidan turdi:

— Bo'lmasa, men hozir Qilichlining oldiga boraman.

— Shunday qorong'ida-ya? — qo'rqib so'radi Qurbonjamol.

— Sen muncha qo'rqoq bo'lma, kelinjon! — dedi To'rli unga. — Bular bizni o'ldirishga qasd qilgan bo'lsa ham, aytganlarini darrov qilishmaydi. Ular Uzuk ikkovimizni bir joydan tutishga harakat qiladi. Endi biz Uzuk bilan hech joyda yakkama-yakka uchrashmaymiz. Kerakli gapni Uzuk bilan sen gaplashasan, kelinjon. Xo'pmi?

— Xo'p, — dedi Qurbonjamol erining daldasi bilan endi sal titrog'i bosilib.

— Uzuk, chaqalog'ing o'zingning uyingdami?

— Qaynonam olib, kasal qilib berdi. Hozir men turadigan xonada uxlab yotibdi.

— Bo'lmasa, sen bolani bag'ringdan ajratma, singlim. U sening suyangan tog'ing. Bu go'dak ularga juda kerak. Qo'nish boyvuchcha bolangni tortib olib, o'ziniki qilsa, ana unda bir balo bo'lishi mumkin.

— Men uni yolg'iz tashlab kelgan edim, olib ketib qolgan bo'lishmasin! — deb, Uzuk endi boladan xavotirlanib shosha-pisha chiqib ketdi. U uyiga yetib olgandan keyin To'rli ham eshikdan chiqdi-da, hovlidan shoshilmay o'ta boshladi. To'rli Uzuk turadigan xonaning ro'parasidan o'tayotganda bolaning qisqa-qisqa yig'laganini va uni ovutayotgan Uzukning mayin tovushini eshitdi-yu, qalbiga xiyol iliqlik yugurdi.

## QO'ZG'ALGAN YURAK

Kecha qorong'i. Shamol uvillaydi. Yerdan ko'tarilgan to'zon ko'z ochirgani qo'ymaydi. Uylarning ko'pchiligi chiroqsiz. To'rli turtina-turtina qishloqdan chiqdi. Ko'zi qorong'ilikka o'rgangandan

keyin Egriguzar deb ataladigan qo'shni qishloqning yo'lini bir amallab topdi. To'g'on bo'yidagi to'qayda chiyabo'rilar uvillar edi. To'rli yo'l chetida o'sgan tolning bir shoxini sindirib oldi-da, pichog'i bilan u yoq-bu yog'ini qirqib, tayoq yasadi. U Qilichlining uyiga borgan bo'lmasa ham, qazuvda ishlagan paytlarida u yigitning o'zini ko'p ko'rgan edi. Dehqonlar to'g'on bo'yida turadigan Sergeyning uyiga har kecha borishar, o'sha yerda Qilichli Maxtumqulining she'rlaridan o'qib berganini maqtab kelishar edi. Ko'p odam boradigan bu joyga To'rlining ham borgisi kelar ediyu, ammo xo'jayinidan qo'rqardi. Bekmurodboy xizmatkorlariga, "g'ayridin bilan bordi-keldi qilsang, javobingni beraman!" deb qo'ygan edi. Bola-chaqasi ko'p To'rli bu ochlik, qahatchilik paytida ishidan ajrab qolishni istamas edi.

Mana endi uning faqat ish joyidan emas, jonidan ham ajrab qolishi hech gap emasga o'xshaydi. Hozir Sergeyning g'ayridinligi ham, Qilichlining boylarga dushmanligi ham To'rlining ko'ziga boshqacha ko'rinadi. U ariqqa suv ochiladigan kuni Qilichli kambag'allarni qanchalik dadil himoya qilganini eslaydi. Keyin Berdining Bekmurodboy bilan yuzma-yuz turib otishgani ko'z oldida gavdalanadi. "Men begunoh bo'lsam ham, Bekmurodboy mening jonimga qasd qilibdimi, endi meni faqat mana shu yigitlar qutqarishi mumkin!" deydi To'rli o'ziga o'zi. Sergeyning uyi belgili joyda bo'lgani uchun To'rli avval uning eshigini taqillatdi. Sergey kitob o'qib o'tirgan edi.

Eshikni ochib, devqomat bir turkman yigitini ko'rdi-yu, uni taniyolmay:

— Sizga kim kerak? — dedi.

— Menga Qilichli kerak edi. Uyini bilmayman. Zaril gapim bor. Qo'shni qishloqdan keldim.

— O'zingiz kim bo'lasiz? — dedi Sergey notanish yigitning qo'lidagi tayog'iga qarab.

To'rli "Bekmurodboyning qaroliman" deyishga negadir botinolmadi.

— Men... meni Qilichli biladi. Men hech kimga yomonlik qilmoqchi emasman.

— Yuring, mayli, men ko‘rsatib qo‘yaman.

Sergey To‘rlini Qilichlining darvozasi oldigacha olib bordi-da, ularning o‘zaro gaplariga aralashgisi kelmay, orqasiga qaytib ketdi.

Qilichli uxlab qolgan ekan, itlarining qattiq hurganidan uyg‘onib ketdi. Ko‘zini uqalab tashqariga chiqdi-da, To‘rlini avval tanimadi. To‘rli uning qulog‘iga og‘zini yaqinlashtirib:

— Men Bekmurodboyning qaroli To‘rliman, ichkariga kiraylik, gapim bor, — dedi.

Bu orada Obodon ham uyg‘ongan edi. Berigi xonada chiroq yondi. Ichma-ich ketgan xonalarning eng chetkisida Berdi, Turdi va Olloquli uchovi uxlab yotgan edi. Ularning otlari bostirmada bog‘log‘liq turardi. Bemahalda kelgan odamning shovuridan Berdi ham uyg‘onib ketdi-yu, sekin berigi xonaning eshigi oldiga keldi. Qilichli To‘rlini o‘tirishga taklif qildi. Odatdagi fotiha o‘qish va so‘rashishlardan keyin To‘rli ovozini pasaytirib:

— Qilichli og‘a, mening bu yerga kelganimni hech kim bilmasin, — dedi.

— Nima gap o‘zi?

— Men hozir aytaman. Xo‘jayinim yarador bo‘lganini bilasiz. Undan oldin qizi o‘lganidan xabaringiz bor. Endi hammasining alamini bizdan olmoqchi.

To‘rli Uzukdan eshitgan gaplarini va o‘z taxminlarini bir-bir aytib berdi.

— Meni bu yerga Uzuk yubordi. Berdiga tez xabar bergin, dedi. Boyning odami ko‘p. Bizning sizlardan boshqa himoyachimiz yo‘q. Uzuk menga “siz qoching!” dedi. Lekin men unamadim.

— Nega unamadingiz?

— Boylar qasdlashsa, xotinimning nomusiga tegishdan ham qaytmaydi. Besh bolam bor. Ularni qanday tashlab qochaman? Agar qochsam, ularning tuhmati tasdiqlanadi. Uzuk ham yomonotliq bo‘ladi. Uzuk — mening qiyomatlik singlim. Men o‘zimni qutqaraman desam, unga ham, xotin, bola-chaqamga ham yomonlik qilgan bo‘laman.

To‘rlining hamma gapini parda ortida o‘tirib eshitgan Berdi birdan pardani ochib, To‘rliga qarab yurdi:

— To'rli og'a, mard yigit ekansiz, qo'lingizni bering! Men Berdiman!

To'rli sakrab o'rnidan turdi va Berdining qo'lini olib:

— Xayriyat, siz shu yerda ekansiz! — dedi. — Bizning butun umidimiz sizdan!

— Men hamma gapingizni eshitdim, To'rli og'a. Siz ilgari ham Uzukni bir o'limdan olib qolgan ekansiz Bu yaxshiliklaringizni men umrbod unutmayman. Narigi bo'rilarning tuhmatini men ilgari ham eshitgan edim. Bu — hammasi uydirma gap. Uzukning sofligiga menda zarracha ham shubha yo'q.

— Rahmat, uka!

— Endi hamma gap sizni ham, Uzukni ham o'sha jahannamdan sog'-salomat olib chiqib ketish-da. Uzukning yosh bolasi bor...

— Qonxo'rlar yosh bolalik ayolni o'ldiramiz deyishga qanday tillari boradi-ya! — dedi Qilichli dahshatga kelib.

— Faqat og'izda aytsa mayli edi, bular aytgan ishlarini qilishdan ham qaytmaydi, — dedi To'rli.

Berdi qo'llarini musht qilib:

— Iloji bo'lsa, men hozir bostirib borib, Uzukni bolasi bilan olib chiqib ketardim! — dedi. — Lekin men yolg'iz emasman. Do'stlarim bor, ular bilan maslahatlashamiz. To'rli og'a, siz Uzukka borib ayting, umidsizlanmasin. O'zingiz ham mahkam turing. Biz yo sizlarga qo'shilib o'lamiz, yo Uzuk bilan sizni qutqaramiz!

— Hamma gapingizni borib aytaman.

— Yana ayting... — Berdi Uzuk bilan belgili joyda ko'rishishni istardi. U To'rliga ishonsa ham, ammo mozor yo'lidagi joyni sir tutgisi keldi: — Uzukka ayting. Men uni ko'rishim kerak. Boshqa hech narsa demang. "Ko'rishmoqchi ekan" desangiz bo'ldi. Ungacha men do'stlarim bilan maslahatlashaman. Aniq bir qarorga kelamiz.

— Xo'p, Uzukka buni ham aytamiz. Endi menga javob beringlar. Qorong'ida hech kimga bildirmay uyimga yetib olay.

— Mayli, boring. To'rli og'a, mabodo Uzuk bolasini olib qochsa, siz yordam berasizmi?

— Yosh bola bilan qanday qochadi? Ular hammasi poylab yuribdi, bilib qoladi. Bu juda xavfli.

— To'g'ri, boshqa yo'lini o'ylash kerak. Sizga zarur gapimiz bo'lsa, Obodon borib aytadi. Xayr!

To'rli ketgandan keyin Berdi borib Turdi bilan Olloqulini uyg'otdi. Bu gaplarni eshitib Qilichlining ham uyqusi qochib ketgan edi. Keyin to'rtovlari Sergeyning oldiga maslahatga bordilar.

Berdi kechasi tavakkal qilib, Bekmurodboylarnikiga bostirib borishni istardi. Ammo Sergey behuda qon to'kilishi mumkinligini o'ylab, bu yo'lni ma'qul ko'rmadi.

— Hali biz qurolli qo'zg'olonga tayyor emasmiz, — dedi u. — Boylarning hokimiyatini yer bilan yakson qiladigan qo'zg'olon butun mamlakatda birdan ko'tarilishi kerak. Markazdan ko'rsatma kelishi kerak.

— Ko'rsatma kelguncha Uzuk bilan To'rlini o'ldirib qo'yishsachi? — dedi Berdi bo'g'ilib. — Biz indamay qarab o'tirishimiz kerakmi?

— Men "qapab o'tiraylik" deyayotganim yo'q. Uzukni deb boshqa odamlarni qurbon berishga qarshiman, xolos. Berdi, sen Uzuk bilan uchrasha olasanmi, yo'qmi?

— Erta emas, indin chorshanba. Indin uchrashishim mumkin. Agar ungacha tirik qolsa...

— Umid qilamizki, bolasining kasalligi uning qotillarini uch-to'rt kun to'xtatib turadi. Sen uchrashsang, Uzukka tushuntir. Bir amallab qochib chiqsin. Agar bolasini olib qocholmasa, hozircha o'zi qochsin. Bunga uni sendan boshqa hech kim ko'ndirolmaydi.

— To'rli nima bo'ladi?

— To'rliga Obodon orqali xabar beramiz. Uzuk qochgan kuni u ham xotin, bola-chaqasini qaynonasinikiga yuboradi-yu, o'zi qochib bu yoqqa keladi. Ular o'sha joydan qutulib chiqsa, biz ularni yashirishimiz uncha qiyin bo'lmaydi. Ko'pchilik shu fikrni ma'qul ko'rgandan keyin, Berdi ham tishini tishiga qo'yib, chorshanba kunini kutishga rozi bo'ldi.

## DO'STDAN KO'P DUSHMAN

Uzuk kechasi bilan uxlolmay chiqdi. Bolasi yig'lasa, goh uni yotgan joyidan qo'l cho'zib tebratar, goh turib emizardi. Eshik atrofida "shitir" etgan tovush eshitilsa, qonxo'rlar bostirib kelayotganday bo'lar, Uzuk yostig'i tagidagi javhar pichoqni qo'liga olib, tashqariga quloq solardi. U eshikni ichidan zanjirlab olgan edi. Bir vaqt tashqaridan kimdir eshikni qattiq itarganday "sharaq" etib ketdi. Uzuk, qo'lidagi pichoqni mahkam qisimlab, o'rnidan sapchib turdi-da, uyning qorong'iroq burchagiga borib yashirindi. Ammo eshik taqillamadi. Uzuk tashqariga quloq solib turib, shamol chiyillayotganini eshitdi. Eshikni ham shamol itarganini fahmlab, sekin joyiga kelib yotdi. Yotgandan keyin anchagacha titrog'i bosilmadi. Ertalab tong yorishganda ko'zi uyquga ketdi-yu, ammo tushida qandaydir itlarga talanib, o'g'li ilonlarning orasida qolib ketganini ko'rib, dahshatga kelib, bosinqirab uyg'ondi. Kechasi To'rli Qilichlining oldidan juda kech qaytgan edi. Shuning uchun xotini uning nima xabar olib kelganini Uzukka kechasi aytolmagan edi. Ertalab Uzuk sigir sog'ish uchun og'ilxonaga kirdi.

Qurbonjamol buzoqni no'xtasidan ushlab, sigirni iydirishda unga yordam bera boshladi. Bu ish davomida Qurbonjamol atrofiga ko'z tashlab, yaqin orada hech kim yo'qligiga ishonch hosil qildi-yu, keyin To'rli Berdining o'ziga qanday duch kelganini, u bilan nima deb gaplashganini shivirlab aytib berdi. Oxirida biroz o'zidan ham qo'shdi:

— Qo'rqmanglar, boylarni men qirib tashlayman, debdi.

Uzuk Berdining nomini eshitgan zahoti, kechasi bilan qalbini kemirib chiqqan vahima xayolidan uzoqlasha boshladi. U Bekmurodboyni qirib tashlash oson emasligini, Berdi haligacha yashirinib yurgani bejiz emasligini bilardi.

Shunday bo'lsa ham, xatardan Berdining xabar topgani Uzukka katta bir yengillik bera boshladi. Tog'day ulkan bu xatar qarshisida Uzuk endi yolg'iz emas, sevimli yigiti ham qo'lidan kelgan harakatini qiladi.

— Ha, aytmoqchi, — deb uning qulog'iga shivirladi Qurbonjamol. — Berdi seni bir ko'rmoqchi ekan. Qayerda ko'rishishini aytmabdi. "O'zi biladi" deganday qilibdi. Sigir sog'ayotgan Uzuk hayajonlanganidan sutini tizzalari orasidagi qovoqqa emas, etagiga sog'moqda edi. Keyin tizzasi issiq sutdan nam bo'lganini sezdi-yu, xatosini darhol to'g'riladi:

— Bugun chorshanbami? — so'radi u Qurbonjamoldan.

— Yo'q, jumaga hali uch kun bor, bugun seshanba.

Demak, Uzuk Berdi bilan ertaga belgili joyda ko'rishishi mumkin. Ishqilib, buni dushmanlari sezib qolishmasin-da. Sezib qolishsa, Berdi sog' qutulolmaydi.

Uzuk sigirni sog'ib bo'lib uyiga keldi. Qarasa, bolasi yo'q. Uni Omonmurod beshigi bilan Qo'nish boyvuchchaga olib borib bergan edi. Uzuk shosha-pisha uydan chiqib, oq o'tovga qarab intildi. Oq o'tovga yaqin borganda ichkarida bola yig'layotgani qulog'iga chalindi. Uzuk eshikka yaqinlashganda qarshisidan oq telpak va qizil shohi to'n kiygan Omonmurod chiqdi.

— Sen endi kirma bu uyga! — dedi u Uzukka nafrat bilan tikilib.

— Bo'lmasa, bolamni olib chiqib bering.

— Bolaga onam qaraydi.

— Men uni emizishim kerak. Bola kasal.

— Sen bolani kasal qilgansan!

— Nahot men...

— Gapni ko'paytirma! Bolani onam boqadi. Bor, ishingni qil!

Uzuk Omonmurodning qo'lidagi qamchisi asabiy titrayotganini ko'rib qoldi. Agar Uzuk yana bir og'iz gap qaytarsa, shu qamchi ishga tushishi, Omonmurod Uzukni charchagunicha savalashi muqarrar edi. Uzuk o'zini bosib, indamay orqasiga qaytdi.

Tamom!.. Bugun uning paymonasi to'lgan ekan! Bolani tortib olishdi. Endi uning jonini olgani kelishadi...

Uzuk uyga kirgan zahoti eshikni zanjirladi. Bu bilan ham ko'ngli to'lmay, eshikning orqasiga tamba qo'ydi. Kamzulining tagiga bekitib yurgan pichoqchasini qo'liga olib, yengining ichiga soldi. Shu ahvolda ancha vaqt qimirlamay o'tirdi. Ammo hech kim

kelmadi. Hovlida yurgan odamlarning o'zaro gapirishganlari, orachora kulganlari Uzukning qulog'iga kira boshladi. Hozir kunduzi ekani, jallodlar o'z niyatlarini amalga oshirish uchun odamlar uxlagan qorong'i tunni afzal ko'rishlari uning xayoliga endi keldi. "Hovlida, ko'pchilikning ko'zi oldida yumush qilib yursam yaxshi emasmi?" — dedi Uzuk o'ziga o'zi. U pichog'ini kamzulining astari ichiga — qinga o'xshatib uzun qilib tikilgan torgina cho'ntakka joylab oldi. So'ng eshikni ochib, tashqariga chiqdi.

Qurbonjamol tandirga o't yoqmoqda edi. Uzuk unga qo'shilib, xamir iyladi, non yopdi. Bu orada bolasini tortib olishganini Qurbonjamolga aytib berib, birpas yig'lab ham oldi.

— Sen buncha qo'rqma, To'rli og'ang somon tashish uchun dalaga tuya yetaklab ketdi, — deb shivirladi Qurbonjamol. — Iloji bo'lsa, kunduz birrov kelib ketib, kechasi dalada yotib qolmoqchi. To'rli og'ang dalada yursa, bular bu yerda senga tegmaydi. Tushundingmi?

Uzuk Bekmurodboyning niyati uni To'rli bilan birga tutib olish ekanini esladi-yu:

— Tushundim, — dedi.

Uzuk kuni bo'yi ro'zg'or ishlari bilan band bo'ldi. Uning ikki qulog'i oq o'tovda edi. Bola birpas jim yotib, keyin yana yig'lashga tushardi. Qo'nish boyvuchcha uni ovutolmaganidan keyin Omonsultonni yordamga chaqirdi. Omonsulton bolaga novvot solingan suyuqqina atala qilib berdi. Bola ataladan biroz edi-yu, sal o'tmay qaytarib tashladi va chirillab yig'lay boshladi.

Uzuk buni eshitgach, oq o'tovga qarab yugurdi. Eshikdan chopib kirar ekan:

— Voy, bolamni nima qildilaringiz? — deb o'kirib yig'lab yubordi.

Bolaning yuzlari ko'karib ketgan, nafasi qaytib, entikib-entikib yig'lardi. Buni ko'rib, Qo'nish boyvuchcha bilan Omonsulton ham qo'rqib ketishgan edi. Uzuk bolasini qo'liga olib bag'riga bosdi:

— Bo'ldi, bo'ldi!.. Allu-lu! Davlatmurodjon, bo'ldi!..

Bola Uzukning bag'rida ona sutining hidini sezdi shekilli, yig'isi asta-sekin bosildi.

— Emiz! — buyurdi Qo'nish boyvuchcha Uzukka. — Shu yerda o'tirib emiz! Bola kechasi men bilan yotadi! Omonsulton Uzukka qanchalik dushman bo'lmasin, murg'ak bolaga rahmi keldi.

— Chorining onasi, kechasi bu bola sizni ham uxlatmaydi, o'zi ham uxlamaydi! Ovqat yemayapti. Ichi buzilgan. Bunga hozir ona sutidan boshqa narsa berib bo'lmaydi.

— Bekmurodjon tayinlab ketgan edi-ku! — dedi Qo'nish boyvuchcha.

— Sababini aytasiz-da. Buguncha bolani onasiga bering. Bo'lmasa, go'dak xarob bo'ladi.

Qo'nish boyvuchcha kuni bilan bolani ovutolmay bezor bo'lgan edi, birdan Uzukka zug'um qilib:

— Obket! — dedi. — Ko'zimga ko'rinma, ilohim bolang onasiz qolsin, olib ket!

Uzuk bolasini ko'ksiga bosib, uyiga qaytar ekan, go'dakning yuziga yuzini qo'yib, "xaloskorim!" deb shivirladi. Qo'nish boyvuchchaning gapiga qaraganda, Bekmurodboy bolani ajratib olib, kechasi Uzukni o'ldirmoqchi bo'lgan. Bola bu ahvolda bo'lsa, ular hali qora niyatlarini amalga oshirolmaydi.

Uzuk shuni o'ylab, xiyol o'ziga keldi va kechasi biroz uxlab oldi. Ertasi kuni chorshanba edi. Uzuk nonushtadan keyin bolasini qaynonasining oldiga o'zi ko'tarib bordi. Tojsulton oq o'tovda qaynonasining oyog'ini uqalab o'tirgan ekan. Uzuk yerga qarab:

— Chorining onasi, nevarangiz kechasi ham yomon uxladi, — dedi. — Biz buni Hotamshayx avliyodan tilab olgan edik. Hali biror marta ham ziyoratga olib borganim yo'q. Bugun chorshanba ekan. Nevarangizni ziyoratga olib borsam devdim.

— Yosh go'dak ziyoratga borib nima qiladi? — shang'illadi Qo'nish boyvuchcha.

— Rost-da, katta bo'lsa borar, — deb Tojsulton darrov qaynonasiga bo'lishdi.

Uzuk agar qaynonasini ko'ndirsa, mozor yo'lida Berdi bilan uchrashib, unga o'g'lini ko'rsatmoqchi edi. Balki Berdi uni o'sha joydan o'g'li bilan birga qutqarib olib ketar edi. Biroq Uzukning bu umidi puchga chiqdi.

U yig'lamsirab:

— Bo'lmasa, men o'zim ziyoratga borib kelay, — dedi. — Bola betob, Hotamshayx avliyodan shifo so'rayman!

Ko'pni ko'rgan Qo'nish boyvuchcha Uzukning yurish-turishida, gapirishida zo'r bir bezovtalik alomati borligini payqadi. Bolasi betob bo'lganidan bezovtamikin? Yoki o'lim yaqinligini sezib qolib, qochishning yo'lini izlayotganmikin? Bir marta Axalga qochgan bu cho'ponning qizidan har balo chiqishi mumkin!

Qo'nish boyvuchcha Tojsultonga qaradi:

— Sen ham bu bilan birga ziyoratga borib kelsang-chi? Qurboni bo'lay Hotamshayx avliyoning. Shu cho'ponning qiziga o'g'il berdi. Astoydil tilasang, senga ham beradi.

Tojsulton Uzukning yuziga kinoyali nazar tashlab:

— Birga boraymi? — dedi. — O'g'il tilab olishning yo'lini menga ham o'rgatasanmi?

— Men hech qanaqa yo'lini bilmayman. Istamasangiz bormang. Men qo'shni xotinlar bilan boraman.

Uzuk Tojsulton bilan birga borishni astoydil istamas edi. Qo'nish boyvuchcha buyruq ohangida:

— Yo'q, ikkoving birga borasan! — dedi. — Bor, bolangni emizib, beshigi bilan birga olib kelib ber!

Uzuk chiqib ketgandan keyin Qo'nish boyvuchcha Tojsultonga sirdoshlarcha shivirladi:

— Bu juvon o'lgurning avzoyi bejo. Sen birga borib, ko'z-quloq bo'lib yurgin.

Qo'nish boyvuchchaning kelinlariga bunday iliq gapirishi juda kam bo'lar edi. Tojsulton yaqin kelajakda Omonmurodning uyida yolg'iz beka bo'lib qolishi mumkinligini sezib suyundi. Buni u ko'pdan beri orzu qiladi. Farzand ko'rmasa ko'rmas — mana bu go'dakni Qo'nish boyvuchcha bilan birga katta qilib olsa-yu, "men onangman" deb ishontirsa yomon bo'ladimi?

Tojsultonning xayolidan shu narsalar o'tdi-yu, bugun Uzukka astoydil qo'riqchilik qilishga bel bog'ladi. Biri-birini yomon ko'radigan ikki kundosh ancha joygacha jim bordilar. Keyin Tojsulton:

— O'g'ilni qanday tilab olgansan, yo'lini o'rgat menga! — deb yana Uzukning g'ashiga tega boshladi. — Eringni hech kim bilmasa ham, men bilaman, pushti kuyib ketgan. O'g'ling eringga o'xshamaydi.

— Lekin... siz... siz xuddi eringizga o'xshaysiz, — dedi Uzuk. — Ikkovlaringning tuproqlaring bir joydan olingan.

— Mening ham pushtim kuyib ketgan demoqchimisan?

— Bilmasam. Baxilning bog'i ko'karmas emish-ku.

— O'zing baxilsan! Sen buzuqsan!.. Sen...

Uzuk kundoshining zaharli jirkanch gaplarini eshitmaslik uchun qadamini tezlatdi. So'qmoq yulg'unzor orasidan o'tib, tanish to'rang'ilar orasiga kirdi. Uzuk yuragini hovuchlab, to'g'riga qaradi-yu chetki daraxtning shoxida hilpirab turgan oq matoni ko'rdi. Berdining o'zi ko'rinmasa ham, uning chakalakzor ichidan qarab turganini Uzuk butun vujudi bilan his qildi va qadamini beixtiyor sekinlatdi.

Orqadan kelayotgan Tojsulton unga yetib oldi "Ilohim bu qora tikan Berdini ko'rmasin-da!" — dedi Uzuk ich-ichidan Xudoga iltijo qilib. — Ilohim Berdi bunga o'zini tanitib qo'ymasin-da!"

Uzuk Tojsultondan eshitgan jirkanch gaplarini unutib, unga yaxshi gapirishga ham tayyor edi. Ishqilib, bu xotin bir pasgina uni shu yerda yolg'iz tashlab ketsa, bo'ldi.

— Siz boravering! — dedi Uzuk Tojsultonga iltimoskorona ko'z tashlab. — Mening mana shu yerda ishim bor... Ketingizdan yetib boraman.

Uzukning to'satdan muloyimlashib qolgani bejiz emasligini sezgan Tojsulton atrofiga alangladi, ammo hech kimni ko'rmadi.

— Nima ishing bor? Ayt! — dedi u Uzukka o'qraygan ko'zlarini tikib.

— Siz boravering dedim-ku. Men hozir yetib olaman.

— Birga keldikmi, birga boramiz. Qaynonang tayinlagan. Ishing bo'lsa, kirib chiq, men shu yerda kutib turaman.

Tojsulton ovozini pasaytirmay gapirayotgani uchun chakalakzor ichida pusib o'tirgan Berdiga uning hamma so'zlari eshitildi. Uzuk-

ka qaynonasi ataylab odam qo'shib yuborganini Berdi ham tushundi-yu, g'azabidan qaltirab ketdi.

Uzuk boshqa iloj topolmaganidan keyin so'qmoqdan chetroqqa chiqib, go'yo osmonga qarab gapirdi:

— Ey, Tangrim! Qanday qilay, ilojim yo'q! Do'stdan dushman ko'p!..

Chakalakzor ichida o'tirgan Berdi uning so'zlarini aniq eshitdi. Ammo u Uzukning yonidagi ayol atrofga sinchiklab qarayotganini ko'rdi-yu, o'tirgan joyida qimir etmadi. Agar Berdi o'zining shu yerdaligini sezdirib qo'ysa, bu xotin dod solib odam to'playdi. Bekmurodboylar bir pasda to'qayni o'rab olishadi. Berdi-ku, bir o'limni allaqachon bo'yniga olib qo'ygan. Lekin u yosh bolalik Uzukning hayotini xavf ostida qoldirishdan qo'rqdi. Shuning uchun Berdi nafasini ichiga olib, Tojsultonga sharpasini sezdirmadi. Uzuk har gal Berdi bilan uchrashadigan tig'iz to'rang'ilar tomonga vidolashganga o'xshab termilib qaradi-yu, Tojsulton bilan birga mozor tomonga o'tib ketdi.

"Ehtimol, qaytishida bir ilojini topar?" deb o'yladi Berdi va yumshoq qum ustiga yonboshlab, Uzukning qaytishini kutdi. Biroq Tojsulton ziyorat paytida ham, mozordan qaytishda ham Uzukdan hech ajralmadi. To'rang'izorga yaqinlashganlarida aksiga olib yana ikkita xotin ularga qo'shildi. Uzuk bir to'da xotinlarning orasida kelayotganini ko'rib, Berdi bugun u bilan uchrashishdan umidini uzdi. Uzuk yosh to'la ko'zlari bilan Berdi o'tirgan tomonga qaray-qaray, mung'ayib o'tib ketdi.

"Ehtimol, endi hech ham uchrashmasmiz?" — degan o'ydan Berdining butun vujudi qaqshab ketdi. U Uzukning ketidan yugurgisi kelib o'rnidan turdi. Ammo to'qayning narigi chetida uni kutib o'tirgan do'stlari esiga tushdi-yu, yana o'zini bosdi.

## VAYRON BO'LGAN YURT

Kuzgi xazonlarni quvib yurgan sovuq shamol och-yalang'och bolachalarning badaniga tikanday sanchilar edi. Xudoyberdi og'aning yetim qolgan uch bolasi bilan Olloqulining xotini Jay-

ron tushdan keyin to‘g‘on bo‘yida paydo bo‘ldilar. Xudoyberdi og‘a o‘lgandan keyin uning xotini va bolalari daladan chiqqan ozgina don bilan bir qancha vaqt tirikchilik tebratishdi. Garmsel urib ketgan, mollar payhon qilib, qushlar yeb barakasini uchirgan bu don ko‘pga bormay tamom bo‘ldi. Bolachalar erta-yu kech non deb chirqillashar edi. Xudoyberdi og‘aning xotini Bekmurodboyning oldiga qarz so‘rab bordi. Ammo boy qarz bermadi-yu:

— Yerlaringni sot, — deb maslahat berdi. Boshqa iloj topolmagan ayol eridan qolgan bir parcha yerni Bekmurodboyga ikki pud unga sotdi. Bu ham ko‘p o‘tmay tamom bo‘ldi. Bechora ona o‘z nasibasini bolalariga yedirib, darmondan ketib qolgan edi. Kuzning o‘rtalarida ochlikdan tinkasi qurib yiqildi va bir necha kun shishib yotib, oxiri dunyodan ko‘z yumdi.

Ota-onasiz qolgan uch bolaning eng kattasi o‘n uch yoshli qizcha edi. U ikkita ukachasini yetaklab, qo‘shnilarnikiga chiqdi. Ammo qo‘shnilar ham bir burda nonga zor bo‘lib o‘tirgan kambag‘al odamlar edi. Ular o‘zaro kengashib, Xudoyberdi og‘adan qolgan uy-joyni bolalariga sotib yedirishga qaror berdilar. Hozir yer-suv va hovli-joyni faqat beli baquvvat boylar olishi mumkin edi. Bekmurodboy burnini jiyirib:

— Menga Xudoyberdining uyi nimaga kerak? — derdi. — Buzib yog‘ochini olishim mumkin. Agar yog‘ochi chirib ketmagan bo‘lsa...

— Yog‘ochlari yangi, borib ko‘ring. Nima qilsangiz ham ixtiyor o‘zingizda. Ishqilib, mana shu bolaginalar ochdan o‘lmasin. Bekmurodboy Xudoyberdi og‘aning hovli-joyini borib ko‘rdi-yu, bir xalta unga baholab oldi. Oradan ko‘p o‘tmay, bu un ham tamom bo‘ldi. Boyning odamlari esa:

— Biz uyni buzib, yog‘ochini olib ketamiz! — deb, uch go‘dakni sovuq kuz kunida ko‘chaga haydab chiqarishdi. Ko‘chada tentirab yurgan bolalarga kimdir:

— Mozorga boringlar! — dedi. — Enaqutining qo‘lida amakilaringning xotini Jayron bor. O‘shandan yordam so‘ranglar.

Xudoyberdi og‘aning katta qizi Mayram Jayronni yaxshi bilar edi. Ukalarining birini ko‘tarib, birini yetaklab, Hotamshayx avliyo

mozoriga bordi. Jayron ularni uyga olib kirib non berayotgan edi, Enaquti ko'rib qolib, dod soldi:

— O'zing mening nasibamga sherik bo'lib o'tirganing ozmidi? Endi qayoqdagi yetimlarni boshlab kelibsan! Hozir nima ko'p, och-yalang'och bola ko'p! Men bularni boqib, o'zim ochdan o'laymi?

— Eshon oyim, go'daklarga rahmingiz kelmaydimi? — dedi Jayron.

— Xudoning rahmi kelmaganlarga mening rahmim kelmaydi! Sen o'zing ham mening boshimga bitgan balo bo'lding! Ering na qalin to'laydi, na xotinim yesin deb, biror qop un olib keladi!

— Ortiqchalik qilayotgan bo'lsam, ketaman! — deb Jayron kiyimlarini kiya boshladi.

— Ket! To'rt tomoning qibla! Bitta nonxo'r kamroq bo'ladi! Ketaver!

Enaquti Qovoqshayxga tekkandan beri Jayron bu dargohda juda qiynalib yurgan edi.

— Och qornim, tinch qulog'im, — dedi u va kiyim-kechagini ro'moliga tugib qo'liga oldi-da, bolalarni ergashtirib, mozordan chiqib ketdi.

Jayron endi Olloqulini topishi kerak edi. U to'g'on boshida turadigan Qilichlini esladi-yu, bolalarni o'sha yoqqa boshlab ketdi. Olloquli to'g'onning berirog'idagi qamishzor orasida Berdi bilan o'zining otini qo'riqlab o'tirar edi. Uzukni ko'rishga ketgan Berdi daryo bo'yi bilan yurib kelib, mana shu yerdan chiqishi kerak edi. Berdini kuta-kuta zerikkan Olloquli qamishlar orasidan pusib borib, to'g'onga yaqinlashdi-yu, yo'ldan o'tayotganlarni kuzata boshladi. Birdan u yupun bolachalarni ergashtirib kelayotgan yosh juvonga tikilib turib, Jayronni tanidi. Har qanday ehtiyotni unutib, yo'lga chopib chiqdi:

— Jayronim! Senmisan?

— Olloquli og'a!

Olloquli yuzlari so'lg'in, madorsiz bolachalarni zo'rg'a tanidi:

— Iye, mana bu Xolmurod-ku? Sen Davlatmurodmisan?.. Muncha ozib ketdilaring, Mayram?.. Bilaman... Hammasini eshitdim. Qani, bu yoqqa yuringlar. Olloquli ikki bolani ikki qo'liga

ko'tarib, Jayron bilan Mayramni otlari bog'loqliq turgan joyga boshlab ketdi. Yo'l-yo'lakay Jayron unga bolachalarning og'ir ahvolini-yu o'zining Enaquti bilan qanday urishib chiqib kelganini aytib berdi.

Xudoyberdi og'aning xotini ham o'lgani, uyi vayron bo'lgani Olloqulini har qancha ma'yuslantirsa ham, ammo ko'pdan beri sog'inib yurgan xotinining o'z oyog'i bilan kelib qolgani uning ruhini ko'tarmoqda edi:

— Endi u qishloqqa ham borma, Enaqutining oldiga ham qaytma, Jayron!

— Qayerda turamiz? Bu bolalar nima bo'ladi?

— Mening do'stlarim bor, maslahatlashamiz. Turdining onasi bir uyda yolg'iz o'zi turadi. Ehtimol, o'sha kishining oldiga borib turarsan...

Bir payt daryo tomonda qamishlar shildiradi. Olloquli o'girilib qarab, Berdining oq telpagini tanidi. Berdi begona odam bor deb o'ylab, otlarning oldiga kelmay turgan edi. Olloquli unga qo'l sermab:

— Kelaver, bular hammasi o'zimizning odamlar, — Uzuk bilan uchrasholmagani uchun ko'ngli cho'kib, ta'bi nihoyatda tirriq bo'lib qaytgan Berdi Olloqulining quvonchli yuziga qarab hayron bo'ldi. Olloquli unga bir chetda iymanib turgan ko'hlikkina juvonning kimligini va bolalarning bu yoqqa kelish sabablarini aytib berdi. Berdi Jayron bilan so'rashar ekan, ichida:

"Bu dunyo o'zi g'alati, — deb qo'ydi. — Men shuncha harakat bilan, bitta Uzukni qutqarolmayman. Mana bu bolachalar "bizni qutqaring!" — deb o'z oyoqlari bilan kelibdi. Olloquli doim xotinini armon bilan eslar edi, endi xotini ham yonida. Birimizga nasib bo'lmagan quvonch boshqamizga nasib bo'libdi. Zolim falak!.. Lekin... mayli... Bular ham menga o'xshagan odam! Faqat Uzuk qandoq qilarkin? Yirtqichlar uni bugun kechasi o'ldirsalar-a! Yo'q, biron chorasini ko'rishim kerak!"

— Uzuk qalay ekan, Berdi? — so'radi Olloquli. — Gaplasholdingmi?

— Yo'q!.. Qani, yuringlar bo'lmasa.

Ular g'ira-shira qorong'i tushganda Sergeylarnikiga kirib bordilar. Bu yerda Qilichli, Turdi va Sergey uchalovi Berdilarni kutib o'tirishgan edi.

* * *

Hammalari maslahatlashib, Jayron bilan bolalarning birini Turdilarning uyiga yuborishdi. Mayramni olti yashar ukachasi bilan Qilichli o'z uyiga joyladi.

Berdi bu gaplarga aralashmas, iztirobini bosolmay, goh tashqariga chiqar, goh ichkariga kirardi. Oxiri u Sergey bilan Qilichliga ro'para bo'lib:

— Do'stlar, menga javob beringlar, — dedi. — Shu bugun kechasi men Uzuk bilan birga yo u yoqlik bo'laman, yo bu yoqlik!

— Men sen bilan birga boraman, Berdi, — dedi Turdi.

Olloquli ma'yus tovush bilan:

— Men ham qatordan qololmayman, — dedi.

— Mard yigitsanlar, bunga shubha yo'q, — dedi Sergey. — Lekin o'ylab ish qilish kerak. Bekmurodboyning qancha yigiti bor, qancha qorovullari bor, Uzukni qanday olib chiqish mumkin? Avval mana shu to'g'rida o'ylashaylik.

— Menda bir taklif bor, — dedi Qilichli, — Men Obodonni otasinikiga yuborgan edim. Iloji bo'lsa, Uzukdan xabar olaman, deb ketgan edi. Men unga tayinlab yubordim. Uzuk biror narsani bahona qilib hovlidan chiqsin. Keyin biz yordam beraylik. Berdi bilan birga yashirinsin.

— Mana bu boshqa gap! — dedi Sergey. — Unday bo'lsa, Obodonni kutaylik.

Ancha vaqt tashqariga quloq solib, jim o'tirishdi-yu keyin yana Berdining sabri chidamadi.

— Qilichli, sen mulla odamsan, Bekmurodboyning nomiga bir xat yoz. Biz uning niyatidan xabardorligimizni bilib qo'ysin. Agar Uzukka bir gap bo'lsa, keyin uning o'zi ham, ukalari ham tirik qolmaydi!

Sergey xat bilan ish bitmasligini sezsa-da, Berdining hovurini bosish uchun:

— Mayli, Qilichli, yoz, — deb, qog'oz-qalam keltirdi. — Bekmurodboy bilib qo'ysin. Yosh bolalik onaning joniga qasd qilish — aqlga sig'maydigan bir razillik. Agar buni el-yurt bilib qolsa, Bekmurodboydan nafratlanmaydigan odam qolmaydi. Yoz, Qilichli, agar ular Uzukni halok qilishsa, biz qotillarni hukumat oldida ham, xalq oldida ham fosh qilamiz. Ulardan norozi bo'lib yurgan kambag'allar ko'p. Hammasini qo'zg'atamiz, ana unda Bekmurodboy tor-mor bo'ladi. Mol-mulkini ochlar bo'lib oladi, qo'rasiga o't qo'yiladi! Yoz hammasini!

Qilichli do'stlarining aytganlarini satrlarga joylar ekan, o'zidan ham birmuncha qo'shdi: "Biz yosh bolalik Uzukka shikast yetmasin deb, shu vaqtgacha hovlilaringga bostirib kirmagan edik. Agar yovuz niyatlaringdan qaytmasalaring, boshlaringga balo yog'iladi, uylaringning kuli ko'kka sovriladi".

Nihoyat, xat bitdi. Qilichli uni buklab qo'yniga soldi-da, o'rnidan turdi.

— Kech kiribdi. Obodon yolg'iz o'zi kelolmayotgan bo'lsa kerak. Men borib qaynotamga bu xatni beraman, Bekmurodboyga topshiradi. Keyin Obodon bilan gap nimadaligini bilib qaytamiz.

— Bo'pti, biz seni kutamiz.

— Iloji bo'lsa, xatning natijasini bilib qayt.

— Harakat qilaman.

Yigitlardan biri Qilichliga otini berdi. Qilichli otni yeldirib, Bekmurodboylarning qishlog'iga qarab ketdi.

## KULFATNING OXIRI KO'RINMAYDI

Mardikorlikdan qochib kelayotgan Meli tug'ilib o'sgan qishlog'ining yo'lida ochlikdan o'lib yotgan odamlarni ko'rdi. U ota-onasidan olti oydan beri xat olmagan, ularning ahvoli yomonligini bilar, lekin, "ko'zlari ochiqligida yetib borarman" degan umid bilan jadallab kelar edi. Meli qishloqqa kirib kelganda ko'chada birinchi bo'lib uchragan hamqishlog'i — munkayib qolgan Annageldi usta bo'ldi. Rus ishchilariga o'xshab tujurka va furajka kiygan Melini usta avval tanimadi.

Meli:

— Men Xudoyberdi og'aning o'g'liman, mardikorlikdan keldim! — degandan keyin, usta u bilan quchoqlashib ko'rishdi-yu yig'lab yubordi.

Meli ota-onasi o'lganini ustadan eshitib, o'kirib yig'lay boshladi. Usta uni yupatishga tirishib, uyiga taklif qildi. Ammo Meli ko'nmadi:

— Men uyimizga boraman. Ukalarim...

— Qo'y, borma, o'g'lim. Ukalaring ketib qolgan. Uylaringni Bekmurodboy sotib olgan. Buzdirib, yog'ochini olib ketyapti.

— Hozir buzdiryaptimi? Ablahlar!

Mardikorlikda yurib ko'zi ochilib kelgan Meli oilasining baxtsizligiga Bekmurodboy sabab ekanini yaxshi bilardi. Otasi Sergeyga yozdirib yuborgan oxirgi xatida Bekmurodboy hatto Berdi sovg'a qilgan qo'ylarni ham undan tortib olib, shayxlarga berganini aytgan edi. Hozir buning hammasi Melining esiga tushdi. U shiddat bilan o'z hovlilariga qarab ketdi.

Bekmurodboyning odamlari og'ilxona bilan pichanxonani buzib, yog'ochni allaqachon olib ketishgan, endi Xudoyberdi og'a bolalari bilan ko'p yil istiqomat qilgan uyning tomini buzishga kirishgan edilar. Bu uy Meliga marhum ota-onasini eslatdi-yu, buzg'unchilar ularning aziz xotiralarini oyoqosti qilayotganday tuyuldi. Meli sakrab tomga chiqdi. Uyni buzayotganlardan birining qo'lidan cho'kichini tortib olib, pastga uloqtirdi, ikkinchisining belkuragiga chang soldi.

Yog'och tashiyotganlarning orasida To'rli ham bor edi.

U Melini tanib:

— Ukajon, biz xizmatkorlarmiz, xo'jayinimizning aytganini qilyapmiz, — dedi. — Xo'jayin bu uyni sotib olgan emish. Buzib, hovlining o'rniga ekin ekmoqchi emish. Borib, o'zi bilan gaplashgin.

— Gaplashaman! Lekin men kelgancha uyga qo'l tegizmanglar!

Meli Bekmurodboyni mehmonxonasidan topdi. Omonmurod, Safar va yana ikkita qorovul yigit ham shu yerda edi.

— Sizlarda insof bormi? — dedi Meli g'azabini yashirolmay: — Otamga o'tkazgan shuncha zulmlaring ozmidi? Uni aldab, meni mardikorlikka yuborganlaring ozmidi? Endi yosh go'daklarni ko'chaga quvib, uyimizni buzishga tushdilaringmi?

Bekmurodboy Melini tanigan bo'lsa ham, o'zini tanimaganga solib:

— Sen kimsan o'zing? — dedi. — Salom yo'q, alik yo'q, nima deb valdirayapsan?

— Men Xudoyberdi o'g'li Meliman! Bizning uyimizni buzishga nima haqqingiz bor? Odamlaringizni chaqirib oling! Bo'lmasa, hozir borib, hammasini tomdan urib qulataman!

— Bu juda quturib qaytganga o'xshaydi-ku! — dedi Omonmurod akasiga qarab.

— Qani, kuchini bir ko'raylik, — deb istehzoli iljaydi Bekmurodboy va narigi ikki yigitga buyurdi: — Buni anavi somonxonaga qamab qo'yinglar. Mardikorlikdan qochib kelgan bo'lsa, ertaga hukumatga topshiramiz. Qochgan joyiga qaytaradi. Olib boringlar!

Bekmurodboyning ikki yigiti Melining ikki tomonidan kelib, qo'llarini orqaga qayirmoqchi bo'lishdi.

Ammo Meli ularga bo'ysunmay, birini yelkasi bilan oyog'idan chalib yiqitishdi. Lekin to'rtovlashib Melini rosa urishdi, keyin qo'lini bog'lab, somonxonaga qamab qo'yishdi. Oradan ko'p o'tmay hassaga suyangan Annageldi usta kirib keldi. Bekmurodboy uning salomiga alik olib, yuziga savol nazari bilan tikildi. Usta shoshmasdan so'rashdi:

— Xudoyo tinchlik, xotirjamlik bo'lsin, el-yurt inoq, to'rt ko'z tugal bo'lsin! — deb, yuziga fotiha tortdi.

Shundan keyin u qo'ynidan Qilichli yozgan xatni olib, Bekmurodboyga uzatdi. Bekmurodboy xatni shoshilmay ochdi-yu, uch-to'rt satrini o'qigandan keyin, avzoyi birdan o'zgardi. Omonmurod bilan Safar xatga qiziqib qarab turishar edi. Bekmurodboy xatning oxiriga qarab, Berdi va Turdilarning nomini ko'rdi-da, burun parraklari titrab:

— Haromilar! — dedi. — Qayoqdandir hid olishibdi-da!

Bekmurodboy ukalariga yuzlanib xatning mazmunini aytar ekan, qalbida intiqom tuyg'usi avjlana boshladi.

— Biz undaqa haromilarning do'qidan qo'rqmaymiz, hammasini itday qiramiz!— dedi Omonmurod odatdagiday tez olovlanib.

Annageldi usta yerga qarab:

— Omonmurod, o'g'lim, siz archinsiz, xalqni murosa yo'liga boshlashingiz kerak, — dedi. — Ular ham mergan yigitlar emish. Behuda qon to'kilmasin. Hammamiz musulmon farzandlarimiz.

— Murosa qilaylikmi? — zaharxanda qilib so'radi Bekmurodboy va ustaga "siz qarib, aqlingizni yob qo'yibsiz!" deganday qarab qo'ydi. Ukasini o'ldirgan, qizining o'limiga sabab bo'lgan, Bekmurodboyning o'zini og'ir yarador qilgan shafqatsiz dushmanlar bilan qanaqa murosa bo'lishi mumkin? Bekmurodboy dushmanlarining xatidan bir narsani sezdi. Hozir ular xavotirlanib ich-etini yeb o'tiribdi. Sir oshkor bo'lgani Bekmurodboyni ko'ngilsizlantirsa ham, ammo dushmanlarining tahlikaga tushgani unga yoqardi. Bekmurodboy Uzukni ilgari o'ldirtirmasa ham, endi o'ldirtiradi. Chunki bu o'lim dushmanlariga nihoyatda og'ir zarba bo'lib tushishini u hozir juda aniq sezyapti. Faqat ehtiyot shart. Dushmanni beparvo qilib turib, bu ishni kutilmaganda amalga oshirish kerak.

— Usta og'a, biz sizning murosa haqidagi gapingizni o'ylab ko'raylik, — dedi Bekmurodboy.

— Xayriyat! Men sizning aqli raso odam ekanligingizga ishonaman, Bekmurodboy. Bu xatning javobini qachon berasizlar?

— Erta... yo indin.

Annageldi usta chiqib ketgandan keyin Bekmurodboy Safarga qarab:

— Eshikni yop, — dedi. — G'alvirda suv turmaganday, bizning hovlida sir turmaydi. Bilib qo'yinglar, men ustaga jo'rttaga shunday dedim. Dushmanlar erta-indingacha javob kutib turaversin. Biz ishni shu kecha bitirishimiz kerak!

Omonmurod xiyol ikkilandi:

— Bola nima bo'ladi, aka? Hali ham tuzalgan emas!

— Bolami, inim, o'zi tuzatib oladi. U xotin jo'rttaga bolani kasal qilayotgan bo'lishi mumkin.

— To'g'ri aytasiz, aka. Men hozir borib, bolani onamga olib borib beraman.

— Shoshma, avval boshqa narsalarni maslahatlashib olaylik. Sen hovlining atrofiga qorovul qo'ygin. Boyagi ikkita yigit tomning ustida poyloqchi bo'lib turadi. Omonmurod, xotiningni o'zing saranjomlaysan. Safar bilan yana bir yigit To'rliga pichoq uradi. Bilib qo'yinglar. Zino paytida qo'lga tushganlar yelkasidan pichoq yeyishi kerak. O'lganlaridan keyin ishtonlarini yechib olib, yonma-yon qo'yinglar... Odamlar o'z ko'zlari bilan ko'rsin. Ana undan keyin xaloyiq ularning o'ligini ham toshbo'ron qilib yuboradi.

Maslahat tugagandan keyin Omonmurod mehmonxonadan chiqib, to'g'ri Uzuk turadigan uyga bordi. Uzuk bolasining beshigi ustiga engashib, uni emizmoqda edi.

— Qani, bas qil! — o'shqirdi Omonmurod. — Bola bugun onamning oldida yotadi.

Uzukka uning g'ilay ko'zlari jallodning ko'zlariday vahimali ko'rindi. U beshikni quchoqlab:

— Men bolani bermayman! — dedi.

Omonmurod uning och biqninga bir tepgan edi, Uzukning ko'zi tinib, a'zoyi badani bo'shashib ketdi. Omonmurod uni beshikning ustidan yulib olib, bir chetga uloqtirdi-da, chirillab yig'layotgan bolani beshigi bilan ko'tarib, uydan chiqdi.

Uzuk bolasining qo'rqib yig'layotganidan tez o'ziga o'ziga keldi. Boshyalang, oyoqyalang Omonmurodning ketidan yugurdi. Ammo uni oq o'tovga kirgizmadilar. Uzuk uvvos solib yig'lab, orqasiga qaytdi. O'z uyining derazasidan mo'ralab turgan To'rli Uzukning oldiga kelishga jur'at etolmas edi.

Boya ko'chada To'rli Obodon bilan Qilichlini ko'rgan edi. Qilichli Bekmurodboyning "murosa haqida o'ylab ko'ramiz" degan javobini Annageldi ustadan eshitib, do'stlarining oldiga mamnun bo'lib qaytgan edi. To'rli ham "zora tinchib ketsak" deb umidvor

bo'lib o'tirgan edi. Hozir Omonmurodning qilgan ishini ko'rib, Bekmurodboy Qilichlilarni ataylab aldaganini To'rli ich-ichidan sezdi.

Nima qilish kerak? To'rli somonxonada qamalib yotgan Melini esladi. Og'ilxona bilan somonxonaning orasida odam zo'rg'a sig'adigan tuynuk bor edi.

To'rli sekin og'ilxonaga bordi. Haligi tuynukka tiqib qo'yilgan bedani tortib tushirdi.

... To'rlining sharpasini sezgan Meli darrov tuynukning oldiga keldi. To'rli uning qulog'iga shivirladi:

— Meli, men To'rliman. Ahvoling qalay? Qochishga yaraysanmi?

— Yarayman!

— Bo'lmasa, sekin shu tuynukdan chiqib, to'g'ri Egriguzar to'g'oniga bor. Qilichlini bilasanmi?

— Bilaman.

— Uning o'ris o'rtog'ini-chi?

— Bilaman.

— Ana o'shalarga xabar ber. Boylar bugun Uzukning bolasini chirqiratib tortib olishdi. Niyatlari buzuq. Qon to'kiladiganga o'xshaydi. Shuni borib ayt.

— Xo'p, aytaman.

To'rli hovlidagi qora ko'ppakni bir chetga boshlab ketdi. Meli tuynuk orqali og'ilxonaga o'tib, keyin devordan tashqariga oshib tushdi-yu, to'g'onga tomon shoshildi.

* * *

Bu orada Bekmurodboy qurolli qorovullar va yollangan yigitlarini mehmonxonaga to'plab, hammasiga topshiriq berdi. Kim qayerda soqchilik qilishi aniqlangandan keyin, miltiq taqqan yigitlarining ikkitasi darvozadan tashqariga chiqib ketdi, ikkitasi tomning ustiga bosilgan pichanning panasiga o'tdi, bittasi yantoq bosilgan joyda qoldi.

Tun yarmidan oshganda Bekmurodboy To'rlining uyi tomonga o'tdi. Omonmurod, Safar va yana bir yigit Uzuk yot-

gan uyning dahliziga kirib poyloqchilik qila boshladilar. Chirog'ini o'chirib, uxlamay o'tirgan Uzuk pichog'ining sopini mahkam qisib, eshikdan uzoqroq bir burchakda titrab-qaltirab turardi.

O'z uyida yotgan To'rli ham uxlamagan edi. Eshik taqillagach, To'rli o'rnidan ko'tarilib:

— Kim? — deb so'radi.

— To'rli, bu men, — dedi Bekmurodboy muloyim tovush bilan. — Hozir shaharga jo'naydigan bo'lib qoldim. Turib faytonni qo'shgin.

To'rli pichog'ini qini bilan beliga taqib, tashqariga chiqdi.

— To'rli, otlarga eski yuganni urmagin, — dedi Bekmurodboy. — Uzilib-netib, kechasi qorong'ida ovora qiladi. Kumush qadalgan yangi yuganlarni urgin.

— Uni qayerdan olaman, boy og'a?

— U yuganlar Omonmurodning kichik xotini yotgan uyda turibdi. Darrov kirib olib chiq.

To'rli Bekmurodboyning mudhish rejasini sezdi-yu, ovozi xiyol titrab:

— Boy og'a, yosh juvonning uyiga kechasi men qanday kiraman? — dedi.

— Men buyurganimni ayt, topib beradi. Bo'l tezroq. Muncha imillaysan?

To'rli Uzuk turgan tomonga borayotib pichog'ini qo'liga oldi. Shu payt somonxona tepasidan yig'i ovozi yangradi.

Darvoza tashqarisida allakimning jon achchig'i bilan dodlagani eshitildi.

"Meli to'g'on boshiga yetib borib, Berdilarga xabar berishga ulgurgan ekan-da!" degan fikrdan To'rlining butun vujudi yayrab ketdi.

Bekmurodboy to'pponchasini cho'ntagidan ola solib, darvoza tomonga yugurdi. Buni ko'rgan To'rli tez orqasiga qaytib, o'zini devorning panasiga oldi.

Darvozaning tashqarisidagi qorovullar o'tirib uxlab qolgan edilar. Turdi bilan Olloquli ularning birini boshiga qo'ndoq bilan

urib jim qilgan, ikkinchisini ag'anatib, og'ziga latta tiqishayotgan paytda birdan dodlab yuborgan edi.

Bekmurodboydan qasd olish ishtiyoqida yonib yurgan Meli ham Berdilarga qo'shilib, qurollanib kelgan edi. Meli bilan Berdi hovliga tomdan oshib tushmoqchi edilar. Pichanxonaning tomi baland emas edi. Pichan ichida o'tirib ko'zlari ilingan soqchilar Berdilarning sharpalarini sezib qolishdi. Soqchilardan biri uyqu aralash miltig'ining tepkisini bosgan edi, o'q otilib ketdi.

Mo'ljalsiz otilgan bu o'q hech kimga tegmadi. Ammo Berdining soqchilarni mo'ljalga olib otgan to'pponchasi ularning birini darhol yiqitdi. Ikkinchi soqchi o'zini pastak tomdan hovliga tashlab qochdi.

Uzukning dahlizida pusib turgan Omonmurodlar ham hovliga chopib chiqdilar. Hovlidan ustma-ust otilgan o'qlarning biri tomdagi Melining beliga tegdi. Berdi uning ingrab yiqilganini ko'rdiyu, bo'g'ot chetiga yotib, Melini tomning naryog'iga sudrab olib bordi.

Bekmurodboy darvoza tomonda o'q otmoqda edi. Turdi bilan Olloquli Berdi chiqqan tomning ortiga chopib keldilar. Berdi pastga engashib:

— Melini sekin tushirib olinglar! — dedi.

— Yarador bo'ldimi? O, bechora-yey!

Meli behush edi. Uni tomdan hovli tashqarisiga tushirib olganlaridan so'ng, Berdi ham sakrab tushdi. Berdilar yarador bilan ovora bo'lib qolganini sezgan Omonmurod birdan dadillandi. Hamma yigitlarini darvozadan tashqariga boshlab chiqdi:

— Aka, siz chetroqda turing, biz hozir haromilarni tutib kelamiz! — dedi u Bekmurodga. Omonmurod darvozadan besh-o'n qadam nariga bormasdan qarshisidan o'q yog'ila boshladi. Soqchi yigitlardan yana biri o'q tekkan bilagini changallab, miltig'ini yerga tushirib yubordi. Omonmurod tap tortmay oldinga intilmoqda edi. Turdi bilan Berdi otayotgan o'qlardan biri uning qorniga tegdi. Omonmurod o'mbaloq oshib yiqilib tushdi. Shunda Bekmurodboy chopib kelib, ukasini yerdan ko'tardi. Safar ikkalasi Omonmurodni

darvozadan ichkariga olib kirib ketar ekan, qolganlar ham chopa-chopa hovliga qaytib kirdi.

Berdi behush yotgan Melining belini mahkam bog'ladi. U Bekmurodboyning tunda qorayib ko'rinayotgan qo'rg'oni hali mustahkam ekanini, bugun bu qo'rg'onni ololmasligini sezib turardi. Berdi sakrab otiga mindi. Do'stlari yarador Melini uning orqasiga mindirib, belidan tang'ib qo'ydilar. Keyin hammalari otlanib, to'g'onga qarab ketdilar.

Bir yigiti o'lgan, ukasi va yana bir yigiti yarador bo'lgan Bekmurodboy o'zi bilan o'zi bo'lib Uzukni hozircha unutdi. Dushmanlari u o'ylagandan kuchliroq, sezgirroq ekani, Annageldi usta keltirgan xatdagi gaplar quruq po'pisa emasligi unga endi ayon edi.

Bu voqealar ming to'qqiz yuz o'n yettinchi yilning oktabr oyida, jahonni larzaga keltirgan tarixiy to'ntarishga sanoqli kunlar qolganda yuz bermoqda edi...

## MUNDARIJA

Tarixiy davr ko'zgusi *(Abdulla Ulug'ov)* ..... 3

## BIRINCHI KITOB

Gilam to'quvchi qiz ..... 16
Ko'ch kelarmi yo go'zal? ..... 17
Asal bor joyda pashsha ham bo'ladi ..... 26
Sirli chaqiriq ..... 33
Ko'rgilikmi? ..... 38
Zamona zo'rniki ..... 45
Dahshatli tun ..... 57
Bo'ri bo'riligini qiladi ..... 64
Boy boyga boqar ..... 75
Tashi yaltiroq, ichi qaltiroq ..... 83
Egalik hujra ..... 96
Qozoniga yarasha qopqog'i ..... 108
It tekkan bilan daryo harom bo'lmaydi ..... 114
Enaqutining eng zo'r "o'yini" ..... 124
Qochgan ham Xudo deydi, quvgan ham ..... 134
Har kim o'z ko'mochiga kul tortadi ..... 140
Axalda ..... 142
O'g'illariga munosib ona ..... 165
Subhon xasisning "siylovi" ..... 171
Mardikor bozori ..... 179
Kambag'alni tuyaning ustida it qopadi ..... 189

Yotib qolguncha, otib qol! ..... 203
Turdi ish izlaydi ..... 216
Jon saqlaydigan joy bormi? ..... 228
Bekmurodboy yana qonsiraydi. ..... 239
So‘nggi chora ..... 253

## IKKINCHI KITOB

G‘animning g‘azabi ..... 258
Oq uy ..... 261
Ashxobodda ..... 267
Bergan Xudoga yoqibdi ..... 273
Kuyovlik azobi ..... 280
Tulkisiga yarasha tozisi ..... 288
Qabrdan tirik chiqqanmi? ..... 293
Qo‘rqinchli qadam ..... 300
Avliyoning qudrati ..... 308
Alamli yurak tosh bo‘lar ..... 317
Bekmurodboyning tuzog‘i ..... 320
Boshi aylangan yo‘l tanimaydi ..... 328
Qo‘rqoqni quvsang, botir bo‘l! ..... 335
Yorug‘ deraza ..... 342
Otishma ..... 348
Ichi qora ko‘zi qoradan kuladi ..... 363
Kuzga o‘xshagan bahor ..... 368
Yashil qalamli yoshulli ..... 376
Pristavning huzurida ..... 382
Alamzada chayon o‘zini o‘zi chaqadi ..... 390
Sinalmagan otning sirtidan o‘tma ..... 398

Egri qoziqqa egri to‘qmoq ..... 407
Kundoshlik uy ..... 417
Qassobga yog‘ kerak, echkiga — jon ..... 429
Enaquti o‘lja izlaydi ..... 436
Bekmurodboy so‘zidan qaytadi ..... 443
Qo‘zg‘algan yurak ..... 451
Do‘stdan ko‘p dushman ..... 456
Vayron bo‘lgan yurt ..... 462
Kulfatning oxiri ko‘rinmaydi ..... 467

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

# XIDIR DERYAYEV

## 95-jild

*Adabiy-badiiy nashr*

Tarjimon
*Pirimqul Qodirov*

Muharrir *Lola Fattoyeva*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Munisa Ismoilova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva,*
*Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 30,0. Nashriyot-hisob tabog‘i 27,85.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 161-1/22. Buyurtma raqami № 22-378

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
“O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

X 47 Xidir Deryayev [Matn]: nasr/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Abdulla Ulug'ov. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 480 b.
ISBN 978-9943-8721-2-7

**UO'K 821.512.164-3**
**KBK 84(5Tur)**

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

# XIDIR DERYAYEV